



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY VILOYAT HOKIMLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“IQTIDORLI YOSHLAR – INTELLEKTUAL, IJODIY ELITANI  
YARATISHNING KAFOLATI: AKADEMIK MOBILLIK VA  
XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
MATERIALLARI**



**26-aprel, 2024-yil  
Navoiy shahri**



“Iqtidorli yoshlar - intellektual, ijodiy elitani yaratishning kafolati: akademik mobillik va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi talabalarning Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2024. – 605 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘iga asosan Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi 2024-yil 26-aprel kuni o‘tkazilgan “Iqtidorli yoshlar - intellektual, ijodiy elitani yaratishning kafolati: akademik mobillik va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi talabalarning Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, yosh olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

### **Mas’ul muharrirlar:**

B.Sobirov – Texnika fanlari doktori, professor.  
D.Narzuqulova – Pedagogika fanlari doktori DSc, professor

### **Taqrizchilar:**

T. Nurmurodov Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori.  
Sh.Toshturov – Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida dotsenti v/b., Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

### **Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

A.Xoshimov – Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkilotish bo‘limi boshlig‘i  
F.Sayfullayeva – Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi muhandisi

### **Texnik muharrir:**

M.Norqobilov – Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida dotsenti v/b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ma’ruzalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar ma’suldirlar.

## TALABALARNING TARMOQ TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMDAN FOYDALANISH METODIKASI

**B.B.Mo'minov - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, O'zbekiston.**

**D.D.Djurayev - Navoiy davlat pedagogika instituti. Navoiy, O'zbekiston.**

### Annotation

This article describes a method for using self-directed learning to develop students' networking competence.

**Key words:** network, reproductive, productive, partially research, creative.

### Аннотация

В данной статье описывается метод использования самостоятельного обучения в развитии компетентности студентов в области сетевых технологий.

**Ключевые слова:** сетевой, репродуктивный, продуктивный, частично исследовательский, креативный.

### Annotatsiya

Ushbu tezisdagi talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta'limdan foydalanish metodikasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarmoq, reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashuvi tufayli bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o'qituvchilarining tarmoq texnologiyalariga oid mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasini takomillashtirish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Ushbu zaruratning paydo bo'lishi, tarmoq texnologiyalarining faol paradigmasiga o'tishi sababli mustaqil ishning yangicha yondashuvlarini tadbqiq etish bilan bog'liq. Mustaqil ta'lim va mustaqil ish tarmoq texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil etishning yetakchi shakliga aylanadi, shu bilan birga uni faollashtirish muammosi paydo bo'ladi.

Shuning uchun tarmoq texnologiyalaridan bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o'qituvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish zarurati paydo bo'ladi.

Bugungi kunda bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o'qituvchilarining kasbiy fanlardan, jumladan "Tarmoq texnologiyalari" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda topshiriqlar asosan referat yozish, mavzuni takrorlash, prezentatsiya tayyorlash kabi ko'rinishlarda berilib, bu ularning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini susaytirib yubormoqda. Aslida, mustaqil ta'lim faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, natijada bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o'qituvchilari ushbu jarayonda mustaqil olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyati sezilarli darajada oshishi lozim. Buning uchun mustaqil ta'lim faoliyatini amalga oshirishda, ularga yordam beradigan zamonaviy usullarni, mexanizmlarni va texnologiyalarning joriy etish kerak bo'ladi [1, 3]. Bunday usullar albatta, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o'qituvchilarining mustaqil faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib, o'z navbatida ularning qiziqishini, o'quv jarayonidagi faolligini hamda ta'lim sifatini oshiradi [3, 4].

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o'qituvchilarining "Tarmoq texnologiyalari" fanidan mustaqil ta'limi – bu o'quv jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bunda ular kasbiy faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, kasbiy fazilatlarini shakllantirish (mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati), muammolarni mustaqil ravishda bartaraf etish, konstruktiv yechimlarni hamda turli vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni o'rganadilar.

Shu bois, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o'qituvchilarining "Tarmoq texnologiyalari" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish, buning uchun esa ularning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish lozim.

Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o‘qituvchilarining “Tarmoq texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish uchun, virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, mazmunan qiziqarli va talabalarning mustaqil ishlashi hamda amaliy torshiriqlarni bajarishga qaratish, bunda reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli va kreativ darajadagi topshiriqlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish samarali hisoblanadi [4, 6].

Talabaga beriladigan reproduktiv darajadagi topshiriqlar kompyuter xonasida mavjud global tarmoqqa ulanish, qurilma brouzeriga akkaunt qo‘shish va uni sozlash, google ilovalaridan foydalanish, videokonferensiya tashkil qilish, internetdan yuklab olish kabi sodda vazifalarni bajarishga qaratilgan. Bunda talabalar mashg‘ulotlarda egallagan bilimlari va mustaqil ishni bajarish ko‘rsatmasidan foydalanadi. Ushbu darajadagi topshiriqlarni baja olgan talaba, sohaga oid motivatsiyasi oshadi va navbatdagi vazifani bajarishga harakat qila boshlaydi. Natijada, talabalarning tarmoq texnologiyalarga oid berilgan murakkabroq vazifalarni bajarish xohishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi.

Shuningdek, talabalarga produktiv darajadagi topshiriqlar ham berib boriladi. Bunda talabalar tarmoq texnologiyalaridan nafaqat foydalanish, balki kompyuter tarmoqlarini qurish, lokal tarmoqni boshqarish, brauzerlarda ishlash, mobil internetni sozlash kabi amaliy vazifalarni bajaradi. Talabalar ushbu darajadagi topshiriqlarni bajarishi jarayonida professor-o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatmalardan foydalanmay, o‘zi mustaqil ishlaydi va zarur holatlardagina maslahat oladi. Bu esa talabalarni reproduktiv darajadagi topshiriqlarni bajarishga nisbatan ko‘proq izlanishga undaydi. Ushbu darajadagi topshiriqlarni berish orqali, talabalarning bilim darajasini aniqlash, undagi kamchiliklarni bartaraf etishga erishiladi. Natijada, talabalarda hamkorlikda ishlash, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z ustida ko‘proq ishlash qobiliyati rivojlanadi.

Shu bilan birga, mustaqil ta’limni tashkil etishda talabalarga qisman-izlanishli darajadagi topshiriqlar berib boriladi. Bunda talabalarga tarmoq texnologiyasi sohasida uchraydigan muammolarni aniqlash, akkaunt va kompyuter tarmog‘i xavfsizligini ta’minlash, uni bartaraf etish ketma-ketligini rejalashtirish va qisman hal etishga qaratilgan topshiriqlar beriladi. Bunday darajadagi topshiriqlar kichik tadqiqot o‘tkazish, ma’lumot to‘plash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Talabalar qisman-izlanishli darajadagi topshiriqlarni bajarishda qo‘yilgan vazifa bilan bog‘liqlikda muammoni bartaraf etish yo‘llarini mustaqil izlash va professor-o‘qituvchining qisman ko‘magi yordamida muammoni hal etishadi. Natijada talabalarning tarmoq texnologiyasiga oid muammolarni bartaraf etishning bir nechta usullarini qo‘llay olish, mustaqil va ijodiy fikr yuritish qobiliyatlari rivojlanadi.

Shuningdek, talabalarga kreativ darajadagi topshiriqlar berib boriladi. Bunda talabalarga tarmoq muammolarini bartaraf etish, onlayn darslarni tashkil etish, masofaviy kurslarda o‘qib sertifikatga ega bo‘lish kabi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan. Kreativ darajadagi topshiriqlar talabalarni zamonaviy fikrlashga, ijodkorlikka va masalani hal qilishning o‘ziga xos yechimlarni topishga undaydi. Bunday topshiriqlarni berish orqali, talabalarning ijodiy, yaratuvchanlik, tadqiqotchilik qobiliyatini va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishiladi.

Shunday qilib, talaba bu darajadagi topshiriqlarni bajarishi natijasida tarmoq texnologiyalariga oid bilim, ko‘nikma va malakasi oshadi, kognitiv qiziqishlari, kompetentligi hamda individual ta’lim olish qobiliyati rivojlanadi [3].

Xulosa qilib aytganda, talabalarning tarmoq texnologiyalaridan mustaqil ta’limini amaliy loyihalarni bajarishga yo‘naltirish, uni tashkil etishda axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi [4, 5, 6]. Shuningdek, Milliy va xalqaro darajadagi masofaviy kurslarda mustaqil ta’lim olishga alohida e’tibor qaratish orqali, talabalarning ushbu sohaga bo‘lgan motivatsiyalarini oshirish va kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ермолович Е.В. Методика организации самостоятельной работы будущих учителей информатики в процессе изучения дисциплины “Программное обеспечение

ЭВМ”// Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Красноярск, 2003. – 28 с.

2. Қаршибоев Х.К., Тоғаева Д. Мустақил таълим – таълим жараёнининг таркибий қисми сифатида // Guliston davlat universiteti axborotnomasi, 2018. № 3. 36-39 б.

3. Маняхина В.Г. Организация самостоятельной работы будущих учителей информатики с позиций компетентностного подхода // Новые информационные технологии в образовании. Международная научно-практическая конференция [Текст] : материалы конф., 26-28 февр. 2008 г. С.149-151.

3. Toxirov F.J. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. Qarshi.-2022.

4. Ҳайитова И.И. Ахборот таълим муҳитида талабалар мустақил ишларини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш (Техник тизимларда ахборот технологиялари фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – Қарши, 2022. – 56 б.

5. Яхшибоева Д.Т. Бўлажак биология ўқитувчиларининг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш (биотехнология фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. – Чирчиқ, 2022. – 47 б.

## NAVOIY IJODIDA “SAXOVAT” UMUMIY MA’NOLI ATOV BIRLIKLARNING QO‘LLANISHI

### O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “saxovat” umumiy ma’noli leksemalarning Navoiy ijodida qo‘llanishi, uning saxovatpeshaligini ko‘rsatib beruvchi asarlari haqida zamondoshlarining fikrlari bayon etilgan. Bugungi kunda ushbu asarlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi, yosh avlod uchun tarbiya metodologiyasi bo‘lib xizmat qilishi aks ettirilgan.

**Абстракт.** В данной статье описано употребление общей лексемы “щедрость” в творчестве Навои, мнения современников о его произведениях, показывающих его щедрость. Показано, что эти произведения не потеряли своего значения и сегодня и служат образовательной методикой для подрастающего поколения.

**Abstract.** In this state, the use of the common lexeme “generosity” is described in Navoi, mneniya sovremennikov o ego proizvedeniyax, pokazyvayushchix ego shchedrost. It is shown that the production of this product does not lose its meaning even today, and it serves as an educational method for the younger generation.

**Kalit so‘zlar:** saxovatpeshalik, “saxovat” umumiy sema, oliyhimmatlilik, saxovatlilik, mavzuiy guruh.

**Ключевые слова:** щедрость, “щедрость” — общий термин, великодушие, щедрость, тематическая группа.

**Keywords:** generosity, “generosity” is a general term, magnanimity, generosity, thematic group.

Alisher Navoiy, nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun dunyo, Sharq-u G‘arb xalqlarini o‘ziga rom etgan shoir. U kishining asarlarini hamma birdek sevib o‘qiydi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Navoiyni o‘qish, Navoiyni anglash, Navoiyni chuqur bilish – o‘zligimizni anglash desak, bu – to‘g‘ri gap” [1], deya ta’kidlar ekanlar, nihoyatda dolzarb va tafakkur bilan, ma’rifat bilan amaliyot darajasiga ko‘tariladigan botiniy-ruhiy tajribani yoqlagandi.

Ulug‘ mutafakkir, ma’rifatparvar olim Alisher Navoiy sabr, qanoat, insof, oriyat, vijdon kabi tushunchalar orqali insonlar ma’naviy tarbiyasiga alohida e’tibor bergan. Yoshlarni ilm-hunar o‘rganishga va o‘rganganlarini esa ezgulik yo‘lida sarf qilish zarurligini uqtiradi.

Navoiyning har bir asarida tarbiya, odob, axloq haqida fikr yuritib, uning axloqiy xususiyatlarini yoritib o‘tadilar.

Alisher Navoiyga zamondosh bo‘lgan barcha shoir-u allomalar ulug‘ ijodkorning nihoyatda saxovatli inson bo‘lganligi haqida ma’lumot berganlar.

Bugungi maqolamizda Navoiyning qanchalik darajada saxovatli inson bo‘lganligini ochib bermoqchimiz. Avvalo, saxovat so‘ziga ta’rif bersak:

SAXOVAT – [qo‘li ochiqlik, oliyhimmatlik, saxovatlilik] *Kimxobni kiyib olgach, domla Niyoz “saxovatda Hotamtoydan, adolatda Nushiravoni odil” dan ortiqroq u ot janobning haqiga yana yangi duo va sanolar to‘qidi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. [2]*

“Saxovat” leksemasi *saxiylik, oliyhimmatlilik, saxovatpeshalik, qo‘li ochiqlik, karamlilik, marhamatlilik, hotamtoylik* kabi semalarga ega. Ushbu semalarning har biri ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyga xos fazilatlaridir. Navoiyning o‘z asarlarida ham, u haqida yozilgan asarlarda ham “saxovat” leksemasi va uning semalari mavjud. Uni quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratgan holda tahlil qildik.

“Ma’naviyat” leksik kategoriyasining “saxiylik” ma’noviy guruhi ijobiy va salbiy xususiyatlarni o‘zida jamlab quyidagi mavzuiy guruhlariga bo‘linadi.

1. “Saxovat” mavzuiy guruhi.

1.1. “Hotamiylik” ma’noviy uyasi: *himmati baland, kimsaga himmatini, yaxshilikni ayamaydigan; saxovatli, yaxshilik, muruvvat, saxovatli, qo‘li ochiqlik, oliyhimmatlik, saxovatlilik;*

1.2. “Muruvvat” ma’noviy uyasi: *axiylik, saxovatpesha, juvonmardlik, balandhimmatlilik, saxovat, oliyhimmatlilik, saxovatpeshalik, qizg‘anmaslik, obro‘-e‘tibor; saxovat, saxiylik, muruvvat qiluvchi, saxovatli, himmatli, muruvatli, muruvatpesha;*

2. “Baxillik” mavzuiy guruhi:

2.1. “Ochko‘zlik” ma’noviy uyasi: *xasis, ziqna, ko‘zi och, birovlar hisobiga yashovchi, ochko‘z, tekinox‘r, shafqatsiz odam, molga, dunyoga berilgan, fikri-zikri mol bo‘lgan odam; dunyoparast;*

2.2. “Qizg‘anchiqlik” ma’noviy uyasi: *o‘taketgan xasis, qizg‘anchiq, mumsik, xasislik, qizg‘anchiqlik, qurumsoq, darig‘ tutmoq, hayf ko‘rmoq; qizg‘anmoq, birovga hech narsani ravo ko‘rmaydigan; sarf-xarajatni yoqtirmaydigan; xasis, qizg‘anchiq;*

Saxiylik bilan bog‘liq leksemaning umumiy xususiyatlari va og‘zaki hamda yozma nutqida va ilmiy va badiiy asarlarda qo‘llanishi kontekst bilan bog‘liq holda qo‘llanadi”. [3]

Avval Navoiyning o‘z asarlarida saxovat haqida fikrlarini tahlil qilamiz.

“Hayrat ul-abror”dagi bir maqolatda musulmon kishining karamli, saxiy bo‘lishi lozimligiga urg‘u beradi. Kitobxon qalbida saxovatning ulug‘ insoniy fazilat ekanligiga bo‘lgan ishonchni bevosita baxillikning salbiy illat ekanligini yorqin ifoda etish orqali shakllantiradi:

*Buxl erur borcha sifatdin xasis,*

*Lek saxo javhari asr-u nafis. [H.A. –B.125]*

Ushbu baytda *saxovatlilik* va *karamlilik* semalari saxovat umumiy semali atov birliklarini shakllantirib, baytga didaktik ruh bergan. Shu bilan bir qatorda “baxillik” mavzuiy guruhining ma’nolarini ochib bergan.

*Himmat agar bo‘lsa Navoiy sanga,*

*Banda durur Hotami Toiy sanga. [H.A. –B.113]*

“Hayrat ul-abror” asaridagi ushbu misralarda *himmatlilik* semasi saxovat mavzusini shakllantirishga hissa qo‘shgan.

Endi Navoiy haqidagi asarlarda uning saxovatpeshaligi yoritilganini ko‘rib chiqamiz. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari to‘laligicha Navoiy shaxsiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Hazratning bir qancha go‘zal fazilatlariga haqida aytib o‘tilgan.

Asarda qator hikoyatlar keltiriladi. Masalan, uning urushda asir tushgan kishilarga marhamati, Hirot xalqini Xorazm viloyatiga ko‘chirishni qisqartirishga erishishi, shahzoda Muhammad Muhsin Mirzoga butun g‘allalarini berib yuborganligi Navoiyning oliyhimmat, saxovatpeshaligining yana bir isboti.

Xondamirning aytishicha: “Ammo cheksiz ochiqqo‘llik va saxiylik xislatiga ega bo‘lishiga qaramasdan hech qachon hech kimga bir arpa donichalik ham minnat qilmasdi”. [4] Hazrat Navoiy asarlarida saxiylikni targ‘ib qilib, o‘zi ham shu fazilatlarga ega shaxs bo‘lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Alisher Navoiy shaxsiyati va asarlari o‘z zamonasida ham, bugungi kunda ham o‘rnak, namuna bo‘la oladi desak, adashmagan bo‘lamiz. Ayniqsa, Hazratning saxovatligi har birimiz o‘rnak olsak arziydigan fazilati hisoblanadi. Chunki, ko‘pchilik ijodkorlar o‘zi yozganlariga amal qilmaydi. Navoiy Hazratlari esa yozganlariga amal qilgan ijodkorlardan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sobirov B. Asrlarni bo‘ylagan daho. Alisher navoiy ijodiy merosining bashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Navoiy, 2021. 4 -bet
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. – Тошкент: Ўз МЭ, 2008. – Б. 622
3. Yuldashev F “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: semantikasi, strukturasi va leksikografik talqini”: Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – B. 52
4. Xondamir G‘. Makorim ul-axloq. Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent, 2018. – B. 230.
5. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти – Тошкент, 1989. – Б. 262

### **TA’LIMNING TURLI BOSQICHLARI VA YO’NALISHLARINI RAQAMLASHTIRISH VA YOSH AVLODNI INSONIY FAZILATLARDA TARBIYALASH**

**Abdunazarov Jasurbek O‘tkir O‘g‘li**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**Tarix fakulteti talabasi**  
**Ilmiy rahbar : Xayitov Zafar**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**“Tarix” kafedrasida dotsenti**

#### **Anotatsiya**

Maqola mamlakatimizning ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, yangiliklar kiritish va yoshlar o‘rtasida insoniy fazilatlarni yaratish ma’naviy va axloqiy tarbiyasini shakllantirishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli ta’lim, texnologiya, elektron, onlayn, virtual, Bulutli platforma, IT, transformatsiya, immunitet, axloq.

**Annotation.** The article is devoted to the development of digital technologies in the educational system of our country, the introduction of innovations, and the formation of spiritual and moral education for the creation of human qualities among young people.

**Keywords :** digital education, technology, electronic, online, virtual, Cloud platform, IT, transformation, immunity, ethice.

Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonining xususiyatlari shuningdek, universitetlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi ahamiyati jadal o‘zgarib bormoqda. Butun dunyoda universitetlar talabalar, o‘qituvchilar moliyaviy mablag‘larini jalb qilishda bir-biri bilan raqobatlashmoqda. Bunday raqobatda zamon bilan hamnafas va yangi raqamli imkoniyatlardan foydalanuvchi oliy o‘quv yurti boshqalariga nisbatan ustunlikka ega bo‘lib bormoqda. Zamonaviy universitetning barcha bog‘liq jarayonlari raqamli texnologiyalar asosida barpo qilinishi lozim. Bu abituriyentlar bilan ishlash o‘quv jarayonini va ta’lim sifatining tahlilidan boshlanib bitiruvchilarning ishga joylashishi, monitoringi va ishda ko‘tarilish bilan tugaydigan katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarishga o‘tishga talab qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tizimli va izchil ravishda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar o'z natijasini ko'rsatmoqda. Universitetlarimiz akademik va moliyaviy mustaqillikka erishdi, o'zining maqsad va vazifalarini belgilab zamon talablariga moslashish hamda bugungi kun va kelajak uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatiga egadir. Amalga oshirilayotgan islohotlarning shu asnoda davom ettirilishi ta'lim tashkilotlari tomonidan ko'rsatilib o'tilgan oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalar ijrosi sifatli taminlashi mamlakatimizda ta'limning yuqori cho'qqilariga chiqishga va eng asosiysi yoshlarimiz xalqaro miqsoyda raqobatdosh bo'la oladigan yuqori malakali kadr bo'lib yetishishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalar va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi maktabgacha ta'lim vazirligi va sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2020-yil yakuniga qadar 13 ta namunaviy tumanlarda IT infratuzilmasini yaratish, kompyuter uskunalari bilan jihozlashni nazarda tutgan holda maktabgacha va umumta'lim maktablari hamda sog'liqni saqlash muassasalarini raqamlashtirishni yakunlash bo'yicha choralarni ko'rish, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish va mas'ul xodimlarni o'qitishni tashkil etish to'g'risida prezident farmoni ishlab chiqarildi. 2021- yil 1-yanvardan boshlab fuqorolar tomonida tizim boshqariluvini, ma'lumotlar bazasi va "Bulutli" platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarda xalqaro IT sertifikatlarini olish xarajatlarining 50% bo'lgan qismini qoplash tizimi joriy etildi.

Axborot texnologiyalari sohasida masofaviy onlayn va virtual o'qitish texnologiyalari joriy etish va raqamlashtirish, onlayn kurslar uchun platformalar, oliy ta'lim muassasalarda sohalarda "Buyumlar interneti" robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarini ushbu sohaga jalb qilish maktab va maktabgacha ta'lim tizimiga raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar bo'yicha innovatsion oliy dasturlarni joriy etish bo'yicha qarorlar qabul qilindi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish barcha sohada bo'lgani kabi oliy ta'lim, jumladan, markaz faoliyati ham muhim vazifalardan biridir. Bu borada 4 ta yo'nalish olingan bo'lib 2 tasi "adabiyot.edu.uz" hamda "unilibrary.uz" platformalari ishga tushirildi.

"Adabiyot.edu.uz" platformasi orqali o'quv adabiyotlari nashr etishda tavsiya berish jarayonini raqamlashtirildi. Bu platforma orqali oliy talim muassasalari professor o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan o'quv adabiyotlari ya'ni darslik va o'quv qo'llanmalar ekspertizadan o'tkaziladi. Ijobiy baholangan adabiyotlarni nashr etish uchun elektron shaklda maxsus vazirlik guvohnomasi rasmiylashtiriladi.

"Unilibrary.uz" tizimi ishga tushirilishi natijasida barcha davlat oliy ta'lim muassalarining axborot resurs markazlari integratsiya qilindi. Kelgusida barcha oliy talim muassalarining axborot resurs markazlari integratsiya qilinadi. Kelgusida barcha oliy ta'lim muassalarida mavjud 4 milliondan ortiq kitoblar to'liq elektron shaklga o'tkazilib yagona platformaga joylandi. Har bir professor o'qituvchi va talabalar undan foydalanishiga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy va axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Yoshlarda milliy ba umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularga yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora tadbirlar ko'rish, o'quvchi yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy, ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari tashkil etish to'g'risida chora tadbirlar ko'rilmoqda.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson manaviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak idealari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab



kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit tizimidir. Ayniqsa , ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib hayot ma'nosini anglash milliy madaniyatimiz va turmushimizni, qadryatlarimizni , urf odat va ananalarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimizni qudratli o'rni bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Nega deganda , insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash , yaxshilik, mehr-shafqat xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda dunyoda raqamli texnologiyalar rivojlanishida ta'lim tizimiga ham ko'proq ahamiyat qaratmog'imiz lozim. Ta'limga yangi yondashuvlar , texnologiyalar kiritish va rivojlantirish kerak. Yosh avlod tarbiyasida buyuk bobolarimiz siymosini yaratishimiz kerak. Ularning tarbiyasiga befarq bo'lmasligimiz lozim.

#### **Adabiyot va manbalar**

1. [https:// kun.uz](https://kun.uz) Oliy ta'limni raqamlashtirish – ustuvor vazifa.
2. PF -6097 – son 05.10.2020 “Raqamli O'zbekiston -2030” strategiyasi.
3. [devedu.uz](http://devedu.uz) Faoliyatni raqamlashtirishdagi amalga oshirilayotgan ishlar.
4. PQ- 3907- son 14. 08.2018 Yoshlarni ma'naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlar to'g'risida.
5. Islom Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent 2010-yil. 36-bet.

## **ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ - НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ**

**Абдуллаев Артур**

студент 4 курса факультета математики и информатики  
Навояйского государственного педагогического института, Узбекистан  
Научный руководитель: ст. преп. кафедры математики НавГПИ  
**Музаффарова Л.Н.**

**Аннотация.** Статья освещает цифровизацию образовательного процесса. Цифровизация образовательного процесса включает не только дистанционное образование или работу учащихся с компьютером, но и подразумевает использование информационных технологий на всех уровнях: не только учебном, но и организационном (электронные дневники, чаты с учителями). Технические новшества затронут разные типы учебных учреждений: школы, лицеи, профессиональные школы, вузы, образовательные курсы.

**Ключевые слова:** технология, цифровизация, процесс, дистанционное образование, информационные технологии.

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayonini raqamlashtirish yoritilgan. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish nafaqat masofaviy ta'lim yoki talabalar kompyuter bilan ishlashni o'z ichiga oladi, balki barcha darajadagi axborot texnologiyalaridan foydalanishni ham o'z ichiga oladi: nafaqat o'quv, balki tashkiliy (elektron kundaliklar, o'qituvchilar bilan suhbatlar). Texnik innovatsiyalar har xil turdagi ta'lim muassasalariga ta'sir qiladi: maktablar, litseylar, kasb-hunar maktablari, universitetlar, o'quv kurslari.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, raqamlashtirish, jarayon, masofaviy ta'lim, axborot texnologiyalari.

**Annotation.** The article covers the digitalization of the educational process. Digitalization of the educational process includes not only distance education or students working with a computer, but also involves the use of information technologies at all levels: not only educational, but also organizational (electronic diaries, chats with

teachers). Technical innovations concern various types of educational institutions: schools, lyceums, vocational schools, universities, educational courses.

**Key words:** technology, digitalization, process, distance education, information technology

Молодое подрастающее поколение человека имеет определенные, данные природой жизненные потребности, среди которых готовность созидать и преобразовывать окружающий мир, а также чисто человеческая потребность дружить, любить и быть любимыми, создавать семьи, растить детей, что возможно осуществить при условии наличия самих условий для простого личностного общения. Это основа созидательной составляющей личности человека, полной творческой силы, наполняющей человеческие отношения красотой и светом, согревающей человека в самые трудные минуты его жизни. [1]

Цифровизация – средство обновления жизни человеческого общества, развитие данного ресурса возможно при концентрации усилий разных поколений людей. В идеальном своем воплощении цифровые технологии призваны помочь подрастающему поколению в развитии, и взрослое поколение несет ответственность за корректность внедрения цифровизации по отношению к детям и молодежи: идеи конкуренции «цифры» и человека этически не корректны и не состоятельны.

Внедрение технологий вторгается в жизнь человека и влияет на него неоднозначно. Развитие человека происходит по определенным законам природы, которые тоже надо учитывать в реальной жизни, реальном времени и пространстве: все инновации воплощают люди, которые поэтапно познают жизнь, также постепенно переосмысливают ее, в ходе преобразований спорят и находят точки согласия. Лишая современное молодое поколение ценностей возраста, мы обкрадываем наше будущее: всю силу своей неудовлетворенности она вложит в создаваемые ей технологии, характер их продвижений и реализации, что не сделает общество богаче и нравственнее. Недооценка психолого-педагогических аспектов развития подрастающего поколения в эпоху цифровизации может привести к искажению развития человека и человеческого общества: подвергается риску качественная составляющая развития и сама цифровая экономика. [1]

Поэтому стоит вдумчиво внедрять цифровые технологии, встраивать их в жизнь человеческого общества, создавая необходимую инфраструктуру; параллельно обновлять содержание образования, создавать рабочие места, снимая накал противостояния «цифры» и человека. Аспекты гуманизации развития подрастающего поколения являются жизнеопределяющими в условиях цифровизации общества. Только в этом случае благодаря такой мощной инновации, как цифровизация, человечество сможет осознать необходимость выбора траектории развития будущего человеческого общества на столетия вперед и на этой основе определить философию отношения к человеческому потенциалу подрастающего поколения.

В современном мире цифровые технологии становятся неотъемлемой частью повседневной жизни, и образовательные учреждения не остаются в стороне, активно внедряя их в учебный процесс. Технологии используются в различных аспектах учебного процесса: от решения административных задач до выполнения домашнего задания в онлайн-режиме. [2]

Цифровизация образовательного процесса – это широкое понятие. Оно включает не только дистанционное образование или работу учащихся с компьютером, как считают некоторые. Цифровизация подразумевает использование информационных технологий на всех уровнях: не только учебном, но и организационном (электронные дневники, чаты с учителями). Технические новшества затронут разные типы учебных учреждений: школы, колледжи, вузы, образовательные курсы.

Массовая цифровизация образования объясняется в первую очередь следованием за трендами развития общества. Цифровые технологии внедряются абсолютно в каждую сферу жизни: в экономику и финансы, здравоохранение, транспортное сообщение, культуру, сферу обслуживания. И образование не стало исключением. Это уже новая реальность, в которой мы живем.

Растущую популярность информационных технологий легко объяснить тем, что они делают жизнь удобнее и проще. Конкретно в учебном процессе выделяют следующие преимущества ИТ:

- повышение вовлеченности, мотивации и интереса учащихся к учебному процессу;
- активизация самостоятельности и познавательной деятельности;
- наглядная и более занимательная подача материала;
- доступ к большим объемам информации, в том числе за пределами учебного курса;
- отсутствие бумажной волокиты для преподавателей;
- обратная связь, упрощение коммуникации между учащимися, преподавателями и родителями;
- использование дистанционных технологий и возможность обучаться из любой точки мира, где есть интернет-соединение;
- появление множества учебных онлайн-курсов.

Кроме того, цифровые образовательные технологии помогают обеспечить индивидуальный подход к каждому ученику, учет его особенностей и познавательных способностей.

К трендам образовательных технологий относятся такие цифровые технологии, как:

- Непрерывное обучение
- Открытые онлайн-курсы
- Адаптивное образование
- Интегральный подход
- Изменение роли учителя
- Дистанционное обучение
- Геймификация. (Цифровые технологии – это еще и возможность сделать учебный процесс более занимательным, придав ему форму игры. Это и называется геймификацией (от англ. game – игра)).

К передовым технологиям обучения относятся основные технологии цифровизации образования, которые применяют в учебном процессе.

- STEAM
- «Фишбоун»
- Сингапурская методика
- Виртуальная и дополненная реальность

В учебном процессе НавГПИ активно применяются информационные технологии. Они позволяют сделать обучение интереснее и нагляднее, вовлечь студентов и развить их компьютерную грамотность. Каждый студент получает доступ к электронной образовательной среде на весь учебный период.

Кроме того, институт реализует электронное обучение с помощью дистанционных технологий. Цифровая образовательная среда, созданная в НавГПИ, – это свидетельство того, что институт шагает в ногу со временем, следит за главными образовательными трендами и умело использует их в построении учебного процесса.

## Литература

1. Парц. О.С. Развитие подрастающего поколения в контексте цифровизации. //Russian Journal of Education and Psychology. 2020, Volume 11, Number 5 • <http://rjep.ru>

2. Чиркина Т.А., Осокина П.В. Цифровые технологии в образовании: как современные инструменты помогают учителям. Сайт Института образования. Россия, 2023

## ИССЛЕДОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ ИНТЕРНЕТИЗАЦИИ В ФИЛОСОФСКОМ КОНТЕКСТЕ

Мумджи Абибулла Асанович,  
докторант программы PhD “Философские и религиозные науки” университета  
Девятое Сентября, г. Измир, Турция.

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблема интернет-зависимости и феномен прозрачного общества как основные процессы интернетизации. Алгоритмы и программы, используемые интернет-гигантами, эксплуатируют психологические слабости человека и способствуют развитию у людей интернет-зависимости, которая в свою очередь способствует отдалению индивида от рационального использования им свободного времени и негативно влияет на жизнь. С распространением интернета, медиа и социальных сетей общество стало более прозрачным, однако по мнению ряда авторитетных ученых «прозрачное общество» не является безоговорочным добром, ведь для функционирования государства и общества некоторая скрытность, недосказанность и ношение масок необходимы. Влияние интернета на современный мир невозможно переоценить, ведь он пронизывает буквально все сферы нашей жизни: образование, бизнес, общение, знакомства, сферу государственных услуг и развлечения. Интернет упростил жизнь людей, но вместе с этим он оказал и отрицательное влияние на человека. В работе мы рассмотрим наиболее значимые характеристики виртуальной среды, требующие ее критического осмысления.

**Abstract:** The article researches the problem of Internet addiction and the phenomenon of transparent society as the main processes of Internetization. Algorithms and programs used by Internet giants exploit human psychological weaknesses and contribute to the development of people's Internet addiction, which in turn contributes to the alienation of individuals from the rational use of their free time and negatively affects their lives. With the advent of the Internet, media and social media, society has become more transparent, but according to a number of reputable scholars "transparent society" is not an unconditional good, because for the functioning of the state and society some secrecy, reticence and wearing masks are necessary. The impact of the Internet on the modern world cannot be overestimated, because it covers literally all spheres of our lives: education, business, communication, dating, public services and entertainment. The Internet has simplified people's lives, but at the same time it has had a negative impact on people. In this paper we will consider the most significant characteristics of the virtual environment that require its critical reflection.

**Annotatsiya:** Maqolada internetga qaramlik muammosi va internetlashuvning asosiy jarayonlarini sifatida shaffof jamiyat fenomeni tadqiq qilinadi. Internet gigantlari tomonidan qo'llanilayotgan algoritmlar va dasturlar insonning psixologik zaif tomonlaridan foydalanib, odamlarning internetga qaramligini ortirishga hissa qo'shadi, bu esa o'z navbatida shaxslarning bo'sh vaqtlaridan oqilona foydalanishdan uzoqlashishiga xizmat qiladi va ularning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Internet, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi bilan jamiyat yanada shaffof bo'ldi, lekin bir qator nufuzli olimlarning fikriga ko'ra, "shaffof jamiyat" so'zsiz yaxshilik emas, chunki davlat va jamiyatning ishlashi uchun ba'zi bir maxfiylik, o'zini tutish va boshqalar. niqob kiyish zarur. Internetning zamonaviy dunyoga ta'sirini ortiqcha baholab bo'lmaydi, chunki u tom ma'noda hayotimizning barcha sohalarini qamrab oladi: ta'lim, biznes, aloqa, tanishish, davlat xizmatlari va o'yin-kulgi. Internet

odamlarning hayotini soddallashtirdi, lekin shu bilan birga odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada biz virtual muhitning tanqidiy aks ettirishni talab qiladigan eng muhim xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

**Ключевые слова:** интернет, прозрачное общество, интернет-зависимость, социальные сети

**Key words:** the Internet, transparent society, Internet addiction, social media

**Kalit so'zlar:** Internet, shaffof jamiyat, internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlar

Одна из самых заметных проблем интернетизации общества – это проблема интернет-зависимости. Термин «интернет-зависимость» был предложен Иваном Гольдбергом в 1996 году. Под этим явлением Иван Гольдбергер понимал расстройство поведения в результате использования интернета и компьютера, оказывающее пагубное влияние на бытовую, учебную, социальную, рабочую, семейную, финансовую или психологическую сферы деятельности человека [6, с.45]. Проблема стоит настолько остро, что в США и Англии уже функционируют первые специализированные клиники по лечению интернет-зависимости. В России этим вопросом занимаются психотерапевты при многопрофильных клиниках, а ряд общественных организаций и энтузиастов проводят акции “развиртуализации” от интернета. [7, с.134-136]. К слову, в Турции оказанием помощи интернет-зависимым занимается Yeşilay (Зеленый Месяц).

Джарон Ланье в книге «10 аргументов удалить все свои аккаунты в социальных сетях» пишет о системе BUMMER, благодаря которой интернет гигантам удается увеличивать вовлеченность индивида в цифровой мир. BUMMER — это система программ и алгоритмов, анализирующих и записывающих поведение пользователя [3, с.22-30]. Согласно Ланье, увлекательный контент, который мы видим в интернете показывается нам неслучайно. Такие компании как Google и META изучают, сохраняют и используют психологические особенности пользователей для увеличения вовлеченности людей в цифровой мир. Множество алгоритмов и программ анализируют каждую секунду использования интернета пользователями. Опираясь на собранные данные о психологических особенностях конкретного пользователя, интернет-гиганты демонстрируют, подбирают и рекомендуют наиболее желанный индивидом контент и таким образом способствуют развитию интернет-зависимости [3, с.26].

Один из наиважнейших ресурсов индивида – это его время и здоровье. Маниш Кумар и Ансеша Мондал, изучающие проблему влияния интернет-зависимости на молодежь, установили, что она становится причиной низкой самооценки и депрессии [4, с.61-66]. Индивид, проводящий много времени в социальных сетях, таких как Инстаграм, видит зацензурированную и отполированную фотографию. При частом использовании социальных сетей размывается грань между реальным и цифровым. Индивид неосознанно начинает смотреть на мир через призму идеализированных постов социальных сетей, не отображающих неприятных сторон жизни. Посты в социальных сетях, которые специально подбираются алгоритмами для конкретного пользователя, не показывают человека и его жизнь “без фильтров” и эффектов. Индивид, сравнивающий себя с идеализированными постами из социальных сетей, может иметь неадекватную самооценку и неверное представление о мире и жизни. У интернет-зависимого размывается грань между цифровым и реальным.

Изучая проблему свободного времени в античной философии, Оуэнс приводит мысли Аристотеля, который полагал, что свободное время должно быть использовано для духовного и интеллектуального развития личности [2, с.715-723].

Развлекательный контент, которым полон интернет, подобен таблетке сома. Таблетка интернет-сомы позволяет сбежать от проблем и боли реального мира. Когда эффект интернет-таблетки проходит, индивид возвращается в реальный мир, наполненный противоречиями и проблемами. Нет ничего удивительного, что интернет-зависимые сталкиваются с депрессией и низкой самооценкой. Без фокусировки на решении проблем и сложностей реального мира ничего, кроме увеличения количества

проблем, не случится. Теряя свободное время и убегая от вызовов жизни в виртуальный мир, индивид ухудшает свое положение в реальном мире, в котором проблемы не исчезают нажатием клавиши.

Другая важная проблема интернетизации общества — это проблема «прозрачного общества», определение которого ввел в научный оборот Джанни Ваттимо. Ученый рассматривает «прозрачное общество» как «общество неограниченной коммуникации», или «общество масс-медиа». Мы полагаем, что неограниченная коммуникация или гиперкоммуникация создает смысловую какофонию, характеризующуюся суммой мнений, высказанных представителями разных взглядов и культур по вопросам, экспертами, в которых они не являются. В итоге, полученная информация представляет собой неточные, поверхностные, а иногда даже выдуманные данные.

Перед индивидом предстает эклектичная картина мира или миров. Интернетизация лавиной обрушивает на индивида информацию. В эпоху интернетизации индивид, живущий, к примеру, в Байбурте (Турция), одновременно читает о войне в Шри-Ланке, об истории Мексики, об осаде Вены 1683 года и о коррупционных скандалах в США. К примеру, данный индивид работает парикмахером. Обрывочная информация, полученная им из интернета или медиа, не улучшает качество его жизни или его профессиональные навыки. Не делает его специалистом по истории XVII века. Индивид теряет время и душевные силы в интернет-какофонии и нагружает себя информацией, возможно, временами верной, но не имеющей отношения к его культуре, государству и региону.

Ваттимо пишет, что «Масс-медиа характеризуют общество не как общество более «прозрачное», больше осознающее себя, более «просвещенное», но как общество более сложное, даже хаотичное» [5, с.10]. Ваттимо полагал, что «высвобождение многих культур и многих Weltanschauungen, сделавшееся возможным благодаря масс-медиа, опровергает сам идеал прозрачного общества» [5, с.12].

Хан Бён-Чхоль, также рассматривая проблему прозрачного общества, указывает на то, что такое общество полностью негативно влияет на духовный мир, глубину личности и опошляет индивида. По мнению Хан Бён-Чхоля, для политики, народа и общества абсолютная прозрачность не является чем-то абсолютно позитивным. Индивид, семья, государство и общество для адекватного функционирования должны уметь скрывать и носить маску. Прозрачное общество и общество постоянного постинга и шеринга обнажают, опошляют и лишают смысловой нагрузки индивида и общество [1, с.25-45].

Интернетизация имеет множество плюсов: скорость обмена информации, доступ широких масс к информации и ускорение работы государственных органов. Вместе с этим следует обратить внимание на проблему интернет-зависимости. Нет одного простого решения для проблемы интернет-зависимости.

Для воспитания психологически здоровых людей государство может проводить уроки интернет-грамотности, поощрять молодежь к труду и обучению. Проблема прозрачного общества и интернет какофонии на данном этапе не видится решаемой. Новости, обсуждения, производство контента и политические шоу превратились в сферу экономики. Учитывая количество индивидов, вовлеченных в бизнес интернет-какофонии, на данном этапе говорить о какой-либо успешной борьбе не приходится. Лавины из интернет-новостей, блогеров и интернет-полемики продолжают обрушиваться на пользователей сети. Единственный способ не стать зависимым и не утонуть в лавине интернет-какофонии — это знать о сетях, которые алгоритмы набрасывают на пользователя. Возможно, некоторая активность энтузиастов по борьбе с интернетизацией даст небольшие позитивные результаты. Говорить же о глобальной победе над интернет-какофонией и полной «развиртуализации» не представляется возможным.

Хан Бён-Чхоль в работе «Прозрачное общество» ставит перед читателем вопрос: «Не является ли прозрачное общество обществом контроля?». Корейский философ полагает, что сегодня мы столкнулись с диктатурой прозрачности [1, с.64-72]. Прозрачное общество обнажает индивида. Индивид, размещающий себя в сети интернет лишается

некоторой анонимности, скрытности и глубины. Играя на поле интернет-гигантов, индивид не может не оказаться под влияниями алгоритмов (о которых пишет Ланье), делающих его зависимым.

Прозрачное общество прозрачно лишь в мыслях обывателя. В цифровом шуме интернет-зависимый не замечает проблемы непрозрачности прозрачного общества и мира, на которую указал Ваттимо. Интернет-зависимый обыватель прозрачного общества познает других и другое лишь обрывками, которые ему демонстрируются. Он не видит того, что за пределами его монитора. Обыватель не способен из постов и обрывочной информации составить целостную и осмысленную картину мира и процессов. Интернет-зависимый находится под контролем интернет-гигантов и сил, которые управляют, фильтруют и могут закрывать доступ к информации.

Человек хочет верить в миф прозрачного и открытого общества, в то время как политики и бизнес-элиты (по мере возможностей) стараются не участвовать во всеобщем паноптикуме. Финансовые и политические элиты, имеющие доступ к серверам паноптикума, при желании могут использовать собранные данные против населения (запугивание активистов, оппозиции и журналистов). Опоённые интернет-вседозволенностью, не задумываясь, обнажаются в интернет-паноптикуме, рискуя остаться беззащитным перед надсмотрщиками.

#### Список литературы:

1. Byung-Chul Han. Şeffalık Toplumu, Metis Yayınları, Sekizinci Basım: Ekim 2022
2. Joseph O. Aristotle on Leisure, Canadian Journal of Philosophy Vol.4, No:11, pp. 713 – 723, 1981
3. Lanier J. Ten Arguments for Deleting Your Social Media Accounts Right Now, Henry Holt and Company, New York, 2018
4. Manish Kumar, Anwesha Mondal. A Study On Internet Addiction And Its Relation To Psychopathology and Self-esteem Among College Students, Industrial Psychiatry Journal, Vol. 27, No:1, pp. 61–66, 2018
5. Ваттимо Дж. Прозрачное общество, пер. с ит. Д. Новикова, Логос, 128 с., Москва, 2002
6. Ушакова Е.С. Интернет-зависимость как проблема современного общества, Электронный научный журнал «Личность в меняющемся мире: здоровье, адаптация, развитие», 1(4), 2014
7. Хазиев, Л.Б. Современные способы борьбы с интернет-зависимостью, Интернет – свободный, безопасный, образовательный: материалы Межрегиональной научно-практической конф., под общ. ред. М.П. Лапчика., Полиграфический центр КАН, Омск, стр. 134-136., 2013

## YO‘QOLIB BORAYOTGAN SINGARMONIZM VA UNING SABABLARI

**Maftuna Djo‘raqulova Anvar qizi**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi**

**Telefon raqam:+998931581868**

**[maftunadjurakulova27@gmail.com](mailto:maftunadjurakulova27@gmail.com)**

**Ilmiy rahbar:f.f.d.(DSc), dotsent F.H Yuldashev**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada singarmonizm masalasi va uning turkiy tillardagi ahamiyati, o‘zbek tilida mazkur hodisaning yo‘qolib borishidagi sabablar yoritilgan, olimlarning singarmonizm hodisasi haqidagi fikrlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** singarmanizm, turkiy tillar, qolip, tillar ta’siri

Hozirgi davrga kelib ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan singarmonizm muammosi ko‘plab olimlar tomonidan muzokaralarga sabab bo‘lmoqda. Turkiy tillar tarixida

bo'lgani kabi o'zbek tilida ham singarmonizm borasidagi tadqiqotlar, izlanishlar XX boshlarigacha faol ko'zga tashlanadi. Ilmiy qo'llanmalarda esa "Singarmonizm qonuni hozirgi o'zbek tilida buzilgan, ammo boshqa turkiy tillarda, ayrim o'zbek shevalarida saqlangan" [1], degan fikrlar, "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili asosan singarmonizmsiz til hisoblanadi va singarmonizimli boshqa turkiy tillardan farq qiladi" [2] kabi qarama-qarshi fikrlarni bildirishadi. Bu hodisa ko'plab tilshunos olimlar o'rtasida ilmiy bahslarga sabab bo'lish bilan bir qatorda, ularni bu masala borasida yagona to'xtamga kelishlariga undamoqda. Yuqorida aytib o'tilgani kabi ba'zi olimlar singarmonizmdan keng foydalanishimiz kerak, degan fikrni ilgari surishsa, ayrim ilm ahli unga rad javobini berishmoqda. Masalan, o'zbek tili tarixida o'zining ko'plab maqolalari bilan shuhrat qozongan filologiya fanlari doktorlari Xudoyberdi Doniyorov, Qozoqboy Mahmudov singari olimlar singarmonizmni joriy qilish va undan keng foydalanish borasida maqolalarni fanga kiritgan. X. Doniyorov singarmonizmni yo'qolib ketish sabablarini o'z vaqtida yetarli darajada tilshunos olimlar tomonidan e'tibor berilmaganligi degan fikrni ilgari suradi va quyidagi fikrlarni aytib o'tadilar: "Singarmonizm hodisasi o'zbek tilshunosligida hali yetarlicha o'rganilgan emas, biroq u o'zining izchil va ilmiy asosda o'rganilishini talab qiladi. Chunki singarmonizm hodisasini o'rganish, avvalo, singarmonizmning o'zbek tili tarixidagi rolini, o'zbek adabiy tilining qanday qilib singarmonistik ukladli tildan singarmonizmsiz tilga aylanib qolganligini aniqlash, shuningdek, o'zbek adabiy tilining hozirgi holatini, uning kelajagini, orfoepik normalarini, alfavit, orfografiya qoidalarini to'g'ri belgilash uchun muhim ahamiyatga ega" [3]. Xususan, Q.Mahmudov singarmonizmni yo'qolishiga quyidagicha fikr bildirgan: "Turkistonda yashagan turkiy xalqlarning an'anaviy tili yaqinligini, ildizi birligini, o'zbek tilining bir guruh shevalarida singarmonizm mavjud ekanligini, mumtoz o'zbek adabiy tili ham singarmonizm qonuniga asoslanganligini inobatga olish zarur" [4]. "Hozirgi o'zbek adabiy tili mumtoz adabiy tilimizning fonetik qonunlariga rioya qilsa, qardosh turkiy tillarga yanada yaqinlashgan bo'lamiz" [5]. Shu ma'noda bir guruh olimlarning fikrlari o'zaro hamohang bo'lsa, ayrimlari bunday fikrdan yiroqda ekanliklarini ko'rish mumkin.

Aslida jarayon qanday? Singarmonizm hodisasini ko'plab olimlar yo'qolib ketyapti degan fikrni ilgari surgan bir paytda, turkiy tillar oilasiga mansub tillarda (turk, qirg'iz, qozoq) qo'llaniladigan so'zlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida singarmonizmning yo'qolib ketishining asl sabablari milliy grammatikamizning shakllanish jarayonida ayrim "begona qoliplar"ning ta'siri va mafkura ta'sirida begona qoidalarning singdirilganligi, shular asosida orfografik, fonetik va grafik me'yorlardagi buzilishlardir. Yana boshqa sabablaridan biri bu unlilar bilan bog'liqdir. "Qizil O'zbekiston" gazetasida Qayum Ramazon imzosi bilan "O'zbek tilining birlashgan imlosi" loyihasi e'lon qilingan edi. Unda unlilar soni 9 tadan 5 taga (a, o, u, i, o, e, u, y, e = a, o, u, i, e) qisqartirilgan, singarmonizm o'z vazifasini tilning boshqa sohalariga o'tkaza boshlagani, shu sababli bundan keyin singarmonizm muhim rol o'ynamasligi qayd etilgan [6]. Sababi 9 ta unli birdaniga kamayib ketishi tildagi so'zlarning tuzilishi bilan bir qatorda, albatta, singarmonizmning ta'sirini kamaytirgan. Zero, turkiy tillarda singarmonizm hodisasining mavjudligi va amaliy faoliyatda foydalanayotganliklari buning yorqin isbotidir. Xususan, turk tilining grammatikasi singarmonizmga qat'iy amal qiladigan tillardan hisoblanadi. Bugungi kunda tilshunosligimizda singarmonizmning ayrim xususiyatlari saqlangan. Masalan; gur+illa=gurulla, shov+illa=shovulla va tuz+im=tuzum kabi so'zlarda birinchi bo'g'indagi "u" tovushi ikkinchi bo'g'inga ta'sir o'tkazgan va haligacha singarmonizm saqlanib qolganligining isboti.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро. 1999.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I. Фонетика, лексикология, Морфология. Тошкент 1966.
3. Шоабдурахмонов Ш, М.Асқарова, А.Ҳожиёв, И.Расулов, Х.Дониёров, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, "Ўқитувчи", 1980. 448 бет.
4. Маҳмудов Қ. Қадимги Туркистон. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 1995 йил 24 ноябрь.



5. Маҳмудов Қ.. Тил яқинлиги – дил яқинлиги”. “Фан ва турмуш”, 1996 йил, 4-сон.  
6. Рамазон Қ. Ўзбек тилининг бирлашган имлоси. “Қизил Ўзбекистон”, 1933 йил 18 май.

## MILLIY IQTISODIYOTIMIZ TARAQQIYOTIDA MOLIYA VA BANK TIZIMI

Oltiev S.S.

### Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining taraqqiyotidagi moliya va bank tizimi faoliyati tahlillari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar.** Jahon banki, moliyaviy inklyuzivlik, milliy bank tizimi, inflyatsion target.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat muhiti, innovatsion taraqqiyot, moliyaviy texnologiyalar qoʻllanish doirasining kengayib borishi sharoitida korporativ tuzilmalar tomonidan yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qoʻshimcha moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini samarali tashkil etish, ixtiyorida boʻlgan moliyaviy resurslarni yuqori natijadorlik asosida boshqarish borasida xalqaro miqyosda muntazam ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Natijada ilmiy doira bilan bir vaqtda xalqaro moliyaviy tashkilotlar, reyting agentliklari ham aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish masalalariga doir izlanishlar natijalarini eʼlon qilib kelmoqda [1].

Milliy iqtisodiyotimizni shakllantirish sharoitida bank-moliya va sanoat sohasi taraqqiyotiga alohida eʼtibor qaratib kelinmoqda. Bunda iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar singari Oʻzbekistonda ham tijorat banklari resurslarini faol tarzda turli sanoat korxonalarining kapitallashuv darajasi va moliyaviy barqarorligini taʼminlashga jalb qilish muhim oʻrin tutadi.

Bank tizimining rivojlanishi va barqarorligini oshirishning muhim shartlaridan biri banklarning oʻz mablagʻlari hajmini oshirish va kredit tashkilotlari tomonidan olingan xatarlarni oʻz kapitali bilan yetarli darajada qoplanganida namoyon boʻladi [2].

Mulk shakliga koʻra Banklarning quyidagi turlari bor: davlat banklari, davlat ishtirokidagi aralash banklar, davlatlararo banklar, xalqaro banklar, chet el sarmoyasi ishtirokidagi banklar, aksiyadorlik banklar, Bankirlar uyi, kooperativ banklar, mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish b., kommunal banklar, xususiy banklar va b.

Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni xoʻjalik yuritishning bozor sharoitlariga bosqichma-bosqich oʻtkazish dasturiga mos keladi. Oʻtgan davrda bank islohotlari davomida milliy bank tizimining 2 bosqichli strukturasi (yuqori bosqichda - Markaziy bank, quyi bosqichda - tijorat banklari) huquqiy jihatdan mustahkamlandi; banklarning soni va ular koʻrsatadigan xizmat turlari koʻpaydi [3].

Mamlakatimizda 2016-yilgacha ichki valyuta bozori va naqd pul muomalasida mavjud muammolar yillar davomida inflyatsiyaning yuqori darajada shakllanishiga yoʻl ochishi bilan birga tadbirkorlikni rivojlantirishga salbiy taʼsir koʻrsatib kelardi. Bu muammolarning bartaraf etilishi pul-kredit siyosatini takomillashtirish va inflyatsiya darajasini pasaytirish uchun zamin yaratyapti. 2017-yilga kelib, pul-kredit siyosatini rivojlantirishda inflyatsion targetlash rejimini joriy qilishga kirishildi. Mamlakatimizda narxlar barqarorligini taʼminlash maqsadida 2020-yildan inflyatsiyani targetlashning faol bosqichiga oʻtilib, 2021-yilda inflyatsiya darajasini 10 foiz, 2023-yilda esa 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion targetgacha pasaytirish vazifasi qoʻyildi. Buning natijasida inflyatsiya darajasini 2017-yil yakunidagi yillik 18,8 foizdan 2020-yil oxirida 11,1 foizgacha pasaytirishga erishildi.

Shuningdek, aholining bankomatlardan naqd pul yechib olish hajmi 2017-yilda 98 milliard soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2021-yilga kelib, 90 trillion soʻmga yetdi. Muomaladagi naqd pulning banklarga kelib tushish koʻrsatkichi 2017-yildagi 27 foizdan 2020-yilda 65 foizgacha

ko'paydi. Aholining naqd pul yechish imkoniyatini kengaytirish maqsadida bankomat va infokiosklar soni 4,9 mingtadan qariyb 12,7 mingtaga yetkazildi. Hududlardagi chakana savdo va pulli xizmatlar ko'rsatish shoxobchalari hamda bank infratuzilmalariga o'rnatilgan to'lov terminallari soni 2017-yildagiga nisbatan 2 barobar ko'payib, 2021-yil oktyabr holatiga umumiy soni 435 mingtadan oshib ketdi. Tijorat banklari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank kartalarining umumiy soni 2017-yildagiga nisbatan 1,3 barobar ortib, 2021-yilning 1 oktyabr holatiga qariyb 25,2 million donani tashkil etdi.

Iqtisodiyotimizga ajratilgan kredit qo'yilmalari hajmi 2017 yildagiga nisbatan 6 barobar oshib, 2021-yil yakuni bo'yicha 332 trillion so'mga hamda uning YaIMdagi ulushi 20 foizdan qariyb 50 foizga yetishi kutilyapti. Aholini uy-joy bilan ta'minlashning bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy etildi va ipoteka kreditlari ajratish tartibi soddalashtirildi. Tijorat banklari tomonidan 2017-2020-yillarda jami 262,1 ming fuqaroga umumiy qiymati 32,1 trillion so'm ipoteka kreditlari ajratildi. Ko'chmas mulk bozorida ipoteka kreditlari asosida sotilgan uy-joylar sonining jami ko'chmas mulk oldi-sotdisidagi ulushi 2017-yildagi 22 foizdan 2020-yilda 34 foizgacha oshdi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida tijorat banklari tomonidan aholining daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishi hamda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli shartlarda kreditlar ajratishning aniq tizimi joriy etildi. So'nggi 4 yil davomida qariyb 934 mingdan ortiq oilaga 23 trillion so'm miqdorda shunday kredit ajratildi.

Kreditlarning real o'sishi yiliga o'rtacha 38,6 foizni tashkil etdi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar miqdori 277 trillion so'mni tashkil etib, uning umumiy hajmi 2017-yildagiga nisbatan 150 foiz oshdi.

2019-yilda Jahon banki moliyaviy inklyuzivlik bo'yicha "The Little Data Book on Financial Inclusion 2018" tahlilini chop etdi. Unga ko'ra, aholi orasida raqamli to'lovlardan foydalanuvchilar Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiyada 95,5 foizni, Italiya, Janubiy Koreyada 89 foizni tashkil etmoqda. Onlayn xaridlarni amalga oshirish Germaniyada 97,8, Buyuk Britaniyada 89 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatimiz bank sektorida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatishda internet banking va "Bank-mijoz" dasturi, SMS-banking va mobil banking kabilardan foydalaniladi. Masofadan bank xizmatlari tarkibida 2011-yilda SMS-banking va mobil bankingdan foydalanuvchilar ulushi 42 foiz, internetbanking va "Bank-mijoz" turidan foydalanuvchilar ulushi esa 58 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, bu ko'rsatkichlar mos ravishda 95 foizdan oshdi. Ushbu holat yurtimizda so'nggi yillarda masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning ko'payishi, asosan, SMS-banking va mobil banking xizmatlaridan foydalanishning kengayishi hisobiga ro'y berayotgani bilan izohlanadi.

Taraqqiy etgan xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, moliyaviy sektorning rivojlanganlik darajasi bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida yuqori darajada bog'liqlik mavjud. Tizimda xizmatlar sohasining rivojlangani moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash yo'li bilan mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari, fond bozori, sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan turli moliyaviy xizmatlar yanada ko'proq miqdordagi jang'armalarni real sektorga yuqori samaradorlik ta'minlangan holda yo'naltirilishiga va buning natijasida real sektorda o'sish faollashishiga xizmat qiladi.

Bank tizimi va iqtisodiy o'sish sur'atlari orasida kuchli korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyingi milliy iqtisodiyot rivojlanish bosqichida ko'pgina davlatlarning tajribasi tasdiqlab turibdi. Iqtisodiy o'sish subyektlar daromadlarining oshishiga olib kelsa, bu o'z navbatida moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab oshishiga hamda bank tizimi rivojlanishini rag'batlantiradi. Shuningdek, bank tizimida resurslar kapitalizatsiyasi jadallashuvi orqali resurslar samarali taqsimlanadi va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi [4].

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga iqtisodiyot real va moliya sektori o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlash orqali erishiladi. Moliya

tizimida to‘plangan mablag‘larni real sektor korxonalarini moliyalashtirishga yo‘naltirish va ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yuldashev Ravshan Zakirovich MOLIYAVIY RESURSLARNI JALB QILISH YO‘LLARI “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019-yil
2. Muhiddin KALONOV “Moliya islohotlari samaralari” <https://yuz.uz/news/moliya-islohotlari-samaralari?view=konstitutsiya-asosiy-qonunimiz>
3. Fayzulla Mumajonov. Banklar <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/banklar-uz/>
4. Ortiqov O.A. IQTISODIYOT REAL SEKTORINI MOLIYALASHTIRISH VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASH “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2014-yil

### **TA‘LIMNING TURLI BOSQICH VA YO‘NALISHLARINI RAQAMLASHTIRISH VA YOSH AVLODDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

**Alimova Nigora Sunnatillayevna**  
**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**  
**Raximkulov Ibroximjon Ravshan o‘g‘li**  
**Professional ta‘lim, 2-bosqich talabasi, Taqu, Toshkent**

*Annotatsiya.* Bu maqolada, ta‘limning bosqichlarini va yo‘nalishlarini tahlil qilish, ularning ahamiyatini anglash va yosh avlodda insoniy fazilatlarni rivojlantirishning muhimligini bayon qilingan.

*Kalit so‘zlar:* Ta‘lim, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, malaka oshirish, elektron hukumat, yosh avlod, insoniy fazilatlar, qadriyat

#### **АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОЦИФРОВКИ РАЗЛИЧНЫХ ЭТАПОВ И НАПРАВЛЕНИЙ ОБУЧЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ**

*Аннотация.* В данной статье подчеркивается важность анализа этапов и направлений воспитания, понимания их значимости и развития у подрастающего поколения человеческих качеств.

*Ключевые слова:* Образование, цифровизация, цифровые технологии, повышение квалификации, электронное правительство, подрастающее поколение, человеческие качества, ценности .

#### **ACTUAL ISSUES OF DIGITIZATION OF VARIOUS INVASIONS AND DIRECTIONS OF EDUCATION AND THE FORMATION OF HUMAN QUALITIES IN THE YOUNGER GENERATION**

*Abstract.* This article outlines the importance of analyzing the stages and directions of education, understanding their importance and developing human qualities in the younger generation.

*Keywords:* Education, digitalization, digital technology, advanced training, electronic government, the younger generation, human qualities, values.

**Kirish.** O‘zbekistonda ta‘limning turli bosqich va yo‘nalishlarini raqamlashtirish va yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari muhimdir. Bu sohada amalga

oshirilayotgan islohotlar, mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega.

Raqamlashtirishning roli sezilarli darajada o'sdi, bu esa raqamli transformatsiyaning, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun muhimligini ko'rsatdi. O'zbekiston 2000-yillarning boshlaridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Shu nuqtayi nazardan, amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, Yangi O'zbekistonning kelgusi besh yilga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida barcha asosiy sohalarni raqamlashtirish hamda mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu yo'nalishda o'qituvchilar, o'quvchilar, davlat organlari, va axborot texnologiyalari katta rol o'ynaydi. Mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) – ushbu sohada yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishda salmoqli yutuqlarga erishdi. Natijada, 2022-yilning yanvar oyi holatiga ko'ra, davlat xizmatlarining 56 foizi my.gov.uz orqali taqdim etilgan bo'lsa, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni 307 ga yetdi hamda elektron davlat xizmatlaridan 1,3 milliondan ortiq fuqaro foydalangan. Shu bilan birga, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni esa joriy yil boshida 27,2 million yetgan. Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida respublikaning AKT tizimlari va raqamli infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida sohaga katta miqdordagi investitsiyalar jalb qilindi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2021 yillarda axborot va aloqa sohasida yalpi qo'shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 2021-yilda 11,8 trillion so'mga (1 milliard AQSh dollaridan ortiq) ga yetdi. Shuningdek, O'zbekistonda IT-parklar tashkil etilgandan buyon sohadagi eksport hajmi 50 barobar oshdi va 46 million AQSh dollariga yetdi. Parkning doimiy rezidentlari soni 147 tadan 500 taga ko'paydi, 300 dan ortiq yangi kompaniya ochildi hamda 8500 ta yuqori haq to'lanadigan ish o'rni yaratildi. Hozirgi kunda IT-parklarda 11 mingdan ziyod yoshlar faoliyat yuritmoqda.

Oliy ta'lim tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilar, ilmiy kadrlar va talabalarning o'zlashtirish va rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega.

Bu muhim masalalardan biri ta'lim sohasidagi raqamlashtirishdir. O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli universitetlar, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar, malaka oshirish va boshqalar kabi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yanada rivojlanmoqda.

Raqamlashtirish – bu hayotning turli sohalariga, jumladan iqtisodiyot, ta'limning barcha bosqichlari, madaniyat, tibbiyot, turizm, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va boshqa jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy qilishdir.

Raqamlashtirish, ta'lim sohasida muhim bir vazifadir. Bu, O'zbekiston ta'lim tizimini yanada samarali va effektiv qilishga yordam beradi.

Quyidagi fikrlarni bu mavzuga qo'shish mumkin:

Raqamli o'qitish: Raqamlashtirish, o'quvchilarga o'zlashtirilgan ta'lim materiallarini boshqarishda yordam beradi. Raqamlashtirilgan darsliklar, interaktiv darsliklar, video darslar va boshqa resurslar o'quvchilarga o'rganishni yanada qulaylashtiradi.

Malaka oshirish: Raqamlashtirish, o'qituvchilarga o'quvchilarning malakasini baholash va oshirishda yordam beradi. Raqamlashtirilgan testlar, sinovlar va boshqa baholash vositalari o'qituvchilarga o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim darajasini aniqlashda yordam beradi.

Elektron hukumat: Raqamlashtirish, ta'lim tizimini boshqarishda ham muhimdir. Elektron hukumat tizimlari, o'quvchilarning ma'lumotlarini saqlash, o'quvchilarning baholash natijalarini kuzatish va o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimni yaxshi tahlil qilishda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar: Raqamlashtirish, ta'lim sohasida yangi texnologiyalardan foydalanishni ta'minlaydi. Virtual o'qish, online kurslar, interaktiv darsliklar va boshqa texnologiyalar o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimni yanada oshirishga yordam beradi.

O'quvchilarning individual talablarini qo'llab-quvvatlash: Raqamlashtirish,

o'quvchilarning individual talablarini tahlil qilish va ularni qo'llab-quvvatlashda yordam beradi. Bu o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimini yanada oshirishga olib keladi.

Raqamlashtirish, O'zbekiston ta'lim tizimini yanada samarali va effektiv qilishda muhim vazifalardan biridir. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning kelgusi kuchli kuchayishiga yordam beradi.

Yosh avlodni insoniy fazilatlarni shakllantirishning muhimligi:

Yosh avlodni yaxshi ta'lim bilan tayyorlash, ularning iqtisodiyot, madaniyat va boshqa sohalar bo'yicha bilim va malakasini oshirish – bu O'zbekistonning mustaqil, yuksak intellektual va insoniy qobiliyatga ega fuqarolarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.

Yosh avlodni sport, san'at, madaniyat va boshqa sohalar bo'yicha qiziqishlantirish – bu ularning kreativlik va yaratuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Yosh avlodni insoniy qadriyat, adolat, mehnat va boshqa fazilatlarga ega bo'lishga o'rgatish – bu ularning insoniy xususiyatlarni shakllantirish va jamoatga foydali bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni jamiyatga foydali a'zolariga aylantirish, ijtimoiy muammo va muammosizliklarga qarshi kurashish, mehnat va ishonchli faoliyat, ijodiy va ijtimoiy madaniyatni rivojlantirish va insoniy qadriyatni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

**Xulosa.** Raqamlashtirish va yosh avlodni insoniy fazilatlarni shakllantirishning muhimligi O'zbekistonning sivilizatsiyaviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Davlat, jamiyat va har bir fuqaro bu masalalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Raqamlashtirish va yosh avlodni insoniy fazilatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari O'zbekistonning mustaqil, yuksak intellektual va insoniy qobiliyatga ega fuqarolarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.

Bu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning iqtisodiyotini yanada modernizatsiya qilishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- egov.uz
- "Education and Human Development" - John W. Santrock
- "Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs Serving Children from Birth Through Age 8" - Carol Copple, Sue Bredekamp
- "The Psychology of Learning and Motivation: Advances in Research and Theory" - Brian H. Ross (Editor)
- "The Cambridge Handbook of the Learning Sciences" - R. Keith Sawyer (Editor)

## **OLIV TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR**

**Navoiy davlat pedagogika instituti,  
"Matematika va informatika" yo'nalishi talabasi  
Mavlonova Setora Faxriddinovna  
[setoramanlonova3@gmail.com](mailto:setoramanlonova3@gmail.com)  
O'zbekiston**

**Annotatsiya:** Jamiyat, ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlari rivojida raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. bugungi kunga kelib raqamlashtirish har bir sohada katta ehtiyoj, kechiktirib bo'lmaydigan muhim masalalardan biriga aylandi.

**Kalit so'zlar:** Hemis, raqamlashtirish, axborot tizim, axborot, elektron ta'lim.

**Аннотация:** Цифровизация играет важную роль в развитии общества, особенно отраслей экономики. Сегодня цифровизация стала одним из важных вопросов, который нельзя откладывать, и это большая потребность во всех сферах.

**Ключевые слова:** Хемис, цифровизация, информационная система, информация, электронное образование.

**Abstract:** Digitization plays a vital role in the development of society, especially in the economic sector. Segodnya tsifrovizatsiya stala odnim iz vajnykh voprosov, kotoryy nelzya otkladyvat, i eto bolshaya narekoost vo vesesh sferax.

**Key words:** Hemis, digitization, information system, information, electronic education.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan oliy ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Misol tariqasida aytish mumkinki, talabani oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirishidan boshlab, o'qishni tamomlab diplom olgunigacha bo'lgan jarayonlarning barchasi raqamlashtirilmoqda. Bu nafaqat talabalar uchun, balki oliy ta'lim muassasasi uchun ham iqtisodiy jihatdan juda kata samaradorlik beradi. Jumladan, ilgari hujjat topshirish jarayonlarining o'zi abuturiyent va oliy ta'lim muassasasi uchun ham ko'plab ovoragarchiliklar keltirib chiqarar edi. Hozirgi kunda esa hujjat topshirishdagi barcha jarayonlar elektronlashtirilib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan yaratilgan <https://uzbmb.uz/> tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Hattoki, talabani ijtimoiy ahvoli haqidagi ma'lumotga ega bo'lish uchun uning pasport ma'lumotlarini tizimga kiritishning o'zi kifoya.

Bugunig kunda yurtimizdagi barcha davlat oliy ta'limi muassasalarida HEMIS axborot tizimi joriy etildi. Ushbu axborot tizimi jahon banki bilan hamkorlikda ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Mazkur tizimning qulayligi shundan iboratki, u orqali talabalarning dars jarayonlarini o'zlashtirishi, reyting daftarchasi, ularning har kunlik davomati, fanlarga tegishli resurslar, oraliq jadvallari, baholari va diplom ma'lumotlarining barchasi raqamlashtirildi. Natijada fakultet dekanlarining talabalar bilan ishlashi yanada osonlashdi. Bir so'z bilan aytganda, raqamli texnologiyalar talabalarni axborot bilan ta'minlash, sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda vaqt va makon cheklovlarini chetlab o'tishga yordam bermoqda.


Hozirgi kunda Navoiy davlat pedagogika institutida barcha jarayonlarni raqamlashtirish, abituriyentlar va talabalarga hamda professor-o'qituvchilarga qulay sharoitlar yaratish maqsadida yangi loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Xususan, dasturchi xodimlar tomonidan institut ish faoliyati va o'quv jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi qator tizim va dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

HEMIS axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.[1]

### Hemis axborot tiziming strukturasi



## Tizimdagi asosiy profillar



Xulosa qilib shuni aytamanki ta'lim sohasini raqamlashtirish, ta'lim sohasida ko'plab yangiliklar yaratdi. Hemi axborot tizimining yaratilishi oliy ta'lim muassasalari faoliyatidagi barcha jarayonlarni ochiqdigi va shaffoqligini ta'minlandi, oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishining oldi olindi va moliyaviy xarajatlar qisqartirildi, oliy ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlar avtomatlashtirildi, oliy ta'lim muassasasi, talaba va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylik ta'minlanildi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish imkoniyati yaratildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://azkurs.org/1-hemis-tizimi-va-uning-imkoniyatlari-raqamli-universitet-loyi.html>.
2. Baxtiyrov I. O'. (2022). Mamlakatimiz rivojlanishida raqamli texnologiyalarni tutgan ahamiyati. Ta'lim fidoyilari, 21 (6), 119-126.
3. Yuldoshev R.R. (2022). Digitalization of higher education: prospects and risks. Law and Practice, (1), 94-102.

## TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, "Kompyuter tizimlari" kafedrasida o'qituvchisi, Qarshi shahar

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini, xususan, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim hamda oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoni boshlangan va davom etmoqda. Raqamlashtirish jarayonini amalga oshirishdan asosiy maqsad bu o'quvchi va talabalarga ta'lim berishning sifatini oshirishdan iboratdir. Ta'lim sifatini yuqori nuqtaga chiqarish bo'yicha yana ko'plab usul va metodlar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayoniga doir chiqarilayotgan buyruqlar, amalga oshirilayotgan ishlar hamda natijalar haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli O'zbekiston, ta'lim sifati, ta'limni raqamlashtirish, internet, maktab ta'limi, maktabgacha ta'lim, barkamol avlod, yagona elektron tizim, dasturiy majmua.

**Аннотация:** В настоящее время начался и продолжается процесс цифровизации всех звеньев системы образования, в частности, дошкольного образования, начального образования, среднего образования, среднего специального образования и системы высшего образования. Основная цель цифровизации – повышение качества образования школьников и студентов. Разрабатывается и внедряется на практике еще множество методов и методов повышения качества образования. В данной статье описаны изданные заказы, проделанная работа и результаты процесса оцифровки.

**Ключевые слова:** цифровой Узбекистан, качество образования, цифровизация образования, интернет, школьное образование, дошкольное образование, зрелое поколение, единая электронная система, программный комплекс.



**Annotation:** Currently, the process of digitalization of all links of the education system, in particular, pre-school education, primary education, secondary education, secondary special education and higher education system started and continues. The main goal of digitalization is to improve the quality of education for pupils and students. Many more methods and methods for raising the quality of education are being developed and put into practice. This article describes the orders issued, the work being done and the results of the digitization process.

Keywords: digital Uzbekistan, quality of education, digitization of education, internet, school education, preschool education, mature generation, unified electronic system, software package.

2020 yil 5 oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonida turli sohalar bilan bir qatorda, ta’lim yo‘nalishini raqamlashtirishga oid qator vazifalar belgilangan edi. Ushbu hujjat bilan ta’lim dargohlarini yuqori tezlikdagi Internet bilan ta’minlash, o‘quvchilarning baholarini shaffof tarzda qayd etib borish maqsadida elektron kundalik tizimini joriy etish va boshqalar shular jumlasidan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 5 oktyabr kuni imzolangan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmonining ta’lim sohasini raqamlashtirishga oid bandlari ijrosini ta’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining amalga oshirayotgan ishlari holati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi. 2022-2023 o‘quv yilida 4 724 ta kompyuter sinf xonalari (qariyb 76 ming dona kompyuter), 800 ta interaktiv doska va 442 ta komplekt robototexnika jihozlari maktablarga yetkazib berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalari vazirligi ko‘magida 10 100 ta (99,9%) umumta’lim maktabiga Internet tarmog‘i infratuzilmasi olib kelingan va “Education” tarif rejasidagi internetdan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, 10 185 ta umumta’lim maktabi va “Barkamol avlod” bollar maktabining 12 mingdan ortiq kompyuter sinf xonalari va 10 mingdan ortiq o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari xonasi ichki lokal tarmoq hamda o‘qituvchilar xonasi “Wi-Fi” qurilmalari bilan ta’minlangan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida 20 dan ortiq axborot tizimlari ishlab chiqilib, tizimga joriy etilmoqda. Jumladan: - “Maktab ta’lim jarayonini Yagona elektron tizimi — “erp.maktab.uz” dasturiy majmuasi ishlab chiqilib 14 ta manfaatdor vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazalariga integratsiya qilingan hamda ma’lumotlar ombori yaratilgan. Shuningdek, sinf parametrlari asosida shakllantirilgan sinf jamlanmasi moliyalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining UzAsbo dasturiy majmuasi bilan integratsiya amalga oshirilgan.

O‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash va monitoring olib borish hamda o‘qituvchilar faoliyatiga oid statistika va hisobotlarni yuritish maqsadida “Elektron kundalik” avtomatlashtirilgan axborot tizimini respublika bo‘yicha 10 104 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etilgan.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirishga doir ko‘plab tushunchalar mavjud. Bu tushunchalarning barchasi o‘zgacha g‘oya hamda strategiyalarni taklif etadi.

1. Texnologiya integratsiyasi;
2. Moslashuvchan ta’lim va masofaviy ta’lim;
3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;
4. Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish;
5. Innovatsion pedagogik modellar.

Ta’lim jarayonini tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishga yangicha yondashuvlarni taklif etuvchi bir qancha innovatsion pedagogik modellar mavjud.

— Muammoli ta’lim (PBL): Bu modelda o‘quvchilar real yoki simulyatsiya qilingan muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadilar, bu esa ularga tanqidiy fikrlash, muammoli fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.




— Loyihaga asoslangan ta'lim: Ushbu modelda talabalar bilim, ko'nikma va tadqiqotlarni amaliy qo'llashni talab qiladigan loyihalar ustida ishlaydi. Ular loyihalarni rejalashtirish, amalga oshirish va taqdim etishda faol ishtirok etadilar, bu esa ijodkorlik, mustaqillik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

— Flipped Classroom: Bu modelda o'quv materiallari o'quvchilarga dars oldidan mustaqil ta'lim olishlari uchun taqdim etiladi, dars vaqti esa o'qituvchi rahbarligida faol muhokama, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish uchun ajratiladi. Bu esa o'rganishni individuallashtirish, bilimlarni faol qo'llash va mavzuni chuqur muhokama qilishga e'tibor qaratish imkonini beradi.

— Moslashuvchan ta'lim modeli: Bu modelda o'quvchilar o'z qiziqishlari, ehtiyojlari va o'rganish uslublariga ko'ra mavzular, sur'atlar va ta'lim formatlarini tanlash imkoniyatiga ega. U o'quv jarayonini tashkil qilishda moslashuvchanlikni, jumladan, materiallarga kirishning turli usullarini va bilimingizni namoyish qilishning turli usullarini taklif etadi.

— Dizayn fikrlash: Ushbu model dizayn tamoyillarini muammolarni hal qilish va innovatsiyalarga qo'llashga asoslangan. Talabalar empatiya, muammoni aniqlash, fikrlash, prototiplash va sinovdan o'tish bosqichlaridan o'tadilar, bu esa ijodiy fikrlashni, hamkorlikni va muammolarni hal qilishni rivojlantiradi.

— O'yinga asoslangan ta'lim: Bu modelda o'yin elementlari va texnologiyalari o'quvchilarni o'ziga jalb etadigan va ularni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydigan ta'lim senariylari va vazifalarini yaratish uchun ishlatiladi [1].



1-rasm. Ta'lim konsepsiyasining ijobiy ta'siri.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonini raqamlashtirish juda ham kerakli va foydali jarayon hisoblanadi. Chunki o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli qilish hozirgi zamon talabidir. Buning uchun ta'limda kerakli bo'lgan barcha o'zgarishlarni bajarish lozimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayev Baxtiyor Panji o'g'li. Ta'limni raqamlashtirish konsepsiyalari mazmum va mohiyati. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

2. Asror o'g'li, A. O., & Rahmon o'g'li, S. E. (2024). TA'LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. GOLDEN BRAIN, 2(8), 92-97.

3. Isomiddinovna, N. M. (2024). Principles of Organization and Development of Continuing Education. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(3), 285-288.

4. Khayriddinov, S., & Nodirova, F. (2024). ADVANCED PEDAGOGICAL IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THE SIGNIFICANCE OF EXPERIENCES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (28).

5. Murodullo o'g'li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.

6. Qodirov, F., & Suvonov, B. (2023). Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 168-172.

7. Sunatov, J. R. (2023, December). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).

## TEACHING FOREIGN LANGUAGES BASED ON INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Suvonov Behruz Iskandar o'g'li

Assistant of the "Computer systems" department of the University of Economics and Pedagogy

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tillarni o'rgatish va o'rganishda qo'llaniladigan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, usullari va ularni qo'llash orqali erishiladigan natijalar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Virtual sinflar, raqamli darsliklar, veb-saytlar, mobil ilovalar, dasturiy ta'minot, video konferentsiya.

### Аннотация:

В данной статье рассказывается об информационно-коммуникационных технологиях, используемых в преподавании и изучении иностранных языков, методах и результатах, достигаемых их применением.

### Ключевые слова:

Виртуальные классы, цифровые учебники, веб-сайты, мобильные приложения, программное обеспечение, видеоконференции.

### Abstract:

This article talks about information and communication technologies used in teaching and learning foreign languages, methods and the results achieved by their application.

### Keywords:

Virtual classrooms, Digital textbooks, Websites, Mobile apps, software programs, Video Conferencing.

## INTRODUCTION

The use of Information and Communication Technology (ICT) in teaching foreign languages has revolutionized language education by providing new tools, resources, and methods to enhance learning experiences. Here are some ways ICT can be effectively utilized in teaching foreign languages:

## DISCUSSION AND RESULTS

1. **Online Language Learning Platforms:** There are numerous online platforms and apps specifically designed for language learning, such as Duolingo, Rosetta Stone, and Babbel. These platforms offer interactive lessons, exercises, quizzes, and games to help learners develop vocabulary, grammar, listening, speaking, reading, and writing skills.

2. **Virtual Classrooms and Video Conferencing:** Virtual classrooms and video conferencing tools, like Zoom or Google Meet, enable remote language instruction and collaboration. Teachers can conduct live lessons, interactive activities, and discussions with students from anywhere in the world, providing real-time feedback and support.

3. **Digital Textbooks and E-Books:** Digital textbooks and e-books offer multimedia content, interactive exercises, audio recordings, and video clips to engage learners and reinforce language learning. They provide flexibility in accessing and studying course materials anytime, anywhere, using computers, tablets, or smartphones.

4. **Language Learning Websites and Online Resources:** There are numerous websites and online resources available for language learners, offering grammar explanations,

vocabulary lists, language exercises, audiovisual materials, cultural insights, and authentic language content. Examples include BBC Languages, FluentU, and Linguee.

5. **Language Learning Apps and Games:** Mobile apps and games designed for language learning offer a fun and interactive way to practice language skills on the go. These apps often use gamification techniques, such as rewards, challenges, and leaderboards, to motivate learners and make learning enjoyable. Examples include Memrise, Quizlet, and HelloTalk.

6. **Language Lab Software:** Language lab software provides a virtual environment for language practice and assessment, allowing students to listen to audio recordings, record their own speech, practice pronunciation, and receive feedback from teachers or peers. These tools can be integrated into classroom instruction or used for self-study.

7. **Social Media and Online Communities:** Social media platforms and online communities provide opportunities for language learners to interact with native speakers, join language exchange groups, participate in discussions, and share language learning resources and experiences. Platforms like Facebook, Twitter, and Reddit have language-specific groups and forums for learners to connect and practice.

8. **Speech Recognition and Pronunciation Tools:** Speech recognition technology and pronunciation tools help learners improve their speaking and listening skills by providing instant feedback on pronunciation accuracy, intonation, and fluency. These tools can be integrated into language learning apps, virtual classrooms, or standalone software programs.

## CONCLUSION

Overall, ICT offers a wide range of tools, resources, and opportunities to support and enhance language teaching and learning. By integrating technology effectively into language instruction, educators can create more engaging, interactive, and personalized learning experiences that meet the diverse needs and preferences of learners.

## REFERENCES

1. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O‘zbek tili kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar. *computer linguistics: problems, solutions, prospects*, 1(1).
2. Sunatov, J. R. (2023, December). Ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni. in *international scientific and practical conference on the topic: “Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
3. угли Сунатов, Ж. Т., & Юсупов, Ш. (2024). Анализ современных языков программирования и их возможности в образовательном процессе. *Innovative Development in Educational Activities*, 3(3), 73-79.
4. Qodirov, F., & Suvonov, B. (2023). Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 168-172.
5. Iskandar o‘g‘li, S. B. (2023). TABIIY GAZNI QAYTA ISHLASH JARAYONINING INTELLEKTUALLASHTIRILGAN BOSHQARUVIDA NOANIQ MANTIQ ASOSIDAGI MODEL DAN FOYDALANGAN HOLDA NAZORAT QILISH.
6. Abduqodirov, A. A., Yusupbekov, A. N., Suvonov, B. I., & Toshtemirov, R. T. (2022). TABIIY GAZNI QAYTA ISHLASH JARAYONINING INTELLEKTUALLASHTIRILGAN BOSHQARUVIDA NOANIQ MANTIQ ASOSIDAGI MODEL DAN FOYDALANGAN HOLDA NAZORAT QILISH. *Инновационные подходы, проблемы, предложения и решения в науке и образовании*, 1(1), 100-108.
7. Murodullo o‘g‘li, J. U. Application of information technologies in technical systems in engineering fields.
8. Khayriddinov, S. (2023). Cloud technologies as a tool for forming personal information educational environment. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(4), 72-76.

9. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). Ta'limda kompyuter texnologiyasidan foydalanish (ms powerpoint amaliy dasturiy ta'minot misolida). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
10. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). SUN'IY INTELLEKTUAL TIZIMLARDA NOANIQ MANTIQNING AHAMIYATLILIGI VA UNING ANIQ MANTIQDAN FARQI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
11. Khayriddinov, S., & Nodirova, F. (2024). Advanced pedagogical in improving the quality of education the significance of experiences in the educational system. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (28).
12. Asror o'g'li, A. O., & Rahmon o'g'li, S. E. (2024). Ta'limga veb platformalarni joriy etishni tahlil qilish. *golden brain*, 2(8), 92-97.
13. Isomiddinova, N. M. (2024). Principles of Organization and Development of Continuing Education. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, 2(3), 285-288.
14. Berdiyeva, S. (2024). Improving the methodology of preparing students for creative activity based on foreign experiences. *Talqin va tadqiqotlar*, (28).

## **AZOLLA CAROLINIANA WILLD. NING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING AHAMIYATI**

**Islomov R.A. NavDPI Biologiya mutaxassisligi I bosqich magistranti**  
**Ilmiy rahbar: prof v.b. S.O.Xo'jayev**

**Annotatsiya:** Maqolada *A. caroliniana* ning bioekologik, morfologik, kimyoviy tarkib xususiyatlari, tadqiqot davomida ekologik sof bioo'g'it tayyorlash va undan foydalanishning iqtisodiy samarador biotexnologiyasini yaratish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *kserofitlar, mezofitlar, gigrofitlar, gidrofitlar, karolina azollasi, ekologik sof bioo'g'it*

Bugungi kunga kelib qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan oziq-ovqat ekinlarini hosildorligini oshirish maqsadida iqtisodiy samaradorligi yuqori, ekologik xavfsiz biologik o'g'itlarni yetishtirish masalasi katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari inson organizmi uchun zarur bo'lgan oqsilga boy o'simlik mahsulotlarini ozuqaviy qiymatini oshirish, o'sish ko'rsatkichlarini yaxshilash muhim sanaladi.

Karolina azollasi - *Azolla caroliniana* Willd. Vatani – Shimoliy Amerika. Azolla suv yuzasida suzuvchi chiroyli yashil orolchalar hosil qiluvchi qirqquloqdir. Hozirgi davrda Azollaceae oilasining 6 ta turi bo'lib, ular 2 kenja turkumga – (Euazolla va Rhizosperma) kiradi. Ular: karolina azollasi (*A. caroliniana* Willd.); qirqquloqsimon azolla (*A. filiculoides* Lam.); meksika azollasi (*A. mexicana* Presl); mayda bargli azolla (*A. microphila* Kaulfuss); patsimon azolla (*A. pinnata* R.Br.); nil azollasi (*A. nilotica* De Saisne). [1] Boshqa turlar butun dunyoda tropik mo'tadil iqlimda keng tarqalgan. Bu turlar tinch oqmaydigan suvda va sekin oqadigan suv havzalarida o'sadi. Ular asosan vegetativ tarzda ko'payadi, yon shoxlari osongina ajraladi va suv oqimi bo'ylab boshqa suv havzalariga tarqaladi. Ayrim qit'alarda azolla turlarining tarqalishiga qushlar, suv hayvonlari va odamlar sabab bo'lishi mumkin. Qadimda O'rta Osiyoda azolla keng tarqalgan bo'lib, uning qoldiqlari Ustyurtda (oligosen) topilgan.[2] D.V. Dubina, V.V. Protopopova (1980) ma'lumotlariga ko'ra, bu oilaga mansub *A. caroliniana*, *A. filiculoides* turlari Ukrainaning ayrim suv havzalarida, asosan, Dnepr, Dnestr va Janubiy Bug daryolarining quyi qismida uchraydi [3].G.C. Avena va boshqalar. (1974) ma'lumotlariga ko'ra, *Azolla caroliniana* Rim va Torritta hududidan oqib o'tuvchi Tiber daryosida ham topilgan va birinchi marta Latiumda (Markaziy Italiya) ham topilgan. Rossiya shtatlarida qirrasimon azolla (*A. filiculoides*) va karolina azolla(*A. caroliniana*) uchraydi. Azolla turlari Amerika, Yangi Zelandiya, Angliya, Irlandiya, Germaniya va Yaponiyada iqlimga moslashgan. Karolina azolla (*Azolla caroliniana*) AQShning sharqiy qismida, G'arbiy Hindistonda, Ispaniyada joriy qilingan va Frantsiya, Niderlandiya, Germaniya va boshqa Evropa mamlakatlarida ham uchraydi.

Meksikalik Azolla (*A. mexicana* Presl.) Janubiy Amerikadan Kanadaga tarqaladi; mayda bargli azolla (*A. microphylla*) Gavayi orollarida uchraydi; Patsimon azolla (*A. pinnata*) Afrikaning janubiy qismida, Avstraliya, Indoneziya, Filippin, Hindiston, Vetnam, Xitoy va Yaponiyada keng tarqalgan. Ukraina sharoitida D.A. Dubina va V.V. Protopopovalar *A. caroliniana* va *A. filiculoides*ning Dunay daryosi havzalarida tarqalishini aniqlab, ularning ekologik va biologik xususiyatlarini chuqur o'rgandilar [4]. T.A. Lumpkin va D.L. Plucknettning fikricha, tabiiy sharoitda Azolla turlarining rivojlanishi va tarqalishida hayvonlar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida o'sadigan azolla turlarining tarqalishiga qushlarning ta'siri katta.[5]

Bu turlar o'zaro reproduktiv (ko'payish) organlarining tuzilishi bilan farqlanadi.

Tadqiqot obyekti-Azolla *caroliniana* Willd (suv qirqqulog'i - karolina azollasi) Polypodiopsida sinfi, Salviniiales qabilasi va Azollaceae oilasiga mansub o'simlikdir.

Bu o'simlik vegetativ usulda ko'payadi. Azolla tuzilishiga ko'ra qirqquloq azollasi hamda uning tanasida joylashgan ko'k-yashil suv o'ti- *Anabaena azollae* dan iborat hamjihat (simbioz) organizmdir. *Azolla caroliniana* qadimdan Vetnam va boshqa Osiyo mamlakatlarida sholi hosilini oshiruvchi —yashil o'g'it hamda sholizorda boqilayotgan baliqlarga ozuqa sifatida ishlatib kelinadi.

Hozirgi paytda mazkur o'simlik O'zbekiston sharoitiga muvaffaqiyatli introduksiya qilingan va ochiq suv havzalarida o'z areallarini kengaytirib bormoqda.

Oqova suvlarni tozalashda. Suv o'simliklarining kollektor-zovur suvidagi tuzlarning (Cl, SO<sub>4</sub>, Na, Mg, Ca hamda quruq qoldiq) va ozuqa moddalar (NO<sub>3</sub>, PO<sub>4</sub>, K) miqdoriga ta'sirini aniqlash bo'yicha kuzatuvlar olib borilgan. Quvvatov D.A ma'lumotlariga ko'ra *Azolla caroliniana* suv o'simligi ekilgan kollektor-zovur suvidagi :Xlor (Cl) miqdori 17% gacha kamayib 0,095 g/l ni; Sulfat (SO<sub>4</sub>) 13% gacha kamayib, 2,26 g/l ni ; Quruq qoldiq miqdori 0,710 g/l ga kamayib, 3,167 g/l ni tashkil qilgani va sezilarli darajada kamaygani aniqlangan.[6]

Baliqchilikda. Bu o'simlikni ho'l holda ham, quritilgan holda ham hayvon, parranda va baliqlarga bersa bo'ladi. Bu baliqchilik fermer xo'jaliklari uchun kam xarajatli texnologiya hisoblanib, ushbu texnologiya boshqa faoliyat turlarining chiqindilarini utilizatsiya qilgan holda katta sarf-harajatlarsiz qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lish imkonini beradi. Suv o'simliklarining biomassasi o'simlikxo'r baliqlarni oziqlantirish uchun yo'naltiriladi. Suv o'simliklari – oq amur, qisman plankton uchun ozuqa hisoblanadi. Oq amur hayot faoliyatining chiqindilari ham plankton uchun yem bo'ladi. Planktonni esa do'ngpeshona va karplar yaxshi iste'mol qiladi. Baliqchilik suv havzasi mahsuldorligining eng yaxshi nisbati – omuxta yemdan foydalanmagan holda gektariga 1,5-2 tonnani tashkil qiladi. Tizimning ustunligi shundaki, mazkur jarayonda go'ng yoki yashil o'g'itlar (kompost ko'rinishida) chorvachilik yoki dehqonchilik chiqindilari ham hosil bo'lishi mumkin.[7]

Qishloq xo'jaligida. Azolla bizning sharoitimizda ham o'z xususiyatlarini yo'qotmagan holda turli ozuqaviy muhitda zarur miqdorda biomassa hosil qilib azotni o'zlashtiradi. Azollaning ana shu foydali xususiyatlaridan qishloq xo'jaligida, ayniqsa, sholi yetishtirishda foydalanish ekologik toza va mo'l hosil olish imkonini bermoqda. Azolladan yashil o'g'it sifatida foydalanilganda sholining hosildorligi 20-40% ga oshadi. Shunday qilib, azolla biomassasi quritiladi, qadoqlanadi va o'g'it yoki to'yimli ozuqa sifatida ishlatiladi. Bu ozuqa muhim aminokislotalar guruhiga ega. [8] Uglevodlar, karotin va boshqa biologik faol moddalarga boy. *Azolla caroliniana* molekulyar azotni biriktirishga qodir va yashil o'g'it va ozuqada qimmatli qo'shimcha sifatida, shuningdek, oqava suvlarni tozalash uchun istiqbolli hisoblanadi. Shu munosabat bilan, Azolla yetishtirish uchun optimal muddatlarni, atrof-muhit sharoitlarini va ozuqaviy muhitlar tarkibini aniqlash dolzarbdir.

Biz *A. caroliniana*ning bioekologik, morfologik, kimyoviy tarkib xususiyatlarini o'rganish orqali tadqiqot davomida ekologik sof bioo'g'it tayyorlash va undan foydalanishning iqtisodiy samarador biotexnologiyasini yaratishni maqsad qilib qo'yganmiz. Tadqiqotning muhim tomonlaridan biri yangi bioo'g'itlar ilk bor yuksak suv o'simliklari asosida tayyorlanishi, ularni

yetishtirishning oddiy uslublarga asoslanganligi, hamda ulardan foydalanish alohida agrotexnikalarni talab etmasligidir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1.Gogotov I.N., Laurinavichene T.V. Nitrogen-fixing association Azolla-Anabaena azollae // Uspekhimicrobiologii. - M.: 1989. - No. 23. - S. 91-112.

2.Hills L.V., Gopal B. Azolla primaeva va uning filogenetik ahamiyati // Cand. J. Bot., 1967. 45.b

3.Dubina D.V., Protopopova V.V. Novye dlya floriy SSSR vidy vodyanyx paporotnikov zrodiniAzollaceae // Ukrainskybotanicheskiy zurnal - Kiev, 1980. - No 5.

4.Dubina D.V., Protopopova V.V. Ekologo-biologik osobennosti AzollacarolinianaWilld. i A. filiculoides Lam. // Rastitelnyeresursy. – L.: Nauka, 1983. – No. 4

5.Lumpkin TA, Plucknett DL. Azolla: botanika, fiziologiya va yashil go'ng sifatida foydalanish // Ekon. Bot., 1980.

6.Quvvatov D.A. Suv o'simliklarining kollektor-zovur suvlari mineralizatsiyasiga ta'siri // O'zbekiston zamini Ilmiy-amaliy innovatsion jurnal 2023 yil 1- son.71.-b

7. Raxmonov V.N. Azolla (*Azolla*) o'simligidan baliqchilikni rivojlantirishda foydalanish. // Republican Scientific and Practical Conference.2022. 639.-b.

8. Norboboeva R.B. *Azolla karolina*Willd.ning bioekologik xususiyatlari va undan guruch yetishtirishda foydalanish istiqbollari // Muallifning avtoreferati. diss. Ph.D. biol. Sci. – Toshkent, 2012. – 21 b.

## **SINGARMONIZM HODISASINING TARIXIY ILDIZLARI VA BUGUNGI HOLATI**

**Vapoyeva Mohinur Odiljon qizi**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi**  
**Telefon raqam: +998 94 161 31 07**  
**[mohinurvafoyeva72@gmail.com](mailto:mohinurvafoyeva72@gmail.com)**  
**Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc), dotsent F.H Yuldashev**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek tilidagi singarmonizm hodisasi va uning bugungi kundagi o'rgatilishi, amalda qo'llanilishi, grammatik qoidalar bilan chegaralanishi va mazkur hodisa haqida olimlarning fikr-mulohazalari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** singarmonizm, turkiy til, unli va undoshlar, nutqiy qulaylik

Har bir tilning grammatik qurilishi va sistemasi mavjud bo'lib, ular o'ziga xos qulaylik hamda murakkab shaklga ega. Ushbu qulaylik yoki murakkablik turli ta'sirlar natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Xususan, o'zbek tilining grammatik qurilishi turli davrlarda turli sabablarga ko'ra o'z qurilishi va tuzilishida ma'lum o'zgarishlarga yuz tutgan. Ayniqsa, fonetik hamda orfografik sathda uzoq yillar mobaynida bahs va munozaralarga sabab bo'ladigan mavzulardan biri bu singarmonizmdir.

Singarmonizm hodisasini olimlarimiz o'z tadqiqotlarida turli tomondan yoritganlar. Ba'zi jonkuyar olimlarimiz singarmonizm bizning til uchun zarur, uni chuqur o'rganaylik, imkon qadar undan foydalanaylik, degan fikrni ilgari sursa, boshqalari uni keskin rad qilib, o'zbek tilidagi singarmonizm tilning tabiiy o'sishi, rivojlanishi natijasida yo'qoldi va uni qayta tiklashga ehtiyoj yo'q, degan qat'iy xulosaga kelganlar. Masalan, Q. Mahmudov bu borada: "Turkistonda yashagan turkiy xalqlarning an'anaviy tili yaqinligini, ildizi birligini, o'zbek tilining bir guruh shevalarida singarmonizm mavjud ekanligini, mumtoz o'zbek adabiy tili ham singarmonizm qonuniga asoslanganligini inobatga olish zarur" [1] degan fikrlarni bildirgan.

S.Otamirzayeva esa bir maqolasida “O‘zbek adabiy tilida singarmonizmni tiklashning iloji ham unga ehtiyoj ham yo‘q. Til o‘z mexanizmidan yaroqsiz sifatida chiqargan vositani qabul qilmaydi” deb yozadi. [2]

Xo‘sh, umuman olganda, singarmonizm hodisasi bizning milliy tilimiz uchun kerakmi yoki yo‘q? Bu muhim savol va unga asos qanday bo‘ladi?

Professor V.V. Reshetovning ta‘kidlashicha, o‘zbek adabiy tili o‘zaklar, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi formantlar tizimida o‘zaro qarama-qarshi unilarga asoslangan tipik turkiy fonetik xususiyat sanalgan singarmonizmni yo‘qotgan. [3] Ammo bu fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi o‘zbek tilshunosligiga oid ilmiy manbalarda haligacha o‘zbek tilida bu hodisaning batamom yo‘qolmaganligi, turkiy tillarga xos bo‘lgan bu qonuniyatning qisman, ayrim so‘zlarda esa to‘la saqlanganligi ta‘kidlanadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, singarmonizm hodisasining tilimiz uchun jiddiyligini, o‘z vaqtida oldi olinmasa, turli muammolarni keltirib chiqarishini anglab yetgan Ashurali Zohiriyning singarmonizm haqidagi fikrini keltirib o‘tish zarur deb o‘ylaymiz.

“Bizda singarmonizm yuz foiz bo‘lg‘usidir, tilimizda aralashgan ajnabiy so‘zlarni ham o‘z qoidamiz (singarmonizm)ga bo‘yin so‘ndiramiz. Bundan bo‘yin tovlaydurg‘onlari o‘rnig‘a o‘z tilimizdan so‘zlar topishga harakat qilamiz. G‘ijjak, g‘ildirak, g‘altak, pildiroq, yo‘lak singari o‘zlashgan forsiy so‘zlar (yoki forsiycha qo‘shimcha qo‘shilg‘on so‘zlar)ni o‘zgartirmasdan singarmonizm qoidasidan mustasno qilamiz”. [4] Bizning nazarimizda, singarmonizm hodisasining yo‘qolib borishiga, nafaqat singarmonizm balki, tilimizning zaiflashishiga turli bosqinlar asosan, ruslarning tilshunosligi, uning “qolipi” va “moslashtirish” qonuniyatining ustunligi sabab bo‘lgan.

Biz 1929-yilgacha arab yozuvidan, 1930-1940-yillarda lotin yozuvidan, 1940-yilda to hozirgi yilgacha krill alifbosidan foydalanganmiz. 1993-yil 2-sentyabrda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etildi. Unda 31 ta harf, 1 ta tutuq belgisi mavjud edi. 1995-yil 6-mayda bu qonunga o‘zgartirish kiritildi va shu qonunga muvofiq alifbomiz 29 ta harf 1 ta tutuq belgisi va 6 ta unli iborat edi. 1995-yil 24-avgustda lotin alifbosining imlo qoidalari ham joriy etildi. [5] Aynan shu davr va undagi turli qoidalarning o‘zgarishi ushbu hodisaning to‘liq saqlanib qolishiga ham ta‘sir etdi. Singarmonizm lotincha unilarning uyg‘unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I.A.Bogorotskiyning fikriga ko‘ra, “singarmonizm unililar uyg‘unligi lekin qisman undoshlarga ham taalluqlidir”. [6] Masalan, *boshlagan, kelgin* so‘zlaridagi sifatdosh qo‘shimchasining g va g‘ undoshlarida qatnashishi unililar uyg‘unligi tufaylidir. Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek tilida unililar singarmonizmga rioya qilgan. Masalan, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq haqoyiq” asaridagi:

*Sevumek tilarsen kishiler ara,  
Ahbi bol ahbilbek seni sevdurur.*

Ushbu misralarni oladigan bo‘lsak unililar talaffuzi unililar qonuniga mos holda yo‘nalganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘sha davrdagi boshqa yozma yodgorliklarda bo‘lganidek, asar tilidagi qadimgi “y” undoshi o‘rniga “z” undoshining qo‘llanish hollari ham uchraydi.

Otajon Hoshim “Boku plenumi natijasi” nomli maqolasida: “Singarmonizm butun turk tili lahjalariga xosdir. U turk tili asosidir. Singarmonizm turk tilining temir qonunidir. O‘zbek, umuman, turk tiliga kirib qolg‘on fors, arab va boshqa chet so‘zlarni butun turk lahjalari uchun umumbo‘lg‘on singarmo‘nizm qonuniga bo‘yinsundirish kerak... O‘zbek tilini va lotin alifbosini singarmo‘nizmni saqlag‘on o‘zbek shevalariga asos qilish kerak”. [7]

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi mavjud va unga biz bevosita hamda bilvosita amal qilamiz, degan fikrlar olimlar, ziyolilar tomonidan bildirilgan va biz ham ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda aytmoqchimizki, singarmonizm hodisasi nutqimizda hali ham mavjud.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Махмудов Қ. Қадимги Туркистон. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1995 йил 24 ноябрь.



2. С.Отамирзаева. Сингармонизмни тиклаш шартми? “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1996 йил 19 январь.
3. <http://www.fayllar.org/mavzu-turkiy-tillarning-fonetik-fonologik-morfem-morfologik-le.html?page=7>
4. Ашурали Зоҳирий. Лаб оҳанги тўғрисида. “Қизил Ўзбекистон”, 1929 йил 31 март.
5. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://uz.wikipedia.org/>
6. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. 16-bet
7. Боку пленуми натижаси. “Маориф ва ўқитғувчи”. Тошкент, 1927. 7-8-сонлар. 54-57-бетлар.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA “TARBIYA” FANINING O‘RNI

**Xoliqulova Moxichehra Nodir qizi**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**1-kurs magistranti. Tel: +99893 464-09-27**  
**[xoliqulovamoxichehra2306@gmail.com](mailto:xoliqulovamoxichehra2306@gmail.com)**

**Ilmiy rahbar: p.f.f.d(PhD)Holikulova Feruza Xasanovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va bunda “Tarbiya” fanining roli haqidagi masalalarga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Tarbiya” fani, tarbiya, axloq, fazilat, o‘quvchi, yosh avlod, barkamol inson.

### РОЛЬ НАУКИ “ОБРАЗОВАНИЕ” В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация.** В данной статье основное внимание уделяется формированию духовно-нравственных качеств у учащихся начальных классов и роли образования в этом.

**Ключевые слова:** наука об “Образования”, образование, этика, добродетель, ученик, молодое поколение, совершенный человек.

### THE ROLE OF “EDUCATION” SCIENCE IN THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Annotation.** This article focuses on the formation of spiritual and moral qualities in primary school students and the role of “Education” in this.

**Keywords:** science of “Education”, education, ethics, virtue, student, young generation, perfect person.

Mamlakatimiz huquqiy demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodning ma’naviyatli, yuksak axloqli shaxs, barkamol avlod, komil inson bo‘lib yetishishlariga alohida e’tibor qaratmoqda. Chunki o‘tib kelayotgan yosh avlod Vatanimiz kelajagi, ertamiz bunyodkorlaridir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘tib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir” – deb alohida ta’kidlagan.[4] Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqini ham yodga olmog‘imiz kerak. “Bugun dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq” [2]. Bundan kelib chiqadiki, yosh avlod tarbiyasiga yetarli darajada e’tibor qaratish orqali biz kelajagimiz uchun mustahkam zamin yaratgan bo‘lamiz.



Azaldan ma'lumki, inson va jamiyat taraqqiyotida tarbiya o'ziga xos yetakchi o'rin tutadi. Shu bois ham buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi [5]. Hozirgi kunda yoshlarning nafaqat bizning ta'lim tizimimizda, balki jahon ta'lim tizimida ham ta'lim oluvchilarni har tomonlama tarbiyalab, komil inson sifatida voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda rivojlangan davlatlarning ta'lim oluvchilarda yuksak insoniy, axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo'yicha ustuvor munosabatlar tarkib topganligini ta'kidlash joiz. Xalqaro ta'lim dasturlarida ham ta'lim oluvchilarda eng yuksak va ideal axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish masalalari o'z aksini topgan va zaruriy talablar belgilab qo'yilgan. Mazkur jarayon davlatlarning ta'lim tizimida ham o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida shaxsni barkamol voyaga yetkazish islohotlari amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy e'tibor umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarining axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilayotganligi muhimdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish tizimi va uning xususiyatlari hamda amaliyoti masalalarini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu masala Yangi O'zbekiston taraqqiyotining negizlaridan birini tashkil etadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash,[1] shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi[3]. Ushbu konsepsiyada I — XI sinflar uchun "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Dinlar tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fanini joriy qilindi.

Germaniyada tarbiya jarayoni haqo'ylik milliy g'oyasi, Angliyada tarbiya jarayoni oliyanoblik milliy g'oyasi, Fransiyada tarbiya jarayoni ma'rifatparvarlik milliy g'oyasi, Italiyada tarbiya jarayoni dunyo xalqlarini hurmat qilish milliy g'oyasi, Saudiya Arabistonida tarbiya jarayoni diniy bag'rikenglik va odamlarni tushunuvchanlik milliy g'oyasi asosida amalga oshiriladi.

Shu sababli ham xorijiy davlatlarning ta'lim va tarbiya tizimlaridan andoza olgan holda maktablarda "Tarbiya" nomli darslik joriy qilindi. Shu bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalarida ham "Tarbiya" fani amaliyotga joriy qilindi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insoniy fazilatlarni shakllantirish har bir o'quv fanining vazifasi hisoblanadi. Biroq shunday bo'lsada, bu masalada "Tarbiya" fanining o'rni beqiyos. Chunki o'quvchilarda yoshiga mos ma'naviy-axloqiy fazilatlar – Vatanga sadoqat, rostgo'ylik, mehr-oqibatlilik, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, mafkuraviy immunitet, bag'rikenglik, irodalilik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, g'amxo'rlik singari fazilatlar ko'proq "Tarbiya" darslari orqali shakllantiriladi. 1-sinf "Tarbiya" darsligini tahlil qiladigan bo'lsak, darslikda berilgan mavzular orqali o'quvchilarda quyidagi fazilatlarni shakllantirish mumkin: o'zbek ekanligidan faxrlanish ("Men o'zbekman"), o'zlikni anglash ("Men kimman"), ahillik, birdamlik ("Kuch – birlikda"), bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish ("So'zlashish odobi"), hamjihatlik ("O'zaro yordam", "Birgalikda uddaladik"), do'stlik va ishonch ("Ikki o'rtoq va ayiq"), halollik va rostgo'ylik ("Gul o'stirolmagan bola"), kamtarlik ("Toshbaqa bilan quyon"), mehmondo'stlik ("Mehmondorchilik odobi"), yaxshilik qilish ("Oqila malika"), bag'rikenglik, millatparvarlik, vatanparvarlik ("Bag'rikeng yurtim") [7]. Shu bilan bir qatorda darslikda berilgan ijodiy, tanqidiy, teran fikrlashga undovchi yozma va og'zaki topshiriqlar, o'quvchilarni ijobiy xulosa chiqarishga undovchi hikmatlar, xalq o'g'itlari ham mavjudki, ular orqali o'quvchilarda ustozga hurmat, maktab mulki va tabiatni asrab-avaylash, tabiatga g'amxo'rlik qilish, tejamkorlik, ustozga hurmat, tozalik, orastalik, tartib-intizomlilik, mustaqillik, kattalarga

yordam berish, odoblilik, g'amxo'rlik, o'zidan yaxshi iz qoldirish, muomala madaniyati, birovning mehnatini qadrlash singari bir qator ma'naviy- axloqiy fazilatlar ham shakllanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, o'sib kelayotgan yosh avlodda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, insoniy xislatlarini shakllantirish, yosh avlodning ong-u shuuriga yuksak insoniy fazilatlarini singdirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalaridan ham foydalansak, albatta, tarbiya tizimida yuksak natijalarga erishamiz. Albatta, bu jarayon "Tarbiya" fani o'qituvchilari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ 4307-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi", 2019-yil, 21-sentabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli Qarori.

4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T: Ma'naviyat, 2008-yil.– 176 b.

5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.

6. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2022. – 111 b.

7. Usmanova O.V., Risyukova Y.V. "Tarbiya" 1-sinf uchun darslik. – T: Novda Edutainment, 2023. – 120 b.

## **БОЛАШАҚ МУҒАЛИМДЕРДЕ ЦИФРЛЫҚ ҚҰЗЫРЕТТІЛІКТІ ДАМУ – 21 ҒАСЫРДЫҢ ӨЗЕКТІ МӘСЕЛЕСІ**

**Л.Н. Гумилев атындағы Еуразия Ұлттық Университеті  
Экономика факультеті 3-курс студенті  
Усенбаева Улдай Ғылыми жетекші: Молдакенова Еркежан**

Елімізде жүргізіліп жатқан реформалар жоғары оқу орындарының оқу үдерісінің материалдық-ақпараттық базасын нығайту, жоғары сапалы оқу әдебиеттерімен және озық педагогикалық технологиялармен қамтамасыз ету, әлемнің жетекші ғылыми және білім беру мекемелерімен ынтымақтастық орнату, білім беру ұйымдарының білім беру ұйымдарының білім беру жүйесін дамыту қажеттілігін күшейтеді. Педагогтардың заманауи кәсіби білімі мен педагогикалық шеберлігін үздіксіз жетілдіру.

Жоғары оқу орындарында білім сапасын арттыру шараларында «Елімізде жүзеге асырылып жатқан кешенді реформаларға жоғары оқу орындарының қатысуы мен бастамашылдығын арттыру, профессор-оқытушылар құрамының білімі мен педагогикалық шеберлігін бақылау сияқты міндеттер жүктелді.

Кез келген күрделі заманауи ақпараттық коммуникациялық технологияларды, интеграцияларды, ғылым саласындағы әмбебап жаңалықтарды, цифрлық тенденцияларды алдымен мұғалім меңгеріп, оның біліміне, деңгейіне, қабілетіне қарай шәкірт санасына, ой-өрісіне жеткізеді. Жылдан жылға мұғалімнің кәсіби қызметіне қойылатын талаптар артып келеді. Бұл қазіргі заманның талабы. Сондықтан ұстазға қатысты қолданылып жүрген педагогикалық шеберлік термині ешқашан өз орнын жоғалтпай, заман талабына сай жетілдіріп, байып, өзгеріп отырады.

Цифрлы қоғамды дамытуда болашақ мамандарды технологиялық өндіріс саласына және қоғам заңдылықтарына байланысты білімдерге сүйене отырып, кәсіби әлеуеті тұрғысынан даярлаудың негізін дайындау орынды. Заманауи білім беру жағдайында сандық құзыреттілігі бар мұғалімдерді даярлаудың тетіктерін, құралдарын және

технологияларын әзірлеу мәселелері өзекті болып қалуда. Өз кезегінде бұл қызметтің осы саласында цифрлық құзыреттілігі жоғары мұғалімдерді даярлаудың мәнін ғылыми тұрғыдан түсіну қажеттігін білдіреді. Цифрлық құзыреттер ұғымы адамның (азаматтың, жұмысшының, студенттің) қызмет тиімділігін арттыру мақсатында ақпараттық-коммуникациялық технологияларды әртүрлі жағдайларда (жұмыс, бос уақыт, оқу) пайдалану қабілетінің сипаттамасы ретінде сипатталады. Басқа шетелдік дереккөздерде цифрлық құзыреттілік жұмысқа, білім алуға, бос уақытты өткізуге, қоғамға қатысуға байланысты мақсаттарға жету үшін АКТ-ны сенімді, сыни және шығармашылықпен пайдалану ретінде анықталады. Бүгінгі таңда цифрлық құзыретті мамандарды қалыптастыру қазіргі қоғамның білім беру жүйесінің басты міндеттерінің бірі болып табылады. Міндетке мультимедиялық білім беру технологиялары негізінде АКТ құзыреттілігін оқыту әдістемесін мақсатты түрде енгізу арқылы ғана қол жеткізуге болады, онда білім алушыға жаңа білімді түсінуге, оларды сабақта шебер қолдану барысында инновациялар жасауға мүмкіндік беру және жасалған жаңа әдістерді тәжірибеде тиімді қолдану. Дәл осы себепті заманауи білім беруді цифрландыру дәуірінде интерактивті технологиялар мен мультимедиялық құралдардың көмегімен жоғары білім беруді ұйымдастыру жүйесі студенттерінің цифрлық құзыреттілігін дамыту заманауи білім берудің басты міндеттерінің бірі болып табылады.

Ғалымдар Е.Е.Щербик, А.А.Кондакова цифрлық құзыреттіліктерді қалыптастыруды бағалауда үш деңгейді анықтауға болатынын айтады:

- жоғары. Ол цифрлық және ақпараттық-коммуникациялық технологияларды (сандық өнімді жасауды қоса алғанда) толық пайдалану мүмкіндігімен сипатталады;

- орташа. Оны барлық цифрлық құзыреттердің бар екенін білу деп сипаттауға болады, бірақ оларды тек ішінара қолдану;

- төмен. Цифрлық компоненттер туралы білімнің болуынан айырмашылығы, білім компоненттерін кәсіби міндеттермен байланыстыруға болмайды. Сондықтан цифрлық құзыреттілікті дамыту үшін пәндер арасындағы байланыстарды пайдаланып қана қоймай, оқытылатын пәндерге жеке интерактивті әдістерді пайдалана отырып оқытудың заманауи әдістерін енгізу қажет. Сарапшылардың пікірінше, цифрлық құзыреттілік өмірдің барлық салаларында ақпараттық қоғам технологияларын сенімді және сыни пайдалануды білдіреді. Цифрлық құзыреттілік ақпараттық-коммуникациялық технологиялар саласындағы негізгі дағдыларға негізделеді

XXI ғасырдағы зерттеулердің маңызды сипаттамалары мыналардан көрінеді:

- ақпарат құру;

- ақпаратты іздеу;

- ақпаратты сұрыптау;

- ақпаратты ассимиляциялау.

Оқыту сапасын сақтай отырып, білім беруде цифрлық технологияларды тиімді пайдалану үшін келесі міндеттерді сәтті шешу қажет: Біз ең алдымен еліміздегі интернет инфрақұрылымын жетілдіріп, ұялы байланыс операторлары көрсететін қызметтердің сапасын арттырып, халықтың ең маңызды бөлігінің, әсіресе студенттер мен жастардың заманауи ақпараттың соңғы жетістіктерін меңгеруіне жағдай мен жеңілдіктер жасауымыз керек. Сонымен бірге оқу процесін ұйымдастыруда цифрлық технологияларды қолдану аясын кеңейту және ақпараттық ресурстарды, оқу құралдары мен қашықтықтан оқыту технологияларын дамыту, шығармашылықпен жұмыс істейтін студенттерді университеттерді цифрландыру жобаларына тарту, құзырлы органдарға өзгерістер енгізу бойынша ұсыныстар енгізу. Жоғары оқу орындарының қызметін реттейтін нормативтік-құқықтық құжаттарға, орталықтарды, оның ішінде тиімді цифрлық құрылғылармен жабдықталған құрылымдарды, оқу кабинеттерін, зертханаларды, медиа-студияларды және т.б. жоғары деңгейде ұйымдастыру және оларда жинақталған тәжірибені барлық жоғары оқу орындарында қолдануды жолға қою керек.

Заманауи ақпараттық-коммуникациялық технологиялар мен білім беру технологияларының берік интеграциясын қамтамасыз ету, осыған байланысты педагогтардың кәсіби шеберліктерін үздіксіз дамыту үшін қосымша жағдайлар жасауымыз керек. Кейінгі кезекте интерактивті презентация жүйелерін пайдалану, дәрістер мен семинар сабақтары үшін интернетке байланысты интерактивті және мультимедиялық презентацияларды әзірлеу сияқты тақырыптар бойынша мұғалімдердің біліктілігін арттыру курстарын ұйымдастыру және өткізу қажет. Нақты уақыт режиміндегі интерактивті презентация жүйелерін, бейнеконференция жүйелерін, виртуалды залдарды, электронды ресурстарды пайдалана отырып, кез келген уақытта қашықтықтан оқыту процесін жүзеге асыруды жолға қою керек. Сонымен бірге дидактикалық материалдар мен тәжірибелік дизайнды әзірлеуде бұлтты технологияларды, виртуалды шындықты, толықтырылған шындықты және 3D басып шығаруды пайдалану, сандық дидактика мен цифрлық оқыту модельдерін пайдалану, мұғалімдер мен студенттерге арналған ғылыми веб-сайтты пайдалану, жобаларды, тезистерді, ғылыми зерттеулерді және т.б. сайттарды әзірлеу керек. Сонда ғана білім сапасын төмендетпей, цифрлық технологияларды пайдаланып, оқушыларға бүгінгі күн талабы деңгейінде білім бере аламыз.

### ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ

1. Әлімов А. Интербелсенді әдістемені ЖОО-да қолдану мәселелері. Оқу құралы. – Алматы, 2013.
2. Құдайбергенова К.С. Инновациялық тәжірибе орталығы-педагогикалық технология көзі. Алматы. 2001 жыл.
3. Қ.М. Нағымжанова. Оқыту технологияларын таңдау және мұғалімнің кәсіби педагогикалық мәдениеті. 2005.

### BOLALARDA ZARARLI ODATLAR SHAKLLANISHINING OLDINI OLISH VA ULARNI BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI

NavDPI Pedagogika va psixologiya  
ta`limy o`nalishi 4 kurs talabasi

Muyidinova Gulbahor Ilmiy rahbar: D.X.Umurzoqov

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirish va zararli odatlar shakllanishining oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha psixolgoik mulohazalar, tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Odatlar, zararli odatlar, insoniy fazilatlar, xulq-atvor, me`yor.

#### Аннотация

В данной статье представлены психологические соображения и рекомендации по формированию человеческих качеств у молодого поколения, профилактике и устранению вредных привычек.

Ключевые слова: Привычки, вредные привычки, человеческие качества, поведение, норма.

#### Annotation

This article presents psychological considerations and recommendations for the formation of human qualities in the younger generation, prevention and elimination of bad habits.

Key words: Habits, bad habits, human qualities, behavior, norm.

Odatlar haqida gapirganda, avvalo shunga izoh berish kerakki, odat – bu bajarilishi ehtiyojga aylanib qolgan harakat, ya`ni o`sha amalni yoki harakatni bajarmasdan turib odam go`yoki qandaydir bir ehtiyoji qondirilmagandek his qila boshlashi odatning shakllanganligidan

darak beradi. Odatlar muayyan xatti-harakatlarning ko'p bora takrorlanishi natijasida shakllanib qoladi. Ular umumiy tarzda zararli bo'lishi mumkin, foydali bo'lishi mumkin.

Avvalambor, shuni inobatga olish kerakki, hech qaysi odat, na zararli, na foydali bo'lgan odatlar hech biri yo'q joydan paydo bo'lmaydi. Bolaning xulq-atvorida paydo bo'lgan har qanday zararli odat, kattadir, kichikdir, o'ta xavflidir ya'ni sog'liqqa zarar yetkazishi nuqtayi nazaridan, o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bolaning xulq-atvorida qandaydir sizni bezovta qiladigan xatti-harakatlarni payqaganimizda bilishimiz kerakki, buning ortida aksariyat hollarda kuzatuvlar, amaliyot, tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, boladagi ruhiy-emotsional tajanglik holati, o'ziga nisbatan ishonchsizlik holati, umuman olganda ichki psixologik beqarorlik, noxushlik, diskamfort holati vujudga kelganligining belgisidir. Aksariyat hollarda zararli odatlar bola o'zini noqulay his qilishi, ichki salbiy kechinmalari, emotsional tajanglik, hissiy zo'riqish ta'sirida paydo bo'lishini inobatga olishimiz kerak. Shuning uchun farzandida, o'quvchisida muayyan zararli odatlar shakllanib kelayotganini ko'rgan, sezgan ota-ona yoki ustoz avvalo o'ziga savol berishi kerak, "Shu bolamga yoki o'quvchimga g'amxo'rligim, e'tiborim yetarli bo'lyaptimi?", "Bu bola o'ziga nisbatan ishonchni his qilyaptimi?", "Xavfsiz his qilyaptimi o'zini?" chunki aksariyat hollarda man shu sabablar tufayli bolalarda zararli odatlar rivojlanadi.

Oddiy statistik ma'lumot, kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, taxminan 40% bolalar zararli odatlardan biri bo'lmish keng tarqalgan odatiy hayotda tirnog'ini chaynash odatiga ega. Katta yoshda esa bunaqa odat taxminan 15% odamda saqlanib qoladi. Shundan ham bilamizki, odam ulg'aygan sari o'ziga ishonchi ortadi, solishtirib kuzatib ko'p narsalarni yuragiga yaqin olib, hissiy jihatdan bezovta bo'lishi kamaygani hisobiga ham zararli odatlar katta yoshda kamayib borishi kuzatiladi. Qolaversa yana ilmiy tadqiqotlardan kuzatuvlardan ma'lumki, teleko'ratuvlarda namoyish qilinayotgan turli xavotirli lavhalar, kriminal xabarlar, umuman odam bolasini qo'rquvga, xavotirga solishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar ham bolalarda zararli odatlar shakllanishiga sabab bo'ladi, gap o'sha xabarlardagi holatlarga taqlid qilishda ham emas, o'sha noxush hodisalar haqidagi ma'lumotlar, turli lavhalar boladagi hali tahlilga, solishtirib o'ylashga bo'layotgan hodisalarning asl sabablarini tushunishga hayot va tafakkur tajribasi yetarli bo'lmagan odamga bunday ma'lumotlar taqdim qilinishi tabiiyki, ularda qo'rquvni, xavotirni, o'ziga ishonchsizlikni oshiradi. Bu esa yuqorida aytganimizdek, zararli odatlar shakllanishiga turtki beradi. Demak, o'z-o'zidan bolalarda zararli odatlar shakllanishining oldini olishning muhim sharti, o'ziga bo'lgan ishonch, o'zini xavfsiz his qilishi, o'zini har doim katta odamning yordamiga sazovor bo'lishga imkoniyati borligini his qilishiga erishishimizdir. Qachonki bola o'zini mana shunday his qilsa, ichki ruhiy bezovtalik, tajanglik, holatlaridan holi bo'lsa, zararli odatlarning shakllanishi oldi olingan bo'ladi.

Bordi-yu zararli odatlar shakllana boshlagan bo'lsa, ancha barqaror shakllanib bo'lgan bo'lsa, u holda ham kattalar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib, yoshi katta bo'lganda o'tib ketadi, degan ma'noda fikrlamasligi kerak. Darhaqiqat, aksariyat zararli odatlar yo'qolib borishi kuzatiladi, lekin ayrim odatlar inson tabiatiga chuqur singib ketib uni katta hayotda ham jiddiy patologik, yopishqoq holatlar darajasidagi hodisalarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalikdanoq e'tiborni bunga qaratib, oldini olib bartaraf etishga xafsala bilan yondashishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan oldini olish yoki bartaraf etishda qanday harakatlarni amalga oshirish tavsiya etiladi?

Urushib yoki tirnog'ini chaynaydigan bolani qo'lga urib, shu qilayotgan harakatiga e'tiborini qaratishni o'zi to'g'ri emas, chunki qancha biz diqqatimizni o'sha zararli odatga qaratganimiz sari, bolaning ham diqqati o'shanga qaratiladi. Aksariyat hollarda yaxshi bilamiz odatlarni inson beixtiyor e'tibor bermasdan bajaradi yoki o'zi ham anglamagan holda bajaradi. Biz unga e'tiborimizni qaratganimiz sari bola ham o'shanga diqqatini jamlashga o'rganadi. Bora bora mutaxassislar fikricha, bola o'sha odatni qilish orqali kattalar e'tiborini tortishi mumkinligini tushunib qolib, undan atayin sun'iy yo'lda ham foydalanishga o'tishi mumkin. Shuning uchun bunga keskin munosabat, albatta, tirnoq chaynash haqida gapirganda ba'zi kattalarda uchrab turadi, qo'lga achchiq narsa surtib qovvish haqidagi fikrlar, to'g'ri bunday keskin choralar qo'llanganda bola o'sha harakatni bajarmaydi, undan tiyilishi mumkin, lekin

uning asosida yotgan sabab bartaraf qilinmaydi. U boshqa odatlarga aylanib ketadi, balki undan ham salbiyroq, xavfliroq odatlarga aylanib ketishi mumkin.

Shunday ekan, biz zararli odatlarni bolalar xulq-atvorida bartaraf etish haqida qayg'urar ekanmiz, avvalambor, e'tiborimizni shunga qaratishimiz kerakki, bolaga o'sha zararli odatni oqibatlarini tushuntirish, tushuntirganda ham maxsus shunga diqqatni qaratmasdan, bolani o'ziga bildirmasdangina, ya'nikim, shu odatga oid bo'lgan biron vedio lavha, biror mutaxassisning tavsiyalaridan iborat bo'lgan qandaydir ma'ruzaga, ataylabdan "Senda mana shu odat bor shu zararli odatining yo'q qilish uchun birga shuni tomosha qilamiz, o'tir shu yerga aynan senga bag'ishlangan lavha yoki ko'rsatuv ekan" demasdan ishni orasida kundalik turmush davomida qiziq-qiziq malumotlar bilan tanishish bahonasida o'sha zararli odatning oqibatlariga bag'ishlangan ma'lumotlar bilan tanishtirish, ikkinchidan o'sha odatni qilmasdan turib ham yaxshi hayot kechirish mumkinligini, uning o'rniga hayotni bezaydigan juda ko'p qiziqarli narsalar bilan shug'ullanish mumkinligini, ta'kidlab o'tish. Eng muhim usullardan bittasi bolani odatini amalga oshirayotgan vaqtida diqqatini chalg'itish, qo'liga urmasdan e'tiborini boshqa qiziqarliroq ish turiga chalg'itish juda yaxshi ta'sir qiladi. Mutaxassislar fikricha, bola uchun avtoritet bo'lgan odamni aniqlab olish, u orqali unga zararli odatning zarari haqida tushuntirishga oid ishlarni amalga oshirish.

Qolaversa, odatlarni bartaraf etish borasidagi ishlarimizda shunga e'tibor berishimiz kerakki, bolaga bo'lgan munosabatda "Men senga qarshiman" tarzidagi munosabat bo'lmasligi, ya'ni "Biz sen bilan bir tarafimiz, odat boshqa tarafda biz birga unga qarshi kurashyapmiz" degan ruhda. Juda o'rinli bo'lardi, agar bolani zararli odatga olib kelayotgan sababni dona-dona xuddiki, uydagi alohida g'ishtlarni olib tashlagan kabi, balki qo'rquvdir, o'ziga nisbatan ishonchsizlikdir, nima shunga olib kelayotganligini alohida alohida qilib shu haqda fikrlashib olish. Maqsad o'sha narsa bu qadar qo'rqinchga, xavotirga arzimastligini shu bilan anglatish. Bundan tashqari mutaxassislar artterapiya, qumterapiya kabi usullardan foydalanish samarali bo'lishini ta'kidlashadi.

Odat endi shakllanayotgan paytda jazolash mumkin degan fikrlar ham bor. Jazolash jarayoni juda yengil tarzda juda ayovchi tarzda amalga oshishi, ya'ni masalan, uydagi birorta vazifani yuklab qo'yish yoki biror muddatga nimadirdan mahrum qilish, bu yerda faqat bir narsani, albatta inobatga olish kerak, odatning shakllanishida dastlabki bosqichlarda bu usul qo'llanishi mumkin, bu birinchidan. Ikkinchidan, agar odat biror asabiy holat stressing oqibati bo'lmasa, sho'xlik, o'yinqaroqlikning ortidan kelayotgan bo'lsa, dastabki bosqichlardagi jazolash usuli qo'llanishi to'g'ri bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda ota-onalar, ustozlar bolalarda paydo bo'layotgan zararli odatlar haqida qayg'urar ekanlar, bir fikrni doim xayollarida mahkam ushlashlari kerak, odatlar xuddi malakalarga o'xshab, xuddi bilimga o'xshab hayot davomida shakllanadigan narsa, muayyan hayotiy vaziyatlar taqozosi bilan, odam bolasida nimagadir taqlidan yoki qanaqadir faoliyatni qiziqib bajarib ko'rish ortidan shakllanadi, zararli odatlar ham shu jumladan. Har qanday odat hayot davomida shakllanadigan hodisa ekan, bundan kattalar shunday ishonch bilan xulosa chiqarishi kerakki, hayotda shakllangan narsani hayoti davomida bartaraf etish mumkin. Bu irsiy tarzda o'tayotgani yo'q yoki muqarrar insonda shakllanishi shart bo'lgan holat emas, balki muayyan ijtimoiy hodisalar ta'sirida shakllanayotgan ekan, xuddi shunaqa qarshi ta'sir bilan bu odatlarni bartaraf etish mumkin bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sodikova O., D.Toshboyeva Bolalar psixologiyasi. O'quv metodik qo'llanma. - Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2013. – 348 b.
2. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: Darslik. - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.

## MAMLAKAT MEHNAT RESURSLARINI SHAKLLANISHIDA TAKROR BARPO BO'LISH JARAYONLARINING AHAMIYATI

**Norov Sherzod Shodmonovich.**

**Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy  
bilim asoslari kafedrası doktoranti.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining shakllanishida aholining takror barpo bo'lish jarayonlarining ahamiyati bayon etilgan.

**Annotation:** This article describes the importance of population regeneration processes in the formation of labor resources of the Republic of Uzbekistan.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение процессов регенерации населения в формировании трудовых ресурсов Республики Узбекистан.

**Kalit so'z:** Mehnat resurslari, aholining takror barpo bo'lishi, tug'ulish, o'lim, tabiiy ko'payish, endogen omillar, ekzogen omillar.

Mamlakat mehnat resurslarini shakllanishi va kelajakdagi miqdoriy ko'rsatkichlarini aholining takror barpo bo'lish jarayonlari, ya'ni, tug'ulish, o'lim, tabiiy ko'payish, nikoh va ajralish jarayonlari belgilab beradi. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Inson dunyoga kelib yashaydi, balog'at yoshiga yetib, farzand ko'radi, nasl qoldiradi. Bu uzviy jarayon tufayli jamiyatda avlodlar almashadi, aholi takror va takror barpo bo'laveradi. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi jarayondir. Lekin, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda sodir bo'ladi.

Tug'ulish — bu biologik tabiatga va qat'iy ijtimoiy-iqtisodiy belgilarga ega bo'lgan murakkab demografik hodisa hisoblanadi. Demografiyada «tug'ulish» deganda, bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayoni tushuniladi. Hozirgi o'lim darajasi past bo'lgan sharoitlarda tug'ulish jarayoni aholi takror barpo bo'lishidagi yetakchi omil sanalib, uning tartibi (toraytirilgan, oddiy, ken' geytirilgan) va yosh-jinsiy tarkib evolyutsiyasining umumiy yo'nalishini belgilaydi.

Tug'ulish darajasidagi ijtimoiy va biologik omillar mutanosibligi muqobil bo'lmay, balki jamiyat va uning tarkibi, ijtimoiy institut-larning rivojlanishi jarayonida o'zgarib boradi. Shu o'rinda aytish joizki, tug'ulish evolyutsiyasidagi asosiy yo'nalish-bu biologik omil rolining pasayishi va ijtimoiy omil ahamiyatining o'sib borishidir.

### Tug'ulishning umumiy koefitsenti

#### 1- jadval

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	O'rtacha
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>22,0</b>	<b>23,5</b>	<b>24,3</b>	<b>24,6</b>	<b>25,9</b>	<b>24.1</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,7	23,3	21,8	20,6	20,8	21.8
Andijon	22,6	24,1	25,1	25,8	26,3	24.8
Buxoro	20,7	21,9	21,5	21,5	22,0	21.5
Jizzax	22,4	25,2	26,7	27,3	29,0	26.1
Qashqadaryo	23,7	26,2	26,7	27,3	28,8	26.5
<b>Navoiy</b>	<b>21,2</b>	<b>22,0</b>	<b>23,0</b>	<b>23,8</b>	<b>26,0</b>	<b>23,2</b>
Namangan	21,5	24,0	25,8	26,3	27,6	25.0
Samarqand	23,2	25,0	26,2	25,9	27,7	25.6
Surxondaryo	23,7	27,0	28,0	28,1	29,9	27.3
Sirdaryo	22,5	22,8	24,8	24,7	26,7	24.3
Toshkent	20,8	21,1	21,9	22,4	24,9	22.2
Farg'ona	22,1	22,8	23,6	24,6	25,7	23.8
Xorazm	22,7	22,8	22,2	22,3	22,3	22.5
Toshkent sh	17,2	18,0	19,8	20,6	22,3	19.6

### ***Jadval O‘zbekiston respublikasi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan***

BMT ning tasnifl bo‘yicha tug‘ilishning umumiy koeffitsientini baholash mezoniga ko‘ra tug‘ilish darajasi quyidagicha tasniflanadi;

0 -15.9 promille – past, farzandlar son ota-ona o‘rnini to‘ldirmaydi,

16.0 – 24.9 promille – o‘rtacha,

25.0 – 29.9 promille –o‘rtachadan yuqori,

30.0 – 39.9 promille – yuqori,

40.0 promille va undan baland – juda yuqori

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston respublikasi va uning ma‘muriy birliklarida BMT ning tasnifi bo‘yicha tug‘ilishning umumiy koeffitsientini baholash mezoniga ko‘ra o‘rtacha va o‘rtachadan yuqori guruhiga kiradi.

Tug‘ilishning umumiy koeffitsientini o‘rtacha guruhiga – Toshkent shahri ( 19.6 promille, eng past), Qoraqalpog‘iston Respublikasi , Andijon, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari kiradi.

Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyentini o‘rtachadan yuqori guruhiga – Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyarlari ( 27.3 promille, eng yuqori) mansubdir.

Mamlakat mehnat resurslarini shakllanishi va kelajakdagi miqdoriy o‘zgarishlariga ovlm jarayoni ham katta ta‘sir ko‘rsatadi Kishilik jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida kuzatiladigan o‘limning miqdor ko‘rsatkichlari aholining yoshi va o‘lim sabablari bilan bog‘liq bo‘lgan omillaryig‘indisi yordamida aniqlanadi. Ushbu omillar shartli ravishda endogen va ekzogen omillarga bo‘linadi.

Endogen omillar deganda organizmning ichki rivojlanishidan kelib chiqqan holatlar, ekzogen omillar deganda esa inson organizmiga tashqi muhit ta‘siri tushuniladi.

O‘limning endogen omillari yoki inson organizmida u tug‘ilganidan to o‘lguniga qadar sodir bo‘ladigan endogen jarayonlar ko‘p jihatdan biologik yoki genetik tabiatga ega va butun organizm yoki uning alohida a‘zolarining tabiiy keksayishi bilan bog‘liqdir. O‘limning endogen omillarini o‘rganganda insonning biologik organizm sifatida keksayib borishi nazarda tutiladi.

Ekzogen omilar aholining hayot davomiyligi va turmush sifatini tavsiflovchi omil sifatida ko‘rish mumkin. Bunda moddiy ta‘minlanganlik, sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam sifati, sanitariya madaniyati, ma‘lumotlilik darajasi, atrof-muhitning holati, baxtsiz hodisalar va boshqalar tushuniladi.

### **O‘limning umumiy koefitsenti**

**2- jadval**

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	O‘rtacha
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>4,8</b>	<b>4,9</b>	<b>5,1</b>	<b>5,0</b>	<b>4,8</b>	<b>5,0</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5,0	4,6	4,8	4,5	4,9	4,5
Andijon	4,9	5,2	5,0	5,1	4,7	5,1
Buxoro	4,4	4,4	5,2	4,7	4,5	4,7
Jizzax	3,8	4,2	4,3	4,2	4,6	4,2
Qashqadaryo	3,8	4,0	4,2	4,4	4,9	4,4
<b>Navoiy</b>	<b>4,6</b>	<b>4,5</b>	<b>5,0</b>	<b>4,7</b>	<b>4,0</b>	<b>4,7</b>
Namangan	4,5	4,7	4,8	4,7	4,5	4,7
Samarqand	4,4	4,5	4,7	4,7	4,7	4,7
Surxondaryo	3,9	4,1	4,5	4,7	5,0	4,7
Sirdaryo	4,8	4,8	4,6	4,8	4,8	4,8
Toshkent	5,8	5,9	6,2	6,2	5,0	6,2
Farg‘ona	5,0	5,0	4,9	4,8	4,7	4,8
Xorazm	4,4	4,5	5,1	5,0	4,9	5,0



Toshkent sh	7,1	6,9	8,0	6,7	5,7	6,7
-------------	-----	-----	-----	-----	-----	-----

***Jadval O'zbekiston respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan***

BMT ning tasnifl bo'yicha o'limning umumiy daraja tasnifini baholash mezoniga ko'ra o'lim darajasi quyidagicha tasniflanadi;

- 0 -6,9 promille – juda past,
- 7.0 – 8.9.- promille – past,
- 9.0 – 10.9 promille –o'rtachadan past,
- 11.0 – 12.9 promille – o'rtacha,
- 13.0 – 15,9 promille – o'rtachadan yuqori
- 16.0 – 19.9 promille – yuqori,
- 20 promilledan yuqori, juda yuqori

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston respublikasi va uning ma'muriy birliklarida BMT ning tasnifl bo'yicha tug'ilishning umumiy koeffitsientini baholash mezoniga ko'ra juda past hisoblanadi.

Mamlakat mehnat resurslarining sakillanishida aholining yosh va jinsiy tarkibi ham muhim o'rin tutadi.

Mamlakat mehnat resurslari - mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar Mehnat resurslariga kiritiladi. Kishilar yoshining ulg'ayishiga qarab mehnat resurslariga dastlab qo'shiladilar (16 yoshdan o'tgandan keyin), so'ngra undan chiqadilar. Ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda 16—59 yoshdagilar mehnat resurslariga kiritiladi.

Mamlakat mehnat resurslari soni 2000-2022-yillar oralig'ida 12469,0 kishidan 19517,5 ming kishiga o'zgargan bo'lib, umumiy o'sish 156.5 foizni tashkil etgan. Ushbu yillarda mehnat resurslari soni 7048.5 ming kishiga ko'paygan, ya'ni, har yiliga o'rtacha 587,4 ming kishiga ortib bormoqda o'rtacha yillik o'sish 8.3 foizni tashkil etmoqda.

2022-yil ma'lumotiga ko'ra, mehnat resurslari soni bo'yicha Samarqand viloyati yetakchi o'rinni egallaydi (2164,8 ming kishi), keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyati (2097,8), Toshkent shahri (1945,6 ming kishi), Qashqadaryo viloyati (1813,4 ming kishi) va Andijon viloyati (1780,8 ming kishi) egallaydi.

Mamlakatda mehnat resurslari sonida o'rta ovrinlarni egallaydigan hududlarga Namangan (1588,3 ming kishi), Toshkent (1619,2 ming kishi), Surxondaryo (1465,4 ming kishi), Buxoro (1074,7 ming kishi), Xorazm (1050,9 ming kishi) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (1067,6 ming kishi) kiradi.

Mehnat resurslari sonida quyi o'rinlarni egallaydigan hududlarga umumiy aholi soni ham kam bo'lgan Sirdaryo (487,4 ming kishi), Navoiy (570,6 ming kishi) va Jizzax (791,0 ming kishi) viloyatlaridan iborat.

Mehnat resurslari o'sishi aholining ko'payishiga bog'liq. Aholi tarkibida yoshlar qanchalik ko'p bo'lsa, Mehnat resurslari shunchalik tez o'sadi. 20-asr oxiri —21-asr boshlarida O'zbekistonda Mehnat resurslari har yili 320—350 ming kishi atrofida ko'payib bordi. Ularning asosiy qismini mehnat yoshiga qadam qo'yganlar tashkil etadi. Mehnat resurslari soni miqdoriy ifoda bo'lsa, mehnat yoshidagilarning bilim saviyasi, malakasi, kasbiy mahorati va ishbilarmonligi uning sifatini yaratadi. Ta'limtarbiya, malakani oshirish, sog'liqni ta'minlash, uni mustahkamlash uchun sarflar inson kapitaliga investitsiya bo'lib, Mehnat resurslari ni takroran yaratishga xizmat qiladi. Mehnat resurslari mehnat bozori orqali taqsimlanadi. Mehnat resurslari ban-dligi — mehnat yoshidagi kishilarning ish bilan ta'minlanishi, ularning tovar va xizmatlar yaratishda ishtirok etishi. Mehnat resurslari tarkibidagi ishlashga talabgor bo'la turib ish topa olmaganlar ishsizlar hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, mamlakat mehnat resurslarining shakllanishida aholining takror barpo bo'lish jarayonlari yani tug'ilish, o'lim. tabiiy ko'payish asosiy rolni bajaradi.

Tabiiy o'qishning yuqoriligi mamlakat mehnat resurslarining zaxirasi istiqbolli ekanligidan dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T.: O'qituvchi, 1997
2. Bo'riyeva M, Tojiyeva Z., Zokirov S.Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent-2011
3. Qayumov A. va boshqalar.Aholi geografiyasi va demografiyasi. Toshkent-2009

**OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL  
TAYYORGARLIKLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-  
SHAROITLARI**

**Norov Murodjon Maxmudovich,  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali  
Logistikada axborot texnologiyalari kafedrasida assistenti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'limda talabalarning mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan bo'lib, muhandislik sohasidagi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos, mazmuniy xususiyatlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, refleks, empirik, innovatsiya, motivatsiya, ijodkorlik, algoritmlash, individual, kompetensiya.

**Аннотация.** В данной статье описаны педагогические условия развития самостоятельной подготовки студентов в высшем образовании, а также раскрыты конкретные, содержательные особенности подготовки будущих специалистов в области инженерии.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, знание, умение, компетентность, рефлекс, эмпирический, инновационный, мотивация, творчество, алгоритм, личность, компетентность

**Abstract.** In this article are described the pedagogical conditions for the development of independent training of students in higher education, and describes the specific, meaningful features of preparing future specialists in the field of engineering.

**Keywords:** independent education, knowledge, skill, competence, reflex, empirical, innovation, motivation, creativity, algorithmization, individual, competence.

Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabalarda ijodiy fikrlash reflekslari rivojlantiriladi. O'quv fani bo'yicha bilimlarni har tomonlama o'zlashtirishda mustaqil o'quv faoliyati muhim sanaladi. Chunki, yuqori darajadagi bilimni talabalarga o'quv auditoriyasidagi mashg'ulotlar to'liq bera olmaydi. Bunda mustaqil o'quv faoliyati bilim va ko'nikmalarni to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi.

Mustaqil ta'lim – olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shaklidir[1].

Mustaqil faoliyat muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi o'qituvchi tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishlar turlari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar – ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'qitish va rivojlanishni amalga oshirishlariga taalluqli bo'lgan usullar, vositalar va qoidalardir[2].

Tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni loyihalashtirishda ichki va tashqi omillarni o'rganib biz tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarning komponentlari o'zaro aloqadorligini va funksional shartlanganligini ta'minlovchi ta'limning yangicha mazmuniga o'qitishdagi yangicha tashkiliy shakllarga, metodlarga va vositalarga ega bo'lgan tizimli yondashuvga tayandik. Tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni asoslashda tizimli yondashuv bizga talabalarning mustaqil tayyorgarliklarini rejalashtirishda qo'l keladi.

Mustaqil ta'lim olishning asosiy motivlaridan biri bu yangi, noma'lum narsaga intilish bo'lib, tashqi rag'batlantirish va shaxsning ichki sifatleri bilan bog'liq. Mehnat bozorida to'plangan tajribani foydali tarzda amalga oshirish imkoniyati va ijodiy fikrlash qobiliyati bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun asosiy rag'bat hisoblanadi; yana bir rag'bat esa obyektiv voqelikni yanada chuqurroq anglash va albatta, o'quvchilar tomonidan olingan bilimlar ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosi ekanligini tushunish zarurati hisoblanadi[3].

1-jadval

**Mustaqil ta'lim ko'rsatkichlari**

<b>Mezonlar</b>	<b>Belgilari</b>	<b>Ko'rsatkichlari</b>
Ijodkorlik qobiliyati namoyon bo'lishi	- Bilishga qiziqishni paydo bo'lishi; - Aqliy qobiliyatlarni shakllantirish	Bilishga bo'lgan qiziqish, ishni tasavvur qilish, o'yinlar, o'qish, rasm chizish va boshqalardagi faollik
O'z-o'zini anglash zarurati	- O'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati; - O'z imkoniyatlaridan foydalanish	Fikrlash jarayonlarini faollashtirish, bu yoshga mos qiziqishning namoyon bo'lishi
Tizimli mustaqil ta'lim olishga intilish	- O'z-o'zini anglashning yuqori darajasi - Kelajakdagi faoliyat, tayyorgarlik hajmi va davomiylik darajasini aniqlash	Shaxsiy qiziqishlarga asoslangan yakuniy natijaga erishish usullarini belgilash
Ijodiy fikrlashning namoyon bo'lishi	- Olingan bilimlarni yangi qarashlar, g'oyalar, tasavvurlarga aylantirish; - Yuqori ehtimollik bilan ishlash	Bilimlarni tanlash va o'zlashtirishda mustaqillik, yangi materialni o'zlashtirishdagi yuqori samaradorlik
Ijodiy faoliyatning namoyon bo'lishi	Kelajakdagi faoliyat, uning hajmi va tayyorgarlik ko'rish davomiyligini aniqlash	Amaliy qarorlar qabul qilish
Individual bilimlar tizimini takomillashtirish	-Mashg'ulotlarni rejalashtirish; -maqsadga erishish yo'llari va vositalarini aniqlash	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari samaradorligini oshirish
Kelajakdagi mustaqil motivlarini rivojlantirish	- Kelajakdagi ma'naviyat rivojlanish; - Hissiy va erkinlik sifatlarining shakllanishi	Shaxsning har tom rivojlanishiga bilimlarning ta'siri

Reproduktiv shakldagi o'z-o'zini anglash (o'tilgan materiallarni takrorlash, topshiriqlarni bajarish va boshqalar) ijodiy bilim olish va o'zlashtirish jarayonining birinchi darajasidir. Ijodiy mustaqillikning yuqori darajasi – ilgari o'rganilgan va yangi materialni birlashtirish hisoblanadi. Ikkinchi bosqich mustaqillikning yuqori darajasiga xos bo'lib, tanlangan material olingan axborotni qayta ishlash va tahlil qilishning yangi usullari bilan bog'lanadi va qayta tiklanadi. Keyingi, yuqori darajadagi ijodiy mustaqillik darajasi, o'quvchining o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va ma'lumotni izlash, tanlash va o'rganishning qulay usullaridan foydalangan holda yangi ko'nikmalarni egallashi bilan belgilanadi.

Mustaqil ta'limning eng yuqori darajasi muammolarni mustaqil ravishda shakllantirish va ularni mustaqil hal qilishga intilish bilan belgilanadi. Oxirgi darajaga erishish uchun birinchi ikkita daraja o'zlashtirilgan bo'lishi kerak. Mustaqil ishlashning barqaror ko'nikmalariga ega bo'lish jarayoniga ijodiy fikrlash ham kiradi. Ijodiy fikrlashning namoyon bo'lishi uchun iste'dod talab qilinadi, bilim olish, qiziqirgan muammoni o'rganish jarayoni ijodkorlik va fikrlash bilan bog'liq bo'lib, ijodiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi[4].

Oliy ta'limda talabalar mustaqil tayyorgarligining o'z ichiga bir qancha bloklarni qamrab oladi:

– Boshqaruv bloki meyoriy-huquqiy, moddiy-texnik kadrlar shart- sharoitlarini yaratish ishlab chiqarish va ta'lim berish jarayonlari yaxlitligini ta'minlash orqali uzluksiz professional ta'limning jadallashtiruvini taminlaydi.

– Psixologik-pedagogik blok o'qitish va tarbiyalashga shaxsga yo'naltirilgan va shaxsiy faoliyatli yondashuvlarni ta'lim jarayonining insonparvarlashuvi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining barqaror psixologik muhitining yaratilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlarni nazariy tahlil qilish muhandislik sohasida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning loyihaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda, ularga quyidagilarni kiritish imkonini berdi:

– fanlararo xususiyatga ega bo'lishi, turli o'quv fanlaridan bilimlarni jalb qilish va ularni loyihalashtirish natijasida olish;

– algoritmlashtirish, ular tahlil, maqsadni aniqlash, rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish, nazorat va bashorat kabi vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi;

– talabalarning kasbiy qiziqishlarini kasbiy vazifani to'liq ko'ra bilish hisobiga faollashtirish, belgilangan vazifani bo'lajak kasbiy faoliyatdan kelib chiqqan holda hal qilish;

– loyihaviy vazifalarni kompleks ravishda bajarish munosabati bilan talabalarning kasbiy o'z o'rnini topishini ta'minlovchi rivojlanishi, o'qitiladigan fanlarni real loyihaviy faoliyatga yaqinlashtirish, iqtisodiy muammolar/topshiriqlarni real voqelik vaziyatida yecha olish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadqiqotchilar ta'lim jarayonlarini loyihalash faoliyat doirasida muhandislar tomonidan amalga oshiriladigan asosiy vazifalarni ajratib ko'rsatadilar. Ularga ko'ra, ushbu vazifalar loyihani tayyorlashda talaba tomonidan hal qilinadigan vazifalarning umumlashtirilgan guruhini aks ettirib, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi to'g'risidagi tasavvurlarni hosil qilish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djurayev R.X., Tayloqov N.I. Axborotlashgan ta'lim muhiti-o'qitish samaradorligini oshirish vositasi // "Uzluksiz ta'lim". IMJ. – T., 2004. – №3. – B. 3-7.

2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish. - T. Fan, 2004, 124 bet.

3. Муслимов Н.А., Уразова М.Б. Проективная деятельность будущего учителя. Учеб.пособие. – Т.: GrandPaper, 2011. – 92 с.

4. Xodjayev B., Urazova M. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2015.

5. Turayev M.F. Communicative competence and professional success of a modern teacher. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02) 2021, 400- 403.

6. Turayev M.F. Training of future programmers for professional activity on the basis of modern information and pedagogical technologies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8, 2020, (Part II, 164-168)

### **OLIIY TA'LIMDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.**

**Hafizov Jo'rabek**

**Matematika-informatika ta'lim yo'nalishi**

**3-bosqich talabasi**

**Abayev Nurliboy**

**Ilmiy rahbar: Informatika kafedrası o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'limning faoliyatini raqamlashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirishini oshirish, va o'qituvchilar faoliyatini samarali boshqarish asoslarini o'z ichiga oladi va raqamlashtirish haqida nazariy va amaliy tushunchalar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, axborot, texnologiya, natijalarini oshirish, samaradorligi, mustaqil o'rganish, oliy ta'lim, rivojlanish.

**Abstract:** This article covers the fundamentals of digitalization of higher education, improving student learning, and effective management of teachers, and provides theoretical and practical insights into digitalization.

**Key words:** Digitization, information, technology, improving results, efficiency, independent learning, higher education, development.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются основы цифровизации высшего образования, улучшения обучения студентов и эффективного управления преподавателями, а также даются теоретические и практические взгляды на цифровизацию.

**Ключевые слова:** Цифровизация, информация, технологии, улучшение результатов, эффективность, самостоятельное обучение, высшее образование, развитие.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida talay ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish, oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish, ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda "Bir million dasturchi" loyahasini amalga oshirish hamda ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etish kabi asosiy masalalarga to'xtalib o'tildi[1]. Raqamlashtirish axborot inqilobining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida nafaqat ta'lim tizimi mexanizmiga mustahkam o'rnatilib oldi, balki ushbu mexanizmni, ta'limning mohiyati va xarakterini tubdan o'zgartirdi. Agar ta'lim toifasini klassik tushunish haqida gapiradigan bo'lsak, bu o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar tizimini, shuningdek, ijodiy faoliyatda tajriba va dunyoga qadrli munosabatni o'zlashtirishni anglatadi. Ta'lim boshqa faoliyat turlaridan oldin bo'lib, shaxsni ijtimoiylashtirishda ham, jamiyat taraqqiyotida ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat hayotida ta'lim muassasasining roli o'sishda davom etmoqda.[2]

Oliy ta'lim sohasidagi akademik tadqiqotchilar tomondan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ular oliy ta'limning turli bosqichlarida raqamlashtirishning ahamiyati, uning samaradorligi, va oliy ta'lim tizimining rivojlanishi uchun kerakli strategiyalarni o'rganib chiqishganlar. shunday bo'lsada oliy ta'limda raqamlashtirishni takomillashtirish mavzusida tadqiqot olib borgan olimlar kamchilikni tashkil etadi.

Raqamlashtirishni takomillashtirish uchun, oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga o'girish uchun kerakli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish muhimdir. Bu ma'lumotlar, o'quvchilarning natijalari, darslar va o'qituvchilar faoliyati, va ta'lim jarayonining amaliyoti bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalarining raqamlashtirishni takomillashtirishida, maqsadlar va maqsadlarni belgilash muhimdir. Bu maqsadlar, oliy ta'limning rivojlanishi, samaradorligi, va mustaqil o'rganishni ta'minlashni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oshish kerak. Raqamlashtirishni takomillashtirish uchun amaliyotni rejalashtirish zarur bo'lib, maqsadlarni amaliyotga o'tkazish va ta'lim muassasalarining rivojlanishini ta'minlash uchun kerakli qadamlarini belgilash shartdir. Raqamlashtirishni takomillashtirishda, o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatini oshirish va rivojlantirish uchun kerakli qo'llab-quvvatni ta'minlash muhimdir. Bu, o'quvchilarning o'zlashtirishini oshirish, talabalar va o'qituvchilar munosabatlarini yaxshilash, va ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirishni takomillashtirish, o'quvchilarning natijalarini o'rganish va baholashda muhim rol o'ynaydi. Bu, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yaxshilash, o'quv jarayonini samarali boshqarish, va ta'lim tizimining faoliyatini baholash uchun kerakli bo'ladi, Raqamlashtirishni takomillashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatini oshirish va rivojlantirish uchun qo'llab-quvvat ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu, o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatlari-ni yaxshilash, o'quvchilarning o'rganish natijalarini oshirish, va ta'lim jarayonini samarador qilish uchun muhimdir. Bu esa

ta'lim tizimining o'zlashtirishini yaxshilash, ta'lim jarayonini samarali boshqarish, va o'quvchilar uchun yaxshi ta'limni ta'minlashni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Parpieva Malika Muxamadjonovna OLIY TA'LIMNING RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, "RAQAMLI IQTISODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI 4-SON WWW.INFOCOM.UZ

2. Muhammadjon Otabek o'g'li Tursunov O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR. "Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>

### **UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLAR INTEGRATSIYASINING MOBIL ILOVASINI ISHLAB CHIQUISH USULLARI**

**Orinbetov Nurilla Turdimuratovich – Ajiniyoz nomidagi NDPI Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti (Nukus)**

**Amanbaev Muratbay Abdimuratovich – Ajiniyoz nomidagi NDPI**

**Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi (Nukus)**

**Turdimuratov Dilmuxammed Nurillaevich –**

**Ruprecht Karl Heidelberg universiteti (Germaniya) magistranti**

**Annotatsiya.** Maqolada talabalarning motivatsiyasi va faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mobil ilovalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Аннотация.** В статье даны рекомендации по интеграции мобильных приложений в учебный процесс для повышения мотивации и вовлеченности учащихся, развития критического мышления и навыков решения проблем.

**Abstract.** The article provides recommendations for integrating mobile applications into the educational process to increase student motivation and engagement, develop critical thinking, and problem-solving skills.

**Tayanch so'zlar:** mobil ilova, raqamli texnologiya, dasturni loyihalash, asboblari va texnologiyalar, veb-framework, dastur funksiyalari, intuitiv dizayn, shablon tizimi, asinxron yuklash, modulli testlar, brauzerlar va qurilmalar, inklyuziv ta'lim.

**Ключевые слова:** мобильное приложение, цифровые технологии, дизайн приложения, инструменты и технологии, веб-фреймворк, функции приложения, интуитивно понятный дизайн, система шаблонов, асинхронная загрузка, модульные тесты, браузеры и устройства, инклюзивное обучение.

**Keywords:** mobile application, digital technology, application design, tools and technologies, web framework, application functions, intuitive design, template system, asynchronous loading, modular tests, browsers and devices, inclusive education.

Ta'lim jarayonida ilovalardan foydalanish fanlararo aloqalarni yaratish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi, ta'lim resurslaridan foydalanishni osonlashtiradi va talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqil ta'limni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot doirasida umumkasbiy va ixtisoslik fanlar o'rtasidagi chuqur o'zaro aloqani ta'minlash maqsadida veb-ilovalarni o'quv jarayoniga eng samarali integratsiyalashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullar va algoritmlarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning har bir burchagiga kirib borayotgan zamonaviy dunyoda mobil ilovalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ko'proq kompaniyalar va individual ishlab chiquvchilar foydalanuvchilarning doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun funksional, qulay va sezgir mobil ilovalarni yaratishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Python o'zining moslashuvchanligi va kuchli vositalar to'plami tufayli veb-ilovalarni ishlab chiqish uchun afzal qilingan dasturlash tillaridan biri sifatida ajralib turadi. Python-da yozilgan Flask veb-framework, veb-ilovalarni, shu jumladan mobil ilovalarni

yaratish uchun engil, ammo kuchli platformani taklif etadi. Flask yordamida mobil ilovani ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, asboblari va ishlab chiqish muhitini tanlashdan boshlab asosiy funksional talablarni amalga oshirish va ilovani sinovdan o'tkazishgacha.

Flask – bu veb-ishlab chiqish uchun mikroframework bo'lib, u ishlab chiquvchilarga o'z ilovalari uchun haqiqatan ham muhim bo'lgan narsaga e'tibor qaratish va shu bilan birga boshlash uchun zarur bo'lgan kod miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Bu xususiyat uni mobil ilovalarni ishlab chiqish uchun ideal tanlov qiladi, bunda rivojlanish tezligi va qo'llab-quvvatlash qulayligi asosiy omillardir. Ushbu ish doirasida Flaskda mobil veb-ilovani ishlab chiqish jarayoni batafsil ko'rib chiqiladi, jumladan, ishlab chiqish muhitini o'rnatish, dastur arxitekturasini loyihalash, foydalanuvchi interfeysi va server mantiqini amalga oshirish va ilovaning ishlashi.

Mobil ilovalarni yaratish uchun Flask-dan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilishdir. Flask Django va FastAPI kabi boshqa veb-*framework*lar bilan ishlab chiqish qulayligi, unumdorligi, kengaytirilishi va hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan taqqoslanadi. Bundan tashqari, mobil ilovani ma'lumotlar bazalari, keshlash tizimlari va bulutli platformalar kabi zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratiladi.

Avvalo, asboblari va texnologiyalarning to'g'ri to'plamini tanlash har qanday dasturiy mahsulotni ishlab chiqishda muhim qadamdir. Flask-da mobil ilovani ishlab chiqish uchun ushbu tanlov nafaqat veb-*framework*ning o'zini, balki dasturning funksionalligini ta'minlaydigan va ish faoliyatini yaxshilaydigan qo'shimcha kutubxonalar va xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda ishlab chiquvchilar ma'lumotlar bazasi, versiyalarni boshqarish tizimi, sinov va disk raskadrovka vositalari va dasturni joylashtirish platformasi haqida qaror qabul qilishlari kerak[1].

Rivojlanish muhitini o'rnatish Python va Flask-ni o'rnatishdan boshlanadi. Loyiha bog'liqliklarini global Python muhitidan ajratish uchun virtual muhitdan (virtualenv) foydalanish tavsiya etiladi, bu kutubxonalar o'rtasidagi ziddiyatlarni oldini oladi va qaramlikni boshqarishni soddalashtiradi. Flask va kerakli kutubxonalarni o'rnatish pip paket menejeri yordamida amalga oshiriladi. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun Flask kengaytmalaridan foydalanish mumkin, masalan, SQLAlchemy bilan integratsiyalashuv uchun Flask-SQLAlchemy relyatsion ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun qulay interfeysni ta'minlaydi yoki MongoDB kabi NoSQL ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun Flask-MongoEngine.

Xavfsizlik masalalari mobil ilovalarni ishlab chiqishda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Flask dastur xavfsizligini ta'minlash uchun bir nechta mexanizmlarni taqdim etadi, jumladan saytlararo so'rovlarni soxtalashtirishdan (CSRF) va saytlararo skriptlardan (XSS), ma'lumotlarni shifrlashdan va seansni boshqarishdan himoya qilish. Shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash va dastur funksiyalariga ruxsatsiz kirishni oldini olish uchun foydalanuvchi autentifikatsiyasi va avtorizatsiya tizimini diqqat bilan ko'rib chiqish muhimdir.


Foydalanuvchi interfeysi (UI) ishlab chiqish mobil ilovalarni yaratishda asosiy rol o'ynaydi, chunki foydalanuvchi dastur bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Flask kontekstida Uini ishlab chiqishda mobil qurilma ekranining turli o'lchamlariga moslashuvchi sezgir va intuitiv dizaynni yaratishga e'tibor qaratish lozim. HTML, CSS va JavaScript-dan foydalanish veb-interfeyslarni ishlab chiqishda standart yondashuv bo'lib, Flask Jinja2 shablon tizimi orqali ushbu texnologiyalarni server tomonidagi mantiq bilan integratsiyalashni osonlashtiradi. Jinja2 shablonlari ishlab chiquvchilarga serverda olingan ma'lumotlardan foydalangan holda dinamik HTML kontentini samarali yaratish imkonini beradi, bu esa sahifani qayta yuklamasdan interaktiv foydalanuvchi interfeyslarini yaratish imkonini beradi.

Mobil ilovalarni ishlab chiqishning muhim qismi ham ularning ishlashini ta'minlashdir. Bunga erishish uchun resurslarni minimallashtirish va siqish (CSS va JavaScript fayllari), resurslarni asinxron yuklash va keshlash kabi optimallashtirishning turli usullaridan foydalanish mumkin. Flask Flask-Assets kabi kengaytmalardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi, ular statik




fayllarni optimallashtirish jarayonini avtomatlashtiradi va shu bilan ilovalarni yuklash tezligini va umumiy foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi.

Sinov bosqichida foydalanuvchi interfeysining barcha elementlarining funksionalligini, shuningdek, server tomonida amalga oshirilgan funksionallikni tekshirishga alohida e'tibor beriladi. Ko'pincha Selenium kabi veb-UI sinovini avtomatlashtirish vositalari bilan amalga oshiriladigan UI testi ilova turli brauzerlar va qurilmalarda to'g'ri ko'rsatilishi va ishlashini ta'minlashga yordam beradi[2].







Xulosa shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Mobil ilovalar turli ehtiyoj va imtiyozlarga ega bo'lgan talabalar uchun ochiq bo'lgan yanada moslashuvchan va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://blog.skillfactory.ru>
2. <https://www.calltouch.ru>

### ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNINI

**Orinbetov Nurilla Turdimuratovich –  
Ajiniyoz nomidagi NDPI Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti (Nukus)  
Turdimuratov Dilmuxammed Nurillayevich –  
Ruprecht Karl Heidelberg universiteti (Germaniya) magistranti**

**Annotatsiya.** Maqolada talabalarning kasbiy malakasini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarida raqamli savodxonlikni rivojlantirish va o'quv jarayonida veb-ilovalardan foydalanishni optimallashtirish uchun strategik yondashuvlar va yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** zamonaviy axborot texnologiyalari, intellektual ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt, ta'lim resurslari, mobil ta'lim ilovalari, bulutli texnologiya, virtual va kengaytirilgan haqiqat, texnik infratuzilma, veb-ilovalar, raqamli texnologiyalar, axborot xavfsizligi.

**Аннотация.** В статье даны рекомендации по развитию цифровой грамотности в современных информационных технологиях и разработке стратегических подходов и решений по оптимизации использования веб-приложений в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** современные информационные технологии, интеллектуальные образовательные системы, искусственный интеллект, образовательные ресурсы, мобильные образовательные приложения, облачные технологии, виртуальная и дополненная реальность, техническая инфраструктура, веб-приложения, цифровые технологии, информационная безопасность.

**Annotation.** The article provides recommendations on the development of digital literacy in modern information technologies and the development of strategic approaches and solutions to optimize the use of web applications in the educational process.

**Key words:** modern information technologies, intelligent educational systems, artificial intelligence, educational resources, mobile educational applications, cloud technology, virtual and augmented reality, technical infrastructure, web applications, digital technologies, information security.

Globalashuv va raqamlashtirish davrida axborot texnologiyalari (IT) jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi o'quvchilarning kasbiy malaka darajasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi, bu ularning tez o'zgarib borayotgan mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining asosiy omili hisoblanadi. Ta'lim resurslarining mavjudligi va sifati, ta'lim jarayonini individuallashtirish, shuningdek, zamonaviy axborot muhitida ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Talabalarning kasbiy malakasini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siriga e'tibor qaratish lozim. Bu zamonaviy dunyoda zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rganish va rivojlantirishni eng samarali qo'llab-quvvatlaydigan vositalar va platformalarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bunda:

– Intellektual ta'lim tizimlari-ta'limni shaxsiylashtirish va ta'lim jarayonini har bir o'quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar real vaqt rejimida o'quv jarayonini tahlil qila oladi, yaxshi natijalarga erishish uchun eng mos bo'lgan o'quv materiallari va vazifalarni taklif qiladi. Bunday tizimlar o'qituvchilarga talabalarning yutuqlari haqida fikr-mulohazalarni ham berib, o'quv jarayonini yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

– Mobil ta'lim ilovalari – an'anaviy sinf chegaralarini kengaytirib, talabalarga istalgan vaqtda va istalgan joyda o'rganish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, umrbod ta'limni qo'llab-quvvatlash va umrbod ta'limni rivojlantirish uchun muhimdir. Mobil ilovalar turli xil o'quv formatlarini, jumladan, video darsliklar, interaktiv testlar, elektron kitoblar va simulyatsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin, bu esa o'rganishni yanada dinamik va qiziqarli qiladi.

– Bulutli texnologiyalar – talabalar va o'qituvchilarga katta hajmdagi ma'lumotlarni hamkorlik qilish, saqlash va qayta ishlash uchun zarur bo'lgan keng qamrovli resurslar va vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar qo'shma loyihalarni tashkil qilishni soddalashtiradi, ilmiy tadqiqotlar uchun yuqori samarali hisoblash resurslaridan foydalanishga imkon beradi va virtual makonda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi chuqurroq o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

– Raqamli onlayn ta'lim platformalari – masalan, MOOCs (ommaviy ochiq onlayn kurslar) dunyoning yetakchi universitetlari kurslariga kirishni taklif qiladi, bu esa ta'limni demokratlashtirish va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Talabalar turli sohalardagi yetakchi mutaxassislar bilan tahsil olish imkoniga ega bo'lib, bu jahon ta'lim hamjamiyatini rivojlantirish va xalqaro miqyosda bilim almashishga hissa qo'shadi.

– Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) – o'quvchilarga real hayot muhiti va vaziyatlarni taqlid qiluvchi virtual muhitlarga sho'ng'ish imkonini berib, amaliy o'rganish uchun yangi ufqlarni ochadi. Bu, ayniqsa, tibbiyot, muhandislik, arxitektura va dizayn kabi sohalarda juda qimmatlidir, bu erda amaliy tajriba o'rganishda muhim rol o'ynaydi[1].

Ushbu va boshqa texnologik yechimlarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi nafaqat ta'lim sifatini oshirish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi, balki ularni raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli martabaga tayyorlaydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun infratuzilma, resurslarning mavjudligi va pedagog kadrlar tayyorlash bilan bog'liq mavjud to'siqlarni bartaraf etish, ta'lim muassasalari, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Talabalar o'rtasida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv veb-ilovalarining rolini muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Veb-ilovalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarda ko'nikmalarini rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu ko'nikmalar doimo o'zgaruvchan va texnologik jihatdan rivojlangan dunyoda tobora muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari orqali qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning o'quv natijalarini yaxshilaydi, balki ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli hayot va martaba uchun ham tayyorlaydi[2].

O'quv jarayonida veb-ilovalardan foydalanishni optimallashtirish uchun strategik yondashuvlar va yechimlarni ishlab chiqishga o'tish tavsiya etiladi. Raqamli texnologiyalarni pedagogikaga integratsiyalashuvini yaxshilashga qaratilgan sifatli ma'lumotlar tahlili asosida aniq qadamlar va tadbirlar taklif etiladi.

1. Infratuzilmani qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish – texnik infratuzilmani takomillashtirish veb-ilovalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining asosiy shartidir. Bu barcha ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash, talabalar va o'qituvchilar uchun yetarlicha kompyuter va boshqa qurilmalarni ta'minlash, ma'lumotlarni himoya qilish uchun kuchli xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

2. Kasbiy rivojlanish dasturlari – o'qituvchilarning veb-ilovalarni tanlash, ulardan foydalanish va o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi bo'yicha kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini yaratish va amalga oshirish zarur. Ushbu dasturlar texnik jihatlar bo'yicha treningni, raqamli o'qitish usullarini va talabalarning faolligi va motivatsiyasini yaxshilash strategiyalarini o'z ichiga olishi kerak.

3. Veb-ilovalarni ishlab chiquvchilar bilan hamkorlik-ta'lim jarayoni ehtiyojlariga eng mos keladigan ta'lim resurslarini yaratish uchun ta'lim muassasalari va veb-ilovalarni ishlab chiquvchilar o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimdir. Bu ixtisoslashtirilgan ilovalarni maxsus ishlab chiqish yoki mavjud echimlarni muayyan ta'lim maqsadlari uchun moslashtirishni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Ta'lim texnologiyalarini o'quv dasturlariga integratsiyalash – o'quv rejasi va dastur darajasida veb-ilovalarni integratsiyalashuvi hisobga olinishini ta'minlash kerak. Buning uchun o'qituvchilardan fanlar bo'yicha veb-ilovalardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish va raqamli resurslar an'anaviy o'qitish usullarini almashtirish o'rniga ularni to'ldirishi va yaxshilashini ta'minlash zarur.

5. Talabalarning raqamli savodxonligini oshirish- talabalar o'rtasida raqamli savodxonlikni rivojlantirish ham muhim jihat bo'lib, u nafaqat texnologiyadan foydalanish qobiliyatini, balki uning ta'limdagi rolini tushunishni, Internetdagi ma'lumotlarga nisbatan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni, maxfiylik muammolari, xavfsizlik va axborot xavfsizligini bilishni ham o'z ichiga oladi.

Bularni amalga oshirishda-strategik yondashuvlar va yechimlar ta'lim muassasalari, hukumatlar, veb-ilovalarni ishlab chiquvchilar va o'qituvchilar hamjamiyatining hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Ular ta'limda veb-ilovalardan samarali foydalanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, bu ta'lim sifatini oshirishga va zamonaviy raqamli dunyoda zarur bo'lgan talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aripov M va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: Noshir, 2009. 368-b.
2. Кравченя Э.М., Информационные и компьютерные технологии в образовании [Электронный учебный материал]. – Минск, 2017. 172-с

### **OLIV TA'LIM MUASSALARI TALABALARINING DASTURLASH TILLARIGA OID KO'NIKMLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH**

**Otaqulova Durdona Rahmonovna  
Informatika kafedresi o'qituvchisi,  
Ismatova Shahnoza Uvaydillo qizi**

**Matematika va informatika yo'nalishi talabasi**

**Annotatsiya.** Interaktiv ta'lim platformalar foydalanish imkoniyatlari, ulardan ta'lim jarayonida foydalanish muammolari va yechimlariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch soʻzlar:** interaktiv taʼlim platforma, interaktiv, taʼlim platformasi, global tarmoq, programiz.com, html, css, javascript, immersiv, texnologiya, interfyes, veb, onlayn kompilyator, kod, Styudent-Fisher.

Bugungi kunda raqamli vositalar taʼlim tizimida oʻrni beqiyos boʻlib, bunda talabalarning fanni oʻzlashtira olishi emas, balki bir vaqtning oʻzida oʻzlashtirish darajasini vazifalarni bajarishni kuzatish mumkin. Buning natijasida talabalarni oʻz ustida mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlanadi va axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalari shakllanadi [1-4].

Oliy taʼlim muassasalari talabalarida interaktiv taʼlim platformalari yordamida mashgʻulotlarni tashkil etish dasturlarini oʻrganish, tayyorlash va bajarish uchun kam vaqt talab etiladi hamda talabalarga materialni koʻrib chiqish, tushunish va tanqidiy fikrlashda yordam beradi. Interaktiv taʼlim platformasi yordamida talaba va texnologiya oʻrtasidagi interfeys orqali ikki tomonlama axborot oqimini taʼminlaydi va soʻralgan maʼlumotni yoki faoliyat natijasi taqdim etib boradi.

Shu bois fanlarni, xususan “Kompyuter grafikasi va vizuallashtirish” fanini oʻqitishda raqamli vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda raqamli vosita sifatida interaktiv taʼlim platformalarini keltirish mumkin. Interaktiv taʼlim platformalari yordamida mavzularning mavhumligini soddalashtirilganini tushuntirish bilan birga talabalarda oʻrganishni immersiv qiziqarli boʻlishi bilan birga dasturlardan foydalanish koʻnikmasi tez integratsiya qilinadi va talabalar mustaqil oʻrganish, tahlil qilish imkoniyatlarini beradi.


Web-texnologiyalarni shakllantirish, interaktiv taʼlim platformalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar B.K.Atrostic, C.Bereiter, N.B.Sekulich, D.Biljana, S.Paavola, M.Sigala, K.Hakkarainen, J.L.Mark, H.Meyer, G.Fessakis C.McLoughlin, Tim OʻReylllar ilmiy izlanishlar olib borgan[5].

Bugungi kunda fanlardan, xususan informatika fanlarini oʻqitish samaradorligini oshirishda va talabalarning fikrlashini rivojlantirishda interaktiv taʼlim texnologiyalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Chunki interaktiv taʼlim platformalarining asosiy ustunligi - ikki tomonlama oʻqitish talabalarning passivligini yoʻq qiladi va koʻproq talabalarda mustaqil vazifalarini tekshirish imkoniga ega boʻladi. Ayni paytda dasturlarni oʻrganishga moʻljallangan koʻplab interaktiv taʼlim platformalari mavjud boʻlib, ulardan taʼlim va tarbiya jarayonida keng koʻlamda foydalanib kelinmoqda[6].

Interaktiv taʼlim platformasi – veb-dizaynda interfaol sahifalar interfeysini amalga oshiradigan sahifalar tushuniladi[7].


Bularga misol sifatida global tarmoqning <https://www.programiz.com/> manzilida joylashgan interaktiv taʼlim platformasini keltirish mumkin. Ushbu interaktiv taʼlim platformasidan foydalanib HTML dasturlash tilida veb-sahifa yaratish ketma-ketligini keltiramiz:

1. <https://www.programiz.com/> taʼlim platformasi ochiq onlayn kurslaridan foydalanuvchi tomonidan roʻyxatdan oʻtish talab etilmaydi ammo oxirgi darsliklar va yangilanishlarni olish uchun elektron pochta orqali obuna boʻlish talab etiladi.




**1-rasm. <https://www.programiz.com/> platformasidan foydalanish jarayoni**

2. <https://www.programiz.com/> interaktiv taʼlim platformaning “Nimani oʻrganishni tanlang” boʻlimi orqali oʻrganiladigan dastur tanlanadi.



**2-rasm. <https://www.programiz.com/> platformasidan foydalanish jarayoni**


3. <https://www.programiz.com/> interaktiv ta'lim platformaning "HTML ni o'rganing" bo'limidan darsliklar bo'limidan dastur haqida to'liq ma'lumotlar o'rganiladi. Ushbu bo'limda foydalanuvchi uchun tayyor darsliklar taqdim etilgan.



**3-rasm. <https://www.programiz.com/> platformasidan foydalanish jarayoni**


4. <https://www.programiz.com/> interaktiv ta'lim platformalarining afzalliklaridan biri onlayn kompilyatordan foydalanishdir. Masalan "Onlayn HTML muharriri" bo'limi tanlanib, index.html oynasidan tayyor yaratilgan dasturni tahrirlash hamda style.css, script.js dasturlarida kodlanishi taqdim etilgan.

Onlayn kompilyatorlar kodni tezda tekshirish, xatolarni tuzatish va dasturning to'g'ri ishlashiga ishonch hosil qilish imkoniyatini beradi.



**4-rasm. <https://www.programiz.com/> platformasidan foydalanish jarayoni**

5. <https://www.programiz.com/> interaktiv ta'lim platformasida tayyorlangan dastur JS ko'rinishini va arxiv fayl turi yuklab olish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.



**5-rasm. <https://www.programiz.com/> platformasidan foydalanish jarayoni**

**programiz.com** interaktiv ta'lim platformasida kod kompyuterda to'g'ridan to'g'ri foydalanish, dasturlash tillarida yozilgan kodlarni solishtirish, xatoliklar ko'rsatadi, agar xatolik bo'lmasa dastur natijasini ko'rsatiladi.

Interaktiv ta'lim platformalari ta'limga tatbiq etish o'qitish jarayonidan talabalar o'zi ta'lim jarayonini borishini aniqlaydigan yangi jarayoniga o'tishni ta'minlaydi hamda ma'lumotni juda tez o'zlashtirish va eslab qolish dasturlardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Акамова Н.В. Обучение математике студентов средних специальных учебных заведений с использованием информационных технологий // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Саранск, 2011. – 254 с.

2. Allambergenova M.X. Informatikadan interaktiv o'quv majmualar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.– Toshkent, 2012. –117 b.

3. Ashurova D.N. Aralash ta'lim (Blender Learning)ning konseptual va terminologik apparati // Scientific-methodological electronic jurnal "Foreige languages in Uzbekistan", 2020. – № 4 (33). – P. 164-174.

4. Бойков Е.В. Методика самостоятельного обучения студентов информатике с помощью объектно-ориентированных электронных учебников //Диссертацияна соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Красноярск, 2012.– 138 с.

5. Sekulich N.B. Universitetning interfaol elektron axborot va ta'lim muhiti talabalarining Akt kompetensiyasini shakllantirish vositasi// Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.– Ulan-Ude - 2018 yil

6. D.R.Otaqulova "Oliy ta'lim muassasalari talabalarini veb sahifalar yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv ta'lim platformalaridan foydalanish" // "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2181-6883 6-son (2023-yil, iyul) B. 56-60

7. Vikimedia fondi. 2010 yil.

## **OZARBAYJON ADABIYOTI**

**Navoiy davlat pedagogika instituti  
4-kurs talabasi Hakimova Mahliyo**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turkiy tilda so'zlashuvchi qardoshlar xalqlar adabiyotida alohida madaniy va ma'naviy merosga boy bo'lgan Ozarbayjon adabiyotining buyuk namoyondalari **qalamiga mansub o'lmas asarlari, ulardan ba'zilarining mazmun-mohiyati, badiiy jozibasi haqida atroflicha fikr yuritiladi.**

**Tayanch tushunchalar:** Ozarbayjon adabiyoti, turkiy xalqlar, doston, bayt, ertak, lirik va epik asarlar, Nizomiy Ganjaviy, Xamsa, Nasimiy, Fuzuliy.

**Annotation.** In this article, the immortal works of great representatives of Azerbaijani literature, which are rich in special cultural and spiritual heritage in the literature of the Turkic-



speaking brotherly peoples, the content and artistic appeal of some of them are discussed in detail.

**Key words:** Azerbaijani literature, Turkic peoples, epics, verses, fairy tales, lyrical and epic works, Nizami Ganjavi, Khamsa, Nasimi, Fuzuli.

**Аннотация.** В данной статье подробно рассматриваются бессмертные произведения великих представителей азербайджанской литературы, богатые особым культурным и духовным наследием в литературе тюркоязычных братских народов, содержание и художественная привлекательность некоторых из них.

**Ключевые слова:** азербайджанская литература, тюркские народы, эпосы, стихи, сказки, лирико-эпические произведения, Низами Гянджеви, Хамса, Насими, Физули.

Ozərbayjon xalqı boshqa turkiylar singari o'zining boy qadimiy madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'atiga egadir. Ozar xalqi yaratgan bu madaniy va ma'naviy meros zamirida xalqning asriy orzu-umidlari, e'tiqodi, badiiy, falsafiy dunyoqarashi mujassam bo'lgan. Bu xalq ham juda uzoq zamonlardan beri mustaqillik g'oyasi uchun kurashib kelgan, bir necha eron shohlari, turk sultonlari, arab va mo'g'ullar hukmronligi davrida ozar xalqi istilochilarga qarshi mardonavor kurash olib borgan xalqdir. Ozarbayjon adabiyoti xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot shaklida rivojlandi. Xalqning ezgu tilaklari lirik qo'shiqlarda, hayotiy tajribalari asosidagi xulosalari masal va maqol-matallarda, ishonch va istaklari ertaklarda, xalqning orzusidagi pahlavonlar va barkamol qizlar obrazlari esa dostonlarda aks etganligining guvohi bo'lamiz. Jahonda hech bir xalq yo'qki, o'zining hajviy qahramonlarini yaratmagan bo'lsa, Ozarbayjon latifalarining bosh qahramonlari Melik – Mamed, Kal Ahmad bo'lib, ularning sarguzastlari orqali xalqning hazil mutoyiba, hajv va kulgiga nisbatan munosabatini bilish mumkin. Ozarbayjon xalq ertaklari turkiy xalqlar adabiyotida ham alohida o'ringa ega bo'lib, bu ertaklarga “Melik-Mamed”, “Xammol Ahmad”, “Cho'pon”, “Tanbal Shaydullo”, “Dono mushuk”, “Arilar g'azabi” kabilarni misol qilish mumkin. MelikMamed nafaqat latifalarning balki ozarbayjon xalq ertaklarining ham bosh qahramoni sifatida namoyon bo'ladi. Ozarbayjon xalq dostonlaridan “Ko'r o'g'li”, “Oshiq G'arib”, “Shox Ismoil”, “Asli va Karam” o'zbek, turkman, turk xalq og'zaki ijodidagi namunalari bilan uyg'unlik kasb etadi. “Dada Qo'rqut kitobi” ham ozarbayjon xalq dostonlari sirasida e'tirof etiladi. Chunki bunda qadimgi o'g'uz-turkiy qabilalarining o'z ozodligi uchun kurashi tasvirlangan hamda bu asarga musiqali dramalar yozilib, ijro etilgan. Nafaqat turkiy xalqlar adabiyotida, balki butun jahon adabiyotiga o'z hissasini qo'shgan Nizomiy Ganjaviy Ozarbayjonning Ganja shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. Shoir lirik va epik asarlarini fors tilida yaratdi, chunki bu til o'sha paytda Ozarbayjonda davlat tili hisoblanar edi. Ganjaviyning o'z ona tilida ijod qilolmaganidan afsuslanib yozgan she'rlari ham bor. Nizomiyning “Xamsa”si uning nomini butun jahonga mashhur qildi. O'ttiz ming baytdan tashkil topgan besh dostonni Nizomiy-Ganjaviy qisqa muddat ichida yaratdi. Garchi saroy shoiri bo'lmasa-da, Nizomiy “Mahzan-ul asror” dostonini ham, undan so'ng yaratilgan “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” va “Iskandarnoma” dostonlarini ham shervoniy podsholarning topshirig'i bilan ijod etdi. Dostonlardan birining kirish qismida Nizomiy o'z ona tilisi – ozarbayjon tilini yaxshi bilgani holda fors tilida ijod qilishga kirishayotganligini aytar ekan, bu asarni yozishga undagan hukmdorning istagiga ishora qiladi. “Xamsa”ga kirgan dostonlarda buyuk shoir o'zining gumanistik, adolatparvarlik g'oyalarini olg'a surdi. Uning fikricha, markazlashgan adolatli davlat mavjud bo'lgandagina xalqning ahvoli yengillashishi mumkin. Shu maqsadda Nizomiy bu dostonlarida adolatli podsho va podshozodalar (Xusrav, Bahrom, Iskandar) obrazlarini yaratishga urindi.

Yana bir o'tkir qalam sohibi Sayyid Imomiddin Nasimiyning Ozarbayjon adabiyoti tarixida ham o'rni beqiyosdir. Nasimiy ilk bor ozarbayjon tilida she'rlar yaratgan shoir hisoblanadi. Shoirning iste'dodiga o'zbek shoirlaridan Lutfiy va Navoiy yuksak baho berganlar. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida quyidagicha keltiradi: “Sayyid Nasimiy qaddasallohu ruhahul aziz (Olloh uning aziz ruhini muqaddas qilsin). Iroq va Rum tarafidag'i mulkdin erkandur. Rumi va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida haqoyiq va maorif

bag'oyat ko'p mundarijdur. Mazkur bo'lg'on mulk ahlig'a ani she'ri muqobalasida hamonoki she'r yo'qdur. Hamono taqlid ahli aning mazhabida qusur tuhmatig'a muttahaq qilib, shahid qildilar. Mashhur mundoqdurki, terisin so'yar hukm bo'lubdur". Nasimiyning so'fiy shoir Mansur Husayn Xalloyga e'tiqodi baland bo'lganligi sababli, uning ilk she'rlari Husayniy taxallusi bilan yozilgan. Ayrim she'rlarida valiy shoir nomi bir necha bor keltirilganligining guvohi bo'lamiz. Ozarbayjon adabiyotining yorqin vakili, so'z san'atkori Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy ijodi alohida o'rin tutadi. Shoirning o'g'li Fazliy taxallusi bilan she'r yozib mashhur bo'lgan. Fuzuliy ijodiy merosidan mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlaridan g'azal, murabba', muxammas, musaddas, tarji'band, tarkibband, qit'a, ruboiy kabilar o'rin olgan. Uning xamsachilik an'analari asosida yaratilgan "Layli va Majnun" dostoni, "Shikoyatnoma", "Bangu boda", "Anisul qalb", "Matla'ul e'tiqod" kabi asarlari yaratilgan. Fuzuliy ijodidan eng ko'p ta'sirlangan o'zbek shoirlari XIX asr vakillaridir. Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Ibrat kabilarning ijodida Fuzuliy asarlari ta'siri yaqqol seziladi.

Xulosa o'rnida aytish shuni mumkinki, Ozarbayjon adabiyoti turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar adabiyotiga salmog'licha ta'sir ko'rsatganligini guvohi bo'lamiz. Buni yaqqol dalili sifatida yuqorida Alisher Navoiy tomonidan keltirilgan jummalarga e'tibor qaratishning o'zi yetarlidir. Ozarbayjon xalqi ma'naviy va madaniy meroslarga boy xalqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ариф М. Азербейджанская литература.- М., 1979.
2. Mallayev.N. Nizomiy Ganjaviy. T.,-1966.
3. Очерк истории азарбейджанской литературы. - М., 1963.
4. Sayyid Imomiddin Nasimiy. Men bu jahonga sig'masman – T., 2012.

#### **TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASIDA TALABALAR LOYIHALARINING O'RNI (BOTANIKA FANI MISOLIDA)**

**Qayumova Mohinur Karim qizi**

**NavDPI. doktoranti**

**Mohinurqayumova27@gmail.com**

**+998977972127**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada botanika fanining bo'limi hisoblanmish introduksiya sohasida qilingan loyihaning ahamiyati, talabalarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, fanning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, integratsiya, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, Aktinidiya.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о значимости проекта, выполненного в области внедрения, являющегося отраслью ботаники, вовлечения студентов в предпринимательскую деятельность, интеграции науки с производством.

**Ключевые слова:** Образование, интеграция, производство, предпринимательство, актинидия.

**Abstract.** This article provides information about the significance of the project carried out in the field of implementation, which is a branch of botany, involving students in entrepreneurial activities, and integrating science with production.

**Key words:** Education, integration, production, entrepreneurship, actinidia.

Bugungi kunda barcha sohalar singari ta'lim tizimi ham jadal rivojlanmoqda. Fanning erishayotgan ilmiy yutuqlarini barcha sohalar, jumladan, ishlab chiqarish va kundalik turmushda qo'llanishi fan sohasining amaliy ahamiyatini ko'rsatib beradi. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, fanning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi hozirgi zamonning o'ziga xos tendensiyalarini hosil qiladi. Xususan, oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan birga, o'quv jarayonida ayrim fanlardan olingan bilimlarni ishlab chiqarish va tadbirkorlik sohalarini bilan birlashtirish o'zining ham ilmiy, ham moddiy samarasini beradi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida botanika fanini o'qitish bilan birga olingan bilimlar asosida kichik tadbirkorlikni yo'lga qo'yish ham mumkin. Ushbu fanning tarmog'i hisoblangan



o'simliklar introduksiyasi sohasida hozirgi kunda ko'pgina insonlar bir necha ishlari bilan o'zlarining ham ilmiy, ham moddiy daromadlariga ega bo'lishmoqda.

Biz bu borada mamlakatimiz sharoitida import meva hisoblangan kivini Navoiy viloyati sharoitiga moslashtirish borasida tajribalar o'tkazdik. Bizga ma'lumki yurtimizga chetdan keladigan import mevalarning aksariyati qimmat, kelgunicha hali to'lqi yetilmasdan uziladi. Sifatini saqlashda turli kimyoviy preparatlar bilan ishlov beriladi. Bu esa kishilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi muammolarni oldini olish uchun Aktinidiya turkumi vakillarini (kivi) viloyatimiz sharoitiga moslashtirish kerak. Aktinidiya turkumining vakillari (A.Poligamiyadan tashqari) ikki uyli o'simlik bo'lgani uchun hosil olish uchun ikki xil ya'ni urg'ochi va erkak navlarini yetishtirish kerak bo'ladi. Bundan tashqari Aktinidiya hosilini yetishtirish uchun to'rt yilcha kutishga to'g'ri keladi. Ammo Aktinidiya to'rt yillik kutishning natijasini hosilga birinchi bor hosilga kirganidayoq oqlaydi, ya'ni Aktinidiya hosildor o'simlik bo'lib 30-35 kg gacha hosil beradi.<sup>1</sup>

Aktinidiya turkumining barcha vakillari liana bo'lganligi uchun "Yashil devor" hosil qiladi. Bu devorlardan istirohat bog'larida suyanchiqlarni bezashda, turli shakllar hosil qilishda shuningdek, shovqin va changdan himoya qilishda foydalaniladi. O'z uylarida bunday Aktinidiya devoriga ega bo'lganlar esa bog'larini ajoyib mikroiklim bilan ta'minlashadi. Aktinidiya turkumining barcha vakillari juda xushbo'y va chiroyli gul hosil qiladi. Bu gullar ba'zan yashil barglar orasida oppoq bo'lib gullab, yoz oylarida ham qor parchalarini eslatadi. (A.Kolomikta). A.Poligamiyaning sarg'ish gullari esa avgust oyidan to sentabr oyigacha o'zidan xushbo'y xid taratib turadi. Barglari esa yaltiroq yashilligi bilan boshqa turlarga nisbatan qimmatli dekorativ o'simlik hisoblanadi. A.Arguta barglarining bir necha xilligi bilan ajralib turadi ya'ni gulli novdadagi barglari malina rangida bo'lib changlanish vaqtida to'q qizil rangga kiradi. A.Purpura esa sovuqqa juda chidamliligi bilan ajralib turadi. Bu turni Rossiyaning - 20 C iqlimli shimoliy rayonlarida ham yetishtirishadi.<sup>2</sup> 40 yilgacha umr ko'radigan Aktinidiya turkumi vakillarining quyidagicha xususiyatlari bor:

- Aktinidiya turkumining deyarli barcha turlari havoni tozalash xususiyatiga ega.
- Mevasi tarkibida ko'plab vitaminlar, jumladan A, C, PP, mikro va makroelementlar, antioksid va ishtaha ochuvchi shuningdek, xolesterinni parchalovchi moddalar bor.
- Bir dona Kividagi C vitamining miqdori to'rtta apelsinda mavjud. Shuning uchun kivi mevasi ishtaha ochuvchi va immunitetni ko'taruvchi sifatida iste'mol qilinadi.
- Oktabr oyining oxiriga mevasi pishishda davom etadi.
- Mevalari uzilgandan keyin ham 3 -3,5 oygacha saqlanadi.
- O'simlikda chidamlilik geni mavjud bo'lib, yangi navlar yaratishda juda qulay hisoblanadi.

- Aktinidiya yuqori hosildor o'simlik. Bir tup o'simlikdan bir yilda 30-35 kg gacha hosil olish mumkin. Bir dona Kivi mevasining sotuvdagi o'rtacha narxini 7000 so'mdan deb hisoblasak, kivini viloyatimiz sharoitiga moslashtirish orqali uning narxini ancha arzonlashtirishga va aholining kundalik iste'mol ratsioniga kiritishga muvaffaq bo'lamiz.

- Aktinidiyaning teri kasalliklariga qarshi kurashda ayniqsa ahamiyati katta.
- Zamburug'li, yara, dog' kasalliklarini davolashda keng qo'llaniladi.
- Tarkibida xolesterinni parchalovchi moddalar ko'p bo'lgani uchun ateroskleroz kasalligini davolashda qo'llanadi. Shuningdek dorixonalarda semizlik kasalligidan aziyat chekuvchilar uchun Aktinidiya nomli ozdiruvchi dorilar mavjud.<sup>3</sup>

Aktinidiya turkumi vakillarining qo'llash usullari.<sup>4</sup>

1. Mevasidan qaynatma. Aktinidiya mevasi olinib, 60 minut suvda qaynatiladi. Keyin shu suv iste'mol qilinadi. Bu qaynatma turli o'sma kasalliklarini oldini olishda qo'llaniladi.

---

<sup>2</sup> Balagurova A. "Aktinidiya turkumi vakillari biologiyasi va introduksiyasi" Toshkent 1994-yil 16 -bet.

<sup>3</sup> Klara Setkin "Aktinidiya turkumi" "Sad va ogorod" nashriyoti 1996-yil 62-bet.

3. Kolbasina E. "Liana va butalarning mevalari" Moskva-1998 - yil. 20-bet.

2. Mevasidan maz. Bu maz qayta tiklash xususiyatiga ega. Tayyorlash uchun mevaning urug'lari olinib meva eti eziladi. Ushbu massa teriga qo'yiladi. Bu maz kuygan jarohatlarda yaxshi samara beradi.

3. Ildiz qaynatmasi. 20 gr maydalangan ildiz 1 st suvga 30 minut suv xammomiga qo'yiladi. 2-3 osh qoshiqdan sutkasiga 3 marta ichiladi. Xolesterinni parchalash xususiyatiga ega.

4 Bargi va gulidan nastoyka. 20 gr gulini 1 st qaynagan suvga solinib, 4 soatga suv xammomiga qo'yiladi. Sovigach 3/1 stakandan kun davomida 3 mahal ichiladi. Bu nastoyka revmatizm va stenokardiya kasalliklarida ayniqsa foydali.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning barchasi Aktinidiya turkumi vakillarining tabiatda va inson hayotida tutgan o'rnini ko'rsatib turibdi.

Mana shunday loyihalar orqali talabalar botanika fanidan olgan bilimlarini ekologiya va tadbirkorlikka integratsiya qilish bilan birga o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish imkoniga ega bo'ladilar. Bunday loyihalar asosida talabalarga ta'lim dargohlarida olgan bilimlarini ilmiy tadqiqot muassaslarida mustahkamlash, ishlab chiqarish soha va tarmoqlarida amaliy jihatdan ko'rib chiqish imkoniyati yaratilgan bo'lar edi.

Ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan har bir shaxs, rahbar va ilmiy xodim integratsiya yordamida ta'lim sifatini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlar asoslarini bilishlari maqsadga muvofiq.<sup>5</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Balagurova A. "Aktinidiya turkumi vakillari biologiyasi va introduksiyasi" Toshkent 1994-yil 16 -bet

2. Klara Setkin "Aktinidiya turkumi" "Sad va ogorod" nashriyoti 1996-yil 62-bet.

3. Kolbasina E. "Liana va butalarning mevalari" Moskva-1998 – yil. 20-bet.

4. D.A. Qayumov, A.X. Alinazarov, O.I. Dadamirzayev Oliy ta'lim muassasalarida "integratsiya uchburchagi" va innovatsion-korporativ hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Namangan muhandislik-qurilish instituti .

5. M.K. Qayumova. Aktinidiya turkumi vakillarining tabiatdagi va insonlar hayotidagi ahamiyati-Navoiy Davlat Pedagogika Instituti.

## **ACTUAL ISSUES OF DIGITALIZATION OF VARIOUS STAGES AND DIRECTIONS OF EDUCATION AND FORMATION OF HUMAN QUALITIES IN THE YOUNG GENERATION**

**Qobiljonova Jasmina Jasur qizi**

**Jizzakh State pedagogical University named after A. Qadiri**

**2nd level student of fine arts and engineering graphics**

**+998 91 568 22 08**

**qobiljonov1225@gmail.com**

**Annotatsiya.** Bugungi jadallashib borayotgan bir davrda ta'lim sohasiga bir qator o'zgartirishlar kiritish hamda ta'lim sifatini yaxshilash, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim xizmatlari sohasining rivojlantirish holati hamda yosh avlod ta'limining turli bosqich va yo'nalishlarini raqamlashtirish orqali olib borilishi nazarda tutilgan muammolarni hal etish o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** taraqqiyot, ta'lim, samaradorlik, axborot-kommunikatsiya, pedagog, rivojlanish.

**Abstract.** In today's fast-paced era, making a number of changes in the field of education and improving the quality of education, the state of development of the field of educational services in the period of new development of Uzbekistan, and solving the problems of

---

<sup>5</sup> D.A. Qayumov, A.X. Alinazarov, O.I. Dadamirzayev Oliy ta'lim muassasalarida "integratsiya uchburchagi" va innovatsion-korporativ hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Namangan muhandislik-qurilish instituti .

digitalization of various stages and directions of the education of the young generation is studied.

**Keywords:** development, education, efficiency, information and communication, pedagogue, growth.

**Аннотация:** В современную быстро развивающуюся эпоху внесения ряда изменений в сферу образования и повышения качества образования, состояние развития сферы образовательных услуг в период нового развития Узбекистана, решение проблем цифровизации изучаются различные этапы и направления воспитания молодого поколения.

**Ключевые слова:** развитие, образование, эффективность, информация и коммуникация, педагог, разработка.

As a result of the development of new pedagogic technologies, the rationally designed and conducted teaching process in the educational system is conducted in a new interactive way, unlike traditional lessons. "Education is very important for the young generation to correctly and completely master this changing social reality and rapidly developing scientific innovations. Education, first of all, teaches young people the basics of independent thinking, which is important throughout their lives..." [1, 6]. In recent years, President Shavkat Mirziyoyev has begun to pay serious attention to reforming the education sector, fundamentally improving the quality of personnel training, and in particular, applying the experience of developed foreign countries to the system. The reforms in this regard are based on the decree of the President of March 14, 2017 "On measures to further improve the activities of secondary special and vocational education institutions" and the decree of April 20, 2017 "On further improvement of the higher education system" on development measures", dated May 22, 2017 "On measures to further improve the system of post-secondary education", dated August 8, 2017 "O It was reflected in the decisions "On improving the activities of the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan" and "On the establishment of the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan" dated September 30, 2017. If we pay attention, we can see that almost all types of continuous education system are covered in these decisions. In addition, "Uzbekistan - 2030 Development Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan" focuses on the fundamental improvement of the education sector. All of these documents aimed at the development and improvement of the educational system have common aspects related to the introduction of innovations in the field, assimilation of foreign experiences, support of creative approaches, strengthening of integration processes between types of education.

Implementation of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the achievement of its target indicators should be set as the highest priority of the education system, and modern pedagogues should be educated in accordance with the requirements of the times.

Within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy, the head of our state, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, has decided to ensure the achievement of all important goals and the fulfillment of important tasks, which are set in the development strategy of New Uzbekistan and continue to be implemented.

Increasing the efficiency of teaching in modern lesson processes, using modern technologies and methods in teaching students increases the efficiency of learning lessons, and helps them learn quickly.

The concept of the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 stipulates the introduction of modern information and communication technologies and innovative projects in the education system. At the same time, the state education standards are based on the competency approach, teaching and evaluation methods, as well as the transfer of textbooks and other educational materials mainly to digitized technologies, the development of independent use and analysis skills of information technologies and other skills. , improvement of the quality of used textbooks, use of foreign textbooks as additional or alternative educational materials, and introduction into practice.

Today, one of the main tasks facing modern educational institutions is to create and introduce educational innovations aimed at meeting the needs of society and the state, the participants of the educational process. An innovative educational institution will be competitive. This shows that the university is equipped with highly qualified pedagogic personnel capable of integration into various educational programs. A modern higher education institution, of course, carries out innovative activities, in particular, it develops and implements educational technologies, new programs and methods that allow to achieve new results. The role of innovative activity in ensuring the socio-economic development of our republic, further development and modernization of the education system, training of spiritually mature and competitive specialists is incomparable. Because the quality and improvement of all types of socio-economic development of the country is directly related to the effective organization of innovative activities in the higher education system. Indicators such as the extreme importance of innovative innovations in the training of competitive specialists, the fact that the efficiency and effectiveness of socio-economic activity are directly related to innovative activity, and that it is one of the main levers for ensuring the effective integration of education, science and production are important indicators of the innovative manager in education. indicates the importance of ment. In our opinion, the goal of innovative education is as follows: – to ensure a high level of intellectual, personal and spiritual development of the student; – to create conditions for acquiring scientific thinking skills; – to teach the methodology of introduction of innovations in socio-economic and professional spheres. The concept of “professional skill” is one of the main concepts in innovative education.

The traditional educational process at the Higher Education Institution provides the student with knowledge of subjects, the connection of this knowledge to specific professional activities occurs only during course work, production and pre-graduation internship. In such conditions, it is very difficult to provide a student with specific professional knowledge and ensure its quality. Innovative education is aimed at forming professional knowledge and quality in the process of mastering innovative changes.

It is determined that the teaching process of foreign languages and information and communication technologies should be used as a methodical tool.

In the image of a modern teacher, we imagine pedagogues who are well-versed in information and communication technologies, who can organize a modern lesson process, and who can use advanced technologies. Today, it is one of the most important tasks of our country to provide education to young people, to prepare them at the level of mature and qualified staff who meet the requirements of state education standards in all aspects. “Formation of an excellent system of personnel training based on the rich intellectual heritage of the people and universal values, on the basis of the achievements of modern culture, economy, science, technology and technology is an important condition for the development of Uzbekistan”

As in any society, in the conditions of the economy of the development of our republic, it is important to train qualified specialists who can withstand competition. After all, the importance of the factor of professional personnel training in the development of society is a fact of life that does not require proof.

The president of our state has the following sayings: “If what bothers you about me?” If you ask, I will answer that it is the education and upbringing of our children.

After all, the stability, growth and development of our country undoubtedly depends on the education system and the intellectual potential of young people.

To sum up, socio-economic changes in society require the training of specialists aimed at all-round intellectual and spiritual development of students' personality. The organization of such education can be provided only when the transition to individual-oriented education is based on innovative technologies. At the same time, inculcating national values in the upbringing of the young generation will be the basis for raising an intellectually competent and spiritually mature generation.

## REFERENCES

1. Abdullayeva M.N. and others. National idea and methodological problems of science. - T. 2009. - p-6.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> PF- №158. 11.09.2023. "Uzbekistan — 2030 strategy"
3. <https://lex.uz/acts/-48401> National personnel training program.
4. <https://lex.uz/docs/-4312785> The concept of development of public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030
5. Sh.M.Mirziyoyev- "Together we will build a free and prosperous democratic state of Uzbekistan" Toshkent. Uzbekistan-2016.

## **FIZIKA DARSLARIDA IBN SINONING "MEXANIKA" KITOBIDAGI FIZIK QARASHLARIDAN FOYDALANISH**

**Jamonkulova Aziza Toshtemir qizi,  
"Fizika va astronomiya" ta'lim yo'nalishi.  
Ilmiy rahbar: k.o'q. E.A.Qudratov  
Navoiy davlat pedagogika instituti.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizika darslarida tarixiylik tamoyillari asosida O'rta Osiyolik allomalarimizning jumladan, Ibn Sinoning "Meyor ul-uqul" ("Mexanika") kitobidagi fizika sohasidagi ilmiy meroslaridan foydalanishning metodik jihatlari bayon etilgan.

**Аннотация.** В данной статье изложены методические аспекты использования научного наследия наших среднеазиатских ученых на уроках физики, в том числе книги Ибн Сино "Мейор уль-укул" ("Механика"), основанной на принципах историзма.

**Annotation.** this article describes the methodological aspects of our middle Asian allomas based on the principles of historicism in physics lessons, including the use of their scientific heritage in Physics in Ibn Sina's book "Meyor ul-uqul" ("Mechanics").

**Kalit so'zlari:** Ajdodlar merosi, ilmiy-tarixiy meros, Ibn Sino, "Meyor ul-uqul" ("Mexanika") kitobi, chaqmoq, momaqaldiroq, chig'iriq, ko'char va ko'chmas bloklar, fizika darslarida vatanparvarlik.

**Ключевые слова:** Наследие предков, научно-историческое наследие, Ибн Сина, книга "Мейор уль-укул" ("механика"), молния, гром, подвижный блок, неподвижный блок, патриотизм на уроках физики.

**Keywords:** ancestral heritage, scientific-historical heritage, Ibn Sina, the book "Meyor ul-uqul" ("mechanics"), lightning, thunder, shells, kochar and kochmas blocks, patriotism in physics lessons.


Yangi O'zbekistonimizning rivojlanishda va taraqqiyot yo'lida ravnaq topayotgan bugungi kunimizda yurtimizning oz tarixiy o'tmishini anglashga qiziqishi va uni yosh avlodga yetkazish bugungi ta'limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, ilm tarixiy, fan esa tarixga egadir. Shuning uchun fan tarixini yoritishi bilan bu tarixni o'rganishga ehtiyoj yuzaga keladi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblar ko'p bo'lgan".

Shuning uchun zaminimizda yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Al Roziy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Abdurahmon Hozin kabi buyuk olimlarimizni tabiiy va aniq fanlar borasida qilgan ishlari, olib borgan tadqiqotlarini ta'lim jarayoniga olib kirish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Shularni e'tiborga olib, fizika fanini o'qitishda ajdodlar merosidan foydalangan holda mavzulardagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam beradigan ilmiy-tarixiy meroslarimizga e'tibor berishimiz kerak va zarur deb o'ylaymiz.

Jumladan, Ibn Sinoning ilmiy merosi jahonning ko'plab mamlakatlarida o'rgnilmoqda. Masalan, uning "Meyor ul-uqul" ("Mexanika") kitobi 1952-yilda Tehron shahrida chop etilgan bo'lib, unga Jaloliddin Humoi tomonidan muqaddima va tavsiflar berilgan[1].

Uning "Fizika" va "Mexanika" deb nomlangan asarlari fizikaning ba'zi sohalarini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu Ibn Sinoning Beruniy bilan o'zaro savol-

javoblarida namoyon bo'lgan. Bundan tashqari alloma tabiat hodisalaridan yashin, chaqmoq, momaqaldiraq kabi hodisalar haqidagi ilmiy fikrlarini bayon etib qoldirgan.



**Modda tuzilishi:** Demokritning ta'limotiga ko'ra, jismning bir-biridan farqi atomlarning soniga, o'lcham, shakl va tartiblariga bog'liqdir. Atomlar sifat jihatdan bir-biridan farq qilmaydi. Atomlar ichki holatiga ega emas, ular bir-birlariga bosim berishi va urilishi tufayli ta'sir ko'rsatadi. Demokrit va Arastuning atomistik nazariyasi buyuk mutafakkirlar Ar-Roziy, Beruniy va Ibn Sinolar ijodida yanada rivojlanirildi.


Ibn Sinoning Beruniyga yo'llagan javobida Arastu va Ar-Roziyning fikriga qo'shilishini ya'ni, atomning bo'linishida ma'lum bir chegara borligini qayd qiladi.

Beruniy esa Ibn Sinoni biroz koyib ustoz Arastu va Ar-Roziy fikrlaridan takrorlaganligini va mustaqil ravishda fikr yuritishini aytib o'tadi va yana quyidagi savol bilan murojaat qiladi: "Faraz qilaylik, atom ikkiga bo'linsin. Bu ikki bo'lakchalar orasida qandaydir bir bo'shliq mavjud bo'lib, bu bo'lakchalar doimo harakatda va ular orasida o'zaro ta'sir kuchlari mavjud deb hisoblaylik. Endi, bu ikki bo'lakchanning har birining o'lchami ular orasidagi bo'shliqning o'lchamiga nisbatan necha marta katta yoki kichikligi haqida o'ylasak yaxshi bo'lar edi", y – deb aytadi[2].

**Termodinamika:** atmosfera bosimi, bo'shliq, konveksiya, issiqlik tabiati va ularni o'zatilish turlari.

**Optika:** yorug'lik tezligi, yorug'lik dispersiyasi, ko'zning optik sistema ekanligi, linza va uning turlari, atom tuzilishi kabi mavzularga tegishli bo'lgan mulohazalari hozir ham o'z kuchini yo'qotmagan.

Umumta'lim maktablarida "Oddiy mexanizmlar va ularning muvozanat shartlari" mavzusi berilgan bo'lib, ulardan o'quvchilar dars jarayonida Ibn Sinoning tishli uzatmalari (1-rasm), yukni ko'tarish uchun mo'ljallangan qurilmalari, chig'iriq, ko'char va ko'chmas bloklari (2-rasm) to'g'risidagi ilmiy meroslaridan o'quv jarayonida foydalanish mumkin.



1-rasm

Ibn Sino har bir o'rganilayotgan masalasidan noma'lum bo'lgan biror yangi fikr chiqara olar edi. Yevropalik ilg'or fikrlovchi kishilar buyuk bobomizning qarashlarini tushunib yetishi uchun bir necha yuz yillar kerak bo'ldi.

Shunday ekan, ta'lim berish jarayonida ajdodlarimiz hayoti, buyuk kashfiyotlari va ilmiy meroslari haqidagi tushunchalarni tegishli mavzularda o'rgatib hamda ma'lumotlar berib borilsa, o'quvchi yoshlarda Vatanimizga bo'lgan muhabbat va vatanparvarlik kabi hislatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. **A.A.Axmedov, E.A.Qudratov. Fizika tarixi. O'quv qo'llanma. Navoiy. 2022y**
2. **E.A.Qudratov, A.T.Jamonqulova. Astronomiya fanini o'qitishda milliylik prinsiplari. Xalqaro ilmi-amaliy konferensiya to'plami. Navoiy-2023y.**

### **MUSTAQILLIK DAVRI HIKOYALARIDA SHAXS MA'NAVIYATINING YORITILISHI**

**Rustamova Farida Ilxomovna**

**JDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Shaxs ma'naviyati – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakatlari va hokazo kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir.

**Kalit so'zlar:** Shaxs ma'naviyati, hikoya, mustaqillik davri hikoyachiligi, "Sofiya" hikoyasi, bo'ron, muhabbat, "Shabada" hikoyasi, oila, Arsh larzasi, Rahima aya, Mirsaid tog'a.

**Abstract.** Spirituality is a concept that represents the spiritual and mental world of a person. It includes people's philosophical, legal, scientific, artistic, moral and religious ideas. At the root of the term spirituality is the word " meaning ". It is known that there is an external and internal world of a person. The external world includes his height, appearance, clothes, behavior, etc. His inner world includes his life purpose, thoughts, dreams, aspirations, feelings. This inner world of man is spirituality

**Key words:** Personal spirituality, story, storytelling of the independence period, "Sofiya" story, storm, love, "Shabada" story, family, Arsh larzasi, Rahima mother, Mirsaid uncle.

Hikoya bu badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan asar. Mustaqillik davrida hikoyachilik taraqqiyoti yuqori bosqichga erishmoqda. Istiqloq davri hikoyalarida shaxs ma'naviyati yoritilishiga katta e'tibor berilgan. Bu davr hikoyachilik taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ulug' yozuvchilarimiz Xurshid Do'stmuhammad, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi, Nazar Eshonqulov va boshqalar. Bu ijodkorlar asarlarida inson qalbidagi iztiroblar, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar kabi muammolar o'zining badiiy talqinini namoyish qildi.

Yozuvchi Isajon Sulton ijodlaridan "Sofiya" hikoyasida shaxs ma'naviyati keng ochib berilgan. Bu hikoyada tabiat tasviri, tabiatga muhabbat aks etgan. Bu esa insonni Xudoga yaqinlashtirishi nazarda tutilgan. Asardan olingan quyidagi parchada tabiatga muhabbat tasvirlangan:

Yengil shabada havolarni mavjlantiradi, uzoqdagi o'r-qirlar shu sabab jimirlayotganday ko'rinadi. Hayotimda qasirg'alarni, bo'ronlarni, dovullar-u chaqmoqlarni yaxshi ko'raman. Shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir guvillab-sevalab, dov-daraxtlarni egib-egib yog'ishini yoqtiraman, shamollar butalarni chayqatib-chayqatib esishlarini ko'p ko'rganman.(1;1)

"Sofiya" hikoyasida roviy shu nom bilan atalgan bo'ron sabab yuzaga kelgan vayronagarchilik haqida dahshatga tushib hikoya qiladi, ayni damda Olloh irodasi birla bosh ko'targan shu falokat go'zalligidan lol ham qoladi:

Bepoyon o'tloqlarda o'ynab-o'ynab esdi u. Yastanib ketgan bo'liq o'tlar uzra shiddati va erkaligi aniq bilindi. O'tloqning goh u, goh bu yerida to'satdan epkin urib, barini egib-bukib o'tdi, ajabki, qolgan hududlar tek edi. Sal o'tmay ancha narida yana shunday qildi. Yon-verimdagi daraxtlar ohista shivirlab turgan edilar, birdaniga shu yerda paydo bo'ldi-da, shaftoli shoxlarini qattiq silkitib, hali pishib yetilmagan mevalarini to'kdi, keyin to'satdan ho'v narida – ulkan tol yonida to'lqin ura ketdi. Tamomila yovvoyi va bebosh edi u! (1;2)

Jilvalariga mahliyo bo'lib turib qoldim. Ajab erkaliklar-u ajoyib nozlar ila namoyon bo'ldi bu to'fon. (1;2)

Bu asarni tahlil qilishda "Sofiya" bo'ronini muhabbat deb qarasaq, roviy esa muhabbatsiz kishi bo'ladi. Asar davomida "Sofiya" bo'ronining roviyga ta'siri kuzatilgan:

Mening sochlarimdan ham yulqilaydi deng. Kiyimlarimni tortqilab-tortqilab, qaylargadir – juda olislarga, o'zi ozod-ozod esadigan hududlar sari surgalamoqchi bo'ladi. Mana, qanaqa ekansan sen – Sofiyam mening! (1;2)

Asardan olingan ushbu parchada ham inson ma'naviyati yorqin aks etgan:

Pastda, uzoq-uzoqlarda qo'ylar suruvi ko'zga tashlanar edi. Oldinda echkilar chopib borishmoqda. Chakmon kiygan otliq kishi qo'ylar suruvini qaytarishga urinmoqda. Qayda, qo'ylar shamolda odamga bo'ysunmay qo'yadilar. Shuncha olisdan ham ularning ko'zlarini olayib ketganini, qo'rquv ichra ba'rashlarini, cho'ponning qiyqirishlariga quloq solmay shamol yetaklagan tomon ketayotganlarini ko'rib turgandayman. (1;2)

Ular borayotgan tomonda chuqur jarlik bor, shamol ularni to'ppa-to'g'ri jarlikka haydab bormoqda. Qo'ylar itoat va bo'ysunish bilan u haydagan tomonda ketib borishmoqda. (1;3)

Ushbu parchani tahlil qilganda: qo'ylar obrazini sevib qolgan insonlar deb olganda, qo'ylarning shamol yoin-ki bo'ron ta'sirida jarlikka qarab ketishini - sevib qolgan insonning muhabbat ta'sirida ko'zi ko'rmaydigan, qulog'i eshitmaydigan holatga kelishi va buning oqibatida shoshma-shosharlikka, aqlsizlikka yo'l qo'yilishi, real hayotni unutib, xayolot dunyosiga berilishining kuzatilishi nazarda olingan. Parchadagi cho'pon obraziga ota-ona, yaqin qarindoshlar, ustozlar yohud hayot, taqdir deb qarasaq ayni muddao.

Istiqloq davri namoyondalaridan biri – yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Shabada" hikoyasida ham shaxs ma'naviyatiga alohida ahamiyat berilgan. Asarda oila muqaddasligi ta'kidlangan. Hikoyadan keltirilgan quydagi parchada ham shaxs ma'naviyati namoyon qilingan:

Rahima aya uzukun uyga qamalib yotadigan odat chiqardi, kampir hech kim bilan gaplashmas, huzuriga boshqalar kirishini xushlamas, kelinlariga so'zni qisqa qilib, "bora qolinglar", deb chiqarib yuborar, Komilaning ko'ziga qarolmas, Imron bilan Go'zal ismli nevaralarini ko'rganida o'pkasi to'lib ketar – tarkidunyo qilgan odamdek uning uchun hech narsaning qizig'i qolmagandi... (2;6)

Bu jumalarni tahlil qilsak, Rahima ayaning katta o'g'li Komron o'zining oilaviy hayotini buzgani, buning oqibatida onasining norizoligiga sababchi bo'lgani, onaning bosh kelini oldida o'zini noqulay his qilib, vijdon azobini sezgani tasvirlangan, deb bilamiz. Qisqa qilib aytganda, onaning ruhiyati ko'rsatib berilgan.

Hikoya boshida Mirsaid tog'a obrazi tilidan keltirilgan: "Bir oilaning buzilishi arshni larzaga keltiradi" jumlasida asarning bosh xulosasi. Buning izohi: Komron birinchi nikohini buzib, yangi oila qurganidan keyingi voqealarga nisbatan olingan. Ya'ni yangi hayotidagi ko'rgiliklar: yangi to'ldirilib, gazga qo'yilgan choynakning portlashi; eshikning o'zidan-o'zi ochilib-yopilishi; yangi kelinning ko'ziga sharpa ko'rinishi, yosh kelin uyida narsalar o'z-o'zidan sochilib yotishi, bolasining nobud bo'lishi va shunga o'xshash voqealarga nisbatan Mirsaid tog'a nutqidan: "Bu hali arshdagi larza emas, shabadasi", – deb asar so'ngida keltirilgan. Yuqoridagi Komronning yangi hayotidagi voqealarning ro'y berishida onaning norizoligi ham asos bo'lgan.

Mustaqillik yillari hikoyachiligida yozuvchilar tomonidan shaxs ma'naviyati masalasiga chuqur qaralgan. Ijodlarida insonning ruhiy kechinmalari, qayg'u va shodliklari tug'yonli tasvirlangan. Bu orqali obrazlarning asardagi badiiy qiymatini yuksak darajada yetkazishga muvaffaq bo'lishgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**



1. <https://n.ziyouz.com> > uzbek-nasri
2. <https://kh-davron.uz> > uzbek
3. <https://uz.m.wikipedia.org> > wiki
4. <https://malumot.ru> > adib-doimiy-izlanishda

## ANIQ FANLAR TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sa'dullayeva Maftuna Lutfulloyevna  
Matematika-informatika ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
Jo'rakulov Tolib Toxirovich  
Ilmiy rahbar: Informatika kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mamlakatimiz ta'lim tizimida aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb mavzudir. Axborot texnologiyalari - bu o'quvchilarga nafaqat bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni, balki shaxsiy fazilatlarini ham egallashga yordam beradigan va ularning bilimga bo'lgan qiziqishini qondirishga yordam beradigan butun dunyo bo'ylab ta'lim vositasidir. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarga ko'ra, axborot texnologiyalari o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Jarayonning metaforik tasviri o'quv mazmunini boyitib, o'quvchining u yoki bu hodisani eslab qolishida ilmiy o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu maqolada aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Aniq fanlar, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, rivojlanish, ta'lim tizimi, interfaol metodlar.

**Аннотация.** Эффективное использование информационных технологий при преподавании конкретных предметов в системе образования нашей страны является актуальным вопросом. Информационные технологии – это всемирный образовательный инструмент, помогающий учащимся приобретать не только знания, навыки и умения, но и личностные качества, а также удовлетворять их любознательность. По данным педагогических и психологических исследований, информационные технологии оказывают большое влияние на развитие теоретического, творческого и рефлексивного мышления студентов. Метафорическое изображение процесса обогащает содержание обучения и помогает учащемуся запомнить то или иное событие. Эта статья посвящена использованию информационных технологий в преподавании конкретных предметов.

**Ключевые слова:** Точные науки, информационные технологии, современное образование, развитие, образовательная система, интерактивные методы.

**Abstract.** The effective use of information technology in teaching specific subjects in the education system of our country is a pressing issue. Information technology is a global educational tool that helps students acquire not only knowledge, skills and abilities, but also gical research, information technologies have a great influence on the development of theoretical, creative and reflective thinking of students. A metaphorical deppersonal qualities, as well as satisfy their curiosity. According to pedagogical and psycholoiction of the process enriches the content of learning and helps the student remember a particular event. This article is devoted to the use of information technology in the teaching of specific subjects.

**Key words:** Exact sciences, information technologies, modern education, development, educational system, interactive methods.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimi uchun yaratilmagan, ammo aynan shu texnologiyalar ta'lim inqilobiga olib keldi [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etishning asosiy maqsadi bugungi axborot olamiga xos bo'lgan yangi turdagi ta'lim faoliyatining paydo bo'lishiga yordam berishdir. Boshlang'ich ta'lim odatda ta'lim tizimining tamal toshi sifatida tanilgan bo'lib, o'quvchilarning ta'lim sifati unga bog'liq bo'lib, bu boshlang'ich sinf o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida boshlang'ich maktab "mahorat maktabi" sifatida qaralib, keyingi bilim olish uchuno'quvchi o'qish, yozish va hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni

egallashi kerakligini anglatadi. Bu ta'lim bosqichi deb hisoblanadi. Bugungi dunyoda boshlang'ich ta'limga boshqa nuqtai nazardan qaraladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi – ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribam an'anaviy dars doirasida axborot texnologiyalarini didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differensatsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanilganda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimedial mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimedial ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va Rus tili darslaridasavodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovoqli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiya uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differensatsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.

Matematika darslarida "O'yinli masalalar" dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda

harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi – axborotlilik, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin[2].

Maktabda mavjud bo'lgan Internet tarmog'i ishimizda katta yordam ko'rsatadi. Internet - bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma'lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o'z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko'paytirib, barcha kompyuterlarga o'rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o'tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to'ldirish imkoni paydo bo'ladi.

Axborot olishning boshqa bir usuli – dars davomida bevosita Internetdan axborot olish hisoblanadi. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda esa uni o'quvchilarga ko'rsatish mumkin. Ishni o'rganilgan material bo'yicha dialog ko'rinishida olib borish mumkin.

Katta sinflarda informatika darslarida albatta kompyuterdan foydalanish ushbu dasturni amalga oshirish zarur sharti hisoblanadi. Kompyuterdan odatda yangi materialni muhokama qilishda elektron doska sifatida foydalanaman. Bundan tashqari, o'quv o'yinlarini tashkil qilish hamda individual ta'lim va kompyuterli praktikumni tashkil qilishda foydalaniladi. Ta'lim natijasida o'quvchilar o'quv va oddiy amaliy masalalarni yechish uchun kompyuterdan foydalanish: fayllar bilan oddiy operatsiyalarni amalga oshirish (yaratish, saqlab qolish, izlash, dasturni ishga tushirish); dasturlarda amaliy topshiriqlarni va ijodiy ishlarni bajarishni biladilar: Word Pad, Microsoft Power Point, Microsoft Excel, Microsoft Word; keng foydalaniladigan dasturlarni ishga tushirish: kompyuter ekranida matnli va grafik redaktor, trenajerlar, testlar; matnlar va tasvirlar (axborot), obyektlar bilan ishlash; izlash, oddiy o'zgartirishlarni, saqlash, foydalanish va axborot hamda ma'lumotlarni uzatishni amalga oshiradilar, mundarija, yo'l ko'rsatuvchi, kataloglar, spravochniklar, internetdan foydalanib, kompyuter yordamida kichik loyihalar va taqdimotlar yaratadilar.

Shu jumladan, boshlang'ich maktabda o'rganish o'quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqalashtirishga imkon beradi. Taklif etilayotgan kurso'qituvchiga ta'limni erkin boshqarish va o'quv axborotlarini taqdim etish turli usullarini qo'llash imkonini beradi. Kursda loyiha-tadqiqotchilik faoliyatiga alohida o'rin ajratilgan. O'quvchilarning loyihachilik faoliyatlari mustaqil tadqiqotchilik malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi; o'quv jarayonida olgan bilimlarini birlashtiradi va o'quvchilarni aniq hayotiy muhim masalalarni hal qilishda ishtirok ettiradi, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar va o'quvchilar munosabati uslublarini demokratlashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish – zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Aniq fanlarni o'qitish jarayonida AKTdan foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish birinchi navbatda, bu turli hisobotlarni tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va shu kabilardan iborat bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldasheva. G.I. Axborot texnologiyalari-ta'lim sifati kafolatidir. "Экономика и социум" №4(83), (2021). 462-465.
2. Yuldasheva. G.I., Shermatova Kh.M. The use of adaptive technologies in the educational process. "Экономика и социум" №4(83), (2021). 466-468.

3. O‘.O‘.Tolipov, M.O‘smonboeva "Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot" O‘z.RFA nashriyoti T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2005 y.

4. Nasirova Sh.N., Maxmudova M.A. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson Electronic journal of actual problems of modern science, education and training december 2019-V ISSN 2181-9750, Urganch, № 5, 2019.-S.1-8.

## **ROSSIYA FUQAROLIK MUOMALASIDAGI RAQAMLI RUBL ISTIQBOLLARI, RASSIYA VALYUTASINI XALQAROLASHTIRISH**

**Samadova Mohlaroyim Burxon qizi**

**Navoiy davlat pedagogika institute Maktab menejmenti ta’lim yo‘nalishi talabasi**

**Elov Olimdjon Komilovich**

**Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

**Annatsiya.** Ushbu maqola Rossiya Banki tomonidan taklif qilingan raqamli rubl konsepsiyasini tahlil qilishga, raqamli pullarning hozirgi ahamiyati, uning afzalliklari, qulayliklarini ochib berishga va kamchiliklarini o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli pullar, Kriptovalyutalar, raqamli rublning xalqarolashuvi, pul tizimining barqarorlashuvi.

Maqolaga kirishdan avval raqamli pullar haqida to‘xtalib o‘tsak, raqamli pul o‘zi nima? Uni hayotimizdagi o‘rni qanday? Raqamli pul -bu har qanday turdagi to‘liq electron bo‘lgan to‘lov turidir. Qog‘oz pullardan farqli jihati uni jismonan sezib bo‘lmaydi. Online tizimlar orqali uni hisoblash yoki uzatish mumkin. Bizning tilimizda raqamli pullar Kriptovalyuta Bitcoin nomi bilan taniqli. Bu turdagi pullarning naqd pullardan farqi, muomila jarayonini soddalashtirish bilan bir qatorda, qulaylashtiradi. Moliyaviy o‘tkazmalarni osonroq va tezroq amalga oshiradi. Markaziy banklarning pul- kredit siyosatini amalga oshirish jarayonini ham soddalashtiradi. Ya’ni bu turdagi pullarning bazilari kriptografiyadan foydalanganligi sababli, ularni hukumatlar yoki xususiy agentliklar nazorat qila olmaydi. Ushbu sabablardan kelib chiqqan holda raqamli valyutalar butun dunyo bo‘ylab barcha hukumatlarning asosiy e’tiboriga aylangan desam adashmagan bo‘laman. Ushbu maqolada esa Rossiya davlati misolida tahlil qilishga harakat qildim.

So‘ngi paytlarda Rasiyada ham butun dunyoda bo‘lgani kabi, tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovning naqd pulsiz usullari kabi ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Bulardan biri raqamli rubl. Raqamli rubl bu- Rossiya Markaziy banki tomonidan chiqariladigan valyutaning yangi shaklidir. Bu Markaziy bank raqamli valyutasining(CBDC) Rossiya versiyasi bo‘lib, blokcheyn texnologiyasiga asoslanadi. Rossiya hukumati fikricha raqamli rubl biznes uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, is’tamolchilar uchun qo‘shimcha xavfsizlik qatlami oshadi va korrupsiyaga qarshi kurashga yordam beradi. Hozirda raqamli rubl tartibga soluvchi organ va tijorat banklari tomonidan sinovdan o‘tkazilmoqda. Ishga tushirilganidan so‘ng, korxonalar, do‘konlarda raqamli rubllarda to‘lovlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Raqamli rublning transchegaraviy to‘lovlar uchun asosiy afzalligi shundaki, bunday to‘lovlar boshqa mamlakatlarning bank tizimidan foydalanmasdan, faqat Rossiya banki tomonidan boshqariladigan Digital Ruble platformasi orqali amalga oshiriladi. Test sinovlari 2022-yil 19-yanvarda boshlangan bo‘lib 2022-yil 15-fevralda Rossiya banki va bozor ishtirokchilari raqamli rubl platformasini sinovdan o‘tkazishni boshladilar va fuqarolar o‘rtasida raqamli rubllarda birinchi o‘tkazmalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdilar, kelajakda ular undan foydalangan holda tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovni sinab ko‘rishni rejalashtirmoqdalar. 2022-yil 16-sentabrda bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida Rossiya banki direktori Elvira Nabiullina 2023-yil 1-apreldan raqamli rublni real mijozlar bilan sinovdan o‘tkazish boshlanishini e’lon qilgan. “Bizga ma’lumki dunyoda Rossiya bilan biznes yuritishdan manfaatdor bo‘lgan ko‘plab kompaniyalar bor, ammo ularning ko‘pchiligi bugungi kunda Rossiya banklariga qarshi sanksiyalar bilan cheklangan. Raqamli rubl tufayli banklar tenglamadan chiqariladi va Rossiya bilan savdo qilishga tayyor bo‘lgan barcha kompaniyalar buni to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirishiga imkon yaratiladi deya ta’kidlaydi bosh director Nikolay Juravlev. Ta’kidlanganidek raqamli rubl “naqd va naqd

bo‘lmagan rubllar bilan bir qatorda qo‘llaniladi” va to‘lov vositasi sifatida uning jozibadorligini oshiradigan qo‘shimcha afzalliklarga ega bo‘ladi. Shu asnoda shuni aytish lozimki, raqamli rubl Rassiya va butun dunyoda moliya sanoati uchun muhim voqeadir.

Xulosa o‘rnida shunday deya olamizki, olib borilgan o‘rganishlarga ko‘ra, Rassiya an’anaviy banklarning faolligi CBDC ning to‘liq amalga oshirilishi tufayli kamayishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa o‘z navbatida kelasi besh yilda Rassiya uchun ko‘plar dollarlarning yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Biroq, 2023 yilda raqamli rublning joriy etilishi mamlakat to‘lov tizimida muhim yangilik sifatida vujudga kelishi kutilmoqda, bu esa o‘z navbatida Rassiya moliyaviy tizimlar va vositalar bo‘yicha jahon yetakchisi sifatida mavqeini mustahkamlashiga ko‘maklashishi mumkin. Ammo bunga qaramasdan, ushbu o‘tish davrida bozor moslashuv davrini boshdan kechirishimi mumkinligi kutilmoqda. Bunda asosan to‘lov xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlar kamayib, chakana sotuvchilarga ma‘qul kelsada, ekspertlar buning natijasida is‘temolchilar va banklar uchun potentsial daromadning pasayishidan xovotirdalar. Yana shuningdek, raqamli pullar o‘z navbatida jismoniy hamyonlarni talab qilmasada, raqamli valyutalarni saqlash va qayta ishlash uchun ma‘lum bir talablarga ega. Misol uchun, bunday turdagi valyutalarni saqlash uchun mustahkam xavfsizlikka ega onlayn hamyonlar ham zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alekhina OO Millatlararo raqamli valyuta: istiqbollar, xavflar va ularning milliy raqamli valyutalar loyihalarini rag‘batlantirishdagi roli. Risklarni boshqarish 2021. 59-68- betlar(rus tilida)
2. Beshlei O. Manipulyatsiyalar yoki moliyaviy vosita uchun joy. Salvador, Ukraina va Rossiya kriptovalyutalarni qanday qonuniylashtiradi. Nastoyashchee vremya , 17.09.2021. (Rus tilida.)
3. Yevropa Markaziy banki. 2020. Raqamli yevro bosh sahifasi. 2021-yil 27-iyun kuni [https://www.ecb.europa.eu/euro/digital\\_euro/html/index.en.html](https://www.ecb.europa.eu/euro/digital_euro/html/index.en.html)
4. Maslov AV, Maklakova Yu.A., Shvandar KV Markaziy banki raqamli valyuta va raqamli rublning o‘rni. Moliya va kredit , 2021, jild. 27, yo‘q. 5 (809), 1058-1073-betlar. (Rus tilida)
5. “Rossiya banki rahbari Elvira Nabiullinaning 2022-yil 16-sentabrdagi Direktorlar kengashi yig‘ilishi yakunlari bo‘yicha bayonoti | Rossiya Banki” . [www.cbr.ru](http://www.cbr.ru).
6. *Fabrichnaya, Elena (2023-08-09)*. “Rossiya 15 avgustdan boshlab raqamli rublni sinovdan o‘tkazish ko‘lamini kengaytiradi -markaziy bank” .2023-09-19 .

## **O‘QITISHDA TA’LIMYIY METODLARNI MUVOFIQLASHTIRISHNING MOHIYATI VA MAZMUNI**

**Satimboyeva Xurshida Anvarjon qizi**

**University of economics and pedagogy NOTM assistenti**

**Ibrohimjonova Sevara**

**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi**

Mamlakatimizda jahon talablarigajavob beradigan darajada ta’lim va tarbiya olishi hamda kasb-hunar egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik, ijodkorlik salohiyatini namoyon qilish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarmavjud. Yangi sharoitlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etib kelmoqda. Bu haqida Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda”<sup>6</sup>.

<sup>6</sup> <https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/324>

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil sentabr “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalqta’liminiboshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonlari, 2019 yil 20 fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4199-son, 2019 yil 3 maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4306-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 22 fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va akademik litseylarning iqtidorli bitiruvchilarini oltin va kumush medallar bilan taqdirlash tartibi to‘g‘risida nizom” bo‘yicha 154-son, 2019 yil 9-yanvardagi “Ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari va maktabinternatlarining ishlarini tartibga solish to‘g‘risida”gi 9-son qarorlari hamda ushbu faoliyatga dahldor bo‘lgan boshqa me‘yoriy hamda huquqiy hujjat va qonunlarda belgilab o‘tilgan vazifalarning ijrosini ta‘minlash bugungi kun o‘qituvchidan yangi ta‘limiy metodlardan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Mamlakatimiz ta‘limda, sport sohaslarida balki, barcha jabhalarda jahonga yuz tutmoqda. Biz birinchi galda ta‘lim va tarbiyani yo‘lga qo‘ya olsak qolgan barcha sohalar o‘z rivojini topmay qolmaydi.

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan yana biri bolalarning o‘qishiga mohirona rahbarlik qilishdan vayordamlashishdan iboratdir. J. N. Maxmutovning fikricha ta‘lim metodlarini tasniflashda ta‘lim metodlari o‘qishning tegishli metodlariga: axborot – umumlashtiruvchi va ijrochilikni tushuntirish va reproduktiv, instruktiv – amaliy hamda mahsulli – amaliy, tushuntirish — da‘vat qiluvchi va qisman izlanishli, undovchi va izlanishlar tarziga to‘g‘ri keladigan turlari ham mavjuddir. N. M. Verzilning amalda ta‘lim metodlarini tasniflashga bilimlar manbai mantiqan asoslar bo‘yicha yondashishi mavjud.

Barchamiz bilamizki, ta‘lim jarayoni har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o‘zidao‘quv faoliyati, motivatsion bosqich, boshqaruv kabi uchta komponentni umumlashtiradi.

Shundan kelib chiqib, ta‘lim jarayoni tuzilmasiga mos ravishda ta‘lim metodlarini o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari, o‘qish va mehnatga rag‘batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari, o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari uch guruhga tasniflashimiz ahamiyatlidir.

Ta‘lim metodlarini tasnif etish, ta‘lim va tarbiyaning nazariy hamda ilmiy asoslarini o‘rganishda ko‘mak berib, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi hamda shunga ko‘ra ijod uchun asosiy rol bo‘lib xizmat qilib keladi. Ta‘lim usullari, metodlarini tasnif etishta ta‘lim beruvchilar ishlarining orasidam guruhlanadi. Tasniflashning birinchi guruhiga o‘qitish metodlari va keyingi guruhiga esa o‘qish metodlariga bo‘linadi.

O‘qitish metodlarini taniqli olimlarimiz ham tasniflashgan va tavsiya etganlar. Buyuk olimlarimizdan Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Burxoniddin Zarkujiy, Abu Ali Ibn Sinolarning metodlarni tasnif etishida eng muhimi mantiqiy bilishlik faoliyatini rivojlantirish, kuchaytirish niko‘zda tutgan bo‘lib, bu metodlar bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘stirish, shakllantirish hamda mustahkamlagan holda, ko‘rsatmalilik – tajribaviylik, amaliyot, nazariya bilan amaliyot bilan birgalikda ishlash, izlash metodlarikabilardir<sup>7</sup>.

Pedagogik faoliyatimiz doirasida yuqoridagilarga asoslangan holda shunday xulosalarga kelishga qaror qildik:

1. O‘zbekistonda ta‘limiy metodlarni mashg‘ulotlarda qo‘llash yuzasidan juda samarali ishlar yurgizilmoqda hamdata‘lim metodlarining ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilmoqda.
2. Ta‘limiy metodlar – o‘quv jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi demakdir.
3. Ta‘lim metodlaripedagogning imkoniyatlarini oshiradi, vaqtini tejashga imkon beradi. Mashg‘ulot jarayonlarida o‘qituvchiga darsni qulay boshqarishgayordam beradi, unga faollik yaratadi va ta‘limning mazmun-mohiyatini ochib beradi.

---

<sup>7</sup> Mavlonova R. va boshq., Pedagogika, T: O‘qituvchi 2001y., 470 b.

4. Ta'limiy metodlarta'lim oluvchilarning ta'lim-tarbiya olish ishidagi muammolarning yechimini topishga ko'mak beradi.

5. Ta'lim jarayoni o'qituvchi, ta'lim oluvchi va ta'lim vositalarining o'zaro ta'siridan tarkib topadi.

6. Ta'lim metodlaridarslarning qulayligini ta'minlaydi. Unda o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirishi doimiy ketma-ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak hollarda tuzatishlar kiritishga imkoniyat yaratadi.

7. Ta'limiy metodlarni qo'llash orqali o'qitishning va bilimlarni o'zlashtirishning nutq, so'z, tovush bilan bog'langan usullari keyingio'ringa o'tib, o'qitishning tasavvurlar, shakllar, ranglar, tasvirlar bilan bog'liq usullari birinchi o'ringa o'tib boshlaydi.

## ULUG'BEK HAMDAMNING "SO'Z" HIKOYASI HAQIDA

Saydullayeva Madina

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Nigora Kiryigitova

JDPU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining iste'dodli adiblaridan biri bo'lmish Ulug'bek Hamdamning "So'z" hikoyasi xususida fikr yuritiladi. Hikoyadagi ijtimoiy reallik, inson ruhiy olamidagi o'y-xayollar, birgina so'zning inson ongiga ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ulug'bek Hamdam, "So'z" hikoyasi, inson ruhiyati, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, yechimsiz yakun.

Mustaqillik davri adabiyotiga uchqundek kirib kelgan, o'z asarlari bilan xalq qalbidan chuqur joy olgan, professor, "Shuhrat" medali sohibi Ulug'bek Hamdam ko'p yillardan beri barakali ijod qilib kelmoqda. Uning ijodini ko'plab adabiyotshunoslar o'rganib, o'nlab maqolalar yozishgan. Ulardan biri serqirra ijodkor Ozod Sharafiddinovdir. Ulug'bek Hamdam nafaqat iste'dodli yozuvchi, balki mohir tarjimon hamdir. Ulug'bek Hamdam Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir", professor Usmon Turonning "Turkiy xalqlar mafkurasi" nomli asarlarini turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlari tufayli, uni ayrim chet mamlakatlarda iste'dodli adib sifatida bilishadi. Agar Ulug'bek Hamdamning barcha ijod namunalari, adabiy merosi boshidan oyoq chuqur o'rganilsa alohida bir ilmiy ish qilish mumkin. U ko'plab she'riy, nasriy, ilmiy asarlarning muallifidir. Biz hozir quyida uning "So'z" hikoyasini tahlil qilamiz.

Ulug'bek Hamdamning "So'z" hikoyasida o'ylanmay aytilgan ikki og'iz so'z inson qalbini vayron etishi, ichki dunyosini ostun-ustun qilib yuborishi mumkinligi va o'zbek xalqimizga xos ayrim xususiyatlar o'tkir qalam ostiga olingan. Bu dunyoda tirik jon borki, doimo harakatda bo'ladi. Ko'pchilik insonlar, ota-onalar farzandlari uchun yashab, erta-yu kech hech kimdan kam qilmaslik uchun ishlab, farzandlarimni uyli-joyli qilganimdan keyin o'zim uchun yashayman deyishadi. Hikoyadagi qahramonlar er-xotin ham bolalarini katta qilib, xalqqa qo'shgandan so'ng o'zlari uchun yashamoqchi bo'lishadi. Shu sababli ular erning taklifi bilan dala hovliga yo'l olishadi. Er umuman o'zgacha kayfiyatda, xotiniga turli xil iltifotlar qiladi. Erning o'zgachaligini xotining "Sizga bugun nima bo'lyapti o'zi, dadasi?" [1;4] deya hayratlanishidan bilishimiz mumkin. Lekin xotin buni sezsa-da, erining har bir xushomadini javobsiz qoldirmagan holda jilmayib qo'yadi. Er-xotin manzilga yetib borishgach, tezda dala hovlini tartibga solishgandan so'ng, er o'z qo'llari bilan (bu safar boshqacha) osh tayyorlab bermoqchi bo'ladi. Osh tayyorlash paytida biroq muddatga anhora tushib, u yerda ham maroqli suhbat qurib, tepaga chiqishadi va erni qo'shni chaqirib qoladi. Shu orada xotin oshning tuzini ko'radi, chuchmal tuyilgani uchun "bir qoshiq tuz" soladi. Mana shu yerdan hikoyaning oxiriga qadar yechilmaydigan tugun boshlanadi. Er qaytadi va xotiniga qo'ng'iroq bo'ladi. Xotin telefonni ko'targanidan so'ng tezda ichkari uyga qarab kirib ketadi. Shundan so'ng er oshni damlab, xotining ortidan kirayotganda, hikoyaning kulminatsiyasi hisoblangan voqea sodir bo'ladi. Ya'ni er eshik orqasida turib quyidagi gaplarni eshitadi: "Asti so'rama, dugonajon, shunaqangi "bema'ni kun" bo'ldiki, zerikkanimdan

naq yorilib o'lay deyapman. Bir nimalarni bahona qilib vahliyroq qaytsam kerak... Chiqqin-a oldimga kechqurun, hasratlashamiz..." [2;4]

Er bu gaplarni eshitgandan so'ng butunlay o'zgaradi. Endi umrimizni oxirigacha baxtli hayot kechiramiz degan o'y-hayollari vayron bo'ladi. Chunki u o'sha kunni xayolida eng ajoyib va maroqli qilib o'tkazayotgan edi. Xotining gapini eshitgandan so'ng uni turli xil savollar qamrab oldi. Voqealar rivoji davom etib er oshni suzadi va oshdan bir qoshiq olib yeyayotganda sho'rligidan, non bilan zo'rg'a yutadi. Shu tobda er nahotki shuncha yillardan buyon xotini shu qadar sho'r ovqat yeyishini sezmagani bo'lsam deb o'ylab qoladi. Erning bu gapni eshitmasidan avval ko'ziga butun tabiat, atrof go'zal ko'rinayotgan edi. Endi esa osmonni bulut qopladi va havo ham o'zgardi. Er- xotin dala hovlidan tezda qaytishadi. Oradan qancha vaqt, necha kun o'tmasin o'sha "be'mani kun" degan so'z erning ich-etini yemirib borardi. U ma'noli kun qanday bo'lishini o'ylardi. Oilasi bilan o'tgan eng baxtli kunlarini eslab o'zini tinchlantirishga urinardi-yu, ammo o'sha so'z oshga bejo tushgan bir qoshiq tuz kabi butun hayotini barbod qilayotgandek tuyilardi. Hatto xotinidan shubhalanib uzoq vaqt kuzatadi, lekin birorta ayb topa olmaydi. Chunki xotin hech qachon norozi bo'lmagan, har doim mayin tabassum qilib turgan va hozir ham shunday. Er so'zni qancha unutilishga urinsa ham unutilmaydi va uzundan-uzun javobi yo'q savollar ichida qoladi.

Nazarimda yozuvchi hikoya yakuniga yechim bermagan va bunday mas'uliyatli ishni kitobxonning zimmasiga yuklagan. Balki xotin shuncha yildan beri indamay yashamasdan, eriga qanday hayotni xohlayotganligini, u uchun ma'noli kun qanaqa bo'lishini oz bo'lsa-da sezdirganda edi, erning orzu-umidlari, baxtli yashash niyati sarobga aylanmagan bo'lardi. Balki er ham ro'zg'or tashvishlari bilan yoshlikdan xotiniga bunday iltifotlar, xushomadlar qilmagani, hasratlashmagani sababli, erna birdan o'zgarishi xotin uchun "be'manilik" hisoblanar. Nima bo'lgan taqdirda ham yozuvchi hikoyada inson ruhiyatini, so'zning ta'sir kuchini, insonlar vaqtida o'zlari uchun ham yashashi kerak ekanligini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Ulug'bek Hamdam ijodida milliylikdan umuminsoniylik sari o'sib chiqqan asarlar borki, ular chet el adabiyotida ham munosib baholandi [3;182].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ulug'bek Hamdam hayoti va ijodi . uz.m.wikipedia.org sayti
2. Ulug'bek Hamdam " So'z" hikoyasi. www.ziyo.com kutubxonasi
3. Samatova Yolqin: Ulug'bek Hamdam ijodida davr ruhiyati va talqin mahorati. "Academic Research Educational Sciences".

## **BUXORO VILOYATINING GEODEMOGRAFIK VAZIYATI**

**Sayfullayeva Farangiz Nutfillo qizi**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari talabasi**

**Muxammedova Nazokat Jurayevna**

**Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti**

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro viloyatining geografik xususiyati bilan birga demografik jarayonlari aks etgan. Bu esa geodemografik vaziyatni tahlil qilishga asoslanadi. Natijada viloyat aholisining tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish masalalri hududiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** geodemografik vaziyat, demografik jarayon, tug'ilish, o'lim.

**Annotation.** The article reflects the demographic processes of the Bukhara region along with its geographical characteristics. This is based on the analysis of the geodemographic situation. As a result, the problems of birth, death, marriage and divorce of the population of the region were analyzed regionally.

**Key words:** geodemographic situation, demographic process, birth, death.

**Аннотация.** В статье отражены демографические процессы Бухарского региона с его географическими особенностями. Это основано на анализе геодемографической ситуации. В результате были проанализированы проблемы рождения, смерти, браков и разводов населения региона на региональном уровне.



**Ключевые слова:** геодемографическая ситуация, демографический процесс, рождение, смерть.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi aholisi yildan yilga juda tez sur'atlar bilan o'smoqda. Aholi o'lganlar soniga nisbatan tug'ilganlar sonining ortiqligi, ya'ni, tabiiy o'sish hisobiga ko'payib bormoqda. Aholi soniga yana migratsiya (mexanik ko'payish) ham ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon aholining bir hududdan boshqa hududga ko'chishi orqali sodir bo'ladi. Respublikamizda mexanik ko'payish balansi manfiy holatda bo'lib, mehnat resurslarining ortiqchaligi kuzatiladi. Ushbu geodemografik vaziyatni Buxoro viloyati kesimida ko'rish o'rinlidir.

Buxoro viloyati O'zbekistonning g'arbiy qismida joylashgan. Uning qo'shni Turkmaniston davlati bilan chegarasi qisman Amudaryo bo'ylab o'tadi. Viloyat shimolda, qisqa masofada Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan, shimol va shimoli-sharqda keng miqyosda Navoiy va janubda Qashqadaryo viloyatlari bilan chegaradosh. Chegarasining kattaligi bo'yicha Navoiy viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Viloyat aholisi 2044,0 ming kishini tashkil etadi. Shundan 753,8 ming kishi shaharlarda, 1290,2 ming kishi qishloqlarda yashaydi. Milliy tarkibida o'zbek, tojik, rus, qozoq, turkman, tatar, ukrain, ozarbayjon, koreys, yahudiy, arman, qoraqalpoq, belarus, nemis millatiga mansub xalqlar istiqomat qiladi.

Buxoro viloyati aholisining zichligi 2024-yil holatiga ko'ra 1 kv.km.ga o'rtacha 50,8 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 0,9 kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga 49,9 kishi). Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida 4 207,1 kishi, Kogon shahrida 3 235,0 kishi, Vobkent tumanida 512,8 kishi, Kogon tumanida 169,2 kishini, Buxoro tumanida 135,2 kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida 9,0 kishi, Peshku tumanida 15,0 kishi, Qorako'l tumanida 19,8 kishi, Olot tumanida 32,3 kishi, Jondor tumanida 35,9 kishi, Shofirkon tumanida 50,1 kishini tashkil etgan.

### 1-jadval

#### Buxoro viloyati aholi soni dinamikasi

Ma'muriy hududlar	2011	2015	2020	2024	2024-2011 o'sish indeksi	yillardagi
Buxoro viloyati	1683,8	1785,4	1923,9	2044,0	121,4	
Buxoro shahri	269,0	273,5	280,2	294,5	109,5	
Kogon shahri	56,3	58,9	61,1	64,7	114,9	
Olot tumani	85,5	91,2	99,0	104,3	122,0	
Buxoro tumani	138,2	150,1	166,2	178,4	129,1	
Vobkent tumani	119,7	127,9	139,5	148,7	124,2	
G'ijduvon tumani	267,9	284,7	303,4	322,5	120,4	
Kogon tumani	64,8	69,4	78,0	84,6	130,6	
Qorako'l tumani	141,6	150,2	163,7	171,8	121,3	
Qorovulbozor tumani	15,4	16,8	18,3	19,9	129,2	
Peshku tumani	104,2	111,6	122,5	131,2	125,9	
Romitan tumani	121,0	129,2	141,1	151,4	125,1	
Jondor tumani	147,4	158,5	174,0	185,5	125,8	
Shofirkon tumani	152,8	163,4	176,9	186,5	122,1	

#### Jadval ma'lumotlari buxstat.uz saytidan foydalanib tuzilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra aholining o'sishi yuqori bo'lgan hududlarga Kogon, Qorovulbozor va Buxoro tumanlari kuzatilgan bo'lib, bunga asosan ichki migratsiyaning ta'siri kuchli hisoblanadi. Buxoro, Kogon shaharlari va G'ijduvon tumanida aholining nisbatan pastroq o'sishini ko'rish mumkin. Bu esa shaharlarda aholining bandlik holatlarining yuqoriligi, oilani rejalashtirish kabi sabablar kuzatilsa, G'ijduvon tumanida ayollarning ish bilan bandlik holatining yuqoriligi asoslidir.

**2-jadval**  
**Buxoro viloyatida tug‘ilish dinamikasi**

<b>Mamuriy hududlar</b>	<b>2014</b>	<b>2017</b>	<b>2020</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>21,6</b>	<b>20,0</b>	<b>21,4</b>	<b>22,6</b>	
Buxoro shahri	17,2	16,0	18,9	26,5	25,0
Kogon shahri	17,8	17,0	19,0	27,5	20,3
Olot tumati	21,7	21,0	21,3	21,0	22,1
Buxoro tumani	20,6	19,1	19,7	17,4	21,7
Vobkent tumani	22,3	20,6	21,8	22,0	25,4
G‘ijduvon tumani	24,1	21,1	22,8	24,0	24,5
Kogon tumani	23,7	23,8	23,1	18,3	24,9
Qorako‘l tumani	23,4	21,0	22,6	22,0	21,9
Qorovulbozor tumani	20,0	20,8	19,9	22,2	20,0
Peshku tumani	23,7	22,1	22,6	23,0	22,9
Romitan tumani	21,7	21,8	22,8	22,1	20,7
Jondor tumani	23,4	20,7	21,6	22,2	23,5
Shofirkon tumani	20,9	19,9	21,7	21,7	20,0

**Jadval ma‘lumotlari buxstat.uz saytidan foydalanib tuzilgan.**

Ushbu jadval ma‘lumotlariga ko‘ra tug‘ilishning yuqori ko‘rsatkichi Buxoro shahri, Vobkent, G‘ijduvon, Kogon tumanlarida kuzatilgan bo‘lib, bunga asosiy sabab bu hududlarda doimiy aholi sonining ko‘pligi hisoblanadi. Tug‘ilishning nisbatan past ko‘rsatkichi Buxoro tumani, Kogon shahri, Qorovulbozor, Romitan, Shofirkon tumanlarida qayd etilgan bo‘lib, bunga asosan shaharlashuv va ayollarning ish bilan bandligi sabab bo‘ladi.

Buxoro viloyatida o‘limning yuqori ko‘rsatkichi Kogon shahri, Buxoro shahri, Qorako‘l tumanlarida kuzatilgan bo‘lib, bunga asosiy sabab Kogon shahri asosiy transport tugunida joylashgan, Buxoro shahrida sanoat korxonalar sonining ko‘pligi, aholisining zichligi, ichimlik suvining tanqisligi sababli, kasallanish holatlarining ko‘pligi Qorako‘l tumanida esa yer osti suvi tarkibida ammiyak miqdorining ko‘pligi hisoblanadi. O‘lim darajasi past bo‘lgan hududlar Kogon tumani, Buxoro tumani, Romitan tumanlari hisoblanadi. Buning sababi, Kogon tumani hududi deyarli qishloqlardan iborat bo‘lib, tabiiy mahsulotlar ko‘proq iste‘mol qilinadi. Buxoro tumanida esa, meditsina yaxshi rivojlangan va tibbiy savodxonlik yuqoriroq ekanligini aytishimiz mumkin, Romitan tumanining doimiy aholisi uzoq umr ko‘ruvchilar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Buxoro viloyati aholi soni Respublika ko‘rsatkichidan ancha past bo‘lib, bu hudud, to‘liq sug‘orma dehqonchilik yerlarida joylashgan. Aholisi sekin o‘sib bormoqda. Tug‘ilish nisbatan past, tibbiy madaniyat yaxshi rivojlangan, umr davomiyligi o‘rtacha ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**ASTRONOMIYA MASHG‘ULOTLARINI AXBOROT MUHITIDA O‘QITISH**

**Qodirova Muxlisa- Fizika va astronomiya ta‘lim yo‘nalishi talabasi**

**Ilmiy rahbar - G.I. Sayfullayeva**

**Annotatsiya.** Keyingi yillarda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda dars mashg‘ulotlarni tashkil etishning yangi shakllari shakllanmoqda. O‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlari ko‘paytirishda va vaqt tanqisligi muammosi kamaytirishda axborot texnologiyalarning tutgan o‘rgi muhim hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish uchun ma‘lum bir shart-sharoitlar va texnik vositalar mavjud bo‘lishi kerak. Ta‘lim tizimining rivojlanishini hozirgi holatini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Darhaqiqat, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta‘lim sifatini

o'shinishga zamin yaratadi. Bunda pedagogik jarayonning mazmuni takomillashadi, o'qitishning innovatsion modellari joriy etiladi, shuningdek, talaba va professor o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tashkil etiladi. Har qanday ta'lim muassasasida o'quv jarayonini axborotlashtirishning zaruriy sharti sifatida zamonaviy axborot texnologiyalarini ham boshqaruvda, ham ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish bo'yicha yagona strategiyani ishlab chiqish hisoblanadi.

O'quv jarayonini axborotlashtirish texnologik, pedagogik va tashkiliy ishlar bilan bog'liq qiyin va ko'p qirrali masalalarni yechishni talab etadi. O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning maqsadi dars jarayonida, kompyuter yordamida astronomiya fanini mustaqil o'rganish, o'rgatish, uni qo'llash, animatsiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Multimediyali o'rgatuvchi dasturlar matn, grafika, video, tovush va animatsiyalardan iborat bo'lib, o'quvchi astronomiya fanini o'zi mustaqil o'rganmoqchi bo'lsa, kompyuterga yozilgan maxsus dasturni ishga tushiradi. Bu dasturlar tabiiy fanlarning nazariy bo'limlarini, amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlarini, nazorat (test) topshiriqlarini, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Talabalarga astronomiya fanini multimediya orqali tushuntirish olingan. Bilimlarni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish va kerak bo'lganda amalda qo'llash imkoniyatini beradi. Astronomiya fanini multimediya vositalari asosida o'qitilishining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- talabalarni kompyuter savodxonligini oshirish;
- o'rganilayotgan o'quv materialini atroflicha chuqurroq va puxta o'zlashtiradi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish imkoniyati yaratiladi;
- talabalarni mustaqil bilim egallashlari uchun kompyuter texnologiyasidan foydalanishga undaydi;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan tanishadi;
- ta'lim olish vaqti qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati yaratiladi.

Multimedia vositalarining ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, talabalarda fanga bo'lgan qiziqishlarini va mavzuni mustaqil o'zlashtirish hamda astronomiya fanini o'qitishda multimediya vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Har qanday ta'limot shunchaki ishlab chiqariladigan emas, balki sarmahsul ijodiy xususiyatga ega bo'lgan faoliyat deb tushunilmog'i kerak. Axborot texnologiyalari muhitida astronomiyadan o'quv faoliyatni rivojlantirishni quyidagi asosiy yondashuv ko'rinishlarida amalga oshirish mumkin, ya'ni:

- ta'limni kompyuterlashtirish;
- internet tizimidan samarali foydalanish;
- elektron darsliklar yaratish va astronomik ta'limga tatbiq etish;
- laboratoriya va ma'ruza mashg'ulotlarida dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish;
- innovatsion pedagogik texnologiyalarga axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda qo'llash;
- nazorat baholashda interfaol testlardan foydalanish;
- o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatlarini rivojlantirish jarayonida, ular egallangan bilimlaridan didaktik masalalarni hal etish yo'llarini izlashda foydalanishni o'rganadilar.


Bugungi kunda butun dunyoda dasturiy vositalardan foydalanilib astronomiya kursi o'qitilmoqda. Bunda asosan Stellarium, Starry Night, Kstars, Star Walk, Star Map. Home Planet, Astrometrica, Astro Gemini, Selestia, Maxim DL kabi kompyuter va internet tarmog'i dasturlari harnda CLEA, VIREO virtual laboratoriyadan keng foydalanilmoqda.

**Stellarium** – Windows, Linux operatsion tizimlari uchun mo'ljallangan astronomik dasturiy vosita hisoblanadi.

Stellarium dasturi – asosan yulduz turkumlari, osmon sferasi elementlari, yulduzlarning koordinatalari, yulduzlargacha masofalarni aniqlash, Quyoshning yillik va sutkalik harakati kabi bir qancha mavzularni qamrab olgan 3D o'lchamdagi kompyuter dasturi hisoblanadi.

Dastur quyidagi imkoniyatlarga ega:

- 600 mingdan ortiq yulduzlarni kuzatish imkoniyati mavjud;
- osmonda joylashgan yulduz turkumlarining chiziqli va mifologiktasvirlarini ko'rish mumkin;
- barcha sayyoralar va ularning yo'ldoshlaridan turib osmonni kuzatish imkoniyati;
- sayyoralar va ularning barcha yo'ldoshlarini kuzatish imkoniyati;
- osmon jismlarining o'lchamlarini aniqlash imkoniyati; o'tmish va kelajakda vaqtni belgilash ya'ni kuzatuvlarni oldindan rejalashtirish;
- obyektivni sozlash va teleskop yoki binokldagi ko'rinishni nazorat qilish imkoniyati;
- tutilishlar simulyatsiyasi va boshqalar.



Bu dastur kompyuterga o'rnatilgach, ishga tushiriladi. STELLARIUM dasturiy mahsulot papkasidan Stellarium faylini tanlaymiz. Ekranda asteroidlar, sayyoralar, yulduzlarni gallaktikada joylashgan o'rinlarini ko'rishimiz mumkin. Sahifaning o'ng tomon yuqorisidagi qidiruv belgisini bosib, "Browse by type" (turi bo'yicha ko'rib chiqing) yozuvini tanlaymiz. Ekranda planeta, yulduz, asteroid, kameta, chuqur osmon obyektlari, sun'iy yo'ldoshlar, burjlar sahifasi chiqadi. Biz asteroidlarning gorizont va ekvatorial koordinatalarini aniqlaymiz. Asteroid yozuvini tanlaymiz va ekranda asteroidlar ro'yxati chiqadi. Bittasini tanlab olamiz. Masalan Flora asteroidini tanlaymiz. Ekranda Flora asteroidining joylashgan o'rni ko'rinadi. Ekraning quyi qismidagi Flora yozuvini ustiga bosamiz. Asteroidga tegishli parametrlar namoyon bo'ladi.

- Constellation- yulduz turkumi
- Magnitude- yulduz kattaligi
- Distance- masofa
- Az/Alt- azimuti/ gorizontdan balandligi
- Hour Angle- soat burchagi
- Also known as- nomi bilan tanilgan

Ekranda Flora asteroidining mos ravishda RA/Dec yozuvida geografik uzunligi va geografik kengligini, RA/Dec(J2000) yozuvida to'g'ri chiqish va og'ish ko'rsatgichlarini ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib o'zimiz xoxlagan osmon obyektlari tanlab ularning parametrlarini aniqlashimiz mumkin. Oxirgi sahifaga e'tibor bersak, bu laboratoriya mashg'ulotida faqatgina osmon obyektlarining gorizont va ekvatorial koordinatalarini aniqlash emas balki, shu bilan birga yulduz turkumi, yulduz kattaligi, quyoshga nisbatan joylashgan masofasi, azimuti, gorizontdan balandligi, vaqt (soat burchagi)ni aniqlash mumkin.

Bundan foydalanib talabaga osmon sferasini haqiqiyidan qolishmagan darajada namoyish qilish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, boshqa ko'plab mavzularni tushuntirishda ham Stellarium dasturidan foydalanish mumkin.

Shuningdek, astronomiya fani kosmik fazoni o'rganishda va uni zabt etishda, kosmonavtika fanini rivojlantirishda hamda bizning sayyoramizni koinotdan turib o'rganishda yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Jo'rayev M., Sattarova B., "Fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi", O'quv qo'llanma, Toshkent: "Fan texnologiya" nashriyoti 2015 y.
2. Mamadazimov M., Tillaboyev A va boshqalar. "Astronomiya kursi (Umumiy astronomiya)dan laboratoriya ishlari" T., TDPU 2015 y.
3. Tillaboyev A.M. (2021). Astronomiya kursini o'qitishda zamonaviy ilmiy- tadqiqot natijalaridan foydalanishning metodik tizimi. Academic research in educational sciences, 2(5), 907-913.

### PSIXOSOMATIKADA INTEGRAL YONDASHUV

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti Jizzax filiali "Psixologiya" fakulteti

o'qituvchisi: Otamuratov Rustam

"Psixologiya" fakulteti "Oila psixologiyasi" yo'nalishi 3-bosqich

talabasi: Abdusamatova farzandlar

Umar qizi

E-mail: [abdusamatovasevara55@gmail.com](mailto:abdusamatovasevara55@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada integral yondashuvda salomatlik va kasallik murakkab biopsikososyal o'zaro ta'sir kontekstida ko'rib chiqiladi. Bolalar psixosomatikasi kattalarnikidan farq qilish xususiyatlari, somatopsixika va funksional symptom atamalariga tarifi berilgan.

**Аннотация:** В этой статье интегративный подход рассматривает здоровье и болезнь в контексте сложных биопсихосоциальных взаимодействий. Определены особенности психосоматики детей от взрослых, соматопсихические и функциональные симптомокомплексы.

**Abstract.** In this article, an integrative approach examines health and illness in the context of complex biopsychosocial interactions. Characteristics of children's psychosomatics from adults, somatopsychic and functional symptom terms are defined.

**Kalit so'zi:** Integral yondashuv, integratsion modellar, bolalar psixosomatikasi, somatopsixika, funksional symptom, organik sindromlar, psixoendokrinologiya, psixofarmakologiya.

**Ключевые слова:** Интегральный подход, интегративные модели, детская психосоматика, соматопсихиатрия, функциональная симптоматика, органические синдромы, психоэндокринология, психофармакология.

**Key words:** Integral approach, integrative models, child psychosomatics, somatopsychiatry, functional symptom, organic syndromes, psychoendocrinology, psychopharmacology.

Integral yondashuvda salomatlik va kasallik murakkab biopsikososyal o'zaro ta'sir kontekstida ko'rib chiqiladi. Integratsion modellar har qanday kasallikning etiologiyasi va patogenezinining multifaktorial xususiyatini, uni tizimli nuqtai nazardan ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu tendentsiya vakillari o'zining turli ko'rinishlarida atrofda dunyo bilan o'zaro ta'sir qiluvchi murakkab tashkil etilgan tizimning faoliyati kontekstida psixosomatik va somatopsixik munosabatlarni o'rganishga e'tibor qaratadilar.

Bolalar psixosomatikasi kattalarnikidan farq qiladimi? Men ikkita asosiy xususiyatni ta'kidlayman.

Birinchi, alomatlar yoshga qarab o'zgaradi. Go'daklik davrida bitta, uch yoki besh yoshli bolalarda boshqalar bo'ladi va hokazo. Bola qanchalik kichik bo'lsa, qoida tariqasida, psixosomatik buzilishning namoyon bo'lishi qanchalik oson bo'lsa, biz ko'ramiz: alomat ichki organlarning faoliyatini sezilarli darajada buzmasdan, juda tez paydo bo'lishi va o'tib ketishi mumkin. Ko'pincha turli yoshdagi bolalarda qorin og'rig'ini patologiyalar, nafas olish kasalliklari belgilari va turli teri kasalliklarini aniqlamasdan kuzatishimiz mumkin. Bu yerda pediatrianing mumkin bo'lgan somatik kasallikni istisno qilishi va oilani bolaga yoki oilaviy psixologga yuborishi muhimdir. Qoida tariqasida, alomatlar og'ir stress fonida paydo bo'ladi va bola

vaziyatga dosh bera boshlaganda yoki tashqi sharoitlar o'zgarganda, ota-onalar tomonidan etarli darajada qo'llab-quvvatlanishi bilan o'qoladi.

Ikkinchi xususiyat - bolaning oila tizimiga juda kuchli kiritilganligi. Psixosomatik alomatlar oila ichidagi nizolar fonida yoki bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlardagi qiyinchiliklar tufayli paydo bo'lishi mumkin. Va ko'pincha, psixosomatik alomatni engishga yordam berish uchun siz nafaqat bola bilan, balki uning ota-onasi va ba'zan boshqa oila a'zolari bilan ham ishlashingiz kerak. Bu, ayniqsa, erda bolalik davrida to'g'ri keladi. Ba'zida biron bir qiyinchilikni engishga yordam berish yoki faqat ota-onalarga yordam berish kifoya qiladi va mojaro yo'qoladi va u bilan birga qayg'u va psixosomatik alomat paydo bo'ladi.

Eng ko'p uchraydigan psixosomatik alomatlar qanday?

Har qanday somatik patologiyada aqliy asoslar qo'yiladi. Miya va orqa miya boshqaruv apparati hisoblanadi. Bu muvozanatni saqlaydigan va barcha tashqi va ichki o'zgarishlarga moslashadigan markaziy asab tizimidir. Psixosomatik kasalliklar psixokardiologiya, psixopulmonopatologiya, psixodermatologiya, gastropsixologiya bo'linadi.

“Somatopsixika” atamasi, ”soma” – tana, va “psixika” – ruhiyat, ruh, jon deb ataladi yoki asosiy somatik etiologiyaning psixiatrik belgilari, deb ham atalishi mumkin. Psixosomatik kasalliklardan farqli o'laroq – bu psixika natijasida paydo bo'lgan somatik holatlar; stress, somatopsixik alomatlar yoki buzilishlar psixikaning namoyonidir yoki psixiatrik tabiat, uning bevosita sababi somatik holat deb qaraladi. Kundalik hayotda somatopsixik epizodlar odatiy holdir. Haddan tashqari qizib ketgan, charchagan yoki och qolgan tananing hissiy yon ta'siri asabiylashish, zo'riqish, aqlga sig'maydigan xatti-harakatlar, letargiya, konsentratsiyaning pasayishi va boshqalar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi odamlarda psixik reaksiyalar gormonal o'zgarishlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Kayfiyatning o'zgarishi va o'ziga xos hissiy holatlar o'smirlar va menopauzadagi odamlarga xosdir. Ba'zi ayollar hayzdan oldin kuchlanishni boshdan kechirishadi, bu kuchni yo'qotish, apatiya, charchoq, asabiylashish va hatto asossiz tajovuzkorlik shikoyatlarida namoyon bo'ladi. “Baby blues” (tug'ruqdan keyingi depressiya) ham somatopsixik holat sifatida qaraladi, garchi ba'zi hollarda psixogen tarkibiy qismlarni ishonch bilan chiqarib bo'lmaydi. Yuqori haroratlar, ayniqsa bolalarda tashvish va gallyutsinatsiyalarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni ham. Bunday psixik paranoid g'oyalar, fikrlashning ratsionalligining pasayishi, turli obsesyonlar, kompulsiv xatti-harakatlar, xotira buzilishi va shaxsiyatning o'zgarishi kabi qarish bilan bog'liq. Muhim psixik o'zgarishlar alkogolizm kuzatiladi va kamroq darajada, vaqtinchalik alkogolli mastlik holatida bo'lgan shaxslarda. Giyohvand moddalarni iste'mol qilishning xulq-atvor oqibatlarini adabiyotda yaxshi ma'lum. Jamoatchilikni tashvishga soladigan narsa - qo'rg'oshin zaharlanishi (maktabdagi qobiliyatlarning buzilishi, apatiya, uyquchanlik, manik xulq-atvor va boshqalar), uglerod oksidi (xotiraning buzilishi, apatiya yoki depressiya), asbest va politsiya tomonidan qo'llaniladigan A.O (Agent Orange) ko'zdan yosh oqizuvchi gaz. Bizning aqliy bilimlarimizni sezilarli darajada to'ldirdi va ma'lum ozuqaviy komponentlar (vitaminlar, minerallar, oqsillar va boshqalar) etishmovchiligi va umuman to'yib ovqatlanmaslik natijasida yuzaga kelgan hissiy kasalliklar. Kesilgan-o'sha jismoniy vaqtinchalik yoki doimiy zarar. travma, ayniqsa miya travmasi, aqliy zaiflikning sababi hisoblanadi. funktsiyalari, noqulay psixolog. reaksiyalar va shaxsiy o'zgarishlar. Mn. dorilar yon ta'sirga olib keladi. Somatopsixik sohada somatik va psixologik kasallar haqida to'plangan ma'lumotlarning muhim qismi R.Xoll tomonidan taqdim etilgan. Anksiyete pl ning yon ta'siri sifatida topiladi. somatik sharoitlar, xususan, nevrologik (25%) va endokrin (25%) kasalliklar (shu jumladan paratiroidizm, qandli diabet, tuxumdonlar disfunktsiyasi), surunkali infektsiyalar (12%, shu jumladan sil, mononuklyoz, virusli gepatit), revmatizm (12%) , yurak-qon tomir kasalliklari (12%) va boshqa kasalliklar (14%, shu jumladan nefrit va to'yib ovqatlanmaslik). Surunkali buyrak kasalligi (gemodializ va buyrak transplantatsiyasi) bilan og'rigan bemorlarning taxminan uchdan bir qismi og'ir psixopatologik alomatlariga ega ekanligi haqida xabarlar mavjud. Ichki zo'riqish, asabiylashish, tashvish va charchoqning kuchayishi ko'pchilikning natijasidir. somatik holatlar. Depressiya zararli anemiya, limfoma, paratiroidizm, virusli gepatit, shuningdek, reserpin, kortikosteroidlar, diazepamni

davolashda, shuningdek, ayrim og'iz kontratseptivlarini profilaktika maqsadida qo'llashda patologik darajaga etadi. Biologiya., ayniqsa biokimyoviy, aqliy nazariyalar. kasalliklar, aqliy zaiflik va ularning kombinatsiyasi, autizmda ko'rinib turganidek, tobora ko'proq qabul qilinmoqda. Masalan, ba'zi shtatlar. davolanmagan fenilketonuriyadagi aqliy zaiflik, m.b. biolog tomonidan to'liq tushuntirilgan. asos. Ilmiy tadqiqotlardagi taraqqiyot. psixikning ayrim (kichik) turlarini aniqlashga imkon berdi. kasalliklar somatopsixik ta'sir biologiyasi sifatida. sharoitlar, shu jumladan genetik va/yoki biokimyoviy va atrof-muhit omillari (masalan, ovqatlanish). Tadqiqot natijalari. ortomolekulyar psixiatriyaning paydo bo'lishiga olib keldi, tojannat biolog taklif qiladi. ruhiy kasalliklarni davolash va oldini olishda yondashuv (masalan, minerallar bilan terapiya, vitaminlarning megadozalari) kasalliklar. Shuningdek qarang: Organik sindromlar, Psixoendokrinologiya, Psixofarmakologiya (E. Uik).

Funksional simptom - bu ma'lum jismoniy sababsiz tibbiy alomatdir. Boshqacha qilib aytganda, simptomni tushuntirish uchun tizimli yoki patologik jihatdan aniqlangan kasallik yo'q. "Funksional symptom" atamasidan foydalanish psixogenezni nazarda tutmaydi, faqat tananing kutilganidek ishlamasligini anglatadi. Funksional alomatlar tobora ko'proq etiologiya va davolash rejalarini aniqlash uchun "biologik, psixologik, shaxslararo va sog'liqni saqlash omillari" muhim deb hisoblanishi kerak bo'lgan doirada ko'rib chiqilmoqda.

Funksional alomatlar noto'g'ri tashxis qo'yilgan bo'lsa-da, masalan, nevrologiyada bu boshqa nevrologik yoki psixiatrik sindromlarga qaraganda tez-tez uchramaydi. Biroq, miqdorni aniqlash uchun noto'g'ri tashxisni tan olish kerak, bu tibbiyot kabi qiyin sohada muammoli bo'lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Клинико- физиологические основы психосоматических взаимоотношений. Ю. М. Губачев, Е. М. Стамбровский. Москва. "Медицина", 1981.
2. Психосоматические расстройства. В.Д. Тополянский, М.В. Струковская. Москва. "Медицина", 1986.
3. Пограничные нервно- психические расстройства. Г.К. Ушаков. Москва. "Медицина", 1987 г.
4. Семейная психотерапия. Р. Бендлер, Д. Гриндер, В. Сатир. Санкт- Петербург, 1994.
5. Отамуратов, Р. У. Психологические особенности эмоционального интеллекта человека в интернет-среде (на примере молодёжь) / Р. У. Отамуратов, П. Н. Устин // Мир науки. Педагогика и психология. — 2023. — Т. 11. — No 5. — URL: <https://mir-nauki.com/PDF/15PSMN523.pdf>
6. Отамуратов Р. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях / Р. Отамуратов, С. Отамуратова, Д. Розиккулова. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 423-8.
7. Отамуратова, С., & Отамуратов, Р. (2023). Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili . Информатика и инженерные технологии, 1(2), 323–328. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25284>

#### **TOHIR MALIK ASARLARIDA VULGARIZMLAR USLUBIY VOSITA SIFATIDA**

**Iroda Bahronova,  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada vulgarizm, uning lisoniy mohiyati va tilshunoslikda uslubiy-pragmatik maqsadda qo'llanishi haqida so'z yuritiladi. Jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan vulgarizmga berilgan ta'riflar, uning nutqda qo'llanish zaruratini yuzaga keltiruvchi omillar, qo'llanish doirasi, ifoda shakllari, pragmatik xususiyatlari hamda uslubiy-pragmatik vosita sifatida kelishi xususida fikrlar o'rganiladi va yozuvchi Tohir Malik asarlari misolida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** vulgarizm, vulgar so'z, so'kish, haqorat, qarg'ishlar, stilistik bo'yoq, ma'no o'ttenkasi, uslubiy-pragmatik ma'no.



**Аннотация.** В данной статье рассматривается вульгаризм, его языковая сущность и использование в языкознании в методологических и прагматических целях. Определения вульгаризма, данные мировыми и узбекскими лингвистами, факторы, создающие необходимость его употребления в речи, сфера его употребления, формы выражения, прагматические особенности, а также мысли о его появлении в качестве методолого-прагматического инструмента, и изучаются произведения писателя Тахира Малика, будут рассмотрены на примере.

**Ключевые слова:** вульгаризм, вульгарное слово, ругань, оскорбления, ругательства, стилистическая окраска, окраска смысла, методолого-прагматический смысл.

**Abstract.** This article discusses vulgarism, its linguistic essence and its use in linguistics for methodological and pragmatic purposes. The definitions of vulgarism given by world and Uzbek linguists, the factors that create the need for its use in speech, the scope of its use, forms of expression, pragmatic features, as well as thoughts on its arrival as a methodological-pragmatic tool, and the works of the writer Tahir Malik are studied. will be considered in the example.

**Keywords:** vulgarism, vulgar word, cursing, insults, curses, stylistic color, color of meaning, methodological-pragmatic meaning.

Vulgarizmlar – haqorat ma’nosida qo’llanadigan so’zlar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma’nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo’llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so’zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.<sup>8</sup>

So’zlashuvda (badiiy asarda) har doim ham ijobiy ma’no ottenkasiga ega bo’lgan so’zlardan foydalanilmaydi. Ba’zan salbiy ma’no ottenkasiga ega bo’lgan lisoniy birliklarga ham murojaat qilinadi. Ulardan biri vulgarizmlar bo’lib, ular jonli xalq tilida ishlatiladigan dag’al, qo’pol, stilistik bo’yoqqa ega bo’lgan tilning leksik qatlami hisoblanadi. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma’nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo’llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so’zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.<sup>9</sup> Yozuvchi Tohir Malik asarlarida ham vulgarizmlardan keng foydalanilgan. Masalan:

– *Sen bu daryolardan suv icha olmaysan. Qochma...*

– **Ahmoq!** *Sen o’zingni o’yla! (Sh. – 2-bet)*

– *Anvar aka, o’zingizni bosing. Hech kim ishonmaydi bu gaplarga.*

– *Men bor edim, o’sha yerda, o’qib bergan edi, **maraz!** Shularni yozish uchun atay brogan u **haromi!** (Sh. – 148-bet)*

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhim jihat shundaki, unda boshqa leksik birliklar – vulgarizmlar qo’llanishi mumkin. Bulardan badiiy asarlarda ifodalangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Vulgar so’zlardan badiiy adabiyotda ijodkorlar tomonidan har bir obrazning ichki dunyosini ochishda, ularning xulq-atvori, atrofdagilarning munosabatini ro’yi-rost ko’rsatishda foydalaniladi. Olimlar vulgarizmlarga g’ayriaxloqiy so’zlar sifatida qarab, ularni o’z xarakteriga ko’ra so’kish, haqorat va qarg’ish so’zlariga ajratgan bo’lsa, yana bir olim B.O’rinboyev vulgarizmlarni ma’no ottenkasi va qo’llanish doirasiga ko’ra uch guruhga bo’ladi:

1) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar;

2) kishining tashqi kamchiligini ko’rsatuvchi vulgarizmlar;

3) so’kish, koyish ma’nosini ifodalovchi vulgarizmlar.<sup>10</sup>

Yuqoridagilarni asardan olingan jumla misolida ko’rish mumkin:

– *Senga bir maslahat aytay: anavi **marjaga** uylan, yaxshi ko’rmasang ham uylan. Uning yuragi yarimta. (A.B. –23-bet)*

– *Sen **ablaxsan, odammassan**, – dedi u, onasining silab-siylashiga e’tibor bermay.*

*U odam o’rnidan turib, eshik tomon yurdi. Qamariddin ham irg’ib o’rnidan turdi-da, yo’lini to’sdi.*

– *Sen **hayvonsan! Sen...san!** – deb haqoratlashda davom etdi.*

*Bu **mishqidan** shunday so’zlarni eshitishga ori keldi bu odamning... (A.B. –29-bet)*

<sup>8</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildlik, 5-jild. – Toshkent, 2006-2008. – B.471.

<sup>9</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: “Talqin”, 2005.

<sup>10</sup> Odinayev B. Muloqotda vulgarizmlardan foydalanishning uslubiy-pragmatik omillari. – Toshkent, 2023.



– Zaynab qani?

– Do ‘xtirga ketuvdi...

– **Ermisan** yo **hezalakisman** o‘zing?! – *Asadbek shunday deb go‘shakni kuch bilan urib, telefonni sindirdi. (Sh. – 222-bet)*

Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat so‘zlarda o‘ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik kabi bir qancha ifoda semalari juda ochiq ko‘rinib turadi. Bunday so‘zlar nutqda nominativ ma‘nolariga ko‘ra emas, ko‘proq konnotativ ma‘nolariga ko‘ra yashaydi<sup>11</sup>. Misol uchun:

– Anavi **g‘ilaydan** hammi? – dedi Elchin hazil ohangida.

– Fu, – dedi Valya labini burib, – u **peshka-ku! Qulvachcha-ku!** (Sh. –211-bet)

Vulgarizmlar og‘zaki nutq leksikasi ichida ajralib turadi. Vulgar so‘zlardan yozuvchilar badiiy asar qahramonlarining nutqiy xususiyatlarini ifodalash maqsadida foydalanadilar. Vulgar so‘zlar orqali yozuvchilar salbiy obrazni namoyon etadilar. Shubhasiz, bu obraz o‘quvchilarning nafratini qo‘zg‘aydi, asarning ta‘sirchanligini, tasviriylikni oshiradi<sup>12</sup>. Yuqoridagi misollarda ham yozuvchi Tohir Malik vulgar so‘zlardan uslubiy-pragmatik maqsaddagina foydalanganini ko‘rish mumkin. Ya‘ni qahramonlarning salbiy xarakterini ochib berishda vulgarizmlarni mahorat bilan qo‘llagan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, vulgarizmlar keng ma‘noli va salbiy ma‘no ottenkasiga ega tushuncha. Bunday so‘zlar stilistik bo‘yoqdorlik xususiyatlarini aks ettiradi. Umuman olganda, bu kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Tohir Malikning har bir asarida o‘ziga xos vulgarizmlarni uchratamiz. Ularning asarlarda tasviriylikni, badiiylikni oshirish uchun xizmat qilishi yuqoridagi misollar orqali ko‘rib o‘tildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Malik T. Shaytanat. 5 jildlik, 2-jild. –Toshkent, 2007.
2. Malik T. Alvido, bolalik. – Toshkent, 2009.
3. Abdulazizova S., Jo‘rayev Z. Ayollar va erkaklar nutqida qo‘llaniladigan vulgarizmlar genderlingvistikaning muammosi sifatida. – Andijon, 2009.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005.
5. Odiyev B. Muloqotda vulgarizmlardan foydalanishning uslubiy-pragmatik omillari. – Toshkent, 2023.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 5-jild. – Toshkent, 2006-2008.
7. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ gap kategoriyasi. – Toshkent, 1972.
8. O‘rinboyeva D., Sodiqova B. Xalq og‘zaki ijodi asarlari tilida so‘zlashuv nutqi elementlari// O‘zbekistonda xorijiy tillar elektron jurnali. № 3 (11) / 2016. – B. 67-9. <https://journal.fledu.uz/uz/hal-o-zaki-izhodi-asarlari-tilida-suzlashuv-nut-i-elementlari/>

## **O‘XSHATISHLARNING MILLIY VA LINGVOMADANIY JIHATLARI**

**Qurbonov Davronbek Mamadiyor o‘g‘li**

**Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti**

**Annotatsiya.** Har bir tilning lug‘at takibida mavjud bo‘lgan so‘zlarining qo‘llanish darajasi mavjud. O‘zbek tilidagi ko‘pgina leksemalar keng qo‘llanishda bo‘lgan umumnutq qatlam so‘zlaridir. Bunday so‘zlarning hammasi ham adabiy me‘yor sanalmaydi. Lekin badiiy asarlarda tildagi mavjud bo‘lgan so‘zlar bilan birga mahalliy nutq koloritini berish, personajlar nutqini individuallashtirish maqsadida nofaol leksik birliklar, ular asosida yaratilgan o‘xshatishlar ham qo‘llanadi. Ular uslubiy vosita sifatida asarga o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi va shu tilga xos lingvomadaniy jihatlarni ham aks ettiradi.

**Abstract.** Every language has a degree of usage of the words that are found in the dictionary. Many lexemes in the Uzbek language are words of the common language in wide use. Not all such words are considered literary standards. However, along with existing words in the language, inactive

<sup>11</sup> O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ gap kategoriyasi. – Toshkent, 1972.

<sup>12</sup> Abdulazizova S., Jo‘rayev Z. Ayollar va erkaklar nutqida qo‘llaniladigan vulgarizmlar genderlingvistikaning muammosi sifatida. – Andijon, 2009.

lexical units and similes created on their basis are also used in artistic works in order to give the color of local speech and to individualize the speech of the characters. As a methodological tool, they have a unique character for the work and also reflect the linguistic and cultural aspects specific to this language.

**Аннотация.** В каждом языке есть определенная степень употребления слов, которые встречаются в словаре. Многие лексемы в узбекском языке являются словами общеупотребительного языка. Не все такие слова считаются литературными стандартами. Однако наряду с существующими в языке словами в художественных произведениях используются также неактивные лексические единицы и созданные на их основе сравнения с целью придания колорита местной речи и индивидуализации речи персонажей. Как методологический инструмент они имеют уникальный характер для работы, а также отражают лингвистические и культурные аспекты, характерные для этого языка.

**Kalit soʻzlar:** oʻxshatishlar, erkin oʻxshatishlar, turgʻun oʻxshatishlar, obrazli ifodalash, lingvomadaniy birlik, umumxalq tili.

**Key words:** similes, free similes, stable similes, figurative expression, linguistic and cultural unity, national language.

**Ключевые слова:** сравнения, свободные сравнения, устойчивые сравнения, образное выражение, лингвокультурное единство, национальный язык.

Oʻxshatishlar – har bir xalqning milliy madaniy boyligi boʻlib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga koʻra taqqoslash, qiyoslashdir. Qadimdan insonlar tashqi dunyoni tafakkuriy taqqoslash, yaʼni oʻxshatishlar vositasida anglashga uringan. Oʻxshatishlar muayyan xalqning tafakkur tizimini va milliy dunyoqarashga asoslangan tasavvurini tamsil etadi. Yaʼni inson qarshisidan chiqqan va mohiyatan mavhumroq boʻlgan tushunchalarga oʻz ong zahirasidagi boshqa bir narsaga taqqoslash orqali oydinlik kiritadi. Shubhasiz, bunda milliylik, mentalitet asosiy ahamiyat kasb etadi. Professor N.Mahmudov oʻxshatishlarda milliy mentallik jozibasini yorqinroq aks etishini bejizga taʼkidlab oʻtmagan.

N.Mahmudovning “Oʻzbek tili turgʻun oʻxshatishlari” haqidagi maqolasi oʻzbek tilshunosligida oʻxshatishlarni lingvomadaniy jihatdan oʻrganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlardan hisoblanadi. Shuningdek, N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan tuzilgan “Oʻzbek tili oʻxshatishlarining izohli lugʻati”da tilimizdagi 500dan ziyod oʻxshatishlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan yoritib berilgan.

O.S.Axmanovanning “Tilshunoslik terminlari lugʻati”da lisoniy oʻxshatishga quyidagicha taʼrif berilgan: “Oʻxshatish (ingl. simile, fr. comparaison, nem. Gleichnis, isp. simil.) – bir predmetni boshqasiga ular oʻrtasidagi umumiy boʻlgan xususiyat asosida qiyoslash”.

Muayyan xalqlar tafakkurini ifodalashda oʻxshatishlarning oʻziga xos oʻrni qadimdan muhim boʻlib kelgan. Buni Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit-turk” asarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, qizlar aldoqchi va yalinchoq boʻlgani uchun tulkiga, oʻgʻil bolalar esa botirlik sifati bilan boʻriga oʻxshatilganiga duch kelamiz: “Biron xotin tuqqanda doyadan: tulki tugʻdimi yoki boʻrimi deb soʻraladi. Yaʼni qizmi yoki oʻgʻilmi demakdir...”

Shuningdek, lisoniy xazinalarimizdan biri hisoblangan Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida xoqon sifatlarini sanar ekan, ayiqdek, qargʻadek, tulkidek, tuyadek kabi oʻxshatishlarni qoʻllaganini koʻrishimiz mumkin.

Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani oʻxshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullardan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi.

Bizga maʼlum boʻlgan biror-bir xususiyat yoki narsa vositasida mavhum turgan tushunchalarni ochiqlash imkoniga oʻxshatish, qiyoslash orqali erishamiz. Masalan, “Choʻqqilarning boshlari loladek qizardi” (J.Abdullaxonov “Tarki dunyo”). Lolaning koʻrinishi, uning qay darajada nozik va alvon rangli ekani barchamizga maʼlum. Yozuvchi oʻquvchiga maʼlum boʻlgan predmetdan oʻxshatish etaloni sifatida foydalanib, oʻquvchi uchun nomaʼlum boʻlgan holatga oydinlik kiritib oʻtadi. Agar oʻsha joyda choʻqqilarning boshlari qizardi deyish bilan kifoyalanganda oʻquvchining qalbini titratish maqsadiga yetisha olmagani boʻlar edi.

Maymunning benihoya abjir harakatlar qilishi ham barchaga ma'lum, undan o'xshatish etaloni sifatida foydalanish orqali asar qahramonining xarakter-xususiyatini ochib berishda aniqlik kiritishga erishish mumkin:

“Saldan keyinoq qishloq ahlini zir titratib, odamlarni *maymun misol* o'ynatgan bu ikki besavod, gumroh ayol ishdan haydaldi”. (O.Yoqubov “Qarnoq”)

Professor N. Mahmudov o'xshatishlarni bir necha unsurga ajratadi.

“...o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi”.

Erkin o'xshatishlar muallifning badiiy so'z mahoratini belgilaydigan va uninggina qalamiga mansub bo'lgan o'xshatishlardir.

*Kapalakdek* kelib, qoshingga qo'nib,

Ko'zingga termilib, umrim o'tsaydi... (M.Yusuf)

Ushbu misrada o'xshatish konstruksiyasi erkin o'xshatish bo'lib, Muhammad Yusuf tomonidan yorning qoshiga kapalakdek qo'nishni maqsad qilgan lirik qahramonning ichki dunyosi, xarakter-xususiyati ochib berishga erishilgan. Ya'ni kapalakning qay darajada nozik ekanini yaxshi bilamiz. Ham qalban, ham jisman nozik bo'lgan yorning qoshiga kapalakdek qo'nishdan boshqacharoq variantni qo'llashning o'zi mantiqqa zid bo'lgan bo'lar edi. Shubhasiz, bu shoirning individual so'z san'atkorligini yaqqol namoyon etgan.

Quyidagi misollarda ham erkin o'xshatishlarning orginalligini ko'rishimiz mumkin: Haligi shirin xayollar bilan kulib, to'lib, **cho'g'day qizarib turgan** yuzlari, **garmsel tekkan ekin kabi**, bir nafasda so'lib, o'lib, **uchug'dek** bo'zarib qoladi... (Cho'lpon “Kecha va Kunduz”). Ko'zini ochgan vaqtda boshi xuddi **pressga tushgan toypaxtadek** yorilgudek bo'lib og'rirdi (Cho'lpon “Kecha va Kunduz”). Uning gapi miyamda **qovog'aridek** betinim g'o'ng'illardi... (I.Mirzo “Bonu” romani). Hamma birdek chanqagani, suv– obi hayotgani aylangani, **bujmaygan yong'oq mag'zidek** miya talvasaga tushib, o'zini avrashga kirishgani uchunmi? (I.Mirzo “Bonu”)

Turg'un o'xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksionidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Masalan, beozorlik xususiyati uchun etalon sifatida rus lingvomadaniyatida buzoqcha (telyonok), go'dak (rebyonok), bola (ditya) kabilar, o'zbek lingvomadaniyatida esa musicha, go'dak va farishta turg'unlashgan: Dadangda gunoh yo'q, bolam! Dadang – **farishtadek** toza odam (O'.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”); Turar u **go'dakdek** beg'ubor kulib, Balki, kulgisi ham bizdan meros bu (A.Oripov “Genetika”); Ohuday go'zal, **musichadek** begunoh bu qiz uning chiroqsiz hujradek nursiz, shu'lasiz hayotida milt etib yongan bir sham edi. (O.Yoqubov “Ko'hna dunyo”)

Ushbu misollarda ko'rinib turibdiki, har uchala so'zda ham mentalitetimizga xos bo'lgan beozorlik stereotipi ustunlik qilmoqda.

O'xshatishlar xalqimiz til boyligidan o'rinli foydalangan holda fikrlarni chiroyli va ta'sirchan ifodalashning samarali vositasidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
2. Odilov A. Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi. SCIENTIFIC PROGRESS, 2021. – B 1376-1378.
3. Pulatova D. Lingvokulturologiya tushunchasi va uning xususiyatlari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar vailmiy tadqiqotlar jurnali, 2024. –B 14-17.
4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019.
5. Badiiy adabiyotlar.

## O'QUVCHILARGA DASTURLASHNI O'RGATISHDA XORIJIY DAVLATLARNING TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

U.M.Mirsanov

Navoiy davlat pedagogika instituti, informatika kafedrası mudiri, dotsent

N.S.Isroilov

Navoiy davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorijning rivojlangan davlatlari maktablarida dasturlashni o'rgatish holati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga dasturlashni o'rgatishda xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** dasturlash, algoritmlash, kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Аннотация.** В данной статье анализируется ситуация с преподаванием программирования в школах развитых стран за рубежом. Кроме того, были представлены предложения и рекомендации по использованию опыта зарубежных стран в обучении программированию учащихся средних школ нашей страны.

**Ключевые слова:** программирование, алгоритм, компетентность, информационно-коммуникационные технологии.

**Abstract.** This article analyzes the situation with teaching programming in schools of developed countries abroad. In addition, proposals and recommendations were presented on using the experience of foreign countries in teaching programming to secondary school students in our country.

**Key words:** programming, algorithm, competence, information and communication technologies.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirishga, shu jumladan o'quvchilarni misol va masalalarni algoritmlashga hamda dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar davomida olingan natijalarni tahlil qilish asosida ko'plab xorijiy mamlakatlarning maktablarida kompyuter texnologiyalarini, xususan zamonaviy dasturlash tillarini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1, 2, 3, 4].

Xususan, AQSh maktablarida barcha yosh guruhlari uchun informatikani joriy etish tendensiyasi kuzatilmoqda. Yetakchi tashkilotlar (ACM, CSTA, Code.org, CIC va NMSI) kompyuter fanlari bo'yicha ta'limni tashkil etish va 12 yillik maktab ta'limi (K-12) bilan asosiy informatika dasturlarini ishlab chiqish uchun birgalikda harakat qilmoqdalar.

Avstraliyada 2015-yilda raqamli texnologiya va dizayn texnologiyasini o'z ichiga olgan milliy texnologiya o'quv dasturini tasdiqladi (Digital Technologies (DT)). Ushbu dasturda o'quvchilar kompyuter (hisoblash) fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari hamda ma'lumotlar, raqamli tizimlar va dasturlash orqali yechimlarni qanday amalga oshirishni o'rganishlari talab etiladi [4]. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda asosan o'yin konsepsiyasiga e'tibor qaratilgan. Maqsadli o'yinni simulyatsiya qilish asosida o'rganish, o'quvchilarga real va virtual olam o'rtasidagi munosabatni tushunishni soddalashtiradi, muloqotda texnologiyadan foydalanish, aniq ko'rsatmalar va oddiy muammoning muhimligini anglash, raqamli dunyoda hal qilishdan iborat hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada besh yoshdan boshlab oddiy ijod qilishni o'rganadilar va o'n bir yoshdan boshlab ingliz maktabi o'quvchilari turli xil algoritmlarni va dasturlash tilini kamida ikkitasini o'rganishi lozim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyada dasturlashga integratsiyalashgan bo'lim sifatida emas, balki kengroq intizomga e'tibor qaratadigan kam sonli mamlakatlardan biridir. Ushbu davlatda informatika fani uchta tarkibiy komponentni o'z ichiga oladi: informatika; axborot texnologiyalari; raqamli savodxonlik. Fanning asosiy maqsadi o'quvchilarda ko'nikmalar to'plamini shakllantirishdir: informatika fanining asosiy tamoyillari va tushunchalarini, jumladan, abstraksiya, mantiq, algoritmlar va ma'lumotlarni taqdim etishni tushunish va qo'llash; real muammolarni hisoblash nuqtai nazaridan tahlil qilish, bunday muammolarni hal qilish uchun kompyuter dasturlarini yozishda bir necha marta amaliy tajribaga ega bo'lish; amaliy muammolarni hal qilish

uchun analitik baholash va axborot texnologiyalarini, shu jumladan yangi yoki notanish texnologiyalarni qo'llash; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mas'uliyatli, malakali, ishonchli va ijodiy foydalanuvchi bo'lish.

Finlyandiyada boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilarini o'qitish uchun vizual obyektga yo'naltirilgan dasturlash muhiti bo'lgan Scratch kabi vizual dasturlash muhitini o'rganadilar [4]. Finlyandiyada boshlang'ich (1-9-sinflar) va o'rta (10-12-sinflar) ta'limni qamrovi mavjud bo'lib, bunda o'quv dasturlarida barcha darajadagi fanlararo komponent sifatida raqamli kompetensiyaga e'tibor kuchaytiriladi. Finlyandiya o'quv rejasida informatika fanining mazmuni boshlang'ich ta'limning yaxlit elementi sifatida dasturlashni o'z ichiga oladi, informatika fani esa o'rta o'quv rejasiga kiritilmagan. Boshlang'ich bosqichda dasturlash 1-2-sinflar uchun matematika, 3-9-sinflar uchun matematika va hunarmandchilik fani mazmuniga kiritilgan. Bundan tashqari, dasturlash barcha fanlarni qamrab oluvchi raqamli kompetensiyaning bir qismidir - dasturlash barcha fanlarga integratsiya qilingan [4].

Janubiy Koreya 2018-yilda esa yangi o'quv dasturi joriy etildi. U o'rta maktabda majburiy "Informatika" fanidan va o'rta maktabda tanlov fani sifatida o'qitiladi. O'quv dasturi raqamli savodxonlik, hisoblash, fikrlash va dasturlashni o'z ichiga oladi [5].

Yaponiyada dasturlash mamlakat boshlang'ich maktablarida majburiy fan sifatida o'qitiladi. Dasturlash asoslari beshinchi sinfdan boshlab o'rgatiladi. Yaponiya dasturlashga qiziqqan o'quvchilar o'qishni bema'lol davom ettirishi uchun imkon qadar potensial axborot texnologiyalari mutaxassislar zaxirasini yaratish strategiyasini ilgari surib kelmoqda. Maqsad o'quvchilarga axborotni qayta ishlash uchun koddan foydalanish asoslarini singdirish, shuningdek, sinov va xato orqali mantiqiy fikrlashni o'rgatishdir. Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligining prognozlariga ko'ra, axborot texnologiyalari bozori o'rtacha sur'atlarda o'sayotgan taqdirda ham, bu sohada yetishmovchiliklar kuzatiladi. Shuning uchun yaponiya maktablarida dasturlash tillariga alohida e'tibor qaratilgan. Maktab o'quvchilariga dasturlash tillarini o'rgatishda o'yin texnologiyalaridan va masofaviy o'qitish tizimlaridan foydalanilib kelinadi.

Xitoy maktablarida axborot texnologiyalari fanini 3-sinfdan o'rganishni joriy etish tavsiya etiladi. Axborot texnologiyalariga kirish asosiy moduli 3-4-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ushbu modulda "Uskuna va dasturiy ta'minot", "Axborotni qayta ishlash va qayd etish", "Jahon tarmoq va axborot almashinuvi" mavzularini qamrab oladi. Xitoyda axborot texnologiyalari fani fanlararo integratsiyalash orqali o'rgatiladi: axborot texnologiyalari darslarida olingan bilim va ko'nikmalar maktab o'quvchilariga boshqa fanlarni o'rganishda, maktabdan va maktabdan tashqari hayotda, ulardan foydalanish imkoniyati va maqsadga muvofiqligini ko'rsatadigan amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Xitoy maktablarida axborot texnologiyalari fani tarkibida dasturlash tillari, ya'ni NET, Python, PHP dasturlash tillarida bir o'rgatiladi. Bu kabi dasturlash tillarini o'rgatishda sun'iy intellektli axborot-ta'lim muhitlaridan va masofaviy o'qitish tizimlaridan foydalaniladi.

Rossiya maktablarida o'quvchilariga vizual dasturlash muhitlardan foydalangan holda va o'yin texnologiyalariga asoslangan dasturlash asoslarini o'rgatishning yangi usullarini tanlash amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich sinflarda mantiq asoslarini, algoritmlarni o'rganadilar. Dasturlash asoslarini o'rganish dunyoda juda kam uchraydigan hodisa bo'lib, u axborot texnologiyalari bilan chuqur singib ketgan deb hisoblanadi. O'rta maktabda bolalar jarayonga chuqurroq kirishga harakat qilishadi kompyuter dasturlarini yaratishdir. Ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarga Python, C++ dasturlash tillarini o'rgatib keladi [4]. Mazkur dasturlash tillarini o'rgatishda ochiq axborot-ta'lim muhitlaridan va ta'lim portallaridan foydalaniladi. Ushbu muhitlarda muammoli topshiriqlari va ularning yechimlari hamda dasturlash tillarini o'rgatishga mo'ljallangan videodarslar, ochiq va yopiq testlar joylashtirilgan. Shuningdek, o'quvchilar tomonidan masalalarning dastur kodlarini ta'lil qilish asosida to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlovchi tizimlar mujassamlashgan.

Rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish asosida shuni aytish mumkinki, mamlaktimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy dasturlash tillaridan bir hisoblangan Python dasturlash tilini faqat 9-sinfda emas, balki 10-11-sinflardan ham o'rgatish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida dasturlash tillarini o'qitishga mo'ljallangan masofaviy o'qitish tizimlarini, axborot-ta'lim muhitlarini va ta'lim portallaridan foydalanish

mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda dasturlashni o'rgatishda ilmiy asoslangan o'yin texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki xorijning rivojlangan mamlakatlarida dasturlash tillarini o'qitishga mo'ljallangan ko'plab axborot-ta'lim muhitlari va ta'lim portallari yaratilgan bo'lib, ularning tarkibida o'yin texnologiyasi yordamida dasturlashni o'rgatib kelinmoqda.

### **Adabiyotlar**

1. Ваныкина Г.В. Сундукова Т.О., зарубежный опыт внедрения компьютерного мышления и информатики в непрерывное школьное образование // Статья опубликована в рамках: Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные проблемы методики обучения информатике и математике в современной школе» (Россия, Москва, МПГУ, 22. – 26 апреля 2019 г.)
2. National curriculum in England: Computing programmes of study. Department for Education, 2013. – 201 с.
3. Papert S. An exploration in the space of mathematics educations //International Journal of Computers for Mathematical Learning, 1996. Т. 1. – №. 1. – С. 95-123.
4. Афанасьева С.Г., Корнейчук К.Д. Изучение программирования в школах разных стран // Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # 11 (20), 2015. Педагогические науки. – С 21-23.
5. Choi J., An S., Lee Y. Computing education in Korea – current issues and endeavors //ACM Transactions on Computing Education (TOCE), 2015. Т. 15. – №. 2. – С. 8-22.

## **JISMONIY TARBIYANING YOSHLAR O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI**

**Navoiy viloyati Navoiy shahri 11-AFCHO'IM  
oliy toifali o'qituvchisi Shodiyeva Munajat Raximovna**

Mamlakatimizda xalq salomatligi diqqatga sazovor. Salomatlik har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo'lmoqda. Darhaqiqat, Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rifiga ko'ra: “Salomatlik –kasallik, biror nuqsonlarning yo'qligi emas, balki jismoniy, aqliy (ruhiy) va ijtimoiy xotirjamlikdir”.

**Turmush tarzi bu**–inson hayotining tayanch nuqtasiki, har bir inson unga tayangan holda, o'z hayotini tubdan o'zgartirishga erishishi mumkin. Turmush tarzini belgilovchi bosh omil insonning o'zidir. Sog'lom turmush tarzi –shunday yashash tarziki, unda odamlar salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar bo'lmasligi, inson ulardan ongli ravishda o'zini chetga olishi kerak.

### **Sog'lom turmush tarzining asosiy yo'nalishlari:**

- Jamoa va shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish;
- jismoniy faollik;
- kun tartibiga rioya qilish;
- zararli odatlardan tiyilish;
- to'g'ri ovqatlanish;
- ruhiy xotirjamlik;
- tibbiy madaniyat;
- kunlik suv ichish tartibi;

Ma'lumki, turmush tarzi sog'lom va nosog'lom bo'lishi mumkin. Sog'lom turmush tarzida yashagan insonlar kundalik hayot me'yorini to'g'ri tashkil qiladilar. Ta'kidlash muhimki, o'qiganda, uxlaganda, yurganda, ovqatlanganda, dam olganda, kulganda, yo'talganda o'ziga xos me'yoriy holat bo'lib, ana shu me'yorning buzilishi muayyan ma'noda, salomatlikka zarar etkazadi. Bu holatni ko'p yoshlar anglashmaydi, unga rioya qilishmaydi. “Me'yor” tushunchasi madaniyatning muhim belgisidir.

Albatta, har bir narsa me'yoridan chiqib ketsa, o'z xususiyatini yo'qotib qo'yishi tabiiy.



Qadimda bir donishmanddan: “Insonni nima baxtli qiladi, boylikmi yoki shon-shuhratmi,” – deb soʻraydilar. “Boylik, qolaversa, shon-shuhrat ham insonni baxtli qila olmaydi. Tani-joni sogʻ inson har qanday kasalmand badavlatdan baxtliroqdir”, deb javob beribdi donishmand. Bundan xulosa qiladigan boʻlsak, sogʻlom boʻlmagan inson baxtli boʻla olmaydi, betob boʻlsa, hech qanday boylik tatimaydi. Mustahkam sogʻliq insonning asosiy ehtiyojlaridan biri boʻlib qolmay, balki u jamiyatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoji hamdir. “Xalq sogʻligi – yurt boyligi” deb bejiz aytilmagan. Kishining mustahkam sogʻligini faqat uning kasalliklardan holi boʻlgani emas, balki jismoniy va ruhiy kuch-quvvatining uygʻunligi, yaxshi mehnat qobiliyati, kayfiyatining doim yaxshi boʻlishi koʻrsatadi. Har bir odam oʻz qadr-qimmatini bilishi, atrofidagi odamlarni hurmat qilishi, oʻz ishini qadrlashi, sogʻligini saqlashi, baxtli-saodatli boʻlib yashashi uchun harakat qilishi kerak. Bu, albatta, sogʻlom turmush tarzi bilan amalga oshiriladi.

**Shaxsiy gigiena haqida tushuncha bu** - Inson salomatligining gigienik asoslari insonning jismonan sogʻlom boʻlishi, turli xavfli kasalliklardan himoyalashida mustahkam oʻrin tutishi, eng avvalo, har bir kishi shaxsiy gigiena qoidalariga qatʼiy amal qilib yashashi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, insonning istiqomat qilishi uchun zarur boʻlgan gigienik yashash sharoitini taʼminlashni nazarda tutuvchi jamoatchilik gigienasi talablariga amal qilib yashashi bilan ham uzviy bogʻlangan. Shaxsiy va jamoatchilik gigiena qoidalariga rioya qilmaslik turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Shaxsiy gigiena qoidalari deganda, har bir shaxs tomonidan badan va tana aʼzolarining ozodaligini muttasil ravishda taʼminlash bilan bogʻliq gigienik muolajalar majmuasi tushuniladi.

**Kun tartibiga rioya qilish bu** - Kun tartibi deganimizda, uyqudan turish, ertalabki badantarbiya mashqlari, ertalabki gigienik tadbirlar, nonushta, uy ishlari, oʻqish, tushlik, hordiq chiqarish, boʻsh vaqt, kechki ovqat, kechki gigienik tadbirlar, uyquga yotish tushuniladi.

Oʻsmirlar sogʻlom va barkamol boʻlishi uchun kun tartibini toʻgʻri rejalashtirishlari lozim. Ular vaqtida aqliy, jismoniy mehnat qilishlari, etarlicha uxlash va sifatli ovqatlanishlari lozim.

Meʼyoriy uyqu – sogʻliq garovi. Uyqu organizmning hayotiy muhim ehtiyoji. Uyquning davomiyligi yoshga qarab belgilanadi. Uyqu oʻsmir yoshlarda 8-9 soatni tashkil qilishi lozim. Uyquda organizm dam oladi, asab tizimi tashqi taʼsirga javob bermaydi, ongli faoliyat toʻxtaydi, yurak urishi sekinlashadi, qon bosimi pasayadi, nafas olish sekinlashadi, tana mushaklari boʻshashadi, oqibatda energiya sarfi kamayadi, modda almashinuvi susayadi, tana harorati pasayadi. Qattiq uyqudan soʻng odam engillashib, oʻzini tetik sezadi. Uyqu – dam olish demakdir. Uyqu tanaga orom bagʻishlaydi. Baʼzilar kechqurun koʻp ovqat isteʼmol qilishadi, shuningdek uyqu oldi choy, achchiq kofeni isteʼmol qilishadi. Bu, albatta, uyqu buzilishiga olib keladi. Natijada bir qancha kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Uxlashdan oldin quyidagilarga eʼtibor bering:

- doimo bir vaqtda uxlashga odatlaning;
- xona harorati 18-19 °s boʻlsin;
- uxlashdan oldin ochiq havoda 40-60 daqiqa sayr qiling;
- uyqudan oldin asab tizimiga salbiy taʼsir qiluvchi eshittirish, koʻrsatuvlarni eshitmang va tomosha qilmang;
- uyqudan oldin iliq dush qabul qiling;
- Ovqatlangandan soʻng kamida 3 soatdan keyin uxlang;
- oʻrtacha qattqlikdagi tekis joyda uxlang.

Tiniqib uxlangiz, tetik va bardam boʻlasiz.

Oʻsmir normal rivojlanishi uchun 4-5 mahal ovqatlanishga koʻnikma hosil qilishi shart. Ovqat har xil vitaminlarga boy boʻlishi lozim. Oʻsmirlar iloji boricha sut, tvorog, goʻsht, tuxum, baliq, sariyogʻ, sabzavot va mevalar isteʼmol qilishlari kerak.

**Sogʻlom ovqatlanish bu** - Ovqatlanish – tiriklik, hayotni taʼminlovchi eng asosiy ehtiyoj. Chunki, har qanday tanadagi hayotiy jarayonlar – tiriklik, harakat, oʻsib-ulgʻayish, salomatlikning darajasi ovqatlanish hisobiga boʻladi.

Ta'kidlab o'tish joizki, ratsional ovqatlanish (ratsional – oqilona, maqsadga muvofiq) organizmning quvvat sarfini to'ldirish, insonning hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan vitamin, mikroelementlarni qamrab olgan, tarkibi hamda miqdori jihatdan organizmning imkoniyatlariga mos keladigan ovqat bilan ovqatlanishdir. Kundalik hayotimizda amal qilishimiz lozim bo'lgan muhim qoidalardan biri ovqatlanish tartibidir.

Iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari insonning jinsi, yoshi, ish faoliyati hamda yil fasliga ham bog'liq. Agar bir kecha-kunduzda uch marta ovqatlansak, ertalabki nonushta umumiy ovqatlanish miqdorining 25-30 foizini, tushlik 40-50 foizini, kechki ovqat esa qolgan foizini tashkil tishi kerak. To'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya qilish hayot davomida inson salomatligini ta'minlaydigan muhim mezonlaridan biridir. O'z salomatligini o'ylaydigan yoshlar to'g'ri ovqatlanish madaniyatini o'zlashtirgan bo'lishlari, ya'ni oqsil, yog', uglevod, vitamin, mineral moddalar va suvning organizm uchun ahamiyatini bilishlari zarur.

**Jismoniy faollik bu** - "Tarbiyaning ajratib bo'lmaydigan bir tarkibi – jismoniy tarbiya", deb ta'kidlagan Abu Ali ibn Sino. Xalqimiz azal-azaldan jismonan baquvvat, ma'nan sog'lom kishilarga katta e'tibor, hurmat va havas bilan qaragan. Anna shunday insonlardan biri Xorazm elining asl farzandi, kuragi erga tegmagan kurashchi Pahlavon Mahmud xalq qahramoni sifatida e'tirof etilgan. Bugun mustaqil mamlakatimiz sportini jahonga ko'z-ko'z qilayotgan vatandoshlarimiz ham kundankunga ko'paymoqda. Sportni rivojlantirish maqsadida Farmon va qarorlar mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga, shu bilan birga, sog'lom avlodni shakllantirishga katta zamin yaratdi. Maktab o'quvchilari o'rtasida "Umid nihollari", kollej va litsey o'quvchilari o'rtasida "Barkamol avlod", oliygoh talabalari o'rtasida "Universia" da o'yinlarining tashkil qilinishi yurtimizda fizkultura va sportning ommalashuviga zamin bo'lmoqda. Har bir yosh jismoniy tarbiya turini tanlashdan oldin, birinchi navbatda, o'z sog'liq darajasini tibbiy ko'rikdan o'tish yo'li bilan baholash, qaysi sport turi bilan shug'ullanish mumkinligini, u yoshiga, yil fasliga, organizmning ayni paytdagi holati va shu kabi o'ziga xos xususiyatlarga baho berib, jismoniy faollik turini to'g'ri tanlashi zarur. Har bir insonda jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish oiladan boshlanadi. "Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanib turuvchi kishi davolanishga kamdan-kam muhtoj bo'ladi" deb yozgan edi Abu Ali ibn Sino.

Jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtiruvchi va tarbiyaviy vazifalari quyidagilardan iborat:

- butun kun davomida yaxshi kayfiyatda bo'lasiz;
- ishingiz unumli, ijodiy faoliyatingiz kuchli bo'ladi;
- asablar tizimi muvozanatlashib, bosiq, mulohazali bo'lasiz;
- faollik, tashabbuskorlik, qiyinchilikdan, dovyurak, do'stlik hissiyotlarini shakllantiradi;
- muntazam ravishda jismoniy mashq bilan shug'ullanish gigienik ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi;
- organizmdagi yog'lar kamayib, ixcham, epchil, chaqqon bo'lasiz;
- mushaklaringiz tortishib, qomatingiz ko'rkam va kelishgan bo'ladi;
- tomirlarda qonning oqishi yaxshilanib, tana va a'zolarga kislorod hamda oziqlarning borishi yaxshilanadi;
- organizmning himoya qobiliyati oshadi;
- o'zgalarga qaraganda yosh, ko'rkam, ishchan va sog'lom bo'lasiz.

Jismoniy sog'lomlashtirish usullari orasida ertalabki badantarbiya ommaviyligi bilan ahamiyatga ega. Ertalabki badantarbiya tanani uyg'otadi, modda almashinuvini yaxshilaydi, tanaga rohat va faollik bag'ishlaydi, kayfiyatni ko'taradi, karaxtlikni yo'qotishga yordam beradi. Ertalabki badantarbiya har kuni o'z vaqtida ochiq havoda o'tkazilsa, yaxshi samara berish bilan birga, kun bo'yi teranlik va o'qish qobiliyatini oshiradi. Insonga xos erinchoqlik sabab aksari yoshlarimiz o'zlari uchun foydali bo'lgan jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish o'rniga qimmatli vaqtlarini televizor, kompyuter qarshisida turli ko'rsatuvlar ko'rib, o'yinlar o'ynab, spirtli ichimliklar ichib "dam olishga" sarflashni afzal ko'radilar. Natijada, ular bunday kam harakatlilik oqibatida turli kasalliklar kelib chiqadi.



Harakatlar qanday bo'lsin, ular badan va a'zolarining faol ishlashi hisobiga energiya sarf bo'lishi bilan bog'liq.

Har bir insonning kundalik hayotiga kirishi zarur harakat turlari:

- mehnat;
- sport o'yinlari;
- raqs;
- yog mashqlari;
- jismoniy tarbiya (fizkultura) va hokazo.

Bugungi yoshlar ertaga mamlakatimiz ravnaqini, maqsadlarimizni ro'yobga chiqaradigan kishilardir. Ular har tomonlama etuk, shu jumladan, jismonan sog'lom bo'lishlari shart. Millat kelajagi haqida qayg'urgan Abdulla Avloniy ham bola tarbiyasi haqida fikr yuritir ekan, tarbiya jarayonini uch qismga bo'lgan edi: "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi" va "Axloq tarbiyasi". Zero, A.Avloniy "Badan tarbiyasi"ni birinchi o'ringa qo'ygani bejiz emas. Bunda, badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz tana lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar ko'p yaxshi ishlarga qodir bo'la olmaydilar. Fikr tarbiyasi uchun mustahkam va sog'lom bir vujud kerakdir, deb bejiz ta'kidlamagan.

**Zararli odatlar bu** - Inson dunyoga kelib, o'zi tug'ilib o'sgan ijtimoiy muhitning mahsuli sifatida, birinchi navbatda, ana shu ijtimoiy muhitda oldindan shakllangan va ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan sog'lom, shu bilan birga, nosog'lom ijtimoiy me'yorlarni ham o'zlashtirib boradi. Natijada bolada o'ziga xos xulq, xarakter, dunyoqarash shakllanadi. Biz, odatda, ko'p narsalarni shunday bo'lishi kerak, deb qabul qilishga odatlanib qolganmiz, ba'zida ana shu holat yoki odatga moslashib ham qolamiz. Aslida buning noto'g'ri ekanligiga, faqatgina biron-bir kasallikka chalinib, uning sabablarini aniqlab, tushunib olganimizdan keyingina amin bo'lamiz, afsus chekamiz. Odamda kasallik o'z-o'zidan, to'satdan paydo bo'lib qolmaydi.

Shunday qilib, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning o'rnini beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jismoniy tarbiya dars ishlanmalari va harakatli o'yinlar (qo'llanma) T. Yu. Sharipov, T.S. Usmonxo'jayev, I. Burnashyev, X. X. Sagdiyev. Toshkent. 2008 yil.
2. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport maktablarining rahbar va murabbiylari uchun qo'llanma. Toshkent 2009 yil. M. Raxmatxo'jayev., B.Safarov

### **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

**Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi**  
**O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi**  
**Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI**  
**Qoraqalpog'iston Respublikasi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tili ta'limi jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish masalalari o'rganildi. Jahon miqyosida qo'llaniladigan ta'limiy resurslar asosida audio va video o'quv topshiriqlarni tayyorlashning ahamiyati haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, o'zbek tili, zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'limiy-elektron ishlanmalar, ta'limiy resurslar, ta'limiy platformalar, wordwall.net, joyteka.com, learningapps.org, bookcreator.com, masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim.

**Abstract:** This article examines the issues of using modern information technology tools in the process of Uzbek language education. The importance of preparing audio and video educational tasks based on educational resources used worldwide was discussed.

**Keywords:** digital technologies, Uzbek language, modern information technologies, educational and electronic developments, educational resources, educational platforms, wordwall.net, joyteka.com, learningapps.org, bookcreator.com, distance education, online education.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы использования современных средств информационных технологий в процессе обучения узбекскому языку. Обсуждалась важность подготовки аудио- и видеообразовательных заданий на основе образовательных ресурсов, используемых во всем мире.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, узбекский язык, современные информационные технологии, образовательные и электронные разработки, образовательные ресурсы, образовательные платформы, wordwall.net, joyteka.com, Learningapps.org, bookcreator.com, дистанционное образование, онлайн-обучение.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi munosabati bilan o'quv jarayonini amalga oshirishda o'qitishning an'anaviy va elektron shakllari imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda o'qitish yangi ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda o'quv jarayonining texnik va axborot ta'minoti sezilarli darajada o'zgardi, an'anaviy usullar yuqori texnologiyali o'quv qurollari bilan boyidi.

Zamonaviy axborot, kommunikatsiya va masofaviy ta'lim texnologiyalari ko'lamini kengaytirish o'qituvchidan axborot kompetensiyasini, muayyan fanni o'qitish mazmuni va maqsadlariga mos keladigan, o'quvchilarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga hissa qo'shadigan texnologiyalarni tanlash va ulardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashni o'rganish, rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash masalasi turli olimlarning o'quv qo'llanmalarida, dissertatsiya ishlarida dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda. Jumladan, T.A.Maxarov, A.S.Kucherov, A.V.Troshina, E.Alinicheva, N.Monastirev, G.R.Kozayeva, D.G.Parasteyeva, A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, A.G.Hayitov, R.R.Shodiyev, M.Aripov, B.Begalov, M.Mamarajabov, S.Qosimov, S.S.G'ulomov, X.Alimov, X.S.Lutfullayev, A.Shermuhammedov, Sh.Qurbonboyevlar ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullarini aniqlaganlar va tavsiya qilganlar. Bu tadqiqotlar natijalari muayyan darajada til ta'limiga ham tatbiq qilinmoqda.

Til ta'limi jarayonida ta'limiy-elektron ishlanmalardan samarali foydalanish o'qituvchining mahoratiga bevosita bog'liq. Agar u zamonaviy texnologiyalarni o'zining ishonchli hamkoriga aylantira olsa, o'quvchilarning o'zbek tilini o'rganishlariga katta yordam bera olishi shubhasiz [3].

O'zbek tili ta'limi jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish o'quvchilar nutqiy malakalarining, savodxonlik darajasining ortishiga, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, o'quvchiga ma'lum darajada mustaqillik berish, hamkorlikda dars tashkil qilish, ta'limning interfaol metodlaridan foydalanish, ta'lim jarayonida grammatik o'yinlarni qo'llash o'qituvchilarni ham, o'quvchilarni ham izlanuvchanlikka undaydi.

O'zbek tili ta'limi tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchi so'z boyligini oshirish, fikrni og'zaki va yozma to'g'ri, ravon ifodalash mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda o'qituvchining beqiyos yordamchisiga aylandi.

O'zbek tili ta'limi tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish sirasiga o'quv adabiyotlarining yangi avlodlari: elektron o'quv qo'llanmalari, elektron darsliklar, qisqa, interaktiv dasturlar, audiovideo almanaxlar, multimediya o'quv dasturlari, elektron nazorat testlari, masofaviy ta'lim kabilarni kiritish mumkin. Aksariyat hollarda o'qituvchilar kompyuterdan faqat test yechish, nazorat yoki tanlov jarayonlarida reyting ballarni aniqlashda foydalanmoqdalar. Lekin kompyuterning ta'lim tizimida keng imkoniyatlarga ega ekanligini, xususan, o'quvchi so'z boyligini oshirish, fikrni og'zaki va yozma to'g'ri, ravon ifodalash mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda o'qituvchining beqiyos yordamchisiga aylanadi. Lekin bu yordamchini maqsadga muvofiq ishlata olish o'qituvchi mahoratiga, zamonaviy texnika vositalarini tushunishi va uni o'rganilayotgan mavzu doirasida tatbiq eta bilishiga bog'liq [2].

Bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini xayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga tatbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

O'zbek tili fani o'qituvchisi o'z fanining saralanib, o'quvchilar nazaridan chetda qolib ketmasligiga erishishi uchun ta'limning psixologik asoslari muammolariga ham e'tibor qaratishi, o'quvchilar diqqatini yo'lga solishi juda muhimdir. "Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi" [1].

Dars uchun zarur matnlar, topshiriqlar, tarqatma materiallar, har xil rasmlar, jadvallar kompyuterda sifatli tayyorlanib o'quvchilarga havola qilinishi mumkin. *Power Point, Ispring, Avtoplay, Wordwall.net, Joyteka.com, LearningApps.org, Bookcreator.com* dasturlari yordamida o'quvchilarni qiziqtiradigan rebus, krossvord, topshiriqlar tarzidagi o'yinlar tashkil etish, berilgan so'zlardagi harflar o'rnini almashtirish yo'li bilan boshqa so'zlar hosil qilish mumkin. Bunda barcha topshiriqlar o'quvchini so'z izlash va topgan so'zlarining eng maqbulini tanlab uni nutqda qo'llashga o'rgatadi. Vazifalarni bajarish davomida to'g'riligini inobatga olish va o'quvchini rag'batlantirgan holda "Barakalla!", "Qoyil!", "Biroz adashdingiz", "Yana o'ylab ko'ring", "Topshiriqni qayta bajaring", "Mavzuni takrorlashingizga to'g'ri keladi" kabi yozuv va mos ravishda ovoz yordamida o'quvchi bilan muloqot, ya'ni qayta aloqa o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, axborot texnologiyalari yordamida yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajarish o'quvchining so'z boyligini oshirish, mustaqil mushohada yuritish, so'z va uning ma'nolari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To'ychieva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T., 2004. 89-bet.
2. Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh. Sh., Eshmatova Y.B. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari / o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. - 264 b.
3. Umarova N. Til ta'limi va ta'limiy-elektron ishlanmalar // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2005. – № 6. - B.75-79.

## **MAMLAKATIMIZ YUKSALISHIDA BOLALAR SPORTINING O'RNI**

**Berdiyev Dilmurod Nomonovich**

**Navoiy davlat pedagogika instituti,**

**Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi**

**Axmedova Maftuna Elmurod qizi**

**Jismoniy madaniyat 2-bosqich xotin-qizlar sporti talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimiz kelajagi uchun sog'lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda kattaligi, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirish, ularga sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirishning yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** sport, bolalar sporti, jismoniy tarbiya, ma'naviy salomatlik, barkamol avlod.

**Аннотация.** В данной статье очень велико значение физического воспитания в воспитании здорового поколения для будущего нашей страны, формирования физического и духовного

здоровья молодого поколения, стремления к здоровому образу жизни и привития им любви к спорту. - высказываются комментарии.

**Ключевые слова:** Спорт, детский спорт, физическое воспитание, духовное здоровье, зрелое поколение.

**Annotation.** In this article, the importance of physical education in raising a healthy generation for the future of our country is very great, forming the physical and spiritual health of the young generation, striving for a healthy lifestyle and instilling love for sports in them. - comments are made.

**Key words:** sports, children's sports, physical education, spiritual health, mature generation.

Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat.

(Sh.M.Mirziyoyev)

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e'tibor berilayotganligining asosiy sababi, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham barkamol avlodni voyaga yetkazish zaruriyati bilan izohlanadi. Chunki sport xalqni, millatni g'ururini yuksaltiradi, ma'naviy kuch-quvvat baxsh etadi. Eng muhimi, jismoniy tarbiya va sport sog'lom turmush tarzining asoslaridan biri sifatida yoshlarning o'z imkoniyat va salohiyatini, o'z jismoniy va ma'naviy kamolotini oshirish yo'lida sarflaydi. Jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy ravishda uzluksiz shug'ullanish bolani ham jismonan, ham ruhan tetik qiladi, uning butun vijudi uyg'un tarzda kamol topadi. Respublikada bolalar va yoshlarning jismoniy salomatligi va ma'naviy boyligini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportga mehr-muhabbatni singdirish borasida shart-sharoitlar yaratib berish, qishloq joylardagi bolalar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga alohida e'tibor berish, Vatanga sadoqatli, kelajakka ishonchi bor, barkamol avlodni tarbiyalash, bolalar o'rtasida iste'dodli sportchilarni tanlab olishga e'tibor berish darkor.

Mamlakatimiz kelajagi uchun sog'lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda katta. So'nggi yillarda sport va jismoniy tarbiya yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning, ularga sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirishning g'oyat muhim sharti sifatida bolalar ommaviy sportini rivojlantirishni ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan mamlakatimizda, ayniqsa, qishloq joylarda sport infratuzilmasini barpo etish hamda bolalarni sportga ommaviy jalb qilish borasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi, bolalar sport inshootlarini zarur jihoz va anjomlar bilan ta'minlash, ularni respublikamizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda qishloq joylarda bolalar sportini rivojlantirishda mahalliy hokimlik organlarining roli va mas'uliyatini oshirishga doir masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Bularidan tashqari qishloq joylarda bolalar sportini rivojlantirish, mahalliy qizlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash, murabbiy o'qituvchilarni, xususan, ayol murabbiylarni tayyorlash va oliygohlarning jismoniy tarbiya bo'limlariga istisno sifatida qabul qilish kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining asosiy shiori: "Sport-sport uchun emas, salomatlik uchun xizmat qilishi kerak".

Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, avvalo yosh avlod ongiga sog'lom turmush tarzini singdirish, ularda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz hisoblangan milliy o'yinlarni qayta kashf etish va uni jahon arenariga olib chiqish, shuningdek, sohani rivojlantirish orqali mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeini yanada oshirish kabi vazifalarini qamrab oladi. Ta'lim-tarbiya, sport sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar zamirida sportni ommalashtirish, yangi-yangi iste'dodlarni yuzaga chiqarish, pirovardida jismonan baquvvat avlodni shakllantirish o'z aksini topgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent, O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Yarashev K.D. “Ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va halq milliy o'yinlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash masalalari” Monografiya T.: O'zDJTI 1997 y
4. Yunusov T.T. Abdumalikov R. “O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishni tashkil etish yo'llari” o'quv qo'llanma T.: O'zDJTI 1992 y

## **THE INTERPLAY OF MYTHOLOGY AND SCIENCE IN UNDERSTANDING THE LONG HISTORY OF LANGUAGE**

**Halimova Nilufar Hakimovna**  
**A student of Bukhara state university,**  
**Foreign languages faculty**

**Abstract.** This article delves into the intertwined relationship between mythology and science in unraveling the extensive history of language development. By examining how myths and scientific discoveries have shaped our understanding of the origins and evolution of language, we can appreciate the diverse perspectives that contribute to this complex field of study. Through an exploration of mythological narratives and linguistic research, this article seeks to illuminate the shared themes, insights, and contrasting viewpoints that emerge from the intersection of mythology and science in deciphering the profound mystery of language evolution.

**Keywords:** Mythology, science, language origins, evolution of language, linguistics, cultural narratives, cognitive evolution, mythological perspectives, scientific research, cultural interpretations, symbolic meaning, mythical narratives, language evolution.

The exploration of the origins and evolution of language has been a subject of fascination for both mythology and science throughout history. Mythological narratives from various cultures offer symbolic explanations for the creation of language, while scientific research provides empirical evidence and theoretical frameworks for understanding the cognitive, social, and evolutionary processes involved in linguistic development. This article aims to investigate the interplay between mythological accounts and scientific investigations in shedding light on the long history of human language.

### Mythology's Role in Understanding Language Origins:

Mythology has played a significant role in shaping cultural beliefs and explanations regarding the origins of language. Across various mythological traditions, stories and legends have emerged to provide symbolic narratives about how language was first acquired or bestowed upon humanity. These myths often highlight the divine, mystical, or symbolic aspects of language origins, offering unique perspectives that complement scientific and historical investigations into the development of human communication. Mythological stories, such as the Babylonian Enuma Elish, the Greek myths of Hermes and Cadmus, or the Sanskrit hymns of the Rigveda, provide mythical explanations for the origins of language. These myths often depict language as a divine gift, a tool of creation, or a source of power and transformation. Mythology offers symbolic interpretations of how language came into existence and the significance of communication in human culture and society.

### Scientific Approaches to Language Evolution:

In contrast, scientific studies in fields such as linguistics, anthropology, psychology, and neuroscience employ empirical methods to investigate the evolution of language. Through research on language diversity, cognitive abilities, brain functions, and genetic predispositions, scientists seek to unravel the biological, cognitive, and cultural foundations of language acquisition and development. These scientific approaches provide valuable insights into the complex mechanisms that underpin human language evolution.

Some key theories and methodologies include:

1. Comparative Linguistics: By studying similarities and differences among languages, linguists reconstruct ancestral languages and trace their evolution through time.

2. Paleontology and Archaeology: Analysis of fossils, artifacts, and ancient human remains provides insights into the cognitive and anatomical changes that might have facilitated language development.

3. Cognitive Science: Investigating cognitive abilities such as memory, attention, and social cognition sheds light on the mental processes underlying language acquisition and use.

4. Genetics: Examining the genetic basis of language-related traits and studying genetic similarities among humans and their closest relatives, such as chimpanzees, helps trace the evolutionary origins of language.

5. Neurobiology: Using brain imaging techniques, researchers explore the neural mechanisms involved in language processing and production, offering clues about the evolutionary history of language in the human brain.

By integrating evidence from these diverse fields, scientists aim to construct comprehensive models of language evolution that account for both biological and cultural factors.

#### Intersecting Perspectives:

The intersection of mythology and science in understanding the long history of language reveals both shared themes and divergent viewpoints. While mythology offers imaginative narratives and cultural interpretations of language origins, science provides systematic observations and evidence-based explanations for linguistic phenomena. By synthesizing mythological tales with scientific discoveries, researchers can gain a more comprehensive understanding of the multifaceted nature of language evolution and its enduring significance in human society.

In conclusion, the interplay between mythology and science enriches our understanding of the long and complex history of language. By examining the symbolic meanings embedded in mythological narratives alongside the empirical findings of scientific research, we can appreciate the diverse perspectives that converge to illuminate the origins, development, and diversity of human language. This article underscores the value of integrating mythological insights with scientific knowledge to unravel the mysteries of language evolution and its profound impact on human culture and communication.

#### References:

1. Crystal, David. (2003). "The Cambridge Encyclopedia of Language", Cambridge University Press.
2. Aitchison, Jean. (2013). "Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon", John Wiley & Sons.
3. Wardhaugh, Ronald. (2010). "An Introduction to Sociolinguistics", John Wiley & Sons.
4. Yule, George. (2016). "The Study of Language", Cambridge University Press.
5. Pinker, Steven. (2007). "The Language Instinct: How the Mind Creates Language", Harper Perennial.
6. McArthur, Tom. (2018). "The Oxford Companion to the English Language", Oxford University Press.
7. Dediu, Dan, Levinson, Stephen C. (2013). "On the antiquity of language: the reinterpretation of Neandertal linguistic capacities and its consequences", *Frontiers in Psychology*.
8. Hauser, Marc D., Chomsky, Noam, Fitch, W. Tecumseh. (2002). "The faculty of language: what is it, who has it, and how did it evolve?" *Science*.

## XALQ HUNARMANDCHILIGIDA YOG‘OCHGA ISHLOV BERISH TEKNOLOGIYASINI O‘QITISH METODIKASI

**L.Sh.Turdiyeva – Texnologik ta’lim yo‘nalishi 3-”G” guruh talabasi,**

**D.Sh.Muradova – Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-”D” guruh talabasi,**

**Ilmiy rahbar: S.N.Hamroyeva – Fizika – texnologiya fakulteti o‘qituvchisi**

O‘rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O‘tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Yog‘och o‘ymakorligi o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib ishlanadi. Badiiy san’atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog‘och o‘ymakorligi rivojlanib, o‘ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari yurtimizda ham yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib uy-ro‘zg‘or buyumlarida va me‘morchilikda keng qo‘llanilgan. Bu o‘ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil to‘sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

Yog‘och o‘ymakorligining o‘ziga xos turli uslub va usullari bor. Masalan, Xiva yog‘och o‘ymakorligi o‘ymasining monumentalligi, yog‘och tabiiy rangining saqlab qolishi bilan boshqalardan farqlanadi. Buxoro yog‘och o‘ymakorligi esa o‘yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarning oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorligi chuqur zaminli yassi o‘ymani qo‘llab kelgan. Toshkentda esa naqsh bilan qoplangan yassi bo‘rtmali, zaminsiz chizma yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan. Yog‘och o‘ymakorligi maktablari taxminan 40-50 yillardan keyin paydo bo‘lgan. Respublikamizda Qo‘qon, Xiva, Samarqand, Toshkent maktablari mavjud.

Yog‘och o‘ymakorligida qo‘llaniladigan asboblari. Yog‘och o‘ymakorligida turli asboblari ishlatilib, ular o‘ziga xos ishlarni bajaradi. Yog‘och o‘ymakorligidagi asboblari ikki turga bo‘linadi, ya’ni naqshni o‘yish uchun “o‘yma qalamlar” va “naqsh qalamlar”. Asboblarning shakli va bajaradigan ishiga qarab, iskanalarning bir qancha xillari bo‘ladi. Masalan, iskana, morpech iskana, baliq sirti iskana, zamin iskana, kovza iskana, chekma iskana va boshqalar. Bajariladigan ishning xarakteriga ko‘ra nov iskana, chuv iskana (o‘yishda), qing‘ir iskana (teshishda) ishlatiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilariga mavzuni tushuntirishda jadvalli sxemalardan foydalanilsa, o‘quvchilarning xotirasida yaxshi mustahkamlanadi.

<b>Iskana nomi</b>	<b>Ta’rifi</b>
<b>Kovza iskana</b>	– u to‘g‘ri va egri tig‘li bo‘ladi. To‘g‘ri tig‘li kovza iskana o‘yilgan naqsh chiziqlarining ustiga uch qirrali qavariq yo‘llar chiqarish hamda parallel chiziqlar chizishda qo‘llaniladi.
<b>To‘g‘ri iskana</b>	– to‘g‘ri sterjen keskichli bo‘lib, tig‘ining eniga qarab kichkina, o‘rtacha va katta iskanalarga ajratiladi. Tig‘ining eni 1,5 mm dan 10 mm gacha bo‘ladi. Ko‘pincha bag‘dodi uslubidagi naqshlarni o‘yishda ishlatiladi.
<b>Nova iskana</b>	– uning tuzilishi bo‘yicha tig‘ uchi nov shaklida bo‘ladi. Eni 2 mm dan 8 mm gacha, dastasi, odatda, qattiq yog‘ochdan yasaladi. Asosan kichik, o‘rtacha va katta nova iskanalar bo‘ladi. Nova iskanalar o‘yishda va pardozlashda ishlatilib, asosan, naqshning eng mayda bo‘g‘im, doiracha, marg‘ula, mayda ko‘zcha, gajak va gul qismlarini kesishda qo‘l keladi.
<b>Zamin iskana</b>	– naqshning zaminini o‘yib olishda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mm dan 8 mm gacha bo‘ladi.
<b>Baliq sirti iskana</b>	– tig‘i botiq, kamalaksimon ko‘tarilgan, baliq qovurg‘asi shaklidagi asbobdir. Keskichining eni 4 mm dan 19 mm gacha yasaladi. Katta-kichikligiga qarab kichik, o‘rta va katta baliq sirti iskanalari bo‘ladi.

<b>Morpech iskana</b>	– o‘yilgan naqshlarning chetlaridagi hoshiya, zanjiri, yarim doiralalar, nuqtalar chiqarishda qo‘llaniladi.
<b>Chekma iskana</b>	– o‘yilgan naqshning zaminini chakichlab chiqish uchun ishlatiladigan asbob. U o‘yilgan naqshlarning aniq ko‘rinishi, zaminini bir tekisda chiqishi va o‘ziga xos badiiy ko‘rinishi uchun qo‘llaniladi. Ishlatish joyiga qarab bir tishli, uch tishli, besh tishli, o‘n olti tishli chekma iskanalar bo‘ladi.
<b>Kurakcha iskana</b>	– kesadigan tig‘ining uchi bir tomonga qiya holatda bo‘lib, u kurakcha ko‘rinishida yasaladi. O‘lchamining katta-kichikligiga ko‘ra, kichik va katta kurakcha iskanalar bo‘ladi. Iskanalar ensiz zanjir va hoshiya naqshlarni o‘yishda ishlatiladi. O‘yuvchi bu asbob bilan iskanani o‘ng qo‘lida dastasidan ushlab, tasvir yoki naqsh chizig‘ini ustidan kerakli chuqurlikda sanchgan holda o‘zi tomon kesib boradi.
<b>Chekma qalam</b>	– yog‘och zaminini patir yuzasiga o‘xshatib chekmalab o‘yib chiqishda ishlatiladigan asbob. Bu asbob gurzi, yog‘och banddan va uzun temir sterjendan iborat. Chakichlar bir qatorli va uch qatorli bo‘ladi. Asbob 1, 2, 3, 4 va hokazo bo‘rtma tishli bo‘lishi mumkin. Chakichlangan naqsh aniq, mayin, yanada boy, nafis ko‘rinishga ega bo‘ladi. Yog‘och o‘ymakorligida chakichlash juda qadimdan rivojlanib kelgan. Ganch o‘ymakorligida chakichlash uslubi o‘ziga xosdir.

O‘qitish jarayonida o‘quvchilarni xotirasida joy olishi va mustahkamlanishi uchun, mavzularni o‘qitishda sxemali jadvallardan foydalanilishi yaxshi samara beradi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun bu metod foydaliroq bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mehnat ta‘limi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. «SHARQ» TOSHKENT – 2015
2. Joraeva M. A., Sh M. D., Khamroeva S. N. PROCESS METHOD FOR WOOL AND SILK FIBERS, THEIR PRODUCTION AND PROPERTIES //Uzbek Scholar Journal. – 2024. – T. 24. – C. 228-230.
3. Khamroeva N. S. et al. METHODOLOGY FOR TEACHING THE SUBJECT SOLID STATE PHYSICS USING THE GRAPHIC ORGANIZER METHOD //Uzbek Scholar Journal. – 2024. – T. 25. – C. 66-69.
4. Turdieva L., Nasriddinova K. S. METHODOLOGY FOR TEACHING THE TOPIC “DEVICE USED IN CRAFTS” //Uzbek Scholar Journal. – 2024. – T. 24. – C. 225-227.
5. Nasriddinova K. S. The theoretical significance of developing logical thinking skills among future physics teachers //Uzbek scholar journal. – 2024. – T. 24. – C. 193-196.
6. Nasriddinova K. S. THE IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN THE EDUCATION OF FUTURE PHYSICS TEACHERS //Uzbek Scholar Journal. – 2024. – T. 25. – C. 111-114.



## TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA RAHBARLIK QOBILIYATI

Umirova Gulmira Shodiboy qizi  
Jizzax politexnika instituti  
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida assistenti  
O‘rolov Tursunboy  
Jizzax politexnika instituti  
“Menejment” yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati hamda boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish yuzasidan fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta'lim, boshqaruv, madaniyat, menejment, kompetensiya, rahbar, lider, ijtimoiy, iqtisodiy, uslub, ijodkorlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы развития управленческой культуры руководства и управленческой компетенции у студентов технических высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** образование, менеджмент, культура, менеджмент, компетентность, лидер, лидер, социальный, экономический, стиль, творчество.

**Annotation.** This article reflects on the development of management culture and management competence in students of technical higher education institutions.

**Keywords:** education, management, culture, management, competence, Leader, Leader, social, economic, style, creativity.

Boshqaruv o‘z tasarrufidagi boshqariluvchi tizimga muntazam, rejali va maqsadga yo‘nalgan tarzda ta’sir kuchiga egadir. Bunday o‘zaro faoliyat tizimning ishchanlik qobiliyatini ham ta’minlaydi. Boshqaruvdagi tadqiqotlar, kibernetika fanining yuzaga kelishi bilan jadal sur’atlar orqali rivojlanib, murakkab tuzilmani boshqarishning ilmiy asoslangan tavsiyalari amaliyotga joriy etila boshlangan.

Hozirgi davrda “rahbar”, “lider” yoki “liderlik uslubi” va “rahbarlik uslubi” tushunchalarining bir-biriga bo‘lgan nisbati yo‘nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida eng ahamiyat kasb etuvchisi B.D. Pargin fikriga ko‘ra lider ma’lum bir guruhda shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi, mikro muhitning elementi hisoblanadi, kutilmagan holatda vujudga keladi va uning holatining barqarorligi kamroq bo‘lib, harakatlanishi guruhning kayfiyatiga bog‘liq hamda u ko‘proq guruhning faoliyatiga aloqador bo‘lgan qarorlarni qabul qiladi. Rahbar esa ijtimoiy tashkilot guruhlarida rasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va makro muhitning elementi hisoblanadi. Rahbar holatining barqarorligi yuqoriroq darajada bo‘lib, u ma’lum bir tizimda bir necha marta ko‘proq vakolatlarga, qaror qabul qilish, buyruq berish, topshiriqlar berish, talab qilish huquqlariga ham egadir. Qaror qabul qilish jarayoni birmuncha murakkabroq tizim bo‘lib, ko‘pgina, turli xil vaziyatlarni qamrab oladi hamda bu vaziyatlar faqatgina bitta guruhga tegishli bo‘lmaydi. Rahbar ma’lum bir kengroq ijtimoiy tizimning kichik bir guruhida faoliyat olib borsada, uning harakat doirasi keng hisoblanadi. Ayrim mutaxassislarining fikriga ko‘ra, liderlik jamoa faoliyatining samaradorligini oshirishda rahbarlik tushunchasini to‘ldiradi.[1]

“Menejment tizimi qoidalariga rioya qilgan holda ishlayotgan maktab rahbarlari bugungi ta’lim sohasidagi islohotlarni o‘rganib, boshqarishni zamonaviy kompetentlik qoidalari asosida ishni tashkil etgan holda yetakchilik, aniq belgilangan maqsad, o‘qituvchilardan kutilayotgan ijodiy natijalar, o‘qib-o‘rganish, o‘rgatish uchun zaruriy muhit, talabalar va guruhni doimiy kuzatish, oila, maktab, mahalla hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydilar. Yangi ilmiy izlanishlar natijasida obod mahalla, obod uy va namunaviy oila tashabbusi asosida rahbarlik ishlarini tashkil etishni talab qiladi. Boshqaruv madaniyati –ma’muriy ijtimoiy hamda rahbarning psixologik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi professional va ishchanlik tizimidir.

“Rahbar” degan nomga ega bo‘lgan har bir shaxs o‘z tashqi qiyofasi, kiyinish madaniyati, talabchanligi, bilimi, tashkilotchiligi bilan atrofdagilarga hamisha ibrat va namuna bo‘lishi lozimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi texnika sohasida faoliyat olib borayotgan rahbarning kompetentligi yo‘nalishidagi ba‘zi kamchiliklari haqida quyidagi holatlar tahlil qilindi:

- korxonalarda boshqaruv ishlarini talab darajada emasligi;
- fidoyilik, ijodkorlik, tashkilotchilik, kreativlikning yetishmasligi;
- huquqiy madaniyat va savodxonlikning pastligi;
- adolatlilik, halollik va insoflilikning yetishmasligi;
- ish jarayonida mahalliylik va urug‘ aymoqchilikning ustuvorligi;
- texnologik jarayonlarga e‘tibor bermaslik, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning yo‘qligi;
- korxonalarda jamoa ishlarini noto‘g‘ri taqsimlash va nazoratning pastligi;
- kasbiy va ilmiy tajribaga ega emaslik [2].

Yuqoridagi mulohazalarni o‘rganib, bugungi ta‘lim sohasidagi qabul qilayotgan qarorlar asosida bugungi ta‘lim jarayoniga menejerlik qilaman degan har bir iqtidorli shaxs o‘zining kasbiy kompetentligiga tayangan holda, rahbarlik ishlarini tashkil qilishi lozim. Umuman olganda, ta‘lim muassasalaridagi muvaffaqiyatlar rahbarning ijrochilar mehnatiga bo‘lgan munosabatlaridan qanchalik manfaatdorliklarni anglata olish qobiliyatiga bog‘liqdir.

Zamonaviy menejerning muhim bo‘lgan boshqaruv maqsadi o‘z xodimlarini axloqiy hamda yuksak darajaga ko‘tarishi ularni ma‘naviy jihatdan sog‘lom jamoaga aylantirishdan iboratdir. Umuman olganda, ta‘lim muassasasidagi muvaffaqiyatlar rahbarning ijrochilar bo‘lgan munosabatidan qanchalik manfaatdorligini anglata bilish qobiliyatiga bog‘liqdir.

Har qanday boshqaruv ushbu jarayonning mukammal tarzda tashkil etish ehtiyojini sezadi. Shu maqsadda, tuzilma mas‘ul bo‘lgan boshqaruvchiga ega bo‘lishi lozim. Tashkilotni tuzilma sifatida o‘rganar ekanmiz, uning rahbari boshqaruvning aynan ikki asosiy funksiyasini ta‘minlovchi shaxs sifatida tushuniladi.

Tashkilot miqyosida bularni tahlil qilganimizda yuqorida qayd etilgan asosiy funksiyalar quyidagicha ifoda etilib boriladi:

Maqsadga yo‘naltiruvchi funksiya – tashkilotni ma‘lum bir maqsadga olib boruvchi vazifalarni mujassamlashtirib boradi.

Tashkiliy funksiya – Tashkilot turli bo‘limlaridagi mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar bajarishi zarur bo‘lgan asosiy funksiya hamda vazifalar tasviriy ravishda quyidagicha ifodalanishi mumkin:



1-rasm. Boshqaruv funksiyalari va uning tarkibiy qismlari

Ularning har biriga izoh keltirar ekanmiz, shuni qayd etish lozimki, rahbarlikning asosiy maqsadi, ushbu vazifalar o‘rtasida mutanosiblik va uyg‘unlikka erishish va shu orqali tashkilot butunligini ta‘minlashdir.

Bugungi talabalarda kreativlikni shakllantirish uchun bugungi vaqtdagi pedagog namunaviy intellektga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosida o'z kasbi bilan bog'liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ham ega bo'lmog'i lozim.

Shu munosabat bilan bugungi vaqtda boshqaruvda qatnashuvchilarga ya'ni o'qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini yetarli darajada o'zlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;
- o'z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;
- o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;
- o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim [4].

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog-o'qituvchi o'zining butun bilim va tajribasini ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirishi bu bugungi kunning muhim hamda dolzarb masalasidir. Shu nuqtayi nazardan talabalarda rahbarlik qobiliyatini rivojlantirishda hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda o'qitish va tayyorlash oliy ta'lim tizimiga qo'yiladigan muhim vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kenjaboyev A, Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Termiz. 2022 yil. 100 bet.
2. Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2020. № 10. 83-bet.
3. Kenjaboyev A.E. “Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi –bugungi kun talabidir”. Xalq ta'limi jurnali 2020-yil № 5.9-11 bet.
4. Musurmanova O. “Pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligi omili”. T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020-yil 56-bet.
5. Nosirov A. Rahbarning kasbiy kompetentligi va boshqaruv madaniyat ta'lim menejmenti jurnali. 2013-yil №6, 2 bet.
6. Temirov D. Ta'lim muassalarini boshqarishda pedagogik tamoyillar uzviyligi. Ta'lim menejmenti jur 2013-yil №6. 95-96 betlar.

#### **ZAMONOVIIY TA'LIM TIZIMIDA TALABANI MUSTAQIL LABORATORIYA ISHLARINI BAJARISHDA MAVJUD ZIDDIYATLAR**

**Ung'arov Jahongirbek Yo'ldosh o'g'li  
Jizzax Politexnika instituti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonoviy ta'lim tizimida talabani mustaqil fikrlashga o'rgatish, nazariy jihatdan oligan bilimlarni amalda qo'llash va talabani mustaqil tayyorlashning muhim xususiyatlari, zamonaviy pedagogik texnologiya, talaba kreativ faoliyatini rivojlantirish nazariyasi, uning mazmuni va mohiyati, talaba kreativ faoliyatini loyihalashdagi nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalari keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье в современной системе образования обучение учащегося самостоятельному мышлению, практическое применение теоретически полученных знаний и важные особенности самостоятельной подготовки учащегося, современные педагогические технологии, теория развития творческой активности учащихся, ее содержание и сущность, теоретические знания по проектированию творческой деятельности учащихся, практические навыки и квалификация.

**Abstract.** In this article, in the modern education system, teaching a student to think independently, the practical application of theoretically acquired knowledge and the important features of independent training of a student, modern pedagogical technology, the theory of the development of student creative activity, its content and essence, theoretical knowledge in the design of student creative activity, practical skills and qualifications are presented.

**Kalit soʻzlar:** taʼlim, tizim, laboratoriya, pedagogik, texnologiya, nazariy bilim, mustaqil, axborot, kommunikatsiya, shakl, metod, yoʻl, vosita.

Ключевые слова: образование, система, лаборатория, педагогический, технология, теоретические знания, самостоятельный, информация, общение, форма, метод, способ, инструмент.

**Key words:** education, system, laboratory, pedagogical, technology, theoretical knowledge, independent, information, communication, form, method, way, tool.

Hozirgi zamonoviy taʼlim tizimida talabani mustaqil fikrlashga oʻrgatish, nazariy jihatdan olingan bilimlarni amalda qoʻllash va laboratoriya mashgʻulotlarini bajarishda faol boʻlish talab qilinadi [1].

Talabaning fanlardan laboratoriya ishlarini bajarishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilinsa maqsadga muvoffiq boʻlar edi:

laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talabaning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

talabalar oʻrtasida laboratoriya ishlarini bajarish jarayoni mohiyatini ochib berish, aniqrogʻi uni ilmiy asoslashga bagʻishlangan seminarlarni tashkil qilish;

talaba tomonidan laboratoriya ishlarini bajarish jarayoniga fan, texnika yangiliklarini joriy etishning ilmiy asoslarini chuqur va puxta oʻzlashtirishga erishish;

laboratoriya ishlarini bajarishda talabaning mustaqil bilishini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni hamda amaliy koʻnikma va malakalarni shakllantirish;

laboratoriya ishlarini bajarish jarayonidagi talabaning mustaqil bilish faoliyatini baholash;

laboratoriya ishlarini bajarishda talabaning ijodiy ishlash mahoratini oshirish va talabaning mustaqil bilish faoliyatiga doir samaradorligini taʼminlash.

laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talaba kreativ faoliyatiga tayyorlashda quyidagi prinsiplarga eʼtibor qaratish:

zamonaviy pedagogik texnologiya, talaba kreativ faoliyatini rivojlantirish nazariyasi, uning mazmuni va mohiyati, talaba kreativ faoliyatini loyihalashdagi nazariy bilimi, amaliy koʻnikma va malakalarini rivojlantirish;

laboratoriya ishlarini bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiya va axborot –kommunikatsiya texnologiyalari va yangi texnik vositalardan samarali foydalanish;

oʻqituvchida talabalar jamoasi bilan muvaffaqiyatli muloqotni tashkil etish, talabada mustaqil bilish boʻyicha ijodiy yondashuvni shakllantirish;

psixologik, pedagogik vaziyatlar yaratish, ularni toʻgʻri baholay olish, ularga muvofiq xatti-harakatni tashkil etish;

talabaning mustaqil bilish faoliyati mazmuni hamda taʼlim sifati samaradorligini oshirishning shakl, metod, yoʻl va vositalarini koʻrsatish;

laboratoriya ishlarini bajarishda, eng avvalo, uning loyahasini ishlab chiqish;

talabaning mustaqil bilish faoliyatini nazorat qilish, uning nazariy bilimi, amaliy koʻnikma va malakalarini baholash hamda taʼlim jarayoni mazmuni va sifati samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi dasturlarni ishlab chiqish.

laboratoriya ishlarini bajarishda talabani mustaqil bilish faoliyatga tayyorlashda har bir imkoniyatni samarali ishlashga ahamiyat berish, buning uchun laboratoriya ishlarini bajarishda talabaning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish lozim [2].

Fanlardan laboratoriya ishlarini bajarishda talabaning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning bugungi kundagi muammolari quyidagilardan iborat:

laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talaba mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik tizimi ishlab chiqilmaganligi;

talabada motivatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladigan o'quv-metodik majmualar yaratilmaganligi;

laboratoriya ishlarini bajarishni mustaqil bajara olishi va talabani rivojlantirishning metodlari yo'lga qo'yilmaganligi;

laboratoriya ishlarini bajarishda mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning zamon talablariga javob bera olmasligi.

Fanlardan laboratoriya ishlarini bajarishda talaba mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga tayyorlash muammosining amaliyotdagi holatini yaxshilash zarurligidan dalolat beradi. Buning uchun quyidagi vazifalarni bajarish talaba mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishda imkoniyatlar paydo bo'ladi:

1. Laboratoriya ishlarini bajarishda talabaning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

2. Laboratoriya ishlarini bajarishda talaba mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metodlarni, yo'l va vositalarni aniqlab olish.

3. Laboratoriya ishlarini bajarish orqali talaba mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish ko'rsatkichlarini aniqlash.

4. Laboratoriya ishlarini bajarishda talaba mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yangi texnik vositalaridan foydalanish.

Laboratoriya ishlarini bajarishda talaba mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonida uning oldiga qo'yilgan amaliy topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish keyingi bosqichlarni amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi [3]. Laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talaba **mustaqil bilish faoliyati davriyligi** o'zining murakkabligi bilan talaba ongiga va faoliyatiga doir ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligiga amal qiladigan ikki xil ziddiyat mavjud:

1. **Salbiy ziddiyat.** Ziddiyatning bu turi yangi laboratoriya ishlarini bajarish vaqtida bartaraf etilishi zarur bo'lgan ziddiyat. Chunki ular talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligining nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirilishining ongli kechishiga to'sqinlik qiladi.

2. **Ijoby ziddiyat.** Laboratoriya ishlarini bajarishda talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligining ma'lum bir qonuniyatga ko'ra, harakat qilishi uchun zarur bo'lgan ziddiyatlar. Ziddiyatning bu turi bartaraf qilib bo'lmaydi. Aksincha, ular talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligi jarayonida maxsus metodlar orqali faollashtiriladi.

Talaba mustaqil bilish faoliyati rivojlanishidagi ziddiyatlar sifatida sezish, ularni hal qilishga intilish talabani mustaqil fikrlash, tafakkur va xotiraga zo'r berish va masalani hal etishga etaklaydi.

Ba'zi tadqiqot ishlarida maqsad, vosita, natija toifalariga tayanib, talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligini asoslashga harakat qilinadi.

“Didaktika” ta'limida talaba mustaqil bilish faoliyati jarayoni akt, bosqich, davrlardan iborat.

Akt - talaba mustaqil bilish faoliyati jarayonining eng kichik birligi. Talaba mustaqil bilish faoliyati jarayoni aktlari rivojlanib, talaba mustaqil bilish faoliyati bosqichlariga, bosqich esa taraqqiy etib, talaba faol davrlariga aylanadi va davriy harakatini ikki yo'l bilan tavsiflash mumkin. Umumiydan xususiyga qarab borish yo'li bilan talaba mustaqil bilish faoliyati hodisalari bayon qilinadi. Bu yo'l bilan talaba mustaqil bilish faoliyati jarayoni o'rganilganda umumiy tasavvurdan uning akt, bosqich, davrlariga qarab boriladi. Talaba mustaqil bilish faoliyatini shu tarzda o'rganish an'anaviy yo'l bo'lib, unda talaba mustaqil bilish faoliyati jarayoni aktlarining rivojlanib, talaba mustaqil bilish faoliyati bosqichiga aylanishini kuzatish ancha murakkab kechadi.

Laboratoriya ishlarini bajarishda talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligi jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning hozirgi an'anaviy amaliyoti mazkur yondashuvga binoan shakllangan bo'ladi. Talaba mustaqil bilish faoliyati natijasi, uning darajalarini aniqlash chegaralari ham ma'lum emas. Xususiyan umumiyga qarab borish yo'li bilan talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligi bayon qilinadi. Bu yo'l bilan laboratoriya ishlarini bajarishga amal qiladigan talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligini kuzatish ma'lum darajada engillashadi.

Talaba mustaqil bilish faoliyati akti va bosqichlarining takomillashib borishi, talaba mustaqil bilish faoliyati davriga aylanishi talaba faoliyatining har bir davrida erishilgan natijalarni qayd etish imkoniyatini oshiradi.

Laboratoriya ishlarini bajarishni shu metod asosida bajarishni tashkil etish natijasida pedagogik amaliyotni asoslashga zamin yaratiladi. Laboratoriya ishlarini bajarishda talaba mustaqil bilish faoliyati davriyligi ikki xil sub'ekt - o'qitish va o'qish faoliyatining o'zaro ta'siri sifatida ajratiladi. Bu metodni tanlashda qator didaktik olimlarning ilmiy izlanishlari tadqiqot uchun asos bo'lib xizmat qiladi [4].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shertaylaqov G'.M. O'lchashlarning fizikaviy asoslari. //Darslik. – Jizzax, 2023.
2. Razumovskiy V.G. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish. O'quv qo'llanma. –T.: 1998.
3. Kamolxo'jaev SH.M. Texnika oliy o'quv yurtlarida tabiatshunoslik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2003.
4. Matyushkin A.M. Problemnye situatsii v myshlenie i obuchenie. – M.: Pedagogika.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIVQIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH.**

**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Muratova Dilarom Erkin qizi.  
+998885651208**

**Annotatsiya.** Maqolada turli olimlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qiziqishlari mavzusidagi tadqiqotlari ko'rib chiqiladi. O'yin orqali o'rganishning yosh bolalarning kognitiv rivojlanishini rag'batlantirishda muhim roli Platon, F. Frebel, A. Gesell kabi ilknazariyotchilar, pedagoglar va tadqiqotchilar va keyinchalik J.P. Piajeval.S. Vygotskiylar ilmiy izlanishlarida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tadqiqot, maktabgacha ta'lim, o'zaro ta'sir, ko'nikmalar, o'yin, kognitiv qiziqish, o'yin orqali o'rganish.

So'nggi yillarda ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin va bolaning faol bo'ladigan joylarga sarflanadigan vaqti kamaydi. Darhaqiqat, maktabga tayyorgarlik tobora ko'proq ustuvor bo'lib borayotganligi sababli, o'yinning ahamiyati ba'zi tarbiyachilar, maktabgacha ta'lim dasturlarini ishlab chiquvchilar va siyosiy rahbarlar, shuningdek, keng jamoatchilik tomonidan o'rganib chiqilmoqda. Ushbu maqolaning gipotezasi shundan iboratki, o'yin orqali o'rganish yosh bolalarda kognitiv qiziqishni, xususan, kognitiv rivojlanish uchun zarur bo'lgan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ajoyib muhitni ta'minlaydi. Kognitiv rivojlanishda o'yinning roli bo'yicha tadqiqot natijalari xilma-xildir. O'yinning ta'lim vositasi sifatidagi roli XX asrning boshlarida maktabgacha ta'lim dasturlari yaratilganidan beri ko'plab maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachilari tomonidan ilgari surilgan. Biroq yosh bolalarda kognitiv rivojlanishni rag'batlantirishda o'yin orqali o'rganishning o'rni doimo muhokama qilingan, ayniqsa o'qish va matematika kabi muayyan fanlarda o'z aksini topgan.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limga qaratilayotgan e'tibor maqtovga loyiq va ko'proq bolalar qatnashishi mumkin bo'lgan maktabgacha ta'lim dasturlarini moliyalashtirishning ko'payishiga olib kelgan bo'lsa-da, hozirgi maktabgacha ta'lim tarafdorlari har doim ham maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyotiga tayanmaydilar. Pedagog-tarbiyachilar o'ta qiyin tuzilgan mashqlarga shunday

qaraydilar. Bu fikr, ayniqsa, kognitiv qiziqishni rag'batlantirishda o'yinning o'zni haqidagi munozaralar uchun muammoli, chunki o'yin odatda bola tomonidan boshlangan ta'lim turlarini o'z ichiga oladi, ularning miqdorini aniqlash murakkabligi bildiradi.

O'yin va kognitiv qiziqish o'rtasidagi munosabat turli usullar, jumladan, kuzatuv tadqiqotlari, eksperimental tadqiqotlar va o'z-o'zidan hisobot ma'lumotlarini yig'ish orqali baholandi. Biroq, ko'pchilik o'yin tadqiqotlari, shu jumladan, o'yin va idrok o'rtasidagi mumkin bo'lgan bog'liqlik bo'yicha tadqiqotlar minimal o'rin egalladi: u kichik miqyosda, qisqa muddatda va umuman takrorlanmasdan amalga oshirildi. Natijada, o'yin orqali o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar juda ishonarli va tahlil qilingan turli xil o'zgaruvchilarga (ko'p sonlarda) va tadqiqotchilar duch keladigan qiyinchiliklarga qarab natijalar aralashmasini taqdim etdi. Maktabgacha ta'lim dasturlarida o'yin uchun sarflangan vaqtni asoslash zarurati tufayli tadqiqotchilar simulyatsiya, o'yin va o'yinchoq yasashning tilni o'zlashtirish, o'qish va matematika va boshqa kognitiv qobiliyatlar kabi o'rganishning ayrim turlariga ta'sirini o'rganishga harakat qilishdi. Ijro etuvchi funktsiya, ijodkorlik, ijtimoiy va axloqiy rivojlanish va aql nazariyasi kabi ko'nikmalar (ya'ni, o'z ruhiy holatlarini tushunish va boshqa odamlar ruhiy holatlarni o'zlariga o'xshash yoki boshqacha tasavvur qilishlarini tushunish qobiliyati) bilan asoslanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar ushbu muammolarni o'rganib chiqdilar va o'yinga asoslangan ta'lim usullari bilan bog'liq turli xil intellektual ishlanmalar haqida izlanib ko'rdilar.

Akademik ko'nikmalarining har xil turlari nuqtayi nazaridan, maktabgacha yoshdagi bolalarning yozishni o'rganishda o'yin rolining yaxshi misollari tasvirlangan. Ushbu tadqiqotlar savodxonlik materiallari bilan bog'liq bo'lgan o'yin faoliyatida ishtirok etadigan bolalar uchun o'rganish masalasida juda ko'p ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Bunday ko'nikmalarni egallash uchun bola va material o'rtasidagi o'yinli o'zaro ta'sirlar fazoviy va vaqtinchalik o'lchamlarni sanash, tasniflash va tushunish kabi turli xil matematik ko'nikmalarni rag'batlantirishi mumkin. Bundan tashqari, o'yinli matematik faoliyat fikrlashning "markaziy kontseptual tuzilmalari" ning yaxshilangan rivojlanishi bilan bog'liq. Boshqa tadqiqotchilar o'yin orqali aql nazariyasining yaxshilanishi haqida xabar berishdi va simulyatsiya qobiliyatlari va aqliy qobiliyatlar nazariyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdilar, garchi ular yosh bolalar simulyatsiyani aqliy faoliyat sifatida ko'rishlarini aniq tekshirmaganlar.

O'z navbatida, muammolarni o'yin orqali hal qilishni o'rgangan Uayver va Spens hamkorlik va muammolarni hal qilishni talab qiladigan o'yinlar o'rtasidagi bir tomonlama emas, balki o'zaro munosabatlarni ta'kidladilar. Ushbu tadqiqotlarning barchasi faoliyatni "o'yin" deb tasniflagan bo'lsa-da, ularning aksariyati bola emas, balki kattalar tomonidan nazorat qilingan. Bundan tashqari, ko'pchilik o'yin tadqiqotlari qisqa muddatda olib boriladi va uzoq muddatda kognitiv yutuqlar bilan bog'liq natijalar ko'pincha noaniq yoki yetishmayotgan bo'ladi. Asoslangan tadqiqotlar ba'zi munosabatlarni aniqlash imkonini berdi. Misol uchun, R. Volfgan, qiyin kub o'yinlarida qatnashadigan maktabgacha yoshdagi bolalar matematika qobiliyatlaridan uzoq muddatli foyda olishlarini aytdi. Bergen va Mauer, o'z navbatida, savodxonlik materiallari bilan tez-tez o'ynaydigan maktabgacha yoshdagi bolalar 5 yoshida bloklar bilan "qurilish faoliyati" paytida o'z-o'zidan quruvchilarga aylanish ehtimoli ko'proq ekanligini ta'kidladilar.

Devis va Bergen maktab yoshidagi bolalarning erta o'yin faoliyati haqida o'z-o'zidan xabar bergan xotiralarini o'rganishda, o'yinda ishtirok etish va o'yinda ishtirok etish haqidagi yuqori hisobotlar kattalar darajasidagi yuqori axloqiy fikrlash ko'rsatkichlari bilan sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatdi. Qizig'i shundaki, Root-Bernshteynning ta'kidlashicha, ijodkorlik uchun Mak Artur mukofoti sovrindorlari erta bolalik davrida "kichik dunyolar" yaratish orqali yuqori darajadagi modellashtirishni namoyish etishgan. O'yinga asoslangan ta'lim va o'yin orqali kognitiv rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar kamida to'rta sababga ko'ra ko'plab cheklovlarga ega. Birinchidan, o'yinga asoslangan ta'limning ta'rifi tarbiyachilar va tadqiqotchilar orasida farq qiladi, shuning uchun o'yin tajribasi uzunligi, o'rganish miqdori va kattalarning o'zaro ta'siri va materiallarning mavjudligi bilan farq qilishi mumkin. Tarbiyachi-pedagog yoki tadqiqotchi buni "o'yin orqali o'rganish" deb atashi mumkin, ammo bu bir kishidan boshqasiga sezilarli darajada farq qilishi mumkin. "O'yinga asoslangan" deb nomlangan o'quv dasturlari ko'pincha o'qituvchi tomonidan boshqariladi va mustaqil o'yin faoliyati uchun vaqt qisqaradi. Ikkinchidan, o'yinga asoslangan ko'plab tadqiqotlar aqliy rivojlanishning boshqa turlarini rag'batlantirishda o'yinning roliga emas, balki faqat maktabgacha ta'lim tashkiloti

ko'nikmalarini o'rganishga qaratilgan. Uchinchidan, ko'pchilik tadqiqotlar kognitiv taraqqiyotni o'lchash uchun kamida maktabgacha bir yil bo'lishi kerak bo'lgan qisqa muddatda o'tkaziladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ammo uzoq muddatli tadqiqotlar bilan umumiy rivojlanishning ba'zi omillari kognitiv rivojlanishga ta'sir qilishi mumkin. Va nihoyat, barcha tadqiqotchilar maktabgacha tashkilotlarida ota-onalar faoliyati va rivojlanishining uyg'unligi muhimligini ta'kidlaydilar.

So'nggi 75-100 yil ichida G'arbda maktabgacha ta'lim darajasida o'yinlar orqali o'rganishga qiziqish va qo'llab-quvvatlash faol rivojlandi, ammo diqqatni jamlash asosan maxsus ma'lumotlarga qaratildi. Bolalar o'yinlari uchun kuchli qo'llab-quvvatlash va hozirgi qiziqishlar juda istiqbolli o'rin egalladi. Yosh bolalarda o'yin nafaqat muayyan akademik ko'nikmalar bilan bog'liq, balki rivojlanishning ko'plab jihatlarini mustahkamlash uchun muhimdir va shuning uchun o'yinni o'rganishni o'rganish asosan nazariy va ilmiy jihatdan qat'iy bo'lishi kerak. U mustaqil o'yin tahlilini va kattalar boshchiligidagi o'yin tajribasini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Bunda ilmiy tadqiqotlar ham talab etiladi. Barcha xizmat va siyosat guruhlari tomonidan qabul qilingan qarorlar o'yinni va uning yosh bolalarning kundalik hayotidagi muhim rolini chuqur tushunishga asoslangan bo'lishi kerak. Ota-onalar, ayniqsa, yosh bolalarining o'yin o'ynash vaqtini, ayniqsa, elektron qurilmalar bilan o'ynashlarini kuzatishda ehtiyot bo'lishlari va ularning an'anaviy jihozlar bilan o'ynashlarini ta'minlashlari kerak. O'yin orqali o'rganish erta bolalik davridagi ta'limning muhim jihati bo'lsa-da, u nafaqat bolalarning maktabda o'zlashtirgan ko'nikmalari nuqtai nazaridan, balki o'z-o'zini boshqarish, hissiy nazorat, ijro etuvchi funksiyalar va ijtimoiy tushunishni o'rganishni qo'llab-quvvatlashda ham qadrlanishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Meyliyevna B. M. The development of cognitive interests in older Preschoolers in the process of getting acquainted With nature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. –2022. –T. 12. –No. 4. –C. 121-128.

2. Meyliyevna B. M. THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE INTERESTS IN OLDER PRESCHOOLERS IN THE PROCESS OF GETTING ACQUAINTED WITH NATURE. 3. Meyliyevna B. M. The quality of preschool education at the present stage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. –2021. –T. 11. –No. 10. –C. 2267-2271.

3. Berdiyeva M., Bo, Ranova S. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari //Science and Education. –2021. –T. 2. –No. 4. –C. 425-429.

4. Бердиева М. М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРЕДМЕТНО-ПРОСТРАНСТВЕННОЙ РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ ДОШКОЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. –2018. –С. 156-159.

5. M. Berdiyeva ITELLECTUAL DEVELOPMENT IN PRESCHOOL EDUCATION- Applied Science, 2020-elibeary.ru

6. M. Berdiyeva S. Bo'ronova "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish metodi orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari" Science and Education 2021.

7. BM Meyliyevna "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari" Научно-практическая конференция, 2021.

#### **СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ**

**Ходжаева Дилноз Джумоевна**  
**Докторант кафедры психологии УзМУ**

**Аннотация.** В данной статье описано влияние учебной мотивации на процесс обучения студентов и работа психологов по определению ее места в образовании. Кроме того, отдельно раскрывается роль мотивов в обеспечении эффективности образования.

**Ключевые слова:** мотивация, образовательный процесс, внутренний мотив, внешний мотив, приобретение, эмоциональный компонент, подростковый период.



**Abstract.** This article describes the impact of educational motivation on the learning process of students and the work done by psychologists to determine its place in education. In addition, the role of motives in ensuring the effectiveness of education is revealed separately.

**Key words:** motivation, educational process, internal motive, external motive, acquisition, emotional component, adolescence period.

Мотивация является одной из основных составляющих учебной деятельности и является решающим фактором эффективности учебного процесса. Процесс учебной деятельности в целом и ее мотивация интересовали многих ведущих отечественных педагогов и психологов.

Ведущие специалисты в области педагогической психологии подчеркивают важность обращения к источнику внутренней учебной мотивации студента при построении эффективного учебного процесса (П. Я. Гальперин, В. В. Давыдов, А. К. Маркова, А. И. Подольский, Н. Ф. Талызина, Г. А. Цукерман, Д. Б. Эльконин).

Использование образовательных технологий, основанных на понимании механизмов работы мотивационных компонентов образовательного процесса, позволяет существенно повысить эффективность образовательного процесса. В частности, локальные технологии инновационного обучения, построенные на основе теории постепенного формирования мыслительных действий и понятий, теории развивающего обучения В.В.Давидова и Д.Б.Эльконина, имеют значительный потенциал для более эффективного внедрения в образовательную практику. В то же время такая рефлексия затруднена главным образом из-за того, что не развита система представлений о полноценном функционировании учебной мотивации, приводящей к учебным достижениям и не препятствующей психологическому благополучию учащихся.

Существует два типа мотивации: внешняя мотивация и внутренняя мотивация. Мотивация является внешней, если в основе любой деятельности, направленной на получение ресурсов, лежит мотив, не связанный с самой деятельностью. В отличие от внешней мотивации, внутренняя мотивация любой деятельности - радость, вдохновение, удовольствие и собственные действия. рассматривается как непереносимое условие. удовлетворения. Внутренняя мотивация является результатом взаимодействия человека и его окружения и неразрывно связана с самой деятельностью [2, с. 69].

В основе внутренней мотивации обучения лежит познавательный интерес, связанный с изучаемым предметом, а обучение является не средством достижения других целей, а целью деятельности обучающегося [3, с.76].

М.В.Матюхина выделяет следующие виды мотивов по отношению к учебной деятельности:

1. Мотивы, основанные на самом процессе учебной деятельности. В этом случае учащиеся стремятся познать новое, им интересно понять суть явлений и закономерностей изучаемого предмета. В процессе обучения студенты проявляют инициативу, интеллектуальную активность, преодолевают трудности при решении сложных задач.

2. Мотивы, выходящие за рамки учебной деятельности. Такими мотивами могут быть:

➤ социальные мотивы (ответственность перед обществом, чувство долга перед родителями и учителями);

➤ самоопределение в выборе будущей профессии и мотивации, связанной с развитием личности в результате обучения;

➤ индивидуальные мотивы, такие как желание получить одобрение друзей и занять достойное место.

➤ избегание проблем, причин недовольства со стороны учителей, родителей [4, с.89].

Если принять во внимание особенности мотивации в подростковом возрасте, то подросткам свойственна повышенная познавательная мотивация, стремление решать сложные задачи, выходящие за рамки школьной программы, а также значимость знаний для их будущей карьеры и личности. жизни» [6, с.78].

Важную роль играет и эмоциональная составляющая мотивации, которая во многом зависит от оценки его учебной деятельности взрослыми и его отношений с учителями во время школьных занятий. В подростковом возрасте самооценка начинает играть доминирующую роль, и если внешняя оценка и внутренняя оценка себя не совпадают, то возникающий конфликт окажет негативное влияние на эмоциональную жизнь подростка, как следствие, оказывают негативное влияние на мотивацию обучения [6, с.105].

По мнению А. Н. Леонтьева, задача поиска смысла становится актуальной в подростковом возрасте. Это означает, что подросток часто пытается расширить свои интересы, что может привести к поверхностности и рассеянности в процессе учебной деятельности. К концу подросткового возраста у подростка формируется иерархия мотивов, и, как правило, ведущим становится один или несколько мотивов [5, с.44].

Современные исследования показывают, что внутренние мотивы учебной деятельности (восприятие, успех, саморазвитие) связаны с учебной деятельностью. При этом поддержка и заинтересованность родителей и педагогов во многом способствуют выражению внутренних мотиваций подростков. Внешние личностные мотивы (мотивация самоуважения и регуляции поведения) также важны и помогают выбирать эффективные стратегии учебного поведения, внешние межличностные мотивы (мотивация уважения, чувства долга) не продуктивны и в конечном итоге имеют негативное влияние на образование и последующую профессиональную мотивацию [1, с.89].

Исследования Т.О.Гордеевой показывают, что на занятиях, где познавательный мотив стал ведущим мотивом обучения, формируется положительное отношение школьников к учебе в школе. Источниками познавательной мотивации являются удовлетворение потребностей в самостоятельности, компетентности и принятии в процессе обучения.

Стимулирование и развитие мотивации учебной деятельности зависит также от учебного материала, адекватных методов его подачи и организации обучения. Создание условий для успеха в процессе учебной деятельности способствует развитию мотивации учебной деятельности у школьников-подростков. Эксперименты О.И.Ларионова показали, что гуманистические стандарты обучения (создание доверительного общения, дружеского отношения, личного вклада, обоснование значимости навыков) способствуют повышению уровня мотивации подростков [2, с.71].

Таким образом, мотивация оказывает наибольшее влияние на эффективность учебного процесса и определяет успешность учебной деятельности. Отсутствие мотивации к учебе неизбежно приведет к снижению успеваемости.

#### **Литературы:**

1. Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирование личности. – М., 1976.
2. Варганова И.И. Проблема мотивации учебной деятельности // Вестн. моск. ун-та. Сер. 14. Психология. 2000.
3. Зимняя А.А. Педагогическая психология. – М., 2004.
4. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб., 2004.
5. Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности. – М., 2001.
6. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. – М., 2003.

# MUSTAQILLIK YILLARIDA ILM-FAN, TEXNIKA SOHASIDAGI YUTUQLARDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

D.M.Ro‘ziyeva

NavDPI Tarix kafedrası dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan, texnika, sohasidagi yutuqlari, ayniqsa, Navoiy viloyatidagi xotin-qizlarning ilmiy-tadqiqot ishlari, aniq va texnik fanlar yo‘nalishida ularning salmog‘ining kengayishiga shart-sharoitlarni yartilishiga doir ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ilm-fan, texnika, ta‘lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmiy-innovatsion integratsiyasi, ilmiy-tadqiqot, “Ilm yulduzlari”, “Olima” uyushmalari, Ixtirochi ayollar uyushmasi.

**Аннотация.** В этой статье представлена информация о достижениях женщин в науке, технике, промышленности в Узбекистане в годы независимости, в частности, о научно-исследовательской работе женщин в Навоийской области, создании условий для увеличения своего веса в области точных и технических наук.

**Ключевые слова:** Наука, техника, образование, информационные и коммуникационные технологии, научно-инновационная интеграция, ассоциации “звезды науки”, “ученые”, Ассоциация женщин-изобретателей.

**Abstract.** This article provides information about the achievements of women in science, technology, and industry in Uzbekistan during the years of independence, in particular, about the research work of women in the Navoi region, creating conditions for increasing their weight in the field of exact and technical sciences.

**Key words:** science, technology, education, information and communication technologies, scientific and innovative integration, associations of “stars of science”, “scientists”, Association of Women Inventors.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishni uzviy aloqadorligini ta‘minlagan holda, ular integratsiyasini kengaytirish, ilmiy-innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, zamonaviy jamiyatda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ilm-fan va ishlab chiqarish sohaslarini ilmiy-innovatsion integratsiyasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bu borada huquqiy asoslar shakllantirilgan.

Xususan, 2019-yil 29-oktyabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonun[1] ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida yana muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur Qonun ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalar, fan va ilmiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Bugungi globallashuv sharoitida ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda ziyoli, olima xotin-qizlar ham faol ishtirok etishmoqda.

Ma‘lumki, oliy ta‘lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilar tarkibida 43 foiz, turli ilm-fan va texnika sohaslarida 600 dan ortiq fan doktori, qariyb 4780 nafar fan nomzodi, 8 nafar akademik samarali mehnat qiladi[2].

Ularning zamonaviy, yuqori texnologiya tarmoqlaridagi, ya‘ni avtomobilsozlik, mikrobiologiya, farmatsevtika, elektronika va elektrotexnika sanoati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimida ulushi o‘sib bormoqda[3]. Bu esa olima ayollarning ilm-fan va texnika sohasidagi ishtiroki uchun yaratilgan keng imkoniyatlar samarasidir.

2018-2019 o‘quv yilida respublika oliy ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar 11857 nafarni tashkil etgan. Mazkur professor-o‘qituvchilarning jinsi bo‘yicha 43,2 foiz ayollar va 56,8 foizi erkaklar hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar Navoiy viloyatida 2021-yilda 296 nafarni tashkil etgan[4].

Ayol fan doktorlari ko'rsatkichi esa viloyatda 2020-yili 4 nafarni tashkil etgan [5]. Viloyatdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-amaliyoti ishlarini bajargan ayollar soni 2020-yil 463 nafarni tashkil etgan[6].

Shuningdek, xotin-qizlar orasida ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlar orqali innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini chop etish, ayniqsa, yosh tadqiqotchilar o'rtasida "Ilm yulduzlari" intellektual ko'rik-tanlovini tashkil etish orqali ular iqtidorini rivojlantirish va ommalashtirish, g'oliblarni munosib taqdirlash, yosh olimlarga ko'maklashish kabi xayrli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

2014-yil 25-sentyabrda Davlat va nodavlat tashkilotlarni "Ijtimoiy sherikchilik[7] to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni amaldagi ijrolaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi yordamida respublika oliy o'quv yurtlarining "Olima" uyushmalari raislari tayinlandi. Uyushma tomonidan mazkur tizim orqali respublika viloyatlaridagi olimlar bilan qator samarali tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar, seminar-treninglar, dolzarb ilmiy va amaliy mavzulardagi uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda[8].

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan olim ayollarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, innovatsion ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etishga ko'maklashish, ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish, intellektual mulk egalaring huquqlarini himoyalashga doimiy e'tibor qaratib kelindi. 2017-yil 15-sentyabr kuni Qo'mita qoshida turli sohada faoliyat yuritayotgan va iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston ixtirochi ayollari uyushmasi tashkil etildi.

Ixtirochi ayollar uyushmasi iqtidorli xotin-qizlarning fan va texnika taraqqiyotining barcha yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llanishini har tomonlama rag'batlantirib va ko'maklashib keldi.

O'zbekistonda ilm-fan bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar safi tobora kengayib bormoqda: 6 akademik, 600 dan ziyod fan doktori, qariyb 5 ming fan nomzodi ilm-fan va ishlab chiqarishning turli sohalarida samarali mehnat qilmoqda. Bu ko'rsatkich 1995-yilda 200 nafarga yaqin fan doktori, 2900 nafar fan nomzodi, 2 nafar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, 9 nafar muxbir a'zosini tashkil etgan. Jami 16300 nafardan ortiq xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat yuritgan[9]. Keyingi yillarda aniq va texnik fanlar yo'nalishida ayollar ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa ularning fan va texnika sohasidagi salmog'i kengayishiga shart-sharoit yaratmoqda.

Bu borada Navoiy viloyat xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan "Ayollar-innovatsion rivojlanish tarafdori" mavzusidagi davra suhbatlari 2019-yil 13-sentyabr kuni Navoiy shahridagi Respublika biznes maktabi Navoiy mintaqaviy filialida, 29-oktyabrda esa Yangi Tomdi qo'rg'oni tumanida o'tkazilgan. 2019-yilda viloyat xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan siyosiy partiyalarning ijtimoiy, gumanitar, ma'naviy sohalar va jamiyatning intellektual rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalariga qaratilgan 61 ta davra suhbatlari o'tkazilib, unda 5133 nafar ayollar qatnashgan[10].

Bu kabi tadbirlar ayollar o'rtasida innovatsion loyihalar bo'yicha g'oyalarning shakllanishiga va ularning intellektual mulk egalari sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576 sonli Qonuni. 29.10.2019// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami 44 (908)-son 2019-yil 4 noyabr. Birinchi bo'lim, 826-modda, 10-bet.

2. Нишонава Н. Ўзбекистон аёлларининг ижтимоий-сиёсий фаоллиги//Марказий Осиё оlima аёлларининг илм-фан соҳасига қўшган ҳиссаси" мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. –Б. 208.

3. UNESCO Institute for Statistics-AIMS at UNESCO Bangkok// Women in Science. – Fact sheet. 2015. –№1. – 1-4 pp.; Нишонава Н. Ўзбекистон аёлларининг ижтимоий-сиёсий фаоллиги//Марказий Осиё оlima аёлларининг илм-фан соҳасига қўшган ҳиссаси" мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. –Б. 208.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2005-2020-yil ma’lumotlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2006-2020-yil ma’lumotlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2012-2020-yil ma’lumotlari.
7. Ижтимоий шериклик тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Тошкент., ЎРҚ-376-сон.// Халқ сўзи, 2014 йил 26 сентябрь.
8. Холбоев С., Иноятова Д. ва бошқалар. Миллий университетда кечган ҳаёт музмуни. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2015. – Б.86.
9. O‘zbekiston Milliy Arxivi, М-37 fond, 1-ro‘uxat, 2565-yig‘ma jild, 6-varaq.
10. Navoiy viloyat хотин-qizlar qo‘mitasi joriy arxivi, 2019-yil ma’lumoti.

## **ПРОБЛЕМЫ ОБРАЗНОСТИ, ЯСНОСТИ И ТОЧНОСТИ РЕЧИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ЧЕЛОВЕКА**

**Дерен Ибрахим Чокадир,**  
студент отделения русского языка и литературы,  
Университета Докуз Эйлюль, Измир, Турция  
Научный руководитель: Алиева Т.  
доцент Университета Докуз Эйлюль

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы оформления образности и ясности речи при изучении русского языка, как иностранного, анализируются возможности оформления грамотной и понятной речи. Для студентов, изучающих русский язык, как иностранный, вполне уместной будет работа над развитием речевой компетенции, расширение представлений о русском языке, о современной речевой ситуации, о речевом портрете современника. В этом плане, актуальными для речевого поведения становятся аспекты бытования русского слова, нормы русской речи, стилистические аспекты речевой культуры, основы речевой коммуникации.

**Ключевые слова:** культура речи, образность и эмоциональность, точность и соразмерность, ясность и уместность лексикона.

## **PROBLEMS OF IMAGERY, CLARITY AND ACCURACY OF SPEECH IN THE FORMATION OF HUMAN CULTURE**

**Deren Ibrahim Chokadir,**  
student of the Russian language and literature department,  
Dokuz Eylul University, Izmir, Türkiye  
Scientific supervisor: Alieva T.  
Associate Professor at Dokuz Eylul University

**Abstract.** The article discusses the problems of designing imagery and clarity of speech when studying Russian as a foreign language, and analyzes the possibilities of designing literate and understandable speech. For students studying Russian as a foreign language, it would be quite appropriate to work on developing speech competence, expanding their understanding of the Russian language, the modern speech situation, and the speech portrait of a contemporary. In this regard, aspects of the existence of the Russian word, norms of Russian speech, stylistic aspects of speech culture, and the fundamentals of speech communication become relevant for speech behavior.

**Key words:** speech culture, imagery and emotionality, accuracy and proportionality, clarity and appropriateness of vocabulary.

Значение культуры речи в жизни любого общества трудно переоценить. В наше время мы не можем оставаться равнодушными к угрозе оскудения языка, утраты им образности, эмоциональности и благозвучия, не смотря на то, к какой языковой группе и семье языков это относится. Для студентов, изучающих русский язык, как иностранный, вполне уместной будет

работа над развитием речевой компетенции, расширение представлений о русском языке, о современной речевой ситуации, которое невозможно без работы над языковой образностью речи. «Истинный вкус состоит не в безотчетном отвержении какого-то слова, какого-то оборота, а в чувстве соразмерности и сообразности» [2;312] - писал А.С.Пушкин, говоря о необходимости красивой, образной и стилистически правильной речи.

Точность издавна осознается как одно из главных достоинств речи. Уже в античных руководствах по красноречию первым и основным требованием, предъявляемым к речи, было требование ясности. Содержание, которое вкладывалось древними теоретиками в это понятие, во многом сходно с современными понятиями точности. Аристотель считал, что, если речь неясна, она не достигает цели. «Достоинство слога — быть ясным и не низким» [3;112]

Точность и ясность речи взаимосвязаны: точность речи, как правило, придает ей ясность, ясность речи вытекает из ее точности. Однако о точности высказывания должен заботиться говорящий (пишущий), а то, насколько ясно изложена мысль, оценивает слушатель (читатель). Мы облакаем свои мысли в слова. Как заметил В.Белинский, - «Слово отражает мысль: непонятна мысль — непонятно и слово» И в то же время «кто ясно мыслит, тот ясно излагает» [1;186]

Чтобы речь была точной, слова следует употреблять в полном соответствии с теми значениями, которые за ними закреплены в языке: слово должно быть адекватно выраженному им понятию. При четком выражении мысли слова полностью соответствуют своему предметно-логическому значению, а неправильный выбор слова искажает смысл высказывания. Мастера художественного слова настойчиво добиваются точности словоупотребления. Однако не всегда нам удается избежать лексических ошибок, которые лишают нашу речь точности. От этого не застрахованы даже опытные писатели.

Обычно можно найти немало стилистических вариантов для выражения мысли, но многие почему-то предпочитают не самый простой и ясный... Почему нас коробит, когда мы слышим: - «в этом доме со мной проживает известный артист»; «в данный момент я готовлюсь к экзаменам»? Это происходит потому, что выделенные слова не подходят для разговорного стиля речи, они придают ей канцелярский оттенок, лишая ее, естественности и простоты.

Стилистически не оправдано употребление книжных слов и в таких, например, репликах при устном общении: «Игорь мне сообщил, что за ним в садик придет бабушка; заводная обезьяна вышла из строя»

#### **Аннотация**

В этой статье представлены информации о международных оценочных программах EGRA и EGMA, а так же информации развивания самостоятельных мышлений учащихся начальных классов с помощью этих программ.

**Ключевые слова:** международные программы, самостоятельное мышление, рассуждение, EGRA, EGMA.

#### **Abstract**

This article provides information about the international assessment programs ERA and ENIGMA, as well as information on the development of independent thinking of primary school students using these programs.

**Keywords:** international programs, independent thinking, reasoning, EGRA, EGMA.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘shirish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta‘lim tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etadi.



Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ta'lim sifatini baholashning yangi shakllari qo'llanilmoqda. Bizning mamlakatimizda ham ta'lim sohasida xalqaro talabalarni baholash dasturlarining qo'llanilayotganini kuzatishimiz mumkin[1]. Ayniqsa, bugungi kunda mavjud xorijiy baholash dasturlarini tashkil etish va solishtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy talablarga javob beradigan tegishli milliy baholash tizimini ishlab chiqish xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlik ishlarini olib borish ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirda qo'llanilayotgan quyidagi xalqaro baholash dasturlari mavjud: PIRLS, PISA, TMMSS, TALIS, EGRA va EGMA [2]. **Hozirgi kunda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan.**

**EGRA** va **EGMA** - umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan ilmiy asoslangan modellarga tayanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi.

**EGRA (The Early Grade Reading Assessment)** baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat.

**EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment)** baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fandır.

**EGMA** bolalarning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko'nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo'naltiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda juda muhim.

**EGRA** xalqaro baholash dasturi butun dunyo bo'ylab o'quvchilarning savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholash va yaxshilash uchun mo'ljallangan keng qamrovli vositadir.

**EGMA** quyidagi: raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo'qolgan raqam); qo'shish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so'z muammolarini o'z ichiga oladi.

Standartlashtirilgan baholash va ma'lumotlarni yig'ish orqali dastur maqsadli tartiblarni xabardor qilish uchun ta'lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish va matematikaga e'tibor qaratgan holda, EGRA dasturi ta'lim natijalarini yaxshilash va turli kontekstlarda ta'lim o'sishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

EGRA xalqaro baholash dasturining asosiy komponentlari:

✓ EGRA xalqaro baholash dasturi o'z yondashuvida keng qamrovli bo'lib, turli mamlakatlardagi bolalarda savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholash uchun zarur bo'lgan asosiy komponentlarga e'tibor qaratiladi.

✓ Dastur o'qish va matematika qobiliyatlarini o'lchaydigan standartlashtirilgan baholashlarni o'z ichiga oladi, takomillashtirish sohasini aniqlash va maqsadli tadbirlarni ishlab chiqish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

✓ EGRA xalqaro baholash dasturi orqali o'qituvchilar va siyosatchilar o'quvchilarning ta'lim ehtiyojlari haqida tushunchaga ega bo'lib, butun dunyo bo'ylab ta'lim natijalarini yaxshilash uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

EGRA xalqaro baholash dasturining turlari:

✓ EGRA xalqaro baholash dasturi butun dunyoda savodxonlik darajasini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

✓ O'zining standartlashtirilgan baholashlari orqali EGRA takomillashtirish yo'nalishlarini aniqladi va maqsadli tadbirlarni yo'naltirdi.

O'qish qobiliyatlari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etish orqali EGRA o'qituvchilarga o'qishni o'rgatishni yaxshilash uchun dalillarga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishda yordam

berdi. Bu esa o'quvchilarning o'qishini tushunish va ravon o'qishlarida sezilarli yaxshilanishiga olib keldi. Bundan tashqari, EGRA dasturi savodxonlik natijalarini monitoring qilish va baholash ta'kidlab, ta'lim tizimlarida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minladi. Uning topilmalari butun dunyo bo'ylab savodxonlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish uchun siyosatni o'zgartirishga turtki bo'ldi.

Ushbu amaliy tadqiqotlar EGRA xalqaro baholash dasturining ta'sirining dalili bo'lib xizmat qiladi va uning global miqyosida ijobiy ta'lim natijalariga erishish qobiliyatini ta'kidlaydi.

**Xulosa.** O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun esa boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil qilishda ta'lim texnologiyalari, turli xil metod, usullar va tarqatma materiallaridan foydalanish bilan bir qatorda EGRA va EGMA dasturlari haqida ma'lumotlar berib, ularni dars jarayonida qo'llash ham boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi va kamol topishi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Maxmudova D., Urinbayeva Z., Eshqorayev Q.A. EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari va ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish. Uzbek Scholar Journal Volume - 11, Dec., 2022.

2. Mirxalilova N.A. "O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rni" // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 18-noyabr 2022-yil. 175-178-b.

3. Kholodnaya M. A. Zamonaviy ustuvorliklari maktab ta'limi: ijtimoiy hayotga moslashish qobiliyati aql yoki intellektual rivojlanish va ta'lim. // Material IV Butunrossiya Kongressi Rossiyadagi ta'lim psixologlari "Psixologiya va zamonaviy rus ta'limi" (2008 yil 8-12 dekabr, Moskva). - M., 2008 yil.

4. Narimbetova Z.A. Matematika darslarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rni. Xalq ta'limi, 131-134, №2, 2021 y

5. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385. CiteFactor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sifatini tekshirishga bag'ishlangan rus tilidagi sayt [Elektron resurs]. - PYL: [http://www.centeroko.ru/pirls06/pirls06\\_pub.htm/](http://www.centeroko.ru/pirls06/pirls06_pub.htm/).

#### MAXSUS TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN TALABALAR BILAN AXBOROT TEKNOLOGIYALARI YORDAMIDA ISHLASHNING AHAMIYAT

**Yusupova Marjona Avaz qizi**  
**Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi**  
**Obirahmatova Laziza Asqar qizi**  
**Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot texnologiyalari (AT) va maxsus ta'lim uchun dasturlar va onlayn platformalar orqali talabalar bilan ishlashning muhimligi, interaktiv ta'lim usullari, ma'lumotlar bazalari va analitika, ta'lim materiallariga masofaviy kirish imkoniyati, masofaviy ta'limda foydalaniladigan maxsus kommunikatsiya vositalari va platformalar haqida suhbat olib boriladi. Maqola talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish, ta'limning samarali olib borilishida va talabalarning ta'lim olish jarayonida yordam berishda axborot texnologiyalarining keng foydalanishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** maxsus ta'lim, ehtiyojlar, talabalar, ishlash, axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, ta'lim materiallari, o'zlashtirish, kommunikatsiya, platformalar, veb-konferensiyalar, forumlar, elektron pochta, mobil ilovalar, dasturlar.

#### ВАЖНОСТЬ РАБОТЫ СО СТУДЕНТАМИ СО СПЕЦИАЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ ПРИ ПОДДЕРЖКЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация:** В этой статье будут рассмотрены информационные технологии (ИТ) и важность работы со студентами посредством программ и онлайн-платформ специального образования, интерактивных методов обучения, баз данных и аналитики, удаленного доступа к учебным материалам, специальных инструментов, используемых в дистанционном обучении, коммуникационных инструментов и платформ. Обсуждается. В статье показано широкое использование информационных технологий в повышении уровня мастерства учащихся, в эффективном проведении обучения, в помощи учащимся в учебном процессе.

**Ключевые слова:** специальное образование, потребности, студенты, производительность, информационные технологии, дистанционное обучение, учебные материалы, мастерство, коммуникации, Платформы, веб-конференции, форумы, электронная почта, мобильные приложения, приложения.

### **THE IMPORTANCE OF WORKING WITH STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS WITH INFORMATION TECHNOLOGY SUPPORT**

**Annotation:** In this article, information technology (IT) and the importance of working with students through programs and online platforms for special education, interactive learning methods, databases and analytics, remote access to educational materials, special tools used in distance education communication tools and platforms will be discussed. The article shows the wide use of information technologies in increasing the level of students' mastery, in the effective conduct of education, and in helping students in their educational process.

**Keywords:** special education, needs, students, performance, information technology, distance education, educational materials, appropriation, communion, platforms, web conferences, forums, email, mobile applications, applications.

**Kirish.** Maxsus ta'lim ehtiyoji bo'lgan talabalarining o'zlashtirish darajasini oshirishda axborot texnologiyalari va onlayn platformalar muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada, interaktiv ta'lim usullari, ma'lumotlar bazalari, va analitika tahlil, ta'lim materiallariga masofaviy kirish imkoniyati, talabalar bilan o'zlashtirish va kommunikatsiya vositalari, hamda masofaviy ta'limda foydalaniladigan maxsus kommunikatsiya vositalari va platformalar kritik muhimlikka ega.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshirish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. O'qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. [11]

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo'llanilgan.

Bu borada M.V. Bovina, M.N.Siraeva ta'kidlashicha, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi o'quv jarayonining mahsuli natijasida sifat jihatidan yangi bilimlar to'plamini (axborotni qidirish, to'plash, saqlash, tizimlashtirish, taqdim etish usullarini qayta ishlash va bilimga aylantirishning zamonaviy turlari bo'yicha bilimlar) jamlaydi. Axborot va kommunikatsiyaning integratsiyasi, aloqa jarayonining elementlari, aloqa kanallari va samarali o'zaro ta'sirni tashkil etish va amalga oshirish usullari to'g'risidagi bilimlar, ko'nikmalar (tegishli, zarur va etarli ma'lumotlarni topish qobiliyatida ifodalangan axborot oqimlarida harakat qilish qobiliyati); uni kodlash, dekodlash va sharhlash qobiliyatidir. O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni darsda ma'lumotlarda to'g'ri foydalanish uchun model bo'yicha va yangi, nostandart vaziyatda faoliyatda qo'llash uchun talabalarda axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari rivojlangan bo'lishi zarur. [11]

A. W. Bates "Teaching in a Digital Age: Guidelines for Teaching and Learning" nomli kitobi, axborot texnologiyalari va o'qitish jarayonida ularni qanday integratsiya qilish haqida qiziqarli va ma'lumotlarga to'la. Ushbu manba o'qituvchilar va maxsus ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun qulay qo'llanma va yo'riqnoma sifatida tanilgan. Kitobda axborot texnologiyalari va onlayn ta'lim usullari foydalanilganligi, o'rganish jarayonini kuchaytirish, talabalarga zarur ma'lumotlarni o'tkazish, va ta'lim jarayonini samarali olib borishga qaratilgan ilova va taktikalar haqida tushunchalar beriladi. [1]

Roblyer, M. D., & Doering, A. H.ning "Integrating Educational Technology into Teaching: International Edition" nomli kitobda esa ta'lim sohasidagi axborot texnologiyalarini o'qitishda qanday

foydalanish haqida global o'qitish usullarini o'rganish uchun juda muhim bir manba. Ushbu manbada o'qitish jarayonini oshirish, talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish va ta'limni yangilashga qaratilgan ilovalar va taktikalar ko'rsatiladi. [3]

**Muhokama: tadqiqotlardan va ilmiy ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda, talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirishda axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanishga e'tibor qaratish kerak.**

**Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalar bilan ishlashda axborot texnologiyalari (AT) deganda, uchta asosiy narsa tushunilishi mumkin:**

–*Dasturlar va Platformalar* (axborot texnologiyalari, maxsus ta'lim uchun dasturlar va onlayn platformalar): Bu platformalar talabalar uchun ma'ruza materiallar, sinovlar, vazifalar, maqolalar va interaktiv darsliklar taqdim etishda yordam beradi.

–*Interaktiv ta'lim usullari*: interaktiv ta'lim usullari orqali talabalarga masofaviy ta'limni taqdim etishga imkoniyat yaratadi.

–*Ma'lumotlar bazalari va analitika*: o'quv jarayonining nazoratini ta'minlash uchun ma'lumotlar bazalari va analitik vositalarni o'z ichiga oladi.

Interaktiv ta'lim usullari axborot texnologiyalari (AT) yordamida talabalarga masofaviy ta'lim orqali bilim berishda muhim ahamiyatga ega. Bu usullar talabalarga turli xil elektron ta'lim materiallaridan foydalanish imkoniyatini beradi:

–*video darslar*: talabalarga masofaviy ta'lim uchun eng ommabop usuldir. Talabalar darslarni istalgan vaqtda va istalgan joyda ko'rishlari mumkin.

–*vebinarlar*: interaktiv ta'limning yaxshi namunalaridan biridir. Bu onlayn darslar, ko'p qator talabalar bilan birgalikda olib boriladi va dars o'qituvchining o'zini boshqarishi mumkin.

–*vazifalar*: Interaktiv ta'lim platformalari talabalarga vazifalar berish orqali o'zlashtirishni oshirishadi. Bu vazifalar dastur, maqola yoki boshqa ma'lumotlar asosida yaratilishi mumkin va talabalarni mustaqil o'rganishga imkon beradi.

–*boshqa ta'lim materiallari*: Interaktiv ta'lim platformalari talabalarga maqolalar, elektron kitoblar, audio darslar va boshqa ta'lim materiallariga kirish imkoniyatini taqdim etadi.

**Natijalar:** Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalarning o'zlashtirish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha foydali taraflari mavjud ekan:

–*Individual o'rganish*: Axborot texnologiyalari, talabalar uchun individual o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

–*Interaktiv ta'lim usullari*: Axborot texnologiyalari talabalarga interaktiv ta'lim usullari orqali ishlov berish imkonini beradi.

–*Tuzatish va amalga oshirish*: Axborot texnologiyalari, talabalarning o'rganilgan materiallarni tuzatish va amalga oshirish uchun qulay vositalarni taqdim etadi.

–*Ko'plab manbalardan foydalanish*: Axborot texnologiyalari orqali talabalar, ko'plab manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu maqola maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalar bilan ishlashda axborot texnologiyalaridan foydalanishning muhimligi, interaktiv ta'lim usullari, ma'lumotlar bazalari va analitika, masofaviy kirish va kommunikatsiya vositalari haqida keng va tafsilotli ko'rsatmalar taqdim etadi. Bu esa maxsus ta'limning samarali olib borilishida axborot texnologiyalarining o'ziga xos rolini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.
2. Keengwe, J., & Onchwari, G. (2009). Technology and early childhood education: A technology integration professional development model for practicing teachers. Early Childhood Education Journal, 37(3), 209-218.

3. Roblyer, M. D., & Doering, A. H. (2013). Integrating educational technology into teaching: International edition. Pearson Higher Ed.
4. Yakhlyakhonova Mukhiba. "The role of information technology in education in the development of students' independent learning skills". International Engineering Journal For Research & Development, vol. 6, no. ICDSIIL, Feb. 2021, p. 3, doi:10.17605/OSF.IO/V3MRZ.

## **INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN OLIMPIADA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI**

**Xamroyeva Dilafro'z Namozovna**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti, Informatika kafedrası dotsenti v.b.,**  
**f.-m.f.f.d.(PhD), [hdilafroz\\_285@mail.ru](mailto:hdilafroz_285@mail.ru)**

**Ismigul Yo'ldosheva Odil qizi**

**Navoiy davlat pedagogika instituti, Matematika va informatika yo'nalishi talabasi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Informatika va axborot texnologiyalari fanidan olimpiada tashkil etish va olimpiada masalalarini yechish usullari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** olimpiada, masalalar, informatika.

### **Аннотация**

В данной статье представлены способы организации и решения олимпиадных задач по информатике и информационных технологиях.

**Ключевые слова:** олимпиада, задачи, информатика.

### **Abstract**

This article presents ways to organize and solve Olympiad problems in computer science and information technology.

Key words: Olympiad, problems, computer science.

Fan olimpiadasi ishtirokchilari ma'lum bir fan doirasida o'z bilimlarini sinashadi. Har bir olimpiada muayyan nizom va qoidalar asosida o'tkaziladi.

**Fan olimpiadasi** – umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim dargohlari bilim oluvchilari orasida o'tkaziladigan bellashuv.

Ushbu sohani tubdan isloh etish maqsadida quyidagi me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori, "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori, qarorga ilova qilinib, "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o'tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g'oliblarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilingan [1]. Yurtimizdagi fan olimpiadalarini o'tkazish tartiblari yuqoridagi nizomga asosan belgilanadi. Nizomda olimpiadaning qanday turlari mavjudligi, shuningdek, ularning o'tkazilish tartibi, hakamlar hay'ati, apellatsiya komissiyasi, olimpiada g'oliblari va ularning o'qituvchilarini taqdirlash kabi muhim masalalarga batafsil to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra, olimpiadaning ushbu turlari bilan tanishib chiqamiz.

**Asosiy olimpiada** – umumta'lim fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) tomonidan maktablar o'rtasida respublika miqyosida tizimli ravishda har yili tashkil etiladigan olimpiada.

### **Qo'shimcha**

### **respublika**

**olimpiadalari** – mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan asosiy olimpiadalardan tashqari, o'z tashabbusi bilan o'tkaziladigan olimpiadalar.

**Onlayn olimpiada** – o‘quvchilarning bilimlarini sinovdan o‘tkazish va asosiy olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan hamda faqat axborot texnologiyalari (kompyuter, planshet, telefon va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan olimpiadalar.

**Nufuzli xalqaro olimpiadalar** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarorida belgilangan xalqaro olimpiadalar.

**Mintaqaviy xalqaro olimpiadalar** – nufuzli xalqaro olimpiadalar ro‘yxatiga kirmaydigan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga kiritilgan hamda g‘oliblarning maqomi asosiy olimpiadalarning respublika bosqichi g‘oliblariga tenglashtirilgan xalqaro olimpiadalar.

Biz ushbu maqolada Informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha o‘tkaziladigan olimpiadalarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Sinflar kesimida asosiy olimpiada o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxatida Informatika va axborot texnologiyalari fani birinchi guruh fanlar ro‘yxatiga kiritilgan. Asosiy olimpiadalar 9 – 11-sinflar, shuningdek, akademik litseylar va kasb-hunar maktablarining o‘quvchilari uchun tashkil etiladi.

Maqomi asosiy olimpiadalarning Respublika bosqichiga tenglashtirilgan mintaqaviy xalqaro fan olimpiadalari ro‘yxatida Informatika va axborot texnologiyalari faniga doir quyidagi olimpiadalar nomlari keltirilgan: Xalqaro Jautikov olimpiadasi (matematika, fizika, informatika va axborot texnologiyalari fanlari bo‘yicha hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi informatika olimpiadasi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan nazorat turlarida sinovlar umumta‘lim maktablarining DTS asosida o‘tkaziladi.

O‘z navbatida olimpiada masalalari ham qiyinlik darajasiga ko‘ra, 3 guruhga ajratiladi: A-oson yechiladigan masalalar, B-o‘rtacha qiyinlikdagi masalalar, C-qiyin yechiladigan masalalar.

Ushbu maqolada quyidagi masalalarning yechish texnologiyasi Python dasturlash tilida berilgan.

**1-masala.** Agar     AAA  
                  +    BBB  
                  SBBS

bo‘lsa, u holda A, B, S raqamlarini topish dasturi tuzilsin [2].

#### **Yechish usuli:**

Bu masalani yechish uchun o‘nlik sanoq sistemasidagi sonlarning standart ko‘rinishiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda xona qoshiluvchilari yig‘indisi quyidagicha:

$$AAA + BBB = A*100 + A*10 + A + B*100 + B*10 + B = (A+B) * 100 + (A+B)*10 + (A+B) = (A+B)*111$$
$$SBBS = S*1000 + B*100 + B*10 + S = S*1001 + B*110.$$

Shart bo‘yicha, A, B hamda S larning raqam ekanligi ma‘lum. Shuning uchun, ularning qiymati faqatgina 1 dan 9 gacha bo‘lishi mumkin. 0 bo‘lishi mumkin emas. Chunki, 1-xona 0 dan iborat bo‘la olmaydi. Aks holda, 3 xonali(2 xonali) son hosil bo‘lmay qoladi.

#### **Dastur kodi (Python):**

```
for a in range(1,10):
    for b in range(1,10):
        for c in range(1,10):
            if (111*a+111*b==1001*c+110*b):
                if a!=b and b!=c:
                    print(a,b,c)
```

#### **Dastur natijasi:**

```

Python 3.12.2 (tags/v3.12.2:6abddd9, Feb 6 2024, 21:26:36) [MSC v.1937 64 bit (AMD64)] on win32
Type "help", "copyright", "credits" or "license()" for more information.
>>>
===== RESTART: C:/Users/user/Desktop/Новая папка/1.py =====
9 2 1
>>>

```

**2-masala.** Berilgan matndagi har xil harflar sonini topish dasturini tuzing.

**Yechish usuli:**

Ushbu masalani yechish uchun shunday yangi satr hosil qilamizki, unda berilgan matndagi barcha harflar faqat bir martadan ishtirok etadi. Bu satrni qisqa biron harf bilan (misol uchun B) belgilaymiz. Dastlab, yangi satr hech qanday belgiga ega bo'lmaydi. Endi esa berilgan matnning bittadan belgisini qirqib olib, B satr belgilari bilan taqqoslaymiz. Agar mazkur belgi B satrida bo'lmasa uni qo'shib qo'yamiz. Natijada berilgan matndagi har xil harflar soni B satrdagi belgilar soniga (satr uzunligiga) teng bo'ladi.

Berilgan matnda bir xil, ammo katta va kichik harflar (A, a) bo'lishi mumkin. Ularni takror hisoblamaslik uchun farqini yo'qotamiz. Bunda matndagi hamma harflarni kichik harflarga o'tkazish uchun lower() metodidan foydalanamiz. Endi esa matndagi turli harflarni saqlovchi to'plam yaratish zarur. Buning uchun set konstruktoridan foydalanamiz. Chunki, Set to'plamida bir xil qiymatga ega ikkita element bo'lishi mumkin emas. Matndagi har bir belgini tekshiramiz. Agar, u harf bo'lsa, to'plamga qo'shamiz. Dastur boshqa belgilarni ham harf sifatida hisobga olmasligi zarur. Albatta, bu jarayonda isalpha() metodi qo'llaniladi. Dastur oxirida esa turli harflarni to'plamga qo'shish va to'plam o'lchamini olish uchun add() metodi va len() funksiyasidan foydalanamiz. Hosil bo'lgan to'plam o'lchami matndagi turli harflar soni hisoblanadi.

**Dastur kodi (Python):**

```

matn = input('Iltimos, matnni kiriting:')
matn = matn.lower()
harf_toplami = set()
for belgi in matn:
    if belgi.isalpha():
        harf_toplami.add(belgi)
harflar_soni = len(harf_toplami)
print('Berilgan matndagi har xil harflar soni:', harflar_soni)

```

**Dastur natijasi:**

```

Python 3.12.2 (tags/v3.12.2:6abddd9, Feb 6 2024, 21:26:36) [MSC v.1937 64 bit (AMD64)] on win32
Type "help", "copyright", "credits" or "license()" for more information.
>>>
= RESTART: C:/Users/user/Desktop/Новая папка/2.py
Iltimos, matnni kiriting:Assalomu alaykum
Berilgan matndagi har xil harflar soni: 8
>>>

```

**3-masala.** Savatda bir necha olmalar bor edi. Savatdan 2 donalab, 3 donalab, 4 donalab, 5 donalab, 6 donalab olma olinsa har safar 1 tadan olma ortib qoladi. 7 donalab olinganda olma qolmadi. Savatda kamida nechta olma bo'lganini aniqlash dasturini tuzing.

**Yechish usuli:**




Masala shartiga ko'ra olmalar soni 7ga karrali bo'lgan, shuningdek, 2, 3, 4, 5, 6 sonlariga bo'lganda 1 qoldiq qoladigan son hisoblanadi. Bunday eng kichik sonni chop etamiz.

#### Dastur kodi (Python):

```
for i in range(7, 1000, 7): # Savatda eng kamida nechta olmalar bo'lishi mumkinligini aniqlash uchun
7 dan boshlab tekshiramiz
if i % 2 == 1 and i % 3 == 1 and i % 4 == 1 and
i % 5 == 1 and i % 6 == 1:
    print("Savatda kamida", i, "olma bor")
break
```

#### Dastur natijasi:



```
IDLE Shell 3.12.2
File Edit Shell Debug Options Window Help
Python 3.12.2 (tags/v3.12.2:6abddd9, Feb 6 2024, 21:26:36) [MSC v.1937 64 bit (AMD64)] on win32
Type "help", "copyright", "credits" or "license()" for more information.
>>>
===== RESTART: C:/Users/user/Desktop/Новая папка/3.py =====
Savatda kamida 301 olma bor
>>> |
```

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha fan olimpiadalarini o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad ushbu sohaga qiziquvchi iqtidorli, iste'dodli va qobiliyatli yoshlarni aniqlash, hamda ularning qiziqishlarini munosib baholab, rivojlanishlariga yetarlicha shart-sharoitlar yaratish, yoshlar o'rtasida zamon talabiga aylanib kelayotgan IT sohasini kengroq tatbiq etish, ularda amaliy ko'nikmalarni vujudga keltirish, intellektual salohiyatini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, raqamli avlodni shakllantirish orqali yangi O'zbekistonning bunyodkor yoshlarini tarbiyalash.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori. 09.09.2021 yildagi 562-son.
2. Boltayev B.J., Mahkamov M.R., Azamatov A.R. Olimpiada masalalarini yechish. T. 2005.
3. Azlarov T.R., Zokirova F.M. Informatikadan olimpiada masalalari to'plami. T. 1996.
4. Boltayev B., Mahkamov M., Azamatov A. Informatikadan olimpiada masalalarini yechish. Metodik qo'llanma. T. 2006.

### AYRIM GEOMETRIK MASALALARNI YECHISHDA BAZI BIR TENGSIZLIKLARNING TADBIQI

Jumayev Sanjar Saydullayevich—"Matematika" kafedrasida

katta o'qituvchisi, NavDPI, Uzbekistan;

Sobirov Jasur Azamatovich—"Matematika" kafedrasida

o'qituvchisi, NavDPI, Uzbekistan;

Raximov Nodirbek Sharif o'g'li – talaba, NavDPI, Uzbekistan;

**Аннотация.** Данная статья посвящена применению некоторых неравенств к решению геометрических задач.

**Mazmunnoma.** Ushbu maqola ba'zi bir tengsizliklarni geometrik masalalarni yechichga tadbiqlariga bag'ishlanadi.

**Abstract.** This article is devoted to the application of some inequalities to solving geometric problems.

**Kalit so'zlar:** Tengsilklar, o'rta geometrik va o'rta arifmetigi, eng katta qiymat, silindr, balandlik, diametr, parallelepiped.



Bizga ma'lumki, geometrik masalalarni yechishda tasavvur katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga geometrik masalalarni yechishning turli hil usullar ham mavjud. Shuning uchun ayrim geometrik masalalarni yechishda ba'zi bir tengsizliklarni tadbiriqini qaraymiz.

Buning uchun quyidagi teoremani qaraymiz.

**1-teorema.** Ikki musbat sonning o'rta geometrigi ularning o'rta arifmetigidan katta emas.[1]

**Isbot.**  $x > 0$  va  $y > 0$  bo'lsin. Ma'lumki,  $x$  va  $y$  ning o'rta geometrigi deb  $\sqrt{xy}$  ifodaga, o'rta arifmetigi deb  $\frac{x+y}{2}$  ifodaga aytiladi.

Har qanday  $x > 0$  va  $y > 0$  uchun  $(\sqrt{x} - \sqrt{y})^2 \geq 0$  tengsizlik o'rinlidir.

Bundan

$$\begin{aligned} x + y - 2\sqrt{xy} &\geq 0 \\ x + y &\geq 2\sqrt{xy} \\ \sqrt{xy} &\leq \frac{x+y}{2} \end{aligned} \quad (1)$$

kelib chiqadi.

(1) Tengsizlikda  $x = y$  bo'lgandagina tenglik ishorasi o'rinli bo'ladi.

Bu teoremda quyidagi natijalarni olamiz.

**1-natija.** Agar  $x$  va  $y$  musbat o'zgaruvchilarning yig'indisi o'zgarmas bo'lsa,  $y = x$  bo'lganda ularning ko'paytmasi  $xy$  eng katta qiymatga ega bo'ladi.

**2-natija.** Agar  $x$  va  $y$  musbat o'zgaruvchilarning ko'paytmasi  $xy = a$  o'zgarmas bo'lsa,  $x = y$  bo'lganda ularning yig'indisi  $x + y$  eng kichik qiymatga ega bo'ladi.

**2-teorema.** Agar musbat  $x$  va  $y$  o'zgaruvchilarning yig'indisi o'zgarmas bo'lsa, u holda  $\frac{x}{m} = \frac{y}{n}$  bo'lganda  $x^m y^n$  ko'paytma eng katta qiymatga ega bo'ladi.[2]

**Isbot.** a)  $m$  va  $n$  natural sonlar bo'lsin.  $x^m y^n$  ning eng katta qiymatini izlash  $\left(\frac{x}{m}\right)^m * \left(\frac{y}{n}\right)^n$  ning eng katta qiymatini izlash bilan bir xil bo'ladi.  $\left(\frac{x}{m}\right)^m * \left(\frac{y}{n}\right)^n$  ko'paytmada  $m + n$  ta ko'paytuvchi bo'lib, ularning yig'indisi

$$m * \frac{x}{m} + n * \frac{y}{n} = x + y$$

o'zgarmasdir.

1-natijaga asosan,  $\left(\frac{x}{m}\right)^m * \left(\frac{y}{n}\right)^n$  ko'paytma o'zining eng katta qiymatini  $\frac{x}{m} = \frac{y}{n}$  bo'lganda qabul qiladi.

b)  $m$  va  $n$  kasr sonlar bo'lsin:  $m = \frac{p}{a}$ ,  $n = \frac{q}{a}$  (bir xil maxrajli bo'lmasa bir xil maxrajga keltiriladi).

$z = x^m y^n = x^{\frac{p}{a}} y^{\frac{q}{a}}$  dan  $z^a = x^p y^q$  kelib chiqadi.  $x > 0$  va  $y > 0$  bo'lganda  $z$  va  $z^a$  bir vaqtda eng katta qiymatga ega bo'ladi. Shuning uchun  $z^a$  ning eng katta qiymati  $\frac{x}{y} = \frac{p}{q} = \frac{\frac{p}{a}}{\frac{q}{a}} = \frac{m}{n}$  da bo'ladi.

**3-natija.** Agar musbat  $x$  va  $y$  o'zgaruvchilar uchun  $x^m y^n$  ko'paytma o'zgarmas bo'lsa, u holda  $\frac{x}{m} = \frac{y}{n}$  bo'lganda  $x + y$  yig'indi eng kichik qiymatga erishadi.

Yuqorida keltirilganlardan foydalanib quyidagi geometrik masalalarni yechaylik.

**1-masala.** Yumoloq to'sindan ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchak bo'lgan to'sin kesib olinish kerak, To'sin gorizont holtda eng ko'p yukni ko'tarishi uchun kesim o'lchovlari qanday bo'lish kerak.[1]

Eslatma. Gorizont holtda to'sinning yuk ko'tarishi kesim kengligi bilan kesim balandligi kvadratining ko'paytmasiga proporsional.

**Yechish.** Chizmaga asosan  $x^2 + y^2 = d^2$  bo'lib,  $xy^2$  ning eng katta qiymati topilish kerak.  $xy^2 = (x^2)^{\frac{1}{2}} * (y^2)^1$  deb olsak, 2-teoremaga asosan,  $x^2 + y^2 = d^2$  o'zgarmas bo'lgani uchun  $(x^2)^{\frac{1}{2}} * (y^2)^1$  o'zining eng katta qiymatini  $\frac{x^2}{2} = \frac{y^2}{1}$  bo'lganda qabul qiladi ( $m = \frac{1}{2}; n = 1$ ).

Bundan  $y^2 = 2x^2$  ekanligini bilamiz  $x^2 + y^2 = d^2$  dan foydalanib,  $x = \frac{\sqrt{3}}{3}d; y = \frac{\sqrt{6}}{3}d$  ligi kelib chiqadi.

Demak, tegishli to'sinni hosil qilish uchun kesimning vertikal tomoni bilan gorizontol tomonlarining nisbati  $\sqrt{2}$  ga teng bo'lishi kerak.

**2-masala.** To'la sirtlari teng bo'lgan silindrlar orasida eng katta hajimga ega bo'lgani topilsin.

**Yechish.** Silindrning to'la sirti:  $S = 2\pi rh + 2\pi r^2 = 2\pi(rh + r^2)$  ga teng bo'lib,  $V = \pi r^2 h$  hajmi eng katta bo'lish kerak. 2-teoremaga asosan  $rh + r^2 = \frac{S}{2\pi}$  o'zgarmas bo'lganda  $\frac{r^2}{2} = \frac{rh}{1}$  tenglik bajarilsa,  $\frac{V}{\pi} = r^2 h = (r^2)^{\frac{1}{2}}(rh)^1$  eng katta qiymatga erishadi.  $\frac{r^2}{2} = \frac{rh}{1}$  ekanligidan  $h = 2r$  ligi kelib chiqadi.

Demak, bir xil to'la sirtga ega bo'lgan silindrlar orasida eng katta hajimga ega bo'lsa, silindr asosining diametri balandligiga teng bo'lar ekan.

**3-masala.** Bir xil to'la sirtli to'g'ri burchakli parallelepipedlar orasida eng katta hajmlisi aniqlansin.

**Yechish.** Parallelepipedning qirralari  $a, b, c$  bo'lsin. U holda uning to'la sirtining yuzi  $S = 2(ab + ac + bc)$  bo'lib, hajmi  $V = abc$  bo'ladi.

Demak  $S$  o'zgarmas bo'lganda  $a, b, c$  ni shunday tanlash kerakki,  $V$  eng katta bo'lsin. Yuqoridagi teoremlardan foydalanamiz. Ma'lumki  $a > 0, b > 0, c > 0$  bo'lganda  $V = abc$  va  $V^2 = (abc)^2$  lar bir vaqtda eng katta qiymatlarga erishadi. Shuning uchun  $ab = ac = bc$  bo'lib,  $V^2 = (ab) * (ac) * (bc)$  ko'paytma  $ab + ac + bc = \frac{S}{2}$  o'zgarmas bo'lganda eng katta qiymatga erishadi.

$ab = ac = bc$  ekanligidan  $a = b = c$  ligi kelib chiqadi.

Demak, bir xil to'la sirtli to'g'ri burchakli parallelepipedlar orasida kub eng katta hajimga ega ekan.

#### Adabiyotlar

1. G.Buzeman. Geometry of geodesics. M.: Fizmatgiz, 1962.
2. T.A. Azlarov va boshqalar Matematikadan qo'llanma (maktab o'qituvchilari uchun qo'llanma) II-qism. O'qituvchi, T., 1990.

## EFFECTIVE METHODS FOR TEACHING IDIOMS THROUGH DEVELOPMENTAL STAGES

Karimova Umida, Axmedova Dilora

Teachers, Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Abstract:** The article thinks about the core of every educational game lies a commitment to widely recognized educational strategies and approaches. The development of educational games should be based on subject-specific material. In classroom settings, academic students often show increased enthusiasm for participating in educational games, considering them more captivating than traditional instructional sessions. As a result, students feel more at ease during these interactive educational activities. They demonstrate a strong inclination towards lively and interactive lessons, expressing a desire to succeed. Educators leverage these tendencies as effective tools for imparting knowledge and educating students.

**Key words:** concepts, vocabulary exercises, strategies and approaches.

Currently, there's a significant focus on employing effective EFL (English as a Foreign Language) teaching methods for Uzbek students to foster a harmonious generation. Understanding the cultural

context of a foreign language is crucial for effective learning. Among various teaching methods used in universities, lectures are widely employed for introducing new concepts, addressing issues, summarizing ideas, illustrating connections between theory and practice, and emphasizing key points. Different approaches have been identified to enhance educational effectiveness, with particular emphasis on accommodating diverse learning styles. While there's ongoing discussion on the topic of learning styles, there's a consensus that four fundamental styles exist: auditory, visual, kinesthetic, and tactile. Kinesthetic and tactile learning styles are often discussed together.

Idiomatic expressions play a significant role in language learning. A flexible approach to lesson design is essential, especially when teaching complex idioms, to avoid misunderstandings. Interaction with students and questioning them about the idioms they've learned can aid teachers in clarifying misconceptions.

One effective strategy to enhance the effectiveness of teaching English idioms is to teach idioms and idiomatic expressions relative to the students' native language. This approach makes lessons engaging and easy to remember. However, mastering English idioms can be challenging for EFL learners due to their figurative meanings.

Teaching uncommon phrases in English as a foreign language requires pedagogical investigations. Non-native speakers face difficulties in acquiring foreign language skills, particularly with vocabulary exercises, which can become monotonous, especially for those with limited language learning skills.

Incorporating games and activities that encourage physical activity can help keep students alert and alleviate boredom. Emphasizing fun activities, even while learning new vocabulary, can reduce monotony. Since learning English idioms is essential for EFL learners to achieve proficiency, teachers can plan various activities to help students use English idioms effectively. Encouraging students' natural inclination towards narrative meaning-making, along with text-based lessons, can enhance their engagement with textual material and reduce resistance to challenging or frustrating reading material. Students respond to writings through narrative approaches, engaging in role-playing and allowing memories, images, and stories to surface as they interpret metaphors. They are more likely to understand, recall, and care about the meaning of metaphors after playing with the word through personalized exploration of their own experiences.

The acquisition of idiomatic language involves cognitive processes similar to those governing other linguistic behaviors and learning in general. General principles of long-term memory formation, such as encoding, storage, and retrieval, underlie the learning of multi-word figurative expressions, much like they do for the literal meanings of individual words. Taking note of expressions within the input is crucial for long-term information retention. Learners must attend to linguistic features within the content for the input to be processed. Providing varied experiences with the target phrase is expected to facilitate the detectable quality of figurative language.

Another concern is advancing appropriate learning tasks. There's ample evidence demonstrating that information committed to long-term memory is information required to perform the task. Hence, tasks should be outlined to direct learners' attention to the usage of figurative language. This can be achieved, for example, by embedding an idiom in an address or asking a question that requires the proper interpretation of metaphorical meaning.

The concept of using metaphors has transformed our comprehension of language not meant to be taken literally. Idiomatic expressions often have purposeful word choices rather than being random. People employ metaphors in language unconsciously, aiding in their understanding and use of common phrases in novel ways. Grasping the workings of metaphors can assist second language learners in utilizing idiomatic language more effectively. Conceptual metaphors can elucidate word choices in idiomatic phrases. It's easier to recall and apply knowledge that makes sense than that which appears random. Utilizing the conceptual metaphor framework, idiomatic language can be organized and presented in a manner conducive to learners' comprehension. Research indicates that individuals recall information better when they can relate new information to existing knowledge. This implies that teaching phrases as part of a group and relating them to familiar concepts can enhance learning.

Numerous experiments support this notion. Boers demonstrated that organizing pictures using metaphors enhances memory retention. In Csábi's study, students who learned about comparison phrases performed better in remembering them compared to students who only learned their meanings in their native language. Beréndi, Csábi, and Kövecses divided intermediate learners into two groups and asked them to read a text containing 22 English phrases, attempt to comprehend their meanings, and provide translations in their native language. In the translation task, the experimental group encountered idioms with their meanings explained, while the control group saw them in the order they appeared in the text. After translating, the students had to fill in the gap in a test using idioms.

### THE LIST OF LITERATURE

1. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.
2. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022.– T. 3. – №. 4. – C. 1-6. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325>
3. Umida, Karimova. "The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism." Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 8 (2022): 4-9. Retrieved from ISSN: 2795-739X.
4. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 367-369.

### J. RASINNING “FEDRA” TRAGEDIYASIDA ANTIK DAVR NAFASI.

Imiy rahbar f.f.f.d.(PhD) X.A.Arziqulova  
O‘zbek tili va adabiyoti 2-kurs talabasi  
yosh tadqiqotchi A.D.Muhiddinova

**Annotatsiya.** Maqolada J. Rasinning “Fedra”si klassitsizm adabiyotining yorqin namunalaridan biri deb tan olinganligi o‘rganildi. Tragediyaning poetikasi XVII asrda Fransiyada hukmronlik qilayotganyo‘nalishning estetik prinsiplariga amal qilishi ifodalangan.

**Аннотация.** В статье выясняется, что «Федра» Расина была признана одним из самых ярких примеров классической литературы. Изображено, что поэтика трагедии соответствует принципам направления, которая господствовала в XVII веке во Франции.

**Annotation.** The article reveals that the “Fedra” of Racine was recognized as one of the most striking examples of classical literature. It is depicted that the poetics of the tragedy correspond to the principles of the direction that prevailed in France in the XVII th century.

**Kalit so‘zlar:** dramaturgiya, klassitsizm, tragediya, suujet, pyesa, antik davr, mabuda, xudo.

**Ключевые слова:** драматургия, классицизм, трагедия, сюжет, пьеса, античная эпоха, богиня, бог.

**Keywords:** dramaturgy, classicism, tragedy, subject, piece, antique era, goddess, god.

Buyuk fransuz dramaturgi Jan Rassin (1639-1699) ning «Fedra tragediyasi birinchi marta 1677-yil 1-yanvarda Burgund otelida sahna yuzini ko‘rgan. Dramaturga qarshi bo‘lganlar tomonidan boshlarida pyesa yetarlicha baholanmadi. Keyinchalik yangi avlod vakillari tomonidan “Fedra” J.Rasinning eng zo‘r tragediyalaridan biri deb sanaldi. J. Rasinning “Fedra” tragediyasi XVII asr fransuz dramaturgiyasi noyob durdonasi deb hisoblandi. J.Rasin ijodi tadqiqi dunyoning ko‘p tillarida mavjud, asosan, fransuz tilida uning ijodini turli aspektlarda o‘rgangan. Bu badiiy ijoddagi muammolarning keng qamrovliligi zamonaviy tadqiqotchilarning oldida hali yechimini topmagan savollar borligini ko‘rsatadi.

J. Rasinning ilk ijodidagi “Fivaida yoki aka-uka dushmanlar (1664) va “Buyuk Aleksandr” (1665) nomli tragediyalari bejizga shoh asarlari qatoriga kirmagan. Bundan tashqari bu ishlari uning ijodidagi birinchi tajribalaridan muallifning kuchli va o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, uning fikricha o‘ziga xos

qiziqarli va diqqat bilan o'qiydigan o'quvchi undan ko'p narsa oladi. Bu yillarda Rasin o'z ijod yo'lini qidirayotgan edi, dramalari tuzilishining o'ziga xosligi, uni ijodda yangi o'zining alohida badiiy yo'lini yaratish imkonini berdi.

Bo'lajak ijodkorning "Andromaxa" va "Fedra" asarlari dramaturgni yuksaklikka ko'tarilishiga sabab bo'ldi, bularning hammasi uning oldiga murakkab vazifalarni qo'ydi, ya'ni syujet tanlash masalasi. Bir qarashda davrning "ellinizmni" hisobga olgan holda, u o'ziga murakkablikni yaqinlashtirmaydi, antik davr ijodkorlaridan syujetlarni olish an'anasini kiritdi. Uning oldida turgan savol ular ko'p bo'lsa, ularning qaysi birini tanlash kerak qaysi biridan olish kerak, qadimiylardan qaysi biriga tayanish mumkin (ular esa ko'p) va qanday bugungi kun sahnasiga moslashtirish kerak, ularning so'zlari manbalardagilari bilan aniq bog'liqligi va uni zamonaviysi bilan almashtirish muammosi turar edi. Bu ma'noda birinchi tragediyasi uchun tanlagan syujeti nihoyatda e'tiborli. Rasinning "Fedra"si klassitsizm adabiyotining yorqin namunalaridan biri deb tan olingan. Tragediyaning poetikasi XVII asrda Fransiyada hukmronlik qilayotgan ushbu yo'nalishning estetik prinsiplariga qat'iy bog'liq. Davr tendensiyasini 1688-yilda J.Labryuyer shunday ifodalaydi: "Ijodda mukammallikka erishish uchun va qadimiysi afzal, ishni ularning qadrini oshirish bilan boshlash zarur" [2, 53]. "Taqliddan, taqlidga" nazariyasiga amal qilgan, shulardan kelib chiqqan holda bir qancha yozuvchilar o'z ijodlarida namuna sifatida antik adabiyotga tayandi. Shu sababli o'sha davr ijodida ushbu yo'nalishning keng qo'llanilganligi kuzatiladi. Rasin va bilimdonlar doirasi xato qilmagan edi. Vaqt hammasini asta-sekin o'z joyiga qo'yib qo'ydi. Avlodlar bu tragediyaning haqiqatini ko'ra oldi va Rasinning yuksak darajada daholigini angladi. "Fedra"da tragediyaning alohida ajratib turadigan chuqur nafasi bor, yana hayratlanarlisi shundaki, Rasinda ozodlikni ifodalashning benuqson shakli mavjud. Syujet bo'lgan Yevripidda ham Senekada ham bog'liqlik mavjud. Ammo e'tiborlisi shundaki, pyesa qadimiysidan rassinchasiga nomlashda farqlanadi biri "Tojli Ippolit", boshqasi "Ippolit" ikkalasining ham voqealar rivoji markazida yosh sadoqatli Artemid gavdalanadi. Grek fojialariga solishtirilsa, Rasin Fedrani Afrodita (Venera)ning o'rnida qiyosiy planda qo'llaydi.

Oh, Rock! Oh, la haine de la cruelle Aphrodite!..

Pour toujours sur la terre ne sera pas oublié (I, 3)

Oh, taqdir! Oh, zolim Afroditaning nafratlari!..

Ular yer yuzida hech qachon unutilmaydi.

(tarjima bizniki X.A. va A.M.)

Afrodita sahnada paydo bo'ladi va qasddan jazolash maqsadida Ippolitni ma'budani mensimaslikda ayblaydi. Fedra o'zini o'zi o'ldira turib (Yevripidda tan olish sahnasi yo'q) qo'lga Ippolitni uni zo'rlashda ayblab yozgan xatni (taxtachani) bog'lab oladi. G'ajib tashlamoqchi bo'lgan maxluq Tezeyning o'g'li sahnada o'ladi va Artemid uni kundoshidan qutqara olmaydi, tomoshabinlar ko'z o'ngida o'lim haqligini g'azablangan ma'budani, qahramonning o'limini ko'rsatadi. Shunday qilib, ikki ma'budaning qarama-qarshiliklar asosida grek shoirlarning fojiviy boshlanmasi oldida Rasinning tragediya borasida tajribasi mutaxassis sifatida kamligini eslatadi.

Rasinning 13 ta kvintetida tragediya protagolistlarini tashkil etishda bosh qahramonlari asosiy rol o'ynaydi. Fedrani nobud qilgan, na Ippolit qutulib bo'lmaydigan qo'rquvga g'arq bo'lgan, na Tezey o'limigacha xotini hisoblangan, na yosh malika Arsin Ippolitni sevib qolgan, na Fedraning sadoqatli boquvchisi, unga hamma sirlarini ishonuvchi Enona, garchi ularning har biri – aniq tasvirlab berilgan obrazlar, xarakterlar, shuncha psixologik e'tiborni qalbiga joylagan, shunday yashovchanlik va butunlay ishonch Fedrada qanday bo'lsa shunday. Fedra – yakka ijrochi, butun bir ansambl qatnashchilarini o'ziga ergashtiradigan. Bilishimizcha, ularning har birining alohida "ovozi" va "musiqasi" mavjud tragediya ulardan ajoyib birlikni tashkil qiladi, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro tobeligi oxirigacha bog'liqlikda davom etadi, o'z navbatida jaranglayotgan boshqa "tovush"lar orasidan Fedraniki "mavzuni" qamrab oluvchi impulsni paydo qiladi. Shuning uchun bizning tahlilimizda bu obrazlar muhim o'rin egallaydi.

Rasin dramalaring yana bir o'ziga xosligi: insoniy va kosmik boshlanmalarni o'ziga biriktiradi. Bunday chuqur psixologizm qadimgi afsonalarda tasvirlangan, bular faqatgina Yevripidni emas, juda qadimiy grek arxaiklari qatlamlarini eslashga undaydi. Aytish mumkinki, "Andromaxa" yoki "Ifigeniya" dan farqli bu yerda Tyeri Monyening ifodalashicha, "tragik afsonalar butun boricha qabul

qilingan, uning odamlari an'analari bosh va ajdarlar, dengiz girdobiga g'arq bo'lishi..." [4,26].

Xususan, T.V.Malyuginaning fikricha, vizual loyihalashtirishga mo'ljallangan Microsoft Visio va lucidchart.com (mobil ilovasi lucidchart.app) kabi pedagogik dasturiy vositalari kompyuter tarmog'ini loyihalash, mantiqiy darajada ishlashining asosiy jihatlari, shuningdek, foydalanuvchilarning ish joyi va tarmoq uskunalari joylashuvini vizual tarzda aks ettirishga imkon beradi [4]. Bu borada YE.V.Kvaltireva va A.V.Minkinlar ham izlanish olib borgan bo'lib, ularning ta'kidlashicha, fizika fanini o'qitishda elektr zanjirlari va sxemalarini modellashtirish vositasi sifatida Microsoft Visio dasturidan foydalanishni taklif qilgan. Ushbu olimlarning fikricha, Microsoft Office bilan ishlash ko'nikmasiga ega talabalar uchun Visio dasturi bilan ishlashni tezda o'zlashtiradi [3].

Microsoft Visio amaliy dasturi grafiklar, chizmalar, diagrammalar va blok-sxemalar yaratish imkonini beruvchi amaliy dasturdir. Ushbu dastur yordamida grafik ma'lumotlarni vizualizatsiya

texnologiyalari asosida sodda va qulay tarzda taqdim etish mumkin. Uning qulay interfeysi va tarmoq tuzilishini vizual ko'rsatish imkonini berishda qo'llaniladigan elementlar to'plami mavjud [1].

Dastur yordamida tarmoq texnologiyalarining tuzilishini loyihalash, vizual tarzda ko'rsatish va tahrirlashda qator imkoniyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

**1. Shablonlar.** Microsoft Visio tarmoq tuzilishini vizual ko'rsatish uchun bir nechta tayyor tarmoq shablonlar mavjud bo'lib, ular loyihani ishlab chiqish jarayonini soddalashtiradi va tarmoqni tez hamda aniq ko'rsatishga yordam beradi.

**2. Vizualizatsiya.** Tarmoq tuzilishini vizual tarzda ko'rsatish uchun Microsoft Office paketi dasturlari kabi sodda va qulay interfeysga ega. Ushbu dastur orqali tarmoq loyihalarini qurish va boshqarish jarayoni sodda va aniq namoyish etiladi.

**3. Avtomatlashtirish.** Visio tarmoq tuzilishini avtomatik tarzda tuzish imkonini ham beradi. Bu imkoniyat tarmoqni tez va aniq ko'rsatishga hamda tuzilishni tezkor loyihalashga yordam beradi.

Shuningdek, talabalarda Microsoft Office paketidagi dasturlar bilan ishlash ko'nikmasi mavjudligi Visio dasturi yordamida kompyuter tarmoqlarining strukturasi tezda ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, bugungi kunda vizual loyihalashtirishga mo'ljallangan dasturlar qatori lucidchart.com kabi online platformalar ham mavjud. Ushbu platforma kompyuter tarmog'ini loyihalash, uning periferik uskunalari joylashivini vizual tarzda aks ettirish imkonini beradi.

Platformada turli sohalarga, jumladan, tarmoq texnologiyalari, elektr energiya tizimi, korporativ hisobotlar, infografikalar va statistikalariga tegishli tayyor shablonlar mavjud. Lucidchart.com platformasida talabalar o'z tengdoshlari bilan loyihani hamkorlikda qurish, ulashish, tasdiqlash va qo'shimcha funksiyalardan foydalanishlari mumkin.

Shu bilan birga, lucidchart.com platformasi talabalar uchun qulay interfeysga ega bo'lib, Google Drive, Microsoft OneDrive, Slack, Atlassian kabi turli tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyati mavjud.

Yuqorida keltirilgan pedagogik dasturiy vositalar yordamida turli xil tarmoq uskunalari tanlash, abonentlarning ish stansiyalari, periferik uskunalari joylashtirish uchun tayyor shablonlar yordamida tarmoq strukturasi yaratish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vizual loyihalashtirishga mo'ljallangan dasturiy vositalar kompyuter tarmog'ining ishlashiga aloqador muammolar grafik shaklda vizual namoyon etadi. Shuningdek, tarmoqni tahlil qilish ishlarini soddalashtirish, imkoniyatlardan kelib chiqib rejalashtirish, vizual sharoitda tugunning (tugun – kompyuter tarmoqlari yoki ularning alohida elementlari ulangan joy) aloqa tuzilmalarini ko'rish orqali muhim ma'lumotlarni to'plash, laboratoriya tajribalarini o'tkazish mumkin. Bu bilan talabalarining tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alla Vasilieva. Microsoft Visio для образовательных учреждений. Введение // Электронный ресурс. February 2, 2015. 01.07.2023

2. Vega, Pérez Julio. "Educational framework using robots with vision for constructivist teaching of robotics to pre-university students". Doctoral thesis, Universidad de Alicante, 2018. <http://hdl.handle.net/10045/90414>.

3. Квалтырева Е.В., Минкин А.В. Анализ программ моделирования электрических схем и цепей для использования в учебных целях // Статья в журнале: Форум молодых ученых № 11-1 (27). -2018. 846-848 ст.

4. Малюгина Т.В. Использование программных продуктов Microsoft Visio и Эксперт-СКС при проектировании локальных вычислительных сетей // Социально-экономические и технические проблемы оборонно-промышленного комплекса: история, реальность, инновации Арзамас, 28–29 ноября 2017 года. 254-258 ст.

## JISMONIY TARBIYANING YOSHLAR O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Navoiy viloyati Navoiy shahri 11-AFCHO'IM  
oliy toifali o'qituvchisi Shodiyeva Munajat Raximovna

Mamlakatimizda xalq salomatligi diqqatga sazovor. Salomatlik har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo'lmoqda. Darhaqiqat, Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rifiga ko'ra: "Salomatlik – kasallik, biror nuqsonlarning yo'qligi emas, balki jismoniy, aqliy (ruhiy) va ijtimoiy xotirjamlikdir".

**Turmush tarzi bu** – inson hayotining tayanch nuqtasiki, har bir inson unga tayangan holda, o'z hayotini tubdan o'zgartirishga erishishi mumkin. Turmush tarzini belgilovchi bosh omil insonning o'zidir. Sog'lom turmush tarzi – shunday yashash tarziki, unda odamlar salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar bo'lmasligi, inson ulardan ongli ravishda o'zini chetga olishi kerak.

### **Sog'lom turmush tarzining asosiy yo'nalishlari:**

- Jamoa va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish;
- jismoniy faollik;
- kun tartibiga rioya qilish;
- zararli odatlardan tiyilish;
- to'g'ri ovqatlanish;
- ruhiy xotirjamlik;
- tibbiy madaniyat;
- kunlik suv ichish tartibi;

Ma'lumki, turmush tarzi sog'lom va nosog'lom bo'lishi mumkin. Sog'lom turmush tarzida yashagan insonlar kundalik hayot me'yorini to'g'ri tashkil qiladilar. Ta'kidlash muhimki, o'qiganda, uxlaganda, yurganda, ovqatlanganda, dam olganda, kulganda, yo'talganda o'ziga xos me'yoriy holat bo'lib, ana shu me'yorning buzilishi muayyan ma'noda, salomatlikka zarar etkazadi. Bu holatni ko'p yoshlar anglashmaydi, unga rioya qilishmaydi. "Me'yor" tushunchasi madaniyatning muhim belgisidir.

Albatta, har bir narsa me'yoridan chiqib ketsa, o'z xususiyatini yo'qotib qo'yishi tabiiy.

Qadimda bir donishmanddan: "Insonni nima baxtli qiladi, boylikmi yoki shon-shuhratmi," – deb so'raydilar. "Boylik, qolaversa, shon-shuhrat ham insonni baxtli qila olmaydi. Tani-joni sog' inson har qanday kasalmand badavlatdan baxtliroqdir",-deb javob beribdi donishmand. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, sog'lom bo'lmagan inson baxtli bo'la olmaydi, betob bo'lsa, hech qanday boylik tatimaydi. Mustahkam sog'liq insonning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib qolmay, balki u jamiyatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoji hamdir. "Xalq sog'ligi – yurt boyligi" deb bejiz aytilmagan. Kishining mustahkam sog'ligini faqat uning kasalliklardan holi bo'lgani emas, balki jismoniy va ruhiy kuch-quvvatining uyg'unligi, yaxshi mehnat qobiliyati, kayfiyatining doim yaxshi bo'lishi ko'rsatadi. Har bir odam o'z qadr-qimmatini bilishi, atrofidagi odamlarni hurmat qilishi, o'z ishini qadrlashi, sog'ligini saqlashi, baxtli-saodatli bo'lib yashashi uchun harakat qilishi kerak. Bu, albatta, sog'lom turmush tarzi bilan amalga oshiriladi.

**Shaxsiy gigiyena haqida tushuncha bu** – inson salomatligining gigiyenik asoslari insonning jismonan sog'lom bo'lishi, turli xavfli kasalliklardan himoyalashida mustahkam o'rin tutishi, eng avvalo, har bir kishi shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilib yashashi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, insonning istiqomat qilishi uchun zarur bo'lgan gigiyenik yashash sharoitini ta'minlashni nazarda tutuvchi jamoatchilik gigiyenasi talablariga amal qilib yashashi bilan ham uzviy bog'langan.

Shaxsiy va jamoatchilik gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shaxsiy gigiyena qoidalari deganda, har bir shaxs tomonidan badan va tana a'zolarining ozodaligini muttasil ravishda ta'minlash bilan bog'liq gigiyenik muolajalar majmuasi tushuniladi.

**Kun tartibiga rioya qilish bu** - Kun tartibi deganimizda, uyqudan turish, ertalabki badantarbiya mashqlari, ertalabki gigiyenik tadbirlar, nonushta, uy ishlari, o'qish, tushlik, hordiq chiqarish, bo'sh vaqt, kechki ovqat, kechki gigiyenik tadbirlar, uyquga yotish tushuniladi.

O'smirlar sog'lom va barkamol bo'lishi uchun kun tartibini to'g'ri rejalashtirishlari lozim. Ular vaqtida aqliy, jismoniy mehnat qilishlari, etarlicha uxlash va sifatli ovqatlanishlari lozim.

Me'yoriy uyqu – sog'liq garovi. Uyqu organizmning hayotiy muhim ehtiyoji. Uyquning davomiyligi yoshga qarab belgilanadi. Uyqu o'smir yoshlarda 8-9 soatni tashkil qilishi lozim. Uyquda organizm dam oladi, asab tizimi tashqi ta'sirga javob bermaydi, ongli faoliyat to'xtaydi, yurak urishi sekinlashadi, qon bosimi pasayadi, nafas olish sekinlashadi, tana mushaklari bo'shashadi, oqibatda energiya sarfi kamayadi, modda almashinuvi susayadi, tana harorati pasayadi. Qattiq uyqudan so'ng odam engillashib, o'zini tetik sezadi. Uyqu – dam olish demakdir. Uyqu tanaga orom bag'ishlaydi. Ba'zilar kechqurun ko'p ovqat iste'mol qilishadi, shuningdek uyqu oldi choy, achchiq kofeni iste'mol qilishadi. Bu, albatta, uyqu buzilishiga olib keladi. Natijada bir qancha kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Uxlashdan oldin quyidagilarga e'tibor bering:

- doimo bir vaqtda uxlashga odatlaning;
- xona harorati 18-19 °C bo'lsin;
- uxlashdan oldin ochiq havoda 40-60 daqiqa sayr qiling;
- uyqudan oldin asab tizimiga salbiy ta'sir qiluvchi eshittirish, ko'rsatuvlarni eshitmang va tomosha qilmang;
- uyqudan oldin iliq dush qabul qiling;
- Ovqatlangandan so'ng kamida 3 soatdan keyin uxlang;
- o'rtacha qattqlikdagi tekis joyda uxlang.

Tiniqib uxlasangiz, tetik va bardam bo'lasiz.

O'smir normal rivojlanishi uchun 4-5 mahal ovqatlanishga ko'nikma hosil qilishi shart. Ovqat har xil vitaminlarga boy bo'lishi lozim. O'smirlar iloji boricha sut, tvorog, go'sht, tuxum, baliq, sariyog', sabzavot va mevalar iste'mol qilishlari kerak.

**Sog'lom ovqatlanish bu** – Ovqatlanish – tiriklik, hayotni ta'minlovchi eng asosiy ehtiyoj. Chunki, har qanday tanadagi hayotiy jarayonlar – tiriklik, harakat, o'sib-ulg'ayish, salomatlikning darajasi ovqatlanish hisobiga bo'ladi.

Ta'kidlab o'tish joizki, ratsional ovqatlanish (ratsional – oqilona, maqsadga muvofiq) organizmning quvvat sarfini to'ldirish, insonning hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan vitamin, mikroelementlarni qamrab olgan, tarkibi hamda miqdori jihatdan organizmning imkoniyatlariga mos keladigan ovqat bilan ovqatlanishdir. Kundalik hayotimizda amal qilishimiz lozim bo'lgan muhim qoidalardan biri ovqatlanish tartibidir.

Iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari insonning jinsi, yoshi, ish faoliyati hamda yil fasliga ham bog'liq. Agar bir kecha-kunduzda uch marta ovqatlansak, ertalabki nonushta umumiy ovqatlanish miqdorining 25-30 foizini, tushlik 40-50 foizini, kechki ovqat esa qolgan foizini tashkil tishi kerak. To'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya qilish hayot davomida inson salomatligini ta'minlaydigan muhim mezonlaridan biridir. O'z salomatligini o'ylaydigan yoshlar to'g'ri ovqatlanish madaniyatini o'zlashtirgan bo'lishlari, ya'ni oqsil, yog', uglevod, vitamin, mineral moddalar va suvning organizm uchun ahamiyatini bilishlari zarur.

**Jismoniy faollik bu** – “Tarbiyaning ajratib bo'lmaydigan bir tarkibi – jismoniy tarbiya”, deb ta'kidlagan Abu Ali ibn Sino. Xalqimiz azal-azaldan jismonan baquvvat, ma'nan sog'lom kishilarga katta e'tibor, hurmat va havas bilan qaragan. Ana shunday insonlardan biri Xorazm elining asl farzandi, kuragi erga tegmagan kurashchi Pahlavon Mahmud xalq qahramoni sifatida e'tirof etilgan. Bugun mustaqil mamlakatimiz sportini jahonga ko'z-ko'z qilayotgan vatandoshlarimiz ham kundan-kunga ko'paymoqda. Sportni rivojlantirish maqsadida Farmon va qarorlar mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga, shu bilan birga, sog'lom avlodni shakllantirishga katta zamin yaratdi. Maktab o'quvchilari o'rtasida “Umid nihollari”, kollej va litsey o'quvchilari o'rtasida “Barkamol avlod”, oliygoh talabalari o'rtasida “Universiya” da o'yinlarining tashkil qilinishi yurtimizda fizkultura va sportning ommalashuviga zamin bo'lmoqda. Har bir yosh jismoniy tarbiya turini tanlashdan oldin, birinchi navbatda, o'z sog'liq darajasini tibbiy ko'rikdan o'tish yo'li bilan baholash, qaysi sport turi bilan shug'ullanish mumkinligini, u yoshiga, yil fasliga, organizmning ayni paytdagi holati va shu kabi

o'ziga xos xususiyatlarga baho berib, jismoniy faollik turini to'g'ri tanlashi zarur. Har bir insonda jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish oiladan boshlanadi. "Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanib turuvchi kishi davolanishga kamdan-kam muhtoj bo'ladi" deb yozgan edi Abu Ali ibn Sino.

Jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtiruvchi va tarbiyaviy vazifalari quyidagilardan iborat:

- butun kun davomida yaxshi kayfiyatda bo'lasiz;
- ishingiz unumli, ijodiy faoliyatingiz kuchli bo'ladi;
- asablar tizimi muvozanatlashib, bosiq, mulohazali bo'lasiz;
- faollik, tashabbuskorlik, qiyinchilikdan, dovyurak, do'stlik hissiyotlarini shakllantiradi;
- muntazam ravishda jismoniy mashq bilan shug'ullanish gigienik ko'nikmalarning shakllanishiga

olib keladi;

- organizmdagi yog'lar kamayib, ixcham, epchil, chaqqon bo'lasiz;
- mushaklaringiz tortishib, qomatingiz ko'rkam va kelishgan bo'ladi;
- tomirlarda qonning oqishi yaxshilanib, tana va a'zolariga kislorod hamda oziqlarning borishi

yaxshilanadi;

- organizmning himoya qobiliyati oshadi;
- o'zgalarga qaraganda yosh, ko'rkam, ishchan va sog'lom bo'lasiz.

Jismoniy sog'lomlashtirish usullari orasida ertalabki badantarbiya ommaviyligi bilan ahamiyatga ega.

Ertalabki badantarbiya tanani uyg'otadi, modda almashinuvini yaxshilaydi, tanaga rohat va faollik bag'ishlaydi, kayfiyatni ko'taradi, karaxtlikni yo'qotishga yordam beradi. Ertalabki badantarbiya har kuni o'z vaqtida ochiq havoda o'tkazilsa, yaxshi samara berish bilan birga, kun bo'yi teranlik va o'qish qobiliyatini oshiradi. Insonga xos erinchoqlik sabab aksari yoshlarimiz o'zlari uchun foydali bo'lgan jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish o'rniga qimmatli vaqtlarini televizor, kompyuter qarshisida turli ko'rsatuvlar ko'rib, o'yinlar o'ynab, spirtli ichimliklar ichib "dam olishga" sarflashni afzal ko'radilar. Natijada, ular bunday kam harakatlilik oqibatida turli kasalliklar kelib chiqadi. Harakatlar qanday bo'lmasin, ular badan va a'zolarining faol ishlashi hisobiga energiya sarf bo'lishi bilan bog'liq.

Har bir insonning kundalik hayotiga kirishi zarur harakat turlari:

- mehnat;
- sport o'yinlari;
- raqs;
- yoga mashqlari;
- jismoniy tarbiya (fizkultura) va hokazo.

Bugungi yoshlar ertaga mamlakatimiz ravnaqini, maqsadlarimizni ro'yobga chiqaradigan kishilardir. Ular har tomonlama etuk, shu jumladan, jismonan sog'lom bo'lishlari shart. Millat kelajagi haqida qayg'urgan Abdulla Avloniy ham bola tarbiyasi haqida fikr yuritarkan, tarbiya jarayonini uch qismga bo'lgan edi: "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi" va "Axloq tarbiyasi". Zero, A.Avloniy "Badan tarbiyasi"ni birinchi o'ringa qo'ygani bejiz emas. Bunda, badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz tana lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar ko'p yaxshi ishlarga qodir bo'la olmaydilar. Fikr tarbiyasi uchun mustahkam va sog'lom bir vujud kerakdir,-deb bejiz ta'kidlamagan.

**Zararli odatlar bu** – inson dunyoga kelib, o'zi tug'ilib o'sgan ijtimoiy muhitning mahsuli sifatida, birinchi navbatda, ana shu ijtimoiy muhitda oldindan shakllangan va ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan sog'lom, shu bilan birga, nosog'lom ijtimoiy me'yorlarni ham o'zlashtirib boradi. Natijada bolada o'ziga xos xulq, xarakter, dunyoqarash shakllanadi. Biz, odatda, ko'p narsalarni shunday bo'lishi kerak, deb qabul qilishga odatlanib qolganmiz, ba'zida ana shu holat yoki odatga moslashib ham qolamiz. Aslida buning noto'g'ri ekanligiga, faqatgina biron-bir kasallikka chalinib, uning sabablarini aniqlab, tushunib olganimizdan keyingina amin bo'lamiz, afsus chekamiz. Odamda kasallik o'z-o'zidan, to'satdan paydo bo'lib qolmaydi.

Shunday qilib, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Jismoniy tarbiya dars ishlanmalari va harakatli o'yinlar (qo'llanma) T. Yu. Sharipov, T.S. Usmonxo'jayev, I. Burnashyev, X. X. Sagdiyev. Toshkent. 2008 yil.

2. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport maktablarining raxbar va murabbiylari uchun qo'llanma. Toshkent 2009 yil. M. Raxmatxo'jayev., B. Safarov.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IQTIDORINI NAMOYON QILISHIDA NUTQIY KOMPETENSIYANING O'RNI**

**Shodiyeva Barchinoy Xudoyqulovna**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”**  
**(Maktabgacha ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistiranti**

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqiy va aqliy salohiyatini yuzaga chiqarish metodlari, shu bilan birga yashirin qobiliyatlarini ochib berish usullari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, "Ilk Qadam", o'yin, innovatsiya, kreativ pedagog, kompetensiya, interfaol metodlar, sahnalashtirish.

### **THE ROLE OF SPEAKING COMPETENCE IN SHOWING THE TALENT OF PRESCHOOL CHILDREN**

**Abstract.** The article talks about the methods of revealing the speech and mental potential of children of preschool age, as well as the methods of revealing their hidden abilities.

**Key words:** technology, "First Step", game, innovation, creative pedagogue, competence, interactive methods, staging.

### **РОЛЬ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОЯВЛЕНИИ ТАЛАНТЛА ДОШКОЛЬНИКОВ**

**Аннотация.** В статье говорится о методах раскрытия речевого и умственного потенциала детей дошкольного возраста, а также методах выявления их скрытых способностей.

**Ключевые слова:** технология, «Первый шаг», игра, инновация, творческий педагог, компетентность, интерактивные методы, постановка.

#### **KIRISH**

Mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiliklarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida qilinayotgan barcha islohotlar– barkamol insonni voyaga yetkazish, yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish va ravnaq toptirish orqali ta'limning keyingi bo'g'inlari salohiyatni mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berildi. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: *“Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”*.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning iqtidorini namoyon qilish uchun xizmat qiladigan nutqiy kompetensiyalari shakllanadi. Shuning uchun biz, pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va nutq qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashimiz va rivojlantirishimiz muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirishda oldindan tayyorlangan mavzularda suhbatlar, teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o'yinlari, savol-javoblar juda foyda beradi. Ta'kidlash joizki, bola

uchun katta yoshli odam savollarga javob topishning yagona vositasi, qiziqarli taassurotlar manbai hisoblanadi. Bola kattalar bilan dialogga kirishishga, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, u ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanishga ehtiyoj sezadi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishish jarayonida bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan so'zlarga aylantirish orqali uning kamchiliklarini tuzatadi. Bola o'rganganlarini faol o'zlashtiradi va undan o'z nutqida foydalanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda uning ota-onasi, aka-opalari va tarbiyachilarining hissasi katta.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilangan bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhim qismi sanaladi. 6-7 yoshli bolaning umumiy muhim kompetensiyalari sifatida birinchi navbatda, kommunikativ kompetensiya, ya'ni muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasini shakllantirish belgilangan. Demak, tarbiyalanuvchilarning o'yin, bilish va ijtimoiy kompetensiyasi qatorida muloqot kompetensiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Shunday ekan, MTTda har bir ta'limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o'stirish va muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o'yinlar va didaktik vositalar asosida o'zlashtirganida samaradorlik yuqori bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyotni oddiy o'qib berishdan ko'ra innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta'minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo'llash talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish muhim va qiyin vazifadir. Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish ham bolalarni yaqinlashib kelayotgan maktabga tayyorlash uchun, ham boshqalar bilan qulay muloqot qilish uchun zarurdir. Bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha yurtimiz va MDH davlatlari pedagoglari qator izlanishlar olib borishganki, xususan, R.Inog'omova, L.Mo'minova, V.Gerbova, M.Konin, G.Lyamina, O.Ushakovalarning pedagogik xazinasidan foydalanib MTTda nutq o'stirish ishlarini mazmunli va samarali tashkil etish mumkin.

**Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:**

- har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;
- hamkorlikka asoslangan ta'lim munosabatlarida bolani faollashtirish;
- nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o'yinli vaziyatlar yaratish.

#### **Olib borilgan tajriba**

Shunday qilib, an'anaviy ravishda ertak va hikoyalarni o'qib berishdan ko'ra innovatsion 3D shaklidagi ertak kitoblar, shu bilan birgalikda, "bi-ba-bo-bo" singari qo'g'irchoqlar orqali ertak va hikoyalarni tanishtirishning amaliy afzalliklarini tasniflaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun an'anaviy ta'limiy oldirishdan iborat. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar tarbiyachining ertak va hikoyasini kichik o'zgarishlar bilan takrorlaydilar, ertak-hikoyalar oddiy shu bilan birga soda gaplar orqali talqin qilinadi xolos. Shuning uchun, ertak va hikoyani o'qib berish jarayoni nihoyasiga yetgach, bolalardan qayta hikoya qilib berish emas, shu ertak va hikoya asosida teatr sahnalashtirish, "bi-ba-bo-bo" qo'g'irchoqlarini jonlantirish bolalarni faol nutqiy vaziyatga undaydi. Ular voqealar ketmaketligiga ko'ra rasmlarni izlab topish jarayonida nafaqat nutqi balki, diqqati, kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. O'zlari ijro qilayotgan ertak va hikoya kompozitsiyasini kuzatish tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi va yangi so'zlar bilan tasvirlashga urinadi. Ushbu faoliyat bolalarni zerikishdan himoya qiladi, butun guruhni qamrab oladi. Ayniqsa, tarbiyachi asosiy ijrochi roldan kuzatuvchiga aylanadi. Pedagogning ijrochi-bolalar xatti-harakatlarini rag'batlantirishi esa nutqiy faollikka yo'l ochadi. Shu kabi innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi talablarga e'tibor qaratish kerak:

- texnologiyani o'qib berish emas, balki bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga yo'naltirish;
- har bir bola uchun uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har xil faoliyat turlarida faol nutq amaliyotini tashkil etish.

Zamonaviy amaliyotda maktabgacha ta'limni maktabgacha ta'lim chiqishi masalalarni talab qiladigan bir qator muammolarni amalga oshirmoqda. Yaqinda nutqi buzilgan bolalar soni sezilarli darajada oshdi, miqdori va sifati o'zgarishlar, ularning rivojlanishida kuzatilmoqda. O'qituvchi pedagoglar tomonidan maktab va bolalar bog'chalari terapevtlarining so'zlariga ko'ra, maktabgacha bolalarning 58 foizi va birinchi sinf o'quvchilarining 56 foizi nutqni rivojlantirishda qat'iylik mavjud. Shuni ham ta'kidlash kerakki, vakolatli nutq uning ahamiyatini yo'qotadi, chunki Zamonaviy bolalar (televidenie reklama, zamonaviy multfilmlar, ijtimoiy tarmoqlarda aloqa va boshqalar) tomonidan nutqning boshqa standartlari buzilishi kuzatiladi. Zamonaviy jamiyat tilining til rivojlanishi tendentsiyasi – bu biantualizm va ko'p tillovualizm (ikki tilli va polibinevmizm). Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirish, to'g'ri talafuzga o'rgatishda tarbiyachi, logoped va ota-ona hamkorligini talab etadi

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar nutq aparatlarining tarkibiy qismlari - bu nutqning tarkibiy qismlari va aqliy funktsiyalarning tarkibiy qismlaridir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy va aqliy salohiyatini yaxshilashga va ularning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga, ijodkorlikka, ijro etayotgan ertak yoki hikoya qahramonini his qilishga, asar ichida yashashga, tasavvurida tinglayotgan voqealarini jonlantirishga, kreativ bo'lishga, so'z va gaplardan o'rnida foydalanishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Babayeva D.R. Nutq o'zlashtirish nazaryasi va metodikasi. Toshkent-2018
2. Haydarov, M., Yusupova, Z., Sayramov, F., & Rahmonova, O. (2022). LAMIACEAE OILA VAKILLARINING BIZ BILGAN VA BILMAGAN DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 1(D7), 89-94.
3. <http://ma'rifat.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020
4. Nigora Axtamova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH. Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy. <https://tma.uz/> International Scientific and Practical Conference
5. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasini va uni o'qitish metodikasi. Toshkent "O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" 2006-B.68.
6. Yusupova, Z., Saminov, A., & Sayramov, F. (2022). SALVIA-L MARMARAK TURKUMI VAKILLARINING O'ZBEKISTONDA TARQALISHI, HAYOTIY SHAKLLARI VA ISHLATILISHI. Science and innovation, 1(D6), 13-19.

### **ILMIY MAQOLA NIMA VA UNING TUZILISH STRUKTURASI**

**Abduxoliqova Marjona**  
**Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti**  
**Pedagogika va psixologiya fakulteti**  
**Maktab menejmenti yo'nalishi 2-kurs talabasi**

**Annotatsiya.** Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimizda o'z ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borayotgan izlanuvchan yoshlar albatta, ko'pchilikni tashkil qiladi. Xususan, ular yaratgan yangiliklarini tezroq ommaga tanitish uchun ilmiy maqolalar yozishadi va bu ularning kelgusidagi kareralari uchun juda ahamiyatlidir. Shunday ekan biz ushbu maqola orqali "ilmiy maqola" qanday yozilishi xususida batafsil so'z yuritamiz.

**Kalit so'z:** ilmiy maqola, altruizm, ilmiy izlanish, metod, tadqiqot, muhokama, adabiyot, sun'iy intellekt.



Bugungi kunda ilm-fan sohasini rivojlantirish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy muammolardan biridir. Chunki hech bir jamiyat, hech bir mamlakat ilm-fansiz taraqqiyotga erisha olmaydi. Shu boisdan ham, so'nggi yillarda bu sohani jadal rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan juda katta e'tibor qaratilmoqda. To'g'risini aytish kerakki, bu borada yana qilinishi zarur bo'lgan ishlar ham talaygina. Xususan, sohaga yoshlarni keng jalb etish, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini ommalashtirish hamda jamiyatda olimlik maqomini yuqori darajaga ko'tarish shular jumlasidandir. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarini endigina tamomlab, ilmiy tadqiqot sohasiga kirib kelayotgan yoshlarga ilmiy maqola yozish va uni to'g'ri rasmiylashtirish qoidalarini o'rgatish, tom ma'noda ularda tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, magistratura va hatto tayanch doktoranturada tahsil olayotgan aksariyat yoshlarda ilmiy tadqiqotni amalga oshirish hamda o'z tadqiqotlarini ilmiy jamoatchilikka bayon etish malakasi juda zaif ekanligi bot-bot ko'zga tashlanmoqda.

**Maqola** — bu har qanday mavzu, g'oya, savolni batafsil yoritgan, ularning tahliliy elementlarini o'z ichiga olgan hamda davriy yoki davriy bo'lmagan to'plam uchun mo'ljallangan asar.

**Ilmiy maqola** — dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq muammolar doirasiga kiruvchi konkret muammoga bag'ishlangan to'liq va mantiqiy tugallangan ish. Ilmiy maqola batafsil dalillarni talab qiladi va eng muhim natijalarni ochib beradi.

Ilmiy maqola — bu nisbatan kichik (o'rtacha — 0,5 probel, ya'ni bo'sh joy bilan 20 ming belgi yoki 8-9 sahifa, bir yarim interval bilan 14 o'lchamda terilgan matn). Maqola professional-ilmiy hamjamiyatni muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari bilan tanishtiradi. Umberto Ekoning fikricha, maqola — bu amalga oshirilgan ilmiy ishlar bo'yicha ommaviy va tekshiriladigan (tekshirish mumkin bo'lgan) hisobotdir. Ilmiy maqolaning zaruriy sifati — ko'rib chiqilayotgan materialning yangiligi, farazning asosliligi, xulosalarning obyektivligi va taqdimotning to'g'riligi.

Yuqoridagi ta'riflardan shunday xulosa kelib chiqadiki, ilmiy materiallarni oldindan tayyorlamasdan turib maqola, ilmiy maqola yozish mumkin emas. Ilmiy materiallar va tadqiqot natijalarini tizimli hamda mantiqiy taqdim etishdan oldingi asosiy shartlar quyidagilar:

- tadqiqot muammosi va uni hal qilish g'oyasining mavjudligi;
- tegishli darajadagi tadqiqot;
- tadqiqot natijalarining maqsadga muvofiqligini muayyan baholash;
- kasbiy (shu jumladan, ilmiy) jamoatchilik tomonidan muammoga
- va tadqiqot natijalariga qiziqishning mavjudligi.

Ilmiy maqolani tayyorlash ilmiy materiallar va tadqiqot natijalarini taqdim etishning hal qiluvchi bosqichi, uslubiy jihatdan tashkil etilgan maqsadli jarayondir.

Avvalo, maqola-bu o'z sohangizda yaratayotgan yangiliklaringizni boshqalar, ma'lum doiradagi kishilar bilan bo'lishishning eng maqbul va ilk ko'rinishidir. Ya'ni, maqola tadqiqot natijalari bilan rasman bo'lishish vositasi hisoblanadi. Asl mohiyati ham aynan shunda. Ilm sohasi natijalariga asoslangan, nashr qilingan ishlar bo'lmish "Ilmiy maqolalar" ozmi-ko'pmi tugallangan fikrga ega bo'ladi va sayqallanadi. Bunda talaba izlanuvchi shaxs hisoblanib, o'zining ilmiy tadqiqot faoliyatini olib boradi hamda tadqiqot natijasi o'laroq kashf qilingan yangilikni batafsil tahlil qilib, uni maqola ko'rinishida hujjatlashtiradi. Aslida bu kabi ilmiy farazlarini kitob qilib chop ettirsa bo'ladi, ammo bir necha yillar kerak bo'ladi va vaqt kutib turmaydi. Shuning uchun ham, maqola – eng maqbul variant bo'lib, hajm jihatdan ham 8 000- 15 000 so'z atrofida bo'ladi. Bunda faqatgina yangilikni o'ziningiz yozish bilan ish bitmaydi. Avval eski nazariya yoki g'oya qisqacha keltirilib, tahlil qilinadi va qilingan yangilik nimasi bilan farq qilishi, ustunligi, muhimligi tushuntiriladi va o'ziga xos "burchak" yaratiladi.

Maqolaning bu qismi "adabiyotlar tahlili" bo'limi hisoblanadi. Keyingi qism esa asosiy bo'lim bo'lib, unda mavjud muammoning yechimi yoki takliflar yoritib beriladi. Shu o'rinda misol yoki isbotlar ham keltirib o'tish mumkin. Xususan, muallifdan talab qilinadigan narsa bu – maqola bo'limlarining mantiqan bog'lanishidir. Yakuniy xulosa qismida maqolada aytib o'tilganlar qisqacha takrorlanib, sarhisob qilinib umumiyashtiriladi. Va yakundan so'ng foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va havolalar keltiriladi.

Shuning bilan maqola tayyor holga keladi. Keyingi navbatdagi ish maqola mavzusiga yaqin bo'lgan jurnal yoki konferensiyani izlash va unda chop ettirishdir. Lekin maqolani xalqaro va nufuzli jurnallarda nashr ettirish oson ish emas. Bunda maqola bir necha chig'iriqlardan o'tishi va shu orqali har

tomonlarga sayqallanib, mukammal ishga aylanishi kerak. Xo'sh, shunday ekan muallifni maqolani chop ettirishga nima undaydi? Bunga ikki turtki mavjud: altruizm va shaxsiy manfaat.

Altruizm – ilmiy nashrlar bugungi kunda ilmiy yutuqlarni tarqatish va arxivlashning asosiy usuli hisoblanadi (kitoblar, konferensiyalarning prezentatsiyalari va universitetlarda o'qitish va boshqa usullar keng tarqalgan) Ilm-fan jamoatchilik bilimlari to'plami orqali o'sib boradi va rivojlanib boradi, u doimo muhokama qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi va kengaytiriladi. Aksariyat olimlar (va men ilm-fanning ichiga ishlab chiqarishni ham olganman) o'z sohasini rivojlantirishga hissa qo'shishni juda xohlashadi, bu ko'pincha olim bo'lish uchun asosiy sababdir. Nashr qilish odatda bunday hissa qo'shishning eng to'g'ri yo'lidir va shuning uchun bu mualliflarni yuqori darajada rag'batlantiradi va qoniqtiradi.

Shaxsiy manfaat – nashriyot muallifga sezilarli foyda keltirishi mumkin, shu bilan birga maqola yozish va nashr etishda shaxsiy manfaatdorlik ta'minlanadi. Nashriyot martaba ko'tarish uchun ham xizmat qilishi mumkin va ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul mukofotlari olib keladi. Akademiyadagi "nashr etish va yo'q qilish" paradigmasi mansab pog'onasiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo aniq professional motivatsiyalarsiz ham, deyarli barcha insonlar o'zlarining sa'y-harakatlarini tan olinishini talab qilishadi. Avvalo, altruizm va shaxsiy manfaatni muvozanatlashtirish kerak.

Ilmiy maqola strukturasi yaxshi bilgan va maqola mavzusini anglay olgan muallifgina har tomonlarga mukammal maqola yoza oladi. Ammo ba'zi talabalar sun'iy intellektdan noto'g'ri maqsadlarda foydalanib, aynan uning yordamida soxta maqolalar yozishmoqda. Agar biz ularga hozir to'g'ri tushuncha berib, yo'naltira olsak, shundagina jamiyatimizning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratgan bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dhillon P. How to write a good scientific review article // The FEBS Journal, 2022, Vol. 289 (13). P. 3592-3602. [https://www.researchgate.net/publication/361819244\\_How\\_to\\_write\\_a\\_good\\_scientific\\_review\\_article](https://www.researchgate.net/publication/361819244_How_to_write_a_good_scientific_review_article).
2. Ecartot F., Seronde M., Chopard R., Schiele F., Meneveau N. Writing a scientific article: A step-by-step guide for beginners // European Geriatric Medicine, 2015, Vol.6(6). P.573-579. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1878764915001606>.
3. Hengl T., Gould M. Rules of thumb for writing research articles. [http://www.itc.nl/library/Papers/hengl\\_rules.pdf](http://www.itc.nl/library/Papers/hengl_rules.pdf)
4. <https://oliyogoh.uz/post/ilmiy-maqola-qanday-yoziladi>

#### **DEVELOPMENT OF THE COTTON STRUCTURE**

***Rakhmonova Rukhsora Bahriddinovna***

Associate Professor, Department of Biology Educations, Faculty of Natural Sciences,  
Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan

***Sadriddinova Mokhirabonu Akramovna***

Student, Samarkand Institute of Economics and Service, Uzbekistan

***Narzullayeva Zahro Otabek qizi***

Student, Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan

#### **Annotasiya**

Maqolada rangli paxta tolasi tuzilishining shakllanish bosqichlari, yetuklikni o'rganish usullari, tola uzunligini o'lchash, tolaning tuzilishi va rangining o'zgarishiga omillarning ta'siri, pigmentlarning paxta tolasining rang xususiyatini rivojlanishiga ta'siri haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** paxta, paxta tolasi, navi, tolaning mustahkamligi, tola uzunligi, pigmentlar, usullar  
**Annotation.**

The article provides information on the stages of formation of the structure of colored cotton fiber, methods for studying maturity, measuring fiber length, the influence of factors on changes in fiber structure and color, the influence of pigments on the development of the color trait of cotton fiber.

**Keywords:** cotton, cotton fiber, grade, fiber strength, fiber length, pigments, methods

### **Аннотация**

В статье приведена информация о этапах формирования структуры цветного хлопкового волокна, методы изучения зрелости, измерения длины волокна, влияние факторов на изменения структуры и цвета волокна, влиянии пигментов на развитие признака цвета волокна хлопчатника.

**Ключевые слова:** хлопчатник, хлопковое волокно, сорт, крепкость волокна, длина волокна, пигменты, методы

**Introduction.** Cotton, as a light-loving plant, is grown mainly in regions with a warm climate. Long-term studies of the signs of this plant show the duration of the growing season. Cotton fiber is a valuable raw material of the textile industry. The structure of the cotton fiber is formed during its maturation. Cotton fiber swells to its maximum at a temperature of 80C in a 12-14% solution of sodium hydroxide. After mercerization, cotton fibers acquire a more regular cylindrical shape, their walls swell and thicken, and the channel becomes narrower. The chemical composition of the fiber includes cellulose, 94.5-96%, waxy substances 0.5-0.6%, pectin substances 1.14%, other substances 1.32%, the fiber may contain natural dyes. The chemical composition may vary depending on changes in climatic conditions. Cotton is a mass of thin fibers of plant origin, barely distinguishable by the simple eye individually. However, the sufficient length and strength of these fibers, which make it possible to make yarn from them, have won such a venerable place for cotton among other fibrous materials. [1]

**Methods.** Previously, the method of determining the maturity of the fiber consisted in the fact that, examining the fiber under a microscope, it was attributed to various degrees of maturity in appearance: zero maturity-the most mature fiber, little twisted, then the 1st, 2nd, 3rd, 4th, 5th degree meant completely immature or a dead fiber, little twisted and transparent. In different varieties of cotton, the fiber tone changes with maturity. So less mature fibers are thinner, and this is very important for the strength of the yarn. Cotton is very mature, thick, little twisted, immature cotton is weak and also little twisted, therefore, maturity is necessary for the strength of the yarn, but small. When determining the length of a fiber, one of the most common methods of measuring fiber length is the direct measurement with a ruler of fiber pulled from a piece of cotton by hand. This method of measuring length is fast but inaccurate. In addition, the length of the fiber depends on the moisture content of the cotton, since dry fibers are more convoluted and sharper, and wet fibers are always straighter and longer. There are more accurate methods for measuring fiber length that are used in laboratories. These are measurements on various instruments. With the weighing method, 10 mm long clippings are made from a cotton shred (staple), and then these clippings and these staples are weighed. Then the average length of the staple can be found by the weight ratio: the average length of the fiber, the length of the tenderloin (10mm), the weight of the entire staple, the weight of the tenderloin. Fiber length can also be determined using staple (fiber) diagrams, frequency diagrams and other methods.

### **Results**

The color of cotton fiber in the species *G. hirsutum*, *G. barbadense* is white, yellow, brown, green, pink. The nature of the dyed fiber loses its hue during bleaching and this process does not affect the quality of the cotton fiber.. If the yellow color of cotton appeared as a result of spoilage from rain, dew, fog, etc., if the fiber began to ripen from dampness, then this color is a sign of poor quality, since the brown fiber is always weaker, and in this case, the thicker the yellow color, the worse the cotton.

Many types of cotton are known, but two types are mainly of industrial importance: medium-fiber and fine-fiber.

Medium-fiber cotton matures in 130-140 days from the moment of sowing, gives a fiber length of 25-35 mm. Fine-fiber cotton has a longer maturation period, lower yield, delivers a longer (35-45mm), thin and durable fiber, which is used to produce high-quality yarn. The linear density of cotton fibers ranges from 0.17-0.2 tex.

A sign of the gloss of the cotton fiber indicates quality. Silkiness is also inherent in good varieties with fine fibers (*G.hirsutum*), also called "upland". The fiber length ranges from 15 to 35 mm. It is mainly grown in China, India, Brazil, Argentina and the USA. It accounts for more than 90% of global production.

The silkiness of cotton fibers is determined by touch. The uniformity of the fiber length in cotton is also determined practically when plucking a staple (a fibrous piece from a bale). It is determined by the classifiers by touch when preparing the staple by pulling and when tearing the staple with your hands.

### **Discussion**

Cotton fiber has a high hygroscopicity, as it has the ability to absorb moisture. When the fiber swells, it increases by about 40% in volume. Unlike other fabrics, cotton increases its strength by 15% when wet. If we compare the strength with the breaking load of natural fibers; inferior to linen and superior to wool. Like all natural fabrics, it is sensitive to light-after 940 hours of exposure to sunlight, the strength is halved. More than silk, it is sensitive to prolonged exposure to high temperatures – after three days of heating to 1500C, the strength is halved. Thermoplastic is able to form after heating, which allows you to add cotton to suit fabrics made of synthetic fibers to improve properties. The recommended temperature for wet-heat treatment is 1300C. It has good thermal protection characteristics due to the hollow structure of the fiber.

Fabrics without processing are easily wrinkled and worn; abrasion resistance is solved by adding synthetic fabrics (nylon); increased crease is eliminated after the so-called indelible finishing with urea-formaldehyde resin. Like other natural fibers, it does not dissolve in organic solvents (for example, in formic acid, vinegar, alcohol), which allows you to use these readily available reagents to clean complex stains on cotton fabrics at home. However, it is sensitive to the action of inorganic acids and alkalis; alkali treatment (for example, caustic soda) is used in the manufacture of fabric. Cotton fiber is sensitive to the effects of microorganisms and is subject to rotting.

The white fiber of cultivated species and most modern varieties of cotton is the result of long-term breeding. The development of the textile industry in the last century led to the emergence of a variety of artificial dyes, and naturally colored cotton practically disappeared from production. However, due to the high activity of chemical agents in the bleaching and dyeing process, the molting and destruction of cotton fiber occurs, which leads to a decrease in the strength of the fabric and the heterogeneity of the color tone of the products. In addition, the substances used in textile chemistry are often carcinogenic and allergenic.

### **Conclusion**

Currently, a search is underway for new safe, highly effective and environmentally friendly natural products, and the requirements for environmental friendliness and quality of clothing have increased dramatically. As breeding practice shows, the sign of fiber staining is related to its chemical composition, which, in turn, determines the strength and tone. Thus, white fiber contains no more than 0.7-0.8% of fatty substances, whereas green fiber contains up to 17.0%. The color of the fiber is given by catechins – aromatic substances from the group of flavonoids, the oxidation products of which form phlobafenes, which cause brown, yellow – brown and blackish coloration and play the role of an antiseptic.

Despite the susceptibility to pilling, abrasion, sensitivity to light, like most natural fabrics, natural cotton fiber perfectly passes air and perfectly absorbs excess moisture from the skin surface, therefore it is convenient for children's and summer clothes.

### **Literature**

1. Dariev A.S., Abdullaev A.A. Comparative anatomical and morphological study of some species cotton due to their resistance to spider mites and aphids. //Uzb. biol. magazine – Tashkent, 1974. - No. 6.

2. Khalikova M.B., Askarova Z. O., Matyakubova E.U., Sorieva S.E., Karshiev Sh.B. Results of the study on the stability of the cotton fiber structure //SCIENCE AND INNOVATION international scientific magazine special issue. - Tashkent, 2023.

3. Khalikova, M. B., Nurmamatov, A., & Rakhmonova, R. B. (2023). G. hirsutum L. turi duragailarida tola rangi belgicining irsiylanishi. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 607-610.

4. Rakhmonova, R. B., & Bakhriddinova, G. O. (2021). Formation of the cotton fiber structure. Academic research in educational sciences, 2(7), 72-80.

5. Khalikova M.B., Rakhmonova, R. B. (2023). Svoystva xlopka s svetnim voloknom i mexanizmi nasledovaniya okraski volokna u gibridov vida G.hirsutum L. Journal of Healthcare and Life-Science Research 2(12),243-247.

## **YOSHLARDA BADIY-ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH VA HUNARMANDCHILIKGA MEHIR UYG‘OTISH.**

**Amonova Zarifa Usmonovna**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**o‘qituvchisi.**

**Nematova Tursintosh Alisher qizi**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya.** Jamiyatdagi har bir inson yakka holda, tashqarida yashamaydi. U odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, uning butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Demak doimo axloqiy va estetik munosabatda bo‘ladi

**Kalit so‘zlar:** Estetik, san‘at, tarbiya, inson, talabalarda, badiiy-estetik, madaniyatni, rivojlantirish, o‘smir, go‘zallik, qadriyat.

**Development of artistic and aesthetic culture in young people and instilling love for crafts.**

**Amonova Zarifa Usmonovna**  
Navoi State Pedagogical Institute  
Teacher.

**Nematova Tursintosh Alisher's daughter**

Navoi State Pedagogical Institute  
Student

### **ANNOTATION**

**Introduction:** Not everyone in society lives alone on the street. They grow up, mature, live among people, and interact with various categories of individuals throughout their lives and careers. This is due to the need to meet the daily life needs of individuals. Therefore, there is always a moral and aesthetic relationship.

**Keywords:** Aesthetics, art, education, human, students, artistic-aesthetic, culture, development, teenager, beauty, value. Технология развития художественно-эстетической культуры у студентов.

**Развитие художественно-эстетической культуры у молодежи и привитие любви к ремеслам.**

**Амонова Зарифа Усмоновна**  
Навоийский государственный педагогический институт  
Учитель.

**Нематова Турсинтош дочь Алишера**

Навоийский государственный педагогический институт  
Студент

## АННОТАЦИЯ

**Входить:** Не все в обществе живут одни, на улице. Он растет, взрослеет, живет среди людей, взаимодействует со многими разными категориями людей на протяжении своей жизни и карьеры. Это связано с необходимостью удовлетворения повседневных жизненных потребностей человека. Так что всегда есть моральные и эстетические отношения.

**Ключевые слова:** Эстетика, искусство, воспитание, человек, студенты, художественно-эстетическое, культура, развитие, подросток, красота, ценность.

---

O‘z ma‘naviy hayoti va kelajagini qurayotgan har bir davlat milliy ezgulik, odamiylik, halollik, fidoiylik, oliyanoblik, mehr-oqibat, vijdoniylik, adolat singari axloqiy qadriyatlarga murojaat qiladi. Bu fazilatlar esa jamiyat, jamoat va oila muhitida shakllanadi. Oila muqaddasdir. Oilaning tinchligi bu jamiyat tinchligidir.

Axloq – ma‘naviyatning amalida namoyon bo‘lishidir. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik ma‘naviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo‘ladi. Axloq – insof va adolat, iymoniylik va halollik, mehr va muruvvat, saxovatpeshalik va bag‘rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g‘amxo‘rlik singari ma‘naviy tushunchalarini insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan ma‘naviy hodisadir.

Ijodiy shaxsni shakllantirish vositasi sifatida o‘smir yoshdagilar, talabalarning badiiy-estetik rivojlantirish uzluksiz ta‘lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Badiiy-estetik rivojlanish insonning voqelikka estetik munosabatini, shu jumladan, dunyoni badiiy jihatdan anglash, san‘at dunyosiga oshno etish, badiiy-ijodiy qobiliyat, badiiy-estetik qadriyatlar tizimini maqsadga yo‘naltirilgan tarzda shakllantirishga imkon beradi. Badiiy-estetik rivojlanish estetik tarbiya negizida amalga oshadi. Ta‘lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat e‘tiborini alohida shaxsga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Chunki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e‘tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta‘sir o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘yadi. Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy-ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi. Shuni ta‘kidlash joizki, qadimgi dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarning har tomonlama rivojlanishiga, “ruh va badan” hamohangligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi. Aflotun va Arastu kabi zabardast mutafakkirlar ta‘limotlarida estetik tarbiya tizimining birbiridan farqli tomonlari bo‘lgani holda umumiylik ham mavjud bo‘lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona axloqiy xulq-atvor va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan edi. Avvallari estetik tarbiya o‘ta tor va bir tomonlama talqin qilinar, ya‘ni uni san‘at asarlarini to‘g‘ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san‘at turini bilib olib, muayyan badiiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish doirasida inkor etilar edi. Ba‘zan estetik tarbiyaga odamlarda yuksak estetik did-farosatni shakllantirish sifatida qaralar edi. Bularning barchasi badiiy estetik tarbiyaning vazifa va maqsadlari doirasiga kiradi.

Bugungi kunda badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi – munosabatlarni san‘at vositalari yordamida shakllantirishdir. Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi qo‘yish xam xato bo‘lardi. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya san‘at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir. Voqelikka estetik munosabat o‘z xususiyatlariga ega bo‘lgan holda nisbiy mustaqillikka ham ega bo‘lib, foydali-amaliy, ilmiy-nazariy munosabatlarni xam o‘z ichiga oladi. Binobarin, voqelikka bo‘lgan inson munosabatining har qanday ko‘rinishi estetik mazmundan ajralib qolsa, u asl insoniy mohiyatini yo‘qotib qo‘yadi. Ko‘rinib turibdiki, estetik munosabat hayotga iste‘molchilik nazari bilan qarashdan xalos bo‘lish, dunyoga keng va xolis qarash, odamlarda, tabiat voqea-hodisalarida, narsalarda, eng avvalo, jamiyat, insoniyat, taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan ijtimoiy ahamiyatli bo‘lgan fazilatlarini ko‘ra olish qobiliyatini tarbiyalaydi. Estetik tarbiya, eng avvalo, kishilarning estetik didlari shakllanishiga katta ta‘sir o‘tkazadi. Shaxs o‘zligi uning estetik didi orqali

namoyon bo‘ladi. Estetik didda inson aqliy va hissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehtiyojlari, maqsad-manfaatlari ro‘yobga chiqishi ifodalanadi.

Did faqat kayfiyat baholarigina emas, balki insonning samarali faoliyati vositasida ham tarkib topadi. Inson faoliyatining barcha samarali faoliyatlarida uning didi aks etadi. Estetik tarbiya o‘z diqqat-e‘tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi, xilma-xil o‘ta murakkab talab-ehtiyojlarni birlashtiradi, uyg‘unlashtiradi va hamohang tarzda amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Estetik tarbiyaning inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg‘usi ham mavjud bo‘lishini, bu mezon tuyg‘usi shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda qo‘shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg‘usida yetuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Estetik ehtiyoj faqat moddiy va ma‘naviy go‘zalliklardan lazzatlanishgina emas, balki har qanday amaliyot sohasida narsalarni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda yaratishni, faoliyatga go‘zallikni tatbiq qilishni ham bildiradi. Shu bois estetik tarbiya hayot jabhalarining hammasiga, ya‘ni o‘qish, mehnat qilish, ilmiy va texnik izlanish, jamoaviy faoliyatga tatbiq etilishi lozim bo‘ladi. O‘smir yoshdagilar, talabalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish estetik tarbiya tizimi yordamida amalga oshadi. Estetik tarbiyani tashkil etish tizimida qator tamoyillar yotadi. Estetik tarbiya va badiiy ta‘limning hamma uchun umumiyliigi shundaki, kattalar va bolalar ma‘naviy hayotda, kundalik mehnat, san‘at va tabiat bilan muloqotda, turmushda va shaxslararo munosabatda estetik hodisalar bilan doimiy ravishda o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ana shu jarayonda ularning go‘zalligi va xunukligi, fojiali va kulgili jihatlari namoyon bo‘lib boradi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, estetik savodlilik, ideallar, estetik rivojlanish va badiiy ta‘limsiz, ishda mahsulotni estetik takomilga yetkaza olmasdan, shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib rivojlanishi mumkin emas. Estetik tarbiyani tashkil etish tizimi yana barcha tarbiyaviy ishlarga yaxlit yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Talabalarining estetik tarbiyasida san‘atning barcha turlari o‘z-o‘zidan birga harakatlanadi, o‘smir shaxsiga yaxlit ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday o‘zaro harakat badiiy asarlar, tasviriy san‘at, musiqiy savodxonlikni oshirishda mustahkam aloqadorlik natijasida amalga oshadi. Bundan tashqari estetik tarbiya, fan, mehnat, jismoniy madaniyat, estetik munosabat va turmush go‘zalliklarini ochish hisobiga ham amalga oshadi. Estetik tarbiya tizimi talabalarining butun badiiy-estetik faoliyatini hayot, jamiyatning amaliy taraqqiyoti, ularda dunyoqarash va axloqiylikni shakllantirish jarayoni bilan o‘zaro aloqadorlik tamoyiliga tayanadi. Jamiyatning demokratlashuvi – go‘zallik va axloqiylik manbaidir. Hozirgi yoshlarda mehnatsevarlikni, milliy qadriyatlarni, san‘atni qadrlash hissini kuchaytirishimiz lozim va estetik dunyoqarashni shakllantirish zarurdir.

Hayotimizni ranglar o‘rab turibdi. Atrofimizni, butun olamni ranglarda ko‘ramiz. Rang faqatgina fizik hodisa emas. U insoniyat madaniy kapitalining ajralmas qismi hamdir. Ranglar odamlarni o‘rab turgan olamning muhim qismi, unga o‘zgachalik baxsh etadigan xususiyatdir. Shu bois odamlar ko‘p narsalar, buyumlar, joylar, shaxslarni ranglar bilan uyg‘unlikda tasavvur qiladi. San‘at bu fanning yagona tadqiqot obyekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go‘zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shug‘ullanadi.

Birinchisi, yosh avlodning estetik bilimlarini shakllantirish, ularni o‘tmish madaniyati bilan tanishtirish uchun mo‘ljallangan. Bolalar hayotdagi, mehnatdagi, tabiatdagi go‘zallikni ko‘rishga, unga hissiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi. Estetik ideallar shakllanmoqda. Harakatlar, fikrlar, tashqi ko‘rinishda mukammallikka intilish rag‘batlantiriladi. O‘qituvchi estetik didning hamma odamlar uchun har xil ekanligini unutmasligi kerak. Ba‘zi bolalar klassik musiqani hayratda qoldiradilar, boshqalari hard rock bilan xursand bo‘ladilar. Bolalarni boshqa odamlarning va davrlarning didini o‘ziga xosligi bilan bog‘lashga, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish kerak. Ikkinchi guruh vazifalari bolalarning amaliy badiiy faoliyatida ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Ularga rasm chizish, ertaklar tuzish, plastilindan haykaltaroshlik, raqsga tushish, cholg‘u asboblari o‘ynash, qo‘shiq aytish, she‘r aytishni o‘rgatadilar. O‘qituvchilar tomonidan teatrlashtirilgan tomoshalar, konsertlar, adabiy kechalar, ko‘rgazma va festivallar tashkil etiladi. Natijada, bola faol ijodiy faoliyatga qo‘shiladi, go‘zallikni o‘z qo‘li bilan yaratishni o‘rganadi va ulg‘ayadi.

O‘zbek hunarmandchiligi boy tarixga ega. Milliy xalq hunarmandchiligi igna bilan quduq qazigan bilan barovardir. Navoiy viloyatida ham hunarmandchilikning juda ko‘plab turlari rivojlangan. Tarixi

uzoq yillarga borib taqaladigan, afsonaviy va sirli Nurotada ham xalq hunarmandchiligi qadimdan rivojlangan. Aholi hunarmandchilikning 30 dan ortiq turlari ya'ni sangtaroshlik, kashtachilik, kulolchilik bilan shug'ullanishadi.

Shundan kashtachilikni oladigan bo'lsak "ot – kutyur" darajasida desak bo'ladi. Umrboqiy kashtachilik bilan shug'ullanadigan hunarli insonlar hech qachon xor bo'lmaydi. Har bir kashtada nafosat olami aks etgan, nafislik, fusunkorlik va jimjimadorlik hamda did bilan yaratilgan kashtalar bigizda tikilib, ba'zida ularni yaratishga 6-7 oylab vaqt ketadi. Ayniqsa, tobadoni, kosagul, panjigul kabi 50 dan ortiq nusxalarda tovus, bodom, qalampir nusxa va lola naqshlaridan keng foydalaniladi. Kashta uchun maxsus matolar Namangandan olib kelinadi. Kashtalar tabiiy buyoqlar ishlatilgan ipak iplarda tikiladi. Rang olish uchun daraxt va o'simliklardan foydalaniladi.

Yong'oq bargi qaynatilib, jigarrang olinsa, o'smadan yashil rang, piyoz po'stlog'idan sarg'ish rang olish mumkin. Shuningdek, shaftoli, gilos, behi, anor bargidan ham foydalanish mumkin. Shuning uchun ham nurotalik qo'li gul farishta onaxonlar tomonidan tayyorlangan kashtalar bo'yalmaydi, yarim asrgacha ularning rangi o'chib ketmaydi. Nurotadagi har bir oilada albatta kashta bor, chunki qizlar turmushga chiqish oldidan albatta seplari uchun ham so'zanalar tikishadi. Qo'l mehnati bilan yaratilgan san'at asari darajasidagi nurota kashtalarining narxi jahon bozorida ancha baland.

Ular yaratgan kashtalar allaqachon xorij bozorlarini ham zabt etgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Azaldan rivoyat bor, so'zanasi bor uylar har qanday xavf-xatardan xoli ekan. Chunki bodom, anor, qalampir nusxalari aks etgan kashtalar shu xonadonlarni tumori sifatida qadrlanar, asralar ekan. Bu ijod yo'nalishida ranglar uyg'unligi va tasvir mohiyati birinchi galda turadi. Iplarimizning rangi tabiiy bo'lganligi sababli hech bir bo'rttirishga yo'l yo'qdir. Tabiiy rangli iplar tarixiy davrni ochishda qo'l keladi.

Matoda minatura ishlash juda aniqlikni talab etadi lekin kishiga zavq beradi. Har holda ijoddagi bu yo'nalish yangilik sifatida ko'pchilik tomonidan katta qiziqishga sabab bo'ladi. Men milliy hunarmandchilгимizning kashtachilik yo'nalishida fidoi bo'lgan onaxonlardan ko'p eshitaman momomeros qadryatlarimizni davom ettirish avvalgi zamonlarda barcha o'zbek ayollariga nasib etmagan ekan. Kashta tikish juda injiq va murakkab ish bo'lib, kata sabir – toqat talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma. – "Universitet", 2020 y  
Muallif: La'lixon Muhammadjonova
2. Bobonazarov S. U. Tasvirlarnigrizayltexnikasidaishlashningo'zigaxosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 114-118.
3. Шавди́ров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическоеобразованиеинаука, (2), 109-110.
4. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 192-198.
5. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
6. Soli TolibovichSadiyevO'RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniattyura-maktablarining-metodlari> (дата обращения: 26.10.2023).
7. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS'aRTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B9. – C. 106-108.
8. Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C3. – C. 64-66.
9. Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BO'LAJAK TASVIRIY VA AMALIY San'at O'QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 908-910.



10. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 191-197.
11. Tolibovich S. S., Mardonovna M. G. EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 16-19.
12. Amonova, Z. U., & Vosiyeva, A. T. X. (2022). MODELIER DIZAYNERLAR CHIZADIGAN INSON QOMATIDA LIBOSLARGA RANGNING BOSQICHMA--BOSQICH BERILISHI USULLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(5), 269-274.
13. Usmonovna, A. Z. (2023). AMALIY BEZAK San’atI ORQALI OT–KUTYUR YARATISH VA ESTITIK DUNYOQARASHNI SHAKILLANTIRISH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 49-51.
14. Khamidovna, K. G., & Usmonovna, A. Z. (2022). The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 275-278.
15. Aziza To‘xtaqulovna Vosiyeva, & Zarifa Usmonovna Amonova (2023). TASVIRIY San’at DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB – HUNARGA YO‘NALTIRISH. *Oriental Art and Culture*, 4 (1), 340-343.
16. Amonova Z.U., & Quziboyeva R.A. (2022). BADIY HUNARMANDCHILIK SOHASIDA KASHTACHILIK TARIXI VA ZAMONAVIY TA’LIMDAGI ETNO O‘ZARO TA’SIRI. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 39-42.
17. To‘xtaqulovna A. Самарқанд давлат университети (Самарқанд, Ўзбекистан) //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 14-17.
18. A. Vosiyeva USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE // SAI. 2023. №A4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-transformation-in-the-direction-of-design-and-its-importance> (дата обращения: 22.12.2023).
19. Kulmurotovna E. L. TASVIRIY San’at DARSLARIDA O‘QUV TEXNIK VOSITALAR, ELEKTRON DARSLIK VA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 1. – С. 125-131.
20. Kulmurotovna E. L. TASVIRIY San’atDAGI OQIM VA YO‘NALISHLARDA KO‘RGAZMALILIK, ILLUSTRATSIYA VA REPRODUKSIYALARNI TASHKIL ETISH //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 1. – С. 132-138.
21. Эсанова Л. К. Использование нетрадиционных техник в изотворчестве дошкольников //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 632-638.

#### MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [AUTHORS INFO]

##### [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

**Amonova Zarifa Usmonovna**, o‘qituvchi [**Amonova Zarifa Usmonovna**, teacher], [**Амоно́ва За́рифа Усмоно́вна**, педагог]; manzil: O‘zbekiston, 117036, Navoiy, Karmana tumani, Bog‘ishamol MFY 54 uy[ address: Uzbekistan, 117036, Navoi, Karmana district, Bogishamol MFY 54 house.], [адрес: Узбекистан, 117036, Навои, Карманинский район, Богишамол МФУ 54 дом];

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-5690-9090>; [zarifaamonova3@gmail.com](mailto:zarifaamonova3@gmail.com)

#### JISMONIY MASHQLARNING KELIB CHIQUISH TARIXI.

**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti**

**Fakultet kafedrası dotsenti Musayev Otabek Quadratovich.**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Jismoniy madaniyat xotin qizlar sporti yo‘nalishi Achilova Dilfuza**

[dilfuzaachilova86@email.com](mailto:dilfuzaachilova86@email.com)

**Annotatsiya.** Jismoniy mashqlarning kelib chiqishi, olimlarning fikrlari va jismoniy tarbiyaga qo‘shgan hissalarini, jismoniy mashqlarning obyektiv va subyektiv tarafdin rivojlanishlari haqida ma’lumot berib o‘tilgan. Jismoniy mashqlar tarixan gimnastika, o‘yinlar, sport va turizm tarzida guruhlariga ajratilib, tarbiya jarayonining vositasi sifatida foydalanib kelinmoqda.

**Kalit soʻzlar** jismoniy mashq, ong, gimnastika, sport, turizm, tosh, xas-choʻp, nayza. Аннотация: сведения о зарождении физических упражнений, мнениях ученых и их вкладе в физическое воспитание, развитии физических упражнений с объективной и субъективной стороны. Исторически физические упражнения делятся на группы в виде гимнастики, игр, спорта и туризма и используются как средство образовательного процесса.

Ключевые слова: физические упражнения, разум, гимнастика, спорт, туризм, камень, палка, копье.

The abstract provides information about the origin of physical exercises, the opinions of scientists and their contributions to physical education, and the development of physical exercises from the objective and subjective side. Historically, physical exercises are divided into groups in the form of gymnastics, games, sports and tourism, and are used as a means of the educational process.

Key words: physical exercise, mind, gymnastics, sport, tourism, stone, stick, spear.

“Jismoniy mashq” atamasi jismoniy madaniyat nazariyasining yetakchi tushunchalaridan biri hisoblanadi. Jismoniy mashq tushunchasining taʼrifi qator mualliflar tomonidan turlicha ifodalangan. A.D. Novikov, L.P. Matveev, B.A. Ashmarin, B. A. Shiyon va boshqa qator mualliflarning taʼrifiga koʻra, “Jismoniy mashq” deb jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi. Bunday harakat faoliyatlari gimnastika, oʻyinlar, sport, turizm mashqlari sifatida tarixan tizimlashtirildi, uslubiyotlari majmuasi toʻplandi va hozirgi kun davomida tushunchaning mazmuni toʻldirilmoqda. Qator darsliklarda (A.D. Novikov, B.A. Ashmarin va boshqalar, 1966, 1979) jismoniy mashqni vujudga kelishi tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga toʻgʻri keladi deb, ularning obyektiv va subʼyektiv sabablarini ochib berishga harakat qilingan. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi boʻlib, u tarixan gimnastika, oʻyinlar, sport va turizm tarzida guruhlarga ajratilib, tarbiya jarayonining vositasi sifatida foydalanib kelindi. Jismoniy mashq deb jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi. Bunday harakat faoliyatlari gimnastika, oʻyinlar, sport, turizm mashqlari sifatida tarixan tizimlashtirildi, usuliyati toʻplandi va toʻldirildi. Jismoniy mashqni vujudga kelishi - tarixan qator darsliklarda (A.D. Novikov, B.A. Ashmarin va boshqalar, 1966, 1979) Ibtidoiy jamoa tizimi davriga toʻgʻri keladi deb koʻrsatiladi. Jismoniy mashqning vujudga kelishida obyektiv sabab qilib ibtidoiy odamning qorin toʻydirish maqsadida ov qilishi, subyektiv sabab sifatida ongning shakllanishi deb qaraldi. Ibtidoiy qurollarni ishlatishni bilmagan ibtidoiy odam oʻz oʻljasini holdan toldirguncha quvlagan. Bu bilan ovchi organizmi katta jismoniy tayyorgarlikka muhtojlik sezgan. Jismoniy tayyorgarligi yetarli boʻlmaganlarining oʻzlari oʻljasiga yem boʻlgan. Shunga koʻra vaqt oʻtishi bilan ibtidoiy odamlar ovga gala-gala boʻlib chiqadigan boʻldilar. Ibtidoiy qurollar: tosh, qirrali tosh boylangan nayza, xas-choʻp bilan nomigagina berkitilib qoʻyilgan chohlardan va boshqalardan ovchilar foydalana boshlashgan, ijtimoiy ong shakllana boshlangan. Ovda ishtirok etolmay qolgan qabilani qariyalari yoshlarga toshni nishonga otish, uni zarbini kuchaytirishni mashq qildira boshlagan va bu bilan tarbiyaga asos solingan tarbiya jarayonining elementlari shakllana boshlagan. Keyinchalik uloqtirish, quvib yetish yoki qochish uchun yugurish, sakrashlar mashq qilina boshlangan. Bu esa jismoniy mashqlarni hamda jismoniy tarbiyaning elementlarini vujudga kelishi va shakllanish davri deb qaralgan. Shu kunga kelib bu mashqlar hozirgi zamonning yengil atletika, gimnastika, sport oʻyinlari, yakka kurashlari, turizm va sportning boshqa turlari tarzida jismoniy tarbiya jarayoni uchun asosiy vosita sifatida foydalanilmoqda. Jismoniy mashqlar xillarining koʻpayishiga insonning mehnat faoliyati ham taʼsir koʻrsatdi. Maʼlumki, mehnat jismoniy kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlikdek insonning jismi (harakat) sifatlarining maʼlum darajadagi tayyorgarligi, uning rivojlanganligini talab qiladi. Tarbiya amaliyotida, asosan, inson mehnat faoliyatida qoʻllaydigan harakatlarini koʻproq mashq qiladi. Jismoniy mashqning rivojlanishida diniy marosimlar, bayramlardagi oʻyinlar, raqslar, harbiy faoliyatdagi, sanoatdagi ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakatlar vosita boʻlib xizmat qiladi. Jismoniy mashqlar tabiatini tabiiy qonunlar I.M. Sechenov va I.P. Pavlovning ilmiy dunyo qarashlarida ochib berilgan. Ixtiyoriy harakat Sechenovning fikricha, ong va aql bilan boshqariladi hamda biror maqsadga yoʻnaltirilgan boʻladi. Pavlov esa harakatlarni fiziologik mexanizmini ochib, harakatlar bosh miya poʻstloq qismining toʻplash xususiyati

bilan bog'liqligini birinchi, ikkinchi signal sistemasi, shartli hamda shartsiz reflekslarning aktiv ishtirokida vujudga kelishligini ilmiy isbotladi. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakli barcha hodisa va jarayonlarga o'xshash jismoniy mashqlar o'zining mazmuni va shakliga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Махкамджонов. К, Туленова Х.Б. Мактабгача таълим муассасалари учун умумий ва кенгайтирилган “Жисмоний тарбия” дастури. Илм-зиё Тошкент. 2006 й
2. Гончарова. О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилятларини ривожлантириш. Ўқув қўлланма. Тошкент. Ўз ДЖТИ, 2005 й - 171 б.
3. Хўжаев. Ф. Ўзбекистонда жисмоний тарбия. 1997 й.
4. Ботиров. Х.А. Жисмоний тарбия ва спорт тарихи. Т. “Ўқитувчи”. 1993 й.
5. Маҳкамджанов К.М Ўзбекистонда жисмоний тарбия. 1997 й.

## ZAMONAVIY DUNYODAGI IJTIMOIIY JARAYONLAR VA INTELLUKTUAL YOSHLAR ELITASINI SHAKLLANTIRISHDAGI UYG'UNLIK

Abduqahorov Anvar Alijon o'g'li  
NavDPI Tarix fakulteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yetishib kelayotgan avlodni yoshlik chog'idan tarbiyalashga, ularga milliy g'urur, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarini singdirishga e'tibor qaratish lozimligi, qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalar, zamonaviy ma'nosiz trendlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun ularning ongini, avvalo, milliy ma'naviy-ma'rifiy bilimlar bilan egallash muhimligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** siyosiy tanglik, jahon xavfsizlik reytingi, demografik, ta'lim, axborot-kommunikatsiya, milliy dasturchi, glaballashuv.

**Annotation.** In this article, it is necessary to pay attention to educating the younger generation from a young age, instilling in them national pride, customs and traditions of our people, ideas alien to our values, under the influence of modern meaningless trends. In order not to remain, the importance of occupying their minds, first of all, with national spiritual and educational knowledge is analyzed.

**Key words:** political tension, global security rating, demography, education, information-communication, national developer, globalization.

**Аннотация:** В данной статье необходимо уделить внимание воспитанию подрастающего поколения с юных лет, привитию им национальной гордости, обычаев и традиций нашего народа, идей, чуждых нашим ценностям, под влиянием современных бессмысленных тенденций. Чтобы не остаться, проанализирована важность занятия их умов, прежде всего, национальными духовно-просветительскими знаниями.

Ключевые слова: политическая напряженность, глобальный рыночный рейтинг, демография, образование, информационно-коммуникативные, национальный разработчик, глобализация.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga dunyo miqyosida shunday o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, ushbu o'zgarishlar xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun isoniyatning hayotini o'zgartirib yubormoqda. Ushbu o'zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o'rni juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga yoshlarning bilimga chanqoqligi va bir qancha sohalarda yutuqlarga erishayotgani albatta, ta'lim tizimida olib borilayotgan ishlar samaradorligining yuqori ko'rsatkichda ekanligidan dalolat beradi.

Hozirda O‘zbekiston aholi sonini 2022-yil 1-iyun holatiga<sup>21</sup>ko‘ra mamlakat aholisi 35 271 296 kishini tashkil etib, shundan, 20.7 % i (7 306 161 ta) 7 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni tashkil etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: –Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e’tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog‘li faol munosabatda bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog‘liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak. Bizning bugungi mehnatimizga qanday baho berilishi ham ana shunga bog‘liq<sup>22</sup>.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ong-u shuurida yuzaga kelayotgan o‘ziga xos ijtimoiy-ma’naviy, ruhiy o‘zgarishlar oliy ta’lim tizimidagi ishlarni zamonaviylik, muhimlik va ta’sirchanlik nuqtai nazaridan to‘liq qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Yoshlarning bilim va saviyasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, iqtidorli talabalarni faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarida bir qator tanlovlar, sport musobaqalari muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Bu ishlarning barchasi shakllantirilgan mavjud tizim va mexanizmlar doirasida tashkil etilmoqda. Qolaversa, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarning samaradorligi, ta’sirchanligi, zamonaviyligi jihatidan o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q<sup>23</sup>.

Xalqimizning ma’naviy dunyosini boyitish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni ulug‘lash, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda odob-axloq masalalariga jiddiy e’tibor qaratilayotgani alohida ahamiyatga molikdir. Xususan, Sh.Mirziyoyevning “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”<sup>24</sup>. Bu so‘zlari bunga yaqqol misoldir!

Alloma Abu Nasr Forobiy bolaning aqliy tarbiyasiga, uning bilimli va ma’rifatli bo‘lishiga juda katta e’tibor beradi, shu bilan uning fikrini sohta –Ilmlardan saqlash zarurligini ta’kidlaydi. Lekin Forobiy –Aqlli bo‘lishni faqat aqliy tarbiya, bilimdonlik bilangina chegaralab qo‘ymaydi. Farobiy talqinicha, –Aqllilik insonning butun faoliyatini – uni bilimi, axloqi, odobi, harakatlari, qiladigan amallari majmuasi bilan o‘lchanadi, ya’ni aqllilik barcha fazilatlarining bir butun, yaxlit holda maqsadga muvofiqligidir. Bu insondagi ijtimoiy intellektni begilaydi<sup>25</sup>.

O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirishda ayniqsa, davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisdagi murojaatnomasida yoshlarga ta’lim va tarbiya berish bilan bir qatorda, ularning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, Vatanni sevish, himoya qilish, millati bilan g‘ururlanish tuyg‘ularini ham singdirib borishning muhimligi alohida ta’kidlab o‘tilishi ham bejiz emas<sup>26</sup>. Buning eng asosiy vositalaridan biri esa, shubhasiz, ta’lim-tarbiyadir. Yoshlarni ma’naviy barkamol, ma’rifiy bilimdon, zakovatli, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini

<sup>21</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

<sup>22</sup> Мирзиёев Ш.М “Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик - миллий ғоямизнинг пойдеворидир”, «Tasvir» нашриёт уйи Тошкент – 2021й., 15 бет.

<sup>23</sup> <https://yuz.uz/uz/news/manaviy-marifiy-tarbiya>

<sup>24</sup>Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi, 2017 yil 15 iyun. / <https://daryo.uz/2017/06/15/shavkat-mirziyoyevning-ijtimoiy-barqarorlikni-taminlash-muqaddas-dinimizning-sofligini-asrash-davr-talabi-mavzusidagi-anjumanda-sozlagan-nutqi> /

<sup>25</sup> Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. -224 б.

<sup>26</sup> G‘afurov S.M. Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar. Toshkent: «Merit print»,2023. 108 b.



oshirishga yanada ko‘proq ahamiyat berish kerak<sup>27</sup>.

Ta‘lim-tarbiya barqaror taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatning poydevori mustahkamligini ta‘minlaydigan omillardan. Shunday ekan, ana shu poydevorni asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimiz, an‘analarimiz, ulug‘ ajdodlarimizning o‘g‘itlari, bebaho ilmiy merosini yanada chuqurroq o‘rganish, o‘rgatish, teran anglash bilan mustahkamlashimiz kerak.

Abdurauf Fitratning tarbiya haqidagi fikrlarini keltiradigan bo‘lsak, u kishi, shunday deydi: “Zikr qilingan uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O‘zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishingiz mumkin va qo‘lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo‘lmasa, aqli hamda jismoniy kuchini o‘zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanib ko‘p harakat qilish lozim.”<sup>28</sup>

Yurtimizda yetishib chiqqan buyuk allomalar va mutafakkirlar ma‘naviyat va ma‘rifatga shunday ulkan hissa qo‘shganlarki, asrlar o‘tsada, ularning bebaho ilmiy merosi bugungi kunga qadar ham xalqlarimiz ma‘naviy dunyosini boyitishda, yosh avlodni tarbiyalashda dasturul-amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Xalqimizning ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – davlatning ustivor siyosati, davrning prioritet talabi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston bugungi kunda tez rivojlanayotgan o‘lka sifatida jahon hamjamiyatchiligi e‘tirofiga loyiq. Davlatimizda iqtisodiy sohalaridagi yutuqlar, bunyodkorlik sohasidagi amaliy natijalar, savdosotiq, ishlab chiqarish, san‘at, madaniyat, ta‘lim, turizm, sport kabi ko‘plab jabhalardagi samarali ijobiy o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, jamiyatda yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda to‘siq bo‘luvchi bir qancha xavflar ham bor. Bulardan biri internet va ijtimoiy tarmoqlardir. Global davrda bularsiz rivojlanishni tasavvur etib ham bo‘lmaydi, ammo yoshlarda mafkuraviy immunitetni oshirish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. “Internetda jamiyatning ma‘naviy taraqqiyoti, shaxsning, ayniqsa, hali ongi shakllanib ulgurmagan yosh bo‘g‘inlarning dunyoqarashiga, g‘oyaviy tarbiyasiga o‘ta salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi manbalar ham oz emas. Bizning sharqona axloq-odobimiz, milliy mentalitetimizga yot ana shunday salbiy illatlardan saqlanishimizda ibrat tarbiyasi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi<sup>29</sup>.

Zamon talablari va iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar davrida yosh avlod talab va ehtiyojlarini tahliliy o‘rganish, bu boradagi xalqaro tajribaning xalqimiz qadriyatlariga mos yangicha mexanizm va yondashuvlar asosida amaliyotga tatbiq etish vazifasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 25 foizga teng. Qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o‘sgan. Shunga qaramay, bu mintaqadagi eng past ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qolmoqda. Iqtisodchi Rauf Solixovning so‘zlariga qaraganda, “yurtimizda ko‘pgina yoshlar oliy ta‘lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘layotgani davlat tomonidan jiddiy e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan fundamental muammo hisoblanadi”<sup>30</sup>. Shu jihatdan bugungi O‘zbekistonda yoshlarni ta‘limga ko‘proq qamrab olishdan tashqari, ularni kasbiy ta‘limga yo‘naltirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini egallashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashda iqtidorli yoshlar bilan ishlashda yangicha metodlar qo‘llanilayotganligi, albatta yoshlarning ta‘lim olishda keng imkoniyatlarning yaratilayotganligidan dalolatdir.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoshlarga berilayotgan e‘tibor qay darajadiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, Turkmanistonda millat allomalari va mutafakkirlari Mahtumquli, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nurmuhammad Andalip, Oshiq Oydin kabi tariqat vakillarining hayoti va ijodi keng o‘rganiladi va

<sup>27</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

<sup>28</sup> Abdurauf Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”, Toshkent, “Ma‘naviyat” 2000 yil, 83-bet

<sup>29</sup> “Barkamol avlod va ijtimoiy taraqqiyot”, Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni” 2010-yil, 47-bet.

<sup>30</sup> G‘afurov S.M. Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar. Toshkent: «Merit print», 2023. B. 96

o'rgatiladi. Ularning dunyoqarashlari, falsafasi, mafkuralari targ'ibot qilinadi. Turkmanistonda yosh avlodga milliy g'urur g'oyalarini singdirish ma'naviyat sohasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mamlakatda ma'naviy tarbiya yoshlarga bolalik davridan, o'rta ta'lim bosqichlaridan boshlab o'qitiladi.

Tojikistonda esa millat ma'naviyati va ma'rifatini mustahkamlash ishlari ham mustaqillikning ilk davridanoq boshlangan. Tojikiston ma'naviy soha rivojiga katta e'tibor qaratadigan davlatlar sirasiga kiradi. Mamlakatda milliy urf-odatlar, qadriyatlar, kiyinish odoblari ham islom dini tamoyillari bilan chambarchas bog'langanligini ko'rish mumkin. Tojikistonda din siyosatdan ajratilgan bo'lsada, islom xalqning milliy qadriyatlari, ma'naviy hayotida markaziy o'rin egallab keladi.

O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar doimo hukumatning diqqat markazida bo'lib kelgan sohalardan. Xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni ulug'lash, yoshlarga **ta'lim-tarbiya berishda odob-axloq masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi**<sup>31</sup>. **Darhaqiqat**, milliy qadriyatlarga hurmat hissining oshishi ham yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim sanaladi. Milliy qadriyatlar kishilarda milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega<sup>32</sup> ekanligini unutmashimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2023-yilda ilm-fanga 1,8 trln so'm mablag' ajratilishi e'lon qilindi. O'zbekistonda mavjud oliy ta'lim muassasalari ilmiy-texnik bazasini takomillashtirish borish bilan bir qatorda, davlat xususiy-sherikchilik va nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Tahlil qiladigan bo'lsak, 2016-yilga qadar O'zbekistonda 67 ta davlat oliy ta'lim muassasasi, 3ta xususiy oliy ta'lim maskani mavjud edi. 2022-yil holatiga ko'ra esa, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni 170 taga, xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari soni 31 taga, xususiy oliy o'quv yurtlari soni esa 27 taga yetdi. Ularda ta'lim olayotgan talabalarning soni 808,4 mingtani tashkil etmoqda. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlariga 111 mingdan ortiq talaba o'qishga qabul qilingan bo'lsa, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab ularning soni 200 mingdan oshishi rejalashtirilgan. Bu albatta ta'limga berilayotgan e'tibor, yoshlarning oliy ta'limga qamrab olinishining yildan yilga ortib borayotganligini ko'rsatadi<sup>33</sup>.

O'zbekistonda yoshlarni turli kasbiy sohalarga yo'naltirish ham davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning biror kasb bo'yicha malakasini oshirish maqsadida Ishga marhamat-monomarkazlari faoliyati yo'lga qo'yildiki, ularda minglab yoshlar muayyan kasblar bo'yicha mutaxassis darajasida malakasini oshirib, ish joyi bilan ta'minlanmoqda. Bundan tashqari, innovatsion loyihalar, IT sohasi, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikada muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinayotgan "Million dasturchi" loyihasi ana shulardan biri<sup>34</sup>.

Zamonaviy dunyo taraqqiyotida jahon ahlining jamiyat rivojiga qarashlari, yondashuvi mutlaq yangicha munosabatda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ma'naviy soha shunday qudratga aylandiki, yirik iqtisodiy taraqqiy topgan jamiyatlar ham tez fursatda inqirozga uchrashi mumkinligini tarixiy va zamonaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlar ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning eng bebaho oliy ne'mat tinchligimiz va osoyishtaligimizning qadriga yetaylik, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxtu kamoli uchun bu ulug' boyligni asrab-avaylaylik!-degan chaqirig'ida nechog'lik teran ma'no mujassam. Bu o'rinda, gap mamlakatda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, millatlararo birdamlik, bag'rikenglik haqida ketmoqda. Mana shu tinchlik davrini qadriga yetish, asrab-avaylash, kelajak avlodga obod va taraqqiy etgan barqaror turmush tarziga ega jamiyatni qoldirishimiz kerakligi haqida so'zlanmoqda. Davlatni mustahkamligi, xavfsiz va barqaror taraqqiyoti bevosita jamiyat farovonligi, xalq roziligi, ma'naviy barkamolligi bilan bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, yosh avlodga yetkazishimiz mumkin bo'lgan ulkan ma'naviy-ma'rifiy xazina mavjud, bu buyuk ajdodlarmizning bebaho ilmiy merosi hisoblanadi. Yana bir muhim

<sup>31</sup> G'afurov S.M. Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar, T.: «Merit print», 2023. 93-94 betlar

<sup>32</sup> B.Ochilova, T.Axmedov, :Jamiyat va inson: daxldorlik va yuksalish omillari", Toshkent, "Ijod-Print" 2020-yil, 43-bet.

<sup>33</sup> G'afurov S.M. Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar, T.: «Merit print», 2023. B.97.

<sup>34</sup> O'sha yerda, B.97.

qadriyat xalqimizning islom dini bilan bog‘liq mustahkam e‘tiqodi va qadriyatlari, insonning ma‘naviy barkamol shaxs bo‘lib yetishishga targ‘ib qiluvchi g‘oyalari, buyuk axloq, adolat, halollik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, xalqparvarlik kabi ko‘plab xislatlarni o‘zida jamlaganligi ta‘lim-tarbiyani o‘z vaqtida, ta‘sirchan shaklda berilishida muhim o‘rin tutadi.

Yetishib kelayotgan avlodni yoshlik chog‘idan tarbiyalashga, ularga milliy g‘urur, xalqimiz urf-odatlarini, an‘analarini singdirishga e‘tibor qaratish lozim. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini qo‘lga kiritgan yosh avlod jahon xalqlari mafkuralari, qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalar, avvalo, milliy ma‘naviy-ma‘rifiy bilimlar bilan egallagan bo‘lishimiz muhim. Millatini, buyuk o‘tmishini, e‘tiqodini, qadriyatlarini hurmat qiladigan yoshlargina xalqini, Vatanini, davlatini himoya qilishga tayyor bo‘ladi.

## ADABIYOTIMIZNING BENAZIR YALOVBARDORI

Akbar Jumanov JDPU o‘qituvchisi Niyatqobil Ashurov

JDPU talabasi

[jumanovakbar574@gmail.com](mailto:jumanovakbar574@gmail.com)

**Annotatsiyal.** Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning turkiy xalqlar badiiy-estetik tafakkuri va jahon adabiyoti rivojidadagi ulkan xizmati haqida fikr yuritiladi. Navoiy ijodi misolida adabiy an‘analar va ularning so‘z san‘ati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuning bilan birga Navoiyning turkiy va o‘zbek adabiy tilimizni jahon miqyosiga olib chiqishdagi tengsiz roli va uning hozirgi davrdagi beqiyos ahamiyati ham yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy she‘riyati va dostonlari, adabiy an‘analar, o‘zbek she‘riyati, xamsanavislik, an‘ana, o‘ziga xoslik, millat va til rivoji.

**Annotation:** This article discusses the great service of the great poet and thinker Alisher Navoi in the artistic and aesthetic thinking of the Turkic peoples and the development of world literature. On the example of Navoi's work, literary traditions and their place and importance in the development of speech art are shown. At the same time, Navoi's unique role in bringing our Turkish and Uzbek literary language to the world level and its incomparable importance in the current era will be highlighted.

**Key words:** Navoi's poetry and epics, literary traditions, Uzbek poetry, homogenization, tradition, identity, nation and language development.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается большая заслуга великого поэта и мыслителя Алишера Навои в художественно-эстетическом мышлении тюркских народов и развитии мировой литературы. На примере творчества Навои показаны литературные традиции, их место и значение в развитии речевого искусства. В то же время будет подчеркнута уникальная роль Навои в выведении нашего турецкого и узбекского литературного языка на мировой уровень и его несравненное значение в современную эпоху.

**Ключевые слова:** поэзия и эпос Навои, литературные традиции, узбекская поэзия, гомогенизация, традиция, идентичность, развитие нации и языка.

O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalarda ulkan o‘zgarishlar va yangilanish jarayonlari sodir bo‘lmoqda. Jonajon Vatanimiz Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yib yangi Uyg‘onish davri Uchinchi Rennans poydevori yaratilayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yil oktyabrdagi Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining yilligini keng nishonlash to‘g‘risida va Z.M.Bobur tavalludining yilligiga bag‘ishlangan yil yanvardagi qarorlar mumtoz adabiyotimiz namunalari va ularning tili va badiiy xususiyatlarini chuqur o‘rganishni yanada dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. So‘nggi yillar Alisher Navoiy ijodi va uning ko‘plab nodir asarlari o‘zining haqiqiy ilmiy estetik bahosini olib nafaqat yurtimizda va butun turkiy olamda balki ko‘plab xorijiy mamlakatlarda ham yanada yuksak qadrlanmoqda. Alisher Navoiy nomidagi xaqaro Davlat mukofoti ta‘sis etilgani ham tarixiy bir voqea bo‘ldi. Navoiy ilk ijodidanoq turkiy va forsiyzabon salafilariga ixlos bilan ergashdi, ulardan ruhiy madad va ilhom oldi. “Yigitlig‘im zamoni va shabob ayyomi ovonida ko‘prak

she'rdan sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash'ori va rangin abyoti dindinabyotidin 50 mingdan ortiq yod tutibmen, alar saloh va fasodlariga fikr etibmen va maxfiy daqoyiqiga taammul va tafakkurlar bila yetibmen". Navoiy bilan ular o'rtasidagi ustoz-shogirdlik va adabiy ta'sir jarayoni tom ma'noda ijodiy yo'nalishda bo'lgan. Navoiyning. she'r va dostonlari har jihatdan yetukligi bilan nafaqat muxlislar e'tiborini qozonadi, balki ular zamonasining "malik ul-kalomi" (so'z mulkining podshosi) Lutfiydek va Jomiydek ulug' ustozlarning ham yuksak ta'rif va tahsiniga sazovor bo'lganligi unutilmas bir voqea sifatida adabiyotimiz tarixida abadiyatga muhrlangan. Alisher Navoiyning qariyb 45 ming misrani tashkil etgan to'rt she'riy devonidan iborat, g'oyaviy-mazmuni va yuksak badiiyligi jihatidan yaxlit bir ruhiy olam bo'lgan "Xazoyin ul- maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") nomli monumental asari 550 yildirki, jahon adabiyoti tarixidagi tengsiz bir san'at obidasi bo'lib, millionlab kitobxonlarning tafakkurini boyitib, qalblarini ezgulik ziyosi bilan munavvar etmoqda. Kulliyotdagi minglab g'azal va turli janrdagi she'rlar nafaqat turkiyzabon shoirlar uchun, balki ko'plab xorijiy ijodkorlar uchun ham yuksak she'riyat namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Navoiy dahosi va poetik mahoratining nechog'lik yuksakligi, ijodiy salohiyatining beqiyosligi, ayniqsa, uning besh mukammal dostonni o'z ichiga olgan "Xamsa" yaratishida yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy mislsiz ijodiy jasorat va o'ziga xos novatorlik bilan yaratgan "Xamsa"ning ulug'vorligi, undagi dostonlarda aks ettirilgan yuksak tasavvufona g'oyaviy mazmunning zalvorini va umuminsoniy ahamiyatini anglash uchun uning yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi tarixiy fakt va holatlarni ko'z oldimizga keltiraylik. Agar dunyo adabiyotida xamsachilikni boshlab bergan Nizomiy Ganjaviy (1149-1209) va Xisrav Dehlaviylar (1253-1325) o'zlarining xamsalarini 20-30 yillar mobaynida yozib bitirgan bo'lishsa, Navoiy bu sharafli va mashaqqatli vazifani favqulodda katta mahorat va jo'shqin ilhom bilan g'oyat qisqa fursatda- ikki yilda (1483-1485-yy.) ado etishga musharraf bo'lgan ligining o'zi ham hayratomuz hodisadir. Chuqur hayotiy, ijtimoiy-falsafiy va tasavvufona axloqiy g'oyalar bilan sug'orilgan dostonlar va ulardagi 51 ming misradan ortiq satrlarni har jihatdan mukammal qilib yaratish uchun, barcha navoiyshunoslar yakdillik bilan ta'kidlaganidek, chinakamiga daho san'atkor bo'lmoq lozim edi.

Alisher Navoiyning "Xamsa"si qator yangi obraz-timsollari va mohirona g'oyaviy-badiiy yechimlari bilan ham Nizomiy va Xisrav Dehlaviylarning an'anaviy dostonlaridan farqlanib turadi. Ayni vaqtda, ularda salaflarining dostonlarida yo'l qo'yilgan ba'zi kamchilik va mantiqsizliklar ham san'atkorona tarzda bartaraf etilganiga guvoh bo'lamiz.

**Ani nazm etki, tarxing toza bo'lg'ay,  
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay. ("Hayrat ul-abror")**

Bu – Navoiy butun hayoti va ijodi davomida qat'iy amal qilgan yuksak a'moli, muqaddas ijodiy-estetik dasturi edi. Bunga ishonch hosil qilish uchun ulug' ustoz shoir va mutafakkirlar – Sa'diy Sheroziyning pandnoma xarakterdagi "Guliston" va Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" dostonlari o'rtasidagi ijodiy ta'sir va an'anaviylik jihatlariga e'tibor beraylik. Har ikki dostonida an'anaviy obraz bo'lgan dostonlarida Hotam toyining saxovatpeshaligi ulug'lanadi.

Ma'lumki bir misolga e'tibor qarataylik, ko'p asrlik Sharq va turkiy xalqlar adabiyotidagi an'anaviy timsollardan biri bo'lgan Hotam Toy obrazi – saxovat, ehson va in'om qilish hamda javonmardlik ramzi sifatida asrlar davomida yashab keladi. Navoiy bu an'anaviy hikoyatda mehnatkash o'tinchi chol obraziga katta e'tibor berib, asarning g'oyaviy-badiiy va axloqiy mazmunini yanada kengaytiradi; ya'ni saxovat va himmat-u karam ulug' fazilat, lekin o'zgalardan ta'ma kutmay, o'zining halol mehnati bilan kun kechirish ham yuksak insoniylikdir. Zero, bironing oshini yeb, uning minnatini chekkandan ko'ra tikanning zahrini tortgan afzaldir:

**Sen dag'i chekkil bu tikan mehnatin,  
Tortmag'il Hotami Toy minnatin.  
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,  
Yaxshiroq andinki, biron bersa ganj.**

Bunday misollar Navoiy va Sa'diy ijodining uzviyligiga dalildir.

Navoiy kabi jahon adabiyotining Gyote, Volter, Pushkin, Tolstoy, Abdulla Avloniy, Qodiriy, S.Xondayliqiy, S.Esenin, R.Hamzatov kabi mashhur namoyanda lari ham Sa'diy asarlaridan qator iqtiboslar olganligi bejiz emas. Tolstoy uning "Du rafiq" ("Ikki o'rtoq") hikoyatini ijodiy tarjima qilib,



bolalar uchun yaratgan majmuasiga kiritgan. Abdulla Avloniy ham Sa'diyning "Guliston" dostonidan ta'sirlanib o'zining yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan didaktik asarini "Turkiy Guliston yoxud axloq" deb nomlanishi ham ibratlidir. Bular ham mutafakkir shoir an'alarining ilhombaxsh ta'siridan yorqin dalolatdir.

Navoiy ustozlari an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirish bilan birga, ayni vaqtda, ular bilan ijodiy musobaqaga kirishib, ulkan badiiy "kashfiyot"lar yarata oldi. Alisher Navoiy "Xamsa"sidan joy olgan besh dostonning har biri salaflariga ergashib, ularga izdoshlik qilib, tatabbu tarzda yaratganini o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida alohida ta'kidlab o'tadi. Yoxud "Tuhfat ul-afkor" ("Fikrlar tuhfas") qasidaning yozilish tarixi haqida quyidagi muhim izoh beriladi: Navoiy ot ustida Jomiyning qasidasini o'qib, xushhollik bilan borar ekan, xayoliga "Tuhfat ul-afkor" ("Fikrlar tuhfas") qasidasining matla'si keladi. Manzilga tushgandin so'ngra bitib, bir bekdin ul hazrat xizmatlariga yuborildikim, tugaturga loyiq bo'lsa va ishorat bo'lsa mashulluq qilayin. Jomiy ruqa'larda (ya'ni xatlarida) ta'riflar qilib, mubolag'alar aytib erdilarkim, —albatta tugatishini orzu qiladi. Shu tariqa Alisher Navoiy 200 misradan iborat bo'lgan mazkur qasidasini Marv shahriga yetguncha yo'lma-yo'l yozib tugatadi. Asar ustoz Jomiy hazratlariga bag'ishlangan va bunday e'tibor va e'zozdan g'oyat xushnud bo'lgan Jomiy o'zining "Bahoriston" dostonida benazir shogirdini alohida ehtirom va minnatdorlik bilan e'tirof etadi.

Navoiy "Xamsa" dostonlaridan tashqari deyarli barcha asarlarida so'z mas'uliyati va ahamiyati masalasiga alohida o'rin ajratgan. Jumladan, "Nazm ul-javohir" asarida ham ana shu an'anaviy yo'ldan borilib, so'z tavsifi o'ziga xos poetik usulda bayon qilinadi. Alloh insonni barcha mavjudotlardan ziyoda tarzda siylab, unga nutq ato qildi, ong berdi va qalbini inja hissiyotlarga to'ldirdi. Inson o'z tafakkuri yordamida Yaratuvchisini tanidi, olamni idrok etdi, olamni va o'z-o'zini angladi, o'zini topdi. Bu jarayonda ongida yuzaga kelgan fikrlar va ko'nglida kechgan hissiyotlarni u so'z orqali ifoda etdi. Navoiy so'z haqidagi nasriy mushohadalarini mashhur ruboiy bilan asoslaydi:

**So'z durki nishon berur o'lukka jondin,  
So'z durki berur jong'a xabar jonandin,  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.**

Istiqlolimizdan so'ng mumtoz adabiy merosimizga mafkuraviy nigilistik munosabat va tilimiz tarixi va boylıklariga nisbatan bepisandlik kabi illatlar barham topmoqda. Erksevar va ma'rifatparvar xalqimiz qalbini oftob yanglig' munavvar etib turgan yuksak ishonch tilimiz, adabiyot va ma'naviyatimiz rivoji yo'lida tog'day tayanch bo'lgan qudratli zaminga – tarixiy haqiqatga asoslangandir. O'zligini angelayotgan butun bir millatning xohish-irodasi va asriy orzularini ifoda etgan tarixiy Farmonlar xalqimiz ong-u tafakkuri, madaniyati va yosh avlod kamoloti uchun nechog'lik katta ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy-estetik ahamiyatga ega ekanligi yillar o'tgan sari yaqqolroq namoyon bo'lishi shubhasizdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni va yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz". Darhaqiqat, buyuk mutafakkirlar va ulug' ijodkorlarimiz faxr bilan e'tirof etganidek, tilimizning olmos yanglig' serjilo-serqirraligini, unda eng murakkab, eng teran fikr va nozik his-tuyg'ularni ham haqqoniy ifodalash imkoniyati cheksiz ekanligini ko'rsatib turadi. Albatta, xalqimiz hayoti, boy ma'naviyati va yuksak tafakkurining munavvar ko'zgusi bo'lgan O'zbek tilimizning bebaho boyligi va beqiyos imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ularni yuksak qadrlash esa, mustaqil ona – yurtimizga bo'lgan farzandlik burchimiz va mehr-u sadoqatimizga, bilim saviyamiz va nutq madaniyatimizga bog'liq. Zero, inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlanib bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddasdir. Buyuk Navoiyning butun ijodi va milatparvarlik, vatanparvarlik bobidagi ulkan faoliyati bu jihatdan ham barchamizga ibratdir. Zotan, ulug' ustozning izdoshlari va talantli shogirdlari sanalmish O'zbekiston Qahramonlari Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar ta'biri bilan aytganlaridek, insoniyat tarixiga o'zbek degan nom uning nomi bilan birga bitilgani ayni haqiqatdir. Zero, Navoiy bugun ham xalqimiz sharafini jahon uzra tarannum etmoqda:

**Mir Alisher na'rasiga aks-sado berdi jahon,  
She'riyat mulkida bo'ldi shoh-u sulton o'zbekim...**

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abadiyat gulshani. Toshkent. 2016. 11-b.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. T. 2014. 105-b.
3. Sa'diy. Guliston. T. 1968. 36-b.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq.-XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T. 1995.
5. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. MAT. 20 jildlik. 15-jild. T: Fan, 1999.
6. Erkin Vohidov. So'z latofati. T. 2018. 216-b.

## RENESSANS DAVRLARIDA TA'LIM-TARBIYA

Ashurova Marjona Avazovna (O'zbekiston)  
NavDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar:

Ermatova Gulnoz Pirimovna (O'zbekiston)  
NavDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** ushbu maqolada yurtimizdagi uyg'onish davrlari, islohotlar, uchta renessans davrlarida ta'lim, ilm-fan taraqqiyoti haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** uyg'onish davrlari, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan, ta'lim, rivojlanish, islohotlar, renessans.

**Аннотация:** данная статья содержит информацию о периодах Возрождения, реформах, развитии образования и науки в нашей стране в течение трех периодов Возрождения.

**Ключевые слова:** периоды возрождения, общественное развитие, наука, образование, развитие, реформы, ренессанс.

**Abstract:** this article contains information about the periods of the Renaissance, reforms, the development of education and science in our country during the three periods of the Renaissance.

**Keywords:** periods of revival, social development, science, education, development, reforms, renaissance

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak har bir taraqqiyot davri rivojlanish, yangilanishga turtki bo'lgan. Bugungi kunda biz bu iborani Renessans deya ataymiz. Renessans uyg'onish davri hisoblanib, bu jamiyatda ilm-fan, savdo-sotiq, san'at musiqa, adabiyot kabi sohalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu sohalardan eng muhimi ilm-fanni rivojlanishi bilan bog'liq jarayondir.

Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyoti ilm-fan va uning fidoyilari mehnatlari bilan bog'liqdir. Davlatimiz rahbari ham "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" munosabati bilan so'zlagan nutqida ustozlarimizni bayram bilan samimiy tabriklab, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilayotganligi va mamlakatimizda keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, olib borilayotganligi, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib olganligimiz avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerakligini ta'kidlab o'tganlar.

Xalqimiz taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha sharq va g'arb olimlarining e'tirof qilishlaricha, Yevropada 15-17 asrlar orasida yuzaga kelgan birinchi Renessans yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya'ni IX-XI asrlarda yuzaga kelgan. Bu yuksalishlar sodir bo'lishining o'z tarixiy sabablari mavjud bo'lgan. Chunki, shu davrda davlat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan yangi o'zgarishlar va alohida qonunlar joriy qilingan, yer-suv, qo'shnichilik munosabatlari, o'lpon(soliq)gacha tub yangilanishlar amalga oshirilgan. Davlat yuritishdagi va siyosatdagi yangiliklar ilm-fan kishilarini ezgu g'oyalar tevaragida birlashtirdi, turli-tuman matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geografiya kabi fanlarga qiziqish kuchaydi va dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan o'sha davrda asos solindi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajdodlarimiz serqirra iste'dod sohiblari bo'lishlari bilan bir qatorda, o'z fanlari bo'yicha butun olamga

ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Ma'mun akademiasidir. Daho mutafakkirlarni o'z bag'riga to'plagan bu oliy dargoh nafaqat o'z mintaqasi, balki butun dunyo uchun akselerator vazifasini o'tagani ayni haqiqatdir.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ilm-fan osmonida charaqlagan bu allomalar va ularning shogirdlari, davomchilari yurtimiz ilm-fanini jahonga yoyishga hamda mamlakatimiz shon-shuhratini, tafakkur qudratini butun dunyoda targ'ib etishganlar.

Ikkinchi Renessans nafaqat mintaqamizda, balki juda katta jo'g'rofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirgan ulug' bobomiz, sohibqiron Amir Temur nomi bilan chambarchas bog'liq ekanligi hech birimizga sir emas. Qudratli markaziy boshqaruvga asoslangan davlat va yangi madaniy-ilmiy yuksalishni yuzaga kelishida bobomizning amalga oshirgan siyosati jamiyat taraqqiyotiga asos bo'ldi. Sohibqiron o'z bepoyon saltanatining katta shaharlariga turli hududlardagi iste'dodli olimlar, shoirlar, hunarmandlar, me'morlarni jamladi va ilmi-fan taraqqiyoti uchun kerakli barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bunday oqilona siyosat mamlakatning qudratini dunyoga tanitdi.

Ikkinchi renessans davri "Islom madaniyatining oltin asri" deb atalishi bilan birga, fazo ilmi va matematika fanlarining rivojlanishi bilan yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi ulug' ulamolar, Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos hamda me'morlarning shuhrati dunyoga yoyilib, ilm o'rganishni istovchilar butun dunyo bo'yicha bir maskanga yig'ilishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda yurtimizda uchunchi renessans davri boshlandi. Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yuzaga kelishi uchun ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiyalarni iqtisodimiz va ijtimoiy hayotga joriy etish uchun normativ-huquqiy baza yaratildi. Yurtimiz tarixida ilk bor "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi va qonun osti hujjatlari tayyorlandi. Bundan tashqari, davlatimiz tomonidan olimlarning mavqei, obro'yi oshirildi. Ularga qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek ilmiy-innovatsion faoliyatning infra tuzilmasi mustahkamlandi. Maxsus dastur qabul qilinib, bu dastur doirasida 40 dan oshiq ilmiy tashkilotlarga ilmiy asbob-uskunalar xarid qilish uchun 32 million AQSh dollari, ularning bino va inshootlarini kapital ta'mirlash uchun 119 mlrd. so'm miqdorida mablag'lar yo'naltirilib, bunda barcha asbob-uskunalar parkini yangilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmog'da.

Ta'lim tizimlarining ilk poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi turlari ochilishi ham yangi renessansning bir ko'rinishi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, yosh avlodimizning aqliy, jismoniy jihatdan yuksak natijalarga erishishi mamlakatimiz rivojlanishida oz bo'lsada natijasini ko'rsatdi. Kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, uni dunyo qarashini kengaytirish, ko'proq ilmga bo'lgan qiziqishini oshirish katta va kichiklarga bo'lgan hurmat va eng asosiysi ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash biz tarbiyachilarning yelkasida turgan mas'uliyatdir.

Uchinchi renessans ostonisida turar ekanmiz uning o'z vazifalari qonun qoidalari barcha uchun barobardir. Ta'lim tizimlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va Vatan oldidagi muqaddas vazifamizni ado etish hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.:O'zbekiston, 2017. - 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yulimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent. «O'zbekiston» NMIU, 2017. - B. 427 - 428.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O‘zbekiston, 2017. - 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. (Nyu-York shahri, 2017 yil 19 sentabr).
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016 yil 7 dekabr / Sh.M.Mirziyoyev - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston, 2017. -104 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir // Xalq so‘zi, 2018 yil 8 dekabr.

## **BOSH QAHRAMON XARAKTERINING SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK TAHLILNING O‘RNI**

**Aslonova Moxiniso**  
**NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim**  
**yo‘nalishi 1-kurs magistranti**  
**Ilmiy rahbar:**  
**dots. Boltayeva G.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola qahramonning xarakterini shakllantiradigan dastlabki ta’sirlarni, ularning qarorlarini boshqaradigan axloqiy kompasni, munosabatlar va o‘zaro ta’sirlarning ta’sirini, o‘zgarishlarga olib keladigan ichki kurashlarni o‘rganib, qahramon xarakterini tahlil qilish orqali murakkab taraqqiyot yo‘lini e’tibor qaratilgan. Qolaversa, unda ruhiy tahlili uning bosh qahramonning ichki dunyoqarashini ochishda, ularning shaxsiy o‘sishi va nizolarni hal etishda qanday muhim rol o‘ynashi haqida so‘z yuritiladi. Fikrimiz dalili o‘laroq “Shaytanat” asaridan tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar.** Qarama-qarshilik, psixologik tahlil, obraz, motiv, konflikt.

**Аннотация.** В этой статье исследуются первые влияния, которые формируют характер главного героя, моральный компас, который управляет их решениями, влияние отношений и взаимодействий, а также внутренняя борьба, ведущая к изменениям. Углубленное изучение сложного пути развития через анализ характера героя, акцент делается на значении психологических конфликтов и духовном анализе. Кроме того, в нем говорится о том, как психический анализ играет важную роль в раскрытии внутреннего мировоззрения главного героя, их личностного роста и разрешения конфликтов. В качестве доказательства нашего мнения приводится анализ из произведения “Сатана”.

**Ключевые слова.** Противоречие, психологический анализ, образ, мотив, конфликт.

**Abstract.** This article studied the initial influences that shape the character of the hero, the moral compass that governs their decisions, the influence of relationships and interactions, the internal struggles that lead to change. an in-depth study of the path of complex progress through the analysis of the character of the hero, focusing on the importance of psychological conflicts and spiritual analysis. In addition, it talks about how his spiritual analysis plays an important role in opening the inner worldview of the main character, their personal growth and conflict resolution. Contrary to the evidence of our opinion, the work “Satanat” is subject to analysis.

**Keywords.** Confrontation, psychological analysis, image, motive, conflict.

Adabiyotda jozibali personajlarni yaratish haqida gap ketganda, psixologik ziddiyat ularning sayohatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu ichki tartibsizlik qahramonlarga chuqurlik va murakkablik qo‘shib, ularni o‘quvchilarga yanada yaqinroq va qiziqarli qiladi. Adabiyotdagi psixologik qarama-qarshilik qahramonlarning o‘z ichida duch keladigan ichki kurashlari va hissiy janglarini anglatadi. U ularning qo‘rquvlari, istaklari, shubhalari va qarama-qarshi his-tuyg‘ularini chuqur o‘rganadi. Psixologik konflikt xarakterni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u mualliflarga inson tabiatining murakkabliklarini o‘rganishga imkon beradi. Qahramonning ichki ziddiyatlarini o‘rganish orqali mualliflar hikoya davomida rivojlanib, o‘sib boradigan ko‘p o‘lchovli

shaxslarni yaratishlari mumkin. “Shaytanat” asarida bosh qahramon hisoblangan Asadbekda ham yuqoridagi holatlar ro‘y berganini ko‘rish mumkin. Asarni o‘qish chog‘ida kitobxon o‘z o‘zi bilan kurashadigan, ba‘zan, bu xususda ikkiga bo‘lingan obrazlarni ko‘radi. Darvoqe “Shaytanat” asari bosh qahramoni Asadbekda ham o‘z-o‘ziga savollar, ruhiy qarama-qarshiliklar singari holatlar yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Xarakterni rivojlantirishning yana bir muhim jihati – bu xarakterning fikrlari, motivlari va xatti-harakatlarini o‘rganishni o‘z ichiga olgan ruhiy tahlil. Bu jarayon ularning ruhiyatini yoritadi, ularning harakatlari va qarorlari haqida tushuncha beradi. Ushbu holat yuzasidan “Shaytanat” asari bosh qahramoni Asadbekda juda ko‘p kuzatiladi, ayniqsa asardagi Zaynab bilan sodir bo‘lgan voqealar, Jamshidni o‘limga hukm qilishi va keyin afsuslanishi holatlari fikrimiz dalili bo‘la oladi.

Ruhiy tahlil, qahramonning ichki his-tuyg‘ularini, jumladan, e‘tiqodlari, qadriyatlarini va fikrlash jarayonlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. O‘zlarining ruhiy manzaralarini tushunib, mualliflar o‘quvchilar bilan real, hayotiy voqealar va jozibali personajlarni yaratishlari mumkin. Ruhiy tahlil xarakterni shakllantirishning ajralmas qismidir, chunki u mualliflarga qahramonning xarakteri va shaxsiyatini aniqlashga yordam beradi. Mualliflar o‘zlarining ichki fikrlari va motivlarini o‘rganish orqali qahramonning shaxsiy hayoti va hikoya davomida o‘rishini shakllantirishlari mumkin. Ichki kurashlar xarakterning o‘rishida muhim rol o‘ynaydi, ularni qo‘rquvga qarshi turishga va to‘siqlarni engishga undaydi. Bu qiyinchiliklar ularning rivojlanishiga hissa qo‘shib, o‘zgaruvchan tajriba va tushunchalarga olib keladi. Ichki kurashlar turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, masalan, o‘z-o‘zidan shubhalanish, o‘z-o‘zidan nafratlanish yoki qarama-qarshi istaklar. Ushbu ichki ziddiyatlar keskinlik va dramani keltirib chiqaradi, qahramonning yoyini oldinga siljitadi va hikoyani boshqaradi. Masalan “Shaytanat” asaridagi bir qator qahramonlarda shunday o‘y-fikr o‘tadi. Avvalo bosh qahramon Asadbekda, so‘ngra uning qizi Zaynab, Elchin, Anvar, Zelixon, Zohid va shu kabi obrazlarda ham ularning ichki hissiyotlari o‘z-o‘zlari bilan kurashishini asarni sinchiklab o‘qigan kitobxon juda yaxshi biladi.

Qahramon shunchaki, kuch va jasoratning jismoniy timsoli emasligini tushunish kerak. Ular o‘zlarining fikrlari, his-tuyg‘ulari va motivatsiyalariga ega bo‘lgan murakkab mavjudotlardir. Qahramonning psixologik jihatlarini o‘rganish orqali biz ularning fe‘l-atvorining chuqur qatlamlarini ochib bera olamiz va ularni jasorat va fidoyilik ko‘rsatishga nima undayotganini tushunamiz. Rivojlanishdagi psixologik tahlilning asosiy jihatlaridan biri qahramonning bolaligi va olgan tarbiyasini ko‘zdan kechiradi. Ularning o‘tmishdagi tajribalarini tushunish orqali biz qahramonga hamdard bo‘lamiz va dunyoga ularning ko‘zi bilan qaray olamiz. Ular o‘zgarimas kuch va ishonch timsolini aks ettirishi mumkin bo‘lsa-da, qahramonlar ham o‘ziga shubha, qo‘rquv va ishonchsizlik bilan kurashadigan zaifliklar mavjuddir. Qahramon xarakterining rivojlanishidagi psixologik tahlilning yana bir muhim jihati ko‘rib chiqiladi. Qahramonlar ko‘pincha ittifoqchilari va dushmanlari bilan chuqur aloqalarni o‘rnatadilar, bu ularning harakatlari va qarorlariga ta‘sir qilishi mumkin. Bu munosabatlarni o‘rganib chiqib, biz qahramonning boshqalar bilan o‘zaro munosabatlari ularning xarakterini qanday shakllantirishini va hikoyani oldinga olib borishini ko‘rishimiz mumkin. Psixologik tahlil qahramonning motivlari va istaklarini o‘rganishga imkon beradi. Ushbu murakkab motivlarni ochib berish orqali qahramonning ichki mohiyatini anglay olamiz va ularning xarakterining teranligini qadrlaymiz. Tahlil qilayotganimiz “Shaytanat” asarining bosh qahramoni Asadbek ruhiyatida ham yuqoridagi holatlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, Asadbekning yoshlik yillarini esga oladigan bo‘lsak, xalq dushmanining bolasi degan tamg‘a qo‘yiladi. Turli xil tuhmatlar qilinadi. Butun sinf bolalari Asadbekka tupuradi, hatto yaqin do‘sti deb yurgan Haydar ham o‘sha bolalarga qo‘shiladi. Lekin Asadbek Haydarni yoniga olsada, bu voqealarni butun umri davomida unutmaydi.

Ichki kurashlarni yengish orqali qahramonlar o‘rish va o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar. Ularning qo‘rquvlariga qarshi turish va zaif tomonlarini bartaraf etish orqali qahramonlar o‘z yo‘llariga tashlangan qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yanada chidamli va o‘zini anglaydigan bo‘lib rivojlanadi. Psixologik to‘qnashuv xarakter rivojlanishi uchun harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi, bosh qahramonni ichki his-tuyg‘ulariga qarshi turishga va hikoya davomida rivojlanishga undaydi. Xarakter yoylari psixologik to‘qnashuvlar tufayli shakllanadi, chunki qahramonlar o‘zlarining ichki kurashlari orqali o‘tadilar va o‘zlarining tajribalari orqali o‘zgarib chiqadilar. Ushbu qiyinchiliklarni o‘z

zimmasiga olgan holda, qahramonlar chuqur o'zgarishlarni boshdan kechiradilar va natijada yanada nozik va qiziqarli hikoyaga olib keladi. Hikoya olamida qahramonning ruhiy manzarasini o'rganish ularning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Psixologik tahlil usullaridan foydalangan holda, yozuvchilar o'z qahramonlarining aqli, motivlari va xatti-harakatlarining nozik tomonlarini ochib, oxir-oqibat ularni sahifada jonlantirishlari mumkin. Freyd psixoanalizidan tortib, Yung arxetiplarigacha yozuvchilar o'z qahramonlarini idrok etish uchun juda ko'p vositalarni o'z asarlarida qo'llaydi. Mualliflar bolalikdagi jarohatlar, istaklar, qo'rquvlar va ichki mojarolar kabi jihatlarni o'rganib, o'quvchilar bilan yanada chuqurroq aks sado beradigan ko'p o'lchovli personajlarni yaratishi mumkin. Tahlilgan tortilgan asar bosh qahramoni Asadbek, o'zgacha xarakter, o'zgacha aql idrok va o'zgacha salobat. Hech kim kutmaydigan xatti-harakat. Rossiyadagi Hongrey bilan Asadbek aloqalari yaxshi bo'ladi. Sababi Asadbek dushmanlarini ham yonida saqlaydigan xarakterga ega obraz sifatida gavdalanadi bu yerda. Uning nazaridan hech narsa chetda qolmaydi. Asarni o'qish davomida "...akademikni tanimasam yurgan ekanman", degan jumlaning ko'ramiz. Bu esa Asadbek hech bir dushmanini nazoratdan chetda qoldirmaydi. Hatto Zaynab bilan bo'lgan voqeada ham birinchi bo'lib xayoliga Elchin keladi. Bu ham dushmanlariga to'g'ri baho berish san'ati edi nazarimizda.

Adabiyot va hikoyalar olamida o'quvchilarni o'ziga jalb etish va ularni hikoyaga jalb qilishda xarakter rivojlanishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, uning tashqi shaxsi ostida uning xarakteriga chuqurlik qo'shadigan murakkab psixologik ziddiyat to'ri yotadi. Bu to'qnashuvning bir jihati uning o'ziga xoslik hissi bilan kurashidir. Asarni o'qish davrida Asadbekni goh qo'pol, goh samimiy, goh esa mehribon ota qiyofasida uchratamiz. Lekin qahramonimiz vijdonsiz emas. Qahramon sifatida o'ziga xos fazilatlar va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa-da, u o'z qobiliyatlari va qadr-qimmatiga nisbatan shubha va ishonchsizlik tuyg'ulari bilan qaramaydi. Dushmanlari, ishongan odamlari, uning ishonchini yo'qotishga va uning e'tiqodiga qarshi chiqishga, shubhalar va ichki tartibsizliklarga olib kelishiga harakat qiladi. Lekin uning mardligi, qaytmasligini hatto dushmanlariga ham tan oldiradi. Qahramonning psixologik ziddiyatining yana bir jihati uning munosabatlari bo'lishi mumkin. Qahramon sifatida u murakkab shaxslararo dinamikani, jumladan do'stlik, raqobat va dushmanlarini boshqarishi kerak bo'lishi mumkin. Bu munosabatlar uning ichki kurashlarini yanada murakkablashtirib, o'z his-tuyg'ulari, qahramonning psixologik ziddiyatlari uning o'tmishdagi boshidan kechirganlari va jarohatlaridan ham kelib chiqishi mumkin. O'z-o'zini kashf qilish va o'z-o'zini o'rganishga qaratilgan bu sayohat oxir-oqibat uning xarakterini boyitib, uni xarakterini o'zgarishi, yanada murakkab va o'ziga xos siymoga aylantirishi mumkin. Biz tahlilga tortayotgan asarda ham Asadbekning eng yaqin do'sti Jalil hayotda unga ko'p yordam, maslahat va chin do'stlikni beradi. Hatto hech kim jur'at etolmagan gaplarni Asadbekning yuziga aytadi. Uni qo'l ostidagilarga o'xshab yolg'ondaka xushomad qilmaydi. Hatto asarni bir joyida unga qarata "...xudodan qaytibdi..." jumlasini ham ko'rishimiz mumkin. Haqiqatan ham bunday gapni Asadbekka aytishga hech kimni yuragi betlamasdi.

Xarakterning rivojlanishi adabiy asarlar hikoyasini shakllantirishda, xususan, sayohati o'quvchilarni hayratga soladigan jozibali qahramonni yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qahramon xarakterining shakllanishini o'rganish orqali biz hikoya davomida ularning evolyutsiyasiga hissa qo'shadigan ta'sirlar, qiyinchiliklar va o'sishlarning murakkab tarmog'ini tushunamiz. Xarakterning rivojlanishi yaxshi hikoyaning ziravoriga o'xshaydi, qahramonning sayohatiga chuqurlik va lazzat qo'shadi. Bu shunchaki bosh qahramonni biz o'zimiz uchun asos bo'ladigan (yoki nafratlanishni yaxshi ko'radigan) to'liq xarakterga aylantiradi.

Ularning munosabatlari, chidamliligi va yutuqlarini o'rganish orqali biz xarakterning evolyutsiyasi va o'sishini tushunamiz. Bosh qahramonning shakllanishi va uning hikoyasiga chuqur ta'sirini o'rganishda biz asarlarni tadqiq etmoqdamiz. Bosh qahramonimizning bugungi kundagi kimligini shakllantirishda uning oiladagi dinamikasi va tarbiyasi katta rol o'ynadi.

Badiiy adabiyotda xarakter yaratuvchi badiiy tasvir vositalari talaygina bo'lsa-da, ayniqsa, makon va zamon, ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari konflikt tasviri ham borki, usiz roman qahramonlari xarakterini shakllantirib bo'lmaydi. Xususan, adabiyotshunos olim Hotam Umurov "Konflikt bu – sujetni harakatga soluvchi kuch. Uning ta'sirdorligini, qiziqarliligini, ko'lamini belgilovchi unsurdir", deb ta'kidlaydi va uchta turi borligini yozadi:

1. Psixologik (ruhiy) konflikt (qahramon qalbidagi hissiyotlar, tushunchalar kurashi).

2. Ijtimoiy konflikt (asar qahramonlari bilan ular yashayotgan sharoit o'rtasidagi kurash).

3. Shaxsiy – intim konflikt (bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar, guruhlar o'rtasidagi kurash).

Konfliktning ushbu xillari hamma romanlarda uchraydi va asardagi qahramonlar xatti-harakatlari chizig'ini yaratib turadi. Bugungi kun badiiy adabiyotda yuqorida sanab o'tilgan konfliktning psixologik (ruhiy) turi asar qahramonlari xarakterini belgilashda qolganlariga nisbatan ustunlik qilayotganiga amin bo'lamiz. Qahramon xarakterining rivojlanishida psixologik tahlil hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning o'tmishi, ichki kurashlari, munosabatlari va motivlarini o'rganish orqali biz qahramonning yanada nozik va real portretini chizishimiz mumkin. Bu chuqurroq anglash orqali biz qahramonning jasorati va fidoyiligini yanada chuqurroq baholay olamiz. Mohiyatan, psixologik tahlil qahramonni shunchaki ikki o'lchovli shaxs sifatida emas, balki o'z hislari bilan kurashadigan va dunyoni yaxshiroq joyga aylantirishga intiladigan murakkab va ko'p qirrali shaxs sifatida ko'rish imkonini beradi. Muvaffaqiyat va o'zgarish – bu bosh qahramonning ismi yoki otasining ismi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin (majoziy ma'noda, albatta). "Shaytanat" asarida bosh qahramonga ism tanlash ham mahoratli bo'lgan Asadbek(arabcha) "sher", "qudratli", "arslon", "qo'rqmas", "doviyurak", singari manolarni bildiradi. Xuddi shunday asardagi boshqa qahramonlarning ismlari, ichki hissiyotlari, ularni ichki dunyosi va o'z o'zi bilan suhbatlari (ayniqsa Zaynabning ismi, "O'tgan kunlar" asaridagi Zaynabning baxtsizligi bilan bog'liqdek) va o'rni kelganda o'z-o'zi bilan kurashi asarda singdirilgan va holat asar ta'sirchanligini taminlagan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, psixologik ziddiyat va aqliy tahlilning murakkab o'zaro ta'siri hikoyalar ichida jozibali personajlarni shakllantirishda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ichki kurashlar va xarakter o'sishining murakkabligini o'rganish orqali mualliflar tomoshabinlar bilan chuqur darajada qahramon ichki dunyosiga kirib borishi, nozik va ko'p o'lchovli bosh qahramonlarni yaratishi mumkin. Ushbu elementlarni o'rganish va asarni o'qish orqali asarda ba'zan kulguli, ba'zan esa etni jimirlatadigan, hissiyotlarni jumbushga keltirishini asarni o'qish chog'ida his qilamiz. Bosh qahramonning rivojlanishidagi psixologik ziddiyat va ma'naviy tahlilni o'rganish inson tabiatining murakkabliklari va ichki kurashlarning o'zgartiruvchi kuchi haqida boy tasavvurlarni taqdim etadi. Qahramonning ruhiyatini chuqurroq o'rganish va ularning yechim sari sayohatini o'rganish orqali ushbu maqola hissiy notinchlik, shaxsiy o'sish va o'z-o'zini kashf qilish o'rtasidagi nozik o'zaro ta'sirni ta'kidlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulton I. Adabiyot nazaryasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
2. Tohir Malik. Shaytanat. 1-qism. Toshkent: Sharq, 2016.
3. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)
6. Rahimova L. Badiiy konflikt talqini. Maqola. // Yoshlik, 2007, 2-son.
7. Umurov H. Adabiyot nazaryasi. – Toshkent: "Sharq", 2002.

#### ZAMONAVIY TARBIYACHI IMIJI

**Bozorova Zuhraxon**

**ADPI, Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda tarbiyachi-pedagogning imiji uning pedagogik faoliyatini izohlab beruvchi mezonlar haqida so'z boradi.

**Tayanch iboralari:** imij, imijologiya, qadriyat, madaniyat, mahorat, tarbiyachi faoliyatining qirralari, psixologik jozibadorlik.

**Аннотация:** В данной статье говорится об образе педагога-паагога сегодня и критериях объяснения его педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** имидж, имиджеология, ценность, культура, мастерство, аспекты деятельности педагога, психологическая привлекательность.

Annotation: This article talks about the image of the educator-paagog today and the criteria for explaining his pedagogical activity.

Keywords: image, imigeology, value, culture, skill, aspects of educator's activity, psychological attractiveness

Zamonaviy tarbiyachining o'zini namoyon etuvchi mezonlardan biri uning imiji hisoblanadi. Imij – u o'zida yetarli darajada his-tuyg'uga bezalgan obyekt to'g'risidagi axborotni qamrab oladi va aniq ijtimoiy munosabat tasavvurini yuzaga keltiradi. Shaxslararo munosabatlarga e'tibor berganimizda, har bir shaxs o'z munosabatidan kelib chiqib o'z imijini aks ettiradi. Shu bois munosabat doirasida ularni “imij qadriyat funksiyalari” deb keltirdik. Imijelogiya – har bir insonni jozibador bo'lishga va insonlarga yorug'lik ulashishga chaqirish. Imijelogiya – ta'sir ko'rsatish texnologiyasi. Insonlarga ta'sir ko'rsatishning usuli mavjud. “Ishontirish usuli” va “Yoqish usuli”. Ulardan so'nggisi samaraliroq (Blez Paskal). Imij qandaydir sintetik siymo bo'lib, aniq bir insonga bo'lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir. Tarbiyachi imiji ta'lim muassasasi imijiga ta'sir etadi. Shaxsni yuksaltirish imiji - ijobiy imij tufayli shaxsning siymosi uning ma'naviy xislatini namoyon etadi, vizual tarzda uning eng yaxshi xususiyatlari moddiy tarz – Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahoratida gavidalanadi hamda uning individual o'ziga xosligi ko'rinadi. Psixologik jozibador xususiyatga ega shaxs, insonlar e'tibori va hurmatiga muqarrar, unga bu bioenergetik quvvat to'ldirish va tiklash imkonini beradi, bunga undagi ijobiy barqaror xush kayfiyat misol bo'ladi. Tarbiyachi o'zining maqsadlariga erishish sari optimist va o'ziga ishonchi mavjud bo'lishi kerak. “O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasi”ning 4 ta asosiy texnologik jihatlar mavjud:

1. Qiyofa vizualizatsiyasi
2. Kommunikativ
3. Verbal effekt.
4. Flyuid nurlanish.

Imijning texnologik funksiyalari:

1. Ijtimoiy adaptatsiya.
2. To'g'ri tanlangan imij orqali ma'lum bir ijtimoiy muhitga tezroq kirishish, insonlar bilan ijobiy aloqalar o'rnatish mumkin.
3. Shaxsiy-kasbiy xarakteristikalarini namoyon qilish. Bu shaxsning o'z kasbiga e'tiborini qaratib, insonlarda simpatiya uyg'otishga qaratilgan.
4. Shaxsiy negativ xislatlarni yashirish.
5. Bu shaxsning kiyim, soch turmagi, ijobiy xulqi orqali o'z kamchiliklarini boshqa insonlardan yashirish usuli.

Imij yaratishdagi “PR” texnologiyalar:

- \* Pozitsiyani maqtash.
- \* Lider shaxsining pozitivizatsiyasi.
- \* Raqib imijini pasaytirish.
- \* Tashkilot ijtimoiy bazasi va hamkorlarini ulug'lash.
- \* Kontreklama.

Tarbiyachi imijini yaratishda atrof-muhitni hisobga olish lozim, shu bilan birga faoliyat yuritayotgan jamoaga mos imijini yaratishi kerak. Har bir muhitning o'z imiji mavjud. Shu bilan birga Tarbiyachi o'z invidualligini, takrorlanmasligini yo'qotmasligi zarur. O'z kasbini samarali boshqarishda Tarbiyachi imijini rivojlantirishga oid turli xil maslahatlar berilgan. Ulardan: AIDA imijining ta'sir qilish qonuni: A (attention) – e'tibor. I (interest) – qiziqish. D (dimand) – ehtiyoj. A (action) – harakat. Agarda inson o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olsa, u to'g'ri yo'l topa oladi. Uning doim o'ziga ishonchi bo'ladi va kasbiy faoliyatida ham shaxsiy hayotda ham omadli bo'ladi. Zamonaviy tarbiyachi imijining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar: kiyinish madaniyati, ma'naviy madaniyati, muloqot madaniyati, o'zini tutish madaniyati. Shuningdek, aqllilik, bilimlilik, ijobiy xulq-atvor, sog'lik kabilar muhim ahamiyatga ega.



Har bir tarbiyachi kompetentligi va kreativligi yuzasidan egallashi lozim bo'lgan kompetensiya komponentlari asosida o'zining siymosini yaratadi.

- huquqiy kompetentlik;
- boshqaruv kompetentligi;
- axborot kompetentligi;
- kommunikativ kompetentlik;
- psixologik-pedagogik kompetentlik;
- tashkilotchilik kompetentlik;
- kreativ kompetentlik;
- innovatsion kompetentlik;
- iqtisodiy-moliyaviy kompetentlik

#### **Foydalanilgan adabiyotla:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T.: O'zbekiston, 2017.- 592 b.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательскополиграфический творческий дом им.Чулпана. Т.; 2005. -200 с.
3. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi.- T.: Yangi asr avlodi, 2016. -132
4. Umumiy pedagogika. Qism I. /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH**

**Ergasheva Mohiniso Dilshod qizi (O'zbekiston)**  
**NavDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**  
**Ilmiy rahbar:**  
**Ermatova Gulnoz Pirimovna(O'zbekiston)**  
**NavDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish, ularda tevarak-atrof, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirish haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** irodaviy sifat, maktabgacha yosh davri, murakkab harakatlar, yurish, yugurish, gapirish, ko'z harakatlari.

**Аннотация:** данная статья содержит информацию о развитии произвольных качеств у детей дошкольного возраста, формировании их представлений об окружающей среде и социальной жизни.

**Ключевые слова:** волевые качества, дошкольный возраст, сложные движения, ходьба, бег, речь, движения глаз.

**Abstract:** this article contains information about the development of voluntary qualities in preschool children, the formation of their ideas about the environment and social life.

**Key words:** volitional qualities, preschool age, complex movements, walking, running, speech, eye movements.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimiga ayniqsa, maktabgacha ta'limga e'tibor kuchaymoqda. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70% ini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim jarayonida oladigan ta'lim-tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich halqasi sanalib, keyingi ta'lim bosqichlari uchun fundament hisoblanadi. Ta'lim to'g'risidagi Qonunda ham maktabgacha ta'lim to'g'risida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan

tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi",- degan fikrlar bildirilgan.

Bola tug'ilgan chog'idan boshlab faollik ko'rsata boshlaydi. Lekin uning aktivligi hali juda sodda va faqat ixtiyorsiz bo'ladi. Bolalarning aktivligi avvalo ixtiyorsiz harakatlarda ifodalanadi. Bunday aktivlik dastavval sharoitga moslashish tarzidagi harakatlardan iborat bo'ladi. Bola o'zi uchun yangi bo'lgan narsalarning hammasiga, xususan, harakat qiladigan, ovoz chiqaradigan, yorqin qilib bo'yalgan narsalarga nisbatan tez va tetik munosabatda bo'lib, ularga qayrilib qaraydi, u tomonga intiladi, ushlab ko'radi, polga ag'angatib tashlaydi hamda ana shunday asosda dastlabki xatti-harakatlarni egallaydi. Mana shunday harakatlarda organizmning hayoti gavdalanadi, chunki bola bunday ixtiyorsiz harakatlar yordami bilan o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondiradi. Shu bilan birga bu ixtiyorsiz harakatlar bolalar irodasining taraqqiyoti uchun tayyorgarlik jihatidan muhimdir. Ixtiyorsiz harakatlar tufayli nerv hamda muskul sistemalari o'sadi va mustahkamlanadi, ayrim organlarning, ya'ni – o'ng va chap oyoqning, ong va chap qo'lining, ayrim barmoqlari harakatlari chiniqadi. Bunday harakatlar tufayli bola o'z organlarining harakatini seza boshlaydi va o'z organlari hamda ularning harakatlari haqida tasavvur hosil bo'ladi. Bularning hammasi irodaviy harakatlar davomida bolaning o'z organlarini ongli ravishda boshqarish zarurdir. "Qo'l, oyoq, bosh va gavda harakatlarining barcha elementar shakllari,- deb yozadi Sechenov,-va, shuningdek, bolalik davrlarida o'rganilgan barcha murakkab harakatlar, ya'ni yurish, yugurish, gapirish, ko'z harakatlari, bu harakatlarni o'rganib olingandan keyingina irodaga bo'ysunadigan harakat bo'lib qoladilar". Lekin organizmning ma'lum darajada o'sayotgan harakatlarining o'zini hali iroda deb bo'lmaydi.

To'la anglab olingan intilish, tanlash, qarorga kelish va zo'r berish kabi iroda elementlari ko'ringan davrdan boshlab, muayyan yoshdagi bolalarda irodaning borligi haqida gapirish mumkin.

Istak mayl tarzida intilish bolada juda barvaqt, ya'ni hissiyotlar bilan birga yuzaga keladi. Bolaning biror narsadan noroziligini va bunday holatdan qutulish uchun intilayotganini tez-tez kuzatish mumkin. Ammo bolaning bunday intilishlari hali anglab olinmagan intilishlar bo'ladi. Taxminan ikki yoshga yetmagan bolada, tarbiya va o'yin faoliyatining ta'siri ostida anchagina tajriba to'planadi, ya'ni u ma'lum tasavvurlar zapasiga ega bo'ladi, xayol qilish qobiliyati o'sa boshlaydi. Shuning bilan birga, bu yoshdagi bolada anglab olingan intilishlar va hohishlar payda bo'la boshlaydi. Ammo shuni aytish kerakki, bu intilishlar va xohishlar uzoq davrlarga qadar, asosan, bolada tug'iladigan emotsiyalarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bu davrdagi harakatlar, asosan, kuchli emosional mayl ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bu – oddiy irodaviy harakatlardir.

Doimiy sur'atda mashq qilish davomida bolada sekin-asta ongli ravishda irodaviy zo'r berish qobiliyati o'sa boshlaydi. Bunday mashqlar dastlab, asosan, kattalar rahbarligi ostida bo'lib turadi. Odatda, bunday bolalarga birorta vazifa, yumush topshiriladi. Masalan, "falon joyga borib kel", "Anavi narsalarni olib kel", "Uyning rasmini sol" va shuning kabilari. Bunda bola atrofdagi katta odamlarning xohishlari va qarorlari bilan harakat qiladi.

Kattalar tomonidan bolalarga ana shunday "vazifalar" topshirilib turilar ekan, ko'pchilik hollarda, albatta bunday vazifalarning tarbiyaviy ta'siri hamda bola irodasining rivojlanishiga bo'lgan ta'siri ko'zda tutilmaydi. Bunday vazifalardan ko'zlangan maqsad bolalarni biror yumush bilan band qilish yoki ota-onalarga xos bo'lgan qiziquvchanlik nuqtai nazaridan bolaning nimaga qodir ekanligini sinab ko'rishdan iborat bo'ladi. Haqiqatda esa bunday "vazifalar" bolalar irodasini effektiv rivojlantirishga va jumladan, harakat maqsadi va vositalarini anglashga, tartib-intizom malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Irodani mustahkamlash va o'stirishda bolalarning taqlidiy harakatlari, ya'ni boshqalarning ish-harakatlariga taqlid qilish juda katta ahamiyatga egadir. Oddiy taqlidiy harakatlar bolada juda erta, ya'ni to'rt-besh oylik bo'lgan davrdan boshlab paydo bo'la boshlaydi. Bolalar bir yoshdan oshganda esa ancha murakkab taqlidiy harakatlarni qila oladilar. Mana shulardan ko'rinib turibdiki, kishining irodasi faqat tarbiya ta'siri ostida o'sishi mumkin. Irodaviy faoliyatga doir dastlabki mashqlar kattalarning rahbarligi ostida yoki kattalar ko'rsatmasi bilan amalga oshadi.

Bolalar ikki yoshdan oshganda motivlar kurashining boshlang'ich alomatlarini ko'rish mumkin. Masalan, bolaga bir vaqtning o'zida olma bilan anorni ko'rsatib, „shulardan bittasini olaqol“-desak,

bunday holda boladagi ikkilanish, ya'ni motivlar kurashi aniq ko'rinadi: bola goh olmaga, goh holvaga qaraydi, qo'lini goh olmaga, goh holvaga uzatadi. Motivlar kurashi shuning bilan tugaydiki, bola bu narsalardan birini o'z qo'li bilan oladi, "Olmani" yo "Anorni" olaman deydi. Ammo shunisi ham borki, bola shu ondayoq o'z qarorini o'zgartirib qo'yishi mumkin. U har bir vaqtning o'zida qo'llarini ham olmaga, ham anorga cho'zishi mumkin. Lekin bu hodisa mana shu yoshdagi bolaning irodaviy jarayonlarida hali qat'iylik, barqarorlik yo'qligini ko'rsatishi mumkin.

Uch yoshli bolalarning harakatlarida tashabbuskorlik borligini kuzatish mumkin. Bu yoshdagi bola ma'lum yo'l tanlay oladi va ma'lum vaziyatni egallashga intiladi hamda oldiga qo'yilgan talablarni anglay oladi. Maktabgacha yoshning keyingi bosqichlarida bola irodasi o'zining butun jihatlari bilan to'la-to'kis tarkib topadi. Lekin shunga qaramay, bola irodasini hali to'la takomillashgan deb bo'lmaydi.

Bolalarning harakatlarida ixtiyorsiz aktivlik va hissiyot juda katta o'rin oladi. Bolalar ma'lum bir qarorlarga o'zlarida tug'ilgan bir talay hissiyot ta'siri bilan keladilar, shuning uchun, bolalarning qarorlari tez-tez o'zgarib turadi. Ular o'z qarorlarini tez-tez, hattoki amalga oshirish paytida ham o'zgartirib turadilar. Agar bolalarning oldilariga qo'yilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uyg'otsa va zavq tug'dirsa, bunday paytda bolalar o'zlariga xos ravishda iroda kuchi va qat'iylik ko'rsatishlari mumkin. Bolalar hali o'zlarini yaxshi tuta olmaydilar va betoqat bo'ladilar. Bolalarda mustaqillik hali kam bo'ladi. Ular o'zlarining harakatlarida doimo kattalarning yordamiga muhtojdirlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning irodasi, asosan, o'yin jarayonida ko'rinadi. O'yin bolalar irodasini vujudga keltiruvchi, o'stiruvchi va mustahkamlovchi amaliy mashg'ulotdir. Bolalar o'yin jarayonida o'z oldilariga sodda bir maqsadlarni qo'yadilar va uchragan qiyinchiliklarni yengib, bu maqsadlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ladilar. "O'yin jarayonida, -deb yozgan edi N.K.Krupskaya,-bola qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi, atrof-muhitni biladi va qiyin vaziyatdan chiqish yo'llarini axtaradi". Qoidali o'yinlar, xususan, katta ahamiyatga egadir. O'yin qoidalarini bajarish bolani o'z harakatlarini o'yin o'ynovchilarning umumiy maqsadlari bilan moslashishga o'rgatadi, javobgarlik hissini tarbiyalaydi, vazminlik va intizomlilikni rivojlantiradi.

Ammo bog'cha yoshidagi bolalar irodasi faqat o'yin jarayonlarida ko'rinib qolmay, balki, bu yoshdagi bolalarga mansub bo'lgan ba'zi bir mehnat faoliyatlarida, ya'ni o'z-o'zlarini eplashga, polizdagi va bog'dagi o'simliklarni parvarish qilishda hamda boshqa shu kabilarda ko'rinadi va tarkib topa boradi.

Maktabgacha yoshdan boshlab inson irodasi taraqqiyotining asosiy vositasi sifatida mehnatning ahamiyatini hisobga olish zarurdir.

Bolalarni mehnatga qatnashtirish ularni quvontiradi va rohat bag'ishlaydi. Mehnat bilan bog'liq bo'lgan ishlarda jismoniy va aqliy aktivlik, kattalarning topshiriqlarini ongli bajarish irodaviy zo'r berish, belgilangan maqsadga erishish uchun intilish va tashabbus ko'rsatish namoyon bo'ladi.

O'yinlarda va o'zlariga mos mehnat faoliyatlarida bolalar o'zlarining va boshqalarning ish-harakatlariga "yaxshi" yoki "yomon" degan tarzda amaliy baho bera boshlaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar umuman „yaxshi ish" bilan „yomon ish" nimadan iborat ekanligini ajrata boshlaydilar. "Axloqsiz" xatti-harakatlar sodir bo'lib qolgan vaqtda ularda uyalish hissi yuzaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarida va boshqa o'zaro munosabatlarida ko'pincha ulardan „uyalmaysanmi!"-degan kinoya so'zlarni eshitish mumkin.

Shunday qilib, bolaning maktabgacha yosh davrida irodasining boshqa sifatleri bilan birga irodaning axloqiy sifatleri ham rivojlanib va mustahkamlanib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. T.: 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi T.: 2022.

4. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.N. A'zamova. Maktabgacha pedagogika. Toshkent-2017.

5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" 2-ilova "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv dasturi" T.:2020.

2. G'oziyev E.Umumiy psixologiya."O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati"-T.: 2010-yil,257-bet.

3. Nishonova Z.,Alimova G.Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.:2006 yil, 91-bet.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY - ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Rizaulova Sabina

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Ergasheva Lobar Dilmurod qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik didini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish orqali bolalarning ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, STEAM ta'lim maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan aniq vazifalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** estetika, tarbiya, idrok, ong, rivojlanish, imkoniyat, innovatsion metodlar, badiiy asarlar, san'at.

**Аннотация:** В данной статье описываются отношение детей к общественной жизни, конкретные задачи, обеспечивающие реализацию образовательных целей STEAM посредством использования образовательной технологии STEAM в формировании художественно-эстетического вкуса детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** эстетика, образование, восприятие, сознание, развитие, возможность, инновационные методы, произведения искусства, искусство.

**Annotation:** This article describes the attitude of children to social life, the specific tasks that ensure the realization of STEAM educational goals through the use of STEAM educational technology in the formation of the artistic and aesthetic taste of preschool children.

**Key words:** aesthetics, education, perception, consciousness, development, opportunity, innovative methods, works of art, art.

**STEAM** – hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini tushunishimiz mumkin, ya'ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir.

Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu metodika ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

STEAM ta'lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun bir vaqtni o'zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg'unligini ta'minlaydilar.

Bunda aql va qo'l iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko'rib [tezda uqib](#), o'zlashtirib oladilar. O'yin-qurilish-kognitiv va tadqiqot faoliyati – badiiy va ijodiy faoliyat turlari hisoblanadi.

Har bir modul STEAM ta'lim maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan aniq vazifalarni kompleks ravishda hal qilishga qaratilgan: kognitiv tadqiqotlar jarayonida bolalarni intellektual

qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy-texnik ijod qilishga o'rgatish bugungi kunning asosiy maqsadlardan biridir<sup>35</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM ta'lim tizimi orqali bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish lozim. Bu texnologiya orqali bolalar mashg'ulotlar davomida ertakni hikoyadan, maqshni raqsdan, allani o'yindan ajrata boshlaydilar.

Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar. Ularda ijobiy qahramonlardan quvonib, salbiy qahramonlarning harakatlaridan xafa bo'lish holatlari yuz beradi.

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqib, bolaning yosh imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilanadi:

1. Bolalarni hayotdagi go'zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilarning xattiharakatlarida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, raqs, rasm) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish; chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan farqlay olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolalarni san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyatlarda yanada faolroq harakat qilish, o'zini ko'rsata olishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakatga keltira olish malakalarini rivojlantirish.<sup>36</sup>

Pedagogika sistemasiga xos bo'lgan estetika va etikaning birligini oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichikintoylarni tarbiyalashda bema'lol qo'llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo'lishlari talab etiladi.

Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg'otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o'yinini uyg'otadi. Bu to'g'rida S.Y. Marshak shunday degan edi: "Qizil shapkacha" ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshitishga tayyorlar. Bunga sabab ertak o'z tuzilishi bo'yicha aniq, uning mantiqi va motivi izchil, har qanday bola o'zini ertakdagi qahramon o'rniga qo'ya oladi va "Qizil shapkacha"ni o'ynay oladi". San'atning hamma turlari – adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir.

Qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi. Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlar bolalarga tanish bo'lsa-da, ularni tarbiyachi qo'li yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib borishi natijasida ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar. Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o'ynaydi.

Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. J.G'.Yo'ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov "Pedagogik diagnostika" o'quv metodik qo'llanma T.:2014
2. O'.Tolipov, D.Ro'ziyeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" "Toshkent innovatsiya-ziyo" T.: 2019
3. N.N.Azizxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" "O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti T.: 2006

<sup>35</sup> <https://muhoz.org/5--maruza-mavzu-maktabgacha-talimda-tabiiy-va-badiiy-estetik-t.html>

<sup>36</sup> :/Users/Kamronbek/Pictures/Downloads/Binoqulova+Dilnora+Sirojiddin+qizi.pdf

# TALABALARNI IJODIY FAOLIYATGA JALB ETISH YO‘LLARI VA INTELLUKTUAL YOSHLAR ELITASINI SHAKLLANTIRISHDA FAN TO‘GARAKLARINI TASHKIL QILISH USHLARI

*Isroilov Faxriddin Murodqosimovich.<sup>1</sup>,  
Jizzax Politexnika Instituti “Metrologiya va standartlashtirish” kafedrası  
v.b<sup>1</sup> dotsenti [metrologiyafaxriddin@gmail.com](mailto:metrologiyafaxriddin@gmail.com)  
Jizzax viloyati Jizzax shaxri Jizzax Politexnika Instituti*

**Annotatsiya.** Bolalarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish yo‘llari ham belgilab beriladi. Ilmiy tadqiqotlarning natijalari hozirgi maktab o‘quvchilari va talaba yoshlarning faoliyati ijodiy ishlanish xarakterida bo‘lishi kerak. Buning uchun esa ijodkorlar obektish borliqdagi hodisalarni mustaqil holda aniqlash, tekshirish va tushuntirishga o‘rgatuvchi ushlarni qo‘llash zarurligini keltirib chiqaradi.

**Annotation:** Ways to develop children's creative abilities are also determined. The results of scientific research should be of the nature of creative work of current schoolchildren and students. For this, creators need to use methods that teach them to independently identify, verify and explain the phenomena of objectivity.

**Аннотация:** Также определены пути развития творческих способностей детей. Результаты научных исследований должны носить характер творческой деятельности нынешних школьников и студентов. Для этого творцам необходимо использовать методы, которые учат их самостоятельно выявлять, проверять и объяснять явления объективности.

**Kalit so‘zlar:** psixolog, ijodkorligi, g‘oya, idrok, ijodiy, konstruktorlik, texnologik, ko‘nikma, malaka, saviya, pedagog, kadr.

**Ключевые слова:** Психолог, творчество, идея, восприятие, творческий, конструктивный, технологический, мастерство, мастерство, уровень, педагог, персонал.

**Keywords:** Psychologist, creativity, idea, perception, creative, constructive, technological, skill, skill, level, pedagogue, personnel.

Talabalarni xalq xo‘jaligida ishlashga tayyorlash, ularga mexnatga muxabbat va yaratuvchilik faoliyati jarayonida o‘z bilim va malakalarini ijodiy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kun ta‘lim tizimining asosiy vazifalardan biridir. Bu vazifani hal qilishda talabalarni texnik ijodkorlikka jalb etish katta o‘rin tutadi.

Hozirgi kunda bu ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki fan texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichi xalq xo‘jaligining barcha sohalarini fan va texnikaning ilg‘or bosqichlariga olib chiqishini talab qiladi. Shuning uchun ham umumiy ta‘lim, kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘limni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlarida takidlanganidek, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan mutaxassislar eng zamonaviy ma‘lumotga, yuksak intellektual va jismoniy barkamollikga ega bo‘lishi, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo‘lishi zarur. Zamonaviy psixologlar, ijodkorlarning yoshiga qaramay faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘lishini hech qanday mustasnosiz barcha kishilar garchi turli darajada bo‘lsa ham ijodiy imkoniyatga ega ekanini ijodiy qobiliyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Shuni aytish kerakki, bu sohada ham ko‘chirish mehanizmi mavjud bo‘ladi, ya‘ni bir material bilan bir sohadagi ijodkorlik mashqlari boshqa sohalaridagi ijodiy faoliyatga katta ta‘sir ko‘satadi. Biroq bunday ko‘chirish ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish tarbiyaning alohida ishi va vazifasiga aylansagina amalga oshishi mumkin. Bu fikrlar barcha talabalarni ijodkorlik faoliyatiga barvaqt jalb qilishga zarur deyishga asos bo‘ladi. Bugungi kun pedagogikasida ijodiy faoliyatga o‘rgatish ancha kichik yoshdan boshlanmasa, keyingi yillar mobaynida o‘rnini to‘ldirish qiyin bo‘lgan zarar yetkazilishi, shuning uchun ijod qilishga o‘quvchilarni maktab yoshidan o‘rgatish kerakligi zarurati kelib chiqadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish yo‘llari ham belgilab beriladi. Ilmiy tadqiqotlarning natijalari hozirgi maktab o‘quvchilari va talaba yoshlarning faoliyati ijodiy ishlanish xarakterida bo‘lishi kerak. Buning uchun esa ijodkorlar obyekt borliqdagi hodisalarni mustaqil holda aniqlash, tekshirish va tushuntirishga o‘ogatuvchi ushlarni qo‘llash zarurligini keltirib chiqaradi. Tayyor holda ularga beriladigan bilimlar esa ularning ijodiy qobiliyatlarini susaytiradi.

Shuningdek fan asoslari mehnat ta‘limi va ishlab chiqarish mehnati mashg‘ulotlarida ilmiy, umumtexnik maxsus bilimlar hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirish talabalarni ta‘lim va mehnat

jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq ijodiy faoliyatga jalb qilish bilan birgalikda borishi kerakligi ham aniqlangan. Shu taqdirdagina bilim va ko'nikmalarni shakllanishi hamda mustahkamlanishi samaraliroq bo'ladi. Chunki o'quvchilar ularni zarurligini tushunadi. Olib borilgan tadqiqotlar va barcha yoshdagi izlanuvchilarni texnik ijodkorlikka jalb etishdagi ilg'or tajriba shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyatning samaradorligi qator asosiy pedagogik talablarni bajarishga, birinchi navbatda talabalarga tavsiya qilinadigan ijodiy vazifa va topshiriqlarni ular bajara olishiga, ularning ijodiy faoliyati natijali bo'lishiga va ijodiy jarayonning uzluksizligiga bog'liqdir.

Natijalilik talabi ayniqsa muhimdir, chunki erishilgan natija ijobiy kayfiyatni vujudga keltirib talabalarni ijodiy faollikga rag'batlantiradi. Ijodiy faoliyat natijasida faqat olingan "Mahsulot"ga qarab emas, balki ijodiy topshiriqni bajarishning har bir bosqichiga qarab baholash kerak.

Talabalarining texnik ijodkorligida vazifani bajarish to'rtta asosiy bosqichga bo'linadi:

- ✓ g'oyani idrok etish va asoslash;
- ✓ topshiriqni texnik jixatdan ishlab chiqish;
- ✓ topshiriq (obyekt) ustida amaliy ishlash;
- ✓ obyektни ishda sinab ko'rish va ijodiy yechim natijasini baholash.

Har bir bosqich aniq natijaga ega bo'lishi kerak: bu natija birinchi bosqichda idrok etilgan va qabul qilingan g'oya, ikkinchi bosqichda – g'oyani konstruktorlik texnologik jihatdan ishlab chiqib, amalga oshirish imkoniyatiga yetkazish; uchinchi bosqichda qarorni amalga oshirish, to'rtinchi bosqichda tahlil, ishni tugatish va yechimni baholash hisoblanadi. Ijodiy topshiriqni bajarishdagi har bir bosqichning natijaga ega bo'lishi talabalarda texnik fikrlash, ko'nikma va malakalari rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Talabalarining texnik ijodkorligini tashkil qilishda qo'yidagi shartlarni hisobga olish zarur:

- ✓ o'quv ijodiy sikl ma'lum vaqtga sig'dirilishi kerak;
- ✓ ijodiy faoliyat mazmuni talabalarining bilim, ko'nikma va malakalari saviyatiga mos kelishi kerak;
- ✓ ijodiy jarayon meyorda davom etishi uchun hozirgi zamon ishlab chiqarishi darajasiga mos moddiy texnika baza yaratilgan bo'lishi va talabalar bilan ijodiy ishlash uslubini egallagan muxandis pedagog kadrlar tanlangan bo'lishi kerak.

Hozir qator samarador uslublar aniqlangan ularga quyidagilar kiradi: buyumlarni konstruksiyalash (modellashtirish), monipulyativ konstruksiyalash, ma'lumotlari qisqartirilgan texnik hujjatlarni qo'llash, ijodiy masalalarni hal qilish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, ilgari tayyorlangan konstruksiyalarni o'zgartirib, ishlarni qayta bajarish, hayoliy eksperiment, texnik vositalardan foydalanib kam-ko'stlarni topish va tuzatish kabilardir. Ana shu uslublardan muayyan tartibda foydalanish ijodiy qobiliyatlarni o'stirish, ularda texnika sohasidagi mehnatga qiziqish uyg'otish imkonini beradi.

Talabalarni ijodiy faoliyatga jalb etish bo'yicha asosiy psixologik pedagogik talablarni bajarish bilan birga bunday faoliyatning mazmuniga, qo'yilgan maqsadga va talabalarining yoshiga muvofiq uslublarni tanlash katta ahamiyatga ega.

Mazkur metodlar va usullar mazmunini batafsilroq ko'rib chiqamiz. Texnik obyektlarni *konstruksiyalash* (modellashtirish) barcha yosh gruppasidagi talabalar texnik ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan asosiy uslubdir. U uslubda faqat mehnat buyumlarini konstruksiyalash yoki modellashtirishga doir ijodiy masalani hal qilishga emas, balki mazkur obyektни texnologik ishlash va tayyorlash zarurligiga ham bog'liqdir. Konstruktorlik faoliyatiga texnik bilim va ko'nikmalar shu faoliyatning ijodiy komponentlari (fazoviy tasavvur va idrok, texnik tafakkur, konstruktorlik zehni, monual epcillik, mavjud bilimlarni ishga solish qobiliyati va boshqalar)ning shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida qarash kerak. Bunda bilimlarni amalda ijodiy qo'llash birinchi o'ringa qo'yiladi. Talabalarni texnik ijodkorligini tashkil qilishda monupulyativ konstruksiyalash metodidan keng foydalanish kerak bo'ladi. Bunda ishtrokchilar detallar uzellar va butun qurilmalar ishini analiz qilishga o'rganadi. Bunda turli xildagi bolalar uchun "Konstruktor" jamlamalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qisqartirilgan ma'lumotli texnik hujjatlarni qo'llash uslubi bolalarda texnik tafakkurni o'stiradi.



Talabalarga muayyan elementlari ko'rsatilmagan xujjatlar (chizma, sxema, texnologik karta) berilib, yashirin elementlarni topish tavsiya etiladi. Talaba shu elementlarni topgach, buyumni yasashning samarador yo'lini tanlaydi, texnik hujjatga kerakli o'zgartirishlar kiritadi.

Ijodiy masalalarni hal qilish – topshiriqni hal qilish usulini mustaqil holda aniqlash, ilgari noma'lum bo'lgan ammo loyihalash va keyinchalik u yoki bu obyektни tayyorlash uchun zarur qonuniyatlarni izlash va topish, izlanish ijodiy elementlari mavjud vazifalarni hal qilish texnikadagi yangilikni bilishga qiziqish uyg'otadi, zarur nazariy materiallarni izlash va o'rganishga undaydi.

Xususiy xarakterdagi ijodiy topshiriqlar masalan, (obyekt o'lchamlarini ortirish yoki kamaytirish, buyumning detallar, uzal yoki tarkibiy qismini yaxshirog'i bilan almashtirish orqali buyumni o'zgartirish, tayyor obyektning tashqi ko'rinishini yaxshilash va h.k.) talabalarda tayyorlanayotgan texnik obyekt g'oyasini va konstruktiv ishlanishini asoslash bilan bog'liq ijodiy jarayonga jalb etishda yordam beradi. Bunday topshiriqlash obyektни tayyorlash bosqichida ham berilishi mumkin.

*Xayoliy eksperiment* katta yoshdagi to'garak a'zolarida tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirishning eng samarali usullaridan biri. Amalda xayoliy eksperimentning ikki turi qo'llaniladi: birinchisi, real eksperiment o'tkazish uchun amalga oshiriladigan tayyorgarlik ishining bir qismi, ikkinchisi hayotda amalga oshirib bo'lmaydigan ideallashtirilgan eksperimentni tashkil qilish va o'tkazishdan iboratdir. Xayoliy eksperimentning birinchi turi ma'lum darajada masalalarni real tiklamay hal qilishning turli yo'llarini fikran izlashdan iborat bo'lib alohida ahamiyatga ega. Xayoliy eksperiment ijodiy tasavvurni va tafakkurni o'stirish uchun ham muhimdir. Talaba fazoviy obrazlar bilan ishlaydi, u yoki bu obyektни fikran turli holatda qo'yib ko'radi va xuddi oddiy tajribadagi singari mazkur jism yoki xodisaning eng muhim yoki biror qiziqarli xususiyatlari namoyon bo'ladigan vaziyatlarni tanlaydi. Xayoliy eksperimentdan tegishli sharoitlarda qurilmalarning turli xil sxemalar ishini tahlil qilishda, buzilganlik sabablarini aniqlash, ularni bartaraf qilish usullarini topish va shu kabilarda muvafaqiyatni foydalaniladi.

Qurilmalardagi, metall ishlash uskunalardagi, pribor va apparatlardagi kam-ko'stlarini, nosozliklarni izlab topish va tuzatish usullari xarakterini aniqlashda talabalarining ijodiy tasavvuri rivojlanadi va sinash usuli bo'yicha sodir bo'ladigan unumsiz xarakterlar va xatolardan qochish imkonini beruvchi faoliyat usuli shakllanadi. To'garak a'zolari faoliyatning bu usulini o'zlashtirib olishlari uchun maxsus priborlar, trinajerlar, izlash dasturlari va shu kabilarni ishlab chiqish hamda tayyorlash bilan bog'liq mashqlar sistemasi kerak bo'ladi. Maqsadga nomuvofiq va nooptimal variantlarni atayin chiqarib tashlab izlash va buning sabablarini aniq tushunib olish mashqlari ham muhimdir.

Talabalarining ijodiy tafakkurini o'stirishda ma'ruzalar, suhbatlar, ilmiy maqolalarni o'qish, mustaqil bajarilgan tadqiqotlar haqida hisobotlar yozish, talabalarni ilmiy muammolarni jamoa bo'lib muhokama qilishga jalb etish, izlanish faoliyati munosabati bilan axborotlar almashish katta ahamiyatga ega.

Ish usullarini o'qituvchi har bir talabaning texnik tafakkurini, ijodiy qobiliyatlari qanchalik rivojlanganligini yaxshi tasavvur qilishi va oldingi ijodiy ish tajribasining hisobga olish kerak. Buning uchun talabalarining ijodiy tayyorgarligini besh darajasini aks ettiruvchi shakldan foydalanish maqsadga muvofiq:

**1-daraja.** Talabalar buyumni uning shaklini takomillashtirish yoki detallarni ratsional qo'yilish va hokazolar maqsadida chizmaga, sxemaga qisman o'zgartirishlar kiritib, berilgan hujjatlar bo'yicha tayyorlay oladi.

**2-daraja.** Talaba konstruksiyalashni oxiriga yetkazib va berilgan texnik hujjatga yoki alohida sxemaga o'zicha o'zgartirishlar kiritib buyumlarni yasay oladi.

**3-daraja.** Talaba buyumni uning konstruksiyasini dastlabki original takomillashtirish va texnologik hujjat yoki sxemaga mustaqil holda o'zgartirishlar kiritib tayyorlay oladi.

**4-daraja.** Talaba buyumning (o'qituvchi tomonidan berilgan) original konstruktorlik g'oyasini mustaqil holda texnologik jihatdan ishlab chiqib, uni tayyorlay oladi.

**5-daraja.** Talaba buyumning original konstruktorlik yoki ratsionalizatorlik g'oyasini mustaqil holda asoslab va tariflab bera oladi, xujjatlarni ishlab chiqish va buyumni yasashni bajara oladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchi ijodiy tayyorgarlikning ifodalangan darajalaridan talabaning ijodiy imkoniyatini baholash uchun emas, balki har bir talabaning ijodiy o'sish imkoniyatlarini hisobga



olishda, o'quvchilarni ijodiy jarayonga jalb etishning mavjud uslub va usullarini qo'llashga differensial yondashishda foydalanishini lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Isroilov f. M., Rakhmonov f. A. ugli Ungarov dy high responsibility (sensitivity) and accuracy of temperature sensors factors of achievement and reliable operation //international academic research journal impact factor.-2023.-т. 7. -с. 163-169.
2. Isroilov f. M. Et al. O 'zbekiston respublikasida sifat menejmenti tizimlariga o 'rnatuvchi meyoriy standart talablar //студенческий вестник.-2021.-№. 21-10.-с. 70-72.
3. Egamberdiev b., isroilov f., rahmatullaev c. Humidity sensors based on composite material with nano-dimensional structures //euroasian journal of semiconductors science and engineering. – 2020. – т. 2. – №. 3. – с. 36.

### **MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA YOSH AVLOD ONGIDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI**

**Jalilov Shokir Isomiddinovich**

**“Musiqqa ta’limi” kafedrasida dotsenti v.b.**

**Navoiy davlat pedagogika insituti, O‘zbekiston Respublikasi.**

**Annotatsiya.** Maqolada yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, unda ushbu maqsadga erishish uchun milliy qadriyatlardan, bolalar folkloridan samarali foydalanish tamoyillari taklif etilgan.

#### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются актуальные вопросы формирования человеческих качеств у молодого поколения, а также предлагаются принципы эффективного использования национальных ценностей и детского фольклора для достижения этой цели.

#### **ANNOTATION**

The article discusses current issues of the formation of human qualities in the younger generation, and also proposes principles for the effective use of national values and children's folklore to achieve this goal.

**Kalit so‘zlar:** qadriyat, ma’naviyat, meros, tarbiya, yoshlar, san’at, folklor, musiqqa, ta’lim, axborot.

**Ключевые слова:** Ценность, духовность, наследие, образование, молодежь, искусство, фольклор, музыка, образование, информация.

**Key words:** Value, spirituality, heritage, education, youth, art, folklore, music, education, information.

Hozirgi davrda milliy qadriyatlarimizdan, boy ma’naviy merosimizdan foydalanib, yangi O‘zbekiston talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning hamda ta’lim muassasasining muqaddas burchidir. Ma’naviyat ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san’at, ta’lim, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an’analar, diniy ta’limot va boshqa ko‘plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlarning ta’sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar oilada ota-ona, katta yoshdagi oila a’zolari ta’sirida, ta’lim muassasalarida esa o‘qituvchilar va tarbiyachilarning namunali xulqi, fe’l-atvori hamda reja asosida o‘tkaziladigan turli ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlar, shuningdek, kundalik hayot tarzi ta’sirida shakllanadi.

O‘zbek xalqi qadimdan oila ma’naviyatiga alohida e’tibor qaratgan. Bolada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish eng avvalo oilaning, xususan, ota-onaning zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Oila hayot davomiyligini ta’minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya maskanidir. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat, o‘z vataniga, xalqiga sadoqatli bo‘lish kabi oliyjanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi. Oila ijtimoiy guruhlarning

eng kichigi bo'lib, bolada o'zi va o'zgaralar to'g'risida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning dastlabki muhiti sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik maskandir.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish usullari bir qancha o'ziga xos shart-sharoitlarni taqazo etadi. Bu shart-sharoitlar quyidagi yo'nalishlardagi masalalarda namoyon bo'ladi:

- Ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonida bolalar xulq-atvori, ruhiyati, jinsi va yoshiga e'tibor berish.
- Bolalarning o'qish, ishlash va dam olishlarini to'g'ri tashkil etish.
- Oilada va maktabda bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatish.
- Ota-onalarni bolalar tarbiyasiga ijtimoiy va pedagogik jihatdan tayyorlash. Chunki, ota-onalar oila tarbiyasida o'z vazifalarini aniq bilmasalar, ular bolalarni tarbiyalay olmaydilar.
- Bolalarni o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarga tayyorlab borish. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari, mahallalar va maktablarda olib boriladigan tarbiya jarayonidir.
- O'qituvchilar va ota-onalar tomonidan bolalar oldida o'z hurmatini yo'qotmaslik.
- O'zaro munosabatlarda aldov, qo'pollik ikkiyuzlamachilikka yo'l qo'ymaslik.
- Oila tarbiyasida uchraydigan xato-kamchiliklar hamda tarbiyasi og'ir bolalar muammosini unutmaslik va o'z oilasida bunga yo'l qo'ymaslik.
- Rivojlanishida ayrim fiziologik nuqsonlar bo'lgan, imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyasiga ehtiyotkorona yondoshish.

Yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayoni ancha uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u bolalar endi aqlini taniy boshlagan vaqtlardan boshlanadi. Insoniy fazilatlar bolalarga majburiy tarzda emas, balki qiziqarli, yoqimli muhitda, shaxsiy namunalar asosida hamda turli qiziqarli o'yinlar, ertaklar, teatrlar va qo'g'irchoq teatrlari, musiqiy viktorinalar va boshqa shu kabi ma'naviy-tarbiyaviy vositalar orqali singdirib borilishi lozim. Shu o'rinda bolalarda insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun xalqimiz hayotida qadim davrlardan beri rivojlanib kelayotgan milliy qadriyatlarimizdan, an'analarimizdan, musiqiy folklor namunalaridan, xususan, bolalar musiqiy folkloridan maqsadli ravishda va rejali asosda keng foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa, bolalar musiqiy folklori bu sohada juda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, quyida ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda, yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirish tamoyillari ko'rib chiqiladi.

Bolalar folklori kichikintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi fazilatlarni – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bolalar folklorini yaratishga kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo'shishgan. Xalqimiz tomonidan bolalar uchun erkalovchi qo'shiqlar, musiqali o'yinlar yaratilgan bo'lib, alla, aytim, olqish, ovutmachiq, qiziqmashiq singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onalalik folklori tarzida ifodalangan. Onalalik folklori keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, poetik namunalarda erkalash xususiyati yetakchidir. O'z navbatida erkalash she'riyatiga mansub namunalar ijro maqsadi, bola yoshi, saviyasiga ko'ra guruhlarga bo'linadi:

✓ Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdagi davri bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ularni beshik qo'shiqlari deyishadi. Allalar, aytimlar, olqishlar, ana shunday xususiyatlarga ega. Beshik qo'shiqlari bola uch yoshga to'lgunga qadar aytiladi. Allalar ijtimoiy estetik qiymatiga ko'ra bolalarni uxlatishni maqsad qilsa-da, mutaxassislar fikriga ko'ra bolalarda birinchi mehr tuyg'usi ona allasi bilan paydo bo'ladi..

✓ Ikkinchi guruhga oid qo'shiqlar bola tug'ilganidan to 10-11 yoshga to'lguncha ijro etiladigan, beshik bilan bog'lanmagan, onalalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan badihalardir. Bular suyish qo'shiqlari bo'lib, erkalatmalar, ovutmachiq, qiziqmashiqlardan tarkib topgan.

Tez aytishlar va topishmoqlar. Tez aytishlar yoki so'z o'yinlari o'zbek xalq og'zaki ijodi turlaridan biri bo'lib, ayrim nutq tovushlarining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida murakkab joylashishiga asoslanadi. Tez aytishlar vositasida bolalar ona tilidagi tovush va so'zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishni, tovushlar ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'nolarini his etish va idrok qilish, aniqlash va ilg'ab olishni mashq qiladilar:

Qishda kishmish pishmashmish,

Pishsa kishmish qishmasmish.

Bolalar folklorining yana bir janri bolalar o'yin folklori bo'lib, xalq ijodi namunasi hisoblangan bolalar o'yinlari o'z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan hatti-harakat, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallar, poetik folklor namunalari, ohang va tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan juda keng tarqalgan janrdir. Bolalar o'yinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo'lgan ibtidoiy rituellar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o'yinlar o'zining rituellik xususiyatini yo'qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko'ngil ochar vositaga aylangan. Bolalar folklori navqiron avlodning psixologik xususiyatlarini, badiiy ijodkorligi, intellectual salohiyati va imkoniyatlarini ifodalagan, unda bolalarning voqelikka munosabatlari, estetik qarashlari va rang-barang tuygu-kechinmalari o'z ifodasini topgan.

Bolalar folklorining yana bir qiziq turi topishmoqlardir. Topishmoq aytish qadim zamonlardan boshlab turli xalqlarning hayoti, ijtimoiy shart-sharoitlari, dunyoqarashlari, urf-odatlarini, mifologik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. Topishmoq aytish aql, fahm-farosat, ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgu vositasi hisoblanadi. Topishmoq aytish, asosan, yoshlarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilimlari, tushunchalari, idroklari va mulohazalarini kengaytirish uchun zarur tarbiya vositalaridan biri bo'lganligi tufayli, ular soddadan murakkabga, osondan qiyinga borish usulida yaratilgan.

Sog'lom fikrlovchi yosh avlod tarbiyasida tarbiya jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq, pedagogik jihatdan to'g'ri, samarali bo'lishi uning qay darajada tashkil etilishiga bog'liq. Yosh avlodni begona, buzg'unchi g'oyalar ta'siridan saqlash, ularning hayotga yengil-yelpi munosabatda bo'lishlariga yo'l qo'ymaslik, ularda ezgu g'oyalar va fikrlarni shakllantirish, ijtimoiy faol shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish orqali yoshlarning ma'naviy saviyasini yuqori darajaga ko'tarish mumkin. Mantiqiy fikrlovchi, har qanday ijtimoiy voqea-hodisalarni mustaqil ravishda to'g'ri baholay oladigan yoshlarni tarbiyalashda jamiyatning birinchi bo'g'ini bo'lmish oilaning hamda barcha ta'lim muassasalarining hamkorligi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayon. O'zbek oilasida vataniga, xalqiga, oilasiga, milliy g'oyalarga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e'tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol, barcha insoniy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni voyaga yetkazish yangi O'zbekistonimiz gullab-yashnashining asosiy garovi hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jalilov Sh.I. "Bolani yoshdan, niholni boshdan asrang". Pedagog minbari. ilmiy-pedagogik, metodik, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. T., - 2016 yil, 7-son, 25-27 b.
2. Jalilov Sh.I. "Musiqqa san'atidagi eng katta tarbiyaviy omil". Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Ilmiy jurnal. Buxoro - 2022yil. , 3-son. 194-197 betlar.
3. Nurmatov N. Norxo'jaev N. 2-sinfi uchun darslik.- T., 2008 y.
4. Qodirov R.G. Musiqqa psixologiyasi. "Musiqqa" nashriyoti, T., 2005y. 4-bet.

### УЧАСТИЕ ТАЛАНТЛИВОЙ МОЛОДЕЖИ В НАУКЕ И ОБРАЗОВАНИИ

Мадатов Қувончбек Гелдиёр ўғли

Преподаватель кафедры "Компьютерные системы" Экономико-педагогического университета, г. Карши

**Annotatsiya.** Fan-ta'lim-ishlab chiqarishni integratsiya qilishda uchrayotgan muammolarni bartaraf qilish va integratsiyalash jarayoni yakunida ko'zda tutilgan istiqbollarni haqida mulohaza qilinadi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, inovatsiyon texnologiyalar, Ilm-fan, texnologik va korporativ pozitsiyalar, integratsion ta'lim klasteri.

**Аннотация:** Рассмотрены проблемы, возникающие при интеграции науки-образования-производства, и перспективы, предусмотренные по завершении интеграционного процесса.

**Ключевые слова:** интеграция, инновационные технологии, Наука, технологические и

корпоративные позиции, кластер интегрированного образования.

**Annotation:** The problems encountered in the integration of science-education-production and the prospects envisaged at the end of the integration process are considered.

**Keywords:** integration, innovative technologies, Science, technological and corporate positions, integrated education cluster.

### **Входить**

В настоящее время экономика нашей страны и ее производственный потенциал формируются в соответствии с мировыми требованиями. Взаимная интеграция отраслей экономики является основой деятельности в соответствии с мировыми требованиями.

Важно реализовать не только экономическую сферу, но также науку и образование в состоянии, непосредственно связанном с производственным потенциалом нашей экономики и сформировать его в соответствии с мировыми требованиями. Настоящее время

Термин «интеграция» используется в мире как социальное понятие, охватывающее различные области, такие как социальная, региональная, экономическая, религиозная, расовая, организационная интеграция.

Поскольку результатом последних реформ в системе образования является воспитание свободомыслящей человеческой личности, это автоматически требует создания интегрированных образовательных кластеров. На этом этапе, проанализировав все вышеперечисленные процессы, в статье мы задумаемся об интеграции науки-образования-производства и ее перспективах. Ниже:

- Что такое интеграция?

- Каково его значение в системе образования?

— Как интегрировать науку, образование и производство?

### **Литературный анализ.**

Интеграция происходит от латинских слов *integratio* — восстановление, заполнение и целое — целое.

Это процесс объединения, добавления или замены их в единое целое.

В работе Ш.М.Мирзиёева под названием «НОВАЯ СТРАТЕГИЯ УЗБЕКИСТАНА» он рассказал о качественном образовании – решающем факторе развития человеческого капитала, внедрении национальной учебной программы системы непрерывного образования, повышении качества образования и уделил особое внимание к вопросам конкурентоспособной подготовки кадров. Для решения этих вопросов на основе принципов современного рынка труда одним из важных вопросов является реализация инновационного сотрудничества «наука-образование-производство».

В частности, 16 июня текущего года под председательством главы нашего государства Ш.Мирзиёева на заседании видеоселектора, посвященном приоритетным задачам системы высшего образования, он показал 4 приоритетные задачи:

Первое – повысить роль правления вузов и расширить полномочия кафедр.

Второе — адаптировать образовательный процесс к требованиям рынка, обеспечить его связь с производством и создать среду для работы студента над собой.

Третье – повышение научного потенциала высших учебных заведений, развитие науки и инноваций.

Четвертое — сократить бюрократическую волокиту среди профессоров и студентов, а также радикально сократить бюрократию и коррупцию за счет цифровизации отрасли. Для эффективного решения этих задач было подчеркнуто, что высшие учебные заведения должны быть наделены полномочиями принимать самостоятельные решения по академическому и организационному управлению, и это реализуется на практике.

### **Анализ и результаты.**

В XX веке автономные научно-исследовательские институты занимались реализацией теорий, соответствующих анализу системы социально-экономического развития страны. Университеты и институты, занимающиеся подготовкой специалистов, не занимались масштабными исследованиями. Также в начале XXI века страны, где образование и наука

отделены друг от друга, начали испытывать серьезные трудности, связанные с конкурентоспособностью кадров, выпускаемых высшими учебными заведениями, и развитием инновационных технологических разработок. С этого времени в некоторых областях стали усиливаться интеграционные процессы между наукой и другими образовательными учреждениями. Ситуация в этой сфере существенно изменилась в связи с формированием инновационной экономики.

### **Обсуждение**

В нашей стране возросло использование интеграции науки, образования и производства как основного фактора повышения качества образования. Поэтому актуальным становится вопрос повышения качества подготовки кадров и роли в ней интеграции науки, образования и производства, изучения ее международного опыта и разработки рекомендаций по использованию передового зарубежного опыта.

Исследования интеграции и взаимного сотрудничества науки и производства изучаются зарубежными учеными. Но знакомство с их исследованиями показывает, что по этому вопросу существуют разные подходы и взгляды. В отличие от материального продукта, процесс подготовки кадров высшего образования и определения его качества имеет множество уникальных особенностей.

Отечественные и зарубежные ученые, изучавшие вопросы подготовки кадров и повышения ее качества, в основном подходили к теме с социолого-педагогической точки зрения. Интеграция науки, образования и производства и ее роль в качестве образования и подготовке кадров, гибких к требованиям рынка труда, использовании экономических и правовых механизмов повышения ее эффективности не изучены.

Чтобы оценить влияние интеграции науки, образования и производства в высшей школе на качество образования и дать рекомендации по эффективному использованию этого механизма, в первую очередь изучаются взгляды на содержание понятия качество образования необходимо. На основе изучения качества образования, его содержания, взглядов на интеграцию науки, образования и производства, разработка предложений и рекомендаций по повышению качества образования в сфере образования в нашей стране, определенные приоритеты являются целесообразными.

### **Заключение**

В процессе образования междисциплинарный синтез новых знаний происходит очень медленно и иногда охватывает период, равный нескольким десятилетиям. В ходе образовательного процесса преподаватель должен за одно или несколько упражнений, а то и за несколько минут довести учащегося до субъективных новых знаний, основанных на ранее приобретенных знаниях по различным предметам. То есть необходимо создавать соответствующие условия для их синтеза, а не предоставлять знания в готовом виде. Одним из наиболее актуальных вопросов современности является умение выявить скрытые связи и связи, обеспечить междисциплинарную связь, т. е. связность, в формировании научного мировоззрения. Потому что преподаватель, умеющий организовать урок, обеспечивая при этом межпредметную связь, не только повышает интерес учащихся к своему предмету, но и помогает им освоить этот предмет.

Желательно, чтобы каждый человек, руководитель и исследователь, работающий в научно-исследовательских центрах, высших учебных заведениях и производственных предприятиях, знал основы современных подходов к обеспечению качества с помощью интеграции и инновационно-корпоративного сотрудничества.

На основе таких подходов студенты смогут закреплять полученные в образовательных учреждениях знания в научно-исследовательских учреждениях, а также применять их на практике в производственных отраслях и отраслях.

### **Использованная литература.**

1. Berkinov O.T. (2022). Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va “kelajak” // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son, -B.181-187.

2. Berkinov, O. T. (2022). Changes in media culture and human thinking. Инновации в технологиях и образовании: XV Международная научная конференция.
3. G'afforova, G., & Yoldoshev, A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati. International scientific and practical conference 'Modern psychology and pedagogy: problems and solutions'.
4. Nazarova G. Xalqaro iqtisodiyot integratsiya –Toshkent: Tafakkur-2010.B.36.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-son farmoni // Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.
6. Sh.M.Mirziyoyev “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI”. -Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

## **TALABALARNI ROBOTOTEXNIKA QURILMALARI UCHUN DASTUR KODLARINI YOZISHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**F.A.Shamsutdinov - Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Navoiy, O‘zbekiston.**

**Sh.S.Qobilova - Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Professional ta’lim: axborat tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi talabasi. Navoiy,  
O‘zbekiston.**

### **Аннотация**

В данной дипломной работе содержатся предложения и рекомендации по развитию компетентности студентов в написании программных кодов для робототехнических устройств.

**Ключевые слова:** робототехника, робот, Программирование, моделирование, отладка, Arduino, проектная деятельность.

### **Annotation**

This thesis presents suggestions and recommendations for the development of students competence in writing software codes for robotics devices.

**Keywords:** Robotics, robot, programming, simulation, debugging, Arduinoni, project activities.

### **Annotatsiya**

Ushbu tezisdagi talabalarning robototexnika qurilmalari uchun dasturiy kodlarni yozishga oid kompetentligini rivojlantirishga doir taklif va tavsialar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** robototexnika, robot, dasturlash, Simulyatsiya, disk raskadrovka, Arduinoni, Loyiha faoliyati.

Bugungi kunda texnologiya hayotimizning barcha sohalariga jadallik bilan kirib borayotganligi tufayli zamonaviy dunyoda robototexnika texnologik taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Robototexnika sohasidagi mutaxassislariga mehnat bozorida talab katta, ularning vazifalari sanoat robotlaridan tortib avtonom dronlarga qadar turli xil qurilmalarni dasturlashni o‘z ichiga oladi. Robototexnika qurilmalari uchun dasturiy kodlarni yozishda talabalarning kompetentligini rivojlantirish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1. Dasturlash asoslari. Kompetentsiyani rivojlantirishning birinchi bosqichi dasturlash asoslarini o‘zlashtirishdir. Talabalar dasturlash tillari, ma’lumotlar tuzilmalari va algoritmlarning asosiy tushunchalarini o‘rganishlari kerak. Bu ularga dasturiy ta’minot kodi orqali qurilmalarni qanday boshqarish va ular bilan o‘zaro ishlashni tushunishni ta’minlaydi.

2. Robototexnika uchun dasturlash tillarini o‘rganish. Robototexnika qurilmalarini dasturlash tillarini o‘rganish uchun talabalar maxsus dasturlash tillarini o‘zlashtirishlari kerak. ROS (Robot Operating System), Fortran, Sanoat robotlari tillari, Python, C/ C++ va Java ko‘pincha robototexnika loyihalarida qo‘llaniladi. Texnika har bir tilning sintaksisi, xususiyatlari va imkoniyatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.


3. Robot tizimlarini loyihalash va ishlab chiqish. Talabalar robot tizimlarining turli jihatlarini harakatni, atrof-muhitni idrok etishni, boshqa qurilmalar bilan o‘zaro ta’sirini boshqaradigan dastur

kodlarini yaratishni o'rganadilar. Robot tizimlarini loyihalash sensorlar, motorlar, kameralar va boshqa komponentlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi.

4. Simulyatsiya va disk raskadrovka. Texnika talabalarga jismoniy robotlar bilan bevosita aloqada bo'lmasdan o'z dasturlarini sinab ko'rish imkonini beruvchi simulyatsiya vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu ularga kodni samarali disk raskadrovka qilish va uning ishlashini yaxshilash imkonini beradi.

5. Loyiha faoliyati. Metodologiyaning muhim bosqichlaridan biri bu dizayn faoliyati. Talabalar olingan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beruvchi haqiqiy robototexnika loyihalarini yaratishda ishtirok etadilar. Ushbu tajriba nafaqat dasturlash ko'nikmalarini, balki jamoaviy ishlash va texnik muammolarni hal qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

6. Arduinoni robototexnikada qo'llash. Robototexnika qurilmalarini dasturlashda talabalarning malakasini oshirish metodologiyasi nuqtai nazaridan Arduino platformasiga alohida e'tibor berilishi kerak. Arduino – bu turli xil loyihalarda, shu jumladan robototexnikada keng qo'llaniladigan ochiq elektronika va dasturiy ta'minot. Arduino bu kichik hajmdagi projeklarni yaratish, turli robototexnika qismlarini yoki kichik o'lchamdagi robototexnikada foydalanish uchun mo'ljallangan plata hisoblanadi. Bunda siz professional bo'lmagan projeklarni yaratishingiz mumkin. Masalan, siz RFID tizimi orqali yoki oddiy raqamli parol qurilmasini yasash orqali eshingizga qulf qo'yishingiz yoki xonangizga kimdir kirganligini aniqlashda ishlatiluvchi qurilmalarni va yana oddiy haroratni o'lchovchi kabi qurilmalarni yasashingiz mumkin. Aslida Arduino sotuv markasi bo'lib, uning tarkibiga Arduino Uno, Arduino Mega, Arduino Leonardo, Arduino Ethernet, Arduino RS232, Arduino Diecimila, Arduino Pro, Arduino Nano, Arduino LilyPad, Arduino Robot, Arduino Esplora, Arduino Yun, Arduino Due kabi turlari kiradi. Arduino dasturlashni o'zlashtirgan talabalar o'rnatilgan tizimlarni ishlab chiqish va tashqi qurilmalarni boshqarish bo'yicha noyob ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Ushbu platforma boshlang'ich dasturchilar uchun oddiy va arzon interfeysni taqdim etadi va bir vaqtning o'zida murakkab robot tizimlarini yaratish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi.



### Arduino To'plami

7. Arduino bilan o'quv metodologiyasida loyihalar. Metodikaning bir qismi sifatida talabalar Arduinoga asoslangan loyihalarda ishtirok etishlari mumkin. Bunga Arduino tomonidan boshqariladigan avtonom robotlarni yaratish yoki sensorlar va aktuatorlar yordamida aqlli uyni loyihalash kiradi. Arduino dasturlash talabalarga servo, masofa sezgichlari, akselerometrlar va boshqalar kabi turli xil komponentlar bilan o'zaro aloqada bo'lishni o'rgatadi. Ushbu tajriba ularning elektronika va mexatronika bo'yicha bilimlarini kengaytiradi, bu dasturlash ko'nikmalariga muhim qo'shimcha hisoblanadi.

8. Oddiy loyihalardan murakkab loyihalarga o'tish. Texnika, shuningdek, Arduino yordamida loyihalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirishni ham o'z ichiga oladi. Asosiy boshqaruv



dasturlaridan boshlab, talabalar asta-sekin ko‘plab sensorlar, fikr-mulohazalar va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lish qobiliyatiga ega robotlarni yaratish kabi murakkab vazifalarga o‘tishlari mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, robototexnika qurilmalari uchun dasturiy kodlarni yozishda talabalarning malakasini oshirish metodologiyasi ushbu sohada malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. U nazariy o‘rganishni amaliy tajriba bilan birlashtiradi, talabalarga robototexnika sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кочеткова О.А., Пудовкина Ю.Н., Родионов М.А., Егина В.А. Робототехника как средство обучения учащихся программированию и алгоритмизации // Современные проблемы науки и образования. – 2020. – № 6. ;
2. Sh.A. Nazirov, G.S. Ivanova, S.M. Gaynazarov Dasturlash texnologiyallari \ Tashkent — 2014
3. X.N.Nazarov Robotlar va robototexnik tizimlar \ Darslik\ toshkent 2020
4. <https://uzhackersw.uz/blog/arduino-nima-arduino-uno-platasi-va-uning-imkoniyatlari.html>

### BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIKA DASTURIY VOSITALARNI LOYIHALASHNI O‘RGANISH PEDAGOGIK MUAMMOLARI.

**F.A.Shamsutdinov - Navoiy davlat pedagogika instituti. Navoiy, O‘zbekiston.**

**Sh.S.Qobilova - Navoiy davlat pedagogika instituti,**

**Professional ta‘lim: axborat**

**tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi . Navoiy, O‘zbekiston.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini pedagogik dasturiy ta‘minotni loyihalash bo‘yicha o‘qitishning afzalliklarini o‘rganamiz va ushbu trening auditoriya muhitiga qanday ijobiy ta‘sir ko‘rsatish jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** dasturlash, platforma, loyihalash, texnologiya, kompetensiya, ta‘lim standartlari, ta‘lim sifati, ta‘limning qulayligi, ta‘lim sifati, ta‘lim jarayonining samaradorligi, texnologiya integratsiyasi.

**Абстрактный.** В этой статье рассматриваются преимущества обучения будущих учителей информатики разработке педагогического программного обеспечения и показано, как это обучение может положительно повлиять на среду в классе.

**Ключевые слова:** программирование, платформа, дизайн, технология, компетентность, образовательные стандарты, качество образования, удобство обучения, качество образования, эффективность образовательного процесса, интеграция технологий.

**Abstract.** This article examines the benefits of training prospective computer science teachers in pedagogical software design and reveals how this training can positively impact classroom environments.

**Key words:** programming, platform, design, technology, competence, educational standards, quality of education, convenience of education, quality of education, effectiveness of the educational process, technology integration.

**Kirish.** Barcha sohalarda bo‘lgani kabi bugun kunda yurtimizda ta‘lim tizimini, rivojlantirishda dasturiy vositalarni loyihalashni o‘rgatishning pedagogik muammolarni yechimini topish va dasturlash tillarini o‘rgatishda, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarning roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarini raqamli asrga tayyorlashga intilishar ekan, ular uchun samarali ta‘limning dasturlarini vositalarini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish juda muhimdir. Pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashtirishni, yaratishni, o‘rganish orqali o‘qituvchilar o‘z ta‘lim usullarini yaxshilashlari va o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga yanada yaxshi jalb etishlari mumkin[2,3].



Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik dasturiy ta'minotni loyihalashni va dasturlash tillarini o'rgatish uchun bir nechta dasturlardan jumladan C, C++, python, java, codecademy.com, <https://learncodethehardway.org>, <https://www.wibit.net>, <https://www.w3schools.com>, kabi dasturlar va platformalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Chunki dasturlash tillari asosida loyihalashtirishga mo'ljallangan dasturiy vositalardan samarali foydalanish orqali talabalarning dasturlarga oid kompetentligini rivojlantirish mumkin[1,4].

Pedagogik dasturiy ta'minot o'qitish va o'qitish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus ishlab chiqilgan raqamli vositalar va resurslarni anglatadi. U interaktiv simulyatsiyalar, ta'lim o'yinlari, onlayn viktorinalar va o'quvchilarni jalb qilish va bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtirishga qaratilgan boshqa texnologiyaga asoslangan ilovalarni o'z ichiga oladi. Pedagogik dasturiy ta'minotni o'qitish amaliyotiga kiritish orqali o'qituvchilar turli xil ta'lim ehtiyojlari va uslublarini qondiradigan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Informatika fanining doimiy rivojlanib borayotgan sohasida bo'lajak informatika o'qituvchilar pedagogik dasturiy ta'minotni samarali loyihalash va joriy etish uchun zarur ko'nikmalarni pedagogik muammolar hal qilish kerak. Pedagogik dasturiy ta'minotni loyihalash mahoratini o'zlashtirgan holda, informatika o'qituvchilari o'z talabalarida tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rag'batlantiradigan innovatsion va qiziqarli o'quv tajribalarini yaratishi mumkin. Bundan tashqari, pedagogik dasturiy ta'minotni loyihalash bo'yicha mustahkam poydevorga ega bo'lish informatika o'qituvchilariga eng so'nggi ta'lim texnologiyalari va tendensiyalaridan xabardor bo'lishga yordam beradi va ularning o'quv amaliyotlarida dolzarb va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilariga pedagogik dasturiy ta'minotni loyihalashni o'rgatish haqida gap ketganda, nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan uyg'unlashtirgan tizimli yondashuvga ega bo'lish zarur. Samarali strategiyalardan biri dasturiy ta'minotni loyihalash tamoyillari asoslaridan boshlash va asta-sekin murakkabroq tushunchalarga o'tishdir.

Avvalo, talabalarni pedagogik dasturiy ta'minotni loyihalash asosini tashkil etuvchi fundamental nazariyalar va tamoyillar bilan tanishtirish juda muhimdir. Bu foydalanuvchi interfeysi dizayni, axborot arxitekturasi va foydalanuvchi tajribasi kabi mavzularni o'z ichiga olishi mumkin. Talabalarni ushbu nazariy asoslarga asoslash orqali ular ma'lum dizayn qarorlari nima uchun qabul qilinishi va ular ta'lim dasturiy ta'minotining umumiy samaradorligiga qanday ta'sir qilishini chuqurroq tushunishlari mumkin.

Talabalar pedagogik dasturiy ta'minotni loyihalashning nazariy jihatlarini puxta o'zlashtirgandan so'ng, ularga o'z bilimlarini amaliy loyihalarda qo'llash imkoniyatini yaratish muhim ahamiyatga ega. Buning samarali usullaridan biri loyihaga asoslangan ta'limdir, bunda talabalar hamkorlikda haqiqiy dizayn muammolari ustida ishlaydilar[4,5].

**Xulosa.** Pedagogik dasturiy ta'minotni loyihalash bo'yicha o'qitish usullarini doimiy ravishda takomillashtirish uchun joriy amaliyotlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash va kerak bo'lganda tuzatishlarni kiritish muhimdir. Bu talabalarning fikr-mulohazalarini yig'ish, auditoriyadagi o'zaro munosabatlarni kuzatish va o'quv natijalarini tahlil qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Болотов, В.А., Сериков, В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе Текст./В.А.Болотов, В.В.Сериков// Педагогика. 2003. - №10. - С. 8-14
2. Никонова Е.З. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя информатики//Информационные технологии в высшей и средней школе: Материалы научно-практической конференции-Нижевартовск:Изд-во Нижеварт. гуманит.ун-та, 2008-С.20-27.
3. БакмаевА.Ш. Аспекты совершенствования системы подготовки будущего учителя информатики. [Текст]/А.Ш.Бакмаев// "Актуальные проблемы информатики".-Сборник научных трудов кафедры информационных технологий.-Махачкала:МГОУ,2007.-С.7-8.(0,3п.л.).
4. Губина Т.Н.Формирование компетентности будущих учителей математики и информатики в области информационных технологий по математике [Текст] /Т.Н.Губина, Е.В.Андропова // Высшее образование XXI века: Всерос.науч.-практ.конф.: сб.ст./под общ.ред. В.Н.Скворцова.-СПб.:ЛГУим.А.С.Пушкина,2008.-С.133-137.
5. Олейникова О.Н., Муравьева А.А., Коновалова Ю.В., Сартакова Е.В. Разработка модульных программ, построенных на компетенциях. - М., "Альфа – М", 2005.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARINI TAHLIL QILISH

**Ikromova Shaxinabonu Usmonjon qizi**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish kelajak avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizimda rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biri huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ilk qadam, moddiy texnika bazasi, davlat dasturi, tarbiya, rivojlantirish, uzluksiz ta'lim, konsepsiya, ta'lim sifati, ijtimoiy rivojlantirish malakali kadrlar, rejalashtirish dasturi.

**Аннотация:** Развитие дошкольного образования важно для будущего поколения. Одним из основных этапов развития этой системы является правовая база. В данной статье анализируются правовые основы развития дошкольного образования в Узбекистане.

**Ключевые слова:** первый шаг, материально-техническая база, государственная программа, образование, развитие, непрерывное образование, концепция, качество образования, социальное развитие, квалифицированные кадры, программа планирования.

**Abstract:** The development of preschool education is important for the future generation. One of the main stages in the development of this system is the legal framework. This article analyzes the legal basis for the development of preschool education in Uzbekistan.

**Key words:** first step, material and technical base, state program, education, development, lifelong education, concept, quality of education, social development, qualified personnel, planning program.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimini to'liq uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan taminlash, bolalarni har tomonlama axloqiy, intellektual, ma'naviy, estetik, ma'rifiy va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini belgilash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar tatbiq etilmoqda, ularning hammasi bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilaydi. Shuni alohida aytib o'tish joizki 2018-yilning sentabr oyidan tatbiq qilinadigan yangi maktabgacha ta'lim dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi hammaga mavzuiy rejalashtirish dasturlari tarqatilganligi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarining metodik jihati desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili - ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari sanalib, bu dastur asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari yanada mukammallashdi. "Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi", - degan edi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin. Ushbu dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlana bordi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar sifatli holatga keldi, zamonaviy ta'lim berish jarayoni barqarorlashdi.

## NATIJALAR

O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi belgilangani ham sohani istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan omillardan asosiysi hisoblanadi desak xato bo'lmaydi. Ushbu konsepsiya o'zida quyidagilarni nazarda tutadi:(1)

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning ishlab chiqilishi, 2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari hamda 2025 – 2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanganligi ham maktabgacha ta'lim sohasining huquqiy asosini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu kabi normativ-huquqiy hujjatlarni yuritish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1-dekabrga qadar o'tayotgan yilning "Yo'l xaritasi" bajarilishi yakunlarini batafsil o'rganish asosida keyingi yil uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, "Yo'l xaritalari"ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Ushbu monitoringga ko'ra har bir MTTning normativ huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.(3)

#### **MUHOKAMA**

Ma'lumot sifatida aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaxshi ish haqi to'lansa, bu kasbga qiziqish bo'ladi, albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan. Shu bois joriy yilning mart oyida Prezidentning pedagoglarning maoshini oshirishga doir qarori chiqqanligi ham sohani rivojlantirishning ustuvor vazifasini ta'minladi. Agrippina Shinning so'zlariga ko'ra, o'tgan 27 yil davomida maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyachilar va MTT xodimlarining tarif stavkasi biror marta oshirilmagan. Shu boisdan ham 2018 - yilning mart oyida Maktabgacha ta'lim vazirligi birinchi marta pedagoglarning bazaviy tarif stavkalarini 30 foizga oshirish taklifi bilan chiqdi. Shu yilning sentabridan oliy ma'lumotga ega pedagoglar uchun bazaviy tarif stavkalari yana 30 foizga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.(2) Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'liq rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko'rib chiqish; mavjud amaliyot va ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi.

#### **XULOSA**

Hozirgi kunda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas, birlamchi bo'g'ini sifatida takomillashtirish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilinib borilyapti. Bu esa maktabgacha ta'lim sohasini yanada takomillashga qaratilgan chora tadbirlar sifatida e'tirof etilyapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2707-son qarori. // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2017-yil 9-yanvar, 1-son, 11-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3261-son qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasining 2017-yil 11-sentyabrda 181 (6875)-soni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [qarori](#).
5. L.R.Mirjalolova Tanlov fani moduli T: Iste’dod, 2018. – 223 b
6. Ksendzova, GF Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda psixologik- pedagogik yordam / GF Ksendzova // Yakutsk IPKRO nashriyoti, 2006 yil - S 146- 148

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTIDORNI NAMOYON BO‘LISHI

**Iqtidorli talaba: Sherbekova Nigina Sherzod qizi (O‘zbekiston)**  
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi**  
**Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna(O‘zbekiston)**  
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasida dotsenti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidor, iste’dodning ilk kurtaklari namoyon bo‘lishi va ularning buni rivojlantirishda tarbiyachi va ona-onalarning roli haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqtidor, iste’dod, ilk kurtaklar, umumiy intellekt, insonning bilish imkoniyatlari, maxsus va umumiy qobiliyatlar.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о проявлении таланта, первых зачатках таланта у детей дошкольного возраста, роли педагога и родителей в их развитии.

**Ключевые слова:** талант, талант, ранние стадии, общий интеллект, познавательные способности человека, специальные и общие способности.

**Abstract:** This article provides information about the manifestation of talent, the first beginnings of talent in preschool children, the role of the teacher and parents in their development.

**Key words:** talent, talent, early stages, general intelligence, human cognitive abilities, special and general abilities.

Maktabgacha yoshdan bolalarda iqtidor, iste’dodning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Umuman olganda iste’dodsiz bola yo‘q, buni erta anglab, aniqlashtirish tarbiyachi va ota-onalarning asosiy vazifalaridir.

Bizga ma’lumki, har bir bolada qandaydir qobiliyat mavjud bo‘ladi. Ammo kamdan-kam hollarda biz uni yuzaga chiqarishiga maktabgacha yoshdan e’tibor beramiz. Ko‘pincha biz katta yoshlilar bolaning turfa qarashlari, imkoniyatlari, qiziqishlari bilan deyarli hisoblashmay, unga kerakli shart-sharoitlar yaratib bermaymiz.

Ko‘pincha maxsus sharoit talab etmaydigan, masalan, so‘z yoki tasvir bilan bog‘liq qobiliyati bor bolalarning ota-onalarigina farzandini yetaklab biror ustozga yoki to‘garak rahbariga eltishi mumkin. Boshqa hollarda yoshlarimizda ichki qiziqishlari munosib sharoitga ega bo‘lmay, kurtaklagan joyidan uziladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimlariga katta e’tibor berilmoqda. Endi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash butunlay boshqacha mazmun kasb etyapti. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning barchasi barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan.

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug‘atda “iqtidor” tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi:

1) iqtidor bu – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydigan qobiliyatlarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvidir;

2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o‘ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu – aqliy potensial, ta’lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;

4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o‘ziga xosligi va ularning namoyon bo‘lishi darajalari;

5) iqtidor bu – iste’dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta’lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o‘ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo‘lgan va mana shu faoliyat bilan shug‘ullanishni afzal ko‘radilar. Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorligi;

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog‘liq. Erta yosh davrlar – maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko‘rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu “umumiy qobiliyat” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ma’lum bir yo‘nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo‘layotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Aniq namoyon bo‘lgan, ya’ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e’tibor berilgan qobiliyat “aktual”, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat “potensial” qobiliyat deyiladi. Ko‘pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erda yoshdayoq o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko‘p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo‘lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko‘pincha atrofdagilar e’tibor bermasliklari mumkin.

Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlidir. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma’lum bir vaqtgacha namoyon bo‘lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o‘zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmagandir, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar.

Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi.

Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlari kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini "bashorat" qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Ulg'aygan sari bolalarda aqliy salohiyatining o'sib borishini kuzatish mumkin. Hayotining birinchi 10 yilligida bolalar aqliy faoliyatining eng qiyin davri, ko'plab yangiliklarni o'zlashtirish, hishayajonga to'la davr bo'ladi. Bundan tashqari bolalar yoshligi tufayli nerv sistemasi sezgir bo'ladi. Hatto oddiy hisoblagan holatlarimiz ham ularning tez qabul qilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolalarni iqtidori turli yoshlarda namoyon bo'ladi. Agar bolaning konkret rivojlanish vaqti o'tkazib yuborilsa, bu kelajakda uning iqtidorini rivojiga to'sqinlik qiladi.

Bola iqtidorini sezgan ota-ona va o'qituvchilar, bunday bolani e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak, chunki kelajakda u o'zini qandaydir iqtidorini ko'rsatishi mumkin.

Ko'pincha bolalar ularning aqliy faollashuvi ota-onalarning qo'rquvi va bezovtalanishiga sabab bo'ladi, asosiysi bolalarga buni bildirmaslik kerak. Boshqa oilalarda bolalariga berilgan iqtidor ularni yaxshi kelajagini ta'minlaydi. Bolalarni rag'batlantirishadi va ular bilan g'ururlanishadi. Bunday bolalarda o'ziga yuqori baho qo'yish va mensimaslik holati yuzaga kelishi mumkin. Iqtidorli bolalarni o'qitishda ehtiyot bo'lish zarur. Ular atrofdagilarni qo'llashi va tanqidiga juda sezgir bo'lishadi. Oila sharoitida ham iqtidorli bolalarni "g'alatiroq" hisoblashlari mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Локк Д. Мысли о воспитании. Т.3. – М.: Мысль, 1985.
2. Штерн В. Умственная одаренность. – СПб.: Союз, 1997.
3. Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Юркевич В.С. Проблемы современной психологии Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Публичные лекции // URL: <http://childpsy.ru/media/129/>
4. Малева Н.И. Английские песни в марийской столице // Марийская правда. 2012.
5. Малева Н.И. Школьники рассказывали сказки на английском // Марийская правда. 2012. – № 73.
6. Андреев В.И. Конкурентология. – Казань: Центр инновационных технологий, 2004.

### МАКТАBGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TA'LIMY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti Shermetova Shahnoza  
Otomurod qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning media savodxonligini rivojlantirish, shuningdek, mediata'lim sifatini oshirishda zamonaviy axborot

texnologiyalardan foydalanishning vazifalari, media savodxonlikning bolalar hayotidagi tarbiyaviy fazilatlar va tutgan o'rnini haqida muhim ma'lumotlar xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** media savodxonlik, axborot texnologiyalari, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim, tarbiya, media ta'lim.

**Annotation:** This article provides important information and recommendations on the development of children's media literacy in preschool educational organizations, as well as the objectives of using modern information technology to improve the quality of media education, the educational qualities and role of media literacy in children's lives.

**Keywords:** media literacy, information technology, preschool education organization, education, training, media education.

**Аннотация:** В данной статье представлена важная информация и рекомендации по развитию медиаграмотности детей в дошкольных образовательных организациях, а также задачи использования современных информационных технологий для повышения качества медиаобразования, воспитательные качества и роль медиаграмотности в жизни детей.

**Ключевые слова:** медиаграмотность, информационные технологии, организация дошкольного образования, образование, обучение, медиаобразование.

**Kirish.** Yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilingan. Shulardan biri O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 10-moddasida ta'lim turlari sanab o'tilib, uning birinchi turi – "Maktabgacha ta'lim" ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim uch yoshdan yetti yoshgacha oilada, undan keyin bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi", - deyilgan chunki jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kelajakni yaratadi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda media va media savodxonlik tushunchalariga ta'rif bersak, oldin Mediasavodxonlik – bu mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuyini bildiradi.

**Asosiy qism.** Mediasavodxonlik — [ommaviy axborot vositalari](#) orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik [axborotni](#) saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda, ular tomonidan tarqatilyotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir.[1] Hozirgi kunda axborot turli ravishda va juda tez tarqalmoqda, sababi zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlangan asrda yashayapmiz. Yoshlarda media savodxonlik, media ta'lim yetishmasligi tufayli, har xil yomon oqibatlar kelib chiqmoqda, shuning oldini olish uchun ularga maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab media savodxonlikni o'rgatishimiz lozim. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan elementar tarzda muomala qilishga o'rgatish va shuningdek, ularni maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Yosh bolalar tevarak-atrofga, bo'layotgan voqea va hodisalarga, narsa va buyumlarga juda qiziquvchan bo'ladi. Ular hamma narsaga qiziqib ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar. Biz bolalarga media ta'limni o'rgatish jarayonida media savodxonligini ham birgalikda olib borib rivojlantirishimiz lozim.

**Muhokama va tahlillar.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mediali va kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning media savodxonligini shakllantirish va ularni



kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat. Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani sababli, tarbiyachi o'zining nazorati ostida "Sichqoncha" yordamida turli ta'lim o'yinlarini, matematik amallarni, turli topshiriqlarni va shularga o'xshash vazifalarni bajartirishga o'tadi. Tarbiyalanuvchilar "Sichqoncha"dan foydalanish bo'yicha to'la amaliy malaka va ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi. Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiya – ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun shakllar, usullar, texnikalar, o'quv vositalarining kompleksini anglatadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati quyidagi sabablarga bog'liq: - Pedagogik texnologiyaning ahamiyati shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlarini baholashning zamonaviy yondashuvlarini aniqlaydi, shaxsiy va tabaqalashtirilgan vazifalar uchun sharoit yaratadi. Bugungi kunda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yilgan. Maktabgacha yosh – bu shaxsning poydevori qo'yilgan, irodasi rivojlangan va ijtimoiy kompetensiyasi shakllanadigan o'ziga xos va hal qiluvchi davr.[2] Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi.[3]

**Xulosa.** Fikrimizcha, media savodxonlik bildirilgan fikrlar birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha har qanday axborotga tanqidiy qarash, ya'ni foydali va foydasizligiga ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. Media savodxonlikning maqsadi har bir medianing biz uchun qanday ustuvorliklari yoki qanday kamchiliklari borligini tushungan holda, ular tomonidan tarqatilayotgan turli xildagi axborotni saralay bilish ya'ni kerakli keraksizga ajrata olish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Eng asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda ulardan chegaralana olish qobiliyatidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Mediasavodxonlik - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik)
2. [b06fdc\\_9f114ae39eff48c7a62f201285adadc1.pdf \(iupr.ru\)](#)
3. [MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING ILMYIY NAZARIY TAHLILI \(cyberleninka.ru\)](#)

## ASTRONOMIYA FANIDAN TALABA BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH

**Nurmuminova Sh Fizika-astronomiya ta'lim yo'nalishi talabasi**  
**Ilmiy rahbar: G.Sayfullayeva**

Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada? So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'limtarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va



monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Xalqaro dasturlash turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-PIRLS

-PISA

-TIMMS

-TALIS

PIRLS – Progress in International Reading and Literacy Study 7 – 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan. Mazkur xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keyingi bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

TIMSS – The Trends in International Mathematics and Science Study

TIMSS – Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4-sinfi va tayanch maktabning 8-sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi.

TALIS – Teaching and Learning International Survey

TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta'sis etilgan.

PISA (inglizcha – Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi.

O'quv jarayonini axborotlashtirish texnologik, pedagogik va tashkiliy ishlar bilan bog'liq qiyin va ko'p qirrali masalalarni yechishni talab etadi. O'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning maqsadi dars jarayonida, kompyuter yordamida astronomiya fanini mustaqil o'rganish, o'rgatish, uni qo'llash, animatsiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratgina bo'lib qolmasdan o'tilgan darslarni mustahkamlash tariqasida PISA testlar tuzib talaba bilimini Xalqaro baholash dasturlari yordamida baholasa bo'ladi. Multimediali o'rgatuvchi dasturlar matn, grafika, video, tovush va animatsiyalardan iborat bo'lib, o'quvchi astronomiya fanini o'zi mustaqil o'rganmoqchi bo'lsa, kompyuterda tuzilgan maxsus dasturlari yordamida talabalarga rasmi va grafikli testlarni berish orqali talabalarda Astronomiya fanidan talaba bilimini baholashda Xalqaro baholash dasturlaridan unumli foydalansak maqsadga muvofiqdir. Bu dasturlar tabiiy fanlarning nazariy bo'limlarini, amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlarini, nazorat (test) topshiriqlarini, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Bilimlarni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish va kerak bo'lganda amalda qo'llash imkoniyatini beradi. Astronomiya fanini multimedia vositalari asosida o'qitilishining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- talabalarni kompyuter savodxonligini oshirish;
- o'rganilayotgan o'quv materialini atroflicha chuqurroq va puxta o'zlashtiradi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish imkoniyati yaratiladi;
- talabalarni mustaqil bilim egallashlari uchun kompyuter texnologiyasidan foydalanishga undaydi;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan tanishadi;
- ta'lim olish vaqti qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati yaratiladi.

Astronomiya fanidan talaba bilimini Xalqaro baholash dasturlari yordamida baxolash uchun PISA testlarini berish ko'proq samara beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jo'rayev M., Sattarova B., "Fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi", O'quv qo'llanma, Toshkent: "Fan texnologiya" nashriyoti 2015 y.
2. Shernazarov I.E Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari PISA tadqiqotiga tayyorlashdagi vazifalar va ularning yechimlari / Konferensiya materiallari, 38-43.
3. Tillaboyev A.M. Astronomiya kursini o'qitishda zamonaviy ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanishning metodik tizimi.

### **TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI**

**Smaylova Gulmari Yuldashovna-**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi**

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy**

**markazi dotsenti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv jarayoniga o'quvchilarning yondashuvida innovatsion yangiliklarning ahamiyati, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash va bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari haqida so'z yuritilgan

**Kalit so'zlar:** til, innovatsiya, metod, interfaol, pedagogika, g'oya. multimedia, animatsiya

**Аннотация:** В данной статье говорится о важности инновационных инноваций в подходе учащихся к образовательному процессу, активном использовании передовых педагогических технологий в образовательном процессе, отношении детей к учебному и умственному потенциалу.

**Ключевые слова:** язык, инновация, метод, интерактив, педагогика, идея. мультимедиа, анимация

**Abstract:** This article talks about the importance of innovative innovations in the approach of students to the educational process, the active use of advanced pedagogical technologies in the educational process, and the attitude of children to their educational and mental potential.

**Key words:** language, innovation, method, interactive, pedagogy, idea. multimedia, animation

Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi

shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e‘tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas‘uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas‘uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo‘zg‘otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e‘tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. “Baliq skeleti” texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi.

Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog‘idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o‘quvchilarni darslarga bo‘lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi. O‘quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko‘lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsion g‘oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o‘rinli ravishda o‘z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O‘quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi, deb o‘ylayman. Men o‘z ish faoliyatim davomida ko‘pgina innovatsion g‘oyalardan, turli xil didaktik o‘yin mashqlardan keng ko‘lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan o‘yin mashqimiz ham o‘quvchi uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi. Men o‘qish darslarida ayniqsa, “Yosh aktyorlar”, “Quvnoq quyunchalar”, “Bu meniki”, “Charxpalak”, “Zanjir”, “Davom ettir”, “Maqollar zanjiri”, “Sinkveyn” metodi, “Venn diagrammasi”, “Zig-zag” texnologiyasi, “Topib o‘qi” kabi usul va ta‘limiy mashqlardan ko‘p foydalanaman. Bu albatta, ko‘pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Babayeva D. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018. 4. Internet ma‘lumotlar.
2. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006

## TALABALARGA GIMNASTIKA MASHQLARINI O'RGATISH METODLARI

**Soibov Ruxsora A'zam qizi**  
**Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabasi**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**Ilmiy rahbar: Pirmova N.A.**

**Annotatsiya.** Gimnastika mashqlari aniq harakatining mukammal ijrosini namoyish qilish, kino va foto materiallarni, rasmlar, jadvallar va namunaviy modellarni ko'rsatish, ayrim harakat topshiriqlari texnikasining detallarini og'zaki tasvirlab berish va boshqa harakatlar bilan taqqoslash, shuningdek qo'shimcha vositalardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** detal, model, mashqlar, algoritmik, tip, harakat, faoliyati, takrorlash murakkab, o'rganish, algoritmik, shug'ullanuvchi, mashq, metod, saralab, sinov, xotira, jismoniy sifatlar, tarbiyalanadi.

**Annotation.** It is aimed at demonstrating the perfect execution of gymnastic exercises, showing film and photo materials, pictures, tables and sample models, describing verbally the details of the technique of certain movement assignments and comparing them with other movements, as well as information on the use of additional tools.

**Key words:** detail, Model, exercise, algorithmic, type, action, activity, repetition complex, study, algorithmic, engaged, exercise, method, sort, test, memory, physical attributes, trained.

**Аннотация.** Он направлен на демонстрацию идеального выполнения гимнастических упражнений, демонстрацию кино- и фотоматериалов, рисунков, таблиц и образцов моделей, устное описание деталей техники выполнения определенных двигательных заданий и сравнение их с другими движениями, а также информацию об использовании дополнительных инструментов.

**Ключевые слова:** деталь, модель, упражнение, алгоритмический, тип, действие, активность, комплекс повторений, изучение, алгоритмический, задействованный, упражнение, метод, сортировка, тест, память, физические характеристики, обученный

Hammamizga ma'lumki, dunyo siyosiy maydonida o'zining beqiyos o'rni bilan gavdalangan mamlakatlarning sport sohasidagi yutuqlari kundan kunga tajribalari oshib bormoqda. Bu dunyoda inson tug'ilibdiki butun umr ijtimoiylashib boradi. Shung uchun har bir davrning shaxsida shu davrning talablariga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanib boraveradi. Bunday jarayon orqali jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvida jismoniy madaniyatning roli va funksiyalari hozirgi paytda, ayniqsa, yigirmanchi asrning oxirida inson va uning turmushiga qiziqish ortganligi bilan izohlanadi. Pirovardida, ijtimoiylashuv ham sport turlari rivojiga qo'yiladigan talablarni va ularning taraqqiyotini belgilab beradigan omil hisoblanadi.

Gimnastika mashqlarini mashg'ulotda qo'llashda o'rgatish metodlari asosiy faoliyat qo'llanmasi hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar gimnastika mashqlarini bajarishga juda qiziqishadi. Chunki tananing shakli, tashqi ko'rinishidagi qomatni yaratishga e'tibor katta. Shuning uchun ularning talablariga asosan mashg'ulotlarni tashkil etish juda o'rinli, har bir shug'ullanuvchining e'tiborli ishtiroki uning uchun muvaffaqiyatlidir. Gimnastika mashqlari shug'ullanuvchilarning jismoniy harakat va irodaviy xislatlariga katta talablar qo'yadi. Yangi mashqlarni o'zlashtirish jarayonidagi onglilik va faollik tamoyili talabalardan, eng avvalo, harakatni tushunib o'rganishni, qo'yilgan vazifaga qiziqib va ijodiy yondashishni tarbiyalashni talab etadi. O'qish jarayonida harakat ko'nikmalarini ongli o'rganib olishlari uchun shug'ullanuvchilarga quyidagilarni o'rgatish lozim bo'ladi.

✓ o'z faoliyatining natijalarini baholash; turli (og'zaki, chizma, yozma holda takrorlash) usullardan foydalanib, harakat texnikasini tasvirlash;

✓ yangi harakatni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan turli qiyinchiliklarni yengish;

✓ kundaliklarini tutish va mashqlarni o'zlashtirish rejalarini tuzish;

O'qituvchi talabalarning nimaga qodirligini, ularning aniq bir mashqlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini uzluksiz chuqur o'rganib borishi kerak. Masalan, yakkacho'pda katta aylanishni bajarish

uchun talabada bir qancha boshqa mashqlarni bajara olishi, qo'lida yetarlicha kuch bo'lishi, dadillik va qat'iyatlilik singari ko'p jismoniy sifatlar qosil qilingan bo'lishi zarurligini bilishi lozim. Talabada shunday xislatlarning mavjudligi ana shu mashq uchun oson ekanligini ko'rsatadigan o'lchov bo'ladi.

Gimnastikachilarning sport mahorati rivoji jarayonida alohida tarkibiy qismlarga bo'lgan talablar bir xil bo'lmagan. Gohida ulardan biri, gohida boshqasiga ko'proq e'tibor qaratilardi, Bu jihat asosan musobaqalarning qoidalariga bog'liq bo'lardi. Shunday bo'lsada, badiiy gimnastikada har uchala tarkibiy qism: murakkablik, kompozitsiya va ijro o'rtasida o'zga xos uyg'unlik mavjud bo'lishi kerak.

Kompozitsiyani ijro etishda gimnastikachiga qo'yiladigan muhim talab musiqani qabul qilish, ekspressiya va ifodalilik asosida texnik jihatdan murakkab kompozitsiyalarni ijro etishda emotsional-harakatchan obraz hosil qilishdan iborat.

Musobaqa dasturlarining kompozitsion shakllari borasidagi ijodiy izlanishlarda musiqa katta o'rin tutadi. Musiqiy asarning xususiyati va emotsional mazmuni gimnastikachining (jismoniy, texnik, psixologik, ifodali, yosh jihatidan) individual xususiyatlariga javob berishi lozim. Gimnastikachining mahorati, musiqiyliigi, harakatlanish madaniyati qanchalik baland bo'lsa, uning imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Sportchi qizlarning ijro mahoratiga xos yana bir jihat xoreografik tayyorgarlikdan iborat. Xoreografiya – estetik tarbiya va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim vositasi. Aynan xoreografiya mashg'ulotlari jarayonida sportchilar san'atga oshno bo'ladilar. Ularda harakatlar go'zalligini to'g'ri his qilish, ular orqali ma'lum emotsional holatlarni, turdi kayfiyat, hissiyotlarni ifoda etish qobiliyati tarbiyalanadi. "Xoreografiya" tushunchasi (klassik, xalq, tarixiy-maishiy, zamonaviy) raqs san'atiga oid barcha jihatlarni o'z ichiga oladi. Xoreografiya gimnastikachilarning harakatlanish madaniyatini boyitish va ularning ifoda vositalarini kengaytirish, ijroga xos artistlik qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Jahon gimnastika maydonidagi ortib borayotgan raqobat shuni taqozo etadiki, murakkablikni yuksak mahoratli ijro bilan uyg'un holda ko'rsata bilgan, alohida ifoda, emotsionallik va artistizmni namoyon etgan sportchilargina doimo g'alaba qozona oladi. Shu bois maxsus xoreografik tayyorgarlikka yanada sifatli yondashuv talab etiladiki, u gimnastikachilar harakat qilayotgan o'zgaruvchan sharoitlarda avvalo shaxsiy qobiliyatlarga tayanish va doimo ilg'or bo'lish tamoyillariga asoslanmog'i lozim. Gimnastikaga oid yaqqol jihatlari bo'lishiga qaramay, "ifodali harakat" tushunchasi psixologiya sohasiga oiddir. Bu atama bilan psixologik tadqiqotlarda ruhiy holatlarning tashqi ifodalanishi (mimika, pantomimika va ekspressiyada namoyon bo'lishi) belgilanadi. Badiiy gimnastikada psixologik tayyorgarlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sport turining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, gimnastikachilarning sport yutuqlari darajasi tegishli malakaga ega hakamlarning sub'ektiv bahosi bilan aniqlanadi. Badiiy gimnastika bo'yicha hakamlar kombinatsiyalarni baholashda ijro mahoratiga xos ko'plab omillarni hisobga olishlariga to'g'ri keladi, chunki ushbu sport turida harakatlarning sifatiga xos ko'plab unsurlar namoyon bo'ladi. Ularni boricha qamrab olish, bu boradagi turli ma'lumotlarni tahlil qilish va aniq ekspertlik xulosasini berish – badiiy gimnastika nazariyasi va amaliyoti oldida turgan yuksak maqsaddir. Mazkur vazifani hal qilishda ko'plab o'ziga xos xususiyatlar va jihatlarga e'tibor berish taqazo etiladi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, 3-iyun 2017-yil., № PK 3031. lex.uz
2. Efimenko A.I. Saf mashqlari va ularni o'rgatish metodikasi. Toshkent., O'zDJTI, 1990y, 40 b.
3. Yefimenko A.I., Yo'ldashev Q.Q., Umarov M.N. Gimnastika darsining samaraligini oshirish usullari. Tashkent, 1995 g
4. Sushko G.K. Gimnastika i metodika yeyo prepodavaniya T.: ILM ZIYO.-2012 g. 27
5. Pirimova N.A. Gimnastika sport turi bilan shug'ullanish barkamollik garovidir. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor Q SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 Toshkent-2022, 687-690b
6. Morgunova I.I. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi – Tashkent, 2011 y 31 b.

## KURASHCHILARNING TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Suvonov Bobirjon G'ofurjon o'g'li  
Sport faoliyati (kurash) ta'lim yo'nalishi talabasi  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
Ilmiy rahbar: Hojiyev Sh.S.

**Annotatsiya.** Maqolada yosh dzyudo kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishdagi pedagogik texnologiyalar va ulardan samarali foydalanishga doir qo'llaniladigan maxsus mashqlar mohiyati yoritilgan. Dzyudochilarni musobaqa sharoitiga moslashtiruvchi yangi harakat dasturiga xos mashqlar majmuasi yaratilgan.

**Kalit so'zlar:** "Tezkor-kuch sifatлари", "tezkor-kuch tayyorgarligi", tezkorlik, kuch.

**Annotation.** In the article pedagogical technologies and their effective use in the development of rapid and powerful qualities of young judo fighters. We have worked out a complex of exercises to bring the judo wrestler at a new motion regime which is very much close to the conditions in a competitive activity.

**Key word:** preparation of fast-power, attributes fast-power, power, fast.

**Аннотация.** В статье педагогические технологии и их эффективное использование в развитии быстрых и силовых качеств юных дзюдоистов. Мы разработали комплекс упражнений для перевода дзюдоиста на новый режим движения, максимально приближенный к условиям соревновательной деятельности.

**Ключевые слова:** приготовление фаст-пауэр, атрибуты фаст-пауэр, мощьность, быстрота.

Hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga mashhur qila olmaydi. Sport qadimdan to hozirgi kunga qadar insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-iyundagi "Ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida" PQ-2779-sonli Qarorlarining chiqarilishi yurtimizda yakkakurash sport turlari dunyo mamlakatlari ichida o'zining o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

Dzyudochilarda ayniqsa pedagogik nuqtai nazardan o'tkazilgan tadqiqot natijalari deyarli ko'p murabbiylarni qiziqtirgan. Hozirgi kunda dzyudo kurashchilarining xalqaro maydonlarda, jahon birinchiliklarida dzyudochilarning ko'rsatib kelgan natijalarini qoniqarli deb bo'lmaydi. Bellashuv davomida tez charchab qolishlar yoki jismoniy sifatlar borasida dzyudo bo'yicha etakchi mamlakatlarning sportchilariga nisbatan jismoniy qobiliyatlarning yaxshi rivojlanmaganini ko'rishimiz mumkin. Bunda o'z samarasini yo'qotgan eski uslublardan foydalanib kelinganligi ko'rinib turibdi. Jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy rivojlangan davlatlar texnologiyalarini qayta ishlash va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib xisoblanadi.

Dzyudo kurashchilarning musobaqa faoliyati xususiyatini hisobga olgan holda jismoniy qobiliyatlari tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishdagi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Odatda mashg'ulot vositalari asosiy (musobaqa) mashqlarini bajarish tavsifi bilan va shakli bo'yicha o'xshashlikka ega. Demak, masalan sport turlaridagi jismoniy tayyorgarlik dasturida qaysiki ular uchun chidamlilikni namoyon qilish harakterli bo'lgan, uzoq va uzluksiz bajariladigan mashqlar asosiy o'rinni tutadi, chunki muhimligi inobatga olinib tanlanishi ular asosiy harakat malakasining shakllanishiga mashg'ulot qiluvchilarning organizmi funksonal imkoniyatlarining oshishiga, tanlangan sport turiga yaqin bo'lgan jismoniy sifatlarini tarbiyalashga muvofiq bo'lishi shart.

Dzyudoda tezkor-kuch sifatlari juda muhim ahamiyat kasb etadi, buni ko'pgina mualliflar [2,3,4] va boshqalar ta'kidlab o'tganlar. So'ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning [2,5] va boshqalar ko'rsatishicha, ularning ahamiyati ancha oshgan.

Dzyudo harakat elementlariga xos maxsus jismoniy texnik tayyorgarlik mashqlarini bajarish ko'p kurash sport turlariga mo'ljallangan an'anaviy qizitish va tiklantiruvchi vositalardan qo'llash binobarinda jismoniy sifatlarning holatlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish yoshlarni jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirishni baholovchi me'yoriy nazorat sinov-testlari majmuasini ishlab chiqishda va pedagogik texnologiya uslublari tadqiqot yordamida asoslanib berildi.

Turli vazn toifasidagi dzyudochilar tomonidan qo'llaniladigan texnik harakatlarning individual jamg'armasi tezkor-kuch tayyorgarligi vositalari hamda uslublari tarkibi o'rganildi. Dzyudochining individual hujum va himoya harakatlari jamg'armasini hisobga oluvchi tezkor-kuch tayyorgarligi vositalarini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Dzyudo bo'yicha maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarda tezkor-kuch tayyorgarligini vositalari va uslublarini takomillashtirishga katta ahamiyat qaratiladi. Biroq shuni takidlash joizki, "Tezkor-kuch sifatlari" va "tezkor-kuch tayyorgarligi" tushunchalarining o'zi sportchining kuchini namoyon qilish turlaridan biri sifatida sport kurashlari nazariyasi va amaliyotiga nisbatan yaqinda kirib kelgan.

Dzyudochilarning olingan musobaqa faoliyati ma'lumotlari va ular tayyorgarligining alohida tomonlarini ifodalovchi testlar natijasida korrelatsion tahlil o'tkazildi. Bu tahlil o'rganilayotgan musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari va jismoniy tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligini aniqlashga imkon yaratdi.

Tadqiqotlar dzyudochilarning tezkor-kuch tayyorgarligini musobaqa oldi faoliyati xususiyatini hisobga olgan holda kelgusida ham o'rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Tajribada qatnashayotgan dzyudochilar uchun tezkor-kuch tayyorgarligining oldindan ishlab chiqilgan dasturi umumiy ko'rinishda amaliy tavsiyalarda keltiriladi.

U mashg'ulot usuliyatining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi va zarur parametrlarni o'z ichiga oladi. Mazkur parametrlarning bajarilishi dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligini yanada yuqori darajasini ta'minlaydi.

Xulosa qilibshuni aytishimiz joizki, biz mashg'ulot kuchlanishlarining musobaqa kuchlanishlariga muvofiqligi tamoiliga amal qildik. Bu tamoyil tezkor-kuch sport turlari va birinchi navbatda, malakali sportchilar tayyorlash jarayoni uchun katta ahamiyatga ega.

Tajribada shu narsa isbotlandiki, dzyudoda o'rganilayotgan usulni uzoq vaqt takrorlash nisbatan sekinlashtirilgan harakatlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Shu sababli murakkab mashqni nisbatan oddiy tarkibiy qismlarga bo'lib yuborish hamda bu elementlarni maksimal tezlik va kuchlanishlarda takomillashtirishni amalga oshirish oqilona bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M., Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini tiklash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. – 48 b.
2. Bakiyev Z.A. Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati. –T., 2013.-24 s.
3. Il'ov A.H., Arslonov Sh.A., Bagdasarov A.Yu. "Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati" T-2012, №6, s. 36
4. Керимов Н.А. Скоростно-силовая подготовка дзюдоистов и борцов вольного стиля, Методические рекомендации. -Т, 1990, 20 с.
5. Ким В.А. Методы подготовки дзюдоистов высокого класса (научно-методическая разработка)

## **OBYEKTGA YO‘NALTIRILGAN DASTURLASH TILLARINI O‘QITISHDA ARALASH TA‘LIM TEXNOLOGIYASINING IMKONIYATLARI**

**Navoiy davlat pedagogika instituti,  
“Informatika” kafedrası o‘qituvchisi,  
F.D.Xodjabayev  
Navoiy davlat pedagogika instituti,  
“Matematika va informatika” yo‘nalishi talabasi  
S.F.Mavlonova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari va olimlarning aralash ta‘lim texnologiyalariga keltirilgan ta‘riflari, afzalliklari bayon etilgan. Shuningdek, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini o‘qitishda aralash ta‘lim texnologiyasining imkoniyatlari haqida fikrlar bildirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** raqamli texnologiya, masofaviy ta‘lim, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tili, aralash ta‘lim texnologiyasi.

Aralashtirilgan ta‘lim texnologiyasi konsepsiyasini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi olimlarimiz ushbu atamani ko‘rib chiqishning ikkita asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadilar. “Birinchi holatda, aralash ta‘lim texnologiyasi – bu o‘quv kurslari ta‘lim jarayonida faol usullardan foydalanish” [1]. Ikkinchi yo‘nalish esa aralash ta‘lim texnologiyasi – “kunduzgi ta‘limda asinxron va sinxron masofaviy ta‘lim elementlari bilan axborot va ta‘lim vositalaridan foydalanish modelini” nazarda tutadi [2, 3].

Ilmiy-metodik manbalarda aralash ta‘lim tushunchasining ko‘plab ta‘riflari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tavsifiydir. Bu borada Darlen Painterning fikriga ko‘ra, aralash ta‘lim – rasmiy va norasmiy ta‘lim vositalarining kombinatsiyasi, masalan, sinfda ishlash, nazariy materialni elektron pochta, chat yoki veb-seminar orqali muhokama qilish bilan o‘rganishdir. Geydelberg (Germaniya) politexnika universiteti professori K.Kun aralash ta‘lim tushunchasini tarmoq dasturiy ta‘minoti orqali o‘qitish va kunduzgi ta‘limning an‘anaviy shaklini birlashtirgan kompleks o‘quv kurslari deb ta‘riflaydi. Uning ta‘kidlashicha, aralash ta‘limning maqsadi – auditoriya va masofaviy ta‘limning kamchiliklarini bartaraf etishga mo‘ljallangan zamonaviy ta‘lim texnologiyasidir [4].

L.V.Desyatovanning fikricha, aralash ta‘lim – bu “sinfda va masofadan o‘qitishning afzalliklarini o‘zida mujassam etgan, talabalar uchun ochiq va asosli kurslarni yaratadigan, ta‘lim jarayoni o‘ziga xos tizimga tushiriladigan o‘quv / o‘qitish tizimidir [5]. Purnima Valiathanning ta‘kidlashicha, aralash ta‘lim – o‘quv materiallarini yetkazib berishning turli usullarini, hamkorlikni, zamonaviy veb-texnologiyalar asosida qurilgan kurslarni birlashtiradigan yechimlar degan ma‘noni anglatadi [6]. Bu atama yuzma-yuz ta‘lim, onlayn elektron ta‘lim va mustaqil o‘rganishni birlashtirgan o‘quv jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Shubhasiz, aralash ta‘lim ilg‘or ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish vositasi bo‘lib, unga klassik yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan zamonaviy pedagogik usullar majmuidir [7]. Zamonaviy ma‘noda aralash ta‘lim texnologiyasi an‘anaviy va masofaviy ta‘lim texnologiyalarining samarali “aralashmasi” dan, innovatsion pedagogik ta‘lim usullaridan foydalanishga asoslanadi [8]. Aralashtirilgan ta‘lim deganda zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofaviy ta‘lim hamda oliy ta‘lim muassasalarida kunduzgi (sinf) ta‘limning kombinatsiyasi tushuniladi [9, 10].

Aralash ta‘lim texnologiyasining asosiy afzalligi qulay ta‘lim axborot muhitini, barcha zarur ta‘lim ma‘lumotlarini taqdim etadigan aloqa tizimini yaratadi. Shuning uchun bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida fanlarni, shu jumladan obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini o‘qitish samaradorligini oshirishda aralash ta‘lim texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning aralash ta‘lim texnologiyalariga oid ta‘riflari asosida, quyidagi fikrlarni bildirish mumkin: 1. Aralash ta‘lim texnologiyasi – bu rasmiy o‘quv dasturi bo‘lib, unda talabalar qisman elektron o‘quv vositalardan foydalanib, onlayn formatda o‘qitiladi. Bu esa obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid mavzularni mustaqil o‘zlashtirishga, misol va masalalarni dasturlashni o‘rganish imkoniyatini ta‘minlaydi; 2. Qo‘shma ta‘lim – bu rejalashtirish va pedagogik



ahamiyatga ega bo'lgan elektron va an'anaviy ta'limning integratsiyasi. Bunda talabalarning obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini dastlab mustaqil o'rganishga yo'naltiradi. Mustaqil ravishda obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'rganishda va ularga oid masalalarni dasturlashda hamda turli loyihalar tayyorlashda qiyinchilikka duch kelsa, professor-o'qituvchi bilan fikr almashishga, bahs munozara qilish imkonini yaratadi; 3. Aralash tirilgan ta'lim – turli resurslarni, xususan, yuzma-yuz o'quv mashg'ulotlari elementlarini va elektron ta'limni o'zida mujassam etgan o'rganish usulidir. Aralash ta'limning ushbu imkoniyatidan foydalanib, talabalar obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini virtual muhitlarda dasturlash orqali o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim sharoitida aralash ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda aralash ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim usullari orasida yetakchi o'rinni egallaydi va oliy ta'lim muassasalarining asosiy raqobatdosh ustunliklaridan biri bo'ladi, deb taxmin qilish mumkin. Chunki aralash ta'lim texnologiyasi talabalarning mustaqil ish samaradorligini oshiradi va noan'anaviy ma'lumot manbalarining mavjudligini ochib beradi, ijodkorlik uchun keng ko'lamli imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, ta'limni axborotlashtirish va pedagogik jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishni ta'minlaydi. Shu bois, bo'lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini, jumladan informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy fanlar ichida asosiy ahamiyatga ega dasturlash tillari, ya'ni obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini rivojlantirishda aralash talim texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Медведева М.С. Смешанное обучение в системе высшего образования // Районная конференция “Освоение и внедрение современных образовательных технологий в учебный процесс”, – Шуя. 2013. – С. 78-79.
2. Капустин Ю.И. Педагогические и организационные условия эффективного сочетания очного обучения и применения технологий дистанционного образования // Автореф. Дисс. ... д-ра пед. наук. – М., 2005. – 43 с.
3. Медведева М. С. Формирование готовности будущих учителей к работе в условиях смешанного обучения // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Нижний Новгород, 2015. – 220 с.
4. Кун К. “E-Learning – электронное обучение” // Информатика и образование. 2007. – №6. – С. 16-18.
5. Десятова Л.В. Дистанционное обучение // Тезисы доклада XI Международного интерактивного форума образовательных технологий “Раздвигая границы” М., 2010. – С. 45-46.
6. Пурнима В. Blended Learning Models [Электронный ресурс]. Режим доступа:<http://www.learningcicuits.org/2002/valiathan.html>.
7. Медведева М.С. Актуальность подготовки будущих учителей к смешенному обучению при использовании современных дистанционных технологий // Современные технологии в науке, производстве и образовании. Сборник материалов конференции. – Шуя: Изд-во Шуйского филиала ИвГУ. – 2014. – С. 32-33.
8. Всероссийский научно-методический симпозиум “Смешанное и корпоративное обучение” (СКО-2007): труды Всероссийского научно-методического симпозиума // Педагогическая информатика. 2007. – № 4. – С. 86-94.
9. Андреева О. Смешанное обучение – как одно из конкурентных преимуществ ВУЗов [Электронный ресурс]: / О. Андреева. - Режим доступа: [URL:http://megapoprt-nn.ru](http://megapoprt-nn.ru) .
10. Медведева М. С. Формирование готовности будущих учителей к работе в условиях смешанного обучения // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Нижний Новгород, 2015. – 220 с.

# WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING O‘ZBEK TILIDA O‘RGANILISHI VA TARJIMA MUAMMOLARI.

NavDPI Ingliz tili va adabiyoti fakulteti  
1-kurs magistri: Agzamova Muxlisa Muhammad qizi  
Ilmiy rahbar: Muxammadov Bobir Isan o‘g‘li

## Annotatsiya

Ushbu maqolada texnologiya asrining eng katta yutuqlaridan biri kompyuter hamda Windows operatsion tizimi, bugungi kunda ushbu operatsion tizim terminlarining ona tilimizga tarjima qilishda yuzaga chiqayotgan muammolar, ularni bartaraf etishning muqobil yo‘llari talqin etildi

**Kalit so‘zlar:** kompyuter, Windows operatsion tizimi, termin, jargon, terminologiya, muvofiqlik

## Annotation

In this article, one of the greatest achievements of the technological age is the computer and the Windows operating system, the problems that arise in the translation of the terms of this operating system into our native language today, and alternative ways to solve them are explained.

Key words: computer, Windows operating system, term, jargon, terminology, compliance

## Аннотация

В этой статье одним из величайших достижений технологического века является компьютер и операционная система Windows, объясняются проблемы, возникающие сегодня при переводе терминов этой операционной системы на наш родной язык, и альтернативные пути их решения.

**Ключевые слова:** компьютер, операционная система Windows, термин, жаргон, терминология, соответствие.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari taraqqiyoti tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Insoniyat tomonidan qo‘lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish O‘zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishga zamin yaratadi. Globallashuv jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, tez sur‘atlar bilan rivojlanishni talab etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma‘lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining qisqa muddatlarda amalga oshirilishini, turli millatga mansub muloqot vakillari o‘rtasida vosita sifatida xizmat qiluvchi sun‘iy til, ya‘ni axborot-kompyuter uslubining shakllanishini ta‘minlaydi. Kompyuterning yuragi hisoblangan operatsion tizimlarning turlari bir qancha. Ularning ichida bugungi kunda Windows operatsion tizimi keng qo‘llanilmoqda. Ammo ushbu tizimning asosi ingliz tilida ekanligi, boshqa tilda so‘zlashuvchilar xususan o‘zbek foydalanuvchilari uchun ham bir qancha qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Xususan, Windows operatsion tizimi atamalarini boshqa tillarga tarjima qilish ba‘zan til muammolari, madaniy farqlar va texnik xususiyatlar tufayli qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu sohada tajribali mutaxassislar duch keladigan ko‘plab muammolar mavjud va tarjimonlar ularni ancha qiyin deb bilishadi. Jon Drayden tarjimini oyoqlari arqonlar bilan bog‘langan holda raqsga tushish bilan taqqoslaydi <sup>37</sup>, boshqa manbalar tarjimini sharobni suvga aylantirish, tarjimonlar esa pijama kiygan gladiatorlar bilan taqqoslanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha taqqoslashlar tarjimini murakkab va qiyin mashg‘ulot sifatida tavsiflovchi ekspressiv usul ekanligidan dalolat beradi.

---

<sup>37</sup> Dryden, John. 2012. Dancing on ropes with fetter’d legs. <https://jacket2.org/commentary/dancing-ropes-fetter%E2%80%99d-legs> [Accessed 15th March 2018].

Talabga javob beradigan sifatli tarjimani ta'minlash uchun tarjimonlarning eng muhim vazifalaridan biri tarjima qilish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan xabardor bo'lish va ularni hal qilishga tayyor bo'lishdir.<sup>38</sup>

Shu jumladan Windows atamalarini tarjima qilishda duch keladigan ba'zi umumiy muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**Texnik muammolar:** Windows operatsion tizimi atamalarida ko'pincha boshqa tillarda, xususan o'zbek tilida ham to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentlari bo'lmasligi mumkin bo'lgan texnik jargon mavjud. Tarjimonlarga tegishli ekvivalentlarni topish bir qancha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

**Madaniy moslashuv:** Ba'zi atamalar madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lishi mumkin, ular boshqa til yoki madaniy kontekstda ma'no berish uchun moslashtirishni talab qiladi.<sup>39</sup>

**Uzunlik:** Atamalar boshqa tillarga tarjima qilinganda uzunligi jihatidan farq qilishi mumkin, bu menyular, dialog oynalari va foydalanuvchi interfeyslarida formatlash bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Muvofiqlik:** Operatsion tizim bo'ylab tarjimalarda izchillikni ta'minlash foydalanuvchi tushunishi va tajribasi uchun juda muhimdir.

**Foydalanuvchi uchun qulayligi:** Foydalanuvchilar o'z ona tilidagi ba'zi atamalarga ko'proq o'rganib qolgan bo'lishi mumkin, bu esa yangi tarjimalarni kiritishni qiyinlashtiradi.

Shunday ekan, Windows operatsion tizimi atamalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

**Texnik aniqlik:** Tarjima qilingan atamalar Windows operatsion tizimi funksiyalarining funksionalligi va ma'nosini to'g'ri ifodalashiga ishonch hosil qilish lozim.

**Muvofiqlik:** Foydalanuvchi tushunishini yaxshilash uchun operatsion tizim bo'ylab terminologiyada izchillikni saqlash kerak.

**Oddiylik:** Tarjima qilingan atamalarni foydalanuvchilarning keng doirasiga kirishi uchun tushunarli va sodda tildan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Madaniy ahamiyati:** Foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish uchun atamalarni o'zbek tili va madaniy me'yorlariga moslashtirish juda ahamiyatli.

**Fikr-mulohazalari:** O'zbek tilida so'zlashuvchi foydalanuvchilarning o'z xohish-istaklari va tushunchalari asosida tarjima qilingan atamalarni takomillashtirish va yaxshilash uchun ularning fikr-mulohazalarini to'plash zarur.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun tarjimonlar texnik mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilishlari, lug'atlardan foydalanishlari, foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini hisobga olishlari va tarjimalarda aniqlik va izchillikni birinchi o'ringa qo'yishlari kerak bo'ladi. Tarjimonlar ushbu jihatlarga e'tibor qaratish orqali Windows operatsion tizimi atamalarining o'zbek tiliga samarali va qulay tarjimalarini ta'minlab, Windows qurilmalaridan foydalanuvchi o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxslar uchun umumiy foydalanuvchi tajribasini oshirishlari mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dryden, John. 2012. Dancing on ropes with fetter'd legs. <https://jacket2.org/commentary/dancing-ropes-fetter%E2%80%99d-legs> [Accessed 15th March 2018].
2. Problems Encountered in the Process of Translation and their Possible Solutions: The Point of View of Students of Technical Translation Vertimo studijos, vol. 12, pp. 138-149, 2019
3. <sup>1</sup><https://www.redalyc.org/journal/6927/692774545009/html/#:~:text=The%20most%20characteristic%20external%20problems,the%20meanings%20of%20polysemantic%20terms.>

---

<sup>38</sup><https://www.redalyc.org/journal/6927/692774545009/html/#:~:text=The%20most%20characteristic%20external%20problems,the%20meanings%20of%20polysemantic%20terms.>

<sup>39</sup> Problems Encountered in the Process of Translation and their Possible Solutions: The Point of View of Students of Technical Translation Vertimo studijos, vol. 12, pp. 138-149, 2019

## POSSIBILITIES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS IN TEACHING MATHEMATICS TO SCHOOLCHILDREN

**Tokhirov F.J. Uzbekistan,**  
**Navoi State Pedagogical Institute,**  
**senior lecturer of the Department of Computer Science,**  
**Doctor of Philosophical Pedagogical Sciences, PhD**  
**Uktamova R.K. 4th year student in the direction of**  
**“Mathematics and Informatics” at Navoi State Pedagogical Institute**

**Annotatsiya.** Maqolada maktab o‘quvchilariga matematikani o‘rgatish jarayonida sun‘iy intellekt tizimlaridan foydalanish imkoniyatlariga oid tahliliy ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** sun‘iy intellekt, ta‘lim, matematika, maktab ta‘limi.

**Аннотация.** В статье представлены аналитические данные о возможностях использования систем искусственного интеллекта в процессе обучения школьников математике.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, образование, математика, школьное обучение.

**Annotation.** The article presents analytical data on the possibilities of using artificial intelligence systems in the process of teaching mathematics to schoolchildren.

**Key words:** artificial intelligence, education, mathematics, schooling.

Modern education is influenced by the rapid development of information technologies, including artificial intelligence (AI) systems. The possibilities for using AI in the educational process are enormous, especially in the field of teaching mathematics [1]. This article examines the prospects for using AI systems to effectively teach mathematics to schoolchildren.

1. Personalized learning. AI systems can create personalized learning plans for each student based on their individual abilities and skill level [2]. Machine learning algorithms allow AI systems to analyze training data, identify student weaknesses and offer individual tasks to overcome them [3].

2. Interactive learning platforms. The creation of interactive learning platforms using AI technologies contributes to a deeper and more effective learning of mathematical material [4]. Such platforms can offer students interactive assignments based on their actions, as well as provide instant feedback.

3. Adaptive textbooks and problem books. Using AI, you can create adaptive textbooks and problem books that automatically adjust to the level of knowledge and abilities of each student [5]. This allows you to use class time more efficiently by offering each student tasks that are appropriate to their level.

4. Feedback and analytics. AI systems can analyze learning outcomes, identify student trends and mistakes, and offer recommendations to improve their performance. Feedback received from AI systems can be a useful tool for both students and teachers.

5. Collaborative learning and collective intellectual participation. The use of AI systems can also promote collaborative learning and collective intellectual engagement among students. AI-enabled platforms can organize group assignments, encouraging students to work in teams and share knowledge.

The introduction of artificial intelligence systems into the educational process provides unique opportunities for improving the quality of mathematics teaching. Personalized approaches, interactive platforms, adaptive problems and feedback make learning more effective and interesting for students, contributing to their academic success. In the long term, this can lead to an improvement in the level of mathematical literacy and the development of analytical thinking in schoolchildren.

### References

1. Chen L., Chen P., Lin Z. Artificial intelligence in education: A review //Ieee Access. – 2020. – Т. 8. – С. 75264-75278.

2. Пырнова О.А., Зарипова Р.С. Технологии искусственного интеллекта в образовании // Russian Journal of Education and Psychology. – 2019. – Т. 10. – №. 3. – С. 41-44.

3. Kim K., Park Y. A development and application of the teaching and learning model of artificial intelligence education for elementary students //Journal of The Korean Association of Information Education. – 2017. – Т. 21. – №. 1. – С. 139-149.

4. Апатова Н.В., Гапонов А.И., Смирнова О.Ю. Возможности искусственного интеллекта в обучении высшей математике // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Социология. Педагогика. Психология. – 2021. – Т. 7. – №. 2. – С. 27-39.

5. Davis E. Mathematics, word problems, common sense, and artificial intelligence // Bulletin of the American Mathematical Society. – 2024. – 17 p.

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**To‘rayev Muzaffar Farmonovich,  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
TATU Qarshi filiali dotsenti v.b., p.f.f.d (PhD)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari, o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni, ta’lim muassasasidagi majburiyatlari va vazifalari, individual qobiliyatlari, ularning kasbiy sifatlarini shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy sifat, individual, kasbiy shakllanish, kommunikativlik, motivatsiya, professionogramma, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsiya, emotsional.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются индивидуально-психологические особенности формирования профессиональных качеств будущих учителей, роль учителей в обществе, их обязанности и задачи в образовательном учреждении, индивидуальные способности, индивидуально-психологические особенности формирования их профессиональных качеств.

**Ключевые слова:** профессиональное качество, личность, профессиональное становление, общение, мотивация, профессиограмма, педагогические условия, новаторство, эмоциональность.

**Abstract.** In this article are discussed the individual-psychological features of the formation of professional qualities of future teachers, the role of teachers in society, their obligations and tasks in the educational institution, individual abilities, the individual-psychological features of the formation of their professional qualities.

**Key words:** professional quality, individual, professional formation, communication, motivation, professionogram, pedagogical conditions, innovation, emotionality.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida dars beradigan pedagog kadrlar yuqori saviyali bo‘lish bilan bir qatorda, yangi pedagogik texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirgan, zamonaviy bilim bera olish qobiliyati, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantira olish mahoratiga, ya’ni kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari talab etiladi[1].

O‘qituvchilarni kasbiy sifatlarini shakllantirish ularning jamiyatdagi o‘rni, ta’lim muassasasidagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchining ijodiy individualligi uning individual xususiyatlari ya’ni, fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi va boshqalarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Kasbiy sifatlar – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko‘nikmalari, malakalari majmui va mehnat faoliyatida o‘z qobiliyatini sifatli va samarali amalga tadbiiq etish imkoniyatidir[4].

Psixologiyada shaxsning kasbiy shakllanish jarayoni kasbni puxta egallash deyiladi. Kasbiy shakllanish yaxlit jarayon bo‘lib, kasb tanlashdan boshlab shaxsning butun umrini qamrab oladi. Kasbiy shakllanishning to‘rt bosqichi mavjud:

- 1) kasbni izlash va kasb tanlash;
- 2) kasbni o‘zlashtirish;

- 3) ijtimoiy va kasbiy moslashuv;
- 4) kasbiy faoliyatni amalga oshirish.

Ushbu bosqichlarning har birida faoliyat mexanizmi determinatlari va maqsadlari o'zgarib turadi. Xususan, agar dastlabki bosqichda subyekt kasbni o'zlashtirishni unga qo'yiladigan talablarni o'rganishni maqsad qilib olsa, keyingi bosqichlarda uning rivojlanishi muayyan kasbni o'zlashtirishdan boshlanib, aniq bir faoliyatni mustaqil bajarish bosqichi bilan yakunlanadi[3].

Kasbiy shakllanishda kasbiy sifatlar va rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq: kasbiy sifatlar bir tomondan kasbiy rivojlanish jarayonida shakllansa, boshqa tomondan esa, shaxsning mutaxassis sifatida namoyon bo'lishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Amaliy jihatdan bu quyidagilarni anglatadi: yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o'z o'rniga ega bo'lish, raqobatga bardoshlik, farovon kelajakni ta'minlash uchun mutaxassis doimiy ravishda rivojlanishi, qolaversa, ijtimoiy va mehnat sharoitida o'zining mavqeyini tahlil qilib borishi lozim. Shuning uchun kasbiy sifatlarni tadqiq qilishning zamonaviy yo'nalishi shaxsning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishi jarayoni bilan o'zaro bog'liq jihatlarni o'rganish hisoblanadi[5].

O'qituvchining kasbiy sifatlarini shakllanganligi asosini intellektual salohiyat, irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, hissiy sifatlar hamda o'zini o'zi boshqara olish sifatleri tashkil etadi. Pedagogik vazifalarni hal etilishi avvalambor tarbiya subyekting individual sifatlariga tayanadi. Ushbu sifatning rivojlanganligi insonning to'la shakllanganligini, individualligini, har tomonlama barkamoliligini tavsiflaydi. Ularning rivojlanganlik darajasi shaxsning ijtimoiy faolligi, hayot tarzi, baxti va jamiyatda o'zini qay tarzda tutishini belgilab beradi.

Kasb faoliyatga tayyorgarlik barcha mehnat sohalarida katta ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatlarini shakllantirishni qamrab oladi. Ularni shakllantirish maktabgacha tarbiya yoshidan boshlanadi hamda boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida davom ettiriladi. Bu sifatlar qatoriga mehnatga hurmat va qiziqish, o'qish va mehnat qilish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda sabr-toqat va tirishqoqlik, mehnatga chidamlilik, ishning puxta o'ylab qilinganligi va asoslanganligi, o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqid ko'zi bilan qarash, intizomlilik, jamoaviylik va boshqalar kiradi[6].

Har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan tavsifnomasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi, jumladan, professional ta'lim muassasasi o'qituvchisi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim sifatlar borgan sari bir muncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi sifatlarini ko'rsatib o'tish lozim:

1. *O'qituvchining shaxsiy sifatleri:* talabani yaxshi ko'rish, amaliy psixologik aql-farosatlilik; mehnatsevarlik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik; kamtarinlik; odamiylik, dilkashlik; uddaburonlik; mustahkam xarakterga ega bo'lish; o'z bilimni oshirishga intilish.

2. *Kasbiy sifati:* zamonaviy ta'lim muassasasida olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi; kuzatuvchanligi; o'z diqqat e'tiborini taqsimlay olishi; pedagogik fantaziyalarning rivojlanishi; o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi; o'zini qo'lga olib bilishi, o'zini tuta olishi; nutqning emotsional ifodalanishi.

3. *Shaxsiy pedagogik uddaburonligi:* dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi; talabalarning bilish faoliyatini boshqara olishi; ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarning rivojlanishini istiqbolli ravishda boshqara olishi; pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi; talabalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi; o'z maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zining ta'lim-tarbiyaviy ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

4. *Tashkilotchilik malakalari:* talabalar jamoasini uyushtira bilishi; turli sharoitlarda talabalar jamoasini boshqara olishi; ularni zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari bilan qiziqtirib, ularni yanada faollashtira olishi; amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi.

5. *Kommunikativ malakalari:* talabalarni o'ziga jalb etishni bilishi; talabalar va ularning ota-onalari bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi; talabalarning jamoalararo

va jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi; talabalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilishi.

6. *Gnostik malakalari*: talabalarning psixik taraqqiyot darajasini aniqlay bilishi; o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyat natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi; boshqa o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib, undan nazariy va amaliy tomondan to‘g‘ri xulosa chiqara olishi; talabalarni to‘g‘ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi;

7. *Insoniy sifatlari*: pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi; talabalarni har tomonlama tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati; o‘zini talaba o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi; avvalgi voqea-hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olishi; o‘zining talabaga pedagogik ta’siri natijalarini oldindan ko‘ra bilishga intilishi.

Hulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kasbiy sifatlar shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Har qanday soha vakili uchun qobiliyatning rivojlanishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, u yoki bu sohaga nisbatan qobiliyatli insonlarda kasbiy sifatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313 sonli “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3523206>

2. Asqarov A.D. Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish // pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2017. -52 b

3. Davletshin M.G., Jalilova S.X. Oliy maktabda ta’lim jarayoni samaradorligini psixologik tomonlari. – T.: 2001. - 10 b.

4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. – 101 b.

5. Qodirov M.M. Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy sifatlarini shakllantirish // p.f.f.d (PhD) diss. avtoreferati. –T.: 2020.

6. Muslimov N.A., Tolipova J.O., Sharipov Sh.S., Isyanov R.G. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar malakasini oshirishni tashkil etish. //Metodik qo‘llanma. -T.: “Taraqqiyot IICH” nashriyoti. 2010. 105 bet

### UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINING SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

F.J.Toxirov – Navoiy davlat pedagogika instituti,  
“Informatika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).  
S.D.Ergashova – Navoiy davlat pedagogika instituti,  
“Matematika va informatika” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktab, o‘quvchilar, sun’iy intellekt tizimlari, foydalanish madaniyati.

**Аннотация.** В данной статье представлены предложения и рекомендации по формированию культуры использования систем искусственного интеллекта у учащихся общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** школа, учащиеся, системы искусственного интеллекта, культура использования.

**Annotation.** This article presents proposals and recommendations for creating a culture of using artificial intelligence systems among students in secondary schools.

**Key words:** school, pupils, artificial intelligence systems, culture of use.

Hozirda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda raqamli texnologiyalar jamiyat kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar sohasidagi eng muhim yutuqlardan biri sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi hisoblanadi. Shuning uchun ham yosh avlodda ushbu texnologiyalardan nafaqat unumli, balki ulardan axloqiy foydalanish madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1, 2].

Maktab o'quvchilarida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki sun'iy intellekt tizimlar qanday ishlashini tushunish o'quvchilarga texnologiyadan malakali foydalanish imkonini beradi, bu ularga o'qishlarida va kasbiy faoliyatida ustunlik beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlardan foydalanishga ongli yondashish yoshlarda tanqidiy fikrlash va ushbu texnologiyalarga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, yoshlarga texnologiya olamidagi doimiy o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi va ularni kelajakda sun'iy intellekt tizimlari bilan bog'liq axloqiy masalalarni hal qilishga tayyorlaydi [3].

Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi tufayli maktab o'quvchilari o'rtasida ushbu tizimlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish zaruratga aylanib bormoqda. Sun'iy intellekt tizimlarining asosiy tushunchalari va ushbu texnologiyalardan malakali va axloqiy foydalanish boshlang'ich sinflardan boshlab o'quv dasturiga kiritilishi talab etiladi [4].

Sun'iy intellektni tushunish, ko'pincha ilmiy fantastikalarda tasvirlanganidek, nafaqat robotlar, balki ma'lumotlarni qayta ishlash, ular asosida qarorlar qabul qilish va tajribadan o'tkazish mumkin bo'lgan tizimlar ekanligini tushuntirishdan boshlanadi. O'quvchilarga sun'iy intellekt haqiqiy muammolarni yechishda qanday yordam berishi mumkinligini o'rgatish kerak, masalan, tibbiyotda kasalliklarga tashxis qo'yish yoki iqlimshunoslikda ob-havoni bashorat qilish bularga misol bo'ladi [5].

O'quvchilarga kelajakda sun'iy intellekt tizimlariga tez-tez duch kelishlarini, tushuntirish lozim. Masalan, oqimli platformalarda tavsiya xizmatlari, shaxsiylashtirilgan ijtimoiy media lentarlari va Siri yoki Google Assistant kabi virtual yordamchilar. Ushbu misollarni muhokama qilish sun'iy intellekt tizimlari qanday qilib kundalik vazifalarni soddalashtirishi va hayot sifatini yaxshilashi mumkinligini tushunishga yordam beradi [6].

Ta'limdagi sun'iy intellekt tizimlar individuallashtirilgan ta'lim kabi ko'plab afzalliklarni ochib beradi, bunda sun'iy intellekt tizimlari o'quvchining qobiliyatlarini tahlil qilishi va o'quv materialini ularning darajasi va afzalliklariga moslashtirishi mumkin. Biroq, sun'iy intellektni ta'limga integratsiyalashda muammolar mavjud, jumladan ma'lumotlar maxfiyligi va o'qituvchilarni ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatish zarurati kabi axloqiy jihatlarni aytish mumkin. Bunda sun'iy intellekt tizimlarini an'anaviy o'qitish usullarini almashtiruvchi emas, balki qo'llab-quvvatlovchi bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt sekinlik bilan bizning mavjudligimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu, ayniqsa, bolalarni o'rganish va rivojlantirishda kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan ta'lim sohasida to'g'ri keladi. O'quvchilar orasida sun'iy intellekt madaniyatini rivojlantirish ularni ushbu texnologiya yanada katta rol o'ynaydigan kelajakka tayyorlashga yordam beradi. Bu nafaqat ma'lum vositalardan foydalanishni o'rganish, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va sun'iy intellekt bilan bog'liq imkoniyatlar hamda xavflarni tushunishdir.

Sun'iy intellektga bag'ishlangan o'quv dasturlarini yaratish sun'iy intellektidan foydalanish madaniyatini shakllantirish yo'lidagi vazifalardan biridir. Bunday dasturlar nafaqat sun'iy intellektning nazariy jihatlarini, balki o'quvchilarga sun'iy intellektni hayotning turli sohalarida qanday qo'llash mumkinligini tushunishga yordam beradigan amaliy topshiriqlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Bolalar sun'iy intellektni real muammolarni yechish kontekstida o'rganishlari muhim, bu esa materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O'quvchilarni sun'iy intellektga asoslangan dizayn ishlariga faol jalb qilish ularga amaliy ko'nikmalar va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Haqiqiy loyihalar ustida ishlayotganda, o'quvchilar ma'lumotlarni tahlil qilishni, algoritmlarni yaratishni va o'zlarining sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqishni o'rganadilar. Bu nafaqat sun'iy intellekt haqidagi bilimlarni



chuqurlashtirishga yordam beradi, balki muhim jamoaviy ko'nikmalarni va qiyin muammolarni yechishni ham shakllantiradi.

Ta'limning muhim tarkibiy qismi sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlari haqida suhbatlashishni tashkil etadi. Bunda o'quvchilar texnologiyaning imkoniyatlari keng ekanligini tushunishlari va ulardan mas'uliyat bilan foydalanishi muhimdir.

Maxfiylik, ma'lumotlar, suiste'mol qilish masalalari, shuningdek, sun'iy intellekt avtonomiyasining imkoniyatlari va chegaralarini muhokama qilish o'quvchilarda mas'uliyat hissi hamda texnologiyaga tanqidiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Maktab o'quvchilarida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish jamiyatimiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Yoshlarga ushbu texnologiyalar qanday ishlashini tushunish va ularga sun'iy intellektga axloqiy yondashuvni o'rgatish muhimdir. Bu ularga nafaqat kelajakda samarali foydalanishga, balki uning rivojlanishi uchun xavfsiz, mas'uliyatli va axloqiy muhitni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim muassasalari zarur resurslar va bilimlarni taqdim etish orqali ushbu jarayonda markaziy rol o'ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Солнцева О.Г. Аспекты применения технологий искусственного интеллекта // e-management. – 2018. – Т. 1. – №. 1. – С. 43-51.
2. Зулунов Р.М., Тиллавождиев А.О. Использование технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе // Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – С. 137-142.
3. Елтунова И.Б., Нестеров А.С. Использование алгоритмов искусственного интеллекта в образовании // Современное педагогическое образование. – 2021. – №. 11. – С. 150-154.
4. Резаев А.В., Трегубова Н.Д. “Искусственный интеллект”, “онлайн-культура”, “искусственная социальность”: определение понятий // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. – 2019. – №. 6 (154). – С. 35-47.
5. Bloomfield B.P. The culture of artificial intelligence //The question of artificial intelligence. – Routledge, 2018. – С. 59-105.
6. Muhammadjon N. Sun'iy intellektning huquqiy tartibga solinishi // SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 109-114.

### UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**F.J.Toxirov – Navoiy davlat pedagogika instituti,  
“Informatika” kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).  
R.Sh.Toshmurotova – Navoiy davlat pedagogika instituti,  
“Matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.**

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish samaradorligiga oid tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ta'lim, informatika va axborot texnologiyalari, umumiy o'rta ta'lim maktab ta'limi.

**Аннотация.** В статье представлены аналитические данные об эффективности использования систем искусственного интеллекта при преподавании информатики и информационных технологий в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, образование, информатика и информационные технологии, общее среднее образование.

**Annotation.** The article presents analytical data on the effectiveness of using artificial intelligence systems in teaching computer science and information technology in secondary schools.

**Key words:** artificial intelligence, education, computer science and information technology, general secondary education.

Bugungi raqamlashgan jamiyatda sun'iy intellekt tizimlari hayotimizning turli jabhalarida, jumladan, ta'limda tobora muhim rol o'ynamoqda. Axborot texnologiyalari tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt tizimlarini maktab ta'limida, ayniqsa, informatika ta'limida qo'llash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va axborot texnologiyalari fani o'quv jarayoniga sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish an'anaviy o'qitish usullarini o'zgartirib, yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shu bois, sun'iy intellekt tizimlari nima ekanligi va ulardan maktablarda informatika ta'limi jarayonida qanday samarali foydalanish mumkinligini tushunish muhimdir.

Bu borada, ya'ni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish metodikasiga oid ilmiy izlanishlar M.Kandlhofer, I.Roll, F.Pedro, Y.Y.Udarseva, YE.Brizgalina, V.A.Chulyukov, U.A.Nuraliyev kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan.

Mazkur tadqiqotchilar tomonidan ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari, virtual yordamchilar va chatbotlardan foydalanish, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, etika va xavfsizlik, individuallashtirilgan ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash jarayonlarida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ushbu tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari asosida aytish mumkinki, o'qitishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va umuman ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt tizimlaridan samarali foydalanish mumkin:

1. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish. Sun'iy intellekt tizimlari shaxsiylashtirilgan o'quv materiallari va topshiriqlarini taqdim etish orqali o'quv jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin. Mashinani o'rganish algoritmlari har bir o'quvchining o'rganish uslubini tahlil qilishi mumkin, bu ularga o'z ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirilgan shaxsiy o'quv dasturlarini yaratishga imkon beradi.

2. Ta'lim olish imkoniyatini yaxshilash. Sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish, ularning individual xususiyatlari yoki cheklovlaridan qat'i nazar, barcha talabalar uchun ta'limni yanada qulayroq qilishi mumkin. Masalan, nutq va matnni aniqlash texnologiyalari ko'rish yoki eshitish qobiliyati zaif o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv materiallarini yaratishga imkon beradi.

3. Motivatsiya va qiziqishning ortishi. Virtual o'quv yordamchilari yoki o'yin platformalari kabi interaktiv sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Talabalar qiziqarli va qiyin topshiriqlar orqali informatika fanini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu ularning motivatsiyasi va fanga qiziqishini oshirishi mumkin.

4. O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash. Sun'iy intellekt tizimlari o'qituvchilar uchun qimmatli vosita bo'lib, darslarni rejalashtirish, talabalar faoliyatini tahlil qilish va fikr-mulohazalarni bildirish jarayonini osonlashtirishi mumkin. Avtomatlashtirilgan topshiriqlarni baholash tizimlari o'qituvchilarning ishini baholashga sarflaydigan vaqtini qisqartirishi mumkin, bu ularga o'quvchilarga shaxsiy yordam ko'rsatish uchun ko'proq vaqt sarflash imkonini beradi.

5. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Sun'iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda raqamli texnologiyalar bo'yicha ta'lim, shuningdek, bugungi kunda zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, dasturlash va ma'lumotlar tahlili kabi asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish jarayoniga sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish ta'limni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. U ta'lim olish imkoniyatini yaxshilash, o'quvchilar motivatsiyasini oshirish, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va tez o'zgaruvchan axborot jamiyatiga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu konsepsiyani

muvaqqiyatli amalga oshirish texnologik va pedagogik innovatsiyalarni, shuningdek, doimiy yangilanish va o'quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va ta'lim muhitiga moslashishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kandhofer M. et al. Artificial intelligence and computer science in education: From kindergarten to university //2016 IEEE frontiers in education conference (FIE). – IEEE, 2016. – С. 1-9.
2. Roll I., Wylie R. Evolution and revolution in artificial intelligence in education //International Journal of Artificial Intelligence in Education. – 2016. – Т. 26. – С. 582-599.
3. Pedro F. et al. Artificial intelligence in education: Challenges and opportunities for sustainable development. – 2019. – 49 P.
4. Ударцева Ю.Е., Сидорина Т.В. Использование систем искусственного интеллекта в образовании // Психолого-педагогические аспекты совершенствования подготовки студентов вуза. – 2021. – С. 238-241.
5. Брызгалина Е.В. Искусственный интеллект в образовании. Анализ целей внедрения // Человек. – 2021. – Т. 32. – №. 2. – С. 9-29.
6. Чулюков В.А., Дубов В.М. Искусственный интеллект и будущее образования // Современное педагогическое образование. – 2020. – №. 3. – С. 27-31.
7. Нуралиев У.А. Искусственный интеллект в образовании // Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1563-1575.

### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLANING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Iqtidorli talaba: Turdiyeva Ra'no Qulmurod qizi (O'zbekiston)**

**NavDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**

**Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna(O'zbekiston)**

**NavDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga psixologik, ma'naviy-axloqiy tayyorlash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** umumiy, psixologik, maxsus tayyorgarlik, axloqiy-ma'naviy tayyorgarlik, aqliy, jismoniy tayyorgarlik.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются вопросы психологической, духовно-нравственной подготовки детей дошкольного возраста к школьному обучению.

**Ключевые слова:** общая, психологическая, специальная подготовка, морально-духовная подготовка, умственная, физическая подготовка.

**Abstract:** this article discusses the issues of psychological, spiritual and moral preparation of preschool children for schooling.

**Key words:** general, psychological, special training, moral and spiritual training, mental, physical training.

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim bola shaxsini jismonan sog'lom, ruhiy (sensomotor va persektiv harakatlarini rivojlantirib) va ma'naviy jihatdan maktab ta'limiga tayyorlaydi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etnik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir"[1]. Maktabgacha ta'lim va tarbiyada olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlash ham nazarda tutilgan.. Haqiqatan ham, ta'lim-tarbiya, inson ruhiyatiga e'tibor qancha erta boshlansa, uning samarasi insonning butun hayotiga ijobiy ta'sir etadi.

Birinchi prezidentimiz ham "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarlarida "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha ma'lumotlari va

bilimlarining 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi 5-7 yoshida shakllanadi",- degan fikrlarni bildirganlar[3].

Shunday ekan bolaning bu yoshdagi faoliyati asosan maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bolani maktab ta'limiga har tamonlama tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarning o'rni beqiyosdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish va uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim, ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inidir ilk ta'lim –tarbiya ishlarining poydevori qo'yiladi. Imoratning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, u asrlar silsilasida ham mustahkam turaveradi. Bola ta'lim-tarbiyasida maktabgacha ta'lim ham poydevor vazifasini o'taydi. Ta'lim tarbiya qanchalik to'g'ri va mustahkam berilsa, biz barkamol shaxsni tarbiyalash uchun zamin hozirlaymiz. Bu esa o'z samarasini beradi, albatta.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy va Beruniy har bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida o'z asarlarida alohida qayd etib o'tganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, tarbiyachi bola shaxsini tarbiyalash uchun, dastavval uning "betakror olamiga" kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzishi va qo'llamog'i lozim. Bu faoliyatni amalga oshirishda tarbiyachining eng yaqin maslahatchisi va ko'makdoshi maktabgacha ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan psixologdir.

Barchamizga sir emaski, Respublikamiz Prezidenti ham bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Shu sohaga doir bir necha yig'ilishlar o'tkazilib, qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish maqsadida "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni 5198-sonli farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash va boshqaruvini qaytadan takomillashtirish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi va bugungi kunda vazirlik o'z faoliyatini olib bormoqda[2].

Darhaqiqat, bola tarbiyasi, uning shaxs bo'lib shakllanishi, ijtimoiy hayotni bilishi, turmush tajribalarini o'zlashtirishi, shu bilan birga psixik jarayonlari, hissiy-irodaviy holatlari, individual xususiyatlarining rivojlanishi va shakllanishi maktabgacha davridan boshlanadi. Chunki bu davr inson hayotida asosiy fundamental davr hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bu – o'qitish samaradorligini oshirishdagi muhim jihat hisoblanadi.

**Maktabda o'qishga tayyorgarlik** – bu maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada bolalarga berilgan ta'lim-tarbiyaning muhim natijasidir. U maktab bolaga qo'yadigan talablar majmui orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlarni o'zida mujassam qiladi.

Bola hayotida maktabdagi o'qitish jarayoni, atrofdagilar bilan munosabat tizimini o'zgarishiga aloqador muhim davrdir bunda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati bola hayotida markaziy o'rinni egallaydi. Bunda erkin o'yin faoliyatini farqli ravishda majburiy faoliyat egallaydi. Endi 1-sinf o'quvchisidan quyidagi jiddiy munosabatlar talab etiladi:

- Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolalar kundalik hayot jarayonini qayta quradilar;

- Kun tartibi o'zgaradi;
- Erkin o'yinlar vaqti qisqaradi;
- Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi, intizomlilikiga talab ortadi;
- O'quvchining o'z xatti-harakati, majburiyatlarini bajarishga mas'uliyati ortadi.

O'quvchining bu yangi holati uning shaxsini alohida ma'naviy jihatdan yo'nalganligini yaratadi. Unda o'z Vatani, oilasi va kishilar oldidagi burch va majburiyatlarni anglay olish, mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish kabi ijobiy sifatlar rivojlanib boradi. O'quvchi o'zining jamiyat uchun kerakligini tushuna boradi.

**Maktab o'quvchidan** – aqliy faoliyatning murakkabroq shakllarini, axloqiy-irodaviy sifatning yuksakroq rivojlangan darajasini, o'z xatti-harakatini boshqarish qobiliyatini, katta ishchanlik qobiliyatini talab qiladi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi** – Davlat talablari asosida maktab talablariga muvofiq ravishda maktabda o'qishga tayyorgarlikni tarkib toptirishdan iborat. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash:

- Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim tarbiyaviy ishni umumiy va har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajada ta'minlanishi;
- Maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlashni nazarda tutadi.

Pedagog olimlar va psixologlar (L.A.Venger, A.V.Zaparojes, G.M.Lyaminya) va zamonamiz pedagog olimlari (F.R.Qodirova) tomonidan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning quyidagi jihatlari ta'riflangan:

- Maktab ta'limiga umumiy tayyorgarlik;
- Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik;
- Maktab ta'limiga maxsus tayyorgarlik.

Maktab ta'limiga umumiy tayyorgarlikni amalga oshirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- Bolani maktabda o'qishga axloqiy-ma'naviy tayyorgarligi;
- Bolani maktabda o'qishga aqliy tayyorgarligi;
- Maktabgacha yoshdagi bolani maktabda o'qishga jismoniy tayyorgarligi.

**Maktabda o'qishga axloqiy-ma'naviy tayyorgarlik tushunchasi** – bola o'z xatti-harakat, iroda, hissiyotlar, insonlarga nisbatan muloqot qilishda o'z fikrini ayta bilishi, o'zini shaxs sifatida anglashi, o'qituvchi va sinfdagilar bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajada erishish tushuniladi.

Maktabdagi axloqiy-ma'naviy tayyorgarlik mazmuni o'quvchi tutgan o'rindan kelib chiquvchi bola shaxsi va xulqiga qo'yiladigan talablariga nisbatan aniqlanadi. Bu talablar:

- Tartibli va intizomli bo'lish;
- O'quv jarayonini mustaqil va mas'uliyatli bajarish;
- O'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish;
- O'qituvchi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarida madaniy xulq qoidalariga rioya qilish;
- Maktab mulkiga tartibli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

Bu yuqoridagi talablarni bajarishga tayyorgarlik avvalambor oilada maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan maqsadli, tizimli ta'lim-tarbiyaviy jarayonda amalga oshirilishi lozim.

Axloqiy-ma'naviy tayyorgarlik maktabgacha yoshdagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchi bilan ishlashda quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- Xulq-atvorni ongli boshqarishga ko'maklashish;
- Daf'atan asabiylashib ketishga erk bermaslik;
- Kutilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon etishdagi yordam.

Bo'lajak o'quvchi xulq-atvoridagi ixtiyoriylikning rivojlanish asosini maktabgacha tarbiya yoshi ohiriga kelib tarkib topadigan sabablar ierarxiyasi, o'zaro bo'ysinuvchilari tashkil etadi. Sabalarning o'zaro bo'ysunganligi bu yoshdagi bolalarning ushbu daqiqadagi o'z ishtiyoqlarini ma'naviy ahamiyatli maqsadlar yo'lida yengish uchun irodaviy, ongli intilishga aloqadordir. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolani xulq-atvori ixtiyoriylikning yuqori darajasi bilan ajralib turmadi, ammo bu davrda maktabdagi yangi xulq-atvor turiga o'tishni ta'minlaydigan ixtiyoriy xulq-atvor mexanizmining tarkib topishi muhimdir. Ma'naviy-axloqiy tayyorgarlikning qaror topishida quyidagi uch jihat:

- Mustaqillik;
- Uyushganlik;
- Intizomlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolada mustaqillikni tarbiyalash va shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan barcha ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda o'z aksini topadi. Bola maktabda o'z xulq-atvori va boshqa jarayonlarda mustaqil bo'lishga intiladi. Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvordagi uyushganlik va intizomlilik bola xulq-atvoridagi maqsadga yo'nalganlik, ongli ravishda o'z xatti-harakatini tashkil etish va uni nazorat qila olish kabi qobiliyatlar tarkib topadi.

Bu esa bolaning ma'naviy-axloqiy jihatdan maktab ta'limiga tayyor ekanligini bildiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'z tengqurlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq ravishda tashkil etish – ma'naviy-axloqiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismidir. Bunda maktabda o'qish jarayonida o'z tengqurlariga nisbatan xayrixoh, xushmuomilalik, g'amxo'rlik bildirish va hurmat bilan munosabatda bo'lish, tashkilotchilik ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabatida, o'qituvchining bahosi - o'quvchi bilimi va uni o'quv majburiyatlarini bajarish sifatining xolis mezoniga aylanadi.

Maktabgacha axloqiy-irodaviy tayyorgarlik – bola ongi va axloqiy-hissiy rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi. Bunda bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi kattalar va tengdoshlariga nisbatan o'zaro hurmat bilan qarash, kattalar bilan muloqot qilish doirasini kengaytirish, taasurotlari bilan o'z hissiyotlarini o'rtoqlasha olish, nizoli vaziyatlardan mustaqil chiqish olish, jamoada o'zini tuta bilish va o'z xatti-harakatini tanqidiy baholay olish kabi axloqiy hissiyotlar va axloqiy o'z-o'zini anglash bola tomonidan o'quvchining yangi ijtimoiy-psixologik mavqeyini ko'tarinki ruh bilan qabul qilishni, o'quv mashg'ulotlarini bajarishning muhimligini tushunishni ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarda o'z vatani oldidagi shaxsiy mas'uliyat hissiyotini uyg'otishda asos bo'ladi. Bolaning axloqiy-irodaviy tayyorgarligi uning mehnatga nisbatan munosabatida ham o'z aksini topadi. Bu mehnat qilish ishtiyoqi, to'g'ri va tartibli bajarilgan mehnatdan qoniqish hissiyoti, atrofdagilar mehnatiga hurmat va zarur mehnat ko'nikmalarini egallashdir.

Bo'lajak o'quvchi mustaqil tartibli kiyinishi, o'z narsalari, o'quv anjomlarini saranjom saqlash, orasta bo'lib ko'rinishi kabi mehnat ko'nikmalarini u oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida egallagan ko'nikmalariga tayangan holda amalga oshiradi. O'quvchini o'qitishda u maktabgacha ta'lim muassasasida egallagan birgalikdagi mehnat malakalari ishni rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, o'z holatlarini o'rtoqlari bilan kelishish, ishni ohiriga yetkazish katta o'rin egallaydi.

Xulosa qilib, bolani maktabda o'qishga ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi uni maktab yillarida axloqiy-irodaviy rivojlantirishning muayyan yakuni sifatida namoyon bo'ladi. U maktab ta'limi nuqtai nazaridan bola shaxsi va xulq-atvorining o'z mazmuniga ko'ra bolaning maktab sharoitiga moslashish, o'z majburiyatlarini ma'suliyatli bajarish, o'qituvchi va o'quvchilarga nisbatan axloqiy munosabatini shakllantirish uchun zamin tayyorlaydi. Ma'naviy-axloqiy tayyorgarlik bolani maktabda o'qishga aqliy va jismoniy tayyorgarligi bilan uzviy aloqadordir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020, 23-sentabr.
2. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 5198-sonli 2017 yil, 30-sentabr.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
4. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.- T.:2006
5. Mo'minova L.R., Nurkeldieva D.A. 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorligini tekshirish dasturi. Toshkent, 1996, 60 b.
6. Nizamova K. 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish. Metodik qo'llanma. Toshkent-
7. Xolboyeva G., Nigmatova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik treninglardan foydalanish. "XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari"ni o'rganishga bag'ishlangan Pespública ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent - 2012 yil (O'zMU, 195-bet).

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INTELEKTUAL FAOLIYATGA TAYYORLASHNING VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Maxamatova Feruza Safaraliyevna  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlashning hozirgi ahvoli va uni bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В статье предусмотрено текущее состояние подготовки учителей к интеллектуальной деятельности и будущей подготовки будущих учителей к интеллектуальной деятельности.

**Abstract:** The article envisages the current state of preparing teachers for intellectual activities and the future preparation of future teachers for intellectual activities.

**Kalit so‘z:** intellektual faoliyat, aqliy salohiyat, intellektual faoliyatga tayyorlash masalalari, intellektual faoliyatga tayyorlash yo‘llari.

**Ключевые слова:** интеллектуальная деятельность, интеллектуальный потенциал, вопросы подготовки к интеллектуальной деятельности, способы подготовки к интеллектуальной деятельности.

**Key words:** intellectual activity, intellectual potential, questions of preparation for intellectual activity, ways of preparation for intellectual activity.

Ma’lumki, “XXI asr – axborotlashtirilgan jamiyat sari asri”, deb atalmoqda. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ta’lim tizimini intellektuallashtirish davr talabi hisoblangan. Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchilardan intellektual bilim, salohiyat va uni o‘quvchilarga yetkazib tushuntirish yo‘llarini ham mukammal bilishni talab qilmoqda. Ammo eski uslub va vositalar yordamida buni amalga oshirishning imkoni yo‘q.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o‘z oldimizga qo‘ygan ko‘p qirrali va murakkab vazifalarniamalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, g‘ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz”. Globallashuv va iqtisodiy rivojlanishning bir maromda kechmayotganligi sharoitida nafaqat alohida inson, balki butun jamiyatning intellektual salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat fantalab mahsulotlar hajmining oshib borishida, tovarlar va xizmatlar qiymati tarkibida bilimlar kapitallashuvining o‘shishida namoyon bo‘ladi.

Bugungi zamon talabi bo‘lajak o‘qituvchilardan zamon bilan hamnafas qadam bosishni va har doim ilmiy salohiyatini, ijodkorlikni, o‘z ustida tinmay mehnat qilishni talab qilmoqda. Shu sababli ham hozirda ta’lim-tarbiya jarayonini intellektuallashtirish zamonaviy pedagogikada dolzarb muammolardan biridir.

Ta’lim sohasida yurtimizda keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarori, “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151 qarori, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” kabilar yurtimizda ta’lim sohasiga berilayotgan yuksak e’tibordan dalolatdir.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya faoliyatiga tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, uni oqilona amalga oshirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy yetukligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bilamizki, ma'lum mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash ta'lim standartlari, me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar tizimi asosida amalga oshiriladi.

Intellektual salohiyat tushunchasi inson faoliyatiga tegishli bo'lib, uning tashuvchisi bo'lib sub'ekt hisoblanadi. Salohiyat sub'ekt holatini ma'lum turdagi va sifatdagi faoliyatni amalga oshirish imkoniyati nuqtai nazardan tavsiflaydi. Bunday imkoniyatlar jamiyat tomonidan uning tarixiy rivojlanish davomida yaratilib, turli omillar birligi va o'zaro aloqadorligining majmui bilan belgilanadi. Inson faoliyati salohiyatni ishga solish jarayonidir. Inson qachonki zaruriy bilim va malakaga, ya'ni unga o'z ishini sifatli bajarish imkonini beruvchi salohiyatga ega bo'lsa, shundagina u mutaxassis va o'z kasbining ustasi bo'lib hisoblanadi. Bu o'ta muhim holat. Chunki intellektual salohiyat doim sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlarni kutishi bilan bog'liq. Eng oddiy holatda, agar odam unga bo'lgan ishonchni oqlamasa, bu shuni anglatadiki, yoki unga halaqit berishgan, yoki uning salohiyati noto'g'ri baholangan.

Ta'kidlash lozimki, intellektual salohiyat o'ta mazmunli va yetarlicha murakkab tushunchadir. Oldinlari undan ijtimoiy bilim kategoriyasi sifatida emas, balki ko'p hollarda boshqa ma'noda, ya'ni metafora sifatida foydalanishgan. Hozirda vaziyat o'zgardi. Postindustrial dunyoda aynan integrativ butunlik sifatida tan olinayotgan yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Hozirgi zamondagi jamiyat hayotida intellektual salohiyatga aloqador bo'lgan fan, ta'lim, yangi axborot texnologiyalarining roli oshib bormoqda. Iqtisodiyotlari bilimga asoslangan (intellektual iqtisodiyot) rivojlangan mamlakatlarning industrialdan yangi industrial, axborotlashgan jamiyatga o'tishlari, birinchi qatorga inson faoliyatining intellektual jihatlarini olib chiqmoqda.

Bunda bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Intellektual salohiyatga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar "Intellektuallashtirilgan asr"ning faol ishtirokchisi bo'la oladi, ma'naviy jihatdan yetuk bo'ladi, inovatsion jihatdan rivojlangan bo'ladi va bunday o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantira oladi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan ta'lim asosida intellektual faoliyatga tayyorlash hozirgi ta'lim sohasidagi va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sohasidagi eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari va vositalari negizida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash borasida bir qator olimlar tadqiqot ishlari olib borgan. Jumladan, B.S.Axmadaliev, U.Sh.Begimqulov O.J.Bobomurodov, I.Boynazarov, M.M.Vaxobov, A.V.Volosova, Z.Jamoliddinov, V.I.Zagvyazinskiy, A.N.Mexaylov, N.A.Muslimov, A.T.Nurmanov, Q.T.Olimov, Z.T.Raximov, N.I.Tayloqov, Sh.R.Turdiyev, X.A.To'raqulov, O.X.To'raqulov, U.X.To'raqulov, D.Yunusova, J.A.Xamidov va boshqalarning tadqiqot ishlari bo'lajak mutaxassislarni intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari qaralgan va ulardan zamonaviy intellektual salohiyatli, innovatsion rivojlangan kadrlar tayyorlashda didaktik asos sifatida foydalanish mumkin.

Xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi bo'yicha ham tadqiqot ishlari bilan shug'ullangan mutaxassis – olimlarimiz bor. Quyida ulardan ba'zilarining nomlarini keltiramiz: B.S.Abdullaeva, A.R.Meliboev, O'R. Nurjanova, N.X. Aripova, B.X.Raximov, N.U. Usmonov, S. Usmonov, X.A. To'raqulov, O'N. Farmonov va boshqalar ishlarida boshlang'ich ta'limga oid muammolar echimini topishga innovatsion yondashuvlar qilish masalalari qaralgan. O'rganib chiqilgan ishlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning u yoki bu qismini, ya'ni ayrim yo'nalishlarini intellektuallashtirishga erishilgan.

Endi "intellektual faoliyat" tushunchasini ochishga harakat qilaylik. Ko'pgina mualliflar odatda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va intellektual deb ataladigan uchta faoliyat turini ajratib ko'rsatishadi. Ularning orasidagi farqlarni tahlil qilib, ular intellektual faoliyat o'ziga xos xususiyatlarga ega (ma'lumot bilan ishlashga e'tibor berish, insonning intellektual qobiliyatlaridan foydalanish, malakalar) va quyidagi ta'riflarga javob berishini ta'kidlaydilar: intellektual faoliyat - bu iqtisodiy faoliyatning har qanday sohasida, shaxsning intellektual qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladigan va axborot bilan ishlashga qaratilgan mehnat faoliyati turi.



Hayot davomida ruhiy holat va intellektual qobiliyat bevosita ikkita omilga bog'liq: ta'lim va kasbiy malaka darajasi. Yoshlikda inson olgan bilim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, qarilikda shunchalik yaxshi aql saqlanib qoladi. Yosh yillarda olingan yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlar o'zlarining bilimlarini doimiy ravishda balog'at yoshiga yetmoqdalar, ya'ni butun umri davomida intellektual mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi. Bundan kelib chiqadiki, agar inson intellektual ish bilan shug'ullanadigan bo'lsa, u butun umri davomida o'qiydi, o'zini takomillashtirishga intiladi. Intellektual faoliyat natijalari insoniyatning eng qimmatli mahsulotlaridir, ular mamlakatlar va ularda yashaydigan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi hisoblanadi.

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.

Intellektual salohiyat quyidagi ikki tarkibiy qismga ega: amalga oshirilgan va amalga oshirilmagan. Amalga oshirilgan intellektual salohiyat to'g'risida gapirilganida biz hozirgi vaqtda xodimning mehnat faoliyati jarayonida foydalaniladigan imkoniyatlarining bir qismini nazarda tutamiz, masalan, uning ma'lumoti, bilimi, kasbiy malakasi va h.k. Amalga oshirilmagan salohiyat (rivojlanish salohiyati) optimal sharoitlarni hisobga olgan holda, qator omillar ta'sirida yuzaga chiqadi. Misol uchun, intellektual salohiyatni rivojlantirish xodimni ish beruvchining bevosita manfaatdorligi yoki barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyot tomonidan uning kasbiy-malakaviy darajasiga yangi talablarning qo'yilishi munosabati bilan o'qitish orqali amalga oshiriladi.

Intellektual salohiyatning mazmunini to'ldirish bo'yicha turli yondashuvlarni o'rgangan holda bu salohiyatni tavsiflovchi qo'shimcha tushunchalar sifatida quyidagilarni taklif etamiz: mehnat, ta'lim va ilmiy-tadqiqot salohiyati. Intellektual mehnat tavsifi intellektual salohiyatdan bevosita mehnat faoliyatida foydalanish darajasini aks ettiradi. Miqdor jihatidan mazkur tavsif intellektual salohiyatni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan aholining ulushida ifodalanadi. Intellektual salohiyatning keyingi tavsifi ta'lim bilan bog'liq. Xodim ma'lumotining darajasi va sifati mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi. Masalan, oddiy texnik savodxonlik ko'pgina mexanizmlar bilan to'ldirilgan sotsiomadaniy sohada ishlovchi xodimlar uchun ham zarur.

Intellektual salohiyatning ilmiy-tadqiqot tavsifi bevosita mehnat unumdorligining oshishiga ta'sir ko'rsatadigan kashfiyotlar, patentlar, atsionalizatorlik takliflarda namoyon bo'ladi. Ilmiy salohiyatni ilmiy-tadqiqot salohiyati sifatida talqin qilishni taklif etamiz, chunki mazkur indikatorni kiritishdan maqsad tadqiqotchilik layoqatining mehnat faoliyati pirovard natijalariga ta'sirini ko'rsatib berishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan ta'lim negizida pedagogik faoliyatga tayyorlash quyidagi natijalarni beradi.

Birinchidan, intellektuallashtirilgan ta'lim negizida o'qitish vositalari va tizimlari bo'lajak o'qituvchilarni intellektual kasbiy faoliyatga talablariga javob beradigan, zamon bilan hamnafas yura oladigan kadrlarni tayyorlashga xizmat qilishga asos bo'ladi.

Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash uchun ishlab chiqilgan pedagogik ta'lim bosqichlaridan amaliy faoliyatda foydalanish negizida ta'limda yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish mumkin va ta'lim oluvchilarni zamonaviy innovatsion yondashuvlar qilishga ham tayyorlash mumkin bo'ladi.

Uchinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni intellektual salohiyatini, ijodkorligini, bilimdonligini, turdosh fanlar yuzasidan salohiyatlilikni va inovatsion jarayonning faol a'zosi bo'lish sifatlarining shakllanishiga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018-yil 29-dekabr
2. To'raqulov X.A. O'razboyev S.E. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga

tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minoti va ta'lim mazmuniga qo'yilgan zamonaviy talablar, innovatsion yondashuvlar-ilm-fan taraqqiyoti kaliti sifatida: yechimlar va istiqbollar: Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani materiallar to'plami. Jizzax, 2020. –328-333.

3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi: Nasaf, 2000 y.
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: 2005
5. Shayxova X. Intellektual salohiyat-taraqqiyot mezoni. – T.: "O'zbekiston", 2011 – 12 b.

## **TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi**  
**Ravshanova Ziyoda Nuraliyevna**  
**Ahadova Muhayyo Nabi qizi**  
**NavDPI “Pedagogika va psixologiya”**  
**sirtqi ta'lim yo'nalishi talabasi**

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, tadbirkorlarning ijtimoiy-psixologik sifatлари, iqtisodiy erkinlik, xususiy tadbirkorlik.

**Ключевые слова:** предпринимательство, социально-психологические качества предпринимателей, экономическая свобода, частное предпринимательство.

**Keywords:** entrepreneurship, socio-psychological qualities of entrepreneurs, economic freedom, private entrepreneurship.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kundagi tadbirkorlik va tijorat faoliyatining inson hayotidagi ahamiyati, uning faoliyat sohalari hamda jamiyat hayotidagi o'rni tadbirkorlik ilmini bilish zarurligi haqida ma'lumotlar beriladi.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о значении предпринимательства и коммерческой деятельности в жизни современного человека, сферах его деятельности и необходимости знания науки предпринимательства.

**Annotation.** This article provides information about the importance of entrepreneurship and commercial activity in human life today, its areas of activity and the need to know the science of entrepreneurship.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotida xususiy mulkdor huquqini himoya qilish va uning mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, yerga, mulkka egalik hissini tarkib toptirish orqali ularda iqtisodiy bilim va iqtisodiy fikr yuritishning ham erkinlashuviga erishish mumkin. Boshqacha aytganda, iqtisodiy hayotni erkinlashtirishning muvaffaqiyati har bir fuqaroning mulkka bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib, tadbirkorlik kompetensiyalarini yanada kuchaytiradi.

Tadbirkorlik faoliyatida shaxsning muhim ijtimoiy-psixologik sifatлари qatoriga, ularning voqealarga bo'lgan, ya'ni katta talofat, muvaffaqiyatsizlik, xonavayron bo'lish va hokazolarga bo'lgan munosabatlari kiradi. Ayniqsa, tadbirkorlar o'z muvaffaqiyatsizliklarini qanday baholaydi, bu ularda qay tarzda kechadi va bunday holatlarda qanday harakat qilishadi – aynan shunisi katta ahamiyatga molik. Tadqiqot natijalariga ko'ra shunday xulosaga kelindiki, mag'lubiyatni boshidan kechirgan hamda muvaffaqiyatsizlikka hali duch kelmagan tadbirkorlar, real darajadagi tavakkalchilikka deyarli bir xilda baho berishadi. Faqatgina qiyinchiliklarni bosib o'tishda o'z imkoniyatlarini baholash bo'yicha ba'zi bir tafovutlar aniqlandi, lekin bu hali oxirigacha isbot etilmagan. Shu bois ham katta muvaffaqiyatsizlikning mavjudligini tadbirkor oldida turgan qiyinchiliklarni yechish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi deb bo'lmaydi. Shuningdek, iqtisodiy muvaffaqiyatsizlik sharoitlarida tadbirkorlar o'zlarini qanday tutishlari mumkinligini bilish ham o'ta muhim hisoblanadi. Ayni maqsadda tadbirkorga: “Katta muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik sharoitida Siz qanday ish tutar edingiz?”, – deb murojaat etilganda, atigi

17% tadbirkorlar tadbirkorlikni tashlab, boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlarini bildirishdi. 51% tadbirkorlar yuqori mustaqillikni, faollikni, o'z kuchlariga ishonchni namoyon etib, o'zlarini ro'yobga chiqarishlarini ta'kidlashdi. 31,4% tadbirkorlar esa muvaffaqiyatsizlik holatida ishonchli sherik qidirib topishga harakat qilishlarini bildirishdi. Tadbirkorlikning rivojlanishi bevosita tadbirkorlarning o'z faoliyati muvaffaqiyatiga bergan baholariga, ya'ni oldilarida turgan muammolarni yechishlaridagi shaxsiy imkoniyatlarga va qiyinchiliklarni bosib o'tishlariga bog'liqdir. Tadbirkorlar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 80% tadbirkorlar o'z imkoniyatlarini yuqori baholagan bo'lsalar, 20%i o'z imkoniyatlariga aniq baho berishga ikkilanishgan. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, tadbirkorlar aksariyat qismi o'z imkoniyatlari va muvaffaqiyatlarini bir-biriga yaqin, o'xshash baholashdi. Bu esa tadbirkorda faoliyatdagi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi o'z imkoniyatlarini ko'ra bilish va mustaqillikning muhim o'rin tutishidan dalolat beradi. Muvaffaqiyatni yuqori baholash ijobiy holat hisoblanib, bu statistik jihatdan tadbirkorlarning ishonchlilik va raqobatbardoshligini baholash bilan bog'liqdir. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yaxshi iqtisodiy sharoitni baholash 7 balli shkala bo'yicha o'tkazildi. Shu bilan birga, ushbu masala bo'yicha 5% darajadagi ishonchli farqlar topildi. O'zbekistonning markaziy shaharlaridan kelgan tadbirkorlar toshkentliklarga nisbatan yaxshiroq tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va rivojlanishtirish uchun asosiy omil sifatida yaxshi iqtisodiy shart-sharoitni baholadilar. Korrelyatsion tahlil natijalari ham biznesning samarali rivojlanishi ushbu omilga, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshi tashkillashtirilishiga bog'liqligini ko'rsatdi. O'tkazilgan to'rtta qiyosiy tahlillarning barchasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga jalb qiluvchi hamda undovchi (motivlovchi) psixologik omillar orasida tadbirkorlar o'zini takomillashtirish, mustaqillik, moddiy ta'minlanganlik, atrofdegilar orasida obro'-e'tiborga, mavqega ega bo'lish, boshqa insonlar uchun ishning foyda keltirishi, shuningdek, ushbu faoliyat turining tamomila yangi ekanligini sanab o'tishdi. Shuningdek, o'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini ham berdi: Birinchidan, kishilarda o'zlarining xususiy biznesini tashkil etishga turtki beradigan yana bir motiv davlat tasarrufidagi hamda budget tomonidan moliyalashtiriladigan korxonalar va tashkilotlardagi ish haqining pastligi hisoblanadi. 2010-yilda 46%, 2020-yilda 80% respondent tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishga turtki bo'lgan dastlabki omillardan biri deb e'tirof etgan bo'lsalar, 2022-yilga kelib, bu ko'rsakich 84% o'sgan. Buni joriy yilda ham pulning qadrsizlanishi, inflyatsiyaning o'sishi, joylardagi ayrim korxonalar hamda tashkilotlarning bankrotlik e'lon qilishi va natijada majburiy ishsizlikning oshishi bilan izohlash mumkin. 2021-yilga kelib esa hukumat tomonidan amaldagi qonun-qoidalarga jiddiy o'zgartirishlar kiritilishi, ya'ni bozorni, yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning faoliyatini ma'lum tizimga solinishi, import va eksport operatsiyalariga qat'iy talablarning joriy etilishi, bu sohada ham ayrim o'zgarishlarni yuzaga keltirib chiqardi. Shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 3.4-bandida "Yakka tartibdagi tadbirkorlikning rivojlanishini yanada qo'llab-quvvatlash va mazkur sohada qonunchilikni takomillashtirish, bunda yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy tadbirkorlar faoliyatini... asossiz cheklovlarni bekor qilish" vazifasi belgilanganligi sabab bo'lsa kerak, joriy yilga kelib 24,6%gina tadbirkorlar davlat sektoridan xususiy sektorga o'tib faoliyat yuritishdan bosh maqsad bu ish haqi ekanligini yetakchi omil sifatida e'tirof etishdi; ikkinchidan, yana yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, bozordagi ushbu ustuvor o'zgarishlar ayrim tadbirkorlarimizda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyish etish xususiyatini yaqqol namoyon etdi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, ushbu motivni 2001-yilda 25% tadbirkor, 2003-yilda 31% tadbirkor, 2005-yilda 36,5% tadbirkor va nihoyat 2007-yilda 48% tadbirkor javoblarida motivlar ichida ushbu motiv eng yuqori omil ekanligi e'tirof etilgan. Bu esa o'z navbatida, tadbirkorlar orasida ushbu faoliyatning shaxsiy qiymatga aylanib borayotganligining dalolatidir; uchinchidan, aniqlanishicha, 2005-yil tadbirkorlar bir necha boshqa sabablarni, ya'ni xususiy biznesni tashkil etish – bu tadbirkorga mutaxassislikni oshirish imkoniyatini (7%), ko'proq o'z vaqtiga ega bo'lish imkoniyatini (16%) va yaxshi jamoada ishlash imkoniyatini (21,5%) beradi, deb alohida ta'kidlab o'tishgan bo'lishsa, 2007-yilga kelib, tamomila yangi motiv mulkdor bo'lish imkoniyati (36%) borligini ham e'tirof etishgan. Bu esa yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarimizni yana bir tasdiqlaydi. Har bir motivlarning mavjud ahamiyatini tekshirib ko'rish maqsadida, tekshiriluvchilarni xuddi shu motivlarga o'zlaridan kelib

chiqqan holda emas, boshqa tadbirkor va biznesmenlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga nima undaganini aytib berishlari asosida salmoqli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Ularning fikricha, iqtisodiy omillar – tadbirkorlik faoliyatida deyarli birinchi darajali motiv hisoblanar ekan. Boshidayoq u insonni ushbu faoliyat doirasini tanlashga undar ekan, shundan so'nggina faoliyat jarayoni mobaynida, inson boshqa tomonlarni ko'ra biladi. Bunda birinchi darajali ehtiyojlarning qondirilishi natijasida, moddiy ta'minlanish motivi motivatsion strukturaning pastki darajalariga siqib tushiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'rganilgan respondentlarning 45%ini fikricha, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishidan asosiy maqsad – bu iqtisodiy moddiy ta'minlanish emas, balki mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida mulkdor sifatida o'zini takomillashtirish va ro'yobga chiqarish imkoniyatining mavjudligi ekan. Mazkur tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha 30% (2005), 25% (2007) respondentlarimiz uchun ijtimoiy munosabatlarga kirishish muammosi qolgan har qanday ehtiyojdan ustun ekan. Bu o'rinda moddiy ehtiyoj 2005-yilda 10%ni, 2007-yilda esa 11%ni tashkil etib, biznesni tashkil etish va uni ravnaq toptirishda mos ravishda 8%, 12% respondent xavfsizlik choralarini ko'rishni maqsadga muvofiq alohida e'tirof etdilar. Tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishishda tan olinish ehtiyoji 2005-yilda 7%, 2007-yilda 15% respondentda ustunlik qildi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlik subyektlari ongida “mening mulkim”, “men mulkdorman” kabi mantiqiy xulosalarni shakllanganligi orqali ham izohlanadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil 86 O'zbekistonimizda tadbirkorlik asosiy o'rinlardan birini egallagan, tadbirkor esa iqtisodiy qobiqda asosiy tayanch nuqtasi bo'lib qolmoqda. Ularning mas'uliyati butun bir mamlakat maqsadlarini ro'yobga chiqarishdir. Tadbirkor deganda, biz bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish uchun ma'lum bir muammolarni yechishda ta'sir ko'rsatuvchilarni tushunishimiz lozim. Hozirgi zamon tadbirkorining asosiy ish mazmuni shundan iboratdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-jild – T.: 2000-yil.
2. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: «Mehnat», 2004
3. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Иқтисодий психология. Маърузалар матни. – Т.: 2002.
4. Кузин Ф.А. Делайте бизнес красиво. – М.: ИНФРА-М, 1995.
5. Лутфуллаева Н.Х. Турмуш курган талабаларнинг оилавий муносабатларга тайёрлигининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Дис. ... психол. фан. ном. – Т.: ТДИУ, 2006.
6. <https://azkurs.org/>
7. <https://ziyonet.uz>

#### NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARGA TA'LIM SOHASIDA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

NDPI Tarix mutaxassisligi doktoranti  
Asadov Muhammad O'tkir o'g'li  
Ilmiy rahbar: dots. R.N.Tolibov

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda ta'lim sohasida nogironligi bo'lgan shaxslarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularning davlat tamonidan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi, bu boradagi amaliy vazifalar ijrosi va muammolari masalalari yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** nogironlik, inklyuziv ta'lim, inson, huquq, jamiyat, voyaga yetmaganlar, huquqiy ong, reabilitatsiya, yordam, ijtimoiy himoya.

**Аннотация.** В данной статье освещаются вопросы возможностей, создаваемых в Узбекистане лицами с ограниченными возможностями в сфере образования, защиты их прав и законных интересов со стороны государства, выполнения практических задач и проблем в этой области.

**Ключевые слова:** Инвалидность, инклюзивное образование, человек, право, общество, несовершеннолетние, правосознание реабилитация, помощь, социальная защита.

**Annotation.** This article try to highlight the opportunities created in Uzbekistan for persons with disabilities in the field of education, the protection of legal meanings from the state, the implementation and problems of practical tasks in the regard.

**Keywords:** Disability, inclusive training, human, law, society, minors, legal consciousness rehabilitation, assistance, social protection.

Mamlakatimizda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zamirida, avvalo, har bir inson uchun hech kimdan kam bo'lmagan munosib hayot va turmush sharoitlarini yaratishdek ezgu g'oya mujassamdir. Ayniqsa, aholining ko'pchilik qismini ya'ni, 64 foizini tashkil etayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol kamol topishi uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlarni yaratish, ularni har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan vazifa sifatida doimo davlatimiz siyosatining markazida bo'lib kelmoqda.

O'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida yoshlar jamiyatning kelajagidan dalolat beradi. Chunki aynan ular yuz berayotgan o'zgarishlarning indikatorlari hisoblanadi va jamiyat rivojlanishining salohiyatini belgilab beradi. Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekistonda 10 million 360 ming kishi 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarni, 17 million 80 ming kishi esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni yoki butun aholining 64 foizini tashkil qiladi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarni jamiyatning barcha jabhalarida kuzatish mumkin.[1]

Binobarin, yoshlarimiz tarkibida nogironligi bo'lgan shaxslar ham mavjudki, ularni huquqiy muhofazalash, hayot va turmush tarzini yaxshilash, ta'lim-tarbiya olishlari, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning ishga joylashish, oliy ta'lim olishiga ko'maklashish, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlash muhim vazifa sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir", – deb belgilangan. [2]

Imkoniyati cheklangan shaxslarga nafaqat O'zbekistonda balki, butun jahonda e'tibor kuchaygan. Bu BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasidir. Ushbu konvensiya 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan. Bugunda dunyo aholisining 15% yoki qariyb 1 milliard insonning nogironligi bor. Shu ko'rsatkichning 2 yoki 3 foizini O'zbekiston aholisi o'rtasida qayd etish mumkin. Shavkat Mirziyoyev 2022-yil dekabr oyida "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan murojaat yo'llar ekan, inklyuziv jamiyatni barpo etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'kidladlab: "Ishontiribaytamanki, sizlar o'zlarinigizni yolg'iz his etmasligingiz uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz" deya ishonch bildirdilar. [3]

Jahon banki tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonda rasman 2022-yilda 845,3 ming kishi yoki umumiy aholining 2,3 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar deb tan olingan.[4] Jumladan, O'zbekistonda 142,3 ming nafar 18 yoshgacha bo'lgan nogironligi bor bolalar va 396,7 ming nafar pensiya yoshiga yetmagan nogironligi bo'lgan shaxslar bor. Nogironligi tasdiqlangan erkaklar (475,8 ming) soni ayollarga (369,5 ming) nisbatan ko'proq. Nogironligi bor shaxslarning katta qismi qishloq joylarda yashaydi: qishloqlarda 532 ming, shaharlarda esa 313,3 ming nafar. Bu borada eng yuqori ko'rsatkich Navoiy (3,6 foiz) va Sirdaryo viloyatlarida (3,1 foiz) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,9 foiz) kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 1-avgustdagi PF-5006-sonli farmoyishi bilan tashkil etilgan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish" ga qaratilgan farmoniga ko'ra, nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish, ishga joylashtirish va ahvolini chuqur kompleks o'rganishga doir amaliy vazifalar belgilandi. Yurtimizda onalar va bolalarning sog'ligini muhofaza qilish, nogiron bolalarni tug'ilishini oldini olish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash uchun bir qancha chora-tadbirlar

amalga oshirilmoqda. Aytib o'tish kerakki, O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun, 2021-yil 21-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 27-fevralda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Prezident qarorlari qabul qilindi. Ayniqsa, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi 417-son qarori: "Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugun mamlakatimizda yuqorida qabul qilingan davlatimiz farmonlari va qarorlari asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng avvalo, nogironligi bor shaxslarning huquqiy muhofazasi ta'minlanmoqda. 2023-yil 17-noyabr qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra, nogironligi bo'lgan 18yoshgacha bolalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga to'lanadigan nogironlik nafaqasi oyiga 800 000 so'm etib belgilandi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya, ilm-fan, intellektual salohiyatni yuksaltirish, zamonaviy taraqqiyotning yetakchi qonuniyatiga aylandi. Jahon bankining ma'lumotlariga tayanganda dunyoning yetakchi mamlakatlarining nufuzli olimlari va ixtirochilarining (17%) nogironligi borligi ma'lum bo'ldi. Darhaqiqat, xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad deb bilmqda. Intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrardir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, nogironligi bor shaxslarga, ayniqsa, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratish davlatimizning birinchi navbatdagi vazifasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berildi. 2022- yilida O'zbekistonning barcha hududlaridagi 225 umumta'lim maktabi imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'z eshiklarini ochdi. 2023-yilda Respublikaning hamma hududlarida ham ta'limga inklyuziv yondashuv joriy etildi. Bugunda inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda, bilim va ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etilmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Biroq o'rganish shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablari hali bu ta'lim turiga tayyor emas, ayrim muammolar ham qalqib chiqyapti, chunki ularda nogiron bolalar uchun qulay infratuzilma va hojatxonalar, ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan qulayliklar ta'minlanmagan. Binobarin, malakali kadrlar ham mavjud emas. Jumladan, surdo-tarjimonlar, ko'zi ojizlar uchun Brayl alifbosi darsliklar yetishmaydi yoki zamon talablariga qisman javob beradi, xolos. Ayniqsa, o'qishda va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'qituvchi va repetitorlarga ehtiyoj sezilmoqda. Mazkur muammolar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy yechimini talab qiladi va kutmoqda.

Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq uzluksiz ta'limni davom ettirish maqsadida Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilinishi muhim qadam bo'ldi.[5] Birgina Navoiy davlat pedagogika institutiga 327 nafar nogironligi bor talabalar qabul qilindi. Shundan 17 nafari magistraturada, 3 nafari esa doktoranturaga tahsil olmoqda. Lekin o'quv-tarbiya jarayonida ularning to'laqonli bilim olishlariga doir ba'zi bir muammolar ham qalqib chiqmoqda. Chunonchi, binolarda nogironlar va nogironlarning o'tishini osonlashtiradigan maxsus qurilmalar, liftlar, panduslar mavjud emas. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot texnologiyalaridan qulay formatlarda, imo-ishora tilida va boshqa muqobil aloqa shakllarida (panduslar, liftlar, imo-ishora tilidan tarjimalar,

ovozli va vizual signallar va boshqalar) foydalanish imkoniyatlarini yaratish lozimligi namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib ta'kidlaganda, ta'lim tizimida maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlash, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish lozim. Ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish doirasida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning shakl va mexanizmlarini yangilash ta'lim texnologiyasi va kredit modul tizimini takomillashtirish zarur. Jumladan, ushbu sohadagi munosabatlarni ta'lim amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamon talabi asosida tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish, tartibga solish, xalqaro tajribalardan unumli foydalanish zarur deb bilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Ubaydullayev R.A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. T. 2008. 8-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 57-modda.
3. <https://gazeta.uz/uz/2022/12/02day/>
4. <https://t.me//wbusbekistan/1216>.
5. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi 417-son qarori. "Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida" gi Nizom.

#### **RAG'BATLANTIRISH METODI BO'YICHA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**Jumakulova Mavludaxon Xosilovna**  
**Andijon davlat pedagogika instituti**

**"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi**  
**mavludaxonjumakulova0@mail.com**

**Turdiyeva Shohsanam**  
**Andijon davlat pedagogika instituti**  
**2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada rag'batlantirish metodi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishning didaktik imkoniyatlari yoritib berilgan. Rag'batlantirishning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari yurtimiz olimlarning fikrlariga, ilmiy tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** rag'batlantirish, o'quv jarayoni, maqtov, o'quv motivi, rag'bat turlari, tashqi mayl, aktiv faoliyat, ichki mayl.

Hozirgi globallashuv asrida jamiyatni isloh etish sharoitida kreativ fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimiga jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etmoqda. Har bir davlatning rivojlanishi, istiqboli, tinchligi, ma'naviy yuksalishi – bilimli, yuqori salohiyatli, vujudi pok fazilatlar mujassamlashgan yoshlarga bog'liq bo'lib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan uchun chin yurakdan xizmat qiladigan, fidokor avlodni voyaga yetkazish, o'qitish sifati va mazmunini yuqori pog'onalarga olib chiqish, avvalo, o'qituvchi zimmasiga sharafligi, ayni paytda, mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi ta'lim sohadagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan maktab o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni ma'naviy-axloqiy, intellektual salohiyati, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan dasturdir. [1] Sh.M.Mirziyoyev ta'lim tizimi xususida shunday fikrlarni bildirib o'tadi: "Moddiy va ma'naviy hayotni uyg'un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo'g'in bo'lishi lozim. Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur".[2]

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim. O'quvchilarning bilim, malaka, ko'nikmalarini nazorat va



baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi.

Pedagog o'quv jarayonida o'quvchilarning xulq-atvoridagi ijobiy o'zgarishlar, egallagan bilimlarining hajmi ortib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Shundagina o'quvchi o'zining rivojlanayotganini ko'ra biladi, o'z-o'ziga, o'z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonch bildiriladi, jamoada ma'lum mavqeyiga ega bo'ladi, o'qituvchini qiziqtiradi, ular bir-birlariga ishonishadilar. Pedagog bunga erishish uchun rag'batlantirish metodidan foydalanishi lozim. Rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan qobiliyat va fazilatlarining kuchini e'tirof etishga aozlangan. Rag'batlantirish o'quvchiga o'ziga bo'lgan ishonchni beradi, quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llanadi;

1. O'quvchining kuchi yetadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi;
2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
3. Esdalik sovg'asi (o'quv qurollari, kitob)
4. Maqtov yorlig'i berish;
5. Stipendiya bilan taqdirlash;
6. Hurmat taxtasiga fotosurat qo'yish;
7. Mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
8. Safda birinchi o'rinda turish;
9. Musobaqalarda bayroq ko'tarish;
10. Gazeta-jurnal va radio-televidiniyelarda e'lon berish.

O'quv jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish deb shaxsni aktiv faoliyatga bo'lgan tashqi mayliga aytiladi.

Rag'batlantirish – o'qituvchi faoliyatining muhim qismidir. Ammo rag'batlantirish insonning ichki mayliga ta'sir qilganda aniq maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. Shu bilan birga yana bunday ichki undash faqat tashqi rag'batlantirishlar ta'siridagina emas, balki o'quvchilarning o'z-o'zining ta'sirida ham, uning oldingi tajribasi, ehtiyojlari va hokozolar ta'sirida yuzaga keladi.

O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri – o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishdir. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi va uni yanada yaxshiroq o'qishga undaydi. Rag'batlantirish yo'llari bu yaxshi baho qo'yish, maxsus tanlangan topshiriqlar berish, fotosuratlarini maxsus rag'batlantirish oynalariga ilish kabilardir. Muvaffaqiyatga erishish vaziyatini o'quvchining oraliq harakatlarini rag'batlantirish, ya'ni uni yangi zo'r berishlarga maxsus undash yo'li bilan ham tashkil qilish mumkin. Muvaffaqiyat vaziyatlarni yaratishda u yoki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida qulay ma'naviy-ruhiy muhitni ta'minlash muhim o'rin egallaydi.

Rag'batlantirish va tanbeh berish usullari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Masalan, baho bilan rag'batlantirish, maxsus tanlangan topshiriqlar berish yo'li bilan o'qishdagi muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, imtiyozli stipendiyalar tayinlash, tajriba va laboratoriya ishlarini tayyorlashda qatnashish, ekranlarni jihozlashlari orqali rag'batlantirish; bilimlarni jamoatchilik tomonidan ko'rish yakunlariga qarab rag'batlantirish va hokozolar.

Olim B.S. Abdullayev har qanday rag'batda ma'lum bir me'yorning bo'lishi, haddan oshib ham kamayib ham ketmasligi, taqqoslash, kamsitish yo'l qo'yimaslik, rag'batni to'g'ri yo'naltira olish lozimligini ta'kidlaydi. [3]

Olimalar Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S rag'batlantirishning turli shakllarda ekanligini ta'kidlab, ayniqsa, ko'ngil ko'tarishning qator afzalliklari haqida fikr bildiradi: "Ko'ngil ko'tarish tarbiyalanuvchilarga kuch bag'ishlaydi va ularda optimizmni o'stiradi va ularning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi".[4] O'quvchilar maktab hayotlarida turli vaziyatlarga duch kelishadi. Ba'zi vaqtlarda muvaffaqiyat qozonsa, ba'zida aksi bo'lishi mumkin. Bu holat ularni quvontirib ilhomlantishi, yoki aksincha, ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda ularga dalda berish ko'ngillarini ko'tarish, ularni



qiziqishlarini oshirish kerak. Ko'ngil ko'tarish, ishonch bildirish o'quvchini tetiklashtiradi va keyingi muvaffaqiyatlariga ilk qadam bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar o'qituvchi tabiatiga xos bo'lgan mehribon, pok qalbli, bilimli, shirinsuxan kabi fazilatlarini hurmat qiladilar. O'qituvchi tomonida "balli", "barakalla", "yaxshi" kabi so'zlarni ishlatilishi o'quvchilar uchun rag'batdir.

Ta'lim jarayonida rag'batlantirish metodini qo'llash, ya'ni o'quvchilarni o'rganish va ta'lim jarayonlariga qiziqtirish uchun turli usullardan foydalanishni anglatadi. Bu metodlar, o'quvchilarni darslarga qiziqtirish, ularning fikr-mulohazalarini qiziqtirish, o'quvchilar orasida hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va ta'limni o'zlashtirishni maqsad qiladi. Rag'batlantirish metodlari, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'rganishlarini o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Yurtimiz olimlaridan J.Xasanboyev va X. To'raqulovlar o'z ilmiy ishlarida rag'batlantirishning o'quvchilar psixologik xususiyatlariga ta'siri haqida o'z fikrlarini bildiradi: "Rag'batlantirish o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyatini va xulqiga mas'uliyatini oshiradi" [5]. O'quvchilarni rag'batlantirishning ta'lim jarayonida ko'plab afzalliklari bor. Quyidagi muhim afzalliklardan ba'zilarini ko'rsatish mumkin:

1. Muvaffaqiyatga erishish: O'quvchilarni rag'batlantirish, ularning o'zlarini maqsadga yo'naltirish va unga erishishga qodir bo'lishlari uchun muhimdir. Bu ularning o'zini o'zlashtirish va rivojlantirish uchun muhim motivator bo'ladi.

2. Ta'limning maqsadlariga ega bo'lish: O'quvchilarga ta'limning maqsadlarini tushuntirish va ularga qiziqish yaratish, ularni o'rganish va rivojlantirishga yordam beradi.

3. Qat'iylikni qo'llab-quvvatlash: O'quvchilarning muvaffaqiyatiga yetishishlariga yordam berish uchun o'qituvchining qat'iylikni qo'llab-quvvatlashi zarurdir. Ular o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, maslahat bermoq va ularning muammolarini hal qilishga yordam beradi.

4. Muvofiq o'quv usullari va turli o'quv mexanizmlari: Har bir o'quvchi o'ziga xos o'qish usullari va ta'lim mexanizmlari bor. Ba'zilariga sinflarda amaliy mashg'ulotlar, ba'zilariga esa o'zlashtirilgan dars materiallari yordam berishi mumkin. O'quvchilarni rag'batlantirishda, ularning o'zlariga eng muvofiq bo'lgan usul va mexanizmlardan foydalanish juda muhimdir.

5. Ko'rsatkichlar va mukofotlar: O'quvchilarni rag'batlantirish uchun motivatsiyani oshirishda ko'rsatkichlar va mukofotlar juda muhimdir. Muvofiq natijalarni qozonish, o'quvchilarni o'rganish va rivojlantirish uchun ularni ma'lum bir darajaga ko'tarish uchun ularning qo'llanishini rag'batlantirishi mumkin.

6. O'quvchilar bilan aloqani o'rnatish: O'qituvchilar o'quvchilar bilan faol aloqani o'rnatish orqali ularning qiziqishini oshirish va ularni o'rganishni rag'batlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini bayon etish, savollar berish va o'rganishni kuchaytirish uchun muhim bir vosita.

7. Ko'rsatilayotgan foydalardan foydalanish: O'quvchilarni rag'batlantirish uchun o'quv jarayonida ko'rsatilayotgan barcha foydalar(mukofotlar) va imkoniyatlardan samarali foydalanish muhimdir. Bu o'quvchilarning ta'limni amalda qo'llashda qiziqishlarini va e'tiborni oshirishga yordam beradi.

8. Individual hamda guruhda yordam berish: O'quvchilarning har biri individual darajada rag'batlantirilishi kerak. Ba'zilar individual yo'riqnomalar, maslahatlar va qo'llab-quvvatlash bilan rag'batlantirish mumkin, boshqalar esa guruhda ishlash orqali rag'batlantirilishi mumkin.

Bu afzalliklar, o'quvchilarni rag'batlantirish uchun asosiy vositalar bo'lib, ularni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga yo'l qo'ymoqda katta ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.– T.;2020 yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylarning mavqeani oshirish" ga bag'ishlangan video selektor. – T.; 2019 yil 23may,№ 3PY-542

3. Abdullayev B.S., Xoliqov A.A va boshqalar "Umumiy pedagogika" oliy o'quv yurtlari uchun darslik.– T: "Innovatsiya-Ziyo",2021

4. Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S. Baxronova A.I “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv qo‘llanma.– Buxoro.; 2021.
5. J. Xasanboyev, X. To‘raqulov va boshqalar “Pedagogika”. Oliy o‘quv yurtlari uchun dasrlik. –Toshkent:”Noshir”, 2011.

## **TA’LIM VA HAYOT O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK TAMOYILI ASOSIDA MAKTAB O‘QUVCHILARINING KIMYOGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH**

**Narimova Venera Polatovna**  
**NavDPI Kimyo kafedrası o‘qituvchisi**  
**Gmail: [vnarimova@gmail.com](mailto:vnarimova@gmail.com)**  
**Yo‘ldashova Mohira Xudoybergan qizi**  
**NavDPI Tabiiy fanlar fakulteteti**  
**Kimyo (kechki) ta’lim yo‘nalishi**  
**301-guruh talabasi.**

**Annotatsiya.** Maqolada ta’lim-tarbiya, ta’lim nazariyasi haqida tushunchalar berilgan. Shuningdek, maktab o‘quvchilarning kimyoga bo‘lgan qiziqishini oshirish yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, ta’lim nazariyasi, axborot texnologiyalar.

**Аннотация.** В статье даны понятия о воспитании, теории воспитания. Также в школе повышен интерес учащихся к химии.

**Ключевые слова:** образование, теория образования, информационные технологии.

**Abstract.** The article presents the concepts of education, the theory of education. Students' interest in chemistry has also been increased at school.

**Keywords:** education, theory of education, information technology.

Bugungi kunda ilmiy-texnika taraqqiyoti, axborot-kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan davrida yashayapmiz. Bularning barchasini kimyo taraqqiyotisiz amalga oshirish mumkin emas. Kimyo eng gumanistik yo‘naltirilgan tabiiy fanlardan biridir, uning muvaffaqiyatlari doimo insoniyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Maktabda o‘qitishning asosiy vazifasi kelajakda barkamol shaxsni shakllantirishdir. O‘quvchilarning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun o‘rta maktab kursida atrofdagi dunyoda ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘rganishda yaxlit yondashuv asoslarini yaratish kerak. Kimyoni o‘rganish o‘quvchilarning dunyoqarashini va dunyoning yaxlit ilmiy tasavvurini shakllantirishga, kundalik hayot muammolarini hal qilish uchun kimyoviy ta’lim zarurligini tushunishga, atrof-muhitga hurmatni tarbiyalashga yordam beradi.

Hozirgi kunda jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta’lim-tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishi, umumta’lim maktablarida amalga oshirilganini o‘rganish orqali Respublikamiz milliy ta’lim tizimlarini yangidan tashkil qilishda, ta’lim-tarbiyada umumta’lim maktablari ishini tashkil etishda eskirib, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo‘lish, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalariga ega bo‘lishimiz uchun hozirgi zamon ta’limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi zarur.

Inson butun umri davomida intellektual qobiliyatini rivojlantirishga harakat qiladi va uning rivojlanishida maktab, u o‘rganadigan fanlar katta rol o‘ynaydi. Har bir darsda, o‘rganilayotgan mavzuni fikriy shakllantirish va rivojlantirish uchun esa bu fanga qiziqish uyg‘otish talab etiladi. Kimyoni o‘qitishda o‘yin vaziyatidan foydalanish, muammoni muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

Kimyo o‘qituvchisi o‘z mehnatini ilmiy tashkil qila olishi uchun o‘quv tarbiyaviy jarayonlarni aniq rejalashtirishi, yangi ilmiy-metodik adabiyotlar bilan uzluksiz ishlashi, ilg‘or pedagogik ish tajribalarini o‘zlashtirib borishi, dars samaradorligini oshirish uchun pedagogik tajriba o‘tkazish usullarini to‘liq egallab olishi, doimo ijodiy izlanishda bo‘lishi, o‘quvchilar mehnatini yengillashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llarini puxta egallagan bo‘lishi kerak.

Ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan

belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib brogan.

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda o'qish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi — o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi, kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi.

Ta'lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba'zi nazariyalar ta'limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'lmagan hodisa sifatida baholasalar, ba'zisi ta'limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a'zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta'kidlaydi.

Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani kabi ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

Ta'lim o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Didaktik tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi. Ta'limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek, muayyan o'quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o'zgarib boradi.

Ta'limni isloh qilish va uni amalga oshirishdagi asosiy mas'uliyat o'qituvchi zirnmasidadir. Shuning uchun xorijiy mamlakatlarning ilg'or pedagoglari bilan raqobat qila oladigan va zamon talablariga javob beradigan g'oyaviy yetuk o'qituvchi kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatlarini shakllantirish ta'limni isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlod ma'lum bilimlar yig'indisini bilibgina qolmay, mustaqil avlod quruvchiga xos ma'naviyat va ma'rifat egasi bo'lib, o'zining mehnatga munosabati va xulq atvori hammaga havas qildiradigan bo'lishi kerak.

O'qituvchi mukammal shakllangan kimyo fani bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak. U kimyo fani, kimyoviy bilimlar va amaliy uslublardan tashqari bolalarning yoshiga qarab psixologiyasini bilishi kerak. U oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish uslublarini mukammal egallashi kerak. O'zi dars beradigan fanning didaktik asoslarini bilib, bilimni berish umumiy uslublarini bolalar yoshlarini hisobga berib, o'zining hayotiy tajribasiga asoslanib bilimni yetkazishi kerak. O'qituvchi o'zining bilimini hamma vaqt to'xtamay oshirib borishi shart, ya'ni pedagogik texnologiyalarini egallashi, o'quv jarayoni mukammallashtirishga harakat qilishi kerak. Chunki o'qituvchi o'z izlanishlarida to'xtab qolsa, ertasiga u shablon qotgan fikrlab qoladi va yuqori havas qiladigan darajadagi insonlar orasidan chiqib qoladi va o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat ozayadi, bolalar unga taqlid qilishi, havas qilishi yo'qola boshlaydi.

Fan va texnikaning rivojlanishi o'quvchilarni bilimlar oqimiga va voqealar to'lqiniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirmoqda. Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, o'quvchilar bilim faoliyati yuqori, aqliy faoliyati yaxshi va mustaqil fikrlay olishi zarur. O'quvchilardagi bunday xislatlarni maktab o'qituvchilari rivojlantirib boradilar. Mustaqil yurtimiz ravnaqi uchun kelajak avlodimiz uchun bunday sharaflil ishda mas'uliyat bilan ishlash har bir pedagogning burchi hisoblanadi. Bunday mas'uliyatli ishni hal etish o'quvchilarni chuqur va mustahkam bilimlar bilan qurollantirish, fanga qiziqtirish, mustaqil ishlash va fikrlashga qaratishni uslubiga bog'liq. Har qanday mutaxassis o'z ishi metodikasiga qanchalik e'tibor bersa, u shunchalik katta natijalarga erishadi. O'qituvchi ishining asosiy o'qitish metodikasi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash metodikasidir. Kimyo o'qituvchisi ishining

asosi – kimyo o‘qitish metodikasidir.

Kimyo o‘qitish o‘quvchilarni tarbiyalashning qudratli vositasidir, kimyo o‘qitish o‘quvchilarni mehnatsevar va Vatanga muhabbat qo‘yadigan qilib, fanga chuqur qiziqadigan qilib, ilmiy predmetlar to‘g‘risida mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega qilib, ijodiy faollik ko‘rsatadigan, kimyodagi asosiy tushuncha va qonunlarning tadrijiy-tarixiy rivojlanishiga to‘g‘ri nuqtayi nazardan qaraydigan qilib tarbiyalashi kerak. Kimyo o‘qitish uslublaridan, xususan, kimyo o‘qitishga xos uslublar hamda umumpedagogik uslublarni qo‘llash mumkindir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Golish L.V. "Ta'limning faol uslublari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish" – T. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi, 2001 yil.

2. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари – Т.: 2006.

3. Madumarov T., Kamoldinov M.. Innovation pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash. – «Toshkent-Talqin» 2012.

4. Ismatov I.Sh., Omonov H.T., Mahmudov Yu.G‘., Kenjayev D.M., Qo‘chqorov M.A., Xolmirzayev Z.J. Xolmatova D.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari. "Yangi nashr" Toshkent – 2016.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHIDA TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI**

**Ne‘matova Sevinch Axmadovna**

**NavDPI Maktabgacha**

**Ta’lim yo‘nalishi talabasi**

**Ergasheva Lobar Dilmurod qizi**

**NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida tasviriy faoliyatning ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilib, bolajonlarni ongli tomondan tarbiyalashdagi ahamiyati, etika-estetikani rivojlantirish va rasm, loy, qirqib yopishtirish, chizish, har xil applikatsiyalar yasash orqali jismonan rivojlantirish, tasavvur qilish qobiliyatini o‘stirish hamda tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari taraqqiy etishi va bu jarayonda tarbiyachi qanday metod va usullar qo‘llashi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** rasm, loy, ranglar, qog‘oz, bo‘yoqlar, plastilin, sezgi, jamoa, tasavvur, o‘yin, estetika.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение изобразительной деятельности во всестороннем развитии детей дошкольного возраста, ее значение в сознательном воспитании детей, развитии этики и эстетики, физическом развитии способности воображать посредством рисования, глины, вырезания и наклеивания, рисование, изготовление различных аппликаций. Думается о развитии мыслительных операций детей в процессе рисования и изобразительной деятельности, а также о том, какие приемы и приемы должен использовать педагог в этом процессе.

**Ключевые слова:** живопись, глина, краски, бумага, краски, пластилин, интуиция, команда, воображение, игра, эстетика.

**Annotation.** This article discusses the importance of visual activity in the all-round development of preschool children, its importance in raising children consciously, developing ethics and aesthetics, and physically developing the ability to imagine through painting, clay, cut-and-paste, drawing, making various appliques. It is thought about the development of children's thinking operations in the process of painting and visual activity, and what methods and methods the teacher should use in this process.

**Keywords:** painting, clay, colors, paper, paints, plasticine, intuition, team, imagination, play, aesthetics.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida tasviriy faoliyatning ahamiyati kattadir. Tasviriy faoliyat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolajonlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining bir qismi hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bolalarda estetik tarbiya rivojlanishining asosiy vositalaridan biridir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi, bu har xil yo'llar orqali amalga oshiriladi va bunda tasviriy faoliyat jarayoni muhim rol o'ynaydi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning irodasi mustahkamlanadi, ishini oxiriga yetkazish do'stlariga yordamlashish, jamoa bilan hamjihatlikda ishlash kabi axloqiy sifatlar rivojlanadi. Bolalarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish, oliyjanob his-tuyg'ularni, intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarning dunyoqarashi arealida go'zallikni idrok qilganligini, o'zini hamda atrofdagi insonlar ichki kechinmalarini ko'proq tasviriy faoliyat jarayonida erkin mavzuda rasm chizish orqali ifodalashi osonroq bo'ladi.

Rasm chizish orqali bolaning psixologiyasini bilish, oilaviy muhitini, xarakter xususiyatlarini bilish ham oson bo'ladi, bolajonlar chizgan suratlarida ko'proq ochiq-oydin o'z hayotini, yashash muhitini tasvirlab beradi. San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, estetikasini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda, uning xayol va tasavvurlarini ham rivojlantiradi. Avvalo, tarbiyachi bolajonlar ongida tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvur uyg'otishlari kerak, shundagina rasm, loy, aplikatsiya ishlarida samarali natijalarni ko'rishi mumkin. Tasviriy faoliyat turlari bolajonlar o'yinlari bilan ham bog'lanadi.

O'yin bolajonlar hayotida katta o'rin egallaydi. Bolaning ichki kechinmalariga o'yin bo'yoq beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi turli xil mazmunli – rolli, drammalashtirish, didaktik va harakatli o'yinlar o'tkaziladi. O'yinchoqlarni chizish, yasash, rasm, loy, qirqib yopishtirish, o'yinchoqlarni tasvirlash har xil o'yin mashg'ulotlari orqali o'tkaziladi va bu, o'z navbatida, tarbiyachi mahoratiga, kreativ yondashuviga ham bog'liq hisoblanadi. Tasviriy faoliyatning rivojlanishida rasm, loy, qirqib yopishtirishlardan tashqari drammalashtirish, ashulalar ijro etishi, ertak, hikoyalar va she'rlar o'qib berish kerak. Bolajonlarda ertak, hikoya qahramonlari obrazlari shakllanishi kerak, ya'ni obrazlar va predmetlarni bolajonlarimiz tasavvur qila olishlari shart, undagi ular ertak va hikoyalarga o'z munosabatini bildira oladi, nutqi rivojlanadi.

Har xil tadbirlarda zal va guruh xonalarini bezashda yoki mashg'ulotlar davomida ham bolajonlarimiz ishlaridan foydalanishimiz zarur, ya'ni bolalarning ishlari ularning hayotida kattagina o'rin egallaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning tabiat bilan tanishtirish, nutq o'stirish mashg'ulotlari bilan ham bog'liqdir.

Tabiat hamma vaqt tasviriy ijodiyotning mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning chizgan rasmlari tabiat haqidagi bilimlarini aniqlashtirish, mustahkamlash uchun yordam beradi, nafaqat bolalarda tabiat hodisalari, kasblarga nisbatan estetik his-tuyg'ularini uyg'otadi, bu esa hayotlarini yanada mazmunli, qiziqarli tushunishlari uchun yordam beradi.

Bolajonlar mo'yqalam, plastilin, rangli qog'ozlar, qaychi kabi predmetlardan ertak va hikoya qahramonlarini gavdalanitiradilar, har xil aplikatsiyalar orqali ifodalaydilar va bunda bolajonlarni rag'batlantirish metodikalarini ham tarbiyachi bilishi zarur. Bu paytda bolalar psixikasi judayam nozik sanaladi, shuning uchun tarbiyachi har tomonlama e'tiborli bo'lishi kerak va bolalarni doimo samimiy, ijobiy fikrlari orqali rag'batlantirishlari zarur.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolajonlarda tasavvur, taffakur, sezgi, estetika, ijodkorlik qobiliyatlari shakllanadi. Tasviriy faoliyatining taraqqiy etishiga yana bir keng ko'lamli imkoniyat yaratilgan, ya'ni „Ilk qadam“ davlat o'quv dasturi asosida 5ta markaz faoliyat yuritadi va bu markazlarning barchasida tasviriy faoliyatning rivojlanishi ortadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z.K. Alimova „Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati“.
2. F.R.Qodirova. „Maktabgacha pedagogika“ –Toshkent – 2019, 688-b.
3. M.Sh. Nurmatova „Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi“. – Toshkent – 2012, 184-b
4. N.O. Kayumova „Maktabgacha pedagogika“, – Toshkent – 2013.

## INTELLEKTUAL YOSHLAR ELITASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH YO`LLARI.

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Numonova Dildor Umurzoqovna  
Kamolova Sabina Anvarjon qizi  
NavDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi  
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Yoshlarning iqtidori ularning intellekti bilan bog'liqdir. Shuning uchun bugungi kunda yoshlarimiz qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifadir. Ushbu maqolada intellektual salohiyatga ega iqtidorli yoshlar jamoasini shakllantirishda zamonaviy dunyodagi ijtimoiy jarayonlarning o'rni va ta'limdagi innovatsiyalardan foydalanish haqida, umumta'lim maktablarida ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimi asosida olib boriladigan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlari haqida dunyo mamlakatlari ta'lim tizimidagi tajribalar misolida tavsiyalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** intellekt, salohiyat, intellektual ta'lim, iqtidor, ixtisoslashtirilgan maktablar, differensiyalash, ijod maktablari.

**Annotation.** The talent of young people is related to their intelligence. Therefore, developing the abilities of our young people today is a priority task for the education system. In this article, the role of social processes in the modern world and the use of innovations in education in the formation of a group of talented young people with intellectual potential, and about the lessons and extracurricular activities conducted in general education schools based on the specialized education system in the countries of the world education. recommendations are highlighted on the example of experiments in the system.

**Key words:** intelligence, potential, intellectual education, talent, specialized schools, differentiation, creative schools.

**Аннотация.** Талант молодежи связан с ее интеллектом, поэтому развитие способностей нашей молодежи сегодня является приоритетной задачей системы образования. В данной статье речь идет о роли социальных процессов в современном мире и использовании инноваций в образовании в формировании группы талантливой молодежи, обладающей интеллектуальным потенциалом, а также об уроках и внеклассных мероприятиях, проводимых в общеобразовательных школах на базе профильных. система образования в странах мира, рекомендации выделены на примере экспериментов в системе.

**Ключевые слова:** интеллект, потенциал, интеллектуальное образование, талант, профильные школы, дифференциация, творческие школы.

Yoshlarimizni barkamol avlod qilib voyaga yetkazish va iste'dodli, izlanuvchan yoshlarning o'z salohiyatini keng namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish, ularni muntazam ravishda intellektual salohiyatini oshirish zarur, bu o'rinda biz boshlang'ich sinflardan o'quvchilardagi bor imkoniyatlarni ishga solib, ularning ustida ishlab, layoqatni qobiliyat darajasiga olib chiqishimiz lozim, bunday uzviy bog'liqlikdagi pedagogik jarayonda malakali pedagoglarning o'rni katta. Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning o'rni katta. Intellektni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga pedagogik ta'sir ko'rsatish intellektual ta'lim deb ataladi. Bu tizimli va maqsadli jarayon bo'lib, keksa avlodlar tomonidan to'plangan, ko'nikma va malakalar, bilimlar, me'yor va qoidalar hamda baholashlarda namoyon bo'lgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Iqtidor – qaysidir qobiliyatning eng yuqori darajadagi rivojlanishdir. V.Yurkevich iqtidorning 3 asosiy turini farqlaydi, buni umumta'lim maktablarida hisobga olinishi lozim deb hisoblaydi:

akademik – o'qishga aniq ko'rinib turgan qobiliyat, bu jarayonda o'qituvchi har bir bolaga juda e'tiborli bo'lib, undagi qobiliyat uchunlarini ko'ra bilishi va rivojlantirishi kerak;

intellektual – dalillarni tahlil qilib, qiyoslab fikrlash qobiliyati;

ijodiy – dunyoni nostandart ko'rish va fikrlash, har bir ishda kreativ yondashish.

O'qituvchi bilimdon, o'z sohasining mutaxassisi va pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi bilan bir qatorda, u ta'limning ilmiylik prinsipi asosida doimo ish tutishi kerak. O'qitishning ilmiylik tamoyili – ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon texnika fan taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa, yoshlarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirishga qaratiladi. Bugungi kun pedagogi shularni inobatga olgan holda zamon bilan hamnafas bo'lib, o'z fan doirasi qatorida ilmiy zamonaviy tajribalardan foydalanib, dars jarayoni faqatgina an'anaviy dars shaklida tashkil etilmasligi ilmiy jamoatchilik yutuqlaridan foydalanishi zarur. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirishda o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi lozim. Pedagoglarimiz diagnostik test o'tkazish, iqtidorli bolalarni o'qitish metodikasi, iqtidorli bolalarni o'qitadigan o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha katta tajribaga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi yoshlar yangicha fikrlashga va zamon bilan hamnafas bo'lishga intilmoqda va buning zamiri esa intellektga borib taqaladi. Bu davlat va jamiyat uchun o'zining mustaqil fikriga ega, ilmiy salohiyatli har qanday buzg'unchi xurujlardan o'zini himoya qila oladigan elita qatlamni yaratadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqbolli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak. Bizning bugungi mehnatimizga qanday baho berilishi ham ana shunga bog'liq".

Jahon tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada iqtidorli bolalarni tadqiqot qilish Markazi joylashgan. Iqtidorli o'quvchilar uchun maxsus bo'limlar, tezlashtirilgan, kengaytirilgan va boyitilgan ta'lim kurslari tashkil etilgan. Yaponiyada 1960-yil o'rtalaridan ba'zi o'quv muassasalarida qobiliyatli o'quvchilarni aniqlovchi testlar o'tkaziladi, keyin natijaga ko'ra ular bilan alohida shug'ullanadi.

Germaniyaning umumiy maktablarida mutaxassislar tomonidan "Fanlardan yutuqlari bo'yicha differensiyalash" (differensiyalash – o'quvchini o'zlashtira olish imkoniyatiga qarab ta'limni tashkil etish) deb nomlangan guruhlariga bo'lish joriy qilingan bo'lib, undan maqsad, har bir o'quvchiga uning qobiliyatlariga qarab talablar qo'yish, har biriga individual yondashishdir. Mamlakatimizda ham R.Xasanov, M.Nishonbayeva kabi tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlarida o'quvchilarning bilim darajasini tabaqalashtirilgan holda ularga ilmiy yondashish masalalari haqida tadqiqot ishini olib borgan. Hozirgi kunda faqatgina o'quvchilarning ma'lum foizi ya'ni iqtidorli o'quvchilar qatlami bilangina shug'ullanmay balki, barcha o'quvchilarning turli sohalardagi qobiliyatlarini kashf etib, rivojlantirishga qaratilgan elita qatlamni hosil qiluvchi innovatsion ta'lim tizimi yaratilmoqda. Ma'lum fanlarga ixtisoslashtirilgan sinflar, ijod maktablari va Prezident maktablarida har tomonlama intellektual salohiyatga ega yoshlar bilim olmoqda. Maktablarda chet eldan ham maxsus mutaxassislar jalb qilinib pedagoglarimiz bilan tajriba almashmoqda. Xususan, Prezident maktablarini tashkil etishning asosiy maqsadi ham iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual barkamol avlodni shakllantirishdir. Sinflarda 12 nafardan o'quvchilar chuqur bilim olishadi va u bepul ta'lim hisoblanadi bu esa iqtidorli yoshlarimizni rag'batlantiradi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan dastur asosida tashkil etilgan bo'lib, bu ulardagi barcha qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shuni unutmashlik joizki, har bir o'quvchida qobiliyat va intellekt mavjud, faqatgina uni namoyon etish ma'lum bir vaqt va mehnatni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir" T. – 2021, 15-bet. "Intellektual yoshlar – Vatanimiz kelajagi" – T. – 2012-yil, 3-bet.
2. M.Mutalipova, Xadjayev B. "Qiyosiy pedagogika" – T. – 2015, 115-bet.
3. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti "Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi".

## OILANI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK METODLARI

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali  
Psixologiya fakulteti o'qituvchisi:  
Boyqulova Mohinur  
Talaba: Ismoilova Malika Muhhammad qizi  
E-mail: [ismoilovamalika986@gmail.com](mailto:ismoilovamalika986@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oila psixologiyasining fan sifatida maqomi, oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari hisoblangan kuzatish metodi, so'rov metodi, eksperiment metodlarining qo'llanilish usullari va vazifalari haqida ma'lumot berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о состоянии семейной психологии как науки, методах и задачах использования методов наблюдения, опросных методов, экспериментальных методов, которые считаются методами исследования семейной психологии.

**Abstract.** This article provides information on the status of family psychology as a science, the methods and tasks of using observational methods, survey methods, experimental methods, which are considered research methods of family psychology.

**Kalit so'zlar:** Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, so'rov metodi, eksperiment, oilaning muhim vazifasi.

**Ключевые слова:** Взаимоотношения между членами семьи, методы исследования, метод наблюдения, метод опроса, эксперимент, важная роль семьи.

**Keywords:** Relationship between family members, research methods, observation method, survey method, experiment, important role of family.

Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obyektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo'lishini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning – mehribonlik, g'amxo'rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo'ysunish, yetakchilik kabi o'ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsimoti va va o'zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-ona va farzandlar, yaqin qarindosh-urug'lar o'rtasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy ro'zg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo'lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o'rganadi.

Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari oila psixologiyasining asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

**Kuzatish metodi.** Oilaviy munosabatlarni kuzatish deb oilaviy va turmush vaziyatlarida odamlarning tashqi xulq-atvorini idrok etish va muntazam qayd etib borishga bog'liq faoliyatga aytiladi. Odatda tadqiqot o'tkazayotgan psixologning kuzatayotganligini oila a'zolari bilmasliklari, sezmasliklari kerak. Kuzatuv natijalarini qayd etish aniq ko'rgan-kechirganlarni qanday bo'lsa shundayligicha yozib borish yoki esda saqlab qolib, keyin hech bir subyektiv xulosa yoki tahlilsiz daftariga belgilab borish tarzida kechadi.

**Konkret vaziyatlarni tahlil qilish metodi.** Oila muhitida yoki hayotiy sharoitlarda ro'y bergan voqea-hodisalarni qayd etish unga kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda o'rganayotgan shaxs testlar o'tkazishi, oila a'zolarining biografik ma'lumotlarini tahlil etishi yoki aniq maqsadli so'rov o'tkazishi mumkin.

**So'rov metodi.** Odatda psixolog bir xonadonga kirib, hammada birdan so'rov o'tkaza olmaydi, u kim bilan, qachon va qanday maqsadda so'rov o'tkazishi lozimligini aniq bilishi va oldindan tanlovni belgilab qo'ygan bo'lishi lozim. Odamlar tanlab olingach, so'rovnomaga kiritilgan har bir savolning ifodalanishiga e'tiborni qaraatish lozim. Chunki bir shaxsga juda oson va aniqday tuyulgan savol boshqa bir shaxs uchun qiyin, noqulay, mavhum bo'lib tuyulishi mumkin. Masalan, savolning mazmunini tushunishda uyda o'tirgan beka bilan oila a'zosi bo'lgan pedagog ayol o'rtasida farq bo'lishi mumkin. So'rov odatda bevosita yuzma-yuz ko'rishib o'tkazilishi, telefon orqali yoki pochta orqali



yuborilgan yozma savolnoma tarzida o'tkazilishi mumkin. Oila psixologiyasida so'rovnomalar tarqatish orqali odamlarning fikrlari, munosabatlarini aniqlash keng tarqalgan.

Ekspiriment. Ushbu usul yordamida bir omil ta'sirining boshqa bir omil yoki holatning kelib chiqishiga turtki bo'lishini aniqlash mumkin. Odatda, oilaviy munosabatlar dinamikasini o'rganishda, u yoki bu hodisalar yoki omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda eksperiment usulidan foydalaniladi. Bunda bir necha xonadon eksperimental, ya'ni sinov o'tkazilayotgan guruh hisoblansa, boshqalari nazorat guruhi sifatida saqlanadi, eksperimentdan so'ng, olingan natijalar ikkala guruh misolida qiyoslanadi. Chunki bunday taqqoslash o'tkazilmasa, eksperiment o'tkazilgan guruhdagi o'zgarishlarning salmog'ini qayd etish mushkul bo'ladi. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi olimlari 2006-yilda mamlakatimizning ayrim hududlarida tanlab olingan guruhlarda o'ziga xos eksperiment o'tkazishgan: mahallada "Oila universitetlari" yoki "Ota-onalar universitetlari" tashkil etib, eksperiment oldidan universitet tinglovchilarining qator masalalarda oilaviy ustanovkalarini qayd etganlar, so'ngra aniq dastur asosida 6 oy mobaynida mashg'ulotlar, davra suhbatlari, ma'rifiy tadbirlardan so'ng yana o'sha so'rovnoma orqali ular fikrlari o'rganilib, natijalari monitoring qilinganda, targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi qayd etilgan. Bu ham o'ziga xos eksperiment bo'lib, muayyan maqsad va natijani ko'zlaydi.

Statistik metodlar. Matematik statistikaning qator usullari empirik izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning qay darajada ilmiy jihatdan asoslanganligini isbotlash maqsadida qo'llaniladi. Ayniqsa, bir hodisa yoki holatning boshqa bir holat yoki hodisaning oqibati, sababi ekanligini isbot etish uchun statistik metodlarni qo'llash barcha tadqiqotlarning talablaridan biridir. Masalan, oila a'zolarining biror qadriyatlariga nisbatan munosabatlarida yaqinlik, o'xshashlik borligini isbotlash uchun korelyatsion metodlardan foydalaniladi. Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o'zaro qovushishlari, birgalikda yaxshi niyat bilan oila-ro'zg'or yuritishlari, hamjihatlikda hayot kechirishlarini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Har bir oila konkret davr, vaqt, zamon va makonda mavjud bo'lganligi sababli, u avlodlararo bog'liqlik, ma'naviy meros, milliy an'analar, urf-odatlar va rasm-rusmlarni saqlovchi noyob insoniy uyushmadir. Shu institut bo'lgani sababli har bir millat, elat va xalqlarning noyob udumlari asrlar osha saqlanib kelmoqda. Umuman, nikoh deb atalmish qadriyatning mavjudligi va unga avlodlarning e'tiqod qilishi ham oilaning muhim vazifasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V. M. Karimova "Oila psixologiyasi" darslik, – Toshkent – 2007.
2. Sperry L. Family Assessment: Contemporary and Cutting-Edge Strategies. Taylor & Francis, 2012. 359 p.
3. Шарафитдинов, Абдулла, and Мохинур Бойкулова. "Формирование эмоционально-эмоциональной сферы детей младшего школьного возраста." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 342-345.
4. Бойкулова, Мохинур, and Гозал Одилова. "Исследование проблем формирования лидерства зарубежными психологами." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 410-413.
5. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Abdukhadova Mehribonu, and Boykulova Mokhinur "The Influence of Parents on The Leadership of Children in The Family-As A Psychological Factor in Parenting", *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 122-128.

## O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING SHAKL VA YO‘LLARI

D.Sh.Samiyeva  
NavDPI Pedagogika va psixologiya  
kafedrası o‘qituvchisi,  
Olimova Gulruh Shoxrux qizi  
Navoiy davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘smir yoshidagi o‘quvchilar va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning shakllari, usullari va o‘smir yoshidagi o‘quvchilar hayotida milliy qadriyatlarining o‘rni va ularning kelajagiga ta’siri bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** o‘smirlik, milliy urf-odatlar, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, bayramlar, o‘smir tarbiyasi, ijtimoiy tarmoq, axborot vositalari.

**Аннотация.** В данной статье описаны формы и методы воспитания школьников-подростков в духе национальных ценностей, роль национальных ценностей в жизни школьников-подростков и их влияние на их будущее.

Ключевые слова: подростковый возраст, национальные традиции, духовно-нравственные ценности, праздники, воспитание подростков, социальная сеть.

Abstract. This article describes the forms and methods of educating teenage schoolchildren in the spirit of national values, the role of national values in the lives of teenage schoolchildren and their impact on their future.

Key words: adolescence, national traditions, spiritual and moral values, holidays, adolescent education, social network, media.

Milliy qadriyatlarda har bir millatning tarixi, urf-odatlari, ma’naviyati va madaniyati bilan bog‘liq jihatlari namoyon bo‘ladi. Shu jumladan, o‘zbek xalqining ham uzoq tarixga ega milliy qadriyatlari shular jumlasidandir. Barcha xalqlarning urf-odatlari, an’ana va marosimlari muayyan tarixiy davrning mahsuli bo‘lib, u turmush sharoitining ta’siri natijasida paydo bo‘lgan; vaqt o‘tgan sari ular tobora mustahkamlanib ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelgan. Xalqning “to‘y” atamasi bilan yuritiladigan barcha an’analari, urf-odat va udumlari shahar va qishloq aholisining kundalik turmushiga singib ketgan bo‘lib, xalqning ezgu istaklari hamda intilishlarini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek milliy madaniyati va ma’naviyati ham uzoq hamda yaqindagi qo‘shnilarning ilg‘or an’analarini o‘zlashtirish natijasida boyib bordi.

Ma’naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. O‘z navbatida, shuni aytish joizki, bugungi kunimiz va kelajagimiz bo‘lgan o‘smir yoshlar, o‘g‘il-qizlar tarbiyasida milliy urf-odat va qadriyatlarimizning o‘rni beqiyosdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “...yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma’no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqealar haqida haqqoniy ma’lumotlarga, eng muhimi, o‘z mustaqil fikriga, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo‘lishiga erishish ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo‘lishi darkor”. [1]

Yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashni istasak, milliy qahramonlarimiz obrazlarini ideal darajasiga ko‘tarishimiz kerak. O‘smirlarning hozirgi ideallari kimlar? Komiks qahramonlari, “super odam” lar, yarim maxluq, yarim odam qiyofasidagi obrazlar. Xullas, ularni birlashtiruvchi jihat – jangovarlik. Bu ideallar o‘smirlar ongiga shu qadar qattiq singib ketganki, natijada tinchlik atalmish buyuk qadriyatimiz ularning nazarida qadriyat bo‘lmay qoldi. Yana bir sabab – bu “qurol” sindromi. Qurol ayni paytda yoshlar orasida kuchning ramzidir. Yoshlarda qudratlilik ham bir qadriyat. O‘smir qo‘liga nima uchun qurol oladi? O‘zini kuchli his qilish uchun. Demak, u o‘zining kuchliligiga ishonmaydi. Ishonchsizlik, mana, bularning barchasini keltirib chiqaruvchi tub sabab.

Milliy ta’lim va tarbiya o‘z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarini mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta’lim va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham o‘quvchi-yoshlarda milliy ong

va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiya ishlarida milliy-ma'naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o'z o'rnida foydalanishni taqozo etadi. Fikrimizni Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Biron bir jamiyat ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaratishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz", – degan gaplari ham tasdiqlaydi.

Davralarda yoshlar haqida so'z ochilganda, albatta, gap borib tanqidga taqaladi. "Yoshlar internetda yashaydi", "Yoshlar kunini ijtimoiy tarmoqda o'tkazadi", "Yoshlar "naushnik" ni qulog'idan tushirmaydi..." OAV faoliyatini kuzatsangiz yoki televizorda tok-shoularda o'tirib olib ijtimoiy tarmoqlarni yomonlash bilan ovora ko'rsatuvlarni ko'rsangiz, butun jamiyat mana shu tabiiy jarayonlarni qoralash bilan bandday tuyuladi. Doim qoralayverish ularni jamiyatdan uzoqlashtiradi. Vaholanki, bular allaqachon yoshlarning qadriyatlariga aylanib bo'lgan. Oilada ham xuddi shunday munosabatni kuzatish mumkin. O'spirinlarni ham eshitish, fikrini bilish o'rniga ko'proq taqiqlar o'rnatiladi yoki ularni o'z qiziqishlari bilan yakkama-yakka qoldiriladi. Bu o'smirda o'zi bilan o'zi bo'lish, boshqalardan o'zini tortish, o'z hammasligini topish orqali boshqalarga nisbatan isyonni, oxir-oqibatda esa yuqoridagidek zo'ravonlikni keltirib chiqaradi. Qiziqishlar o'smirning o'ziga havola qilinganda turli maniyalarga ruju qo'yish boshlanadi. Masalan, o'yinbozlikka berilib ketsa, jangari qahramonlar, virtual o'ldirishlar yana bora-bora o'sha zo'ravonlik, jangarilikka olib keladi.

Balki globallashuv davrida ota-ona, ta'lim muassasasi jamiyat o'smir ko'ngliga yo'l topishda qiynalayotgandir. Biroq, aslo buni qadriyatlar, madaniyatlar, qarashlarni qarama-qarshi qo'yish orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Qadriyat odamning odamga, jamiyatga munosabatini belgilab beradi. Munosabatning asosini esa ishonch tashkil qilishi kerak. Tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligi, samaradorligi ko'p jihatdan xalqimizning boy milliy, ma'naviy merosining tarixiy ildizlar o'rganishga bog'liq. Har bir xalqning ijtimoiy-ma'naviy hayotida azaliy urf-odat, marosim, an'ana tarzida o'ziga xos bir qadriyat meros sifatida namoyon bo'lib, avloddan avlodga yetib keladi. Millatning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rne muhimdir. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'p qadriyat shakllarini qamrab oladi: "Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlar, an'analari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlaridir".

Farzandlarimizning qadriyatlarning asl mazmun-mohiyatini anglab yetmasligida turli sabablar keltirilgan:

– nafaqat o'smirlar, balki ayrim katta yoshli insonlarning ham qadriyatlarga nisbatan e'tiborining susayib borayotganligi;

– "ommaviy madaniyat" ning ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalib borayotganligi va qadriyatlarimizga yot bo'lgan mafkuralarni singdirishga harakat qilayotganligi;

– qadriyat, urf-odat va an'analarning asl mazmun-mohiyati haqida yosh avlod ongiga ilk davrlardan singdirib borilmayotganligi va hokazolar.

Biz bilamizki, bahor faslida xalqimiz tomonidan Navro'z bayrami keng ko'lamda nishonlanadi. Bayramda sumalak, ko'k somsa kabi milliy taomlar pishiriladi, turli milliy o'yinlar olib boriladi, bayram kunida barcha insonlar bir-birlariga ko'tarinki ruh ulashadilar va bularda bizning milliyligimiz ifori kelib turadi. Bunday bayramlarni o'tkazishdan asl maqsad milliyligimizni qo'shni xalqlarga tanitish va yoshlarga milliy bayramlarimiz haqida ma'lumot berishdir.

Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib, yurtimizda milliy qadriyatlar xalqimizning azaliy orzu-umidi bo'lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish, yurtimizning kelajagi uchun suyanch va tayanch bo'ladigan barkamol o'smir yoshlarni voyaga yetkazib, tarbiyalash imkonini beradi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va milliy qadriyatlar borasida jamoatchilik tashkilotlari o'rtasida uzviy bog'liqlik, yagona yondashuv tizimining yo'qligi muammosining asosiy ildizini tashkil etadi. Shu sababli o'smir yoshlarni tarbiyalash, ularni milliy, umuminsoniy, ma'naviy qadriyatlar va an'analardan bahramand qilish, bilim darajalarini oshirish uchun turli ishlar amalga oshirilmoqda. O'smir yoshlar oilada ulg'ayar ekan, uning xarakterida atrof-muhit, oilaga bo'lgan munosabat, milliy urf-odat va qadriyatlarga bo'lgan munosabatlar shakllanib boraveradi.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib, ularga do'stlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchalik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlik, ro'zg'orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi. Bugungi kunda bularni yoshlar ongiga singdirish har bir ota-ona va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir.

O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda tarixiy yodgorliklar, ma'rifiy maskanlar, san'at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko'targan inshootlarga uyushmagan yoshlar va talabalarning ekskursiyalarini tashkil qilish va o'lkashunoslik va Vatanimiz tarixiga oid to'garaklar ishini jonlantirish, jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san'atkor, huquqshunos, ta'lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog'liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish, mahallalarda uyushmagan yoshlarni va talabalarining shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat arboblari, mehnat faxriylari kabi taniqli kishilar bilan uchrashuvlarini uyushtirib borish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2008.
2. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017, 488-b.
3. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar.– T.: "Ma'naviyat", 2003.
3. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.– T.: 1994, 312-b.
4. Shoumarov G'.B., Xaydarov I.O., Sog'inov N.A., Akramova F.A., Solixova G va b. Oila psixologiyasi: Akad.lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun qo'llanma.–T.: "Sharq", 2008, 296-b.
5. G'oziyev E. Psixologiya: Yosh davrlar psixologiyasi.: Ped.institutlari va univ.talabalari uchun o'quv qo'll.– T.: O'qituvchi., 1994, 131-135-bet.
6. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. – Andijon. 2003, 260-b.
7. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'.G'. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, – 1992, №2.
8. A.Allayarov, G'.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr) – Guliston 2020, 114-bet.

### **6-7 YOSHLI BOLALARDA IJTIMOIIY KOMPETENSIYANI TO'G'RI SHAKLLANTIRISH BU – ZAMONAVIIY DUNYODAGI ENG DOLZARB JARAYON SIFATIDA**

**Otaqulova Gulgunoy Abdunabi qizi  
NavDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistri**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiylashuvi, kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya va uni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, 6-7 yoshli bolalardagi ba'zi o'zgarishlar va bu o'zgarishlarning bola ijtimoiylashuviga ta'siri, ularni bartaraf etish bilan bog'liq masalalar batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiylashuv, kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, 1-yillik inqiroz, o'z-o'zini anglash davri.

**Abstract.** In this article, socialization, competence, social competence and factors influencing its formation, some changes in 6-7-year-old children and the impact of these changes on child socialization in preschool educational organizations, their elimination issues related to are explained in detail.

**Key words:** socialization, competence, social competence, 1-year crisis, period of self-awareness.

**Абстрактный.** В данной статье подробно освещены социализация, компетентность, социальная компетентность и факторы, влияющие на ее формирование, некоторые изменения у детей 6-7 лет и влияние этих изменений на социализацию детей в дошкольных образовательных организациях, вопросы их устранения, связанные с ними.

**Ключевые слова:** социализация, компетентность, социальная компетентность, кризис 1 года, период самосознания.

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar shaxsning atrofidagi dinamik xarakterga ega bo'lgan muhitga moslashishni hamda shaxsiy rivojlanishni ta'minlovchi subyektiv xarakterga ega xususiyatlarni takomillashtirishni talab qilmoqda. Bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish ularning moslashish sohasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganish alohida ahamiyatga ega. Bu borada bolalarning psixik salomatligini barqarorlashtirish mexanizmlari, har bir bolaning individual rivojlanishiga ta'sir etuvchi oiladagi muhit, ota-ona va bola munosabati, atrof-muhit va tengdoshlarining ta'siri, shaxslararo munosabatlarda vujudga keladigan muammolar va bolaning o'z-o'ziga bergan bahosini aniqlash asosida bolalarni maktabga moslashtirishda vujudga keladigan buzilishlarni oldini olish va bartaraf etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqoridagi muammolar bola ijtimoiylashuviga va unda ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda biz eng avvalo, kompetensiya o'zi nimaligi, kompetentli bola qanday bo'lishi, ijtimoiy kompetensiya kabi tushunchalarning ma'no mazmunini anglab yetishimiz zarur.

Kompetensiya – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Kompetentli bola – o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Mamlakatimizda bolalarni 3 yoshidan boshlab, jamiyatga, ota-onaning so'zlariga, tabiatga va o'z faoliyatiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish va shu asosda ularning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirishga so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida davlat talablari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishimiz uchun biz avvalo ulardagi ba'zi o'zgarishlarni o'rganib chiqishimiz zarur. D.B.Elkoninning tadqiqot natijalariga ko'ra 6 yoshli bolalarda maktab sharoitidagiga qaraganda tezroq bolalar bog'chasi, belgilangan xulq-atvor qoidalariga bo'ysunish qobiliyati shakllanadi. Ammo shu bilan birga, bu qoidalarga rioya qilishdan qoniqish emas, balki ularni buzish qo'rquvi ustunlik qiladi. 7 yoshli birinchi sinf o'quvchilarida shunga o'xshash muammoli jarayonlar asta-sekkin kamayadi. Barcha 6-7 yoshli bolalar ijtimoiy muhitga moslashishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu kabi qiyinchiliklar bolalardagi fiziologik, psixologik, biologik va boshqa o'zgarishlar orqali yuzaga keladi. Rossiyalik psixologlarning fikriga ko'ra, (L.S.Vygotskiy, D.B. Elkonin, L.I.Bozhovich va boshqalar) maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshi 7 yil inqirozli kechishi bilan ajralib turadi. Bu o'z-o'zini tartibga solish inqirozi, 1 yillik inqirozni anglatadi.<sup>40</sup> Rivojlanishning ijtimoiy holati (ya'ni munosabatlar tizimi) o'zgarganligi sababli, bola o'zini yangi yosh davri chegarasida o'zgacha his etadi. Shu sababli, bolani maktabga qabul qilish bosqichida ajratilgan 7 yillik inqiroz o'z-o'zini boshqarish inqirozi deb ataladi. L.I. Bozovich 7 yillik inqirozni ijtimoiy o'zlikning tug'ilish davri deb atadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda 7 yoshli inqiroz ularning dunyoqarashini o'zgartiradi, ular "biz" va "ular"ni ajrata

<sup>40</sup> <https://muhaz.org/mavzu-6--7-yoshli-bolalarning-rivojlanish-xususiyatlari-mundar.html> — Яндекс: нашлось 5 тыс. результатов (yandex.ru)

boshlaydilar. Ota-onaning har qanday tanqidi dushmanlik bilan qabul qilinadi. Agar bajarilgan eng oddiy topshiriq uchun maqtoiv olinmasa, qichqiriq va yig'lash boshlanadi.<sup>41</sup> Bu kabi holatlar esa bolaning ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatib, bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bolalarda (boshlang'ich maktab o'quvchilari) 7 yoshdagi inqiroz haddan tashqari qiziquvchanlik bilan ham tavsiflanadi. Bolani siyosat, axloqiy tamoyillar, oilaviy munosabatlar kabi jiddiy masalalar qiziqtiradi. Aynan mana shunday qiziqishlar bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish uchun bolalar o'ziga yaqin bo'lgan atrof-muhitga murojaat qiladi. Garchi bola uchun eng yaqin muhit bu- oila va yaqin tengdoshlar hisoblanadi. Bola dunyo bilan muloqot qilishning birinchi tajribasini oilada ota-onalar va yaqin odamlarning o'zaro munosabatlari orqali oladi. Aynan oila bolaning atrof-muhit bilan uzviy bog'liqligini ta'minlaydi, uning dunyoni bilish qobiliyatini oshiradi. Bu odamlar bilan muloqot qilish tajribasini shakllantirishga, bolaning turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirishiga, jamoaviy faoliyat jarayonida kattalar, tengdoshlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Demak, bola tarbiyasida, uni muhitga moslashtirishda asosan ota-ona, tarbiyachi pedagoglar juda e'tibor bilan yondashib, ularga yaqin maslakdosh bo'lishlari zarur.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, bolaning ijtimoiylashuv jarayonining normal kechishi va uni kompetensiya sifatida shakllantirishda oila, undagi muhit, ota-ona va yaqin tengdoshlar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu jarayonlar bola hayotida alohida ahamiyatga ega. Zeroki, ijtimoiy kompetensiya bolalarda qolgan barcha kompetensiyalarning rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bolalarda 7 yoshli inqiroz: belgilar va ularni engish yo'llari. Rivojlanish va rivojlanish psixologiyasi-Psixologiya 2024 (religionmystic.com)
2. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022 53 UZBEKISTAN | www.caajsr.uz MAKTABGACHA TA'LIMDA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJTIMOY MOSLASHUVI Aziza Ashrafovna Abbosova
3. Takomillashgan ilk qadam davlat o'quv dasturi 2022-yil
4. <https://muhaz.org/mavzu-6-7-yoshli-bolalarning-rivojlanish-xususiyatlari-mundar.html>  
— Яндекс: нашлось 5 тыс. результатов (yandex.ru)

### **PEDAGOGIK KOORPERATIV TA'LIM ASOSIDA TALABALARNING TOLERANTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna**  
**University of economics and pedagogy pedagogika**  
**kaferdasi dotsent v.b.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchi va o'quvchining muloqot jarayonini takomillashtirish, pedagogik muloqatni o'stirish, muloqot jarayonida o'quvchilarda tolerantlikni tarbiyalash usullari va bosqichlari haqida ilmiy va xolisona mulohazalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, pedogogik muloqot, tolerantlik, muloqot turlari, muloqot madaniyati, romantik tuyg'ular, jamiyat, pedagogik mahorat, pedagogik tolerantlik, ijobiy-ruhiy iqlim.

O'quvchi yoshlarda tolerantlikning shakllangani bevosita muloqot jarayonining sifatiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik muloqot talaba yoshlarda ularning shaxs sifatidagi barcha yashirin qirralarini ham ochib bera oladi, qachonki muloqatda ikki tomonning faolligi yuqori bo'lsa. Xo'sh, muloqot o'zi nima? «Muloqot» yunoncha so'z bo'lib, "suhbatlashuv", "shaxslararo suhbat" va "O'zaro fikr almashuv" ma'nosini bildiradi hamda ikki kishi yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Muloqot — o'qituvchining pedogogik faoliyatida eng muhim kasbiy quroli hisoblanadi. Pedagogik muloqot bu o'qituvchining talabalar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatida o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy-ruhiy iqlimni yaratish imkoniyatini beradi. Pedagogik muloqot o'qituvchi va o'quvchi yoshlar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini

<sup>41</sup> Bolalarda 7 yoshli inqiroz: belgilar va ularni engish yo'llari. Rivojlanish va rivojlanish psixologiyasi - Psixologiya 2024 (religionmystic.com)

anglatib uning mohiyati o‘zaro axborat almashuviga ta’lim va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda, o‘zaro birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘ladi.

Talaba yoshlar tarbiyasida tolerantlik kurtaklarini ochish, ildizini mustahkamlash faqat bir shaxsninggina emas, balki jamiyat rivojini ham belgilovchi omil sanaladi. “Tolerantlik” lotincha “tolerantia” — “sabr-toqat” degani bo‘lib, bag‘rikenglik, o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr mulohazalari, g‘oya va e‘tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish. Tolerantlikning asosiy maqsadi o‘quvchi yoshlar- bakalavrlarga bag‘rikenglik, o‘zga din, millat vakillariga hurmat, ularning qadriyatlarini e‘zozlash, milliy boyliklariga hurmat bilan qarash, toqatlilik, bardoshlilik, do‘stlik, birodarlik, vatanparvarlik, saxiylik, sadoqatlilik, o‘zgalarga hurmat nazari bilan qarash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida tolerantlikka quyidagicha ta’rif berilgan: “Bag‘rikenglik, o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e‘tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish”.

Interfaollikning yangi darajasi kooperativ ta’limga xosdir. Kooperativ ta’limning aniq tavsifini vengriyalik olim, falsafa fanlari doktori Sandra L.Renegar bergan: “Har birimiz alohida o‘rganishdan ko‘ra birgalikda o‘rgansak, biz ko‘p bilamiz”.

Kooperativ ta’lim – talabalarining guruhlardagi hamkorligiga asoslangan ta’lim metodi.

Mazkur yondashuvga ko‘ra, talabalar bir-biri bilan o‘zaro harakatda bo‘lish orqali o‘qishda yutuqlarga erishishadi.

Kooperativ ta’lim – bu puxta tuzilgan o‘quv faoliyati bo‘lib, bunda talabalarga individual hissa qo‘shish, ishtirok etish va ta’lim olish uchun shaxsiy javobgarlik mas’uliyati yuklatiladi. Talabalarining o‘zi ham jamoada ishlash va o‘zaro birgalikda ta’lim olishga alohida ehtiyoj sezishadi.

Kooperativ o‘qitish – bu kichik guruhlarda o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘lib, bunda guruh a’zolari o‘qitishning maksimal darajadagi samaradorligiga erishish uchun birgalikda ishlaydi.

Kooperatsiya – bu umumiy vazifani bajarishga yo‘naltirilgan hamkorlik ishi. Kooperativ faoliyat doirasida guruhning barcha a’zolari alohida o‘zlari uchun ham, yaxlitlikda butun guruh uchun ham qulay hamda foydali natijaga erishishga intilishadi. Demak, kooperativ ta’lim o‘qitish

jarayonida maksimal samaradorlikka erishish uchun kichik guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga asoslanadi.

Kooperativ ta’limni tashkil etish g‘oyasi nihoyatda oddiy. O‘qituvchi guruhni kichik guruhlariga ajratadi va ularga topshiriq beradi. Talabalar guruhning barcha a’zolari berilgan vazifani to‘liq bajarib bo‘lguniga qadar topshiriq ustida birgalikda ishlashadi. Hamkorlikdagi kuch shunga olib keladiki, jarayonning barcha ishtirokchilari o‘zaro manfaatli hamkorlikka intilishadi: har biri boshqasining yutuqlari orqali o‘zi ham muvaffaqiyatga erishishni mo‘ljalga oladi (sening

muvaffaqiyating menga foyda keltirdi, meniki esa senga); guruhning barcha a’zolari bitta maqsad atrofida birlashadi (hammamiz bitta qayiqda suzamiz yoki cho‘kib ketamiz); har bir kishi faoliyati natijasi barchaga ham tegishli (biz sensiz buni uddalay olmas edik); g‘urur hissi va hamkorlikda g‘alabaga erishish (biz seni topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganliging uchun tabriklaymiz!). Kooperativ ta’lim vaziyatida talabalarining ijobiy o‘zaro aloqador yutuqlari mavjud. Shuning uchun talabalar o‘z maqsadiga erishish guruhning boshqa a’zolariga ham bog‘liqligini yaxshi tushunishadi.

Kooperativ ta’limning maqsadi – komandaning har bir a’zosini shaxs sifatida yanada muvaffaqiyatli va kuchli qilishga erishish.

Ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarda tolerantlikni tarbiyalashda esa, tarbiya vositalari tarbiyachining o‘rni beqiyos hisoblanadi, shuningdek, tolerantlik tushunchasi o‘z tarkibiga chidam, bardosh, o‘zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni qamrab olgan. Hozirgi kunda tolerantlik o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga ko‘ra har kim o‘z e‘tiqodiga amal qilishda erkindir. Har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. O‘zbekiston ko‘p millatli davlat. Bu yerda asosiy millat o‘zbeklar bilan birga o‘z madaniyatiga va an‘analariga ega bo‘lgan yuzdan ortiq millat va elatlar yashaydi. Ana shunday sharoitda, ko‘pmillatli jipslashgan davlatni barpo etishda, millatlararo va elatlararo bag‘rikenglikka erishish siyosatining ahamiyati benihoya kattadir.

Tolerantlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida YUNESKO «Bag‘rikenglik tamoillari deklaratsiyasi» ni 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan. Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va

dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munoosabatini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. Pedagogik jarayonlarda tolerantlik tushunchalarini talaba yoshlarda shakllantirish bugunning pedagogikasining oldida turgan eng birlamchi masalalaridan biri. Murojaatnomadagi fikrlarda ham bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarning sifatiga urg'u berilgan kelajak avlod tarbiyasida bag'rikenglikni kamol toptirish zarurligini ko'rsatadi.

Prezidentimiz 30-iyulni O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etdilar. Bu millatlar o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlikni yanada mustahkamlashning sifat ko'rsatkichi bu yilning ilk namunasi, birinchi qo'yilgan qadamidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talaba yoshlarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirish jarayoni nafaqat, pedagogikaning kasbiy mahorati, balki biz ulg'aytirayotgan muhitga ham bevosita bog'liqdir. To'g'rirog'i, mazkur jarayonning muvoffaqiyatli amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayoni va ijtimoiy hayotda tolerantlik muhitining mavjudligi bilan uzviy aloqador. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur ang'ay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilish lozim. Ta'lim jarayonini faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqoralik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeyi u tomonidan pedagogik texnikaning etarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualigidan dalolat beradi. Tolerantlikka ehtiyoj bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Qadim zamonlardan buyon, ne-ne yurtlarni bosib olgan shohlarning ham siyosatida bag'rikenglik yetakchilik qiladi. Masalan, sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy ijodida bag'rikenglik g'oyalari yuksak rol o'ynaganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Uning «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» ("Risola fit tarbix ala asbob as-saodat"), "Shaharni boshqarish" ("As siyosat an-madaniya"), "Urush va tinch turmush haqida kitob" ("Kitob fi maoyish va-l xurub"), "Fazilatli xulqlar" ("As-siyrat al-fazila"), "Fozil shahar odamlari qarashlari" singari asarlari o'zining boy insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari singdirilganligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, – 2005-yil. 5-jild, 345-bet.
2. "Prezident murojaatnomasi", – 2020-yil, 29-dekabr.
3. Munavvarov.A.K «Pedagogika» T.»O'qituvchi»1996-yil.
4. Sandra L. Renegar. All of us Know more than each of us: cooperative learning in higher education // Active Learning Strategies for the Higher Education. – JATEPress, Szeged, 1997. – Pp. 47 – 57. 2. Инақов Қ.Қ
5. Ҳамкорлик педагогикаси асосида таълим-тарбия сифатини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). дисс. – Наманган, 2019. – 142 б.

### **IQTIDORLI O'QUVCHILARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANISHI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**NavDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi  
(faoliyat turi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 1-kurs  
magistranti Quvondiqova Mohiniso Fayzullo qizi  
Ilmiy rahbar: Murodova Nodira Qulliyevna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarning pedagogik va psixologik jihatdan rivojlanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** iqtidor, intellekt, intellektual rivojlanish, hamkorlik.

**Аннотация.** В данной статье теоретически анализируются педагогико-психологическое развитие одаренных учащихся и их уникальные особенности.

**Ключевые слова:** творчество, интеллект, интеллектуальное развитие, сотрудничество.

**Annotation.** This article theoretically analyzes the pedagogical and psychological development of gifted students and their unique characteristics.

**Key words:** creativity, intelligence, intellectual development, cooperation.



Ma'lumki, keyingi yillarda ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal sur'atlar bilan olib borildi.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi:

- yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;
- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi sa'y-harakati, shuningdek, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zaxiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish;
- intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;
- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Iqtidorli bolalarni aniqlash bo'yicha ishlarga turli toifadagi mutaxassislar jalb qilingan: psixolog, o'qituvchilar, ma'lum bir fan bo'yicha mutaxassislar va ota-onalar. Bunday hamkorlikning samarali shakllaridan biri ta'lim muassasasining psixologik-pedagogik kengashidir. Bolalarning intellektual qobiliyatlarini aniqlagandan so'ng ular bilan ishlash quyidagi o'qituvchilar guruhlaridan tomonidan amalga oshiriladi:

- intellektual rivojlanishi yuqori bo'lgan o'quvchi taqdiridan manfaatdor bo'lgan barcha shaxslarning individual ishini muvofiqlashtiruvchi sinf rahbari zarur muloqotni, ota-onalar bilan muloqotni ta'minlaydi.

- tanlangan mavzu bo'yicha tadqiqot ishlarida yordam beruvchi ustoz (rahbar);
- fanga qiziqish uyg'otuvchi, emotsional jalb qilish muhitini yaratuvchi fan o'qituvchilari.

Maktabda intellektual rivojlanishi yuqori bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish uchun ular haqidagi biografik ma'lumotlar, ularning psixodiagnostik tekshiruvi va so'rovi natijalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar banki yuritiladi. Maktabda intellektual rivojlanishi yuqori bo'lgan bolalarni hamrohlik qilish psixologik-pedagogik xizmat tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim faoliyati yuqori darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashning asosiy sharti bu – o'qituvchilarning kasbiy malakasining yuqori darajasi bo'lib, u quyidagilarni nazarda tutadi: [1]

- bolaga individual yondashuv;
- bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- doimiy o'zgaruvchan ta'lim amaliyotida pedagogik jarayonni samarali qurish qobiliyati;
- darsda samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (masalan, loyiha texnologiyasi, tadqiqot ustaxonasi texnologiyasi, munozara texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, tanqidiy fikrlash texnologiyasi (insert, klaster, sinkway, E.de Bonet usuli, guruh muhokamasi, aqliy hujum, case – texnologiyalar, axborot texnologiyalari, portfel texnologiyalari, repetitorlarni qo'llab-quvvatlash texnologiyalari va boshqalar). Zamonaviy innovatsion texnologiyalar yuqori darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo'lgan bolalarga ijodiy ta'lim jarayoniga kirishish va ularda bilimga chanqoqlik, kashfiyotlarga intilish, faol aqliy mehnat, o'z-o'zini bilish;

- o'quvchining ta'lim ehtiyojlari, individual qobiliyatlari va imkoniyatlari (dasturni o'zlashtirishga tayyorlik darajasi), shuningdek, ta'lim mazmunining mavjud standartlari bilan belgilanadigan individual ta'lim yo'nalishini qurish. Individual ta'lim yo'nalishi yuqori darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo'lgan bolaga o'z iste'dodini kashf qilish va kasblar olamida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Ota-onalarning bolalarning iqtidorliligiga munosabati pedagogik tadqiqotlarda iqtidor mavzusi juda mashhur va bu tasodifiy emas, hozirgi kunga qadar iqtidorli bolalar bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Ular orasida iqtidorlilikning tabiati va shartlari, iqtidorlilikni tashxislash muammolari, iqtidorli bolalar bilan ishlash usullarini, shakllarini ishlab chiqish bilan bog'liq muammolar va boshqalar. Shunga qaramay, haqiqat shundaki, bolalarning iqtidorini ochish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda oila katta rol o'ynaydi. Aynan oila bolaning asosiy tayanchi bo'lib,

iqtidorli bolaning namoyon bo'lishi va yanada rivojlanishi uchun oilada qulay yoki noqulay sharoitlar yaratilishi mumkin. Ota-onalar bolaning qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlashlari yoki ularning ochilishiga halaqit berishi mumkin. Ota-onalarning bolalarning iqtidorliligiga bo'lgan munosabatining bir necha turlari mavjud: salbiy, e'tiborsiz va ijobiy. Salbiy munosabat ota-onalarning farzandining boshqa bolalardan farqlanishini xohlamasligida namoyon bo'ladi. Ular bolaning o'ziga xosligidan g'azablanadilar, uning iste'dodliligini har tomonlama bostiradilar. E'tiborsizlik ota-onalarning farzandlarining iqtidoriga e'tibor bermasligida namoyon bo'ladi. Uni quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Hushsiz – ota-onalar bolalarning iqtidorliligi fenomeni haqida kam ma'lumotga ega va uning namoyon bo'lishiga e'tibor bermaydilar;

2. Ongli – ota-onalar o'z farzandidagi iqtidorning namoyon bo'lishini bilishadi va sezadilar, lekin uning iste'dodiga e'tibor bermaydilar, chunki ular uchun asosiysi bolaning bo'lishidir.

3. "Odatiy" – bunday munosabat bilan duch kelgan bola, ota-onasining roziligini olish uchun o'z qobiliyatini bostirishga harakat qiladi. Biroq hatto ijodkorlikni taqiqlash, paradoksal ravishda, bolaning rivojlanishiga befarqlikdan ko'ra ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijobiy munosabat – bu bolalarning iqtidorini quvonch bilan qabul qilish reaksiyasi. Shu bilan birga, ota-onalarning farzandining iqtidoriga ijobiy munosabati uchun bir nechta variant mavjud:

1. Gipersotsializatsiya. Ota-onalar bolaning iqtidorini obro'li narsa sifatida baholaydilar, bu ularga farzandining ajoyib qobiliyatlari orqali o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Ular uchun eng muhimi, bolaning erishgan natijalari, uning yutuqlari haqida boshqalarga aytib berish imkoniyatidir. Ular bolani haddan tashqari yuklaydi va u bunday yukga bardosh bera oladimi yoki yo'qmi, bu harakatlar unga kerakmi yoki yo'qmi, qiziqirmaydi.

2. Ota-onalar bolaning kichik yoki hatto yo'q qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilib, iste'dodni "to'playdi" va bu bilan uning jismoniy va ma'naviy kuchini yo'qotib, bolalikni o'ldiradi. Kamdan-kam bolalar bunday zo'ravonlikka toqat qiladilar va hamma ham mag'rur ota-onalarning umidlarini oqlamaydi.

3. Ota-onalar bolaning eksklyuzivligini ta'kidlab, uning hali bolaligini unutishadi. Agar iqtidor ma'lum bir sohada namoyon bo'lsa (masalan, bola ajoyib musiqiy qobiliyatga ega bo'lsa), musiqa darslari uning butun hayotini to'ldiradi va boshqa qobiliyatlarning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, bu esa bir tomonlama rivojlanishga olib keladi.

4. Shartsiz sevgi. Ota-onalar bolaning iste'dodini emas, balki o'zini qadrlashadi va sevadilar. Bunday munosabat shaxsning eng qulay rivojlanishiga, uni amalga oshirishga yordam beradi. Bolada xavfsizlik, o'ziga ishonch, boshqalar uchun ahamiyatlilik hissi va boshqalar rivojlanadi. Iqtidorli bolaning shaxsiyatini shakllantirish jarayonida bolaga nomaqbul ta'sir ko'rsatadigan ikkita haddan tashqari vasiylik yoki gipo-qamoqlik holatlari paydo bo'lishi mumkin. Demak, giperproteksiya ota-onalar tomonidan bolaga haddan tashqari g'amxo'rlik va nazorat qilish deb tushuniladi. Iqtidorli bolalarning xususiyatlari yuqori energiya va keng kognitiv ehtiyojdir. Iqtidorli bola o'z tadqiqotidagi cheklovlarga toqat qilmaydi va uning bu xususiyati juda erta namoyon bo'lib, barcha yosh bosqichlarida uning eng muhim ajralib turadigan xususiyati bo'lib qoladi. Idrokning kengligi bilan ajralib turadigan iqtidorli bolalar atrofdagi dunyoda sodir bo'layotgan hamma narsani keskin his qiladilar va u yoki bu obyekt qanday ishlashini va tashqi sharoitlar o'zgarganda nima bo'lishini juda qiziqtiradilar. Ota-onalarning faoliyati bolaning shaxsiyatini, uning mustaqilligini bostiradi, egosentrizmni shakllantiradi, tashvish, gipertrofiyalangan mas'uliyat hissini rivojlantiradi, bu iqtidorli bolalar uchun qabul qilinishi mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, iqtidorli bolalarni aniqlash, ularni tarbiyalash va shakllantirish jarayoniga ta'lim muassasalari bilan ota-onalar bir xilda mas'ul. Shuni ta'kidlash kerakki, ota-onalarning bolalarning iqtidorliligiga bo'lgan munosabati, ko'pincha, quyidagi omillar bilan belgilanadi: ularning o'tmishdagi tajribasi (o'zlari bolaligida iqtidorli deb hisoblanganmi, turli bo'limlarda qatnashganmi yoki yo'qmi), ishdan va umuman hayotdan qoniqish va bu omillar yetakchi ta'sirlardan hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Х.К. Баркамол авлодни тарбиялаш оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлиги концепцияси. – Т., 2012.
2. Система работы с обучающимися с повышенным уровнем интеллектуального развития в условиях современного образовательного учреждения // сост. И.А. Боброва, О.В. Чурсинова – Ставрополь: СКИРО ПК и ПРО, 2012. – 177 с.

## 6-7 YOSHLI BOLALARNING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI DIQQAT YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ilmiy rahbar: F.R.Radjabova

NavDPI “Pedagogika va psixologiya”

kafedrasi o‘qituvchisi, [farangiza.radjabova@bk.ru](mailto:farangiza.radjabova@bk.ru)

Talaba: Ro‘ziqulova L.H

NavDPI Pedagogika va psixologiya

ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi,

[roziqulovalaylo2@gmail.com](mailto:roziqulovalaylo2@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 6-7 yoshli bolalarning intellektual salohiyatini oshirishda diqqatning ahamiyati, uning psixodiagnostikasi hamda uni rivojlantirish haqida ilmiy faraz va izlanishlar haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** intellekt, bilim, faoliyat, diqqat, ixtiyoriy diqqat, diqqat xususiyatlari, “Art terapiya”, “Musiqiy terapiya”.

**Аннотация.** В данной статье описывается значение внимания в повышении интеллектуального потенциала детей 6-7 лет, его психодиагностика, а также научные гипотезы и исследования о его развитии.

**Ключевые слова:** интеллект, познание, деятельность, внимание, произвольное внимание, особенности внимания, “Арт-терапия”, “Музыкотерапия”.

**Abstract.** This article describes the importance of attention in increasing the intellectual potential of 6-7-year-old children, its psychodiagnostics, and scientific hypotheses and researches about its development.

**Key words:** intellect, knowledge, activity, attention, voluntary attention, features of attention, “Art therapy”, “Music therapy”.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: ”Maktabgacha ta’lim – ertangi kunimizga zamindir”.

Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta’lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida kun sayin paydo bo‘ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o‘yin faoliyatlarining xilma-xil bo‘la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi.

6-7 yoshli bolalarda jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo‘ysunish, qoidali o‘yin shartlarini so‘zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado etish kabi hollarda ixtiyoriy diqqat turining jadal rivojlanib borayotganidan darak beradi. 6-7 yoshli bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya’ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning ma’lum bir mashg‘ulot ustida, ta’limiy faoliyatlarda, yoki biror bir qiziqarli o‘yinlar ustida uzoq vaqt zerikmay soatlab o‘ynay olishlari va bajarishlaridan bilishimiz mumkin.

Olti yoshli bolada ixtiyoriy diqqat o‘sib boradi. Shuning uchun o‘ziga yangi, notanish bo‘lgan bilimlar axborotlardan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlarga diqqat-e’tibor qilib o‘tiradi. Kattalarning xatti-harakatlarini, ular bajarayotgan ishni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Uning o‘z maqsadi sari intilishi, mustaqilligi, jasoratligi bolaning iroda kuchidan kechinmalar rivojlangan bo‘ladi. Ayni paytda

bolaning yaxshi yoki yomon xatti-harakatlarning sezishi, go'zallikning idrok qilishi katta odamlarnikidan sifat va maqsad jihatdan farq qiladi. Ayniqsa, uning aqliy hislari mazmunan sayoz, davomiylik jihatdan beqarordir [E.G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. T.;2010. 234 b.].

6-7 yoshli bolalarda avvalgi davrga nisbatan diqqatning ko'lami (hajmi) ancha kengayib boradi. Biroq bu yoshdagi bolalarda diqqat ko'lami kattalarnikiga nisbatan ancha tor bo'ladi. Masalan katta odamlar diqqatining ko'lami ayni vaqtning o'zida 5-6 narsani miyasiga singdira olsa, 6-7 yoshli bolalarda esa bir vaqtning o'zida 1-2 narsani yoki ma'lumotni miyasiga singdira oladi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Maktabda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatlarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. 6-7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha, bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Tahlillarimiz natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz;

- Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni interfaol va rangdor ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda olib borish;

- "Art terapiya", "Musiqiy terapiya" mashg'ulotlarini kun tartibiga kiritish;

- Aynan diqqati beqaror bolalarni aniqlab, ularning ismlarini mashg'ulot davomida tez-tez takrorlash;

- Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda reglamentga qat'iy rioya qilish;

So'z yakunida shuni alohida ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni asosiy va muhim jihati sifatida qarashimiz lozim.

Psixologiyada diqqatni diagnostika qilish hamda rivojlantirish uchun bir nechta metodlar qo'llaniladi. Shulardan:

- Segen doskasi;

- Peron-Ruzer metodikasi;

- Gorbov Shulte jadvali;

- Krepelin bo'yicha sanash va hisoblash;

- Koss kubiklari;

- Link kubi va shu kabi yana ko'plab metodika, test va subtestlar mavjud.

Aytib o'tish jaoizki, mazkur metodikalarda har bir yosh davri uchun alohida qiyinlik darajalar hamda baholash shkalalari mavjud bo'lib, mazkur ko'rsatkichlar bolalar diqqat xususiyatlari diagnostikasi hamda rivojlantirish uchun mashqlar to'plami sifatida xizmat qilishi mumkin.

Qo'l ostimizdagi tarbiyalanayotgan hamda rivojlanayotgan bolaning qanday yo'nalishda shakllanishi so'zsiz biz kattalarga bog'liqdir. Bolani har tomonlama rivojlantirish, shu bilan birga unda intellektni ham shakllantirishga nafaqat mutaxassislarni, balki ularning ota-onalarini ham jalb qilishimiz lozimdir. Bolaning shaxsiyatiga faqatgina birgalikda ta'sir qilish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bu esa faqat o'zaro ishonch va samarali hamkorlik muhitida amalga oshiriladi [M.N.Babakulova, F.R.Radjabova. Развитие эмоционального интеллекта дошкольника. EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. 2019 y. 52 b.].

Biz o'z ilmiy izlanishlarimiz har bir mutaxassis uchun mazkur yosh davridagi bolalarning diqqatini to'g'ri o'lchash, zarur hollarda to'g'ri korreksion va rivojlantiruvchi amallarni qo'llashlari haqida ma'lumotlar tayyorladik. Mazkur yosh davrda har bir bolada intellektual rivojlanish darajasi turli

psixologik jarayonlar bilan bog'liqligi barchaga ma'lum, ushbu maqola 6-7 yoshli bolalarda intellektual rivojlanishida diqqat rivojlanishi muhimlining bir qisminigina ochib beradi xolos. Bu mavzudagi izlanishlarni boshqa ilmiy ishlarimizda davom ettiramiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. –T.; 2010. 234-b.
2. M.N.Babakulova, F.R.Radjabova. Развитие эмоционального интеллекта дошкольника. EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. 2019-y. 52-b.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=o9Mrek4AAAAJ&citation\\_for\\_view=o9Mrek4AAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=o9Mrek4AAAAJ&citation_for_view=o9Mrek4AAAAJ:u-x6o8ySG0sC)

### **INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARDAN NOTIQLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Rahimova Maftuna Avazovna,  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) fakulteti  
1-kurs magistranti, Navoiy,  
O'zbekiston Respublikasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola chet tilini o'rganishda Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ulardan notiqlik mahoratini rivojlantirishda foydalanishning dolzarbligini ochib beradi, innovatsion ta'lim texnologiyalari tashkil etish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Chet tili darslarida o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishini hisobga olgan holda Innovatsion ta'lim texnologiyalari foydalanish imkoniyatlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** texnikaviy, audiovizual, yangilik, innovatsiya, innovatsion jarayonlar, kommunikativ kompetensiya, texnik vositalar.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается актуальность инновационных образовательных технологий при изучении иностранного языка и их использование в развитии навыков говорения; Рассмотрены этапы создания инновационных образовательных технологий. Описаны возможности использования инновационных образовательных технологий на уроках иностранного языка с учетом саморазвития учащихся.

**Ключевые слова:** технические, аудиовизуальные, инновации, инновации, инновационные процессы, коммуникативная компетентность, технические средства.

**Abstract.** This article reveals the relevance of innovative educational technologies in learning a foreign language and their use in the development of speaking skills; The stages of creation of innovative educational technologies are considered. Possibilities of using innovative educational technologies in foreign language lessons, taking into account self-development of students, are described.

**Key words:** technical, audiovisual, innovation, innovation, innovative processes, communicative competence, technical tools.

Ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar jarayonining o'ziga xos bo'g'ini sifatida chet tillarni mamlakat yoshlariga o'rgatish kun tartibidagi dolzarb vazifalar sirasiga kirdi. Bu masalalarni yechishda, bir tomondan, qardosh xalqlar vakillari va respublikada yashayotgan xalqlarning tillarini o'qitishni saqlab qolish, ularni kuchaytirish va kengaytirish, ikkinchidan esa, juda katta qiziqish uyg'otgan xorijiy tillarni, xususan, G'arb va Sharq xalqlari tillarini o'qitishni kuchaytirish yo'lidan borilmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimi yetti tilda olib boriladi. Ular: o'zbek, rus, qaraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillari. Qariyb 90 foiz maktablarda o'qish o'zbek tilida olib boriladi. Mamlakatimizda 5,5 foiz maktablarda o'qish – rus tilida, 2,5 % – qaraqalpoq tilida, 2 foiz – tojik tilida, 0,4 % – qirg'iz tilida, 0,2 foiz – turkman tilida olib boriladi. Ta'lim jarayoni shunday qurilganki, o'quvchilar o'z ona tili bilan birgalikda, bir necha boshqa chet tillarini o'rganish imkoniyatiga ham

egadirlar. Shuning uchun keng aholi qatlamlari ichida o'z ona tilidan tashqari, rus tili va bir necha xorij tillarini bilganlar soni kundan kun ko'payib bormoqda.

Ingliz tilini o'qitish va bu tilni keng miqyoda o'rganilishi mazkur tilni jahon ilm-fani, iqtisodiyoti, madaniyatida yetakchi bo'lgan muloqot vositasiga egalik qilishni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tilni o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llanilishi dolzarbdir. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-mayda "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bizning mamlakatimizda ham bu borada ishlar yangi bosqichga ko'tarilganini hamda jamiyatimizni dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sari izchil odimlayotganini anglatadi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib bormoqda, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayoning ajralmas qismiga aylanib borayotgan unda o'zini ma'lum xususiyatini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual, audio vositalar ham mavjud bo'lib, ular innovatsion ta'lim texnologiyalarni real voqelikka aylantiradi.

Texnologiyalarni tatbiq etishi hamda talabalarga eng so'nggi yangiliklar asosida bilimlarni yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlarga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Chunki pedagogik texnologiya va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bizning pedagogik innovatsiyani yaratilishi va rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati, ta'lim tizimidagi maktablarning tez rivojlanishi, modernizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarni yangilanishiga bo'lgan katta ehtiyoj tug'ildi. Yangiliklarni izlash, yaratish, qo'llash ishlari jadallashib bordi. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, "yangilik", "innovatsiya" va "innovatsion jarayonlar" paydo bo'ldi.

Umuman olganda, zamonaviy ta'lim va til o'rgatish metodlarini qo'llash zamonaviy ingliz tilini o'qitish metodikasining sezilarli rivojlanishini anglatadi. Darhaqiqat, zamonaviy metodlar asosida ingliz tilini tezkor (intensiv) o'qitish talabalarning o'qituvchilar bilan ijobiy aloqalarini kuchaytiradi va ingliz tilini o'rganishni rag'batlantirish xususiyatlarini ham o'zida namoyoni eta oladi. Ingliz tilini tezkor (intensiv) o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ingliz tilini o'qitish bilan bevosita bog'liq bo'lgan va kerakli maqsadlarga erishishga olib keladigan usullar, vositalar, materiallar, moslamalar, tizimlar va strategiyalarning innovatsion qo'llanilishini o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, mamlakatda rasmiy ta'lim tizimi bilan birgalikda respublikaning barcha hududlarida norasmiy va noformal xorijiy tillarni o'qitish, ularda o'quvchilarni chet tillari bo'yicha testlar topshirishga tayyorlash yoki o'quvchilarning til malakasini o'stirish markazlari ko'plab ochildi va ular keng faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ko'pchilik xorijiy davlatlarning elchixonalari qoshida ham til o'qitish markazlari ochilgan bo'lib, ular istak bildirganlarni o'z mamlakati tiliga o'qita boshladi. Mana shunday til markazlari Germaniyaning DAAD, Koreyaning KOIKA, Yaponiyaning JICA, Isroilning MASHAW, Hindiston madaniyat markazi, AQSHning EDUCATIONAL EXCHANGE PROGRAM, Buyuk Britaniyaning BRITISH COUNCIL kabi tashkilotlari, ularda tashkil qilingan resurs markazlar, madaniyat markazlari, kutubxonalar, internet materiallari, tyutorlik xizmatlari, stajirovkalar va xorijiy ellarga tanlov asosida o'qishga yuborish xizmatlari, shuningdek Xitoy, Fransiya va boshqa davlatlar elchixonalarida tashkil qilingan til markazlari faoliyat olib bormoqda. Elchixonalar tarkibida tillar bo'yicha turli tanlovlar, xorijiy stajirovkalar o'tkazish an'anaga aylangan.

Bizning fikrimizcha, talabalarning notiqlik mahoratini rivojlantirish o'rganilayotgan texnologiyalar kontekstida kommunikativ kompetensiyaning samarali rivojlanishini ta'minlaydi, bu

nafaqat talabalarning og‘zaki va yozma nutqi ko‘nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi, balki lingvistik oliy o‘quv yurtlari bo‘lajak mutaxassislarining kasbga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini ham zarur darajaga ko‘taradi. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi hisoblanuvchi notiqlik mahorati kasbiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega, chunki bugungi ish muhiti ko‘proq fikrlash, o‘zaro muloqot asosida muammolarni hal qilish qobiliyatini talab qiladi. Bu holatni ta‘limga ham moslash mumkin. Shu maqsadda chet tili o‘qituvchilariga hayot realiyalariga tayyorlashning bir usuli sifatida notiqlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va rivojlantirishni o‘quv dasturiga kiritish tavsiya etiladi.

Zamonaviy jamiyatni modernizatsiya qilish lingvistik oliy o‘quv yurtlari talabalari tomonidan notiqlik mahoratini, nutqiy kompetensiyani yanada rivojlantirish va ma‘lumotlarning ishonchligini baholash uchun o‘quv jarayoniga innovatsion ta‘lim texnologiyalarini kiritish masalasini ko‘taradi. Bugungi intensiv ta‘lim jarayonida mavjud muammolarga yechim hisoblanadigan, xususan, turli metod va usullardan foydalanish talabalarga notiqlik mahoratini rivojlantirishning mazmunli tarkibiy qismi bo‘lib, fikrimizcha, ular ta‘lim maqsadiga erishish uchun muhim komponent hisoblanadi.

Talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini va notiqlik mahoratini rivojlantirishda yordam beruvchi didaktik vositalar o‘quv maqsadidan kelib chiqib, ya‘ni fikrlarni erkin va ravon bayon eta olish, har qanday masala va mavzuda bahslash olish va o‘z fikrini isbotlay olishga o‘rgatish maqsadlariga differensial yondashgan holda tanlab olinishi lozim. Agar og‘zaki nutqqa o‘rgatuvchi vositalarni bir kompleks holda oladigan bo‘lsak, ularni o‘rgatishda foydalaniladigan texnik vositalar ham shu asosda bo‘lishini ta‘minlashimiz lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, notiqlik mahoratini rivojlantirishdagi kompleks yondashuv turli imkoniyat, vazifa va didaktik funksiyaga ega bo‘lib, u o‘qituvchi va talabaning o‘quv jarayonidagi faoliyatini tashkil qilishga yordam beradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda biz 2-kurs talabalarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali notiqlik mahoratini yanada shakllantirish maqsadida innovatsion ta‘lim texnologiyalarining bir necha metod va usullari asosida bir qancha pedagogik texnologiyalarni tahlil qildik va ishlab chiqdik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. To‘laganov A. Sahna nutqi. –T.: Musiqa, 2010.
3. The Columbia Encyclopedia. – USA: Columbia University Press, 1993. – P. 2091-2092.
4. Платон. Диалоги. – М.: Эксмо, 2007. Т. 1. – С. 554.
5. <http://rithelp.ru/2010/12/klassicheskaya-ritorika>
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 7-j. – B. 33.
7. Габуниа З., Башиева С. Риторика как часть традиционной культуры. – Нальчик, ЭЛЬФА, 1993. – С. 3-4.

#### **MNEMONIKA YORDAMIDA KITOB O‘QISHNI ODAT QILISH YO‘LLARI**

**Rajabova Afruza Saloxiddinovna**

**Navoiy shahridagi №1-AFCHO‘IM o‘quvchisi**

**Ilmiy rahbar: prof. D.I.Kamalova**

**Navoiy davlat pedagogika instituti professori, t.f.d. (DSc)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mnemonika yordamida kitob o‘qishni odat qilish yo‘llari haqida takliflar keltirilgan. Mnemonika yordamidagi usullardan foydalanib kitob o‘qishlik insonni xotirasini mustahkamlashi hamda kitob o‘qishni odat qilishga zamin yaratishi ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** kitob, mnemonika, innovatsiya, xotira, maslahat, nutq, ishonch, rag‘bat.

Biz hozir innovatsion texnologiyalar davrida yashamoqdamiz, shunga ko‘ra kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqimiz susayib bormoqda. Darhaqiqat, ko‘pgina insonlar uchun telefon titkilash bir varoq kitob o‘qishdan ko‘ra afzalroq. Bu toifadagi insonlar kitobdagi harflarni tanishadi, kitob o‘qishni ham

bilishadi, ammo kun tartibiga besh daqiqa kitob o'qishni kirita olishmaydi. Agar kitob o'qishni mnemonika yordamida odat qilishga o'rgansak, bu bizga ijobiy natijalar olib keladi.

Mnemonika (yunonchadan olingan bo'lib, mnemonika – eslab qolish sa'nati) – sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimidir. Biz siz bilan birgalikda bir nechta mnemonik usullarni ko'rib chiqamiz.

✓ Birinchidan, bizga maslahat berilgan kitoblarni emas, balki o'zimizga qiziq bo'lgan kitoblarni olib o'qishimiz lozim. Maslahat berilgan kitoblar bizga qiziq bo'lmasligi mumkin va biz u kitoblarni o'qishni boshlaganimizda o'qigimiz kelmay o'qiyimiz va boshqa kitob o'qishni ham istamay qolamiz.

✓ Ikkinchidan, o'zimizga savol beraylik! Kitob o'qish uchun qaysi vaqt qulay? (O'qish vaqtini rejalashtiring). Kunimizni istagan uchdan bir qismini kitob o'qishga sarflashga odat qilishimiz darkor. Asosiysi, kitob o'qishni odat qilganimizdir.

✓ Uchinchidan, "Feynmen" usuli ya'ni kitobni go'yoki boshqa odamga aytib berishimiz kerakdek o'qiyimiz. Chunki, biz hozir kimlargadir ushbu o'qiyotgan kitobimizni so'zlab beramiz deb o'ylaymiz. O'qigan kitobimiz haqida qancha ko'p gapirib bersak:

1. So'z boyligimiz oshadi.

2. Nutqimiz ravon bo'ladi.

3. Gelotofobiya bo'lmaydi (inson sahnaga chiqqanida masxara bo'lishidan qo'rqish degan hissiyot).

4. Ishonch kuchayadi.

✓ To'rtinchidan, "Split" usuli. Yoqtirgan ishingiz bilan kitob o'qish jarayonini bog'lang (O'zingizni o'zingiz rag'batlantiring). Masalan, yoqtirgan ishimiz telefon titkilash, lekin biz kitob o'qishimiz kerak. Biz 25 daqiqa telefon titkilash uchun, 25 daqiqa kitob o'qiyimiz. Bu bizga rag'bat bo'ladi. Telefon titkilamoqchi bo'lsak, miyamiz birinchi kitob o'qiyimiz keyin esa telefon ko'ramiz deydi. Asta-sekin telefon titkilash vaqtini kamaytirib, kitob o'qish vaqtini ko'paytiramiz.

✓ Beshinchidan, chalg'imaslik. Hamma inson kitob o'qiganda chalg'iydi: Masalan: ukangiz kelib qoladi yoki kimdir eshikni taqillatadi... Biz varoq va ruchka olamiz, har chalg'iganimizda o'sha varoqqa ruchka bilan bitta chiziqcha qo'yamiz hamda har kunlik chiziqchalar sonini yozib boramiz. Diqqatimizni tekshirish maqsadida varaqni saqlab qo'yamiz. Kitobni o'qib bo'lgandan so'ng bu chiziqchlarni taqqoslaymiz. Mana shu chiziqqlar kamayishiga va diqqatimiz bo'linmasligiga harakat qilamiz.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, yuqorida aytib o'tilgan mnemonika yordamidagi usullardan foydalanib kitob o'qishlik insonni xotirasini mustahkamlaydi hamda kitob o'qishni odat qilishga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.A.Abdullayeva, D.A.Ahatova, B.B.Sobirov, S.S.Sayitov. "Pedagogika". O'quv qo'lanma. – T. Fan. 2004. 78 b.

2. D.I.Kamalova, O.D.O'rinova, S.O.Hamidova. Mustaqil ta'limni tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar. Journal of universal science research. Volume 1. Issue 1. 17 january. 2023. pp. 182-186.

3. D.I.Kamalova, S.N.Abdusalomova. Zamonaviy axborot texnologiyalari. Conference on universal science research 2023. Volume 1. №1. 17 january. pp. 76-79.



## ZAMONAVIY PEDAGOGIK FAOLIYATIDA PEDAGOG SHAXSINING INSONPARVARLIK TAMOYILLARIGA ASOSLANISHI

NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi, N.G.Meyliyeva  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi Saidova S.

**Annotatsiya.** Maqolada uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash, ta'lim- tarbiya samaradorligini yangi bosqichiga ko'tarish xususida fikr bayon etilgan.

**Аннотация.** В статье представлен взгляд на модернизацию системы непрерывного образования, поднятие эффективности образования на новую ступень.

Annotation. The article presents an opinion on modernizing the continuous education system, raising the effectiveness of education to a new stage.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, modernizatsiyalash, tarbiya, samaradorlik, sifat, yoshlar manfaatlarini himoyalash.

Ключевые слова: система образования, модернизация, образование, эффективность, качество, защита интересов молодежи.

**Key words:** education system, modernization, upbringing, effecton, quality, safety of yongth interests.

Uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishdan asosiy maqsad yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishini ta'minlashdir. Davlatning bugungi va istiqloldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosta bog'liqdir. Hayotda rejali ish hamisha samara berib kelgan. Shu jihatdan olganda pedagog o'z ish faoliyatini reja asosida maqsadli tashkil etadi.[1]

Ma'lumki, pedagogik faoliyat – bu pedagogning talabalarga ta'lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional faolligidir. Pedagog bu mazkur faoliyatning bir necha turlarini bajaradi: o'qitadi, tarbiyalaydi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, tashkil qiladi, targ'ibot yurgizadi, mustaqil bilim olish bilan shug'ullanadi. Bularning hammasi bevosita yoki bilvosita o'qitish va tarbiyalash vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyati maqsad va vazifalarni faoliyatining motivatsion-oriyentirlash bosqichi, vaziyatini tushunishi namoyon bo'ladi, motivlar tug'iladi, faoliyatga ruhiy tayyorgarlik vujudga keltiriladi, maqsad va vazifalar qo'yiladi va o'zgartiriladi, pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari (faoliyatni ijro qilishning dastlabki bosqichi, pedagog talabalarining psixik rivojlanishlarga ta'sir o'tkazishi); pedagogik o'z-o'zini tahlil qilish usullarini (nazorat-baholash bosqichida) pedagog qo'yilgan vazifani hal etadi va buning uchun mavjud sharoitlar nuqtayi nazaridan o'z harakatini tahlil qiladi va tuzatishlar kiritadi) o'z ichiga oladi. Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini yangilash, unga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish bugungi kunning eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugun tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Mazkur vazifani hal qilishda pedagog insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", – degan edi. Shuning uchun ham pedagog shaxsining insonparvarlik mahorati yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini e'tirof etish lozim.

Zamonaviy pedagogga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi. Bolalarni kuzatish, ularni o'sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy g'oyalar bilan taqqoslash, rivojlanish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir-biriga o'tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi, uning shaxsi, xarakteri, talabalar bilan muomalasiga, eng asosiysi, kompetentligiga bog'liq bo'ladi. Bunday pedagoglarning ilhombaxsh muammolaridan talabalarda o'qishga intilish, o'zlarida yanada yaxshiroq o'qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo'ladi. Bu holda ta'lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarini amalga oshirish va undan pedagogga axloqiy fazilatlarini o'tkazish vositasiga aylanadi.

Kasbiy kompetensiya funksiyalaridan biri – empatiya, ya'ni hamdard bo'lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtayi nazarini ma'qullash, qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda talabani, uning istaklarini tushunish va bular asosida talabalarni ta'sir etish zarurligi anglash pedagog uchun juda muhimdir.[2-302b]

Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki talabalarni o'z shaxsini namoyon qilishlarini va o'z shaxsiy qobiliyatini ham ko'rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirish zarur.

Insonparvarlik yo'nalishi kommunikativ moslashishda ham muhim o'rin egallaydi, chunki pedagogik vaziyatlar odatda juda tez rivojlanadi va butun pedagogik jarayon harakatlanuvchi kommunikativ sistema sifatida gavdalanadi. Uni samarali boshqarish pedagog tomonidan muloqot ketma-ket moslashuvlarni topa olinishiga bog'liqdir. O'zaro ta'sir uchun tanlangan noto'g'ri pedagogik xatti-harakat yoki noto'g'ri muloqot shaklini qo'llanilishi, ya'ni muloqotga uni amalga oshirish nuqtayi nazaridan tayyorlanmaganlik, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.[3]

Shunday qilib, zamonaviy o'qituvchining pedagogik faoliyatida amaliy-konstruktiv malakalari o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilish zarur. Pedagogik faoliyat davomida pedagogik vazifa (pedagogik maqsad)larni qo'yish va uni o'zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya, tahlil etish, baholash, o'zini-o'zi tuzatish (pedagogik refleksiya) va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni –T., 2020.
2. I.A.Karimov Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. –T., O'zbekiston, 2015., 302-b.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

### **BUGUNGI O'ZBEK SHE'RIYATI SHAKLIY VA USLUBIY YANGILANISHLAR**

(xatirchilik shoirlar ijodi xususida)

**Sevinch OMONOVA,  
NDPI O'zbek tili va adabiyoti  
fakulteti 4-kurs talabasi**

**Annotatsiya.** Maqolada xatirchilik ijodkorlar: Faxriyor va Boboqand Mirzo she'riyatining o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, adabiy muhit, san'at, badiiy tafakkur, obraz, baxshi, og'zaki adabiyot, modern, ma'rifat.

Qadim Xatirchi azaldan ilm-u irfon, san'at va madaniyatga beshik bo'lgan. Bunga tarix shohid. Xatirchi – islomiy ma'rifat darg'alari, baxshi-shoirlar, olim-u fuzalolar yetishib chiqqan zamin. Darhaqiqat, baxshilar yurti bo'lgan Xatirchida og'zaki va yozma adabiyotning nodir namunalari milliy adabiyotimiz rivojida muhim ahamiyatga ega. XX asr o'zbek she'riyatida Amirqul Po'ltan, Xosiyat

Bobomurodova, Islom Hamro, Faxriyor, Boboqand Mirzo va boshqa ko‘plab ijodkorlarni ko‘rsatish mumkin.

Mustaqillik davri adabiyoti badiiy adabiyotning azaliy tutumlarini: ko‘ngil sezimlari ifodasi, insonni anglash falsafasi, shaxsning botiniy tuyg‘ularini ziddiyatli tasvirlarigacha ochib berish kabi vazifalari o‘rniga qo‘ya boshladi. Dunyo adabiyotining ilg‘or fikr-qarashlari, oqim va yo‘nalishlariga yaqin adabiy bitiklar yaratila boshladi. Shakl va uslubda mavjud an‘analarni yangilanishi o‘quvchilar uchun badiiy tafakkurning miqyoslarini oshirdi. Bugungi adabiyotda modern, postmodern adabiyoti xos ko‘rinishlar kitobxonda nafaqat she‘rdan zavqlanish, balki uni tuyish, tushunish, fikrlash ko‘nikmalarini shakllanishiga ham turtki bo‘lmoqda. Hozirgi adabiy jarayonda Faxriyor ijodi mavzu, uslub, shakl va ifoda tarzi bilan mavjud qoliplarni yorib chiqqan badiiyat namunalari. Yozuvchi Nazar Eshonqulga ko‘ra uning she‘rlari “sim-sim” degan bilan o‘quvchiga qalbini ochavermaydigan, “tasavvurga dosh berish”ga undaydigan, fikrlash, mushohadagina orqali zavq topadigan ijod namunalari. Bu o‘quvchida ma‘lum tayyorgarlik, so‘zni his qilish, obraz, metaforani tushunishni talab qiladi.

Tong o‘rniga qayg‘ular otar –

Kimni.

Bizni yashashga, oyoqlantirgan tong turfa qayg‘ulari bilan “o‘qlar otar”. Kimdir to‘y qilish, kimdir o‘qish, yana kimdir uy qurish qayg‘usida uyg‘onadi. Bu o‘rinda shoir hech kimga aql o‘rgatish yoxud tong fazilatlarini sanashni emas, shunchaki tongning falsafiy mohiyatni tasvirlab bergan.

Men tog‘ emas, armonga botdim,

To‘lqinlari ko‘mar yuzimni,

Mavjlarning ostida yotdim.

Hissiyot, fikrga nisbatan ikkinchi planga ko‘chadi. Chunki armonning botishini, to‘lqin singari mavjlanishini his qilishdan ko‘ra tassavvur qilish osonroq. Tasavvur tasvir orqali yuzaga chiqadi. She‘rda fikr hissiyotga nisbatan ustun. Unda fikr, holat tasviri, tasavvur orqali qalb prizmasidan o‘tadi. Faxriyor she‘riyati bilan o‘zbek poeziyasiga yangi uslubiy jilolarni olib kirdi. Faxriyorning “Sensizlik” deb nom olgan turkum she‘rlarining muayyan qismi muhabbat mavzusida. “Lahzada sevgimiz qaridi”, “Qolmasligingga qolmoqda kunim”, “Ishq atalgan alamzorlarda”, “She‘r unmagan qalamzorlarda”, “Vido fasli – ayni namozgar”, “Kun qon qusar volalarimdan”, “Muhabbatim aqldan ozgan”, “Yurak ketdi, qolaverdim men”, “Menda endi hech kim yashamas”, “Muhabbat – armonli tengsizlik”, “Qoshlar aro ayriliq yashar” singari misralarda o‘z so‘zini ayta olgan shoirning uslubi yarqirab ko‘rinadi.

Shoir ijodi tadrijiy takomil nuqtayi nazardan kuzatilganda, hayot ziddiyatlari, charxi kajraftor, aql-idrokka zid haqiqatlarga duch kelish mumkin. Boshqa shoirlar singari Faxriyor hayotni, yoshlikni kuylagani yo‘q. Yoki tabiatning go‘zalliklaridan, hayotning past-baland ishlaridan hayratlanib, quvonchi hayajonlarini she‘rga solgani yo‘q. Ba‘zan ham romantik xayollar og‘ushida ishqiy motivdagi asarlarni yaratdi. Biroq bu kabi she‘rlarida ham hayajonga nisbatan fikr ustunligi yaqqol sezilib turadi. Shu sabab uning ijodida hazil-mutoyiba, piching, kesatq she‘rlar umuman uchramaydi.

Men seni tushlarga boy berib qo‘ydim,

Adashdim muhabbat o‘rmonlarida.

Goho suydim seni, gohida to‘ydim,

Lek umid miltillar ko‘ngil qa‘rida.

Tashbehning kuchligigi, o‘xshatishning originalligi, fikrning tiniqligi Faxriyor sonetlaridagi o‘ziga xoslik belgilovchi jihatlardan.

Insoniyat yashab turgan olam sir-sinoatga to‘la. Uni bilish, mazmun-mohiyatini anglab yetish uchun bir inson umri yetmaydi. Lekin odamzot shu qisqa umri davomida dunyoni tushunishga intilaveradi. Olimlar dunyoni kashf etsalar, shoirlar uning go‘zalliklarini she‘r qiladilar, ne‘matlariga shukronalar keltiradilar. Borliqni, odamzotni, insoniy munosabatlarni o‘zida jamlagan bu dunyo naqadar rangin, naqadar turfa xildir.

Davrlar o‘zgarib, yangilanib borgani singari badiiy so‘zga bo‘lgan qarashlar, ehtiyojlar ham davr ruhidan turib yangilanib boraveradi. Keyingi davr o‘zbek she‘riyatiga kirib kelgan bir qator yosh qalamkashlar ijodi misolida bunga yana amin bo‘lamiz. She‘riyat maydoni bugun yanada kengayib, mavzular, shakliy va uslubiy izlanish, fikriy qarashlar turfalanib bormoqda.

Dunyoning mavjudligini, uning turfa xilligini tarannum etuvchi, qog'ozga tushiruvchi bu, albatta, shoirdir. Shoir dunyoni, borliqni o'zgacha nigoh bilan kuzatadi. Insonlar uchun oddiy bo'lib ko'ringan voqea – hodisalar ijodkor uchun muhim voqea, asar uchun asosiy detal, narsa – predmet bo'la olishi mumkin. Shoir ana shu ko'rgan-kechirganlarini, kuzatganlarini o'z tafakkuri orqali sintezlashtiradi, o'zining ma'naviy dunyosi orqali jonlantiradi va turli poetik timsollarni yaratadi. Shoir yaratgan timsollarda orzulari, o'y-xayollari, tasavvurlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Har bir shoirning dunyoqarashi, ma'naviyati, xarakter xususiyatini yozgan she'rlari orqali bilib olish mumkin.

Boboqand Mirzo she'rlarida ko'ngil iztiroblarining turfa ranglariga guvoh bo'lamiz: unda o'zini muttasil izlayotgan "MEN", azaliy so'roqlarga javob topishga, so'z orqali ko'ngil og'riqlariga malham bo'luvchi qadimiy iztiroblar suvratiyu, qalb dardini faqat qog'ozga ishongan oshiq, so'zga, insonga, tabiatga oshiq obrazini ko'ramiz. Inson o'zini o'ziga qamab tashlagan hilqat. U mudom o'zini o'zidan izlaydi: iztirob chekadi. Qalbi uyg'oq odamgina o'z "men"i oldida o'zini gunohkor sezadi. Bu holni shoir shunday ifodalaydi:

Sizni sog'inmoqni chindan xush ko'rib,  
Bugun makon tutdim, yolg'izlik – g'orni.  
Uyqumda uyg'ondim qorni tush ko'rib,  
Siz ham eslaysizmi birinchi qorni?!  
O, Vijdon!...

Bugungi qor yog'di sochimga...

Adabiyotshunos Ilhom G'aniyev: "Haqiqiy she'rga tabiiylik jozibasi, tiriklik nafasi jo etiladi... Tabiiylikning maxzanida tiriklik nash'asi, samimiylik, soddalik, hayot haqiqatlarining urug'lari bo'ladi", – deydi. Boboqand Mirzo she'rlarida biz ana shu soddalik so'zning samimiy ifodasida tabiiy tuyg'ular tasvirini ko'ramiz.

Boshim chiqmas ega, kesimdan,  
To'rtta so'zdan tuzolmadim gap.  
Sira-sira chiqmas esimdan,  
Ilk uchrashuv, yoshlik va maktab.

Bunday beg'ubor tuyg'ular kimning boshidan kechmagan deysiz. Boboqand Mirzo she'rlarida bolalik, yoshlik, hanuz o'sha shirin xotiralar bilan yashayotgan lirik qahramon tuyg'ulariga bot-bot duch kelamiz. Bu uninggina emas, kitobxonning ham dardiga aylanadi. Asl adabiyot ham shunda. Ijodkor o'z tuyg'ulariga she'rxonni esh qila olsagina, o'zi chekkan iztirob-u quvonchni unga ham yuqtira olsagina, haqiqiy ijod shu bo'ladi.

Bugun Bahor meni kuzatishga shay,  
Bugun qadamimga choh qazgan g'amlar.  
Men ham bu dunyoda bir bugun yashay,  
Ertaga...  
Quyoshdek so'nadi shamlar.

Ayt, nima gaping bor?!

Ketaman...

Jayron,

Gapir. Shoshayapman! Vaqtim juda ziq.

Bu zabun holimga yulduzlar hayron,

Meni xafa qilma gapirma achchiq.

Boboqand Mirzo she'rlaridagi ohang Oltinsoy suvlaridek beg'ubor, Langar tog'laridek mag'rurlik, Po'ltan shoir do'mbirasi sadolaridek goh mahzun, goh jo'shqin tuyg'ular yillar o'tgan sari teranlashib borayotganiga guvohman. Uning ilk she'rlarida ko'proq sevgi, sadoqat, yig'loqi oshiqning iztiroblariyu, chapdast, jo'mard yigitning ko'ngil kechinmalari ko'p tasvirlangan bo'lsa, bor-bora ular o'rnini ijtimoiy mavzular, falsafiy, mushohadaga boy, she'rxonni hayot sinovlariga teran qarashga undaydigan tuyg'ular tasviri egalay boshlaganini ko'rish mumkin. "Shayton", "Dunyo", "Ota uy", "O'lim" va boshqa she'rlarida bunga guvoh bo'lamiz.

Shahid ketgan yulduzlar misol,

–Jon taslim qil...  
O‘ldim tiramoh.  
Hijron-  
    meni  
        sog‘ingan  
            visol,  
Ko‘kda aza tutmas sira moh.

Ichikkan ul intizor Bahor,  
Qizg‘aldoqlar, lolalar kutar.  
Ikki og‘iz omonatim bor-  
Maktubimni yetkaz kabutar.

Men tufroqman.  
Suvlar sep Yog‘mur,  
Ko‘zingga surt xokisor yerman.  
Pichirlaysan nima deb Yog‘mur,  
Tahoratsiz yozilgan she‘rman.

Umr cho‘pchak...  
To‘qima deyman,  
Mag‘lubmisan, va yoki g‘olib.  
Tahoratsiz o‘qima deyman,  
Gunohimni bo‘yningga olib.

Ming asrni qoldim qoralab,  
Hamon o‘sha tufroqdurman bo‘z.  
Binobarin moziy oralab,  
Kammi  
    axir  
        shahid  
            ketgan

So‘z?!

Boboqand Mirzo she‘rlari orqali birovga aql o‘rgatish, falsafa suqishni maqsad qilmaydi: qalbining ochiq yaralari orqali dardini ko‘rsata oladi. Zukko kitobxon shoir dardi orqali o‘z og‘riqlariga malham izlaydi. Yuqorida aytganimizdek, asl adabiyotning a‘moli ham ana shunda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, milliy adabiyotimiz rivojida xatirchilik ijodkorning o‘rni katta. Faxriyor va Boboqand Mirzo she‘riyatining badiiy o‘ziga xosligi, mavzu ko‘lami, ifoda tarzi xususidagi mulohazalarimiz bunga shohidlik beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiy turlar va janrlar. – Toshkent: Fan, 1992.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
3. Faxriyor. Geometrik bahor. –Toshkent: Ma‘naviyat,2004.
4. Boboqand Mirzo. Ikkimiz ikki olam (She‘rlar). – Toshkent, 2019.

## **SUITSIDAL XULQ-ATVORNI YUZAGA KELTIRUVCHI IJTIMOY MUHIT OMILLARI**

**Shamshiyev Muslimbek Rahibek o'g'li**  
**O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi**  
**Andijon viloyati boshqarmasi**  
**Bolalar bilan ishlash bo'limi**  
**Buloqboshi tumani bo'yicha**  
**Inspektor-psixolog, leytenant**

Suitsidal xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy muhit omillari o'rgangan tadqiqotlarida eng ko'p ichki ishlar xodimlari orasida suitsidning kelib chiqish sabablari va motivlari hamda yosh va psixologik xususiyatlari, fiziologik va psixologik nosog'lomlik holatlarida suitsidal xulqning kelib chiqishi, shaxs xususiyatlarining suitsidga ta'siri va affektiv holatlarda suitsidal urinishning sodir etilishi kabilarni yoritishga harakat qilganlar. Umumjahon muammolardan biri hisoblangan o'z joniga qasd qilish hodisasini tadqiq qilishda barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda Suitsid muammosi, shu jumladan, suitsidal xulq-atvorga moyil ichki ishlar xodimlari Suitsidini psixiatrik, psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, 1989-yilda O'zbekiston hukumati qarori asosida Nizomiy nomli Toshkent davlat Pedagogika instituti "Psixologiya" kafedrasida qoshida tashkil etilgan "O'zbek xotin-qizlarining o'zini-o'zi yondirishining ijtimoiy psixologik sabablarini o'rganish" yuzasidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot guruhi va laboratoriyasi xodimlarining olib borgan ilmiy ishlari o'z joniga qasd qilish hodisasini ijtimoiy psixologik jihatdan tahlil qilishga muhim hissa qo'shdi.

Ilmiy – tadqiqot guruhi tomonidan va professor M.G.Davletshin tahriri ostida chop etilgan "O'zbekiston sobiq SSRda o'zbek ayollarining o'zini yondirishining ijtimoiy psixologik sabablarini o'rganish" nomli ilmiy metodik tavsiyanoma O'zbekistonda o'z joniga qasd qilish ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan dastlabki yirik asarlardan biri bo'ldi. Asarda mualliflar tomonidan o'zbek xotin-qizlarining o'z-o'ziga o't qo'yish sabablarini ko'rsatish bilan bir qatorda, ichki ishlar xodimlarida Suitsidal xulqning kelib chiqish sabablari, yosh xususiyatlari va kattalar Suitsidan farqi va o'ziga xosligi haqidagi qimmatli fikr va mulohazalarini ilgari suradilar. Jumladan, mualliflar fikriga ko'ra, yosh inqirozi ma'lum bir yoshga to'g'ri kelib, Suitsidal xulqning kelib chiqishiga bu xususiyat alohida o'rin tutadi. Shuningdek, tanglik holatlari ichki ishlar xodimlarida ijtimoiy-psixologik moslashishning izdan chiqishiga sabab bo'lib, ruhiy jarohatlanish holatlarini keltirib chiqaradi. Ruhiy jarohatlanish esa Suitsidal xulqning kelib chiqishida eng asosiy sabablardan biri bo'lib hisoblanadi. Ruhiy tanglik holatida suitsidal xulq-atvorga moyil ichki ishlar xodimlarida ham xuddi kattalar singari o'zining "Men" obraziga nisbatan bo'lgan munosabati izdan chiqib, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, natijada nizoli vaziyatga barham berishning to'g'ri yo'li o'rniga noto'g'ri, qaltis va Suitsid yo'lini tanlaydilar. Shuningdek, oilaviy munosabatlardagi turli xil nizolar va oilada bolalar tarbiyasida yo'l qo'yilgan nuqsonlar ham suitsidal xulq-atvorga moyil ichki ishlar xodimlarida suitsidal xulqning kelib chiqishiga ta'sir qiladi, degan fikr mualliflar tomonidan ilgari suriladi. Shaxsda kechayotgan depressiv holatlar va suitsidal xulq-atvor belgilarini bilish suitsidal xatti-harakatlarning oldini olish va aniq tashxis qo'yib, psixologik yordam ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu belgilar turli yosh davrlarida ham namoyon bo'lishi mumkin. O'z joniga qasd qiluvchilar guruhiga quyidagi shaxslarni kirishi mumkin.

- shaxslararo munosabatlari buzilgan "yolg'izlar";
- deviant va delikvent axloq bilan ajralib turuvchi, spirtli va narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilar;
- uzoq davom etayotgan depressiv holat;
- o'zini-o'zi o'ta yuqori darajada tanqid qiluvchilar;
- kamsitilish yoki yaqin kishisini yo'qotishdan, surunkali yoki oxiri o'lim bilan tugovchi kassaliklaridan azoblanayotganlar;
- frustrasiya, kassaliklardan yoki atrofdagilarni tashlab ketganligidan azoblanuvchilar; ijtimoiy muvaffaqiyatsiz oilalar – ota-onalarning birini oiladan ketish yoki ajralishi;

– suitsid sodir bo‘lgan oila farzandlari.

**Suitsid asosidagi emotsional buzilish belgilari:**

1. Ishtahaning yo‘qolishi yoki ochko‘zlik, oxirgi kunlardagi uyqusizlik yoki ko‘p uxlash.
2. Somatik holatdan tez-tez arz qilish (qorin og‘rig‘i, bosh og‘rig‘i, doimiy charchoq, ko‘p uxlash).
3. O‘z tashqi ko‘rinishiga nisbatan odatiy bo‘lmagan befarqlik.
4. Doimiy yolg‘izlik, kerak emaslik, aybdorlik va g‘am hissi.
5. Avval rohat bag‘ishlagan ishdan va yaqinlaridan zerikish.
6. Aloqalardan qochish, do‘stlar va oiladan yakkalanish.
7. Diqqatning buzilishi, ish sifatining pasayishi.
8. O‘lim haqidagi fikrlarga berilish.
9. Kelajak rejalarining yo‘qligi.
10. Arzimagan narsalar uchun g‘azablanish.

**Suitsidga tayyorgarlik belgilari:**

1. O‘z ishlarini tartibga keltirish, qimmatbaho buyumlarini tarqatish, yig‘ishtirish.
2. Xayrlashuv. Odamlarga turli vaqtlarda ko‘rsatgan yordamlari uchun minnatdorchilik bildirish shaklida bo‘lishi mumkin. Uzoqdagi kamdan-kam ko‘rishadigan qarindoshlari yoki tanishlarini yo‘qlash.
3. Tashqi mamnunlik, quvvatining ko‘payishi. Agar o‘zini o‘ldirish Haqidagi qaror qabul qilingan, reja tuzilgan bo‘lsa, bu haqidagi fikrlar uni qiynamay qo‘yadi, kuch-quvvat ko‘payadi. Tashqi xotirjamlik – o‘zini o‘ldirish fikridan qaytgandek ko‘rinadi. Kuch-quvvatning ko‘payishi chuqur depressiyadan xavfliroq bo‘lishi mumkin.
4. Yozuvli ko‘rsatmalar (xatlarda, kundalikda).
5. So‘zli ko‘rsatmalar yoki tahdidlar.
6. Impulsiv ichki ishlar xodimlarida g‘azablanish.
7. Uyqusizlik.

**Suitsidal xulq-atvor toifalari.**

Namoyishkorona axloq – o‘ziga, o‘zining muammolariga e‘tibor qaratish, yordam so‘rash, atrofda gilarni qo‘rqitish, ularning nohaq ekanliklarini anglatish. Usullari: venani kesish, zaharli bo‘lmagan dorilar qabul qilish, o‘zini osishni namoyish qilish. Affektiv axloq – yorqin emotsiyalar ta’siri ostida impulsiv tarzda, hech qanday rejasiz Suitsidal harakat amalga oshirilishi mumkin. Usullari: o‘zini osishiga harakat qilish, zaharli va kuchli ta’sir qiluvchi vositalarni qo‘llash. Haqiqiy Suitsidal axloq – harakatning o‘ylangan rejasi bilan farqlanadi. Unga tayyorgarlik ko‘riladi. Yaqinlariga o‘z harakatlari sabablarini tushuntiruvchi xat qoldiradilar. Usullari: o‘zini osishi yoki balandlikdan tashlash. Suitsidal xulq-atvorning belgilarini aniqlovchi diagnostik ishlar alohida e‘tiborni talab etadi. Chunki ba’zi shaxslarda kuchli inqirozli vaziyatlarda subyektiv kechinmalarni uchratmasligimiz mumkin.

Maktab o‘quvchilari bilan olib borgan faoliyatimiz natijasida quyidagicha xulosaga keldik, bugungi kunda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biridir. Ruhiy sog‘lom, ma’naviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga, balki o‘z kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida o‘quvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta, bunday tanglik holatlari o‘quvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa depressiya va suitsidal xulq-atvor diagnostikasini qiynlashtiradi. Ulardagi depressiv holatlarni tushunish uchun o‘z shaxsi shakllanayotgan atrof-muhit katta ahamiyatga egadir. U o‘zining hayotni idrok qilishi xarakteriga, qadriyatlar tizimi va shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir etadi.

# INTELLUKTUAL YOSHLARNI RIVOJLANTIRISHDA LABORATORIYA ISHINI BAJARISH BOSQICHLARI

2-kurs talabasi Jo‘rabekov Jamshidbek Yo‘ldosh o‘g‘li  
dots. Shertaylaqov G‘ayrat Murodovich  
Jizzax Politexnika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy dunyodagi ijtimoiy jarayonlarning aniq va puxta bajarilishini belgilash va muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta‘minlash, intellektual yoshlarni laboratoriya ishini bajarishni amalga oshirilganda muvaffaqiyatga erishish va talabani mustaqil tayyorlashning muhim xususiyatlari, didaktikaning ketma-ketlik, izchillik va ilmiylik prinsiplari keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье представлены важные особенности определения и обеспечения успешной реализации социальных процессов в современном мире, достижения успеха в выполнении лабораторных работ интеллектуальной молодежи и самостоятельного обучения студентов, принципы последовательности, последовательности и научности дидактики.

**Abstract.** This article presents the important features of determining and ensuring the successful implementation of social processes in the modern world, achieving success in the implementation of laboratory work of intellectual youth and independent training of students, the principles of sequence, consistency and scientificity of didactics.

**Kalit so‘zlar:** laboratoriya, mutanosiblik, bilish, loyihalash, kasb, kommunikativ, psixologiya, pedagogika, didaktika, amaliy, ko‘nikma, malaka.

Ключевые слова: лаборатория, пропорция, знания, проектирование, профессия, коммуникативная, психология, педагогика, дидактика, практика, умение, компетентность.

**Key words:** laboratory, proportion, knowledge, design, profession, communicative, psychology, pedagogy, didactic, practical, skill, competence.

Zamonaviy dunyodagi ijtimoiy jarayonlarning intellektual yoshlarini laboratoriya ishini bajarishdan maqsadi uni aniq va puxta bajarilishini belgilash va muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta‘minlash asos bo‘lib hisoblanadi. Bunda talabalarning laboratoriya ishini bajarishga qiziqтира olish, fiziologik, psixologik, biologik xususiyatlari, ularning nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma va malakalari, ijodiy layoqatlari kabi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabani rivojlantirishda aniq maqsadga qaratilgan va puxta ishlangan tamoyillar bo‘lishi talab qilinadi [1].

Jarayonlarning intellektual yoshlarini laboratoriya ishini bajarishni amalga oshirilganda muvaffaqiyatga erishish bosh mezon bo‘lib kuzatiladi. Talabani shaxsi unda bilimga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish va mustaqil ravishda laboratoriya ishini bajarishni amalga oshirishni o‘rgatish asosiy omil bo‘lib, mazkur talabani rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Talabani rivojlantirish – talabani ruhiy, aqliy va jismoniy salohiyatini ma‘lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashni, mazkur talabani qirralarini nazariy bilim bilan to‘ldirib borishni: bilish, loyihalash, kommunikativ nutqni rivojlantirishni talab etadi. Shuningdek, talabani laboratoriya ishini bajarishga tayyorlash doimiy davom etadigan jarayon bo‘lib hisoblanib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

**Birinchi bosqich.** Talabani psixologik jihatdan tayyorgarlik bosqichi. Buning uchun talaba didaktika prinsiplaridan quyidagilarni bilishi lozim:

mutanosiblik prinsipi – laboratoriya ishini bajarishda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashga ehtiyoj bilan talaba o‘z bilimini o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasidagi mutanosiblikni belgilaydi;

talabani bilish prinsipi – pedagogik jarayonda obyekt bilan subyektning birgalikdagi ijodkorligi; vaziyatdan chiqar olish prinsipi – yangi materiallarni o‘zlashtirish, shu paytga qadar ma‘lum bo‘lmagan vaziyatlardan chiqishi.

**Ikkinchi bosqich.** Talabada psixologiya, pedagogika va didaktikaga oid nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bosqichi bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

talabani laboratoriya ishini bajarishda bilish texnologiyasini mukammal egallash;



laboratoriya ishini bajarishda avvaldan egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarga ko'chira olish;

laboratoriya ishini bajarishda uni tiplarga ajrata bilish;

laboratoriya ishini bajarishda obyektning yangi funksiyalarini ko'chira bilish;

laboratoriya ishini bajarishning muqobil shakllari va yo'llarini izlab topish;

laboratoriya ishini bajarishda talaba o'z-o'zining faoliyatini tasdiqlay olishi.

Talabani tayyorlashdan maqsad uning laboratoriya ishini bajarishga intiluvchanligini, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Talabani tayyorlashda mazkur faoliyatdagi kamchiliklar, muammolar va ularning sabablarini tahlil asosida o'rganib chiqish [2].

Jarayonlarning intellektual yoshlarini laboratoriya ishini bajarish jarayonida talabani mustaqil tayyorlash quyidagi muammolarni hal qilish imkonini beradi:

talabani laboratoriya ishini bajarishda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini raqobatbardosh darajada rivojlantirish;

laboratoriya ishini bajarishda zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yangi texnik vositalardan foydalanish;

laboratoriya ishini bajarish asosida talabani mustaqil fikrlashga rivojlantirishda uning madaniy, ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy, iqtisodiy, ekologik va huquqiy savodxonligini ko'tarish;

laboratoriya ishini bajarishda talaba mustaqil rivojlantirishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo'llash.

Motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, aksariyat holatlarda laboratoriya ishini bajarishga to'siq bo'lgan. Bunday vaziyatlarda talabani rivojlantirish mexanizmlarini qaytadan takomillashtirish talab etiladi.

Talabani rivojlantirishda ichki va tashqi omillar ta'siri ham muhim ro'l o'ynaydi. Ichki omillarga talabani ichki motivatsiyasi mas'uliyatni his qila olishi, mehnatsevarligi, o'z ishi natijasini nazorat qilishi, amaliy ko'nikma va malakalari mavjudligi, o'zi bajarayotgan laboratoriya ishlariga bo'lgan ishonchi; tashqi omillarga talaba ilmiy salohiyati, o'quv-metodik qo'llanmalari, tarqatma va didaktik materiallar mavjudligi ularning mazmuni va sifati, tashqi motivatsiya (talabani o'z ishida erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa talabalar tomonidan e'tirof etilishini xohlashi, shaxsiy sifatleri, layoqati yoki uning uchun ahamiyati bo'lgan auditoriya talabalar tomonidan tan olinishiga erishish istagi) hamda vositali motivatsiya (rag'bat, tashakkurnoma va boshqalar bilan taqdirlanish istagi) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, laboratoriya ishini bajarishda amaliy ko'nikma va malakalarga egaligi va boshqa omillarni ham kiritish mumkin[3].

Laboratoriya ishini bajarishda talabani mustaqil tayyorlashning muhim xususiyatlari, didaktikaning ketma-ketlik, izchillik va ilmiylik prinsiplari asosida yondashuvida namoyon bo'ladi. Laboratoriya ishini bajarish jarayonida didaktikaning quyidagi prinsiplariga amal qilish kerak:

1. Yaxlitlik.

2. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish.

3. Tadqiqotlar asosida laboratoriya ishlarini bajarish.

Biroq laboratoriya ishini bajarish jarayoniga yangiliklarni tatbiq etishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, yangi texnik vositalardan foydalanish tajribasiga ega bo'lmagan o'qituvchi qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shuning uchun talabani mustaqil rivojlantirishga qaratilgan, uning aqliy faoliyatini to'g'ri baholaydigan, bilimni oshirib borishga imkon beruvchi, shakl va metodlarni o'zida mujassamlashtirgan, o'qituvchi va talaba uchun mo'ljallangan fan dasturlari asosida laboratoriya ishlarini bajarishga doir o'quv-metodik majmualar yaratilishi talab etiladi[3].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shertaylaqov G'.M. O'lchashlarning fizikaviy asoslari. //Darslik. – Jizzax, 2023.

2. Kamolxo'jaev Sh.M. Texnika oliy o'quv yurtlarida tabiatshunoslik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, – 2003.

3. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышление и обучение. - М.: Педагогика.

## FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA “DAVLAT INSON UCHUN” TAMOYILI – DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING MEZONI

**Shodiyeva Aziza Zokir qizi Tarix fakulteti**  
**“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”**  
**yo‘nalishi 3-“D” guruh talabasi**  
**Ilmiy tahbar: t.f.f.d (PhD), dotsent Daminov**  
**Nabijon Abduolimovich**

Yuqorida aytilganidek, yurtimizda uzoq yillar davomida “davlat – jamiyat – inson” tamoyiliga amal qilib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllandi.

Aslida esa, avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi hamda “davlat – inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor. Mazkur tamoyilga amal qilish esa insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi inson manfaatlari, haq-huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilganining e‘tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Tarix shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar inson huquqlari to‘g‘risidagi tayanch tushunchalarning shakllanishiga asos bo‘lgan ezgu g‘oyalar ta‘sirida vujudga kelgan.

Masalan, bundan 2700 yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan eng ko‘hna yozma yodgorlik – “Avesto” kitobida ham inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g‘oyalari muhim o‘rin tutadi, zo‘ravonlik va adolatsizlik rad etiladi.

Shuningdek, Sharqning buyuk huquqshunolaridan biri Burhoniddin Marg‘inoniy XII asrdayoq o‘zining “Hidoya” asarida har bir insonning haq-huquqini saqlash zarurligi to‘g‘risida muhim g‘oyani ilgari surgan edi. Buyuk vatandoshimiz Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniyning XIII asrda yaratilgan “Jomi’ ahkom as-sig‘or” (“Bola huquqlari kodeksi”) asari jahon tarixidagi bolalar huquqi bo‘yicha dastlabki mukammal huquqiy manbadir. Unda bolalar, xususan, yetim bolalar huquqlari, bolalik va otalikni belgilash, bola tarbiyasi, bolaning ota-onasi oldidagi burch va majburiyatlari kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, islom huquqi asosida qanday yechimlar mavjudligi ko‘rsatib berilgan. Ya‘ni ushbu asar bola huquqlari masalasiga tamal toshi aynan tarixiy Movarounnahr – bugungi O‘zbekistonda qo‘yilgani hamda islom huquqshunosligida G‘arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil avval bolalar huquqining to‘la-to‘kis o‘rganilib, hayotga tatbiq etilganidan darak beradi.

Ana shu muqaddas qadriyatlar bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan va islohotlarimiz kun tartibiga hamohangdir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatga, jumladan, BMTning 7 ta asosiy shartnomasi hamda 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan. Ularning ijrosi yuzasidan BMT Inson huquqlari buyicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma‘ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash O‘zbekistondagi islohotlarda g‘oyat muhim o‘rinda turadi.

Eng asosiysi, yurtimizda yashayotgan har bir shaxs millati, tili va dinidan qat‘iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo‘lib yashashi davlatning bosh maqsadiga aylanib bormoqda. 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda Har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashni kuzda tutadigan “Hech kimni e‘tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, “Xalq – qonunlarning tom ma‘noda yagona manbayi va muallifi hisoblanadi” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul

qilinadi”<sup>42</sup> tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo'yicha yuqori indeksga ega bo'lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda<sup>43</sup>.

O'zbekiston xalqaro huquq subyekti sifatida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda va xalqaro norma ijodkorligining faol ishtirokchisi va yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini tubdan o'zgartirmoqda. Jamiyatda “Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz” degan ulug'vor maqsad umumxalq harakatiga aylandi. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qumitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirib borish ishlarini davom ettirish”<sup>44</sup>.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish eng dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi”<sup>45</sup>.

Yurtimizning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, hukumat faoliyati samaradorligi, so'z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kirishi – O'zbekiston Respublikasining strategik maqsadidir.

Inson huquqlari buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyati uchun keng sharoitlarni yaratish, inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy tizimini yanada rivojlantirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish bosh ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektor faoliyatining ochiqligi va o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlarni o'tkazish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyulda “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmonida qo'yidagi bosh yo'nalishlar asosiy maqsad qilib olingan. Shaxsiy va siyosiy huquqlarni himoya qilish sohasida: “1) shaxsiy va siyosiy huquqlariga oid xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish; 2) xalqaro huquq prinsiplari, normalari hamda O'zbekistonning halqaro shartnomalari sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan keng qo'llanilishi, xalqaro huquq ustuvorligi prinsipini amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratish; 3) sudlarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash maqsadida sudyalarning hamjamiyati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish hamda “Xabeas korpus” institutini

<sup>42</sup> Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O'zbekiston”, 2021.- 61 – bet.

<sup>43</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4872355>

<sup>44</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4872355>

<sup>45</sup> Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O'zbekiston”, 2021. 62. – B.

yanada takomillashtirish yuli bilan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda sud hokimiyatining rolini oshirish; 4) sud jarayonlarida tenglik va tortishuv tamoyillarini to'liq joriy qilish, advokaturani mustaqil, ishonchli huquqni himoya qiluvchi institutga aylantirish, malakaviy yuridik yordam sifatini hamda advokat kasbining nufuzini oshirish, inson huquqlari sohasida ixtisoslashgan huquqshunoslarni tayyorlash tizimini takomillashtirish; 5) jinoyat protsessida jabrlanuvchi va guvohlarning, jumladan, voyaga yetmagan jabrlanuvchi va guvohlarning huquqlari va xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish; 6) prokuratura organlari faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiq shakllarini joriy etish, prokuratura faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish; 7) fuqarolarni tengsizlikning har qanday ko'rinishlaridan hamda aholining zaif qatlam vakillarini kamsitishlardan himoya qilishni ta'minlash; 8) shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash huquqini ta'minlash mexanizmini yanada takomillashtirish; 9) O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili va madaniyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish; 10) bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, voyaga yetmagan bolalarga nisbatan alohida munosabatni nazarda tutadigan odil sudlov institutlarini joriy etish, bolaning manfaatlarini birinchi navbatda ta'minlash prinsipini qonunchilik va amaliyotga yanada samaraliroq joriy etish; 11) odam savdosiga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, bolalar va ayollar fohishabozligi va pornografiyasining sabablari hamda omillarini aniqlashga kompleks yondashuvni shakllantirish, shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarni xalqaro standartlarga muvofiq identifikatsiya va reabilitatsiya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish; 12) aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini, saylov madaniyatini oshirish, demokratik, adolatli va erkin saylovlarga oid xalqaro standartlarni hisobga olgan holda saylovlarni tashkil etish va o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish, saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish; 13) inson huquqlari va erkinliklariga oid xalqaro standartlarni ta'minlashda, jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy shikoyat institutini hayotga tatbiq etishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining roli va o'rnini oshirish; 14) davlat hokimiyati tizimida parlamentning rolini kuchaytirish, mamlakat ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalarini hal etishda, shuningdek, ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda parlamentning vakolatlarini yanada kengaytirish, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish, jumladan, qonun normalaridan voz kechib, to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi qonun normalarini qabul qilish amaliyotini kengaytirish; 15) inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini yanada kuchaytirish; 16) inson huquqlari sohasida fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlash<sup>46</sup>.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilish hamda monitoring olib borish mexanizmlarini takomillashtirish sohasida:

“1) O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning mazmuni to'g'risida aholi hamda davlat organlari vakillarining xabardorligini oshirish; 2) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni qurishning protsessual tartibini takomillashtirish, ushbu tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish; 3) davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Jamoatchilik palatasining huquqiy asoslarini mustahkamlash; 4) inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining huquqiy asoslarini, qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmini yanada takomillashtirish, ozodlikdan mahrum qilish joylarida va boshqa yopiq muassasalarda inson huquqlari buzilishlarining oldini olish; 5) Bola huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ning huquqiy maqomi va faoliyatini takomillashtirish; 6) vasiylik va homiylik tizimini isloh qilish yo'li bilan bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqini ta'minlash, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, bola huquqlariga oid xalqaro standartlar qoidalarini implementatsiya qilish va mazkur sohada huquqni qo'llash amaliyoti ustidan samarali parlament va

---

<sup>46</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: "O'zbekiston" 2021, 65-67 betlar.

jamoatchilik nazoratini ta'minlash; 7) nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularga rioya etishni tizimli ravishda monitoring qilish”<sup>47</sup>.

Inson huquqlari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirish sohasida: “ 1) inson huquqlari va gender masalalari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, jamiyatda qonunga hurmatni shakllantirishning zamonaviy usullarini joriy etish; 2) inson huquqlari bo'yicha professional jurnalistlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, jurnalistik tekshiruvlarning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish; 3) oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlarni, jumladan, sudyalari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Bola huquqlari” o'quv kurslarini joriy etish; 4) inson huquqlari sohasidagi fundamental va innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyati, ilmiy tadqiqotlari va ishlanmalarining samaradorligini oshirish, ularning ushbu sohadagi xalqaro tadqiqotlarga integratsiyalashuvini ta'minlash, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish; 5) inson huquqlari sohasida axborot tarqatish bo'yicha ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada kuchaytirish, jurnalistlar va blogerlarning axborot olish va tarqatishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini kuchaytirish”<sup>48</sup>.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, xorijiy mamlakatlarning inson huquqlari bo'yicha milliy institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish sohasida: “1) inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi organlari va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko'ptomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish; 2) O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi, jumladan, bolalar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, migrantlarning huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlarga qo'shilishi masalalarini ko'rib chiqish”<sup>49</sup>.

Yangi O'zbekiston – demokratik qonunlar, yuksak huquqiy madaniyatga ega fuqarolar mamlakatidir. Bu esa ma'muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual va xo'jalik qonunchiligini yanada erkinlashtirish, ayrim jinoiy harakatlarni kriminallashtirishdan holi qilish, tadbirkorlik subyektlari javobgarligini liberallashtirish, jinoiy jazolar va ular ijrosini insonparvarlashtirish kabi masalalarni anglatadi va bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

## ANTROPOGONIK AFSONALARIDA SAKRALLIK MASALALARI

Rizoyeva Mehriniso Abduazizovna,  
NDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek xalq antropogonik afsonalarining sakrallik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** marosim, ma'buda, diniy e'tiqod, sakral, mifologik tasavvur, urf-odat, kult.

**Аннотаци.** В данной статье рассказывается об особенностях сакральности антропогенных легенд узбекского народа.

**Ключевые слова:** ритуал, богиня, религиозная вера, сакральное мифологическое воображение, традиция, культ.

**Annotation.** This article discusses the sacred features of the anthropogonic legends of the Uzbek people.

<sup>47</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O'zbekiston” 2021, 67-68 betlar.

<sup>48</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O'zbekiston” 2021, 68-69 betlar.

<sup>49</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O'zbekiston” 2021, 69 bet.

**Key words:** ritual, goddess, religious belief, sacred mythological imagination, tradition, cult

Xalqimizning tabiat va jamiyat to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlari natijasida, O'rta Osiyo xalqlarining islom dinini qabul qilishi "Qur'oni karim", hadis, tafsir va boshqa manbalardagi islomiy asotirlarning bu hududda keng yoyilishi sababli Odam Atoning yaratilishi va yer yuzida insonning yashay boshlashi to'g'risidagi afsonalarning syujetlari o'lka xalqlari folklorida ommalasha boshladi. Ana shu tarixiy-folkloriy jarayon natijasida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotida Odamning yaratilishi to'g'risidagi antropogonik afsonalar silsilasi yuzaga kelgan. Folklorshunos Sh.Shomusarovning aniqlashicha, islom mifologiyasining bevosita ta'sirida shakllangan o'zbek antropogonik afsonalarida Odam Atoning yaratilishining sabablari, odamni yaratish uchun zarur bo'lgan tuproqning zamindan qarzga olinishi, Odam Atoga jon kirgizilishi, Odam Atoning qovirg'asidan Momo Havoning yaratilishi, ularning jannatdan quvilishi, Odam Ato bilan Momo Havoning yer yuzidagi hayoti haqida hikoya qilinadi.<sup>50</sup>

Qadimgi turkiylar mifologiyasida odamning yaratilishi haqidagi tasavvurlar afsonaviy qahramon – dimiurg Ulgan hamda uning ukasi Erlik faoliyati bilan bog'lab tushuntirilgan. Tog'li oltoyliklar mifologiyasiga ko'ra, yer yuzida yashagan birinchi odam Ulgan tomonidan yaratilgan. Tog'li oltoy mifologiyasida aytilishicha, biz istiqomat qiladigan zamin "chin yer" bo'lib, u hozirgi paytda o'zining ikkinchi umrini yashamoqda. Zaminda ilgari ham odamlar yashagan va yerning birinchi hayoti butun olam to'foni natijasida halokatga uchragan. Bir temir shoxli ko'k taka yetti kun davomida butun dunyoni aylanib odamlarga to'fon boshlanganligini ma'lum qilgan. Yetti kun yer qimirlab, yomg'ir, qor, jala yoqqan, yer yuzini suv bosgan. Ulgan kattakon kema yasab, hamma jonivorlar, qushlardan bir juftan olib kemada suzib yurgan. Yetti kundan keyin yog'ingarchilik tingach, ular quruqlikka chiqqanlar va Ulgan oltin kosaga ko'k chechakni solib qo'yib, shundan odam yasagan. Ulganning Erlik degan ukasi bor ekan. Akasining oltin kosaga solib qo'ygan ko'k chechagidan ozroq o'g'irlab, u ham odam yasamoqchi bo'libdi. Buni bilib qolgan Ulgan ukasidan xafa bo'lib: : "Mening odamlarim oq yuzli bo'ladilar va quyosh chiqadigan tomonga boradilar, sen yasagan qora odamlar kunbotarni o'ziga makon qilsin!", - deb qarq'abdi. Shundan keyin qora odamlar childirma yasab, shomonlik qila boshlashibdi.

Odamning o'simlik yoki daraxtdan yaratilishi haqidagi mifologik tasavvurlar o'zbek folklorida to'liq yetib kelmagan bo'lsa ham bu antropogonik mifning turli xil epik motivlar tarzidagi ko'rinishlari epik janrlarning syujet tizimida, shuningdek, xalq qo'shiqlarida saqlanib qolgan. O'ylashimizcha, o'zbek xalq ertaklaridagi olma, dumbul kabi mevalarni yeb g'ayrioddiy homilador bo'lish motivining tarixiy ildizlari ana shu antropogonik mifga bog'lanadi. «Yarimtajon» ertagida befarzand shohning huzuriga kelgan devona unga uch olma beradi va shu olmalarni xotinlari bilan yesa farzandli bo'lishini bashorat qiladi. Podshohning kichik xotini olmaning yarmini yeganligi tufayli Yarimtajon dunyoga keladi.<sup>51</sup> "Olmos botir",<sup>52</sup> "Hakimbek botir"<sup>53</sup> ertaklarida ham qahramonning g'ayrioddiy dunyoga kelishi homiy-personaj taqdim etgan g'aroyib olma tufayli amalga oshadi.

Olma yeyish orqali homilador bo'lish motivi aslida daraxt totemi to'g'risidagi mifik qarashlarga borib bog'lanadi. Chunki totemistik tasavvurlarga ko'ra, odamning tug'ilishi inson tanasiga totemning kirishi natijasida ro'y beradi, o'lim esa totemga qaytish deb tushunilgan.<sup>54</sup> Dunyodagi birinchi odamning daraxt, uning mevasi yoki o'simlikdan yaratilganligi to'g'risidagi miflar qadimgi odamlar orasida daraxt totemiga bo'lgan ishonchini keltirib chiqargan. Bu tasavvurlarning antropogonik miflar tizimida rivojlantirilishi natijasida daraxt yoki o'simliklar mevasini yeb homilador bo'lish motivi kelib chiqqan.

Shuningdek, o'zbek xalq afsonalarida odam (yoki uning biror tana a'zosi)ning o'simlik (shu jumladan, daraxtga ham) aylanishi motivi uchraydiki, bizning o'ylashimizcha, evrilish motivining bu ko'rinishi bevosita birinchi odamning yaratilishi to'g'risidagi qadimgi turkiy miflarga bog'lanadi.

<sup>50</sup>Shomusarov Sh. Arab-o'zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. - Toshkent: Fan, 2002. - B.175.

<sup>51</sup>Gulpari. O'zbek xalq ijodi. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969. - B.14

<sup>52</sup>Oltin beshik. O'zbek xalq ijodi. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. - B.13- 14.

<sup>53</sup>Gulpari.-B.72

<sup>54</sup>Jo'raev M. Bo'ri haqidagi qadimgi turkiy miflar va o'zbek folklori // Adabiyot gulshani. 1-kitob. - T: 1999. -B.8-16.

Masalan, “Yetti qiz” afsonasida zolimlardan qochib yer ostiga kirib ketgan yetti qizning sochlari yetti tup yulg’unga aylanib qolgan emish.<sup>55</sup>

Yuqoridagi qiyosiy tahlillardan ma’lum bo’ladiki, o’zbek folklorida odamning yaratilishi to’g’risidagi antropogonik afsonalarning bir necha variantlari mavjud bo’lib, ularning asosiy syujet tiplari jahonning boshqa xalqlari mifologiyasida mavjud bo’lgan ushbu mavzudagi asotir va afsonalar bilan mushtarak negizga ega. Odam Atoning tuproqdan yaratilishi hamda Momo Havoning odam qobirg’asidan bino etilishi to’g’risidagi o’zbek xalq afsonalari islomiy manbalarning o’lkamizga keng yoyilishi natijasida yuzaga kelgan.

## USMON AZIM IJODIDA TABIAT MAVZUSI

**Yavqocheva Gulnora**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**O’zbek til va adabiyoti fakulteti Ibosqich magistranti**

**Ilmiy rahbar: dots, f.f.f.d(PhD)M.Rizoyeva**

Nazm yaratishda aksariyat shoirlar she’rning vazni, qofiyasi va shakliga katta ahamiyat qaratishadi. Ammo o’ziga xos ijodkor –Usmon Azim she’riyatida shakl va qoidalarga qaraganda, ma’nolar va ijodkorga xos erkinlik holatlari yaqqol ko’zga tashlanadi. Shoir tabiat hodisalari va tabiatdagi mavjud narsalarni keltirish orqali hayotda bo’ladiga yondashadi, o’zining munosabatini bildiradi. Tabiatga munosabatini to’g’ridan-to’g’ri ifoda etibgina qolmay, majoziy tarzda misollar keltiradi:

Maysaning boshiga egilaman jim

–Mehr-u muhabbatda to’liqadi dil.

Nima demoqchiman? Bilmayman o’zim.

Faqat takrorlayman:

–Singiljon, singlim.

Ko’rinib turibdiki, shoir maysani “singlim” deya atamoqda. Yoki bo’lmasa maysani ko’rganda singlisi ko’z oldiga kelmoqda. Bunda majoziylik ham bor: chunki maysa nozik, e’tiborga muhtoj o’simlikdir. Shoir mehr-muhabbat istab singlining – maysaning oldiga kelganini ta’kidlaydi. Shunchaki, dunyo tashvishlaridan charchab, taskin izlab maysaning oldiga keladi.

Daraxtning qoshida qotaman ziyod

–So’z topishni arang etaman udda.

–Mevangu bargingda limmo-lim hayot

–Bunchalar mukammal bo’lmasang, uka.

Endi esa shoir daraxtga “uka” deya murojaat qilyapti. Hayot sinovlarida toblangan kishining irodasi baquvvat, sabr-bardoshli bo’ladi, daraxt kabi ildizi mustahkam bo’ladi. Shoir maysaning oldiga taskin izlab kelgan bo’lsa, daraxtning oldiga najot tilab keladi. Daraxtda hayotning barcha darg’alari mujassamdir. Dunyo xafa qilsa, maysaga aytgum, Daraxtga suyangum yiqilsam magar. Kishi boshiga og’ir vaziyatlar tushganda, avvalo, oiladan panoj topadi. Shoir Usmon Azim ham tabiatni o’z oilasi sifatida ko’rib, unga talpinadi. Tabiat ijodkorga ilhom beradi, shu bilan birga dalda ham beradi. Ya’ni “dunyo tashvishlaridan aziyat cheksam singlim bilan dardlashaman, agar hayot sinovlariga bardosh berolmasam, ukamga suyanaman!”, deydi shoir. Masalan, maysani egachi bilsang, Daraxtni –birodar. Olam –guliston!

Tabiatdagi har bir mavjudot, o’simlikka ana shunday ko’z bilan qarasa, yashash yanada yaxshi bo’ladi. Bu narsalarni tushunish uchun tabiat himoyachisi, biolog, zoolog, o’qituvchi yoki tabiatdan ilhom oladigan shoir-yozuvchi bo’lish shartmas, shunchaki oldimizdagi har qanday narsaning qadrini bilish – odamiylikdir. Usmon Azimning “Yomg’irli kechada...” deb boshlanuvchi she’rida lirik qahramon qalbida jo’sh urgan iliq tuyg’ular namoyon bo’ladi. Yomg’irli kun yoki tun shoirning qalbini junbishga keltiruvchi tabiat mo’jizalaridan biri. Lirik qahramon sevimli faslining sevimli hodisasi bo’lmish yomg’irli kechada qanot bog’lab ko’kka parvoz qilgandek bo’ladi. Shabadalar uning yuziga urilib tetiklashtiradi va hayotga muhabbat tuyg’ularini yanada oshiradi. Bu hodisaning guvohi bo’lgan

<sup>55</sup> Ipak yo’li afsonalari. To’plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo’rayev. - Toshkent: Fan, 1993. - B.42.

yulduzlar lirik qahramonga havas ila boqib, kumush nurlarini boshi uzra sochishadi. Bu ular tomonidan lirik qahramonga ko'rsatilgan mehr-muhabbatning belgisi. She'rdagi hayotsevarlik tuyg'ulari ham namoyon bo'ladi:

Yomg'irli kechada falakka uchdim,

Shamollar yuzimga yopishdi –ivib.

Yulduzlar armonli shivirga tushdi:

–Yomg'irning hidi-ku...

–Yomg'irning hidi!..

Shoir yaratgan lirik qahramon ziddiyatli kechinmalar qurshovida yashaydi. Shoir ayni kechinmani ifodalash shakllarini qidiradi. Izlanish uni tashbeh, majoz va obrazlar sari yetaklaydi.

Usmon Azim faqatgina kuz tasviri bilan cheklanib qolmay, barcha fasllar nomi bilan balladalar ham yaratgan. Uning boshqa nasriy asarlarida ham tabiat tasviri majoziy ko'rinishda bo'lsa-da, yoritilgan. Zotan, uning ijodidagi xalqona ohang, baxshiyona uslub, yuksak badiiy tafakkur tamoyillari shoir ijodining o'ziga xos qirralarini yanada yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Adabiy turlar va janrlar III jildlik. 2-jild. –T.: Fan, 1992. –246 b.

2. Usmon Azim “Saylanma” (she'rlar). T.: Sharq, 1995.-282 b.

3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.–T.: O'zbekiston, 2001. –560 b.

4. Usmon Azim “Bir parcha osmon”. T.:Factor Press, 2022. –384 b.

## **OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING ALGORITMLASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA CROCODILE ICT PLATFORMASIDAN FOYDALANISH USULI**

**Xamroyev Utkir Namozovich**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti,**  
**Informatika kafedrası o'qituvchisi, [utkir903@mail.ru](mailto:utkir903@mail.ru)**  
**Husenov Diyorbek Zafarjon o'g'li**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti,**  
**Matematika va informatika yo'nalishi talabasi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishda Crocodile ICT platformasidan foydalanish usuli keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Algoritm, kompetensiya, dasturlash, zamonaviy dasturlar, Crocodile ICT.

**Аннотация.** В данной статье представлены методы использования платформы Crocodile ICT в развитии алгоритмической компетентности студентов высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** Алгоритм, компетентность, программирование, современные программы, Crocodile ICT.

**Abstract.** This article presents the method of using the Crocodile ICT platform in the development of algorithmic competence of students of higher educational institutions.

**Key words:** algorithm, competence, programming, modern programs, Crocodile ICT.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining zamonaviy dasturlash tillariga oid malakalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun dastlab algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish lozim.

Bu borada mamlakatimizda M.R.Fayziyeva, N.A.Otaxonov, U.M.Mirsanov, A.S.Lagoxa, T.N.Lebedeva, I.A.Babushkina, V.V.Popova, S.I.Mamaradjabov, A.E.Kazakova, D.G.Jemchujnikov, O.P.Yurkoves, F.B.Shkarban kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarining tahlilga ko'ra talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish uchun kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanishi lozim degan xulosaga keldilar. Ushbu amaliy dasturlardan biri bu “Yenka” dasturi hisoblanadi.

Yenka (Yagona ilmiy konstruktor) dasturidan ta'minotidan foydalanib, fan va texnikalarning turli sohalaridagi jarayonlar va hodisalarni modellashtirish uchun muhim pedagogik dasturiy vosita hisoblanadi. Ushbu dasturiy vositaning tarkibiga Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile



Mathematics, Crocodile Chemistry va Crocodile ICTlar o‘quv jarayonining samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Crocodile Technology dasturi yordamida “Elektr”, “Elektrotexnika”, “Sxemotexnika”, “Elektr zanjirlar nazariyasi” kabi fanlaridan qo‘shimcha pedagogik dasturiy vosita sifatida keng foydalanishlari mumkin. Dastur elektron konstruktor bo‘lib, u monitor ekranida elektr tuzilmalarini yig‘ish jarayonini xuddi haqiqiy tajribadagi singari imitatsiya qilish, elektr kattaliklarni multimetrda (uch o‘lchovli), imkoniyatini yaratadi. Dastur yuqori imkoniyatga ega bo‘lib, undan (ya’ni masalalar yechishda) virtual laboratoriya ishlarini bajarishda keng foydalanish mumkin [3].

Crocodile Mathematics dasturi – bu matematik modellarning 3D (uch o‘lchovli) shakllari bilan tajribalarda ishlab, statistika, ehtimollik, geometriya va koordinatalar haqida bilimlarni egallashga yordam beradi. Bu namoyishlarning egiluvchan uskunasi kabi qo‘llaniladi.

Crocodile ICT dasturi – bu nazorat qilish va dasturlashni o‘rgatishga mo‘ljallangan muhim pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Oddiy belgilar sxemani yoki ekrandagi animatsiyalarni boshqaradigan dasturlarni yozish uchun oddiy sxemasi interfeysidan iborat bo‘lib, barcha foydalanuvchi uchun samarali hisoblanadi.


Crocodile ICT dasturi – bu dasturning interfeysi yangi foydalanuvchilarga ekrandagi belgilar va animatsiyalarni boshqarishga imkon beradi. Oddiy sxemalar buyruqlar berish va boshqaruv tartiblarini aniqlash uchun ishlatiladi [5].

Crocodile ICT dastur muhitidan foydalanish orqali algoritmlash jarayonini talabaga sodda usulda o‘rgatish imkoniyati mavjud. Crocodile ICT dasturi chiziqli, tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi va protsedurali algoritmlarni o‘rganishni kuzatish imkoniyatini beruvchi vosita hisoblanadi. Bu dastur algoritmnning blok sxemalarni o‘rganishni kuzatish, tajribalar o‘tkazish va turli murakkablik darajasidagi jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Ushbu dastur Crocodile ClipsLtd tomonidan 1994-yildan beri takomillashtirilib kelinmoqda.

Obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘qitishda juda qo‘l keladigan Crocodile ICT ning oddiy interfeysi va blok-sxemalari yordamida yaratilayotgan dastur orqali har bir buyruqni animatsiya ko‘rinishda tasvirlash asosida turli masalalarni algoritmini vizual shaklda taqdim etish imkonini yaratadi.


Masalan, quyidagi misolning blok-sxemasini tuzamiz.

**Misol:** 1 dan n gacha bo‘lgan sonlarning yig‘indisini hisoblash algoritmining blok-sxemasi tuzish.



**1-rasm. Crocodile ICT dasturida tuzilgan misolning algoritmi.**


Crocodile ICT dasturida kiritilgan misolning algoritm blok-sxemasi natijasini olish uchun Start bosiladi.



**2-rasm. Algoritm dan foydalanish jarayoni.**

2-rasmda Crocodile ICT dasturida tuzilgan 1 dan n gacha bo‘lgan sonlarning yig‘indisini hisoblovchi algoritmning ishlash jarayoni.

Natija:



**3-rasm. Algoritm natijasi.**

Dasturning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: dasturlashning algoritm (blok-sxemalarni) namoyish etish; masalalarni algoritmlashni qadamma-qadam o‘rgatish; masalalarni mustaqil modellashtirishni o‘rgatish.

Bundan tashqari, blok-sxemalarda biror-bir shart bajarilganda odam personajlariga 30 dan ortiq harakat turlarini bajartirish mumkin. Dasturning ushbu imkoniyati talabning mashg‘ulotlardan zerikishini va e‘tibori pasayishining oldini oladi. Bu esa ma’lum ma’noda ta’lim samaradorligiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Yenka dasturi talabaga algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu dastur orqali algoritmlashni virtual

tasvirini talabalarga ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bu esa talabani algoritmlashga oid qiziqishini oshirishga, kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Radjabov B.Sh., Mamajabov R.Ya., Boynazarov I.M. Web-texnologiyalar asosida virtual o'quv qo'llanmalar yaratishning dasturiy interfeysi. TATU xabarlar jurnali. 2008 yil 4-son, 101-103 b.
2. Zakirova F.M., Muxamedxanov U., Sharipov Sh. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma.— T.: OO'MTV, 2010.-64 b.
3. Begbo'tayev A. U. Malaka va kasbiy bilimlarni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etishni takomillashtirish // "Murabbiy mahorati" ilmiy-metodik, ommaviy-ma'rifiy jurnal, 2016-yil 3-son, T. 11-13 bet.
4. Mavlonov Sh.X., Abdullayev B.B. Ta'lim jarayonida Crocodile ICT dasturidan foydalanish. "Science and education" scientific journal. March 2021, Volume 2 ISSUE 3.
5. <http://www.aertia.com/en/productos.asp?pid=333>

### **ЗАМОНАВИЙ, КРЕАТИВ, МУСТАҚИЛ ФИКРЛАЙДИГАН ЁШЛАРНИ ЎҚИТИШ ВА ТАРБИЯЛАШ ДАВР ТАЛАБИ**

**Равшан Хидоятлов**

**ЖизПИ "Иқтисодиёт ва менежмент"**

**кафедраси доценти, и.ф.н.**

**[ravshan.xidoyatov@mail.ru](mailto:ravshan.xidoyatov@mail.ru), Тел: (90)310 68 11**

**Жавохир Холиқов**

**ЖизПИ Сервис факультети,**

**Менежмент йўналиши,**

**511-23 гуруҳ талабаси.**

**Аннотация:** Янги Ўзбекистон шароитида фаол ёшларни тарбиялаш муаммоси педагогик, сиёсий, социологик, фалсафий, тарихий, маданий, психологик ва ҳуқуқий ёндошувлар асосида ҳар жиҳатдан ўрганишни тақазо этмоқда. Учинчи ренносанс пойдеворини қураётган фаол ёшларимиз – замонавий, креатив, мустақил фикрлайдиган, юксак билимли, касб-хунарни пухта эгаллаётган, интеллектуал салоҳияти нисбатан юксак, ҳар қандай вазиятда ҳам масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган, ғайрат-шижоатли, ватанпарвар, баркамол шахс бўлмоғи керак.

**Калит сўзлар:** Фаол ёшлар, мустақил фикр, юксак билимли, мустақил фикрловчи, масъулиятли, интеллектуал салоҳиятли, ватанпарвар, баркамол, сиёсий етуқ.

**Аннотация:** Проблема воспитания активной молодежи в условиях нового Узбекистана предполагает изучение во всех отношениях на основе педагогического, политического, социологического, философского, историко-культурного, психологического и правового подходов. Поскольку мы закладываем фундамент третьего ренносанса, наша активная молодежь должна быть восторженной, патриотичной, компетентной личностью, с современным, независимым складом ума, высоким уровнем знаний, основательной профессией, относительно высоким интеллектуальным потенциалом, способной брать на себя ответственность в любой ситуации.

**Ключевые слова:** Активная молодежь, независимое мышление, высокообразованная, независимо мыслящая, ответственная, обладающая интеллектуальным потенциалом, патриотичная, гармоничная, политически зрелая.

**Annotation:** The problem of raising active youth in the conditions of the new Uzbekistan assumes the study in all respects on the basis of pedagogical, political, sociological, philosophical, historical, cultural, psychological and legal approaches. As we build the foundation of the third rennosans, our active youth should be an enthusiastic, patriotic, competent person, with a modern, independent mind, a high level of knowledge, a thorough occupation, a relatively high intellectual potential, capable of taking responsibility in any situation.

**Keywords:** Active youth, independent thought, highly educated, independent-minded, responsible, intellectual potential, patriotic, harmonious, politically mature.

Маълумки, сўнги йилларда ёшларимизнинг ижтимоий фаоллиги, халқимиз ва Ватанимиз тақдирига дахлдорлик ҳисси тобора кучайиб бормоқда, эркин, ҳуқуқий демократик давлатни барпо этишда ўзларининг муносиб ҳиссаларини қўшмоқда. Янги Ўзбекистон шароитида фаол ёшларни тарбиялаш муаммоси педагогик, сиёсий, социологик, фалсафий, тарихий, маданий, психологик ва ҳуқуқий ёндошувлар асосида ҳар жиҳатдан ўрганишни тақазо этмоқда.

“Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз. Нафақат давом эттирамиз, балки бу сиёсатни устувор вазифа сифатида бугун давр талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. Сизларнинг замонавий билим ва касб-ҳунарни эгаллаб, ҳаётда ўз мустақил ўрнингизни топишингиз, бахтли бўлишингиз учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”[1], – деб таъкидлаган эди Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев.

Янги Ўзбекистон шароитида Учинчи ренносанс пойдеворини қураб эканмиз фаол ёшларимиз – замонавий, креатив, мустақил фикрлайдиган, юксак билимли, касб-ҳунарни пухта эгаллаётган, интеллектуал салоҳияти нисбатан юксак, ҳар қандай вазиятда ҳам масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган, ғайрат-шижоатли, ватанпарвар, баркамол шахс бўлмоғи керак.

Мамлакатимизда ўтказилаётган демократик сайлов тизими ҳам фаол ёшларни тарбиялаш учун кўплаб шароит яратиб бермоқда.

Давлатимиз раҳбарининг 2017 йил 12 июлдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан бўлиб ўтган видео селектор йиғилишидаги маърузасида Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси биносига ёшлар эркин кириб чиқадиган муҳит ва шароитларнинг яратилиши зарурлиги, уларнинг қонун қабул қилиш жараёнларидан бошлаб, партиялар ўртасида рақобат бўладиган мажлис ва тортишувларни ўз кўзи билан кўриши қолаверса депутатлар билан мулоқот қилиши лозимлиги ҳақида тўхталиб ўтган эди.

Ушбу таклифдан кейин Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги Қонунчилик муаммолари ва парламент тадқиқотлари институтининг тегишли қарори асосида “Ёш қонуншунослар клуби” тузилди. Клуб институт ходимлари, Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг Ёшлар масалалари бўйича комиссияси, сиёсий партияларнинг “Ёшлар қаноти” аъзолари, олий таълим муассасалари талабалари ва иқтидорли ёшлар вакиллари билан иборат [2].

Президентимиз томонидан жойларда қилинаётган маърузаларда Ўзбекистон ёшлар иттифоқи давлат ва жамият учун раҳбар кадрларни тайёрлаб берадиган ўзига ҳос марказ бўлиши, замонавий тилда айтадиган бўлсак, ёшлар учун “ижтимоий лифт” вазифасини бажариши, билимли, ташаббускор ва ташкилотчи, фидойи ёш раҳбарларнинг кадрлар захирасини яратиши кераклигини таъкидлаб, айни шу мақсадда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат бошқаруви академияси қошида Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти(3)ни ташкил этиш зарурлиги алоҳида таъкидланган эди.

Бугунги кунда дунёнинг етакчи таълим муассасаларида таҳсил олаётган ёшлар фаолларидан замонавий педагогик технологиялар бўйича мутахассислар тайёрланмоқда.

Албатта, бугунги кунда ҳам эришилаётган ютуқлар билан бирга ўз ечимини кутаётган муаммолар, камчиликлар ҳамда буларни бартараф этиш йўллари ҳақида ҳам сўз юритмай иложимиз йўқ. Ушбу масалада, Президентимизнинг 2018 йилнинг 29 июнидаги Ўзбекистон ёшларига йўллаган байрам табриги биз учун муҳим дастуриламал бўлиши лозим.

**Биринчидан**, ёшлар билан доимий ишлаш, бевосита мулоқот қилиш ўрнига дабдабали тадбирлар ўтказиш, кампаниябозликка берилишдек яроқсиз иш усулидан ҳали ҳам қутилганимиз йўқ.

**Иккинчидан**, ёшларнинг ҳаётий муаммоларига янада кўпроқ эътибор қаратиш, орзу интилиш ва ташаббуслари, инновацион ғояларини қўллаб-қувватлаш давлат идораларининг энг муҳим вазифаси бўлиб қолиши лозим.

**Учинчидан**, ёшлар орасида тадбиркорликни кенг ривожлантириш учун Ёшлар тадбиркорлиги худудлари, Ёшлар инновацион технопарклари ташкил этиш ҳамда Ўзбекистон Фанлар академиясига қарашли илмий лабораториялар ва марказлар қошида ёш олимларнинг илмий тадқиқотларини йўлга қўйиш каби ишлар Янги Ўзбекистон учун ўта долзарб масаладир.

**Тўртинчидан,** “Ёшлар-келажагимиз” Давлат дастури доирасида Ўзбекистон ёшлар иттифоқи негизида ташкил этилган махсус жамғарма орқали мамлакатимиз иқтисодиётига замонавий технологияларни қўллаш, ёшларни бу жараёнга кенг жалб этиш ўта муҳимдир.

**Бешинчидан,** диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, “оммавий маданият” каби таҳтидлар инобатга олинган ҳолда хушёрлик ва огоҳликни янада ошириш, билиб билмай жиноятга қўл урган, тўғри йўлдан адашган, ўз қилмишидан чин дилдан пушаймон бўлган ёшларни кечирин ва тинч ҳаётга қайтариш лозим.

**Олтинчидан,** чет элларда ўқиб, меҳнат қилаётган ёшларнинг билими ва имкониятларини юртимиз раўнақи йўлида бирлаштириш, ёшларимизнинг дунёнинг олис ва яқин мамлакатларидаги тенгдошлари билан самарали мулоқот, дўстлик ва ҳамкорлик муносабатлари ўрнатиши ўта зарур.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда амалга оширилаётган барча саъй-ҳаракатлар ёшларимизнинг мамлакат истикболи учун масъулиятини ўз зиммасига олишга қодир бўлиб шаклланиши қолаверса Ватан туйғусини чуқур англайдиган, иродаси мустаҳкам бўлиб камол топишларига хизмат қилиши билан аҳамиятлидир.

#### **Фодаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон ёшларига байрам табриги. 2018 й. 29 июнь.
2. Ёш қонуншунослар клуби ташкил этилди. 2018 й. 5 апрель // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (ЎЗА)нинг веб-сайти – [www. uza. uz](http://www.uza.uz).
3. Ёшлар иттифоқи том маънода ёшлар манфаатини ҳимоя қиладиган, орзу умидлари, иқтидор ва салоҳиятини рўёбга чиқара оладиган тизим бўлади. 2017 йил 23 июль // [www. uza. uz](http://www.uza.uz).
4. Хидоят, Р., Хақимов, О., & Исақбулов, Р. Ю. (2016). Духовная просвещенность руководителя: проблемы и их решения. *Молодой ученый*, (7-2), 96-99. вации”. Тошкент 22 апреля 2021г.
5. Хидоят, Р., & Тўхтаев, З. (2022). Некоторые аспекты либерализации новой узбекской экономики. *Innovative developments and research in education*, 35.
6. ХИДОЯТОВ, Р. (2023). Миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш жамият таракқиётида муҳим омил.

## **VIRTUAL LABORATORIYALAR TALABALARNING AXBOROT TEKNOLOGIYALARI SOHASIDAGI MALAKALARNI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA**

## **ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

## **VIRTUAL LABORATORIES AS A MEANS OF INCREASE QUALIFICATIONS OF STUDENTS IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY**

**Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Informatika kafedrası o‘qituvchisi,  
Xudoyberdiyeva Shoira Toyir qizi  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
Matematika va informatika fakulteti talabasi  
Safarova Sitorabonu Zavqiddin qizi<sup>1</sup>  
O‘zbekiston**

**Annotatsiya:** Murakkab epidemiologik vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy o‘quv jarayoni bilimlarni talabaga yetkazishda yangi muammolarga duch kelmoqda. Bu talabalar va tinglovchilarning ko‘p sonli xilma-xillik bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashini ta‘minlash zarurligini anglatadi. Malakalarga ega bo‘lish uchun talaba yoki tinglovchiga haqiqiy dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni o‘rnatish, sozlash va sinab ko‘rish imkoniyati berilishi kerak. Ushbu muammoning mumkin bo‘lgan

ychimlaridan biri virtual kompyuterlardan foydalanishga asoslangan virtual kompyuter (VK) sinflari va virtual laboratoriyalardan (VL) foydalanishdir.

**Kalit soʻzlar:** virtual laboratoriya, malaka oshirish, talabalarning malakasini oshirish, axborot texnologiyalari, virtual mashinalar, masofaviy taʼlim, mustaqil taʼlim.

**Аннотация:** Современный процесс обучения связанный с непростой эпидемиологической обстановкой, сталкивается с новыми вызовами при передачи знаниям студентам. Что предполагает необходимость обеспечения приобретения студентами и слушателями навыков работы с большим количеством разнообразных информационных технологий. Для приобретения квалификации обучаемому необходимо дать возможность осуществления установки, настройки, конфигурации и тестирования реальных программных продуктов и сервисов. Одним из возможных решений такой проблемы является использование виртуальных компьютерных классов и виртуальных лабораторий (ВЛ), в основе которых лежит использование виртуальных машин (ВМ).

**Ключевые слова:** Виртуальные лаборатории, Повышение квалификации, Повышение квалификации студентов, Информационные технологии, Виртуальные машины, Дистанционное образование, Самостоятельное образование.

**Abstract:** The modern learning process involves complex epidemiological situation, faces new challenges in transferring knowledge to students. What implies the need to ensure acquisition by students and trainees of skills to work with large number of different information technologies. To purchase qualifications, the trainee must be given the opportunity to implement installation, configuration, configuration and testing of real software products and services. One possible solution to this problem is the use of virtual computer classes and virtual laboratories (VL), which are based on the use of virtual machines (VM).

**Keywords:** Virtual laboratories, Advanced training, Advanced training for students, Information technology, Virtual machines, Distance education, Self-directed education.

Virtualizatsiya axborot tizimlarini rivojlantirish yoʻli sifatida bugungi kunda global IT hamjamiyatining dolzarb va faol rivojlanayotgan mavzusidir. Oʻquv jarayonida virtual mashinalardan foydalanish koʻplab afzalliklarni beradi. Eng sezilarli effekt kompyuter sinflarining butun tarmoq infratuzilmasini virtualizatsiya qilish orqali erishiladi. Xizmat va boshqaruvni markazlashtirish, maʼlumotlarni saqlashni markazlashtirish, oʻtkazilayotgan darslarning turi va sifatining texnik darajaga kamroq bogʻliqligini taʼminlash va maxsus kompyuter xonasining konfiguratsiyasi, texnik, energiya resurslarini tejash va virtualizatsiyadan olingan boshqa imtiyozlar bilan taʼminlash zarur.

Ayniqsa, virtual kompyuter sinflaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda axborot tizimlari va texnologiyalarini rivojlantirishda juda kuchli tendensiya boʻlgan bulutli texnologiyalar yoʻlidagi birinchi qadam.

Universitetlarda virtual laboratoriyalar birinchi navbatda fizika, kimyo, biologiya va ekologiya kabi umumiy taʼlim fanlari uchun joriy qilingan, Masofaviy taʼlimda laboratoriya amaliyotlari anʼanaviy taʼlimdan tubdan farq qiladi. Talaba uyda virtual shaklda laboratoriyaga ega boʻlishi kerak. Sirtqi va masofaviy taʼlim uchun nafaqat anʼanaviy darsliklarning oʻrnini bosuvchi, balki deyarli yagona bilim manbai hamdir, chunki talabaning universitetdan uzoqligi sababli, bosma darsliklar va haqiqiy laboratoriya jihozlaridan foydalanish qiyin. Shuni taʼkidlash kerakki, axborot texnologiyalari fani oliy taʼlimning asosiy fanlaridan biridir. Sof gumanitar yoʻnalishdagi fanlardan farqli oʻlaroq, u aniq amaliy tarkibiy qismga ega boʻlib, unda keying bilimlar ilgari olingan bilimlarga asoslanadi. Bu esa oʻqituvchidan doimiy malaka oshirish jarayonini ham talab qiladi. Shu sababli oʻquv kursini amalga oshirish ssenariysi toʻgʻridan-toʻgʻri virtual laboratoriyalarga kirish bilan barcha amaliy jihatlarni dekodlashni oʻz ichiga olishi kerak. Tanlangan yondashuvning asosiy prinsipi-nazorat materiallarining asosiy eʼtibori, birinchi navbatda, talabalar ilmiy materialni oʻzlashtirishda “samarali” darajalariga erishganliklarini aniqlashga qaratilgan. Taʼlim kompetensiyalari darajasini bunday aralash baholashni tanlashning toʻgʻriligini asoslash uchun biz oddiy kuzatuvni taqdim etamiz: magistrantlar yuqori ilmiy darajaga daʼvogar sifatida u yoki bu darajadagi oliy maʼlumotni tugatgan va dastlab yuqori darajani namoyish etadilar va bu oʻrganish uchun ichki motivatsiyadir.

Talabalar tomonidan virtual laboratoriyalar bilan ishlash orqali bilimlarni egallash jarayonini ekspress-nazorat qilish dasturini yaratish ham zarur. Bilimlarni ekspress-nazorat qilish dasturini yaratishda ushbu savollarga javoblar aniqlanadi: Nimani nazorat qilish? Qachon nazorat qilish? Qanday nazorat qilish? Yangi standartlar bo'yicha ishlash sharoitida fanlar, bo'limlar va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish uchun ajratilgan o'quv soatlari soni sezilarli darajada kamayganida, bilimlarning ekspress-nazoratini kompyuter testi shaklida amalga oshirish maqsadga muvofiq deb qaror qilindi. Bu qisqa vaqt ichida to'g'ridan-to'g'ri fanning barcha mavzularini qamrab olgan talaba bilimini yetarlicha aniq baholash imkonini veradi.

Kompyuter testlari quyidagilarga imkon beradi:

- O'quv natijalarini tekshirish va baholashni avtomatlashtirish va shu bilan bilimlarni diagnostika qilish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish;

- O'rganishning motivatsion tomonini oshirish (talabalarni har bir darsga tayyorgarlik ko'rishga undaydi);

- Bilimlarni obyektiv baholash. O'qituvchi tomonidan subyektivlik istisno qilinadi. Hammaga teng imkoniyatlar beriladi (yagona tartib va baholash mezonlari).

Shunday qilib, an'anaviy o'quv materiallarini virtual laboratoriyalar yordamida qayta ishlash natijasida o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga qiziqishini oshirish va buning natijasida o'rganishni tushunish darajasini oshirish va ularning malakasini oshirish mumkin. Birinchi bosqichda muallif pedagogika instituti talabalari tomonidan o'rganilgan axborot texnologiyalari kursini virtual laboratoriyalar bilan ishlash shaklida amalga oshirishni taklif qiladi. Bu talabalar uchun malaka oshirishning yuqori sifat xususiyatlariga olib keladi.

Modulli treningdan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, bilimlarni nazorat qilishning ushbu shakli bilan o'qituvchiga yuk sezilarli darajada oshadi, bu rejalashtirishda e'tiborga olinishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Виртуальная образовательная лаборатория. Электронной ресурс. –Режим доступа: <http://www.virtualab.net/>.
2. Xudoyberdiyeva Sh.T. The use of an interactive educational platform in organizing the teaching of “Informatics and information technology” “Science and professional sciences through” quest” technology. American Journal of Interdisciplinary Research and Development. December 2023.
3. [www.acm.tuit.uz](http://www.acm.tuit.uz)

#### **XORAZM VILOYATI TOPONIMIKASI TARIXI**

**Navoiy davlat pedagogika instituti  
Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya  
va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi  
3-kurs talabasi Azatboyeva Zuhra**

**Ilmiy rahbar: Ibragimov Xurshid Xayrullayevich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyati toponimikasi hamda tarixi haqida batafsil bilib olishingiz mumkin. Xorazm viloyatining tarixida o'ziga xos voqealar hamda abstrakt tushunchalar mavjud. Bu maqolada viloyatning tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm viloyati, Strabon, Ogahiy, Abu Rayhon Beruniy, Avesto, Omon Matjon.

#### **TOPONIMIC HISTORY OF KHORAZM PROVINCE**

**Abstract.**In this article, you can learn more about toponymy and history of Khorezm region. There are unique events and abstract concepts in the history of Khorezm region. This article contains interesting information about the history of the region.

**Key words:** Khorezm region, Strabo, Ogahi, Abu Rayhan Beruni, Avesta, Amon Matjon.

#### **ТОПОНИМИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ ХОРАЗМСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Аннотация:** В этой статье вы сможете узнать больше о топонимике и истории Хорезмской области. В истории Хорезмской области есть уникальные события и абстрактные понятия. В данной статье собраны интересные сведения об истории региона.

**Ключевые слова:** Хорезмская область, Страбон, Огахи, Абу Райхан Беруни, Авеста, Амон Маджон.

Qadimiy Xorazm tarixini teran tadqiq qilgan rus professori S.P.Tolstoy “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab” nomli monografiyasida yozganidek, “Xorazm “ nomi fors yozuvlarida shuningdek, “Avesto”da va pahlaviy tilidagi diniy asarlarda yunon, lotin, xitoy va arman manbalarida bir necha bor tilga olingan. Shuningdek, XII asr mobaynida hamda XIII asr boshlariga kelib Xorazm Gruziya chegaralaridan tortib Farg‘onagacha Hind daryosidan shimoliy Ord cho‘llarigacha quloch yoygan ulug‘ sharq imperiyasining markaziga aylanadi.

Xorazmning roli, ayniqsa zardushtiylik dini rivoyatlarida ta’kidlab o‘tilganligi diqqatga sazovordir. Milodning I asrida qadimgi yunon tarixchisi Strabon “Xvay-ri-zem, ya’ni quyoshli yer “deya toponimini izohlab o‘tib ketgan va bu yerda yashovchilar quyoshni Xudo deb bilishadi degan fikrni bildirgan. Shu kabi Xorazm to‘g‘risida arab sayyohi Muqaddasiy (985-yil) ham o‘zining “Axzam o‘t taqsim fi ma’rifat ul-aqolim asarida bir rivoyatni keltirib o‘tadi. Ushbu rivoyatda Sharq podshosini g‘azabini keltirgan 400 kishini kimsasiz uzoqlikdagi joyga olib borib tashlashini buyurgani aytiladi. Oradan vaqt o‘tib podshox 103 kishi forsaxlikdagi Kosga keltirganlar holidan xabar olishini topshiribdi.

Mulozimlar kelib qarashsaki, badarg‘a qilinganlarning hammasi tirik bo‘lib, ular o‘zlariga chaylalar qurib, baliq ovlab kun kechirar ekanlar, ularda o‘tin cho‘p ko‘p ekan. Voqeadan podshohni ogoh qilishsa, hukumdor mulozimlaridan so‘rabdi:

-Go‘shetni ular nima der ekanlar?

-Xor

-O‘tin-cho‘pnichi?

-Razm

Shunda podsho debdi:

-O‘sha joylarni men ularga bag‘ishladim.Ularning yurti “Xorazm” deb atalsin debdi.

Xorazm o‘z bag‘rida tarixning ne bir sirlarini saqlab turibdiki, shu tufayli ham shoir va tarjimon Matnazar Abdulhakim yozganidek:

Xorazmni qazsangiz agar,

Yer ostidan daryolar chiqar

Xorazmni qazsangiz agar,

Yer ostidan dunyolar chiqar

Xorazm haqida so‘z yuritganda, mashhur shoirimiz Omon Matjonning mustaqilligimizdan oldin yozgan bir she’ri yodimizga tushadi. U kishi nega “Xorazmda tog‘lar yo‘q?” degan savolni qo‘yib “Xorazmning buyuk tog‘lari bor, bu Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Feruzlardir” deb javob beradi.

Haqiqatan ham Xorazmda ko‘plab ulamolar yetishib chiqqan va biz bundan faxrlansak arziydi.

Xorazm viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil qilingan bo‘lib maydoni 6,05 ming kv.km ni egallaydi. Xorazmda 11 ta tuman mavjud bo‘lib, bularga: Xiva, Hazorasp, Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Tuproqqa‘la, Xonqa, Yangiariq, Yangibozor, Shovot, Xorazm viloyati tarixiy va me‘moriy yodgorliklarga boy. Bu asosan Xiva shahri bo‘lib, UNESCO ning Jahon merosi qo‘mitasi hisobiga kiritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoxud betakror Xorazm maftunkor, lazgi, ko‘kka bo‘y cho‘zgan minoralari, xushchaqchaq va mehmondo‘st xalqi bilan e‘tiborni tortib kelgan.

Xorazm haqidagi ko‘plab olimlarning fikrlari-yu ta’riflarini ko‘rib chiqar ekanmiz, yana bir bor ushbu viloyatga mehringiz kuchayishi aniq. Bunday so‘lim maskanlaridan biri bo‘lgan Xorazm tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Ushbu azm go‘sha ilm fan arboblarni yetishtirib bergan. Bu go‘shada ko‘plab xosiyatlar borligiga guvoh bo‘lasiz. Ushbu mo‘jizakor va sehrli diyorga ko‘plab sayyoh va olimlarning ko‘ngli tushgan desak adashmagan bo‘lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Umid Bekmuhammad “Xorazm va Xorazmliklar” Durdona nashriyoti , Buxoro-2022 4-5 betlar

2.O‘. Abdullayev, U. Bekmuhammad “Xorazm tarixi” Durdona nashriyoti, Buxoro-2023 4-7

betlar



## RAQAMLI QURILMALARDA MEDIA KIRISHNI BOSHQARISH MANZILI

Zaripov Nozimbek Nayimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti  
doktoranti (DSc), p.f.f.d. (PhD), dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada MAC-manzil tarkibi va qurilmada MAC-manzilni aniqlash usullari, uning ahamiyati borasida keltirilgan. Shuninhdek, bitta MAC-manzil orqali kompyuterga nechta kompyuter ulash mumkinligi, IP manzil va media kirishni boshqarish manzilining farqi, ikkilik tizimiga doir misol va masalalar yoritib berilgan.

**Tayanch tushunchalar:** IP, MAC-manzil, cmd, jismoniy manzil, bit, konfiguratsiya.

**Аннотация:** В данной статье описан состав MAC-адреса и способы определения MAC-адреса на устройстве, а также его важность. Также объясняется, сколько компьютеров можно подключить к компьютеру через один MAC-адрес, разница между IP-адресом и адресом управления доступом к среде, примеры и проблемы, связанные с двоичной системой.


**Основные понятия:** IP, MAC-адрес, cmd, физический адрес, бит, конфигурация.

**Abstract.** This article describes the composition of the MAC address and the methods of determining the MAC address on the device, as well as its importance. Also, how many computers can be connected to a computer through one MAC address, the difference between an IP address and a media access control address, examples and issues related to the binary system are explained.

**Keywords:** IP, MAC address, cmd, physical address, bit, configuration.

Hozirgi kunda har bir ishlab chiqariladigan qurilmalarga ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan yagona identifikator raqami beriladi. Bu raqam o'zgaras va tarmoqda qurilmaning joylashuvini aniqlashda yoki tarmoq qurilmasida diagnostika o'tkazishda media kirishni boshqarish manzili zarur bo'ladi. Media kirishni boshqarish manzili qisqacha MAC-manzil deb nomlanadi. MAC-manzil (ing. Media Access Control) – har bir tarmoq uskunasiga berilgan yagona identifikator raqami [2]. Har bir tarmoq interfeys kartasining MAC-manzili mavjud bo'lib, u tarmoqdagi kompyuterni yagona identifikatsiyalashga yordam beradi.

Tarmoq qurilmasidagi har bir tarmoq interfeysiga yagona MAC-manzil beriladi. Shu boisdan tarmoq qurilmasida bir nechta MAC-manzil bo'lishi mumkin. Masalan: agarda kompyuterga ethernet portga kabel hamda Wi-Fi router ulangan bo'lsa, tizim konfiguratsiyasida ikkita MAC manzili hosil bo'ladi. MAC-manzil tarmoq interfeys kartasi bilan bog'liq yagona qiymat bo'lib, u tarmoq interfeys kartasini ishlab chiqarish jarayonida o'yib yozilgan doimiy manzildir. Texnik va jismoniy manzil sifatida tanilgan MAC-manzilni hech qanday sharoitda o'zgartirish mumkin emas. Har bir MAC-manzil o'n oltilik sanoq sistemasidagi 12 xonali belgidan iborat bo'ladi. O'n oltilik sanoq sistemasida har bir belgi 4 bitdan iborat ekanligi bois, bitta MAC-manzil 48 bitni tashkil etadi. MAC-manzil tuzilishi ikki nuqta yoki defis bilan ajratilgan olti juft o'n oltilik raqamlardan iborat, masalan, 01:23:45:67:89:AB. Har bir juft MAC manzilining bir baytini ifodalaydi va 00 dan FF gacha bo'lgan qiymatga ega bo'lishi mumkin. Shundan dastlabki 24 bit tashkilotning yagona identifikatori (OUI – organizationally unique identifier) ishlab chiqaruvchining identifikatorini, keyingi 24 bit esa ishlab chiqaruvchi tomonidan kartaga berilgan raqamni o'z ichiga oladi. Ya'ni birinchi oltita belgi tashkilotning yagona identifikatori raqami, qolgan oltita belgi ishlab chiqaruvchi tomonidan kartaga berilgan raqamni anglatadi (1-rasm).



Windows operatsion tizimida MAC-manzilni aniqlash uchun bayroqcha+R tugmalari bosiladi, hosil bo'lgan oynaga "cmd" yozuvi kiritiladi va "ok" tugmasi tanlanadi. Natijada qora ekran hosil bo'ladi, ushbu oynaga "ipconfig /all" yozuvi kiritiladi. Oynada barcha tarmoq konfiguratsiyalari hosil

bo'ladi. Physical Address (Физический адрес) qatoridan MAC-manzilni ko'rish mumkin. MAC-manzilning IP manzildan farqli tomonlari mavjud. Asosan MAC-manzil bitta tarmoqdagi qurilmalarni manzilini aniqlash uchun ishlatiladi. Shuning bilan birgalikda, IP-manzillar ham xuddi shu maqsadda ishlatiladi, lekin MAC manzili bir xil mahalliy tarmoqdagi qurilmaning jismoniy manzilini aniqlash bilan cheklanadi, IP-manzil esa qurilmani global miqyosda yoki uning internet manzili orqali aniqlash imkonini beradi.

Faraz qilaylik, tarmoqdagi kompyuterlar bitta kommutator (xab yoki switch) ga ulangan. Biror kompyuter ma'lumotlar paketini boshqa qurilmaga yuborganda, kommutator ma'lumotlar paketi qayerga ketishi kerakligini aniqlash uchun MAC manzillaridan foydalanadi. Kommutator ma'lumotlar paketini qabul qilganda, ma'lumotlar paketi qaysi portga o'tishi kerakligini aniqlash uchun asosiy manba MAC manziliga tekshiradi. Kommutator ushbu ma'lumotni o'zining MAC manzillar jadvalida saqlaydi, shunda u kelajakda ma'lumotlarni tezda uzatishga yordam beradi.

#### **Kommutator va MAC manzillaridan foydalanishning afzalliklari:**

1.O'ziga xoslik: tarmoqdagi har bir qurilma o'ziga xos MAC manziliga ega bo'lib, uni aniqlash va ma'lumotlarni faqat aniqlangan manzilga yuborish imkonini beradi.

2.Kommutatsiya samaradorligi: MAC manzil tufayli kommutator faqat kerakli qurilmalar joylashgan portlarga ma'lumotlarni yuborishi mumkin, bu esa kommutatsiyani yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi va tezkorlikni oshiradi.

3.Oson konfiguratsiya: Ko'p hollarda MAC manzillari avtomatik ravishda aniqlanadi va o'tish jadvalida saqlanadi, bu administratorning yukini kamaytiradi va tarmoq konfiguratsiyasini soddalashtiradi.

4.Xavfsizlik: MAC manzillari tarmoq xavfsizligini oshirib, faqat ma'lum qurilmalarga tarmoqqa kirishni cheklash uchun ishlatilishi mumkin.

5.Trafikni boshqarish: MAC manzillari virtual mahalliy tarmoqlarni hoisil qilish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa tarmoqdagi trafikni boshqarish va kommutatorlar ishini kamaytirish imkonini beradi.

6. Monitoring va tahlil: MAC manzillari tarmoqdagi trafikni kuzatish va tahlil qilish, natijada muammolarni aniqlash va tarmoq ish faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi [4].

Xulosa qilib aytganda, MAC-manzil har bir qurilmaga berilgan takrorlanmas kod bo'lib, tarmoqda axborotlarni ko'rsatilgan manzilga aniq va tez yetib borishiga xizmat qiladi. MAC-manzil tarmoqni boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash, trafikni tejash, nazorat va tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M. Vanhoef, C. Matte, M. Cunche, L. Cardoso, and F. Piessens. Why MAC Address Randomization is not Enough: An Analysis of Wi-Fi Network Discovery Mechanisms. In ACM AsiaCCS, 2016
2. Xaytullayeva N.S., Fayziyeva F.M., Sayfurov D.M., "Informatika va axborot texnologiyalari", Darslik: - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 340 b.
3. J. Wright and J. Cache. Hacking Exposed Wireless: Wireless Security Secrets & Solutions. McGraw-Hill Education Group, 3rd edition, 2015
4. <https://itmag.uz/blog/stati/vvedenie-v-mac-adresa-struktura-i-identifikatsiya-ustroystv/>

### **RAQAMLI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI DAVRIDA TA'LIM VA TA'LIM BOSHQARUVI JARAYONLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI**

**Mohinur Ziyodova Kamol qizi**

**Annotatsiya.** Innovatsion texnologiyalar davrida yashar ekanmiz kundalik hayotimizga jadal ravishda kirib kelayotgan sun'iy intellekt atamasini tez-tez uchratyapmiz. Ijtimoiy sohalarida samaradorlikni oshirish maqsadida faoliyatning ko'plab tarkibiy qismlari avtomatlashtirilmoqda. Albatta ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida aniq maqsadlar belgilab olinganligi va bosqichma-bosqich amalga

oshirilayotganligi buning yaqqol dalilidir. Bugungi kunda strategiyani amalga oshirish doirasida ta'limning har bir qatlamida axborot texnologiyalari ommalashtirilmoqda, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirilmoqda. Ta'lim boshqaruvi jarayonlarida ham samarali va raqamlashtirilgan faoliyat olib borish maqsadida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, bundan tashqari yagona ta'lim platformasini yaratish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu islohotlarning zamirida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari, sun'iy intellekt texnologiyalari haqidagi bilimlar yotadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, raqamli O'zbekiston, avtomatlashgan jarayon, raqamli texnologiya, strategiya.

## **РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ И ПРОЦЕССАХ УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЕМ В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ РЕФОРМ УЗБЕКИСТАНА**

**Абстракт:** Живя в эпоху инновационных технологий, мы часто сталкиваемся с термином искусственный интеллект, который стремительно входит в нашу повседневную жизнь. В целях повышения эффективности в социальной сфере автоматизируются многие составляющие деятельности. Конечно, сфера образования не является исключением. Это является наглядным доказательством того, что в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» Президента Республики Узбекистан № УП-6079 от 05.10.2020 года поставлены конкретные цели, которые поэтапно реализуются. улучшить цифровые навыки в сфере образования. Сегодня в рамках реализации стратегии популяризируются информационные технологии на всех уровнях образования, развиваются навыки использования цифровых технологий. Приоритетом остается развитие технологий дистанционного, онлайн и виртуального обучения с целью проведения эффективной и цифровой деятельности в процессах управления образованием, а также создание единой образовательной платформы. В основе этих реформ лежат навыки использования информационных технологий, знания о технологиях искусственного интеллекта.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, цифровой Узбекистан, автоматизированный процесс, цифровые технологии, стратегия.

## **THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION AND EDUCATION MANAGEMENT PROCESSES IN THE ERA OF DIGITAL REFORMS IN UZBEKISTAN**

Living in the era of innovative technologies, we often encounter the term artificial intelligence, which is rapidly entering our daily lives. In order to increase efficiency in the social sphere, many components of activity are being automated. Of course, the sphere of education is no exception. This is a clear proof of the fact that within the framework of the strategy "Digital Uzbekistan-2030" of the President of the Republic of Uzbekistan № PF-6079 from 05.10.2020, specific goals have been set and are being realized step-by-step. Today, within the framework of the strategy implementation, information technologies are popularized at all levels of education and skills in the use of digital technologies are developed. The priority remains the development of distance, online and virtual learning technologies in order to carry out effective and digital activities in education management processes, as well as the creation of a unified educational platform. These reforms are based on skills in the use of information technology, knowledge of artificial intelligence technologies.

**Keywords:** Artificial intelligence, digital Uzbekistan, automated process, digital technologies, strategy.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aniq maqsad va ko'rsatkichlar belgilab berilgan uzoq muddatli strategiyalar qabul qilinib, izchillik bilan hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Shu jumladan, ta'lim sohasining raqamlashtirilishi ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar keng qo'llanilyapti, balki ta'lim boshqaruv jarayoni ham avtomatlashtirilayotgani ta'limdagi bir qancha ko'zbo'yamachiliklarni oldini oladi, bundan tashqari o'qituvchi xodimlarning, o'quvchi, talabalarning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashuvini ta'minlaydi. Xorijda eng tez rivojlanayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim sohasiga joriy qilinishining istiqbollari, yutuqlari o'rganilib tajriba almashinilmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida ta’lim muassasalarida o‘qitish, boshqaruv va qaror qabul qilishning turli jihatlarini yaxshilash uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda bir qator vazifalar belgilangan. Bular:

- ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish;

- texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o‘qishni tashkil etish;

- qog‘oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish;

- xalqaro yirik korxonalarining markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo‘nalishidagi milliy kadrlar malakasini oshirish mexanizmini tatbiq etish;

- odamlarni hukumat va biznes tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlardan foydalanishga chorlash.

Agar sun’iy intellekt texnologiyalari haqida xorijiy professorlarning tadqiqotlariga qaraydigan bo‘lsak, sun’iy intellekt ilmining otasi hisoblangan Toronto universiteti professori Jeffri Hinton sun’iy intellekt haqidagi ma’ruzasida sun’iy zako yaqin kelajakda biologik intellektning o‘rnini to‘laligicha bosa oladi degan pessimistik qarashlariga tayanadigan bo‘lsak, yurtimizda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar davrida barcha yosh qatlamlariga innovatsion texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, agar zarurat bo‘lganda qat’iy cheklovlar o‘rnatish ham yuzaga keladigan muammolarning oldini oladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim boshqaruvi jarayonlariga tatbiq etish ta’limdagi kamchiliklarni qisqa fursatlarda aniqlash va mahsuldorlikni oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Masalan, pedagoglar faoliyatida sun’iy intellektni o‘quv dasturlarini moslashtirishda foydalanish vaqtini tejash va foydali ish ko‘effitsientini oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bunda, avvalo pedagogning o‘zi raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. SI algoritmlari kiritilgan o‘quv dasturini tahlil qiladi va maqsadlari, o‘rganish uslublariga mos keladigan resurslar, faoliyat va o‘rganish yo‘llarini tavsiya qiladi, bu yerda pedagogning vazifasi esa o‘quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan resursni tanlab har bir o‘quvchi bilan yagona ta’lim platformasida individual tarzda ishlashdan iborat.

Bundan tashqari ta’lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish uchun ham samarador vosita hisoblanadi. Masalan, kiritilgan aniq algoritmlarga ko‘ra talabalar, o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor shaxslarning fikr, mulohazalarini to‘plash, inson omilisiz tahlil qilish orqali o‘qitish usullarini, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim siyosatini doimiy baholash, takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 2022-yil 27-avgustda “Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro anjumanda ham yuqoridagi ma’lumotlar doirasida fikr almashilgan. SI ta’limda chuqur sifat o‘zgarishini yaratishi mumkin bo‘lgan bir paytda uni amalga oshirish axloqiy, shaffof va tenglik, xilma-xillik va inklyuzivlik qadriyatlariga mos kelishini ta’minlash muhimdir. Buning uchun foydalanuvchilardan eng avvalo strategik rejalashtirish, uzluksiz o‘rganish va proaktiv boshqaruv kombinatsiyasini talab qiladi. Shu bilan birga raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda so‘ngi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish va uning amaliyotlaridan xabardor bo‘lish davr talabidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957#-5032118>

2. <https://mininnovation.uz/ru/news/post-808>

3. Prof. Geoffrey Hinton - "Will digital intelligence replace biological intelligence?"

Romanes Lecture, University of Toronto.

## BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING INNOVATSION TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ahatova Malika Zoyirovna

Kimyo ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Imiy rahbar: Botirova Sabogul Rahmatullayevna

Navoiy davlat pedagogika instituti, kimyo kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada innovatsiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasiga batafsil ta'riflar berilgan. Shuningdek, tadqiqotchilik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari belgilangan hamda fan, ta'lim sohalarida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning mazmun mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, tadqiqotchilik, kompetensiya, tadqiqot kompetensiyasi, motivatsion, axborot, kognitiv, kommunikativ, aks ettiruvchi, shaxsiy.

**Аннотация:** В данной статье даны подробные определения понятия инновации и исследовательской компетентности. Кроме того, определены основные компоненты исследовательской компетентности, а также разъяснена сущность формирования исследовательских компетенций у обучающихся в сферах науки и образования.

**Ключевые слова:** инновационная, исследовательская, компетентность, исследовательская компетентность, мотивационная, информационная, когнитивная, коммуникативная, рефлексивная, личностная.

**Abstract:** This article provides detailed definitions of the concept of innovation and research competence. In addition, the main components of research competence are defined and the essence of the formation of research competences among students in the fields of science and education is explained

**Key words:** innovation, research, competence, research competence, motivational, informational, cognitive, communicative, reflective, personal.

Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra, innovatsion pedagogik loyihalarni amalga oshirish va innovatsion yutuqlarni fan va ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etish hamda ta'lim sifati darajasini yangi bosqichga ko'tarishda bo'lajak mutaxassislarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini oshiriga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilishi natijasida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuvlar asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida innovatsion tadqiqotlarni qo'llashga qiziqish, e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-3365-son, "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son hamda "Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 9-dekabrda PQ-4546-son qarorlariga muvofiq, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini shakllantirish va amalga oshirishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish amaliy ahamiyatga egadir.

Bo'lajak kimyo o'qituvchisini kasbiy-pedagogik tayyorlash ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasini fan, ta'lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o'zgarishlar asosida tizimlashtirish o'z navbatida ularni kompetentli yondashuv asosida innovatsion tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash dolzarb mavzu hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida pedagogik mutaxassislar tayyorlashning xalqaro standartlarida innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonning amaliy ahamiyatiga doir munozrali mulohazalar hali ham davom etmoqda.

O'tgan yillar davridagi ta'lim tizimidagi jadal rivojlanish sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi: innovatsion jarayonlar taraqqiyot shartiga aylandi; innovatsiyalar ishlab chiqarishning yetakchi

omiliga aylanmoqda; o'zgarishlar tezligi oshmoqda. Innovatsion faoliyat asosiy faoliyat maqomiga da'vogarlik qilmoqda va ta'lim tizimini isloh qilishda strategik rivojlanishi uchun zarur hisoblanmoqda. Ko'pgina adabiyotlar ta'hlili shuni ko'rsatadiki, "innovatsiya" tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, ular ko'pincha "yangilik" tushunchasi bilan chalkashtirib tavsiflanadi. Shu munosabat bilan ularning o'ziga xos farqlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotning metodologik asosi oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni tatbiq etishni rivojlantirish asosida bo'lajak kimyo o'qituvchisini innovatsion tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashni shakllantirish muammolarini tahlil qilishda kompleks yondashuvni qo'llash hisoblanadi. Tahlil natijalari asosida talabalarning innovatsion tadqiqotchilik faoliyati asoslari va natijadorligi.

### **Tahlil va natijalar**

Bo'lajak kimyo o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda foydalaniladigan tadqiqotchilik tamoyili o'quv jarayonini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar o'zlari o'rganayotgan fanlarda qo'llaniladigan asosiy tadqiqot metodlari bilan tanishadilar, ular uchun oson bo'lgan tadqiqotchilik metodlarini o'zlashtiradilar va yangi bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda shunday shart-sharoit yaratilishini talab etadiki, bunda ular o'zlarining mustaqilligi, faolligi va ijodkorligini namoyon etish imkoniga ega bo'ladilar. Talabalarni kasbiy va innovatsion tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning barcha bochiqlarida ularning bajarishlari uchun oson va o'quv faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan izlanish innovatsion tadqiqot ishlari tanlanadi. Turli bilim sohalaridagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi.

"Innovatsiya" atamasining ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, inglizcha-ruscha lug'atga ko'ra: "Innovatsiya – bu yangilik, o'zgarish" ma'nolarini anglatadi. V.A.Makarenko ta'rifiga ko'ra innovatsiya ing. "Innovation – yangilik, lot.innovatio-yangilanish" degan ma'nolarni anglatadi.

Innovatsiya – (lotincha innovation-yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy ta'limdan farq qiladi. Keng ma'noda innovatsiya so'zi mavjud bilimlardan foydalanishning yangi usulini bildiradi.

Demak, innovatsion ta'lim konsepsiyasi tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning asosi bo'lib, tadqiqotchilik maqsadi va mazmuni, tadqiqotchilik natijalarini baholash mexanizmlarini, kompetentli yondashuv asosida modernizatsiyalashning asosiy omili sifatida belgilanadi.

Ta'limga kompetentli yondashuv insonni o'zining shaxsiy, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari uchun olib boradigan faoliyatining asosiy sohalaridagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini majmuaviy ravishda o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Kompetentli yondashuv ta'limning zamonaviy sifatini ta'minlash zaruriyati va ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan axborot hajmining keskin oshishi hisobiga bu masalani an'anaviy yo'l bilan yechish mumkin emasligi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish usuli sifatida qaraladi. "Kompetensiya" atamasi tilshunoslikda ilk bor XX asrning 50-60 yillarida qo'llanilgan va insonning biror bir faoliyatni amalga oshirish layoqatini anglatgan.

Kompetensiyalar ichida asosiy kompetensiyalarga asoslangan holda talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Asosiy kompetensiyalar ko'p o'lchovli bo'lib, turli xil aqliy jarayonlar va intellektual qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. "Tadqiqot kompetensiyasi" tushunchasini shakllantirish va uning mazmunini anglash uchun, birinchi navbatda tadqiqot faoliyatining mohiyatini anglash zarur hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili asosida "Tadqiqot kompetensiyasi" tushunchasini talqin qilishda turli xil yondashuvlar mavjudligiga e'tibor qaratamiz:

Tadqiqot kompetensiyasi – bu kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi va ko'rsatkichi bo'lib, u boshqaruv muammolarini hal qilish, zamonaviy jamiyat qadriyatlarini va istalgan maqsadlarga muvofiq o'z karerasini qurish uchun texnologiya darajasida tadqiqot faoliyatining ko'nikmalari va usullariga ega bo'lishni anglatadi

Tadqiqot kompetensiyalarining turlari va mazmuni V.D. Shadrikov faoliyatining psixologik tizimi kontsepsiyasi asosida, faoliyat tizimining funktsional bloklariga muvofiq, ya'ni: shaxsiy motivatsion



kompetensiyalar, maqsad qo'yish kompetensiyalari, faoliyat dasturi sohasidagi vakolatlar, axborot kompetensiyalari, qarorlar qabul qilish sohasidagi vakolatlar, ishlash natijalarini nazorat qilish va tuzatish vazifalari doirasida aniqlanishi mumkin.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, S. I. Osipova tadqiqot kompetensiyasining transformativ xususiyatiga e'tibor qaratadi va uni faoliyatning semantik kontekstini funksionaldan transformativga o'tkazish natijasida yangi bilim tizimlarini mustaqil ravishda o'zlashtirish va egallash istagi va qobiliyatida ifodalangan mavjud bilim va ko'nikmalarga va faoliyat usullariga asoslangan ajralmas shaxsiy sifat sifatida taqdim etadi. Bundan tashqari muallif, talabani tadqiqot qobiliyatining uchta asosiy elementini ajratib ko'rsatish taklifini ham ilgari suradi.

–faoliyat maqsadini yoritib berish;

–faoliyat predmetini, vositalarini belgilash, rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish;

–faoliyat natijalarini aks ettirish, tahlil qilish, erishilgan natijalarning maqsad bilan bog'liqligi anglash[4,b. 45].

Yuqoridagilarni e'tiborga olib aytish mumkinki, tadqiqotchilik kompetensiyasining bu jihatlari, ko'proq darajada o'quv amaliyotida emas, balki tadqiqot o'tkazishda kompetensiyani aks ettirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki tadqiqot kompetensiyasi har bir bo'lajak kimyo o'qituvchisining ajralmas faoliyati sifatida o'quv va kognitiv faoliyat jarayonida shakllanishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrda "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3365-sonli qarori

2. Аверьянова С. Ю. Ключевые компетенции как факторы и результаты профессионального самоопределения старшеклассников // Научный диалог. – 2013. – № 8. – С. 120–130.

3. Ахмадалиев А. М., Қосимов А. Х., "Инновацион фаолият ва илғор педагогик технологиялар" –ўқув қўлланма. Т.:2006 й.

4.Осипова, С.И. Развитие исследовательской компетентности одарённых детей [Текст] / С.И. Осипова. - ГОУ ВПО «Государственный университет цветных металлов и золота» [www.fkgru.ru/conf/717.doc](http://www.fkgru.ru/conf/717.doc). стр.

5.Сластенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений// стр. 83

## **TURKIY XALQLAR ADABIYOTI BEBAHO XAZINALAR NEGIZI**

**Ilmiy rahbar Ochilova Nafisa Usmanovna**

**4-kurs talabasi Ro'ziyeva Manzura**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy tilda so'zlashuvchi qardoshlar xalqlar adabiyotining o'tkir qalam sohiblari yozgan o'lmas asarlari, ulardan ba'zilarining mazmun-mohiyati, badiiy jozibasi haqida atroflicha fikr yuritiladi.

**Tayanch tushunchalar:** turkiy xalqlar, "Avesto", Tuproqqal'a, adabiyot, asar, Qoshg'ariy, Yettisuv va Markaziy Osiyoda.

**Annotation:** In this article, the immortal works written by the writers of the literature of the Turkic-speaking brotherly peoples, the content and artistic appeal of some of them are discussed in detail.

**Key words:** Turkic peoples, "Avesta", Tuproqqala, literature, work, Kashgari, Yettisuv and in Central Asia.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются бессмертные произведения, написанные писателями литературы тюркоязычных братских народов, содержание и художественная привлекательность некоторых из них.

**Ключевые слова:** тюркские народы, «Авеста», Тупроккала, литература, труд, Кашгари, Йеттисув и в Средней Азии.

Turkiy xalqlar adabiyoti dunyo adabiyotining eng ko'hna adabiyotlaridan biridir. Turkiy xalqlarning qadimgi zamonlarga oid adabiy yodgorliklari turli manbaalar va xalq og'zaki ijodi orqali bizgacha yetib keldi. Bu adabiyotning folklor va yozma mdurdonalari jahon xalqlari ma'naviyatini

yuksaltirish, kishilar qalbiga insonparvarlik g'oyalarini singdirishga munosib ta'sir ko'rsatgan. "Manas", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Qo'rquq ota kitobi" singari xalq dostonlari, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Navoiy, Rumi, Abay, Muxtor Avezov, Berdaq, Chingiz Aytmatov, Maxtumquli singari turli davrlarga mansub turkiy adiblar ijodi dunyo adabiyotining mumtoz asarlari hisoblanadi. "Turkiy xalqlar adabiyoti" jahon adabiyoti va yangi davr adabiyotini o'rganish uchun ko'prik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, kelib chiqishi bir-biriga yaqin, qarindosh bo'lgan xalqlarning tarixiy ildizlari, madaniyati, rivojlanishi bir ildizga borib taqaladi. Bu xalqlarning urf-odatlarida, rasmlarida, xalq og'zaki ijoda bir-biriga o'xshash holatlar juda ko'p ko'zga tashlanadi. Albatta, tarixiy taraqqiyot tufayli, keyinroq ayrim farqlar ham vujudga kelgan. Ma'lumki, turkiy qavmlar deganda biz o'zbek, qazoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur, tatar, boshqird, chuvash, ozarbayjon, qorachoy, turk, galauz, qo'miq, balqar kabi o'ttizga yaqin millatlarni ko'zda tutishimiz. Bu millatlar esa Evro-Osiyo materigining kattagina qismida joylashgan hududlarda hayot kechiradi. Ana shu qarindosh xalqlarning adabiyotini bir butun holda yaxlit o'rganish, ularning ijtimoiy-madaniy hayotini yaqindan anglashga yordam beradi. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi va madaniyati haqida tarixchi olimlarning asarlarida, yozma manbalarda grek, xind, xitoy va arman tarixchilarining kitoblarida hamda "Avesto", "Behistun", "O'rxun-Enasoy" yodgorliklarida, shuningdek, Beruniy, Narshaxiy kabi olimlarning asarlarida ma'lumotlar beriladi. Bularning eng muhimi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bo'lib, bu asarda qadimgi qo'shiqlar, lirik she'rlar, maqollar berilgan, qolaversa, Termiz shahri yaqinidagi Ayrptomda, Ashxobod yaqinida joylashgan Nisa, Tuproqqal'a, Baraxsha saroylaridan topilgan yodgorliklardan ham turkiy xalqlarning qadimgi madaniyatini sezish mumkin. X-XII asrlarda yozilgan M. Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" kabi asarlari butun turkiy xalqlarning umumiy adabiy merosi bo'lib hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariy Xitoydan tortib O'rta yer dengizigacha bo'lgan hududdagi mamlakatlarni kechib, uzoq yillar davomida turkiy xalqlar tarixi, tili, og'zaki va yozma adabiyoti, urfodatlari, yashash tarzi, madaniyatini sinchiklab o'rganadi. Bunda u ayniqsa, turkiy so'zlarni to'plash, turkiy til va lahjalarni bir-biridan farqlash, ularni tartibga solishga harakat qiladi. "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shahar, qishloq, va ovullarini ko'p yillar kechib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillarni har bir kichik farqlarini aniqlash uchun ham qildim. Ularni har tomonlama bir asosda tartibga soldim"—, deb yozadi.

Mahmud Koshg'ariy XI asrning tilshunos olimi sifatida mashhurdir. Uning turkiy tillar tadqiqiga bag'ishlangan "Javohir un-nahv fi lug'otit turk" (Turkiy tillarning sintaksis qoidalari) hamda "Devoni lug'otit turk" (Turkiy so'zlar devoni) ikkita asar yaratdi. Bu asarning birinchisi yetib kelmagan yoki aniqlangan emas. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" nomli asari ham turkiy tilda yozilgan birinchi badiiy doston bo'lib, u didaktik, ya'ni pand-nasihatchilik xarakteridagi asardir.

Badiiy so'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan ko'p zamonlar ilgari og'zaki ijod shaklida paydo bo'lgan. U og'izdan-og'izga, avlodlardan-avlodga, davrdan-davrga ko'chdi, natijada, qadimgi zamonlarga oid ayrim og'zaki adabiy yodgorliklar bizga qadar yetib keldi. Ularda o'zlarini chet el bosqinchilaridan yoki yovuz kuchlardan saqlash uchun kurashgan qahramonlar jasorati hikoya qilinadi. Turkiy qavmga mansub xalqlarning og'zaki va yozma adabiyoti ularning tarixi singari boy va qadimiydir.

Turkiy tilda so'zlovchi xalqlar ana shu qadimiy boy adabiyot taraqqiyotiga o'zlarining muayyan hissalarini qo'shganlar. Ularning og'zaki badiiy ijodiyotida mushtarak jihatlardan bo'lishi bilan birgalikda mazkur xalqlar folklorida o'ziga xos xususiyat kasb etuvchi janrlar ham mavjud. Masalan, latifalar, turli marosim va mehnat qo'shiqlari, maqollar va ertaklar turk, ozarbayjon, turkman, o'zbek xalq og'zaki ijodida ham keng tarqalgan.

Turkiy xalqlar folkloridagi hajm jihatidan katta, badiiyat jihatidan o'ziga xos jozibaga ega bo'lgan dostonlar jahon xalqlari folklorida ham katta mavqega ega. "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarning usmonli turklarda, ozarbayjon, turkman va o'zbeklarda bir qancha variantlari uchraydi. "Alpomish", "Manas", "Dada Qo'rquq" kabi dostonlar haqida ham shuni aytish mumkin. "Oshiq G'arib", "Qizjibek", "Qo'blandi botir", "Qirg'iz", "Shahriyor" kabi qahramonlik dostonlari esa jahon adabiyotining o'lmas obidalari qatoridan munosib o'rin olgan. Bundan tashqari turkiy xalqlarning tarixiy taqdiri, hayot tarzi,



qarashlari, ilm va madaniyati haqida zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" ko'plab ma'lumotlar beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytamanki, milliy istiqbolga erishgan hozirgi kunimiz uchun bu asarlar va dostonlar yoshlarimizni ma'naviy kamolot sari yetaklaydigan bir nurdir. Turkiy xalqlar adabiyoti jahon adabiyoti tarixining oltin halqalarini tashkil etadi. Garchi nasr bo'yicha Yevropa va Amerika adabiyoti katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, Chingiz Aytmatovning roman va qissalari epik turning taraqqiyotiga yangi o'zan berdi. Jahon she'riyatining asosiy o'zagi Sharq she'riyati bo'lsa, uni turkiy shoirlar ijodi to'ldirib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qadimgi tarixchilar Ўрта Осиё ҳақида. Таржимон ва тузувчи З.Аълам. – Т.2008
2. Mallayev N. Nizomiy Ganjaviy. Toshkent. 1966 yil. ("O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida)

## ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТЛАРИ

Илмуродова Феруза Шакировна  
Чирчиқ педагогика университети  
жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси  
99-891-39-05

**Аннотация:** Мақолада халқ педагогикасининг ёш авлодни тарбиялашдаги тушунчаси ва аҳамияти очиб берилган. Халқ педагогикасида инновацион технологияларидан фойдаланиш бўйича ўқитувчи фаолияти мазмунининг тавсифи берилган.

**Калит сўзлар:** таълим, халқ педагогикаси, халқ педагогикасининг кўрсатмалари.

**Аннотация:** в статье раскрывается концепция и значение народной педагогики в воспитании подрастающего поколения. Дано описание содержания деятельности учителя по использованию инновационных технологий в народной педагогике.

**Ключевые слова:** образование, народная педагогика, наставления по народной педагогике.

**Annotation:** the article reveals the concept and importance of folk pedagogy in the upbringing of the younger generation. A description of the content of the teacher's activities on the use of innovative technologies in folk pedagogy is given.

**Keywords:** education, folk pedagogy, instructions of folk pedagogy.

Замонавий жамиятда инсоннинг ахлоқий фазилатларини шакллантиришга тўсқинлик қиладиган ва ёшлигидан бошлаб одамларнинг ижтимоий тажовузкорлигини оширишга ёрдам берадиган салбий тенденциялар мавжуд. Ўтмиш мафкурасининг рад этилиши "замон алоқаси" нинг парчаланишига, ўз ватанлари тарихига дахлдорлик туйғусига олиб келди. Шу муносабат билан кекса авлод тажрибасидан фойдаланиш, халқ педагогикаси ва унинг анъаналарига мурожаат қилиш масаласи долзарбдир. Ўқитувчининг мақсади ҳар доим нафақат таълим, балки болаларни тарбиялаш ҳам бўлган. Тарих ёки математика, физика ёки адабиёт дарси бўладими, ўқув жараёнлари ҳар қандай дарсда бўлиши керак. Ҳозирги вақтда мактаб ўқувчиларининг ахлоқий ва ахлоқий тарбиясига имкон қадар кўпроқ эътибор бериш керак. Бу, таълим Академияси академиги А. Новиковнинг сўзларига кўра, биринчи навбатда, нафақат ёшларнинг, балки бутун жамиятнинг замонавий таназзули билан боғлиқ. Ҳозирги вақтда болаларга асосан атрофдаги ҳақиқат таъсир қилади. Шунинг учун ўқитувчилар мактаб ўқувчиларининг маданий ривожланишига, уларнинг ахлоқий тарбиясига имкон қадар кўпроқ эътибор беришлари керак. Халқ педагогикаси томонидан Т. Ф. Кузина ва Г. И. Батурина "болаларни тарбиялаш ва ўқитишнинг тарихан шаклланган тажрибаси, дастлаб авлоддан-авлодга оғзаки равишда етказилган, сўнгра ёзма ёдгорликларда фольклор, қахрамонлик эпоси, афсоналар шаклида қайд этилган, қоидалар ва тарбия тўплами, хулқ-атвор қоидалари, ва ҳоказо.". Халқ педагогикаси таълимнинг идеаллари ва мақсадларини ўз ичига олади, дунёқарашни, оила, шахс ҳақидаги ғояларни акс эттиради[3]. К.Д. Ушинский ўқитувчи, "халқ педагогикаси" атамасини биринчи марта ишлатган, у : " халқнинг ўзи томонидан яратилган ва оммабоп тамойилларга асосланган

таълим мавҳум ғояларга асосланган энг яхши тизимларда мавжуд бўлмаган таълим кучига эга. "У инсон авлодларнинг урф-одатлари ва анъаналарини ҳурмат қилса ва ўтмиш ва ҳозирги кун ўртасидаги алоқани сақлаб қолган тақдирдагина таълим олиши мумкинлигига ишонган, шунинг учун халқ анъаналарига риоя қилиш тарбия жараёнининг ажралмас қисмидир[4]. Халқ педагогикасининг кўрсатмалари эртақлар, дostonлар, ўйинлар, қўшиқлар, мақоллар ва байрамларда ўз аксини топган. Халқ педагогикасининг етакчи қондаси инсонда ватанпарварликни тарбиялашдир. Болаларда ўз халқининг тарихи ва маданияти билан танишиш ўз халқига ҳурмат, ғурур, ўз миллатининг муносиб вакили бўлиш истагини уйғотади. Ватанпарварлик ғояси халқ оғзаки ижодининг барча шакллариға: мақоллар, эртақлар, қўшиқлар, қахрамонлик дostonларига кириб боради ва халқ қахрамонлари образларида, табиат гўзаллигини тасвирлашда ўз ифодасини топади. Инновация бу маълум бир ижтимоий бирлик-ташкilot, аҳоли пункти, жамият, гуруҳға янги, нисбатан барқарор элементларни киритадиган мақсадли ўзгариш"[5]. Инновациялар педагогик амалиётда қўлланиладиган, талабанинг шахсига, унинг қобилиятларини ривожлантиришға қаратилган янги усуллар, шакллар, воситалар, технологияларни белгилайди. Инновацион технологиялардан фойдаланишнинг самарали шартлариға қуйидагилар киради:

- талабаларнинг социализацияси,
- умуминсоний қадриятлар негизида унинг шахсий қадриятларини шакллантириш учун ўқитувчиларнинг талаба онгига таъсирининг бадий воситалари ва усуллари,
- ўқув жараёнининг миллий йўналиши,

- талабаларнинг маънавий ривожланиши ва бошқалар.

Бугунги кунда кўплаб ўқитувчилар таълим самарадорлигига эришиш учун мактабда ўқитишнинг замонавий технологиялари ва инновацион усулларида фойдаланадилар. Ушбу усуллар ўқитишда қўлланиладиган фаол ва интерактив шаклларни ўз ичига олади. Фаол талабанинг ўқитувчига ва у билан бирға таълим оладиганларға нисбатан фаол позициясини таъминлайди. Дарслар давомида уларни қўллаш билан дарсликлар, дафтарлар, компьютер, яъни ўқитиш учун ишлатилладиган индивидуал воситалар қўлланилади. Интерфаол усуллар туфайли бошқа талабалар билан ҳамкорликда билимларни самарали ўзлаштириш мавжуд. Ушбу усуллар ўқитишнинг жамоавий шакллариға тегишли бўлиб, унинг давомида бир гуруҳ талабалар ўрганилган материал устида ишлайди. Интерфаол усуллар янги материални сифатли ўзлаштиришға ёрдам беради. Буларға қуйидагилар киради:

- ижодий характердаги машқлар;
- гуруҳ вазифалари;
- таълим, рол ўйнаш, бизнес ўйинлари, тақлид;
- дарслар-экскурсиялар;
- ижодий ривожланиш, ижро дарслари, кино яратиш, газета нашр этишға қаратилган дарслар;

- видео материаллардан фойдаланиш, интернет, кўриш;
- “қарорлар дарахти”, “ақлий ҳужум” усулларида фойдаланган ҳолда мураккаб масалалар ва муаммоларни ҳал қилиш;

Мактабда ўқитишнинг инновацион усуллари ўқувчиларда когнитив қизиқишни ривожлантиришға ёрдам беради, уларни ўрганилган материални тизимлаштириш ва умумлаштиришға, муҳокама қилишға ўргатади. Олинган билимларни тушуниш ва қайта ишлаш, талабалар уларни амалда қўллаш кўникмаларини эгаллайдилар, мулоқот тажрибасини тўплайдилар. Шубҳасиз, ўқитишнинг инновацион усуллари анъанавийларға нисбатан афзалликларға эга, чунки улар талабанинг ривожланишиға ҳисса қўшади, уни билиш ва қарор қабул қилишда мустақилликни ўргатади. Халқ педагогикасининг муҳим вазифаси маънавий-ахлоқий фазилатларни тарбиялашдир: инсонпарварлик, ҳалоллик, севги, бағрикенглик. Инсон мавжудлигининг асоси сифатида меҳнат таълимиға бўлган эҳтиёжни халқ педагогикаси анъаналарида кузатиш мумкин. Меҳнат таълимнинг бошланиши ва унинг якуний натижаси меҳнатсеварликдир. Халқ педагогикаси ўз олдига вазифа кўяди меҳнатсеварликни шакллантириш, болада ёшлигидан ахлоқий меҳнат мотивларини ривожлантириш. Меҳнат

таълими ғояларини мақолларда топамиз: "ҳовуздан балиқни қийинчиликсиз ушлай олмайсиз", "ётган тош остидан сув оқмайди" ва бошқалар. Анъаналарни "тарихан шаклланган ва авлоддан-авлодга ғоялар, қарашлар, урф-одатлар, буйруқлар ва хулқ-атвор қоидалари" деб тушунишга асосланиб, халқ педагогикаси анъаналари мақсадлар, қоидалар ва узатиладиган тажриба сифатида тушунилади. Халқ педагогикасининг донолиги ва тажрибаси замонавий таълим тизимларининг асоси бўлиши керак, чунки болалар боғчалари, мактаблар, кўшимча таълим муассасаларида асосий вазифа нафақат ўқитиш, балки болаларни тарбиялашдир. Ўқитувчи халқ педагогикаси анъаналаридан фойдаланган ҳолда мактаб ўқувчиларининг миллий ўзига хослигини шакллантиради. Ўзини ўтган авлодларнинг меросхўри сифатида англаш ўз халқининг маънавий ва моддий маданияти қадриятларига муҳаббат уйғотади. Мактаб ўқитувчилари ўз она тилини яхши билишлари, рус ва жаҳон маданиятини билишлари, мактаб ўқувчиларини ҳар қандай миллат, ҳар қандай дин ва маданият вакиллариغا бағрикенглик ва ҳурмат билан тарбиялашлари керак. Халқ педагогикаси материалдан ўқитувчилар синфда ҳам, дарсдан ташқари соатларда ҳам фойдаланишлари керак. Талабаларни халқ оғзаки ижоди асарлари, декоратив ва амалий санъат турлари: ёғоч ўймакорлиги, каштачилик, тўр тўқиш билан таништириш муҳимдир. Ўқитувчи ўқувчиларни миллий ўйинлар ва спортга жалб этишга кўмаклашади, уларни халқ урф-одатлари ва маросимлари билан таништиради. Тақвим байрамлари халқ маданиятининг ажралмас қисмидир. Улар ўтган авлодлар авлодларга қолдирган яхши нарсаларни эшлашга ёрдам беради. Шундай қилиб, халқ педагогикаси анъаналаридан фойдаланиш болаларни ўқитиш ва тарбиялашнинг тасдиқланган ва сифатли усули ҳисобланади. Халқ педагогикасининг салоҳияти жуда катта, у болада ватанпарварлик, катталарга ҳурмат, халқингизга ва маданий ёдгорликларга муҳаббат ва эҳтиром каби фазилатларни шакллантиришга имкон беради. Халқ педагогикаси ёрдамида ўқув жараёнида баъзи инновацион усуллардан фойдаланиб, улар шахсни шакллантиришда кулай шароитлар яратадилар. Халқ педагогикасининг аҳамияти жуда катта ва уни камситиб бўлмайди. Халқ педагогикаси педагогиканинг асосидир. Барча таълимнинг асосини халқ педагогикаси ташкил этади. Шундан келиб чиқиб, халқ педагогикасини ўрганиш ва амалиётга татбиқ этишга эътибор қаратиш лозим. Бунинг учун шахсни тарбиялаш билан боғлиқ барча муассасаларда, таълим олувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, оғзаки халқ ижодиёти асарларидан иложи борица кенгрок фойдаланинг, халқ анъаналари, урф-одатлари, байрамлари ва халқ кўшиқларига ҳурмат ва муҳаббатни сингдириш лозим. Шундай қилиб таълим жараёни ёшларни миллий туйғулар ва миллий ғурур ҳақида тарбиялашга имкон берадиган материалларни ўз ичига олиши керак.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Арабов.И.А., Нагорная. Г.Ю. Этнопедагогика. К, 1999. Б-215.
2. Булатова.З.А. Кўп маданиятли шахсни шакллантиришда халқ педагогикасининг маънавий-ахлоқий салоҳияти. Б. 2007. 4-сон. Б-259-262.
3. Кузина.Т.Ф., Батурина.Г.И. Россия халқларининг кўнгилочар педагогикаси: маслаҳатлар, ўйинлар, маросимлар. М. 1998. Б-144.
4. Ушинский.К.Д. Халқ таълимида миллат ҳақида. М. 1988.Б-194-256 5. Ковалева. Т.М. Инновационная школа: аксиомы и гипотезы.-М.2003. С-63
6. Shokirovna I. F. Trends in the Formation and Development of Professional Competences of a Future History Teacher //World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 27-31.
7. Shokirovna I. F. Zamonaviy oqituvchi davr talabi //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 8. – №. 3. – С. 68-72.
8. F.Sh.Ilmurodova.Requirements of the modern teacher. “PEDAGOG” международный исследоват. 24 April26, 2022.p-63-6711.
9. Ильмуродова Ф. The foundation of the era of awakening in Central Asia: alchemy, succession, and historicism //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 213-216.
10. Саъдуллаева, М. Х. (2022). IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.021> Sa'dullaeva

Mahfuza Husenovna Chirchiq davlat pedagogika universiteti “O ‘zbekiston tarixi” kafedrasida o‘qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 189-195.

11. Sa’Dullaeva, M. H. (2022). MNEMONIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARIXIY BILIMLARGA XOS KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH. Academic research in educational sciences, 3(10), 206-212.

## ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА

Касимов Суннат Хатамович и.о.доцент  
Ахмедов Зоҳид Сабинович Старший преподаватель  
Джизакского политехнического института.  
Джизак.

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблемам реализации методологического подхода в сфере формирования инновационного развития в системе автомобильного транспортных услуг логистики. Результаты исследования служат развитию инновационной деятельности в транспортном обслуживании и повышению эффективности а также, приведенные предложения и рекомендации, основанные на результатах анализа будут способствовать дальнейшему развитию данной сферы в республике.

**Ключевые слова:** инновация, автомобильный транспорт, инновационный потенциал, возможностей транзита, автомобильные услуги, перевозка пассажиров, грузовые перевозки, транспортно-логистической инфраструктуры, экономическая зона, транспортировка грузов.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola avtomobil transporti va logistika xizmatlari tizimida innovatsion rivojlanishni shakllantirish sohasida uslubiy yondashuvni joriy etish muammolariga bag‘ishlangan. O‘rganish natijalari transport xizmatlari ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda, shuningdek, tahlil natijalari bo‘yicha berilgan taklif va tavsiyalar respublikada ushbu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiyalar, avtomobil transporti, innovatsion salohiyat, tranzit imkoniyatlari, yo‘l xizmatlari, yo‘lovchi tashish, yuk tashish, transport-logistika infratuzilmasi, iqtisodiy zona, yuk tashish.

**Abstract:** This article is devoted to the problems of implementing a methodological approach in the field of the formation of innovative development in the system of automobile transport logistics services. The results of the study serve the development of innovative activities in transport services and increase efficiency as well as the proposals and recommendations based on the results of the analysis will contribute to the further development of this sphere in the republic.

**Keywords:** innovation, automobile transport, innovative potential, transit opportunities, automobile services, passenger transportation, freight transportation, transport and logistics infrastructure, economic zone, cargo transportation.

Необходимо отметить, что, Центральная Азия, расположенная в центре обширного Евразийского континента, находится на перекрестке торговых путей и привлекает к себе большое внимание во всем мире в силу своего геополитического и социально-экономического значения, богатства природных и человеческих ресурсов, а также возможностей транзита для торговли и транспорта.

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 31.03.2017 № 4996 для расширения и углубления сотрудничества с международными и зарубежными государственными финансовыми институтами, ведущими иностранными компаниями и банками, повышения эффективности использования привлекаемых иностранных инвестиций в республике был образован Государственный комитет Республики Узбекистан по инвестициям. Среди его основных направлений деятельности были определены координация работы по формированию и проведению единой государственной инвестиционной политики, в том числе привлечение иностранных инвестиций, а также улучшение инвестиционного климата в республике на основе

совершенствования законодательно-правовой базы. Особое внимание будет уделяться привлечению прямых инвестиций, кредитов и средств финансово-технического содействия для реализации инвестиционных проектов в рамках отраслевых инвестиционных программ, комплексных программ социально-экономического развития территорий, программ развития производственной, транспортно-коммуникационной и социальной инфраструктуры, а также системного мониторинга за ходом их реализации [1].

Инновации и инвестиционные проекты в сфере транспортных услуг представляют собой процесс обновления всех сторон работы с клиентами, ориентации сотрудников на поиск оригинальных путей взаимодействия с клиентами. Поиск эффективных форм управления инновациями связан с выделением и обособлением подразделений, занимающихся инновациями и долгосрочными проблемами развития компании, а также с необходимостью создания механизма интеграции и координации деятельности, взаимодействия различных видов транспорта в ходе разработки и внедрения инноваций.

Механизм управления инвестиционным проектом или целевой программой, требует последовательной реализации трех основных стадий реализации инвестиционного проекта (прединвестиционной, инвестиционной, эксплуатационной) с итоговой целью достижения экономического или социального эффекта. В этой связи предлагаются новые принципы управления проектом инвестиционной проектной направленности, специализированность действий, адаптивность.

Как показывает зарубежный опыт и рассмотренная выше эволюция логистики, потребность в конкретном теоретическом аппарате и практическом инструментарии логистики зависела от ряда условий, определяющих уровень развития производительных сил, технологий, политической обстановки, зрелости рыночных отношений, сложившихся на определенном историческом этапе. Возможность и темпы развития логистических подходов в отечественном бизнесе также нельзя рассматривать в отрыве от имеющейся на сегодняшний момент социально-экономической, политической обстановки в Узбекистане и прогноза хода экономических реформ.

Для инновационного развития транспортной системы сохраняется ряд особенностей:

- реализация крупномасштабных транспортных проектов, обеспечивающих разработку месторождений полезных ископаемых в новых районах добычи;
- диверсификация направлений экспортных поставок;
- развитие транспортной инфраструктуры, обеспечивающей реализацию транзитного потенциала страны, в том числе совместных проектов в рамках ШОС, СНГ, Европа, а также с другими государствами;
- увеличение объемов перевозок и сортамента продуктов переработки топлива и сырья, а также продукции машиностроения в связи с наращиванием инновационной активности [2].

Стратегия индустриально-инновационного развития страны в период до 2030 года предполагает повышение доли промышленности в ВВП до 37 %, а перерабатывающей промышленности до 22 %, что предполагает среднегодовые темпы роста промышленности на уровне 8,3 %. Это обеспечит диверсификацию структуры экспорта, сокращение доли сырья и увеличение доли товаров с более высокой добавленной стоимостью. Растущая экономика будет предъявлять новые требования к транспортному сектору, что потребует налаживания системы логистики, коренной перестройки системы транспортировки грузов различными видами транспорта. В то же время отличительными особенностями развития транспортной системы по инновационному варианту станут:

The use of technology in the classroom has revolutionized the way students learn and teachers teach. Technology has made it possible for students to have access to a wealth of information, collaborate with peers, and engage in interactive learning experiences. Here are some ways technology has impacted teaching and learning in the classroom:

1. Access to Information: Technology has made it possible for students to access information from anywhere at any time. With the internet, students can research topics, read articles, and watch videos to enhance their learning.

2. Interactive Learning: Technology has made learning more interactive and engaging. Students can participate in online discussions, quizzes, and games that make learning fun and exciting.

3. Personalized Learning: Technology has made it possible for teachers to personalize learning for each student. With adaptive learning software, teachers can provide students with individualized instruction based on their strengths and weaknesses.

4. Collaboration: Technology has made it easier for students to collaborate with their peers. With online tools like Google Docs, students can work together on group projects, share ideas, and give feedback to each other.

5. Assessment: Technology has made it easier for teachers to assess student learning. With online quizzes and assessments, teachers can quickly identify areas where students need help and adjust their teaching accordingly.

### **Conclusion**

Technology has revolutionized teaching and learning in the classroom. It has provided students with access to a wealth of information, made learning more interactive and engaging, personalized instruction, facilitated collaboration, and improved assessment. As technology continues to advance, it will be exciting to see how it will further enhance teaching and learning, preparing students for success in the digital age. However, it is important to remember that technology is a tool and not a replacement for effective teaching practices and human interaction. Teachers must continue to adapt and integrate technology in meaningful ways to ensure that it supports student learning and achievement.

### **References**

1. Higgins S., Jackson C., Moursund D., Taylor M. (1988) Computers in Education: Issues and Trends Report of the Second National Congress on Computing in Education for K-12 Teachers and Administrators Eugene OR International Society for Technology in Education
2. Jones K. (1999) The Impact of Computer based Technologies on Student Learning British Journal of Educational Technology Volume 30 Issue 4
3. Cheung R. (2003) Classroom Management Issues in Using IT to Teach Large Classes Journal of Information Technology Education Volume 2
4. Warschauer M., & Matuchniak T. (2010). New technology and digital worlds: Analyzing evidence of equity in access use and outcomes Review of Research in Education 34(1)179-225
5. Hollands, F.M., & Tirthali D. (2014). MOOCs: Expectations and Reality – Full Report.
6. Puentedura, R.R. (2014). SAMR and TPACK: Two Frameworks for Effective Technology Integration in Education. Journal of Educational Technology Development and Exchange (JETDE), 7(1).
7. Cavanagh, M., Franklin, T., & Franklin Jr, T. (2016). Technology and Teaching: Transformative Pedagogies for Engaging Learners in Critical Inquiry and Reflections on Practice. Journal of Transformative Education, 14(1), 44–61.
8. Lee, Y.-H., Hsieh, Y.-C., & Chen, Y.-H. (2019). Investigating the impact of technology-enhanced learning on student engagement in higher education: A meta-analysis. Educational Research Review, 27(C), 246–258.
9. OECD. (2015). Students, Computers and Learning: Making the Connection.
10. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2015). NMC/CoSN Horizon Report: 2015 K-12 Edition. The New Media Consortium.

## **XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA MARKETING VA RAQOBAT USTUNLIGI**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Tabiiy fanlar fakulteti**

**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası**

**v.b.dotsenti Xatamova G.Q.**

**Maktab menejment yo‘nalishi, 3M1 guruh talabasi**

**O‘roqova Shaxzoda Sobir qizi**

**Abstract.** This article explains why service companies should focus on management and marketing services. Functions determining the role of management and marketing in the management of service enterprises were discussed.

**Key words:** marketing, management, roles and functions of marketing, enterprise, management, marketing principles.

**Аннотация.** В этой статье объясняется, почему сервисным компаниям следует сосредоточиться на управленческих и маркетинговых услугах. Рассмотрены функции, определяющие роль менеджмента и маркетинга в управлении предприятиями сферы услуг.

**Ключевые слова:** маркетинг, менеджмент, роль и функции маркетинга, предприятие, менеджмент, принципы маркетинга.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nima uchun xizmat ko‘rsatish korxonalarida menejment va marketing xizmatlariga e‘tiborni qaratish kerakli tushuntirilgan. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini boshqarishda menejment va marketing sohasi tizimidagi rolini belgilovchi funksiyalar muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** marketing, menejment, marketingning roli va funktsiyalari, korxonalar, boshqaruv, marketing tamoyillari.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy, ijtimoiy va reproduktiv funktsiyalarni bajaribgina qolmay, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatish sohasi – bu ijtimoiy ishlab chiqarish sohasidagi funksional maqsadi aholi uchun moddiy va nomoddiy (ma'naviy) xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishda ifodalangan tarmoqlar, kichik tarmoqlar va faoliyat turlari majmui.

Xizmat ko'rsatish sohasining xususiyatlari:

1) xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari (nomoddiylik, bir xillik, xizmat ko'rsatishning iste'moldan ajralmasligi);

2) xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning xilma-xilligi;

3) ba'zi xizmatlarning mijozlarga yo'naltirilganligi;

4) aholi daromadlarining o'sishi va xizmatlarga talabning oshishi o'rtasidagi bog'liqlik [3].

Xizmatlarni iste'mol qilish, moddiy ne'matlarni iste'mol qilishdan farqli o'laroq, cheksizdir. Mijoz, qoida tariqasida, bir vaqtning o'zida bir nechta xizmat turlariga talabni yaratadi. Va shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmog'idir.

Xizmatlarning beshta umumiy turi mavjud:

1) ishlab chiqarish;

2) tarqatish;

3) professional;

4) iste'molchi;

5) ommaviy.

Xizmat ko'rsatish sohasida optimal boshqaruv tizimini yaratish uchun quyidagilar zarur:

1) to'g'ri strategiyani ishlab chiqish: maqsadli bozorni va iste'molchilar uchun eng qimmatli xizmat ko'rsatish xususiyatlarini aniqlash;

2) yuqori xizmat ko'rsatish standartlariga rioya qilish;

3) xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni puxta va batafsil tayyorlash;

4) iste'molchilarga faqat sifatli xizmat ko'rsatish.

Ijtimoiy muammolarni hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyatini juda katta, chunki ushbu faoliyat sohasidagi korxonalarining aksariyati kichik korxonalariga tegishli bo'lib, ularda hozirgi vaqtda iqtisodiyotda band bo'lgan fuqarolarning qariyb 65 foizi ishlaydi. Ushbu xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqarishda menejment va marketing sohasini o'rni juda katta.

**Tahlil va natijalari.** *Xizmat ko'rsatish sohasidagi menejmentni o'rni*

Menejment – bu ishlab chiqarishni boshqarish usullari, shakllari va vositalari to'plami bo'lib, undan samarali foydalanishga imkon beradi. Xizmat ko'rsatish – aholiga kundalik hayotning turli sohaslarida (masalan, mehmonxona xizmati, avtomobil xizmati) xizmat ko'rsatishdir.

Xizmat ko'rsatiladigan xizmatlar turi sifatida kimningdir ehtiyojlari, istaklari va umidlarini qondirishga qaratilgan harakatlarni bajarishdir. Agar o'zaro ta'sir natijasida ehtiyoj, istak yoki kutish qondirilmasa, bunday xarakterni xizmat ko'rsatish korxonasi deya olmaymiz.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi menejmentning maqsadi inson resurslaridan samarali foydalanish va aholi ehtiyojlarini aniqlash va qondirishga qaratilgan xizmat ko'rsatish jarayonini oqilona tashkil etish orqali korxonaning rentabelligini ta'minlashdan iborat.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqaruv vazifalariga quyidagilar kiradi:

– maqsadlarni belgilash va ularga erishish rejalarini ishlab chiqish;

– odamlarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtirish;

– xizmatlarni ishlab chiqish va taqdim etish jarayonlarini tashkil etish;

– xizmat ko'rsatishning yuqori sifatini ta'minlash;

– kadrlarni doimiy ravishda tayyorlash va malakasini oshirish;

– xodimlar va mijozlar o'rtasidagi aloqalar samaradorligini ta'minlash;

– xodimlar va umuman korxonalar faoliyatini baholashning turli usullarini ishlab chiqish va qo'llash;

– o'z an'analarini yaratish va orttirilgan tajribadan foydalanish [5].

Xizmatlarni menejment tizimini ishlab chiqishda bir qator omillarni hisobga olish kerak:

1. xizmat ko'rsatish sohasidagi operatsiyalarni boshqarish sanoatga qaraganda ancha qiyin;

2. xizmat ko'rsatish sohasini boshqarishning asosiy xususiyati - xizmatlarning o'ziga xosligi;

3. xizmatlar ko'rsatish jarayoni va mahsulot ishlab chiqarish va sotish o'rtasidagi farq;

4. xizmatlarni potentsial iste'molchiga ko'rsatish alohida e'tiborni talab qiladi, chunki xizmatlarning asosiy xususiyati nomoddiylikdir;

5. xizmat ko'rsatish sohasini standartlashtirish qiyin va ba'zan imkonsizdir;

6. xizmatlarning konservativ emasligi tovar-moddiy zaxiralarni yaratish orqali talabning o'zgarishiga tezda javob berishga imkon bermaydi;

7. xodimlarni mijozga e'tiborli va sezgir bo'lishga o'rgatish muhimligi, chunki xizmatlar ko'rsatish ularning iste'molidan ajralmasdir [6].

Marketing zamonaviy korxonalarining raqobat sharoitida omon qolishi va rivojlanishining vositalaridan biridir. Samarali ishlash uchun korxonalar marketing samaradorligini nazorat qilishlari va yaxshilashlari kerak. Hozirgi vaqtda marketing bo'limi faoliyatining samaradorligini baholash masalasi bo'yicha ham olimlar, ham marketing amaliyotchilarining fikrlari bir-biridan farq qiladi va zamonaviy fan ushbu muammoni hal qilishda yagona yondashuvni ishlab chiqmagan. Ko'pgina korxonalar samaradorlikni va natijada marketing bo'limini saqlab qolishning maqsadga muvofiqligini aniqlay olmasligini hisobga olib, ular marketing ishlaridan butunlay voz kechadilar, shu bilan birga byudjetni ham, xodimlarni ham qisqartiradilar va shu bilan ularning biznesiga jiddiy zarar etkazadilar.

*Marketing va sotish bo'limining vazifalari va ishini tashkil etish.*

Iste'molchilar talablariga javob beradigan yuqori sifatli mahsulotlarni ta'minlashda marketing etakchi rol o'ynaydi. Marketing funktsiyasi sifat siklida birinchi o'rinda turadi.

Ushbu xalqaro standartlarga muvofiq, mahsulotning yuqori sifatda aylanishi 11 bosqichni o'z ichiga oladi: marketing, qidiruv va bozorni o'rganish; texnik talablarni loyihalash va ishlab chiqish, mahsulotni ishlab chiqish; logistika; ishlab chiqarish jarayonlarini tayyorlash va ishlab chiqish; ishlab chiqarish; nazorat, sinov va tekshirishlar; qadoqlash va saqlash; mahsulotlarni sotish va tarqatish; o'rnatish va ishlatish; texnik yordam va xizmat ko'rsatish; foydalanishdan keyin utilizatsiya qilish. O'z-o'zidan ma'lumki yuqoridagi bosqichlardan xulosa qiladigan bo'lsak birinchi bosqichda marketing turibdi.

Mahsulot hayotiy siklining birinchi bosqichi bo'lgan marketing, shuningdek, uning boshqa barcha bosqichlarida ham ishlaydi va ayniqsa, ushbu tsiklning mahsulot aylanishi va iste'moli bilan bog'liq bosqichlarini ta'kidlash kerak. Shunday qilib, ishlab chiqarishni tayyorlashning dastlabki bosqichida korxonalar faqat bozorda samarali talabni topadigan mahsulotlarga e'tibor qaratishga majburdir. Binobarin, marketing nuqtai nazaridan menejment tizimini shakllantirishda yakuniy maqsaddan unga erishishni ta'minlaydigan narsaga o'tish kerak.

Shu munosabat bilan, boshqaruv tuzilmasi ishlab chiqarilayotgan asbob-uskunalarining butun hayotiy siklini sotish, loyihalash, ishlab chiqarish, ta'mirlash, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash va boshqa texnik xizmat ko'rsatish, u mahsulot holiga kelguncha qamrab olishi kerak. Taxmin qilish kerakki, milliy iqtisodiyotning ayrim turdagi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish vazifasi to'liq ishlab chiqaruvchiga tushadi. Bunga erishish uchun esa ishlab chiqarish korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmasida ma'lum o'zgarishlar zarur.

Globalashuv iqtisodiyotning rivojlanishi uchun ham ijobiy, ham salbiy ahamiyatga ega. Agar mamlakatda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoitlar mavjud bo'lsa, bu holatda mamlakat uchun globalashuv jarayoni foydali hisoblanadi. Agar mahalliy korxonalar qo'shimcha (ustama) qiymatning yuqori ulushiga ega yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarsa, vaziyat, ayniqsa, ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda ishchilarning bandligi ortadi, budjet daromadi ko'payadi, xom ashyodan oqilona foydalaniladi.

Agar iqtisodiyotda uzoq vaqt davomida ishlab chiqarishning xom ashyoga yo'naltirilganligi bartaraf etilmasa, demak, iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlari kam samarali hisoblanadi. Bunday holatda jamiyat cheklangan resurslarni oddiy tarzda sarflab, kelgusi rivojlanish to'g'risida qayg'urmaydi. Ishlab chiqariladigan tovarlar sifatini oshirish – jamiyatning eng muhim vazifasidir. Mahsulot sifatini oshirish ko'plab omillarga bog'liq. Birinchidan, yuqori sifatli mahsulot tayyorlash uchun yuqori malakali ishchi kuchlari zarur bo'ladi. Ikkinchidan, korxonalar yaxshi, zamonaviy jihozlarga ega bo'lishi kerak. Uchinchidan, raqobatbardosh mahsulotlarning ma'lum miqdoriga ega savdo bozorlariga kira olish uchun yetarli darajada tajribaga ega bo'lish kerak.

Narxning shakllanishiga bozorning holati bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki narxning shakllanishida bozordagi talab va taklif nisbati asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, talab va taklif miqdoriga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatiga ko'ra bozordagi raqobatning turli ko'rinishlari farqlanadi. **Mukammal raqobat sharoitida** ishlab chiqaruvchi (yoki sotuvchi) hamda iste'molchi (yoki xaridor)larning soni juda ko'p bo'lib, ularning ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish orqali narx shakllanishiga ta'siri umuman sezilmaydi. **Nomukammal raqobat sharoitida** esa ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) yoki iste'molchilar (xaridorlar)dan birining soni cheklangan bo'lishi ularning bozordagi ishlab chiqarish hajmiga va, pirovardida, bozordagi narxning shakllanishiga sun'iy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bunday raqobat turli darajalaridagi narxlarning shakllanish xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

Shu sababli, biz quyida mukammal raqobat, sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya sharoitida narxlarning shakllanish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

**Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanishi.** Erkin raqobat kurashi sharoitida narxning tashkil topish xususiyatlarini tadqiq etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall hisoblanadi. Uning fikricha, tovarning oldi-sotdi jarayoniga qadar ikki xil, ya'ni **sotuvchi va xaridor narxlari** mavjud bo'ladi. Nazariy jihatdan har ikki narxning yuqori va quyi darajalari mavjud. Sotuvchi o'z tovari narxining imkon qadar yuqori bo'lishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Biroq, erkin raqobat sharoitida narxni boshqalardan yuqori darajada belgilashga intilish mazkur sotuvchining bozordan siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Sotuvchi narxining eng past darajasi shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoplashi kerak. Xaridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, biroq erkin raqobatli bozor sharoitida uning ham tovar sotib ololmay qolish xavfi mavjud bo'ladi. Xaridor narxining yuqori darajasi esa, Marshall ta'biricha, so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligiga teng bo'lishi kerak. Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi qulay narxga erishish borasidagi kurash har ikki narxning mosligi ta'minlangunga, ya'ni bozor narxi paydo bo'lgunga qadar davom etadi. Shunday qilib, sotuvchining narxi tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari, xaridor narxi tomonidan esa so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligi maydonga tushib, ularning nisbati asosida bozor narxi paydo bo'ladi. Bu holatni Marshall shunday ifodalaydi: "...ishlab chiqarish xarajatlari" prinsipi hamda "so'nggi qo'shilgan naflilik" prinsipi, shubhasiz, yagona talab va taklif umumiy qonunining tarkibiy qismi hisoblanib, ulardan har birini qaychining bitta kesuvchi tomoniga qiyoslash mumkin".

**Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi.** Monopoliya sharoitida narx shakllanishining o'ziga xos jihati shundaki, agar mayda tovar ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlarining individual narxlarini o'zgartira olsalar, ulardan farqli o'laroq bozor ishtirokchilari sifatidagi monopoliyalar bozor narxlarini o'zlari belgilay oladilar. Bunda monopoliyalar ommaviy talabning oshishi bilan narxning oshishi hamda ommaviy taklifning oshishi bilan narxning pasayib borishidan o'ziga xos tarzda foydalanadilar. Ommaviy tartibda tovarlarni sotuvchi monopoliyalar o'z manfaatlari yo'lida taklif kam bo'lganda narxning oshishi tendensiyasidan foydalanadilar.

**Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi.** Monopolistlar mahsulotlarning sun'iy taqchilligini vujudga keltirish maqsadida o'z tovarlari sotish hajmini ataylab qisqartiradilar. Bozorda tovarlarning yetishmasligi monopol yuqori narxlarning o'sishiga olib keladi.

Monopoliyalar narxni oshirishning har bir yangi jarayonida tovarlarni ishlab chiqarish va sotish hajmini qisqartirishdan ko'rilgan zararni hisobga oladi. Daromaddan bunday yo'qotishlarning oldini olish maqsadida ular yangi narxlarni yanada yuqori darajada belgilaydilar. Shu bilan bir vaqtda monopoliyalar mahsulotlarning qisqargan hajmini sotishdan olingan tushum yo'l qo'yilgan yo'qotishni qoplashi hamda daromad miqdorining o'sishini ta'minlashini nazorat qilib turadilar.

**Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi.** Monopsoniya mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan tovarlarning katta hajmini sotib olib, talab bo'yicha narx qonunidan o'ziga xos tarzda foydalanadi.

**Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi** quyidagi miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi: taklifga nisbatan xaridorlarning ommaviy talabi qanchalik katta bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, talabning kamayishi bilan bozor narxi pasayib boradi.

Monopsonist o'zi uchun zarur bo'lgan tovarni, masalan, qishloq xo'jaligi xomashyosini oldindan past narxlarda sotib olib, uning katta miqdordagi zaxirasini tayyorlab qo'yadi. Bu esa unga yangi

hosilning yig‘im-terimi davrida o‘zi sotib olayotgan xomashyoga monopol past narxlarni o‘rnatish imkonini beradi. Bunday past narxlarda monopsonist juda katta foyda oladi. Sun‘iy ravishda sotilayotgan mahsulot ortiqchaligi hududining vujudga keltirilishi xarid narxlarining navbatdagi pasayishiga olib kelib, natijada monopsonistning foydasi oshib boradi. Bunga g‘arb mamlakatlari monopsoniyalari tomonidan ancha vaqtdan buyon Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari tadbirkorlari va mayda tovar ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinayotgan arzon xomashyoni misol tariqasida keltirish mumkin. Afrikadan an‘anaviy tarzda eksport qilinuvchi bir qator tovarlar (choy, kofe, kakao va h.k.)ga ham azaldan o‘ta past narxlar o‘rnatib kelinadi.

Bir vaqtning o‘zida monopoliya va monopsoniya hisoblanuvchi firma o‘zining daromadini “narxlar qaychisi” usuli orqali ahamiyatli darajada oshiradi. Bunda monopol yuqori va monopol past narxlardan foydalanilib, ular o‘rtasidagi farq xuddi qaychining ikkita kesuvchi tomoni bir-biridan uzoqlashgandagi singari kattalashib boradi. Narxlarning bunday harakati tovarlar ortiqchaligi va taqchilligi hududlarining kengayishiga asoslanadi. U sanoatning ko‘plab qayta ishlovchi korxonalar uchun xosdir. Bu korxonalar o‘zlarining tayyor mahsulotlariga undirma sanoat tarmoqlarida o‘rnatilgan narxlarga nisbatan bir necha marta yuqori narx o‘rnatadilar.

**Xulosa.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar va ularning birlashmalari savdo bozorlarini o‘rganish va korxonalar mahsulotlariga bo‘lgan talabni, ularga bo‘lgan iste‘molchilar talablarini aniqlash, ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash, reklama, savdo va xizmat ko‘rsatishni tashkil etish funksiyalariga ega bo‘lgan marketing xizmatlarini yaratishi shart. Marketing xizmatlari barcha boshqa bo‘limlar bilan barqaror va yaqin to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqalarga ega bo‘lishi kerak. XX asrning ikkinchi yarmida AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa g‘arb mamlakatlarida agrobiznes sohasining kengayishi bilan narxlar qaychisi asosiy usullardan biriga aylanib, uning yordamida yirik firmalar o‘rta va mayda fermerlarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan siqib chiqardilar.

**Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi.** Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi tarmoqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo‘llaniluvchi “ergashish” hamda “inkor etish” xatti-harakatlari orqali izohlanadi.

“**Ergashish**” holatida bir oligopolist tomonidan narx bo‘yicha qilingan o‘zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan ham ergashish, ya‘ni shunday o‘zgarishlar qilish kuzatiladi. Odatda, bozorda o‘z tovarlariga narxni pasaytirish orqali iste‘molchilari soni hamda sotish hajmini oshirishga qaror qilgan oligopolist xatti-harakatiga javoban qolgan oligopolistlar ham narxlarni pasaytiradilar. Natijada narxning umumiy pasayishi ro‘y berib, bozordagi ulush oldingi holda qoladi, ya‘ni oligopolistning xatti-harakati samara bermaydi.

“**Inkor etish**” holatida bir oligopolist tomonidan narx bo‘yicha qilingan o‘zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan inkor etish, ya‘ni hech qanday javob o‘zgarishlari qilmaslik kuzatiladi. Ko‘pincha bunday holat oligopolist tomonidan o‘z tovariga narxni oshirgan chog‘ida ro‘y beradi, ya‘ni qolgan oligopolistlar tovarlari narxlarini oshirmaydilar. Natijada, narxni oshirgan oligopolist o‘z iste‘molchilarini yo‘qotib, bozordan siqib chiqariladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko‘rinadiki, oligopoliya sharoitida ishlab chiqaruvchilar narxni ko‘proq o‘zaro kelishish orqali belgilashga harakat qiladilar. O‘z mahsulotlariga bozor narxini o‘rnatishda oligopolistlar tomonidan “**narx bo‘yicha yetakchilik**” xatti-harakati keng qo‘llaniladi. Bu xatti-harakat narx vositasida raqobatlashuvni inkor etib, mazkur tarmoqqa kiruvchi barcha oligopolist-firmalarning narxni shakllantirish va uni o‘zgartirishda yetakchi oligopolist-firmaga ergashishlarini taqozo etadi. Odatda tarmoqdagi eng yirik firma yetakchi sifatida maydonga tushadi. Narx bo‘yicha yetakchi firma boshqalarga qaraganda iqtisodiy jihatdan ancha ustun bo‘lsada, u o‘zining xatti-harakatini faqat narx jihatdan tazyiq o‘tkazish asosida amalga oshira olmaydi. Narxni shakllantirishda yetakchi-firma boshqa ergashuvchi-firmalarning ham manfaatlarini e‘tiborga olmog‘i lozim. Bu manfaatlar ularning xarajatlarini qoplash, me‘yordagi foydani ta‘minlash, mahsulotlarini sotishga sharoit yaratish kabi holatlar orqali namoyon bo‘ladi. Agar talab yoki ishlab chiqarish xarajatlarining o‘zgarishi natijasida bozor narxi oligopolistik kelishuv doirasidagi firmalarning manfaatlariga muvofiq kelmay qolsa, yetakchi firma darhol narxlarni o‘zgartirishi lozim bo‘ladi. Integratsiya jarayonlari kuchaygan sharoitlarda, hatto, nisbatan yuqori raqobatbardosh resurslar ustunliklariga ega davlatlar iqtisodiyoti ham narx raqobati ta‘siri ostida juda zaiflashib qoladi. Ko‘pgina rivojlanayotgan



mamlakatlar chiqarayotgan tovarlarining narx bo'yicha raqobatbardoshligida ko'p jihatdan mehnatga kam xaq to'lash oqibatida katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Offshor IT-outsorsingining jadal rivojlanishiga bog'liq ravishda AQSH va Yevropada yuqori darajada haq to'lanadigan ish joylarining qisqarishi kuchaydi. Bu mamlakatlar kompaniyalari ish joylarini Hindiston, Braziliya, Filippin va Malayziya va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirib, mehnatga haq to'lashda katta mablag'larni tejamoqdalar. Narx raqobatbardoshligining boshqa muhim omili moddiy resurslarning, shu jumladan, energiya manbalarining bahosi hisoblanadi. Energiya manbalari narxining o'sishi jahon narxlarini oshirgan holda ko'pgina mamlakatlar sanoatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, juda ko'p elektr energiyasi talab etadigan rangli metallar olish va qayta ishlash sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Alyuminiy ishlab chiqarishda iste'mol qilinadigan elektr energiyasi bahosi umumiy xarajatlarning 1/3 qismini tashkil etadi. Shu sababli, alyuminiy bozoridagi raqobatbardoshlikka turli mamlakatlarda nafaqat xom ashyoning mavjudligi, balki elektr energiyasining arzonligi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xalqaro savdoni faollashtirish sharoitlarida boshqa mamlakatlar bozorlariga chiqish uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan narx omilidan foydalanish strategiyasi juda ko'p miqdordagi savdo tortishuvlarini keltirib chiqardi, nisbatan keng tarqalgan ko'rinishi – dumping ularning eng muhim obyektidir. Mahsulotlarning sifati, funktsionalligi va boshqa iste'mol xususiyatlariga bo'lgan iste'molchilar talablarining so'zsiz bajarilishini, ularni bozor uchun zarur bo'lgan hajm va assortimentda ishlab chiqarilishini ta'minlash maqsadida korxonalariga doimiy ta'sir ko'rsatish, zamonaviy va sifatli brend xizmati, rejalashtirilgan foyda hajmiga erishish zarur. Oldindan mijozlarni yuqori darajada jalb qilgan holda, xizmat ko'rsatish sohasidagi kompaniya rahbariyati kompaniya xodimlarining iste'molchilarga bo'lgan munosabatiga katta e'tibor berishi, ularda mijoz (iste'molchiga yo'naltirilgan) xatti-harakatlar turini yaratishi kerak. Ushbu turdagi xatti-harakatlar potentsial mijozlarni qabul qilish joylarida xayrixohlik muhitini yaratishni va kompaniya xizmatlariga oid har qanday savolga javob berishda yuqori malakani o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatuvchi kompaniyaning imidji xodimlarning xatti-harakatlarini va ularning mijozga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

Shunday qilib, mikrodarajada amal qiluvchi narx belgilash mexanizmi raqobat kurashining samarali vositasidir. Ishlab chiqarish chiqimlari dinamikasini tushunib yetish cheklangan sondagi iste'molchilar uchun tovarlar ishlab chiqaradigan korxonalar uchun ahamiyatli bo'lib, ular sifat darajasi va xizmat ko'rsatishga turlicha talab qo'yishlari bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish chiqimlarini o'rganish asosida har bir korxonalar mikrodarajada tegishli narx strategiyasini amalga oshirishga intiladi. Narx belgilash va raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan ko'rib chiqib, o'tish iqtisodiyoti sharoitida yuzaga keladigan xususiyatlarni tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, ma'muriy-buyruqbozlikdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishlab chiqarish sektorining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi alohida elementlar saqlanib qoladi. O'tish iqtisodiyotining ilk bosqichida sanoat korxonalarining yuqori darajada ixtisoslashuvi va kooperatsiyalanishi ko'pincha bozorlarning monopollashuviga olib keladi. Tabiiy monopoliyalar va monopolist-korxonalar aksariyat hollarda xarajatlarni qoplash muammosini o'z mahsuloti (xizmatlari) narxi va tariflarini oshirish yo'li bilan hal qilishga urinadi. Bozorning monopollashuvi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, xarajatlar va narxlarni oshirish holatlari ham shunchalik ko'pdir. Xom ashyo tarmoqlari korxonalarini (TEK, paxta tozalash, metallurgiya va hokazo) uchun, ayniqsa, qulay vaziyat yuzaga keladi. Ularning mahsuloti, odatda, har qanday narxlarda ham o'z xaridorini topadi. Texnologik zanjirning har qaysi keyingi bo'g'inida sotish muammosi tobora kuchayib boraveradi. Oxirgi mahsulot (ishlab chiqarish uskunalari, texnologiyalar, xalq iste'moli tovarlari) ishlab chiqaruvchilar ayniqsa, murakkab ahvolda qoladi. Mazkur mahsulotning yuqori narxlari uni sotish imkoniyatlarini sezilarli pasaytiradi. Bundan tashqari, bunday tovarlarni ishlab chiqaruvchilar import qilinayotgan tovarlar bilan doim ham raqobatlasha olmaydilar. Sifatni oshirish uchun bozor konyunkturasini o'rganish uchun sarf-xarajatlarni oshirishni, mahsulotning iste'mol ko'rsatkichlarini yaxshilashni talab qiladi. Shuning uchun, tovar ishlab chiqaruvchi asosan narx bo'yicha raqobatni yengishga ko'proq harakat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar:

1. A.Abdullayev, H.Aybeshov, K.Muftoydinov. Kichik biznesni boshqarish. – Darslik.T., “Moliya”, 2003.
  2. A.Abdullayev., X.Aybeshov va boshq. Innovatsion menejment.T., Iqtisodiy-moliya, 2015.
  3. A.Fattohov va boshq. Marketing: boshqarishning bozor konsepsiyasi. — T., TDIU, 1990.
  4. S.G'ulomov. Marketing asoslari. — T., 2000.
  5. M.Sharifxo'jayev, Y, Abdullayev. Menejment. Darslik. — T., “O'qituvchi”, 2001
  6. И.А. Романов. Маркетинг. — М., “Банки и биржи” ЮНИТИ, 1995. 11. Ф.Котлер. Основы маркетинга. — М., “Прогресс”, 1991.
  7. С.В. Шекшня. Управление персоналом современной организации. — М., 1996.
- Qo'shimcha adabiyotlar:
8. N.J.Sotvoldiyev, M.G'aniev. Raqobat strategiyasi. – O'quv-uslubiy majmua.T., “Namangan”, 2022.
  9. И.А. Романов. Маркетинг. — М., “Банки и биржи” ЮНИТИ, 1995. 11. Ф.Котлер. Основы маркетинга. — М., “Прогресс”, 1991.
  10. Н. Aybeshov., А. Ergashev., Е. Yo'lchiyev., А. Ismoilov. — Marketing asoslari. — T., “ILM ZIYO”, 2014.

## “JAHON IQTISODIY-IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI” FANIDA TOPONIMIKA MATERIALLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI (OSIYO MAMLAKATLARI MISOLIDA)

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti  
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası”  
p.f.f.d (PhD) Xoliqova Mahbuba Orifjonovna ,  
talaba Namozova Shaxnoz Odil qizi

**Kalit so'zlar:** toponimika, armanlar yurti, alayya, etnonim, Hind orollari, tog' etagi, alayya-makon, qo'ltiq yoki terrasalar

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamiz Osiyo va Yevropa mamlakatlari toponimiyasdan ma'lum bir tushunchalar berilgan. Bizni son-sanoqsiz geografik nomlar dunyosi o'rab olgan. Geografik nomlar xalq tomonidan qo'yiladi va xalq mulki hisoblanadi. Geografik obyektlarga nom qo'yish va ulami qayta nomlash jarayonlarini o'rganish, hammamiz uchun tavsiyalar berish toponimikaning amaliy ahamiyatini ta'kidlaydi. Yuqorida keltirilgan misollar toponimikaning yosh avlodni vatanparvarlik, millatparvarlik va obyektivlik ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynashini ko'rsatadi.

**Annotation.** This article provides some insights into the toponymy of Asian and European countries. We are surrounded by a world of countless geographical names. Geographical names are assigned by the people and are considered the property of the people. Studying the processes of naming and renaming geographic objects, making recommendations for all of us, emphasizes the practical importance of toponymy. The above-mentioned examples show that toponymy plays a major role in educating the young generation in the spirit of patriotism, nationalism and objectivity.

**Аннотация.** В данной статье даются некоторые сведения о топонимике стран Азии и Европы. Нас окружает мир бесчисленных географических названий. Географические названия присваиваются народом и считаются собственностью народа. Изучение процессов наименования и переименования географических объектов, выработка рекомендаций для всех нас, подчеркивает практическое значение топонимии. Приведенные выше примеры показывают, что топонимика играет важную роль в воспитании молодого поколения в духе патриотизма, национализма и объективности.

Toponimika ayniqsa, geografiya uchun katta ahamiyatga ega. Toponim – geografik obyektning aniq manzilidir. Nomlar joyning geografik o‘nini aniqlash uchun ham, geografik tushunchalarni ifoda etish uchun ham kerak. Geografik xaritada keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o‘rin tutadi. Geografik obyektlar shu qadar ko‘p va xilma-xilki, ularni ifoda etish uchun maxsus so‘zlar, ya‘ni nomlar bo‘lishi kerak. “Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanida talabalar jahon mamlakatlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish holati, davlatlarning boshqaruv shakli, har bir mamlakatning aholisi va xo‘jaligi, ularning o‘ziga xos geografik xususiyatlari bilan yaqindan tanishadilar. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qiziqarli ma‘lumotlar juda ko‘p. Ular asosida darslarni juda mazmunli o‘tish mumkin. Lekin, dars jarayonida toponimika fani materiallaridan foydalanilsa, darsning mazmun va sifati yanada bir pog‘ona yuqoriga ko‘tariladi. Talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi. Negaki, toponimikaga oid rang-barang materiallar mamlakatlarning “ichki dunyosi” haqida qiziqarli ma‘lumotlar beradi, talabalarning geografik dunyoqarashini kengayishiga turtki bo‘ladi. Natijada jahon mamlakatlarining nomlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari, sabablari haqida muayyan ma‘lumotlar shakllanishi shubhasiz.

Ma‘lumki, jahonda ko‘plab mamlakatlar mavjud. Har kuni ularning nomlarini ommaviy axborot vositalari orqali eshitib boramiz, internetdan ularda bo‘layotgan o‘zgarishlarni kuzatib boramiz, kitoblardan o‘qiymiz. Mamlakatlar nomlari qanday ma‘noni bildirishini o‘ylab ko‘rganmisiz? Quyida berilayotgan Osiyo qit‘asida joylashgan mamlakatlarning qisqacha toponimik lug‘ati bu borada sizga ma‘lum bir darajada bilimingizni boyitadi, degan umiddamiz.

Armaniston. ba‘zilar nomni Gar-Minni “Minni qabilalari tog‘i” mamlakati so‘zi bilan izohlaydilar. **Armaniston toponimi** – “armanlar yurti” degan ma‘noni bildiradi. Arman toponimi qabila boshlig‘i – Xaykaning o‘g‘li Armenak nomi bilan bog‘laydilar.

**Ozarbayjon** – “olovlar mamlakati” deb izohlanadi. Go‘yoki bu yerda otashparastlar harami bo‘lgan ekan.

**Baxrayn**- Arabcha “Bahr” dengiz, katta daryo, Bahrayn – ikki dengiz degan ma‘noni bildiradi. Arabcha “dengiz bilan o‘ralgan orol” degan so‘z.

**Kipr**- Sarv (kiparis) daraxti nomi bilan bog‘liq. Ayrim manbalarda esa, grekcha – kipros, latincha – kiprim, ya‘ni mis deb ataganlar. Demak “mis” ma‘nosiga ega.

**Gruziya nomi** boshqa xalqlar tomonidan berilgan. Jumladan, armanlar vratsi, arablar jurz, turklar gurj, ruslar gruzin deb atashgan. Demak, bu nom shu yerda qadimdan yashab kelayotgan xalqlar nomi bilan atalgan.

**Iroq**- Maqom nomidan kelib chiqqan.

**Iordaniya**- Xoshimiylar nomidan kelib chiqqan.

**Livan**-Arabcha Lubnon. Mamlakat sharqidagi tog‘lar usti qishda qorga burkanganidan Ibanon “oq tog‘lar” (Jabali Lubnon) deb atalgan.

**Oman**- Mamlakat nomi omanitlar qabilasi nomiga qo‘yilgan.

**Saudiya-Arabistoni** – Arab aslida “cho‘l” degan so‘z. Shundan “cho‘lliklar”, “ko‘chmanchilar” arablar so‘zi hosil bo‘lgan. So‘ngra “arablar yeri” – Arabiston hosil bo‘lgan. Qumlar mamlakati ma‘nosini bildiradi.

**Saudiya Arabistoni**-nomi esa Hijoz, Najd va Asir yerlarini 1926 yilda yagona davlatga birlashtirgan ibn Saud nomi bilan “Saud yeri”-Saudiya deb atalgan. BAA(Birlashgan Arab Amirliklari). Qadimda Qaroqchilar sohili deb atalgan.

**Afg‘oniston**- Afg‘onlar mamlakati, demakdir.

**Bangladesh**-7-6 asrlarda paydo bo‘lgan Banga davlati nomi bilan bog‘liq. Bangla-bengal, deshyurt nomidan kelib chiqqan. 1972 yildan Bangladesh atala boshlandi.

**Eron** – Oriylar mamlakati nomidan olingan Qozog‘iston. Qozoq etnonimi asosida vujudga kelgan. Rossiyada 18-asrdan ularni yanglish holatda qirg‘izlar deyishgan. Qozoq so‘zi “erkin, ozod” ma‘nosini bildiradi.

**Nepal** – Qadimgi hind tilida nipa-“tog‘ etagi”, alayya-“makon”, ya‘ni “tog‘ etagidagi makon”.

**Pokiston** – “Pok insonlar mamlakati”. Bu nom 1931 yil Chandri Rahmat Ali tomonidan taklif etilgan.

**Shri-Lanka** – Ilgari Seylon deb nomlangan. Singala dip –“sher orol” so‘zlaridan olingan.

**Turmaniston** – Toponim turkman etnonimidan yuzaga kelgan bo‘lib, “turkmanlar yashaydigan joy, turkmanlar yurti” ma’nosini bildiradi. Turkman so‘zi esa “turk monand, turkka o‘xshash, turk qabilasi, turk odamlar” ma’nosini bildiradi.

**O‘zbekiston** – “O‘zbeklar yurti” ma’nosini anglatadi. O‘zbek toponimi “o‘ziga bek” terminlaridan kelib chiqqan deyiladi. Ayrim manbalarda esa “O‘g‘iz beki”, ya’ni saroyga yaqin lavozimdagi bek ma’nosida qo‘llaniladi. Indoneziya. 1884-yildan qo‘llanila boshlangan. “Hind orollari” ma’nosida. Laos. Lao xalqi nomidan olingan, oxirgi s harfi portugal va ispancha ko‘plik belgisi.

**Filippin** – Ispaniya koroli Filipp II nomiga qo‘yilgan. Ruschada sifat yasalib, -in suffiksi qo‘shilgan. Bu nom o‘zbek tiliga dastlab tarjima qilinganda xato ravishda Filippin yozilib ketgan va hozirgacha tuzatilganicha yo‘q.

**Singapur** – Hindcha singa- “sher”, pur –“shahar”, ya’ni “Sher shahri”, “Sherkent” ma’nosida. Tailand. Tai-xalq nomi, ma’nosi “ozod”, land-inglizcha “mamlakat”. Eski nomi Siyom (1939 yilgacha).

**Sharqiy Timor** – Indoneziya tilida “kun chiqish” degan ma’noni bildiradi. Andaman orollari. Malayyaliklarning pulo Ganduman xudosi nomiga “Andaman” orollari deb nomlangan.

**Xitoy** – Mamlakat shimolidagi kidan qabilasi nomidan olingan. Bizga Xito, Xitoy shaklida an’ana bo‘lib qolgan. Ayrim qismlari Chin, Chin-Mochin, Tabg‘och ham deyilgan.

**Yaponiya** – Yaponcha Nippon: -ni “Quyosh”, pon-“mamlakat”, ya’ni “Quyosh chiqadigan o‘lka”, “Sharqiy mamlakat”. Yaponcha “Quyosh chiqadigan mamlakat”.

**Janubiy Koreya** – Koreyslar o‘z mamlakatlarini “Choson” deb atashadi. Uning lug‘aviy ma’nosi “Tonggi musaffolik mamlakati”, demakdir.

**Mongoliya** – Mo‘g‘ullar qabilasi manguli nomidan kelib chiqqan. Manguli – “engilmas”, “botir” ma’nosini bildiradi. Bu qabila kattalasha va kengaya borib, dastlab boshqa qabilalar ham, so‘ngra butun mamlakat manguli, ya’ni Mongoliya deb atala boshlangan.

**Tayvan** – Dengizbo‘yi bosqich-bosqich bo‘lgani uchun, xitoycha “zinasimon qo‘ltiq yoki terrasalar qirg‘og‘i” deb atalgan.

**Aomin** – Xitoycha ngao-men “Qo‘ltiq darvozasi” ma’nosini bildiradi.

Ushbu maqolamizdagi ma’lumotlardan va Osiyo va Yevropa mamlakatlari toponimiyasidani ma’lum bir tushuncha oldingiz deb umid qilamiz. Bizni son-sanoqsiz geografik nomlar dunyosi o‘rab olgan. Geografik nomlar xalq tomonidan qo‘yiladi va xalq mulki hisoblanadi. Geografik obyektlarga nom qo‘yish va ulami qayta nomlash jarayonlarini o‘rganish, hammamiz uchun tavsiyalar berish toponimikaning amaliy ahamiyatini ta’kidlaydi. Yuqorida keltirilgan misollar toponimikaning yosh avlodni vatanparvarlik, millatparvarlik va obyektivlik ruhida tarbiyalashda katta rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. 2000y
2. Qoraev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T. 2006.
3. Bekturdiyev Sh.Q. Toponimika.-Guliston.: Universitet. 2015.-152 b.
4. Nizomov. A, Raximova. G, Rasulova. N. Toponimika T., “Sharq”. 2012

#### **MUSTAQIL TARZDA RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘RGANILISHI.**

**Yagafarova Nazilya Rafailovna**  
**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**  
**Yangier filiali o‘qituvchisi**  
**nazilyayagafarova2017@gmail.com**

**Annotasiya.** Maqolada talabalarni rus tilini o‘rganishda talaba e’tibor berishi kerak bo‘lgan mustaqil ta’limning jihatlari muhokama qilinadi. Rus tili grammatikasining asosiy qoidalari va tuzilmalari bilan tanishish, bu tilda gaplarning to‘g‘ri tuzilishini belgilaydi. Har qanday chet tilini o‘rganayotganda, avvalambor, ona tilingizni yaxshi bilishingiz kerak, chunki ikki tilni taqqoslaganda, o‘xshashliklar aniqlanadi va ularni bilish talabalar uchun chet tilini o‘rganishni osonlashtiradi.

**Kalit so‘zlar:** grammatika, model, til tuzilishi, jins tushunchasi (категория рода), gap, kelishik, ot so‘z turkumi, fe‘l, qo‘shimcha.

**Аннотация:** В статье рассматриваются аспекты самостоятельного обучения, на которые обучающийся должен уделить особое внимание при изучении русского языка. Знакомство с основными правилами и структурами грамматики русского языка, которые определяют правильное построение предложений в языке. При изучении любого иностранного языка надо в первую очередь хорошо знать свой родной язык, так как при сопоставлении двух языков выявляются сходства и зная их учащимся легче усвоить неродной язык.

**Ключевые слова:** грамматика, модель, структура языка, род, предложение, падеж, имя существительное, глагол, окончание.

**Abstract:** The article discusses aspects of independent learning that the student should pay attention to learning the native language. Acquaintance with the basic rules and structures of Russian grammar, which determine the correct construction of sentences in the language. When studying any non-native language, you must first of all know your native language well, since when comparing two languages, similarities are revealed and knowing them, it is easier for students to learn a foreign language.

**Key words:** grammar, model, language structure, gender, sentence, cases, noun, verb, ending.

Rus tilida muloqot qilish – fan bilan shug‘ullanishni, ko‘proq ma‘lumot topishni, rus madaniyatini o‘rganishni, Rossiya bo‘yab sayohat qilishni yoki rus tilida so‘zlashuvchi odamlar bilan biznes qilishni istagan har bir kishi uchun muhim mahoratdir. Rus tilini o‘rganayotganda, birinchi navbatda, А (a), Б (be), В (ve) kabi harflarni o‘z ichiga olgan alifbo bilan tanishishingiz kerak. Har bir harfning talaffuzini o‘rganish va mashq qilish o‘quvchilarga so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga va tilning fonetik qoidalarini tushunishga yordam beradi. Rus tilida talaffuz bilan bog‘liq muammolardan biri so‘zlardagi yumshoq undoshlarning talaffuzidir. Masalan, “мать” (ona) so‘zida so‘z oxiridagi undosh yumshoq talaffuz qilinadi, “мат” (odobsiz - so‘kinish so‘z) so‘zida esa so‘z oxiridagi undosh qat‘iy talaffuz qilinadi. Rus tilida talaffuz bilan bog‘liq yana bir muhim muammo – bu so‘zlardagi urg‘u. Masalan, “замок” (замок) so‘zida urg‘uga qarab, so‘zning ma‘nosi o‘zgaradi. Agar “замок” so‘zining birinchi bo‘g‘iniga urg‘u tushsa, biz saroyni tushunamiz, “замок” so‘zining ikkinchi bo‘g‘iniga urg‘u tushsa, bu “eshik qulfini” bildiradi. Ushbu modellarni o‘rganish va o‘zlashtirish muloqotdagi aniqlik va tushunmovchiliklarning oldini olish uchun juda muhimdir. Salomlashishga kelsak, rus tilidagi “Привет” (rivet) umumiy ibora bo‘lib, “salom” degan ma‘noni anglatadi. Bu kimdir bilan salomlashishning tasodifiy va norasmiy usuli. Boshqa tomondan, “Здравствуйте” (assalomu alaykum) – bu notanish odamlar bilan yoki “salom” yoki “xayrli kun” degan ma‘noni anglatuvchi rasmiy muhitda qo‘llaniladigan rasmiy salom. Rus tilida muloqotning yana bir muhim jihati - minnatdorchilik bildirishdir. Rus tilida “Спасибо” deyish “rahmat” so‘ziga teng. U turli vaziyatlarda minnatdorchilik bildirish uchun ishlatiladi, masalan, kimdir yaxshilik qilganda yoki sovg‘a qilganda. Kundalik suhbatlarda “Я не понимаю” deyish qobiliyati ma‘lumotni aniqlashtirish uchun foydalidir. “Men tushunmayapman” (tushunmayapman) iborasi odatda buni bildirish uchun ishlatiladi. Bu ma‘ruzachiga noto‘g‘ri tushunish va tushuntirish so‘rash imkonini beradi. Kechirim so‘rash yoki kimdirning e‘tiborini jalb qilish uchun ishlatiladigan keng tarqalgan ibora “Извините” (kechirasiz) degan ma‘noni anglatadi. Bu kimdandir chetga chiqishni, suhbatni to‘xtatishni yoki xato yoki tushunmovchilik uchun kechirim so‘rashni so‘rash uchun ishlatilishi mumkin. “Печь” so‘zi “pishirmoq” manosida fe‘l so‘z turkumi yoki “печь” “pech” pishiriq pishiradigan moslama sifatida ishlatilishi mumkin. Shuningdek, “Пожалуйста” (iltimos yoki marhamat) so‘zi har qanday xizmat ko‘rsatishda yoki so‘rov bildirishda ishlatiladi. Umuman olganda, bu misollar rus tilida muloqot qilishning o‘ziga xos jihatlarini, jumladan, alifboni tushunish, talaffuzni o‘zlashtirish va umumiy salomlashish va iboralar bilan tanishishni ko‘rsatadi.

Rus tilida gapirish – bu juda ko‘p qiziqarli imkoniyatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan ajoyib mahorat. Gap tuzish, so‘zlardan to‘g‘ri foydalanishda grammatika qoidalarini o‘rganish muhim. Yangi so‘zlarni o‘rganish sizning fikringizni yaxshiroq ifodalashga yordam beradi. Odamlar so‘zlovchini tushunishlari uchun so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni unutmashimiz kerak. Amaliyot va mashaqqatli mehnat bilan o‘quvchi rus tilida juda yaxshi gapira oladi va buni amalga oshirishdan zavq oladi!

Rus grammatikasi – bu rus tilida samarali muloqotni tushunish va undan foydalanishni boshqarish uchun zarur bo‘lgan murakkab tizimli qoidalar tizimidir. Tilni o‘rganish istagi tilning boshqa barcha jihatlarini qurilgan poydevor bo‘lib, u har qanday til o‘rganuvchining grammatik yo‘lini tushunish uchun

zarur bo'lgan muhim komponentga aylanadi. Rus tilining asosiy grammatikasi murakkabligi va ma'nosini tushunishi bilan mashhur. Tilni samarali boshqaradigan qoidalar va tamoyillarni o'rganish uchun zarur bo'lgan rus grammatikasining asosiy tushunchalarini tushunish juda muhimdir. Rus tilining tuzilishi – bu so'zlarni shakllantirish usulini o'z ichiga olgan til bo'lib, ular grammatikada o'ziga xos tizimli jumllalarni, shu jumladan olti xil kelishik qo'shimchalarini va jumllalarni tuzishda ishlatiladigan uch xil qoshimchalarga ega bo'lishlari ularni kelishiklardagi tuslanishidagi farqlarini (rus tilida *rod va spryajenie* tushunchasi mavjud) anglatadi va xususiyatlarini ko'rsatishdir.

Rus tilini mustaqil o'rganishda o'rganuvchi grammatika asoslari bilan tanishishi kerak. Grammatika asoslari – bu tilda gaplarning to'g'ri tuzilishini belgilovchi asosiy qoidalar va tuzilmalar. Rus tilida jumla qurilishi ma'lum grammatik qoidalarga amal qiladi, ular so'z kelishigi, so'z tartibi, holatlar va fe'l zamonlarini o'z ichiga oladi. Mustaqil ta'lim jarayonida talaba rus tilining jins toifasiga (род) ega ekanligiga alohida e'tibor qaratishi kerak (masalan, o'zbek tilidan farqli o'laroq). Rus tilida jumllarni qurish so'z kelishuviga asoslanadi. Bu jumladagi so'zlar jinsi (род), soni va holati bo'yicha kelishilishi kerakligini anglatadi. Masalan, gapdagi ot birlikda mujskoy rodga bo'lsa, uning xususiyatini bildiruvchi sifat ham mujskoy rod va birlikda bo'lishi kerak. Bundan tashqari, rus tilidagi jumladagi so'zlarning tartibi katta ahamiyatga ega. Odatda, rus tilida kesim gap oxirida, ega esa boshida qo'yiladi. Masalan: Я иду в магазин. (Men do'konga ketyapman.) ( ega – men, kesim – ketyapman, hol – do'konga). Biroq, jumlaning ayrim qismlarini ta'kidlash yoki ma'lumotni ta'kidlash uchun so'z tartibi o'zgartirilishi mumkin. Masalan: Куда ты идёшь? (Qayoqqa sen ketyapsan?) (teskari so'z tartibi: birinchi savol so'zi “qaerga” - hol, keyin “sen” - ega, keyin “ketyapsan” – kesim). Ko'pgina tillar singari, rus tilida so'zning jumladagi rolini belgilaydigan kelishiklar mavjud. Rus tilida oltita kelishik mavjud: imenitelniy, roditelniy, datelniy, vinitelniy, tvoritelniy va predlojniy. Har bir holat o'z vazifasiga ega bo'lib, so'zning gapdagi rolga qarab qo'llaniladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, rus tilida jumlar tuzish so'zlarning kelishik, so'z tartibi va holatlari kabi grammatik qoidalarni bilish va qo'llashni talab qiladi. Ushbu qoidalardan to'g'ri foydalanish talabaga rus tilida grammatik jihatdan to'g'ri jumllarni qurishga va uning tuzilishi va mantiqini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Muntazam ravishda mashq qilish va o'quv materiallariga murojaat qilish talabaning jumllarni qurish ko'nikmalarini oshirishga va rus tilini bilishning yuqori darajasiga erishishga yordam beradi.

Negizi Asosiy grammatika nutqning turli qismlarini, masalan, otlar, fe'llar, sifatlar va boshqalarni tushunishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, rus tilida jumlaning to'g'ri qurish uchun siz fe'l zamonlaridan qanday foydalanishni bilishingiz kerak. Masalan, “Я сегодня съел яблоко” – “Men bugun olma yedim” deyish uchun “есть” “yemoq” – “съел” “edim” fe'lining o'tgan zamon shaklidan foydalanish kerak. Yoki so'zlarning to'g'ri shakllanishi ham grammatika asoslarining jihatlaridan biridir. Masalan, o'zbek tilida otlarning ko'pligini hosil qilish uchun odatda “lar” oxiri qo'shiladi, rus tilida esa jinsga (род) qarab qo'llaniladigan ma'lum sonlar mavjud. Ko'plikdagi г,к, ж, ш, щ, ч, ч harflari o'zaklari bo'lgan erkak va ayol (мужской и женский род) so'zlariga “и” harfi oxiriga ko'yiladi. Ammo istisnolar mavjud, masalan, ko'plikdagi “ребёнок” (“bola”) so'zi “дети” (“bolalar”) kabi, ko'plikdagi “человек” (“odam yoki shaxs”) so'zi “люди” “odamlar” kabi eshitiladi.

Rus tilidagi spryajeniye tushunchasi rus grammatikasining ajralmas qismi bo'lib, tildagi fe'llarning turli xil zamon va mayillarini ifodalash uchun ishlatiladi. Mavzuga qarab, fe'lning oxiri o'zgaradi, fe'lning zamon va mayilini aks ettiradi, shuning uchun rus tilida izchil jumllarni qurish uchun ruscha spryajeniye qoidalarini tushunish muhimdir. Rus tilida uchta zamon mavjud: o'tgan, hozirgi va kelasi. Har bir zamonda turli mavzu olmoshlarini aks ettiruvchi o'ziga xos fe'l qo'shimchalari mavjud. Hozirgi zamon eng oson qo'shiladigan zamon bo'lib, oxiri mavzuga qarab bir oz farq qiladi. O'tgan zamon oxirlari murakkabroq bo'lishi mumkin, chunki fe'llarning sonlari eganing rodi va soniga ta'sir qiladi. Xulosa qilib aytganda, rus tilini o'zlashtirish uchun rus tilidagi spryajeniye qoidalarini o'rganish juda muhimdir. Har bir zamon va mayli uchun turli xil fe'l qo'shimchalarini tushunish izchil va mazmunli jumllarni qurish uchun juda muhimdir. Amaliyot orqali talabalar ruscha spryajeniyesidan to'g'ri foydalanish qobiliyatiga ishonch hosil qilishlari mumkin, bu ularga rus tilida o'z fikrlarini erkin ifodalash imkonini beradi.

Rus tilini o'rganishda o'rganuvchi grammatika asoslari bilan tanishishi kerak. Tildagi gaplarning to'g'ri tuzilishini belgilovchi asosiy qoidalar va tuzilmalarni aniqlang. Chunki gaplar qurilishida ma'lum

grammatik qoidalarga amal qilinadi, ular orasida soʻz kelishigi, soʻz tartibi, hol va feʼl zamonlari kiradi. Rus tilida jumlarlar tuzishda siz soʻz tartibiga eʼtibor berishingiz kerak, chunki aytilganlarning maʼnosi unga bogʻliq. Rus tilida soʻz tartibini tushunish yaxshi muloqot qilish uchun muhim va tilni yanada qiziqarli qiladi. Turli xil soʻz tartibini mashq qilish orqali biz rus tilida yaxshiroq gaplasha olamiz va tushunamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

In the context of modern challenges such as climate change, technological disruption, and global health crises, education plays an indispensable role in building resilience and fostering sustainable development. Educators have a responsibility to equip students with the knowledge and skills needed to navigate an interconnected world responsibly and ethically.[4]

At its core, the right to education implies more than mere access to schools; it encompasses the right to receive a quality education that is inclusive, equitable, and empowering. Quality education goes beyond academic instruction to promote holistic development, including critical thinking, creativity, and ethical awareness. It equips individuals with essential life skills and prepares them to contribute meaningfully to society.

The scope of the right to education extends throughout a person's life, from early childhood through adulthood. It includes not only formal education provided in schools but also informal and non-formal learning opportunities. Lifelong learning is integral to the realization of the right to education, enabling individuals to adapt to changing circumstances, acquire new skills, and pursue personal growth and fulfillment.

One of the key principles underpinning the right to education is non-discrimination. Education should be accessible to all without discrimination based on factors such as race, ethnicity, gender, disability, socioeconomic status, or geographical location. Governments have a duty to eliminate barriers to education and ensure that marginalized and vulnerable groups have equal opportunities to learn and thrive. The right to education also encompasses the freedom of parents to choose the type of education that best suits their children, whether in public or private institutions. States are responsible for regulating and monitoring both public and private educational institutions to ensure they meet certain standards of quality and inclusivity. Education plays a crucial role in promoting other human rights, such as the rights to health, employment, and participation in cultural life. It empowers individuals to exercise their civil and political rights effectively and contributes to the overall well-being of societies.

Education is not just about imparting knowledge and skills; it is also instrumental in shaping ethical values and fostering moral development in individuals. Quality education plays a pivotal role in nurturing ethical awareness, critical thinking, and empathy, which are essential for building a responsible and compassionate society. Firstly, quality education goes beyond academic achievements to cultivate a range of competencies, including ethical reasoning and moral judgment. An education that prioritizes critical thinking and inquiry encourages individuals to question assumptions, consider multiple perspectives, and make well-informed decisions based on ethical principles. Quality education fosters a sense of personal integrity and social responsibility, empowering individuals to act ethically in various contexts.[5]

Furthermore, education influences socialization processes and the transmission of societal norms and values. Schools serve as agents of socialization, where students learn not only academic subjects but also social behaviors, ethical standards, and cultural norms. Educators play a critical role in shaping students' attitudes and values through formal and informal interactions. By promoting ethical behavior, empathy, and social responsibility, education contributes to the development of well-rounded individuals who are equipped to navigate complex social environments.

Additionally, education can be a catalyst for social change and transformation. Educated individuals are more likely to challenge existing inequalities, advocate for human rights, and promote sustainable development. By empowering students with knowledge and critical thinking skills, education enables them to identify societal injustices and work towards positive change. Quality education promotes empathy and respect for others. By exposing students to diverse experiences,

perspectives, and cultures, education fosters an appreciation for human dignity and the value of inclusivity. Educators play a crucial role in creating inclusive learning environments that celebrate diversity and promote understanding among students from different backgrounds.

Ethical development through education also involves the cultivation of civic virtues and democratic values. Quality education empowers individuals to participate actively in civic life, uphold democratic principles, and advocate for social justice. By engaging students in discussions about rights, responsibilities, and ethical dilemmas, education prepares them to become informed and engaged citizens who contribute positively to their communities.

Moreover, quality education instills a sense of environmental responsibility and sustainability. Educated individuals are more likely to recognize the interconnectedness of human activities with the natural world and take action to protect the environment. By integrating environmental education into the curriculum, schools can empower students to become stewards of the planet and champions of sustainable development.

Ethical development through education also involves the promotion of integrity and honesty. Quality education emphasizes the importance of academic integrity, ethical conduct, and transparency in personal and professional endeavors. Educators have a responsibility to model ethical behavior and uphold ethical standards in their interactions with students, fostering a culture of trust and integrity within educational institutions.

In conclusion, the right to education is indispensable for the formation of social processes and ethics among intellectual youth in the modern world. By recognizing education as a fundamental human right and investing in inclusive and quality education systems, societies can unlock the transformative power of education to promote social progress, ethical values, and sustainable development. Governments, policymakers, educators, and stakeholders must collaborate to ensure universal access to education, uphold ethical standards in educational practices, and empower intellectual youth to become responsible global citizens and leaders of positive change. Together, we can harness the transformative potential of education to build a more equitable, inclusive, and ethically conscious society where intellectual youth can thrive and contribute towards a brighter future for all.

## References

1. Таълим-тарбия тизими: тараққиётнинг янги босқичи муҳокама қилинди. URL: <https://yuz.uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>
2. Right to education handbook. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000366556>
3. United Nations. (1948). Universal Declaration of Human Rights. Retrieved from: URL: <https://www.un.org/en/universal-declaration-human-rights/>
4. “Education for Sustainable Development” URL: <https://www.unesco.org/new/en/education/themes/leading-the-international-agenda/education-for-sustainable-development/>
5. What Is Ethical Education And Why Is It Important. URL: <https://fastercapital.com/topics/what-is-ethical-education-and-why-is-it-important.html>

## ROSSIYA VALYUTASINI XALQAROLASHTIRISHDA RAQAMLI RUBLNING ISTIQBOLLARI

**Elov Olimdjon Komilovich**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari**  
**kafedrasi o‘qituvchisi**  
**Samadova Mohlaroyim Burxon qizi**

**Navoiy davlat pedagogika instituti Maktab menejmenti ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi**

**Annatsiya.** Ushbu maqola Rossiya banki tomonidan taklif qilingan raqamli rubl konsepsiyasini tahlil qilishga, raqamli pullarning hozirgi kundagi ahamiyati, uning afzalliklari, qulayliklarini ochib



berishga va kamchiliklarini o'rganishga qaratilgan. Bu esa fuqarolarning raqamli rublga munosabatini ochib berishga ko'maklashadi. Keng jamoatchilikning raqamlashtirilgan pul munosabatini rivojlantirishga ahamiyat berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli pullar, kriptovalyutalar, bitcoin, raqamli rublning xalqarolashuvi, pul tizimining barqarorlashuvi.

## PROSPECTS OF THE DIGITAL RUBLE IN THE INTERNATIONALIZATION OF THE RUSSIAN CURRENCY

**Annotation.** This article is aimed at analyzing the digital ruble concept proposed by the Bank of Russia, revealing the importance of digital money today, its advantages, conveniences, and studying its shortcomings. This will help reveal the attitude of citizens to the digital ruble. Emphasis is placed on developing digital money attitudes of the general public.

**Key words:** digital money, cryptocurrencies, bitcoin, internationalization of the digital ruble, stabilization of the monetary system.

## ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВОГО РУБЛЯ В ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ РОССИЙСКОЙ ВАЛЮТЫ

**Аннотация.** Целью данной статьи является анализ концепции цифрового рубля, предложенной Банком России, раскрытие значения цифровых денег сегодня, их преимуществ, удобств, а также изучение недостатков. Это поможет выявить отношение граждан к цифровому рублю. Особое внимание уделяется развитию отношения к цифровым деньгам среди широкой общественности.

**Ключевые слова:** цифровые деньги, криптовалюты, биткойн, интернационализация цифрового рубля, стабилизация денежной системы.

Raqamli pul – bu har qanday turdagi to'liq elektron bo'lgan to'lov turi hisoblanib, qog'oz pullardan farqli jihati uni yonida saqlay olmasligidadir. Onlayn tizimlar orqali uni hisoblash yoki uzatish mumkin bo'ladi. Buni asosan Kriptovalyuta, Bitcoin shakllari tanishligi bilan ahamiyatlidir. Bu turdagi pullarning naqd pullardan farqi, muomila jarayonini soddalashtirish bilan bir qatorda, qulaylashtiradi. Moliyaviy o'tkazmalarni osonroq va tezroq amalga oshiradi. Markaziy banklarning pul-kredit siyosatini amalga oshirish jarayonini ham soddalashtiradi. Ya'ni bu turdagi pullarning ba'zilari kriptografiyadan foydalanganligi sababli, ularni hukumatlar yoki xususiy agentliklar nazorat qila olmaydi. Ushbu sabablardan kelib chiqqan holda raqamli valyutalar butun dunyo bo'ylab barcha hukumatlarning asosiy e'tiboriga aylangan desak adashmagan bo'lamiz.

So'nggi paytlarda Rossiya Federatsiyasida ham butun dunyoda bo'lgani kabi tovarlar va xizmatlar uchun to'lovning naqd pulsiz usullari kabi ko'rinishlari paydo bo'ldi. Bulardan biri raqamli rubl hisoblanadi. Raqamli rubl bu – Rossiya Markaziy banki tomonidan chiqariladigan valyutaning yangi shakli bo'lib, bu Markaziy bank raqamli valyutasining (CBDC) Rossiya versiyasi sanaladi. Bu esa blokcheyn texnologiyasiga asoslanib shakllantiriladi. Hukumat fikricha raqamli rubl biznes uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, iste'molchilar uchun qo'shimcha xavfsizlik qatlami oshadi va korrupsiyaga qarshi kurashga yordam beradi. Hozirda raqamli rubl tartibga soluvchi organ va tijorat banklari tomonidan sinovdan o'tkazilmoqda. Ishga tushirilganidan so'ng, korxonalar, do'konlarda raqamli rubllarda to'lovlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Raqamli rublning transchegaraviy to'lovlar uchun asosiy afzalligi shundaki, bunday to'lovlar boshqa mamlakatlarning bank tizimidan foydalanmasdan, faqat Rossiya banki tomonidan boshqariladigan Digital Ruble platformasi orqali amalga oshiriladi. Test sinovlari 2022-yil 19-yanvarda boshlangan bo'lib, 2022-yil 15-fevralda Rossiya banki va bozor ishtirokchilari raqamli rubl platformasini sinovdan o'tkazishni boshladilar va fuqarolar o'rtasida raqamli rubllarda birinchi o'tkazmalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdilar<sup>80</sup>. Kelajakda ular undan

<sup>80</sup> Kaur, Dashveenjit (2022-02-23). "Raqamli rubl: Rossiya markaziy banki raqamli valyutasi haqida biz bilgan hamma narsa". TechHQ. Olingan 2023-09-19.

foydalangan holda tovarlar va xizmatlar uchun to'lovni sinab ko'rishni rejalashtirmoqda. 2022-yil 16-sentabrda bo'lib o'tgan matbuot anjumanida Rossiya banki direktori Elvira Nabiullina 2023-yil 1-apreldan raqamli rublni real mijozlar bilan sinovdan o'tkazish boshlanishini e'lon qilgan: "Bizga ma'lumki, dunyoda Rossiya bilan biznes yuritishdan manfaatdor bo'lgan ko'plab kompaniyalar bor, ammo ularning ko'pchiligi bugungi kunda Rossiya banklariga qarshi sanksiyalar bilan cheklangan. Biz ushbu texnologiyadan xorijiy davlatlar va xorijiy kompaniyalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun foydalana olamiz. Shunday qilib, bizning dushmanlarimiz, shu jumladan, AQSH uchun moliyaviy faoliyatimizga ta'sir qilish qiyin bo'ladi. Bu ham to'lovlar nuqtayi nazaridan, ham o'zimizni sanksiyalardan himoya qilish imkoniyati sifatida oldinga katta qadam", – deydi rossiyalik qonunchi, Digital Ruble qonunlari hammuallifi Anatoliy Aksokov<sup>81</sup>. Ta'kidlanganidek, "Raqamli rubl naqd va naqd bo'lmagan rubllar bilan bir qatorda qo'llaniladi" va to'lov vositasi sifatida uning jozibadorligini oshiradigan qo'shimcha afzalliklarga ega bo'ladi. Shuni aytish lozimki, raqamli rubl Rossiyada va butun dunyoda moliya sanoati uchun muhim voqea sanaladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Rossiyada an'anaviy banklarning faolligi CBDC ning to'liq amalga oshirilishi tufayli kamayishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa o'z navbatida keyingi besh yilda Rossiya uchun ko'plar AQSh dollarlarning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Biroq, 2023- yilda raqamli rublning joriy etilishi mamlakat to'lov tizimida muhim yangilik sifatida vujudga kelishi kutilmoqda, bu esa o'z navbatida Rossiya moliyaviy tizimlar va vositalar bo'yicha jahon yetakchisi sifatida mavqeyini mustahkamlashiga ko'maklashishi mumkin. Ammo, bunga qaramasdan, ushbu o'tish davrida bozor moslashuv davrini boshdan kechirishi mumkinligi kutilmoqda. Bunda asosan to'lov xizmatlari bilan bog'liq xarajatlar kamayib, chakana sotuvchilarga ma'qul kelsada, ekspertlar buning natijasida is'temolchilar va banklar uchun potentsial daromadning pasayishidan xavotirdalar.

Shunday qilib, raqamli pullar o'z navbatida jismoniy hamyonlarni talab qilmasada, raqamli valyutalarni saqlash va qayta ishlash uchun ma'lum bir talablarga ega. Mazkur turdagi valyutalarni saqlash uchun mustahkam xavfsizlikka ega onlayn hamyonlar ham zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алехина О.О. Транснациональная цифровая валюта: перспективы, риски и их роль в продвижении проектов национальной цифровой валюты. Риск-менеджмент 2021. Страницы 59-68 (на русском языке)

2. Бешлей О. Манипуляции или место финансового инструмента. Как Сальвадор, Украина и Россия легализуют криптовалюты. Настоящее время, 17.09.2021. (На русском.)

3 European Central Bank. 2020. Digital Euro Homepage. Accessed 27 June 2021 at [https://www.ecb.europa.eu/euro/digital\\_euro/html/index.en.html](https://www.ecb.europa.eu/euro/digital_euro/html/index.en.html)

4. Фабричная, Елена (09.08.2023). "Россия расширит тестирование цифрового рубля с 15 августа – ЦБ". 19.09.2023.

5 Маслов А.В, Маклакова Ю.А., Швандар К.В. Место цифровой валюты и цифрового рубля Центрального банка. Финансы и кредит, 2021, вып. 27, нет. 5 (809), стр. 1058-1073. (На русском)

6 [www.cbr.ru](http://www.cbr.ru). Заявление главы Банка России Эльвиры Набиуллиной по итогам заседания Совета директоров 16 сентября 2022 года Банк России

## **JAHON TA'LIM TIZIMIDA ASTRONOMIYA FANINI KREDIT-MODUL TIZIMIDA O'QITISH**

**G.X. Qurbonboyeva – Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi  
Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi**

O'qitishning tashkiliy-metodik asoslarini tadqiq etishda axborot texnologiyalari va innovatsion ta'lim dasturlari asosida o'qitishni joriy etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida ECTS (Yevropa kredit transfer tizimi) kredit-modul tizimidan

<sup>81</sup> Jeyk Koldell "Moskow Times" INDEPENDENT NEWS FROM RUSSIA 2023 yil 1-avgust

foydalanish, fanlarning metodik resurslarini takomillashtirish, xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash, innovatsion texnologiyalarning psixologik jihatlarini aniqlashtirish, talabalarning shaxsiy, kasbiy, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, o'quv jarayoniga konseptual yondashuvlarni joriy etish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga yo'naltirilgan jarayonning integrativ va reflektiv modelini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash, tizim yoki faoliyatni o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslarni yo'naltirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Xalqaro astronomiya ittifoqi (IAU) ning 2020-2030-yillar uchun mo'ljallangan strategik harakatlar rejasiga 8 ta ustuvor maqsad belgilangan bo'lib, astronomik bilimlarni o'zaro almashishni rag'batlantirish va osonlashtirish, astronomik bilimlarni oshirish va astronomiya fani rivojida inklyuzivlikni rivojlantirish, kasbiy vazifalarni muvofiqlashtirish va boshqa sohalar bilan professional darajada munosabat o'rnatish, astronomlar va olimlarning keyingi avlodining rivojlanishiga ko'maklashish astronomiya bo'yicha axborot agentligini, astronomiya ta'limi uchun astronomiya ta'lim idorasini tashkil etish kabi maqsadlarni o'z ichiga olgan.<sup>82</sup>

Xususan, strategik harakatning beshinchi va sakkizinchi maqsadi: "Astronomlarning keyingi avlodi taraqqiyotiga olimlarning ko'maklashishi va maktab bosqichida o'qitish va tarbiyani rag'batlantirish uchun astronomiyadan foydalanish" deb nomlanib, ularda astronomiya fanini boshlang'ich sinflarda, maktabda va universitetlarda yagona STEM, STEAM, STREM fanlari tizimida o'qitish, ta'lim sohasiga axborot texnologiyalari va innovatsion ta'lim dasturlarini tadbiiq etish, o'zlashtirish va tarqatish asosida ochiq moslashuvchan, individuallashtirgan, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, murakkab mavzularni shuningdek, tajriba o'tkazishda yuz berayotgan jarayonlarning sabablarini, mazmun-mohiyatini anglash, amaliy mashg'ulotlarni olib borish shakl va metodlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ta'limga qaratilgan islohotlar natijasida ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasi va axborot almashinish tizimlarini rivojlantirish, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalari hamda dasturiy pedagogik vositalarni integratsiya qilish, o'quv-metodik ta'minotni yaxshilash bo'yicha imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida: "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish"<sup>83</sup> kabi ustuvor ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda ilmiy tadqiqot natijalarini astronomiya kursiga integratsiya qilish bo'yicha o'qitish modellarini ishlab chiqish asosida o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jamiyat taraqqiyoti, mamlakatimizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar jahon andozasiga mos yetuk va yuqori darajada fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Bu esa o'qitishni ham mazmun, ham uslub jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarilishiga olib keladi. Astronomiya kursi mashg'ulotlarini axborot-texnologiyalari va innovatsion ta'lim dasturlari asosida o'qitish orqali o'qituvchi mavjud sharoitlar va ish tajribasiga asoslanib ijodiy yondashgan holda ish faoliyatini olib borishi hamda talabalar texnika taraqqiyoti bo'yicha zaruriy bilimlarni egallashlari uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitidan faol foydalanishi lozim.

Astronomiya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari va innovatsion ta'lim dasturlari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda ta'limga qaratilgan islohotlar natijasida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va axborot almashinish tizimlarini rivojlantirish, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalari hamda dasturiy-pedagogik vositalarni integratsiya qilish, o'quv-metodik ta'minotni yaxshilash bo'yicha

---

<sup>82</sup> International Astronomical Union (IAU)// strategic plan 2020-2030- Paris, France, 2019-39 pp

<sup>83</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmoni, - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6- son, 70- moddaJ 20- son, 354- modda; 23- son 448- modda

imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan so‘nggi yillarda fizika va chet tillarini o‘rganishni ustivor vazifa sifatida belgilanishi ham buning yaqqol isbotidir.

Ushbu islohotlarni astronomiya fani o‘quv jarayoniga tadbiq etishda ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ba‘zi dolzarb muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Bu muammolarga misol qilib, hozirgi paytda Respublikamiz umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida astronomiya fanidan dars mashg‘ulotlari olib borayotgan o‘qituvchilarning ko‘pchiligi fizik mutaxassislar bo‘lib, ularning astronomik bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish zarurligini, astronomiya darsligida sohadagi eng so‘ngi kashfiyotlar haqida ma‘lumotlarning kamligini, astronomiyadan kerakli laboratoriya uskunalari hamda o‘quv ko‘rgazmali qurollarning yetishmasligini aytib o‘tishimiz mumkin. Bu muammolarni hal qilishda kredit-modul tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Malikova Muhabbat, Sayfullaeva G. I MODERN FORMS OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 1 JANUARY 2024 UIF-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337| SCIENTISTS

2 Rashidova Nilufar, Sayfullayeva G. I Achieving Transparency in Education// Open Herald: Periodical of Methodical Research Volume 1, Issue 7, November, 2023 ISSN (E): 2810-6385 Website: <https://academiaone.org/index.php/6>

3 Malikova Muhabbat, Bozorova Aziza, Sayfullayeva G. I. Relevance of Independent Educational Activities of Students in the Credit–Modular Education System// *Open Academia: Journal of Scholarly Research*, 1(8), 40–42. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/4/article/view/297>

4 G.I.Sayfullayeva, H.R.Shodiyev Kredit- modul modul tizimida fanlarni integratsion yondashuv asosida o‘qitishning afzalliklari// Academic Research in Educational Sciences Multidisciplinary Scientific Journal September, Volume 3 | Issue 9 | 2022

5 Shodiyev Hamza Rozikulovich, Sayfullayeva Gulhayo Masofaviy ta‘limda yer mavzusini integratsion yondashuv asosida topish metodikasi//Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES) VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

## MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Iqtidorli talaba: Hamroyeva Komila (O‘zbekiston)

NavDPI, Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna(O‘zbekiston)

NavDPI, Maktabgacha ta‘lim kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** Maktabgacha ta‘lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk maktabda o‘qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta‘lim bolaning 3 yoshdan 7 yoshga to‘lgunga qadar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va mulk shaklidan qat‘iy nazar ta‘lim tashkilotlarida olib boriladi.

**Kalit so‘zlar:** uzluksiz ta‘lim, yetuk shaxs, ota-ona, oila, mahalla, ilk qadam, tashkiliy, uslub, psixologiya, pedagogika.

**Аннотация.** Дошкольное образование организуется с целью формирования личности ребенка на уровне подготовки к обучению в здоровой и зрелой школе. Данное образование осуществляется в дошкольных образовательных организациях и образовательных организациях независимо от форм собственности с 3 до 7 лет.

**Ключевые слова:** непрерывное образование, зрелая личность, родители, семья, соседство, первый шаг, организация, метод, психология, педагогика.

**Annotation:** Pre-school education is organized in order to form a child's personality at the level of preparation for studying in a healthy and mature school. This education is carried out in preschool educational organizations and educational organizations regardless of the form of ownership, from the age of 3 to the age of 7.

**Key words:** lifelong education, mature personality, parents, family, neighborhood, first step, organization, method, psychology, pedagogy.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasiga doir qator tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligini muhtaram Prezidentimiz qabul qilayotgan qaror va farmoyishlarida bayon etilgan.

Maktabgacha ta'lim – bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning 3 yoshdan 7 yoshga to'lgunga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mulk shaklidan qat'iy nazar ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar rivojlanadilar va ta'lim – tarbiya oladilar. Ularning sog'ligi mustahkamlanadi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ularda mehnatga muhabbat uyg'onadi. Kattalarni hurmat qilish hamda vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta'limi uchun bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'radilar.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi. Bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, individual ruhiy holati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bolalarga ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bolalarda ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashiga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan yurtimizning jahon hamjamiyatida qay darajada o'rin egallashi, o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, yosh avlodning qanchalar bilimli, yetuk, komil, erkin fikrlaydigan va o'z menini yarata oladigan, qisqa qilib aytganda yurt uchun o'z hissasini qo'sha oladigan bo'lib yetishishi ta'lim tizimiga qo'ygan ilk qadami bilan boshlanadi. Bola maktabgacha ta'lim tashkiloti ostonasiga qo'ygan qadami, uning ilk qadami hisoblanadi. Bu dargoh murg'ak qalblarga ilm eshiklarini ochuvchi, uni yuqori marralar tomon yetaklovchi nurli maskan hisoblanadi. Nima sababdan hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda, degan savol tug'iladi, albatta. Chunki, bola tug'ilgandan so'ng yetti yoshgacha bo'lgan davr uning uchun eng muhim davrdan biri hisoblanadi. Bola bu davrda o'z hayoti uchun kerakli bo'lgan barcha ta'lim – tarbiyani olishi va u olgan ta'lim-tarbiyasi umr yo'llarida hamroh bo'lishi hammamizga ma'lum albatta. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borar ekan bola erkin fikrlashni, o'zgaralar bilan tez muloqotga kirishishni, o'zida ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni, atrof muhitni, uni o'rab turgan zaminning turfa xil ne'matlarini artofdagi predmetlar haqidagi to'liq ma'lumotlarni, mashg'ulotlar orqali kerakli bilimlarni oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan bolaning ko'zi yonib turadi. U hamma narsani yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganishga, u narsa haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadi. Bolaning bu yosh davri shijoatga to'la, doimo harakatda bo'ladigan davri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash davri sifatida tarixga muhrlanmoqda. Negaki, mamlakatimizda mazkur tizimni davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi, hali hech bir davrda o'z aksini topmagan. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanmish maktabgacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor tahsinga loyiq. Biz shunday sharoitda zamonaviy, teran fikrlaydigan intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarda o'zining mukammal bilimi va tajribasi nuqtayi nazaridan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashni bosh maqsadimiz deb bilar ekanmiz, buning mas'uliyatini astoydil his qilish bizning oldimizda turgan murakkab, o'z o'rnida sharaflil vazifa ekanligini unutmashligimiz talab etiladi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarni katta hayotga o'rgatish, ularda jamiyatga moslashuvchanlik, guruhlarda o'z o'rniga ega bo'lish va o'zining mustaqil o'rni haqidagi ilk qarashlar barq urib boradigan maskan vazifasini o'tamog'i lozim hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning eng oliy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirish va uni jamiyat uchun munosib voris qilib tayyorlab berishdir. Bunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik talablar, yani pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, ulardan foydalanishga oid pedagogik talablar, ya'ni pedagogik tamoyillarni ishlab chiqishni hamda amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi. Amaliyotga tadqiq etilayotgan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat o'quv dasturi bu – ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlaridir.

Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi, - deydi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin. Bularning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazda – bola va uning manfaatlari yotadi. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayoni o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun-595-son T.:- 2019 yil 16-dekabr.
3. "Takomillashtirilgan ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.T: 2022.
4. Shodmonova Sh. Maktabgacha pedagogika. T, "Fan va texnologiyalar", 2005.
5. Pedagogika fanidan izohli lug'at. (Tuzuvchilar: J. Hasanboyev, X. To'raqulov, O. Hasanboyeva, N. Usmonov). T., "Fan va texnologiyalar", 2015.
6. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/24-ilmiy-tarixiy-adabiy-maqolalar-risolalar>
7. <https://uza.uz/oz/pages/maqolaga-qoyilgan-talablar>

# GNU OCTAVE TIZIMINI MATEMATIKA VA INFORMATIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI O'QUV FAOLIYATIDA QO'LLASH SAMARADORLIGI HAQIDA

Ibragimov A.A., Pardayeva S.J.

NavDPI Informatika kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.

NavDPI 2-kurs TAT mutaxassisligi magistranti. Navoiy. O'zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kompyuter matematik tizimlari (KMT) ni talabalarning o'quv faoliyatida qo'llash masalalari qaralgan. Xususan, oliy ta'lim muassasalari matematika va informatika ta'lim yo'nalishi talabalarining ba'zi ixtisoslik fanlarini o'zlashtirish jarayonida GNU Octave kompyuter matematik tizimidan foydalanish muammolari tahlil qilingan. Unda GNU Octave ning boshqa KMT lar bilan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha qiyosiy tahlil qilingan va tegishli metodik tavsiyalar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** kompyuter matematik tizimlari, GNU Octave, Octave dasturlash tili va muhiti, kompetensiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы использования систем компьютерной математики (СКМ) в учебной деятельности студентов. В частности, были проанализированы проблемы использования систему компьютерной математики GNU Octave для освоения некоторых профильных предметов по направлению математики и информатики студентами высших учебных заведений. При этом был проведен сравнительный анализ использования GNU Octave с другими СКМ в образовательном процессе и предложены соответствующие методические рекомендации.

**Ключевые слова:** системы компьютерной математики, GNU Octave, язык и среда программирования Octave, компетентность.

**Annotation.** This article discusses the use of computer algebra systems (CAS) in the educational activities of students. In particular, the problems of using the GNU Octave computer algebra system for mastering some specialized subjects in mathematics and computer science by students of higher educational institutions were analyzed. At the same time, a comparative analysis of the use of GNU Octave with other CASs in the educational process was carried out and appropriate methodological recommendations were proposed.

**Key words:** computer algebra systems, GNU Octave, Octave programming language and environment, competence.

“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” [1] da mamlakatimizning oliy ta'lim sohasida belgilangan islohotlarning zamirida yetuk va zamon talablarga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy va raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ta'lim va tarbiya berish tizimlari integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim islohotlari bo'lg'usi mutaxassislarga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rganish, ularni o'z kasbiy faoliyatlarida samarali qo'llay olish kompetentligini talab etadi. Shu jumladan, kompyuter matematik tizimlarini (KMT) ta'lim, ishlab chiqarish, texnologik boshqaruv jarayonlarida va boshqa sohalardagi muammolarni yechishda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, matematika va informatika, texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun Matematika, MatLab, MathCad, Maple, Maxima, Octave [2, 3, 4] va boshqa shu kabi KMT lardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi muhim zamonaviy ta'lim komponentlaridan biri hisoblanadi. Xususan, matematik tizimlar matematika va informatika yo'nalishi talabalarining algebra va sonlar nazariyasi, matematik analiz, geometriya, matematik va kompyuterli modellashtirish, kompyuter grafikasi va shu kabi mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda o'rni beqiyosdir. Buning asosiy sabablaridan biri – matematik tizimlarda hisoblash jarayonining avtomatlashtirilganligidir, ya'ni talaba dasturlashni yaxshi o'zlashtirmagan bo'lsada, matematik hisoblashlarni bajara olishi, turli jarayonlar uchun 2 va 3 o'lchovli kompyuterli modellarni qura olishi (vizuallshtirishi) va natijada o'rganilayotgan obyekt haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar amaliy va laboratoriya topshiriqlarini bajarishda, ushbu topshiriqlar bo'yicha hisobotlarni tayyorlashda,

shuningdek, ularni ilmiy tadqiqot jarayonlariga kirishishida matematik tizimlarda ishlash kompetensiyasi muhim rol o'ynaydi [5].

Ta'lim jarayonida kompyuter matematik tizimlarini qo'llash bo'yicha pedagogik tadqiqotlar asosan S.Volfram, V.Z.Aladev, M.L.Shishakov, Ye.M.Vorobyov, V.P.Dyakonov, Ye.G.Davidov, T.V.Kapustina kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan.

**Mathematica** deb nomlanuvchi kompyuter matematik tizimi – simvulli hisoblashlar, yuqori darajali dasturlash tili, grafik va sonli hisoblash imkoniyatlari geometriya kursini o'qitishga tadbiiq etilgan holda T.V.Kapustina, O.A.Bushkova, A.R.Ganeeva va boshqalarning ishlarida qaralgan. Ushbu matematik tizimning oliy matematikadan laboratoriya ishlarini tashkil qilish va mos matematik tushunchalarni asoslash muammolari S.A.Dyachenko, Ye.A.Daxer va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida tadbiiq qilingan.

Ba'zi matematik tizimlarning matematika fani bo'yicha elektron o'quv qo'llanmalarini va elektron darsliklarini ishlab chiqishda tadbiiq etilishi J.I.Zaytseva, T.A.Ivanova kabi tadqiqotchilarning ishlarida aks etgan.

M.N. Salikhova, V.V. Pobedinsky, S.V. Lyakhov va boshqalarning pedagogik tadqiqotlarida **Matlab** matematikaviy tizimining texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida tadbiiq etish muammosi o'rgailgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, **Matlab** tizimi matematikaviy tizimlar ichida ancha standartlashtirilgan dasturiy mahsulot ekanligi, muhandislik ishlanmalarini yaratishda, ularni tadbiiq etishda va ma'lumotlar tahlilini amalga oshirishda eng ko'p qo'llanilayotgan matematik tizim ekanligi asoslangan.

Matematik tizimlarni o'quv faoliyatida qo'llash jarayonida ularning erkin tarqatiluvchi vakillari muhim ro'l o'ynaydi. Bepul, ya'ni tijoratlashmagan maqsadli litsenziyaga ega matematik tizimlar talabalarning mustaqil ishlashlari uchun ancha qulayliklar yaratadi. Bunday tizimlarning keyingi vaqtlarda keng qo'llanilayotgan vakillaridan biri **GNU Octave** matematikaviy tizimidir. Bu tizimni **Matlab**ning bepul tarqatiluvchi analogi deb hisoblash mumkin. **GNU Octave** tizimining ta'lim jarayoniga tadbiiq etilishi bo'yicha pedagogik tadqiqotlar soni boshqa tizimlarga nisbatan kam, faqat harbiy ta'lim jarayoni boyicha A.B.Bobrovskix, T.Yu.Urivskaya, A.P.Alimovlarning ishlarida o'z aksini topgan xalos.

Matematik tizimlarni, xususan, **GNU Octave** matematika tizimini Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv jarayoniga tadbiiq etishning nazariy va amaliy masalalari yetarlicha ochib berilmagan, shuningdek, ushbu matematikaviy tizimdan talabalarning foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi ilmiy-nazariy jihatdan yetarlicha tadbiiq etilmagan.

Shuning uchun KMT lardan, xususan, bepul tarqatiluvchi **GNU Octave** matematik kompyuter tizimidan talabalarning, ya'ni matematika va informatika ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv jarayonida foydalanish kompetensiyasini shakllantirish hozirgi kunda muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Bepul va litsenziyali matematik tizimlar orasida eng mashhurlari **Scilab** va **Maxima** hisoblanadi. Ularga munosib raqobatchi **GNU Octave** dasturi bo'lishi aniq. **Octave** – bu matematik va muhandislik muammolarini hal qilish uchun interaktiv buyruq interfeysiga va maxsus dasturlash tili hamda muhitiga ega bo'lgan kompyuter matematik tizimidir. **Octave** – bu kuchli interpretatsiyali matematik tildir. **Octave** o'z interpretatoriga ega va ko'pgina **Linux** distributivlariga (**Debian, Ubuntu, Mandriva, ALT Linux**) kiritilgan, shuningdek, **macOS, BSD** va **Microsoft Windows** OT uchun ham versiyalari mavjud.

KMT larning ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha asosiy muammolar quyidagilar hisoblanadi:

- o'quv jarayonida foydalanish uchun qulay bo'lgan KMT ni tanlash (bunda asosiy e'tibor uning bepulligi va litsenziyalanganligi, tizim interfeysi va dasturlash tili hamda muhitining imkoniyatlari);
- talabalar tomonidan olingan matematik bilimlarning sifatini oshirish;
- KMT dan foydalanish bo'yicha ta'lim resurslarining mavjudligi;
- KMTni o'rnatish jarayonida raqamli qurilmalar parametrlariga qo'yiladigan talablar va b.

Bu borada amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pincha talabalar muayyan muammolarni hal qilish uchun KMT larni mustaqil ravishda o'zlashtirgan holda, dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanish qoidalariga to'liq amal qilishmaydi. KMT lardan foydalanish bo'yicha kurslarni ta'lim dasturlariga



maqsadli joriy etish ushbu muammoni bartaraf etish yoki hech bo'lmaganda uni minimallashtirish imkoniyatini yaratadi.

Talabalar KMTlar yordamida olingan natijalarni tekshirish vositasini, ma'lum jarayonlarni modellashtirish vositasini, ko'rgazmali o'quv qo'llanmasini va kognitiv faoliyatni rag'batlantirish vositalarini olishlari uchun kurslar o'quv dasturining boshqa fanlar bilan bog'liqligi nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Materialni taqdim etishda jarayoni – o'rganilgan tushunchalarni mustahkamlash va chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. KMTlardan foydalanish bo'yicha o'quv kurslari talabalar uchun loyiha faoliyatini va matematik tizim yordamida hujjatlarni tayyorlash imkoniyatlari bilan tanishishni o'z ichiga olishi kerak.

Erkin tarqatiluvchi dasturiy ta'minotlar orasidan matematik tizimni tanlashda yana bir muammo paydo bo'ladi: dasturiy ta'minotdan foydalanish va qo'llab-quvvatlanish holati.

Uchta yetakchi tahlilchi firmalar, Forrester Research, Meta Group Embedded va Market Forecasters tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Windows operatsion tizimiga asoslangan yechimlarga egalik qilishning umumiy qiymati Linux OTga asoslangan yechimlarga qaraganda pastroq. Bu shuni anglatadiki, Linux OT da Microsoft dasturlarini ishlatishdan ko'ra ko'proq mehnat, vaqt va pul talab qilinadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun rossiyalik mutaxassislar tomonidan ochiq kodli dasturiy ta'minotga egalik qilishning umumiy qiymati o'rganilib chiqilgan. Muammo tegishli dasturiy ta'minotni joriy etish, hujjatlarni rus tiliga tarjima qilish va natijada foydalanuvchi bazasini ko'paytirish va ushbu dasturiy mahsulotlardan foydalanishda paydo bo'ladigan odatiy muammolarga juda ko'p tayyor yechimlarning paydo bo'lishi orqali hal qilinadi.

Amaliyotda Octave paketidan foydalanish katta qiziqish uyg'otadi. Turli ta'lim muassasalari fanlarini o'rganishda ushbu tizimdan foydalanish bo'yicha o'quv kurslari ishlab chiqilgan. Mobil platformalar (Android, iOS) uchun ilovalarning mavjudligi kurs uchun texnik talablarni kamaytiradi. Bundan tashqari, Octave ishlatadigan til MATLAB bilan mos keladi va agar biz MATLAB tizimiga o'tishimiz kerak bo'lsa, yangi tizimda ishlashni boshlash jarayoni oson kechadi.

Erkin tarqatiladigan Octave matematik tizimi boshqalarga nisbatan katta ta'lim salohiyatiga ega, undan foydalanish turli xil o'quv va ilmiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ta'lim samaradorligi ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan qulayligi (bepulligi), foydalanishda huquqiy to'siqlarning yo'qligi (litsenziyalanganligi) va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasiga (Kompyuter va OT) talablarning pastligi bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Алексеев Е.Р., Чеснокова О.В. Решение задач вычислительной математики в пакетах Mathcad 12, MatLab 7, Maple 9. – М: ИТ Пресс, 2006.
3. Алексеев Е.Р., Чеснокова О.В. "Введение в Octave для инженеров и математиков". М – "ALT Linux", 2012.
4. Ibragimov A.A. SCILAB tizimi va unda ishlash asoslari. Uslubiy qo'llanma, Navoiy, NDPI: – 2014 – 62 bet.
5. Pardayeva S.J GNU Octave va uning boshqa matematikaviy tizimlar bilan ta'limda qo'llanilishi bo'yicha qiyosiy tahlili // Journal of Innovations in technology and Science Education Vol. 2, Issue 15 (2023), -P. 421-428. DOI: 10.5281/zenodo.10078463.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA MA'NAVYIY-AXLOQIY TARBIYASINI TARBIYALASH USULLARI.

NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi : Meyliyeva N.G.  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi: Ilhomova Sh

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada ijtimoiy tarbiyalash usullari va vositalari yoritilgan bo'lib, keltirilgan ma'lumotlardan soha vakillari, ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari, tarbiyachilari foydalanishi mumkin.

**Аннотация.** В данной статье освещены методы и средства социального воспитания дошкольников в семье, а предоставленная информация может быть использована представителями сферы, родителями, педагогами дошкольных образовательных организаций, воспитателями.

**Annotation.** This article describes the methods and tools for the formation of socio-spiritual behavioral skills of middle school children of preschool age, the information can be used by teachers, educators, family educators of preschool education.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, tarbiya, ijtimoiy tarbiya, vosita, o'rgatish, mashq qilish

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитание, социальное воспитание, инструмент, обучение, обучение.

**Keywords:** preschool education, socio-spiritual behavior, methods, tools, teaching, exercise

**Kirish.** Bugun O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. 2019-yil 16-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Qonunchilik palatasi tomonidan 22-oktyabrda qabul qilingan va 14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" Qonunni imzoladi. Qonun maktabgacha ta'lim va tarbiyani bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida belgilaydi.[1]

Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi Axloqiy ongliklik Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. Axloq – kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob – shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'ladi.

**Asosiy qism. Ingliz filozofi Frensis Bekon.** Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo'lib, ota-onalar bolalar tarbiyasida har doimo ham istagan natijalarga erishavermaydilar.

Hayotning birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shug'ullanish oilaning asosiy vazifasidir. Oila jamiyatning boshlang'ich qismi bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi; bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachisi va tarbiyachisidirlar.

Bola tarbiyasida haqida Abdulla Avloniy shunday deydi: "Bolani salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmaq, tanini pok tutmaq, yosh vaqtdan maslakini tuzatmoq, yomon xulqlardan asrab o'stirmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmaq zarurdir"[1]

Elkonin bolani "oq qog'oz"ga o'xshatadi. Uning fikricha qog'ozga nimani yozsak shuni ko'rishimiz mumkin ekan. Shunga ko'ra bolalarga ijtimoiy-ma'naviy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish bir necha usullarda olib boriladi. Quyida ular bilan batafsil tanishamiz:

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va

xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

Tarbiyachichi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. Bolalar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi. [3]

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish bola uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, Bolaning aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi. O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. Tarbiyachi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

- 1) faoliyatda mashq qilish;
- 2) kun tartibi mashqlari;
- 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Ijtimoiy va axloqiy tarbiya metodlarining bir necha tasnifi mavjud. Masalan, V.I. Loginova, ta'lim jarayonida axloqiy rivojlanish mexanizmini faollashtirishga asoslangan usullarni tasniflab berdi:

- Tuyg'u va munosabatlarni rag'batlantirish usullari (kattalarga misol, rag'batlantirish, talab, jazo).
- Bolaning axloqiy xulq-atvorini shakllantirish (o'qitish, mashq qilish, faoliyatni boshqarish).
- Bolaning axloqiy ongini shakllantirish (tushuntirish, taklif, axloqiy suhbatlar shaklida ishontirish).

B. T Lixachevning tasnifi axloqiy tarbiya jarayonining o'zi mantig'iga asoslanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ishonchli ta'sir o'tkazish usullari (hurmat, pedagogik talablar, ziddiyatli vaziyatlarni muhokama qilish, ishontirish).
- Ta'lim ta'siri (tushuntirish, stressni yo'qotish, ong, iroda, harakat, hissiyotga murojaat qilish).
- Kelajakda ta'lim jamoasini tashkil etish va o'zini o'zi tashkil etish (o'yin, musobaqa, yagona talablar).[2]

Maktabgacha yoshdagi ma'naviy va axloqiy tarbiya, bola birinchi axloqiy baholash va mulohazalarni ishlab chiqishi bilan belgilanadi, u axloqiy me'yor nima ekanligini tushunishga kirishadi va unga nisbatan munosabatini rivojlantiradi, ammo bu har doim ham haqiqiy harakatlarda unga rioya qilinishini ta'minlamaydi. Bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasi ularning hayoti davomida amalga oshiriladi va u rivojlanib, o'sib boradigan muhit bola axloqini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun, sog'inmaslik juda muhimdir muhim fikrlar bola hayotida, shu bilan unga shaxs bo'lish imkoniyatini beradi.

Ma'naviy-ijtimoiy va axloqiy rivojlanish muammolarini hal qilishga o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan model asosida tashkil etish yordam beradi, bu bolalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlarining hukmlari, takliflari va kelishmovchiliklarini qabul qiladigan va mavjudligini hisobga oladigan tarbiyachi bilan yaqin aloqalarini ta'minlaydi. Bunday sharoitda aloqa dialog, birgalikda muhokama qilish va umumiy yechimlarni ishlab chiqish xususiyatiga ega bo'ladi. [4]

**XULOSA:**Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, Vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i,

madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilnadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini axloqiy hislarini shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 SH.M.Mirziyoyev "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" Qonun – 2019-yil 16-dekabr
- 2 Qodirova F, Toshpo'latova. Sh. Kayumova .N. Azamova. N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi Toshkent – 2019
- 3 Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari
- 4 Karimova V.M " Ijtimoiy Psixologiya" . Darslik- T.: "Fan va texnologiya ", 2012.
- 5 Elektron ta'lim resurslari
- 6 [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 7 [www.gender.uz](http://www.gender.uz)
- 8 [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 9 [.www.psycholog.uz](http://www.psycholog.uz)
- 10 [.www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

#### **MAKTAB TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDA E-MAKTAB.UZ TA'LIM PLATFORMASINING O'RNI.**

**Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi: S.T.Usmonova**

**Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi: D.B.Ismoyilov**

**Texnologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi: D.Shodiyeva**

Bugungi kunda texnika va texnologiyalarning zamonaviylashib kun sayin yangilanib borayotgan vaqtda jamiyatdagi insonlarning dunyoqarashi, tafakkuri va zamonga moslashuvini tubdan o'zgartirishi tabiiy holat bo'lib bormoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini baholash hamda raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida bir qancha tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, maktab ta'lim tizimini raqamlashtirishning jadal sur'atlar bilan davom etib kelayotgani soha xodimlari va o'quvchilar uchun katta qulayliklar yaratish barobarida, tizimdagi ortiqcha qog'ozbozlikni qisqartirilishiga zamin yaratdi.

2020-2021-o'quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etila boshlangan elektron kundalik tizimi o'tgan vaqt davomida ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan iliq qabul qilindi. Ayni vaqtga qadar eng mashhur ta'lim platformasiga aylangan ushbu tizimdan respublikamizning 10 mingdan ortiq maktablaridagi o'qituvchi va o'quvchilar foydalanadi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi shu o'rinda kundalik.com platformasi o'z faoliyatini "UZ" milliy domenida "emaktab.uz" sifatida davom ettirila boshladi.

#### **E-maktab.uz ta'lim platformasi**

Ta'limni raqamlashtirish yo'nalishida maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish va yangi xizmatlarni joriy etish bo'yicha bir-qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy yildan boshlab maktabning 9 va 11-sinfini tugatgan bitiruvchilarga shahodatnomalar elektron shaklda berilishi yo'lga qo'yildi.

Hukumatning tegishli qarori asosida mazkur elektron shahodatnomaning davlat namunasi hamda shahodatnomalarni berish tartibi tasdiqlandi. Ayni vaqtda elektron shahodatnoma platformasi ("e-shahodatnoma.uz") ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralarning elektron bazasiga integratsiya

qilindi. Bu esa ta'lim sohasidagi qog'ozbozlik, ortiqcha xarajat va ovoragarchiliklarning oldini olishga qaratilgan navbatdagi qadam hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar uchun bir qancha qulayliklarni yaratdi. Maktab bitiruvchilari endi o'z shahodatnomasini yonida olib yurishi talab etilmaydi. Oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish uchun bilim va malakalarni baholash agentligining (sobiq DTM) "ABITUR" dasturiga integratsiya qilingan holda hujjatlarni onlayn topshirish imkoniyati yaratiladi. Eng ahamiyatlisi, shahodatnomalar yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda, bitiruvchilarga dublikat shahodatnoma berilmaydi. Bitiruvchilar shahodatnomani elektron platformadan o'zi istagan vaqtda bepul qayta yuklab olishi mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayonlari raqamli kontekstda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish, virtual loyihalarida o'rganish o'quvchilarni fikrlashlarini yanada o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
2. Vaxobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish // pedagogika fanlari doktori diss. – T, 2016. – 260 b
3. Maktabgacha ta'lim vazirligining Mdo.uz saytidan olingan.

### **O'QUVCHILARNING "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANIDAN KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT-TA'LIM MUHITLARINING IMKONIYATLARI**

**L.S.Isroilova – NavDPI katta o'qituvchisi: PhDG.I.Temirova – NavDPI 2-kurs magistranti  
Sh.R.Komilova.NavDPI 3-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-ta'lim muhitlarining imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** kompetensiya, informatika va axborot texnologiyalari, axborot ta'lim muhiti, raqamli texnologiya.

**Аннотация.** В данной дипломной работе освещены возможности информационно-образовательной среды в формировании компетенций учащихся общеобразовательных школ в области "Информатика и информационные технологии".

**Ключевые слова.** Компетенция, информатика и информационные технологии, информационная образовательная среда, цифровые технологии.

**Abstract:** In this thesis, the possibilities of information-educational environments in the formation of competences of general secondary school students in the field of "Informatics and information technologies" are highlighted.

**Keywords.** competence, informatics and information technologies, information educational environment, digital technology.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning takomillashuvi tufayli umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining "Informatika va axborot texnologiyalari" faniga oid kompetensiyalarini shakllantirishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda.

O'quvchilarning "Informatika va axborot texnologiyalari" faniga oid zaruriy kompetensiyalarini shakllantirishning yangicha yondashuvlaridan biri – o'quv jarayoniga global tarmoq qidiruv xizmatlaridan, axborot-ta'lim muhitlaridan va ta'limiy portallardan foydalanishni joriy etishdan iborat.

Bu borada, ya'ni elektron ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning zaruriy kompetensiyalarini shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish nazariyasi va amaliyotiga oid A.A.Abduqodirov [1], U.Sh.Begimkulov [2], V.A.Brilyova [3], V.A.Kuklev [4], E.S.Matosov [5], U.M.Mirсанov [6, 7], K.Peters [8], U.N.Taylakov [9], I.A.Yuldoshev [10], YE.V.Yakushina [11] kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ularning tadqiqotlarida o'quvchi va talabalarning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishda, fanga oid zaruriy kompetensiyalarini shakllantirishda hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishda axborot-ta'lim muhitlari, virtual ta'lim platformalar muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Jumladan, U.M.Mirsanovning fikriga ko'ra, axborot-ta'lim muhitlari o'quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratadi: motivatsiyasini oshiradi; darsda bajarilgan amaliy topshiriqlar hajmini sezilarli darajada oshiradi; bilim, ko'nikma va malakalarni baholash usullari hamda tizimini soddalashtiradi; o'quv jarayonini tizimli tashkillashtiradi va dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi; sinfdan tashqari o'quv faoliyatini va mustaqil ishni samarali tashkil etish uchun zamin yaratadi [7; 44-b.]. U.I.Taylakovning fikriga ko'ra, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: ta'lim jarayonini individuallashtirish va differensiyalash; interaktiv aloqa muhitini hosil qilish; ta'lim oluvchi o'zini-o'z baholashni, ta'lim beruvchi esa ularni tizimli nazorat va tahlil qilish; turli o'quv axborotlarni kompyuterning dasturlari yordamida vizuallashtirish; o'rganilayotgan turli hodisa va jarayonlarni modellashtirish; kompyuterda turli amaliy ishlarni va loyihalarni bajarish; o'quvchining motivatsiyasini va qiziqishni orttirish [9].

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim va tarbiya jarayonida axborot-ta'lim muhitlarini joriy etish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyati, kreativ fikrlashi va zaruriy kompetensiyalarini shakllantirishi ilmiy asoslab berilgan.

Xususan, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-ta'lim muhitlaridan samarali foydalanish lozim. Buning uchun dastlab axborot-ta'lim muhiti tushunchasiga aniqlik kiritish lozim [12].

Ilmiy-metodik adabiyotlarda "axborot-ta'lim muhiti" tushunchasiga turlicha ta'riflar keltirilgan. Mazkur tushunchalarni bir-biridan farqlash, ularning ma'nosini soddalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bu o'quvchilarning yangi ta'lim natijalariga erishish omillarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi [12].

Xususan, L.N.Kechiyev, G.P.Putilov, S.R.Tumkovskiylarning fikriga ko'ra, axborot-ta'lim muhiti – bu o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan kompyuter vositalari va ularning ishlash usullari to'plamidir [13].

S.D.Deryabo, V.P.Lebedeva, V.I.V.Lobodchikov, V.A.Orlov, V.I.V.Rubtsov, V.A.Yasvinlarning ta'kidlashicha, "ta'lim muhiti" tushunchasining ta'rifi, uning tuzilishi, vazifalari, loyihalash va tekshirish usullari bo'yicha haligacha yagona pozitsiya shakllanmagan. Ularning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya va rivojlanish nafaqat ta'lim beruvchining yo'naltirilgan sa'y-harakatlari, individual psixologik xususiyatlariga bog'liq, balki ijtimoiy-madaniy sharoitlar bilan ham sezilarli darajada belgilanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan vositalar va resurslar tizimi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'kidlanadiki, umumlashtirilgan shakldagi axborot-ta'lim muhitlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini amalga oshirishni ta'minlaydigan har xil turdagi axborot tizimlarini ifodalaydi [12].

Keltirilgan ta'riflar asosida shuni aytish mumkinki, axborot-ta'lim muhiti – bu global tarmoqda fanga oid o'quv resurslarni giper bog'lanishlar orqali o'zida mujassamlashtirilgan va onlayn o'zini-o'zi baholashga, o'zaro ma'lumot almashishga, zaruriy ma'lumotlarni bulutli xizmatlar orqali saqlashga mo'ljallangan hamda ta'lim oluvchining individual shug'ullanishi uchun zaruriy o'quv vositalar bilan ta'minlovchi muhitdir.

Bu muhitda quyidagi faoliyat turlarini elektron (raqamli) shaklda amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashi kerak [12]:

- o'quv jarayonini rejalashtirish;
- o'qituvchi va o'quvchilarning ishlarini, o'quv jarayoni ishtirokchilari foydalanadigan elektron ta'lim resurslarini joylashtirish va saqlash;
- o'quv jarayoni borishini va boshlang'ich umumiy ta'limning asosiy o'quv dasturini o'zlashtirish natijalarini belgilash;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi, shu jumladan, masofadan turib internet orqali, ta'lim faoliyatini boshqarish muammolarini hal qilish uchun o'quv jarayonida hosil bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati;

– o‘quv jarayoni ishtirokchilarining global tarmoqidagi axborot-ta’lim resurslariga nazorat ostida kirishi, shuningdek, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va tarbiyasi masalalariga mos kelmaydigan ma’lumotlardan foydalanmaslik.

Axborot-ta’lim muhitlari foydalanuvchilar va tashqi tizimlar bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllantirilishiga mo‘ljallangan ochiq interfeyslarga asoslangan va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Shuning uchun, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining samarali o‘zaro hamkorligini, jahon axborot ta’lim resurslaridan foydalanishini hamda axborot mahsulotlariga inson ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydigan murakkab tarmoq tuzilmasi bo‘lgan jahon ta’lim axborot tarmog‘i (WWW) bilan integratsiyasini ta’minlovchi ochiq axborot-ta’lim muhitidan foydalanish samarali hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Toshkent, 2009. –146 b.

2Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007. – 280 b.

3Брылёва В.А. Развитие межкультурной компетенции студентов –лингвистов средствами виртуальной образовательной среды специального

4факультета // **Автореферат** диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Пятигорск, 2007. – 20 с.

5Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании // **Автореферат** диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Ульяновск, 2010. – 46 с.

6Матосов Э.С. Развитие методики формирования информационных и коммуникационных компетенций студентов непрофильных вузов с использованием ресурсов Интернет // **Автореферат** диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2009. – 24 с.

7Mirсанov U.M. Global Internet tarmog‘ida 5-6 sinf matematika fanidan elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish va foydalanish muammolari // Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Navoiy, 2018. – B. 6-8.

8Mirсанov U.M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematikani amaliy dasturlar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi (5–6-sinflar misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 190 b.

9Peters K. M-learning: positioning educators for a mobile, connected future // Mobile learning: transforming the delivery of education and training / ed. by M. Ally – AU Press, Athabasca University, 2009. – С. 113-132.

10 Taylakov U.N. Ta’lim muassasalarining yagona elektron axborot-ta’lim muhitini yaratish va joriy etish texnologiyalari // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2020. –143 b.

11 Yuldoshev I.A. Tarmoq texnologiyasi asosida “Informatika va axbopot texnologiyalari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish// Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Qarshi, 2018. –147 b.

12 Якушина Е.В. Методика обучения работе с информационными ресурсами на основе действующей модели Интернета // Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2002. –197 с.

13 Isroilova L.S. “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish” (8-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fani misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2022. – 127 b.

## ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI BAZASINI YARATISH VA MASOFAVIY TA'LIMDA FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Nukus davlat pedagogika instituti  
1-bosqich doktoranti. G.Joldasova

**Annotatsiya.** Masofaviy ta'lim kontseptsiyasi va uning zamonaviy jamiyatda tobora ommalashib bormoqda. Masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun samarali resurslarning ahamiyatini yoritib berish bugungi kunda dolzarb muomolarning biri bo'lmoqda. Bunda elektron ta'lim resurslarining to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish va uning didaktik imkoniyatlarini ochib berish orqali o'quvchilarga tegishli resurslardan foydalanishda duch keladigan muammolarga yechim topishdan iboratdir.

**Kalitso'zlar:** masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim platformalari, virtual sinflar, interaktiv multimedia, masofaviy laboratoriyalar va simulyatsiyalar.

**Аннотация.** Понятие дистанционного образования и его растущая популярность в современном обществе. Разъяснение важности эффективных ресурсов для поддержки дистанционного образования является сегодня одной из наиболее актуальных проблем. Он заключается в создании полной базы электронных образовательных ресурсов и поиске решения проблем, с которыми сталкиваются обучающиеся при использовании соответствующих ресурсов, путем раскрытия их дидактических возможностей.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, платформы онлайн-обучения, виртуальные классы, интерактивные мультимедиа, удаленные лаборатории и симуляции.

**Annotation.** The concept of distance education and its growing popularity in modern society. Highlighting the importance of effective resources to support distance education is one of the most pressing issues today. It consists in creating a complete database of electronic educational resources and finding a solution to the problems faced by students in using the relevant resources by revealing its didactic possibilities.

**Keywords:** distance education, online learning platforms, virtual classrooms, interactive multimedia, distance laboratories and simulations.

Bugungi kunda, masofaviy ta'limda elektron ta'lim resurslari ma'lumotlar bazasiga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Masofaviy ta'lim o'quvchilari tegishli resurslardan foydalanishda duch keladigan muammolarni muvaffaqiyatli qilish, elektron ta'lim resurslarining afzalliklari va imkoniyatlarini yoritib berish va shu bilan birga faqat an'anaviy o'quv materiallariga tayanib qolmasdan, elektron ta'lim resurslarining keng qamrovli ma'lumotlar bazasini yaratish hozirda dolzarb muomolarning biri ekanligi hech kimga sir emas.

Masofaviy ta'lim deganda o'quvchilar jismonan an'anaviy sinfda bo'lmagan, balki masofadan turib ta'lim oladigan ta'lim shaklini anglatadi. Didaktik imkoniyatlar deganda masofaviy ta'limda samarali ta'lim mazmunini ta'minlash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan potensial usullar va strategiyalarni nazarda tutadi. Masofaviy ta'lim mazmunini elektron vositalar orqali yetkazib berishni nazarda tutadi, bu o'quvchilar va o'qituvchilarga virtual ulanish imkonini beradi. Ushbu ta'lim usuli turli xil raqamli platformalarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan, vidiokonferensiya, onlayn munozara taxtalari va multimedia resurslari. Bu geografik to'siqlarni bartaraf etib, o'quvchilarga internetga ulangan istalgan joydan ta'lim olish imkonini beradi. U taqdim etayotgan moslashuvchanlik masofaviy ta'limni turli millatga mansub shaxslar orasida keng ommalashirdi. Masofaviy ta'limning asosiy afzalliklaridan biri bu moslashuvchanlikdir. Talabalar topshiriqlarni o'z tezligi va qulayligida o'rganishi va bajarishi mumkin. Bu ish yoki oilaviy majburiyatlari bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarga o'zlarining mavjud majburiyatlarini buzmasdan ta'limni jadvaliga moslashtirishga imkon beradi. Masofaviy ta'lim o'rganish tezligi jihatidan moslashuvchanlikni taklif qiladi. Talabalar oldindan yozib olingan ma'ruzalar, o'quv qo'llanmalar va boshqa o'quv materiallaridan o'zlariga qulay vaqtda foydalanishlari mumkin. O'qituvchilar o'z-o'zini baholash viktorinalari yoki o'z-o'zini o'rganish va uzluksiz baholash uchun topshiriqlar berishi mumkin. [2]



Moslashuvchan ta'lim texnologiyalari yordamida masofaviy ta'lim shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taklif qilishi mumkin. Bu texnologiyalar har bir talabaning ish faoliyatini tahlil qiladi va o'qitish mazmuni va tezligini individual ehtiyoj va maqsadlarga moslashtiradi. viktorinalar, nishonlar, peshqadamlar jadvali va mukofotlar kabi o'yin elementlarini o'z ichiga olish masofaviy ta'limni yanada qiziqarli va rag'batlantiradi. Gamifikatsiya (bu o'yin elementlarini ijtimoiy faoliyatning boshqa turlariga tatbiq etilishi) usullari faol o'rganish, raqobat va yutuqlarni tan olishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim ko'pincha raqamli darsliklar, elektron kitoblar va boshqa onlayn resurslarga tayanadi. Ushbu materiallarga istalgan vaqtda va istalgan joydan kirish mumkin, bu esa talabalarga o'z tezligida o'rganish va kerak bo'lganda tarkibni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, kengroq tushunchaga ega bo'lish uchun masofaviy ta'limga tegishli elektron resurslar bilan tanishib chiqsak:

**Onlayn ta'lim platformalari:** Masofaviy ta'lim keng qamrovli virtual o'quv muhitini ta'minlovchi onlayn ta'lim platformalariga tayanadi. Ushbu platformalar interaktiv multimedia kontenti, muhokama forumlari, chat xususiyatlari, onlayn baholash va taraqqiyotni kuzatish kabi bir qator didaktik imkoniyatlarni taklif etadi.

**Virtual sinflar:** Videokonferentsaloqa vositalaridan foydalangan holda o'qituvchilar jonli virtual darslarni o'tkazishi mumkin, bu erda talabalar real vaqt rejimida ishtirok etishlari va o'zaro muloqot qilishlari mumkin. Bu an'anaviy sinf tajribasini takrorlab, sinxron o'rganish va hamkorlikda muhokama qilish imkonini beradi.

**Vebinarlar va onlayn taqdimotlar:** Vebinarlar masofadan turib ma'ruzalar, taqdimotlar yoki seminarlar o'tkazish uchun samarali didaktik vositadir. Ular talabalarga rejalashtirilgan sessiyalarda qatnashish va jonli chat, so'rovnoma va savol-javob sessiyalarida qatnashish imkonini beradi. Vebinarlarni yozib olish va kelgusida foydalanish uchun ulashilishi mumkin.

**Munozara forumlari:** Onlayn munozara forumlari talabalar uchun asinxron ta'lim bilan shug'ullanish uchun platformani taqdim etadi. Ular savollarni yuborishlari, fikr almashishlari va tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilishlari mumkin. Munozara forumlari tanqidiy fikrlashni, hamkorlikni va bilim almashishni rivojlantiradi.

**Interaktiv multimedia:** Videolar, audio yozuvlar, simulyatsiyalar va animatsiyalar kabi multimedia elementlari talabalarining faolligi va tushunishini oshirish uchun onlayn kurslarga kiritilishi mumkin. Ushbu interfaol vositalar turli xil o'rganish uslublariga mos keladi va o'rganish tajribasini yanada dinamik qiladi.

**Masofaviy laboratoriyalar va simulyatsiyalar:** Amaliy mashg'ulotlar yoki tajribalarni talab qiladigan mavzular uchun masofaviy laboratoriyalar va simulyatsiya qilingan muhitlardan foydalanish mumkin. Talabalar tajribalar o'tkazish va amaliy tajriba orttirish uchun haqiqiy laboratoriya uskunalarini yoki kompyuterga asoslangan simulyatsiyalarga masofadan kirishlari mumkin.[1]

Masofaviy ta'lim afzalliklari bilan tanishib chiqsak:

– Sifatli ta'lim olish imkoniyati: Masofaviy ta'lim geografik jihatdan uzoqda joylashgan nufuzli universitetlar va ta'lim muassasalariga eshiklarni ochadi. Talabalar boshqa joyga ko'chmasdan butun dunyo bo'ylab taniqli universitetlar tomonidan taklif qilinadigan kurslar yoki daraja dasturlariga yozilishlari mumkin.

– Iqtisodiy samaradorlik: Masofaviy ta'lim orqali ta'lim olish an'anaviy ta'lim muassasasiga borishdan ko'ra ko'pincha tejamkorroq bo'ladi. Talabalar transport, turar joy va kampus jihozlari bilan bog'liq xarajatlarni tejashadi.

– Turli xil ta'lim imkoniyatlari: Masofaviy ta'lim talabalarga turli xil madaniy kelib chiqishi, demografiyasi va hattoki mamlakatlardagi tengdoshlari bilan bog'lanish imkonini beradi. Bu turli xil ta'lim muhitini rivojlantiradi va g'oyalar va istiqbollarni almashinuvini rag'batlantiradi.

– Shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasi: Masofaviy ta'lim individual ehtiyojlarga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taklif etadi. Talabalar o'zlarining qiziqishlari va martaba maqsadlariga mos keladigan kurslar va dasturlarni tanlashlari mumkin, bu esa ko'proq yo'naltirilgan ta'lim sayohatiga imkon beradi.

Texnologik taraqqiyot masofaviy ta'limning ommaviylikini oshirishga sezilarli hissa qo'shdi. Yuqori tezlikdagi internetning paydo bo'lishi, takomillashtirilgan videokonferentsaloqa platformalari va ta'limni boshqarishning murakkab tizimlari onlayn ta'limni qulay, qiziqarli va qiziqarli qildi. Umrbod

ta'limga bo'lgan talab bilan ko'p odamlar ishlash vaqtida o'z malakalarini oshirish yo'llarini izlaydilar. Masofaviy ta'lim ishlaydigan mutaxassislariga o'z martabalarini to'xtatmasdan yoki daromadlarini yo'qotmasdan o'z bilim va malakalarini oshirish imkonini beradi.[3]

Umuman olganda, masofaviy ta'lim ta'lim mazmunini samarali etkazib beradigan, o'quvchilarning faolligini rag'batlantiradigan va jismoniy sinf bo'lmagan taqdirda ham interaktiv o'rganish tajribasini osonlashtiradigan keng ko'lamlilik didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi.

### Foydalangan adabiyotlar:

1 Sh.A. Abduraxmanova "Elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari" darslik, T-2022

2 I. Begimkulov U. Sh., Djuraev R. X., Isyanov R. G., Sharipov Sh. S., Adashboev Sh. M., Soy M. N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot, Toshkent: - 2011

3 Zokirova F. M. va boshqalar. Elektron o'quv – metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: OO'MTB, 2010, 64-b

4 "Ta'limning turli bosqich va yo'nalishlarini raqamlashtirish va yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari" sho'basini

## QADRIYATLAR–YOSH AVLODDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILI

Jurakulova Hulkar

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti qoraqalpoq tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Har bir taraqqiy topgan, madaniyatli xalqning o'z tili, urf-odatlarini, an'anaviy moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi. Axborot xurujlari eng kuchli ta'sir vositasi bo'lgan globallashtirish jarayonida yosh avlodda insoniy burch va fazilatlarni shakllantirish, ma'naviyatni kuchaytirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosiy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** globallashtirish, axborot texnologiyalari, qadriyatlar, tarbiya, ma'naviyat.

**Аннотация.** Каждый развитый и культурный народ имеет свой язык, обычаи, традиционные материальные и духовные богатства. В условиях глобализации, когда информационные атаки являются мощнейшим средством воздействия, формирование человеческих обязанностей и качеств у молодого поколения, укрепление духовности, национальные и общечеловеческие ценности имеют первостепенное значение.

**Ключевые слова:** глобализация, информационные технологии, ценности, образование, духовность.

**Abstract.** Every developed and cultured nation has its own language, customs, traditional material and spiritual wealth. In the process of globalization, where national and universal values are of primary importance.

**Key words:** globalization, information technologies, values, education, spirituality. Information attacks are the most powerful means of influence, the formation of human duties and qualities in the young generation, and the strengthening of spirituality.

Globallashtirish davrida aholining barcha qatlamlari, shu jumladan yoshlarning faoliyati ham shiddat bilan o'sib borayapti. Yoshlar ma'naviyati yuksak, odob-axloqli, madaniyatli ma'rifatli kishilar sifatida kamol topishi lozim. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb hunarlarni egallaydigan, vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamisha asosiy masala hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, bunday sharoitda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlovchi ma'naviy va ijtimoiy kuch sifatida e'tibor qaratdilar. Yoshlarga oid davlat siyosati ana shu g'oyalar asosida yanada rivojlantirildi. Turli sohalarda qabul qilinayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan ishlar yangi avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan sharoitlarni yaratish, ta'lim tizimini takomillashtirish, yoshlarga berilayotgan e'tiborda o'z aksini topmoqda

Texnika, axborot texnologiyalari inson hayotining ajralmas (asosiy) qismiga aylangan davrda yoshlar orasida sog'lom ma'naviy muhitni yaratish, ularni axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishlari va ta'lim-tarbiya jarayonlarini davr talablari asosida yanada kuchaytirish talab etiladi. Har

bir taraqqiy etgan, madaniyatli xalqning o'z tili, urf-odatlarini, an'anaviy moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi. Insonda til, fe'l-atvor bilan birgalikda odamga qon bilan kiruvchi an'ana-qadriyatlar bor. Yoshlarni ongini chalg'itish uchun katta kurashlar kechayotgan dunyodagi axborot kurashlari oqibati yoshlarni turli g'oyaviy va mafkuraviy to'siqlarga olib kelmoqda. Ma'naviyati kuchli, ma'nau boy kishini hech kim, hech qanday kuch yengolmaydi! Yoshlar tarbiyasida milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimizga muhabbat ruhini mustahkamlash asnosida ma'naviyatini boyitish dolzarb vazifa sanaladi. Milliy qadriyatlar esa ma'naviyat ozuqa oluvchi ildizlaridir. Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qadriyatlar yo'q joyda insoniylik bo'lmaydi. Insoniylik bo'lmasa, xalq, odamzod yo'q bo'ladi, tanazzulga uchraydi. Ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalari bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida nihoyatda dolzarb masalaga aylangan. Insonda mustahkam iroda, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabi'atga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish lozim. Bunga turli yo'llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi. Yosh avlodda qadriyatlar asosida ma'naviyatni shakllantirish bizning oldimizdagi asosiy masala bo'lib qolmoqda. Insonlarning fe'l-atvori har xil. Biroq tuirmush insonning xatti-harakatlarini ma'lum chegarada, ma'lum me'yorda bo'lishini taqozo qiladi. Ana shu talab, chegara odob-axloqdir. Odob-axloq insoniyat tarixidagi butun tajribalarga suyangan holda yaratilgan. Ularning zamirida urf-odatlar turadi. Bu urf-odatlar qadriyatga aylanib boraveradi. Dunyoning ko'plab davlatlari singari mamlakatimizning ertangi kelajagini qanday bo'lishi yoshlarga berilayotgan ma'naviy tarbiyaning, ularning qalbi va ongiga singib borayotgan bunyodkor g'oyalarning va shu bilan birga yoshlarimizning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bog'liqdir. Ma'naviyat doimo milliy bo'ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo'lmaydi, chunki har bir millatning mustaqil ma'naviy dunyosi, ma'naviy qiyofasi bir paytning o'zida ichki mohiyatiga, o'zak tomirlariga ko'ra, o'zga xalqlar ma'naviyati bilan umumiy jihatlarga, butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo'ladi.[1] Buning uchun hammaga dasturilamal bo'luvchi kitoblar bizning asosiy tayanchimiz hisoblanadi. Ajdodlar tomonidan yaratilgan va bizga qadar yetib kelgan ma'naviy boyliklar bu-ular tomonidan yaratilgan ertak, rivoyat, doston va boshqa xalq og'zaki ijodi namunalari hamda hozirgi davrdagi yozma adabiyot namunalari ham ma'naviy boylik sanaladi. Bunday rivoyatlarning badiiy asarlarda qo'llanishi asar mazmun-mohiyatini boyitib, falsafiy mushohadaga undaydi o'quvchini. Yoshlarda ajdodlarimizning urf-odatlarini, milliy qadriyatlarining mohiyatini bilish, qadriga yetishi va o'zlashtirishni shakllantiradi. Bu esa inson shaxsiyati va ma'naviyati rivojida samarali va ta'sirchan vosita sanaladi. Yoshlarda ajdodlarimizning urf-odatlarini, milliy qadriyatlarining mohiyatini bilish, qadriga yetishi va o'zlashtirishni shakllantirish kerak. Bu esa inson shaxsiyati va ma'naviyati rivojida samarali va ta'sirchan vosita sanaladi. Chunki ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar ham biz uchun ma'naviy obodlik, ma'naviy ko'prikdir. Qadriyatlar ma'naviyat ildizidir. Tarbiya ana shu ildizlardan ozuqa oladi. Milliy qadriyatlarni yoshlikdan singdirib borish kishida insoniy tuyg'ular, yuksak fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imomnazarov M., Lapasov M., Sobirova M.. Ma'naviyatshunoslik. T.2012. 33b.

### **SCRATCH MUHITIDAN FOYDALANISHNING AMALIY KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARNI IMKONIYATLARI**

**Nasirova Shaira Narmuradovna**

**Navoiy davlat pedagogika instituti, professor, [nasirova\\_61@mail.ru](mailto:nasirova_61@mail.ru)**

**Jo'rayeva Dilnavoz Erdonovna**

**Navoiy davlat pedagogika instituti, magistr, [dilnavozje@gmail.com](mailto:dilnavozje@gmail.com)**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini Scratch muhitidan foydalanishning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda elektron ta'lim resurslarini imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Scratch, maktab, muhit, ko'nikma, ta'lim, resurs, tizim, texnologiya

**Аннотация.** В данной статье рассматривается информация о возможностях электронных

образовательных ресурсов в формировании практических навыков использования среды Scratch у учащихся общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** Scratch, школа, окружающая среда, навык, образование, ресурс, система, технология

**Annotation** In this article, information on the possibilities of electronic educational resources in the formation of practical skills of using the Scratch environment of general secondary school students is highlighted.

**Key words:** Scratch, school, environment, skill, education, resource, system, technology

Mamlakatimizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlardagi kabi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining, salohiyatli, tizimli rivojlanishi yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. Hozirgi davr o'z navbatida jamiyatimiz oldiga muhim masalalarni hal qilish vazifasini yuklamoqda. Belgilangan vazifalarni hal qilish har bir fuqaroning bu jarayonda shaxsiy ishtirokiga, ijodiy mas'uliyatli munosabatiga hamda manfaatdorligiga bevosita bog'liq [1].

Ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati o'ta salmoqlikdir. Pedagogik va axborot texnologiyalarini o'rganish, amalda qo'llash ta'lim-tarbiya sifatini oshirish talabidan kelib chiqadi. Pedagogik texnologiyaning mohiyati – ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quvchi va talabalarning o'zlashtirishi hamda uning atijalari suratini tezlashtirishi, ijobiy natijalarga erishishni kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonni anglatadi [2]. Hozirgi zamonda ilmiy fikrlashning, hamda ilmiy texnika o'sishi keskin va intensiv ro'y bermoqda. Shundan kelib chiqqan holda o'qituvchilar zamonaviy bilimlar bilan hamnafas bo'lishlari shart va zarurdir. Respublikamizda ta'limni kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish masalasi M.M.Aripov, U.SH.Begimqulov, N.I.Taylaqovlar, U.Yuldashvlar va o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kompyuterlardan foydalanishni tashkil etishning vosita va usullari, masofaviy ta'lim va uni tashkil etishda N.A.Muslimov, A.D.Asqarovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktab har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Ammo yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan barcha maktab fanlari jamiyatning zamonaviy talablariga javob bera olmaydi. Shuning uchun o'quv muassasalari soni tobora ko'payib bormoqda, kelajakda bolaga umidvor bo'lgan IT-kasbini olish uchun ma'lumot bazasini yaratishi mumkin bo'lgan bunday tanlovli fanlarni maktab o'quv dasturiga kiritmoqdalar.

Multimedia texnologiyalariga asoslangan o'qitishning yangi usuli pedagog-o'qituvchilarimizdan bu sohada yangicha tajriba, bilim, mahorat va ko'nikmalarni ham talab qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida tayyorlangan elektron ko'rinishdagi metodik va didaktik adabiyotlardan foydalanishni keng ko'lamda amalga oshirish davr taqozosi sanaladi.

Scratch – bu bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan vizual voqealarga yo'naltirilgan dasturlash muhiti hisoblanadi. Scratch – bu bolalarga o'zlarining animatsion va interaktiv hikoyalarini, taqdimotlarini, modellarini, o'yinlarini va boshqalarni yaratishga imkon beruvchi yangi dasturlash muhitidir.

Scratch muhiti Lego o'yinlari g'oyasidan foydalanadi, undan kichik yoshdagi bolalar ham eng oddiy tuzilmalarni yig'ishi mumkin. Ammo oddiy roliklar yaratish orqali dasturlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirishingiz va kengaytirishingiz mumkin bo'ladi. Scratch 8-16 yoshdagi o'smirlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu yangi texnologik muhit bolalarga kompyuter ijodida o'zlarini namoyon etishlariga imkon beradi. Scratch maktab o'quvchilarini dasturlashga o'rgatish uchun yangi o'quv muhiti sifatida ishlab chiqilgan. Scratch dasturida siz roliklar yaratishingiz, turli xil o'yinlar ishlab chiqishingiz, tashqi ko'rinishini o'zgartirishingiz, ekran atrofida harakat qilishingiz, obyektlarning o'zaro ta'sir shakllarini o'rnatishingiz mumkin. Bu dastur obyektga yo'naltirilgan muhit bo'lib, unda dasturlar Lego konstruktorlari kabi, bloklar yordamida yaratiladi. Foydalanuvchi turli obyektlardan foydalanishi va unga muvofiq keluvchi turli harakatlarni bajarishi mumkin:

- tashqi ko'rinishini o'zgartirish;

- obyektни ko‘chirish;
- boshqaruv bloklari ichida harakatlanish va o‘zgartirish buyruqlarini joylashtirish; tovushlarni qo‘shish va hokazo [3].

Elektron ta‘lim resurslaridan o‘quv jarayonida to‘liq foydalanish natijasida quyidagilarga erishiladi:

- 1) xotiraga qabul qiladilar, angelaydilar, yig‘adilar, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydilar;
- 2) bevosita o‘qituvchi hamkorligida tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, namuna bo‘yicha amaliy harakatlarni bajaradilar;

3) muammolarni yechish jarayonida mustaqil izlanadilar, kutilayotgan natijaga erishishning yo‘l va vositalarini mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Zamonaviy dasturlash vositalarida tayyorlangan elektron ta‘lim resurslarining sifati darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ta‘lim berish jarayoni shuncha natijali bo‘ladi. O‘qitishning interfaol usullarini bilish kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta‘lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan va biladigan, o‘ylayotgan narsalarini tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Elektron ta‘lim resurslari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik o‘quvchini dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga olib keladi, fanga bo‘lgan qiziqishlari doimiyligini ta‘minlaydi [4].

Ta‘lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta‘lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Bunda albatta, ta‘lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, kompyuter, multimedia, internet, masofali o‘qitish, yagona axborot muhiti va axborot kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o‘zining yaqqol samarasini bermoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмудова М. А., Насирова Ш.Н. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training December 2019-V ISSN 2181-9750, Урганч, № 5, 2019.–С.1-8.

2. Nasirova Sh. N., Xoliqov M.M., Jurayeva D.E. Computer animation is a tool for development of creative skills. “Ta‘lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika konferensiyasi, 2023-yil 30-may, Toshkent, 88-89 bet

3. Nasirova Sh. N., Jurayeva D.E. **Scratch muhitidan foydalanishning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.** “Boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirishning global masalalari: muammo, tadqiqot” mavzusida xalqaro konferensiya, Navoiy, 2023

4. Nasirova Sh. N., Jurayeva D.E. Raqamli ta‘lim tizimida multimediali texnologiyalardan foydalanish. “Илм, фан ва сифатли таълим: долзарб муаммолар, ютуқлар ва инновацион технологиялар” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya, 2023 йил 9-10 июнь, Нукус, 323-324 бет

### INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI.

**Kambarova Dilfuza, University of economics and pedagogy  
Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi**

Maqolada oiladagi sog‘lom muhit, barkamol farzandlarni tarbiyalashning dolzarb vazifalari, farzandlar kamoli va ularning kelajagiga e‘tibor masalalari yoritilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** sog‘lom avlod, ma‘naviy bo‘shliq, ma‘naviy ozuqa, tarbiyaviy ta‘sir, insonparvarlik mezoni

В статье освещены здоровая атмосфера в семье, актуальные задачи воспитания всесторонне развитого ребенка, внимание к развитию детей и их будущему.

**Ключевые слова и фразы:** здоровое поколение, духовный разрыв, духовное питание, воспитательное воздействие, гуманитарный критерий.

The article covers the healthy environment in the family, the urgent tasks of bringing up well-rounded children, attention to children's development and their future.

**Key words and phrases:** healthy generation, spiritual gap, spiritual nourishment, educational influence, humanitarian criterion

Oila jamiyatning bir bo'g'ini. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat shunchalik farovon bo'ladi. Oila deb atalmish muqaddas maskanda oliy darajadagi qadriyatlar shakllanadi. Farzand tarbiyasi murakkab jarayon hisoblanib, uning o'chog'i oilaga borib taqaladi. Tarbiya ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi balki ijtimoiy burchidir. Tarbiyaviy ta'sirlarning shakl va uslublaridan to'g'ri va unumli foydalanish har tomonlama sog'lom farzandlar tarbiyasiga zamin hozirlaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan oiladagi muhit o'rtasidagi mutanosiblikning yo'qligi bola ijtimoiylashuvining buzilishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, farzandlar kelajagiga befarq qarab bo'lmaydi. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoiyluk o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zaminida ta'lim-tarbiya yotadi.

Ezgulik deb atalmish hislarning mitti urug'lari bola qalbiga oilada, oila muhitida tashlanadi. Agar oilada, maktabda tarbiyaga mustahkam poydevor qo'yilgan bo'lsa, yosh avlodning turli salbiy ta'sirlarga berilish hollari kamayishi tabiiy. Jamiyat taraqqiyotiga farzandlar kamoli orqali erishiladi. Bu oddiy haqiqat. Demak, barkamol farzandlarni tarbiyalash har bir davrning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan va bu masalaga ijodiy yondashuv dolzarbligicha qolaveradi. Farzandlarning barkamol ruhiy dunyosi, ularning ma'naviy-axloqiy jihatlari, jismonan sog'lom bo'lishi oiladagi sog'lom muhitga bog'liq. Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazadigan tarbiya o'chog'idir.

Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat insonparvarlik mezoniga asoslangan bo'lishi, birgalikdagi muloqatga erishishga chorlashi kerak. Bu esa pedagogik ta'sirni tashkil etish uchun zarur bo'lgan ko'priknı vujudga keltiradi. Oiladagi nosog'lom muhit ta'sirida bolada ijobiy sifatlar o'rniga salbiy xislatlar, insoniylikka zid bo'lgan illatlar shakllanadi. Oiladagi osoyishtalik, inoqlik, sog'lom muhit esa bolada komillik xislatlarini shakllanishiga yordam beradi. Jamiyat taraqqiyotiga farzandlar kamoli orqali erishiladi. Bu oddiy haqiqat.

Oiladagi nosog'lom muhit ta'sirida bolada ijobiy sifatlar o'rniga salbiy xislatlar, insoniylikka zid bo'lgan illatlar shakllanadi. Oiladagi osoyishtalik, inoqlik, sog'lom muhit esa bolada barkamollik xislatlarini shakllanishiga yordam beradi. "Yosh go'dakni nazoratsiz qo'yish ulug' xatodir" – deydi Rizouddin ibn Faxruddin "Oila" risolasida. "Bolani qattiq g'azablanish, qo'rquqlik, xafalik, uyqusizlikdan saqlash orqali uning xulqidagi mo'tadillikka erishiladi. Yomon xulq mijoz buzilishiga ham olib keladi" – deydi Ibn Sino o'z asarlarida.

Ota-ona bolaning imkoniyatlariga to'liq baho bera olmasligi natijasida unda mustaqillik, mas'uliyat hissi rivojlanmay qolishi mumkin. Bola atrofdagilardan ma'naviy ozuqa oladi, ularga taqlid qiladi, xulq-odobni o'zlashtiradi.

Ota-onaning

- farzandini nazoratsiz qoldirishi;
- farzand bilan ularning o'rtasida muomalaning yetishmasligi;
- bolaning mehnat jarayoniga jalb etilmasligi;
- tarbiyaviy qarovsizligi

oqibatida bolada yolg'izlik hissi paydo bo'ladi. Bunday holat bolada ma'naviy bo'shliqning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Ota-ona birinchi murabbiy, oila esa bosh tarbiya maskanidir. Psixologlarning fikricha, farzand tarbiyasi bola tug'ilmasidanoq, ona qornidan boshlanar ekan. Ayolning homiladorlik paytidagi osoyishta hayoti, kitoblar mutolaasi tug'ilajak farzandning zukko va aqlli bo'lishiga zamin hozirlar ekan. Farzandini kelajagini rejalashtirayotgan ona sog'lom hayot kechirishi va yaxshi niyatlar qilishi lozim.

Farzandlar kelajagiga e'tiborsizlik, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanmaslik ota-ona tomonidan kechirilmas gunohdir. Yosh avlodni oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, o'z kuchi va salohiyatiga ishonadigan, fikri teran, e'tiqodini sog'lom qilib tarbiyalashni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Oilalarda ham ma'naviy bo'shliq bo'lmasligi, yoshlarning nazoratsiz qolib umrlarini maqsadsiz, befoyda o'tkazishlariga yo'l qo'ymaslik kerak.

Inson jinoyatchi yoki tarbiyasiz bo'lib tug'ilmaydi. U oilada faqat ko'krak suti, non-choy, kiyim-bosh bilangina emas, ta'lim-tarbiya, tushuncha va g'oyalar bilan ham parvarishlanishi lozim. Ota-onalar ma'naviy jihatdan qanchalik boy bo'lsalar, ular o'z farzandlariga nisbatan shu qadar jiddiy va mas'uliyatli

bo'ladilar. Farzandlaridan yaxshi xulq va odobni talab qilish uchun ota-onaning o'zi insoniylik, odamiylik fazilatlariga ega bo'lishi kerak. O'zida yo'q, o'zi muhtoj bo'lgan axloq-odobni farzandidan talab qila olmaydilar. Muhimi, oilada ma'naviy bo'shliq bo'lmasligi, bolalarning nazoratsiz qolib umrlarini maqsadsiz, befoyda o'tkazishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Zero, hadisi sharifda "Hech bir ota-ona o'z farzandiga xulqu-odobdan buyukrok meros bera olmaydi", deyiladi. Shu bilan birga "Farzandingizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar" deb farzand tarbiyasida ota-onalar o'rnini belgilab o'tilgan. Vaqtdan unumli foydalana bilmaslik, har kunlik faoliyatni izga sololmaslik yoshlar ongida bo'shliq paydo bo'lishiga olib keladi. "Musibatlarning eng kattasi vaqtni behuda ketkazishdir", – deyiladi hadis ilmida. Darhaqiqat, behuda ketgan vaqtning biror daqiqasini qaytarib bo'lmaydi. Hadisda bir bor berilgan umrning har daqiqasidan unumli foydalanib qolishga da'vat etiladi.

Tarbiyasi og'ishganlik nimadan kelib chiqadi? E'tiborsizlikdan, oiladagi nosog'lom muhitdan, bola imkoniyatlaridan to'liq foydalana bilmaslikdan. Farzandlarimiz xoh maktabda o'qisin, xoh litsey yoki kollejda o'qisin kunning ikkinchi yarmida bo'sh bo'ladi. Bolaning bandligini ta'minlash tarbiyasi og'ishganlikni oldini olish demak! Shunday ekan, ota-ona farzandining kunlik rejasini tuzib qo'yishi, bolaning qo'shimcha darslarga, to'garaklarga borishini tashkil qilishi, ota-bobolarimizning ustoz-shogird yo'nalishidagi ishlarini davom ettirishlari lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, sog'lom avlodni tarbiyalash jarayonida har tomonlama barkamol inson shaxsi, ya'ni XXI asr insoni shakllanadi. Bolalikdanoq o'zini buyuk ishlarga hozirlagan sog'lom insongina mamlakat tayanchi bo'la oladi. Sog'lom avlodni tarbiyalashni barchamiz oiladan boshlashimiz kerak. Har birimiz insoniy burchimizni ado etsak istalgan maqsadga yetishishimiz aniq va muqarrardir!

Demak, tarbiya sohasi islohati bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi kuchga aylanishi kerak. Biz kim bo'lmaylik, qaysi sohada faoliyat ko'rsatmaylik, ma'naviyat-ma'rifat ishlariga, ya'ni yetuk insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish ishlariga daxldor ekanligimizni unutmashimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N. Egamberdieva. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent-2009y
2. A. Muxsueva. Oila pedagogikasi. Toshkent-2016y

#### **DEVELOPMENT OF PHYSICAL ACTIVITIES AMONG SCHOOLCHILDREN**

the student of Nav SPI  
English language and literature faculty  
Khaitova Shakhnoza  
Scientific adviser  
Ma'mura Burkhanova

**Abstract.** One of the primary objectives of physical culture and sports in Uzbekistan, concerning the upbringing of the upcoming generation, includes enhancing both physical and moral health, as well as fostering the development of intellectual and physical working capacity in children and teenagers in their curriculum and academic environment. A significant challenge is the lack of motivation and interest among schoolchildren during physical education classes, contributing to a decline in motor activity among the upcoming generation. The conventional and extracurricular methods of organizing physical culture activities in educational institutions often fall short in fostering a satisfactory level of cognitive engagement among schoolchildren.

**Key words:** physical education, sports culture of a personality, junior schoolchildren, cross- culture

**Introduction.** The primary objectives of physical culture and sports in Russia, concerning the upbringing of the upcoming generation, include the improvement of physical and moral health, as well as the development of intellectual and physical working capacity in children and teenagers. Research analysis related to the physical culture upbringing of schoolchildren indicates that physical education at general education establishments should not only focus on increasing physical readiness indices, improving children's physical development, and enhancing their health but should also be directed towards forming a sports culture in one's personality, emphasizing axiological aspects of physical culture, and mastering sports [3, 8].

The lack of motivation and interest among schoolchildren during physical culture lessons is identified as a significant factor contributing to a decrease in motor activity among the upcoming generation. Traditional and extracurricular methods of organizing physical culture activities in educational establishments fall short in providing a sufficient level of cognitive activity among schoolchildren. These forms of physical culture activity organization struggle to instill a genuine desire for physical exercises among children and fail to cultivate a broader understanding of physical and sports culture.

Physical activities of an individual are cultivated during the formation of the inner world under the influence of objective and intersubjective structures of cultural-educational potential, as well as the values and technologies of physical culture and sports. It results from the accumulation of experiences in physical culture and sports activities, infused with personal meaning. Considering the social structure of an individual, the main components of sports culture are defined as cognitive, reflexive-activity-based, social-communicative, emotional-volitional, and axiological. The upbringing of the physical culture of an individual among schoolchildren should occur through various forms of physical culture activities directed towards their physical development. Simultaneously, the motivational sphere of pupils should be regarded as a system-forming factor for all upbringing effects, shaped during social-psychological, intellectual, and motor upbringing processes.

In the context of research in physical education among schoolchildren, the focus is on searching and substantiating technologies and methodologies based on sport-oriented forms of physical education organization. Integrating sports and physical culture means in the overall process of education and child development can be significantly beneficial, with physical exercises playing a significant and positive role.

The practical significance includes increased effectiveness of physical exercises practitioner s' sports activities, the creation of a methodology for forming sports culture among junior schoolchildren with high effectiveness and reliability, and the recommendation of methodical approaches for realization in physical culture and sports-oriented additional education establishments.

Physical exercises, as one of the directions in the world philosophical perception, contributes to ethics, life values, and notions of fairness, usefulness, and harm. It serves as a means for spiritual self-development, socialization, and the formation of a sports lifestyle. The basic techniques in taekwondo not only focus on self-defense and hand-to-hand combat but also serve as a means for cultivating sports culture by achieving various objectives related to health, motor skills, etiquette, self-exercise, and moral-volitional qualities.

The lesson's main segment focused on mastering the basic technique and fostering moral-volitional qualities, emphasizing the acquisition of fundamental elements of physical activities, balance maintenance, concentration, self-esteem, and motor action control. Attention was given to the semantics of movements, correct stances, and the ability to maintain balance during shifts in weight, both in attack and defense.

In today's dynamic educational landscape, fostering an interactive and multifaceted approach to learning English is essential. Integrating physical activities into language lessons not only promotes active engagement but also enhances retention and comprehension among schoolchildren. Here are some innovative physical activities tailored to make learning English an enjoyable and memorable experience for young learners:

"Grammar Charades" is a lively and engaging game that combines the elements of traditional charades with grammar concepts. Players act out various grammatical elements such as parts of speech, punctuation marks, sentence structures, or language rules without using any words. The objective is for the other players to guess the grammatical term being portrayed. It's a fun and educational way to reinforce grammar rules while encouraging creativity and teamwork.

"Vocabulary Relay Races" is an engaging and competitive activity designed to enhance students' vocabulary retention and comprehension skills. Participants are divided into teams, with each team stationed at one end of a designated playing area. At the other end are sets of vocabulary cards or word lists.



The relay begins with the first player from each team racing to the vocabulary station. They must quickly read a word from the list or card and then correctly define its meaning or use it in a sentence before returning to tag the next teammate.

Once tagged, the next player repeats the process, continuing until all team members have had a turn. The team to complete the relay first, with all words correctly defined or used, wins the race. Vocabulary relay races promote teamwork, quick thinking, and vocabulary recall in a fun and competitive environment, making them an effective learning tool in educational settings.

"Simon Says" is a classic game that tests players' ability to follow instructions accurately. One person, typically designated as "Simon," gives commands to the other players, such as "Simon says touch your toes" or "Simon says hop on one foot." The twist is that players should only obey commands that begin with the phrase "Simon says." If Simon gives a command without saying "Simon says" first, players must not obey; those who do are out of the game. The last player remaining becomes the next Simon. It's a fun and interactive game that promotes listening skills and quick thinking.

Physical activity plays a crucial role in the healthy development of children, providing numerous benefits for their physical, mental, and social well-being. In today's world, where sedentary lifestyles and screen time are increasingly prevalent, encouraging children to engage in regular physical activities, including various sports, is more important than ever. From improved physical fitness to enhanced cognitive function, the positive effects of physical activity, coupled with sports participation, extend far beyond the playground.

One of the primary benefits of regular physical activity and sports participation for children is the promotion of physical health and fitness. Engaging in sports such as soccer, basketball, swimming, and gymnastics helps children develop strength, flexibility, and cardiovascular endurance. Each sport offers unique physical challenges and opportunities for skill development, catering to children with different interests, abilities, and fitness levels. Moreover, sports participation instills healthy habits and encourages lifelong physical activity, contributing to the prevention of obesity, diabetes, and other chronic health conditions.

Beyond physical health, sports participation also promotes mental well-being and cognitive development in children. Research has shown that engaging in sports can improve mood, reduce stress and anxiety, and enhance concentration and focus. Participating in team sports fosters a sense of belonging and camaraderie, providing children with a supportive social network and opportunities for friendship and peer support. Additionally, sports teach valuable life skills such as discipline, resilience, and goal-setting, which are essential for success both on and off the field.

To maximize the benefits of sports participation for children, it is essential to provide opportunities for exposure to a variety of sports and physical activities. Each sport offers unique benefits and challenges, catering to different interests, abilities, and developmental stages. Some children may thrive in team sports such as soccer, basketball, or volleyball, where cooperation, communication, and teamwork are emphasized. Others may prefer individual sports such as swimming, track and field, or martial arts, which allow for self-expression, autonomy, and personal achievement. By exposing children to a diverse range of sports and physical activities, parents, caregivers, and educators can help them discover their interests, develop their talents, and build confidence in their abilities.

Parents, caregivers, and educators play a critical role in supporting children's sports participation and creating environments that foster a love of movement and fitness. By providing encouragement, logistical support, and positive reinforcement, adults can help children overcome barriers to sports participation, such as time constraints, financial limitations, and lack of access to facilities. Additionally, adults can serve as role models for active living, demonstrating the importance of prioritizing physical health and well-being in daily life.

**Conclusion.** The concluding part aimed to transition the functional systems of the organism into a rehabilitation regimen. The load gradually decreased, incorporating stretching and relaxation exercises, respiratory exercises, meditation, outdoor games, rituals, training exercises, and reflection.

The foundation of forming sports culture among junior schoolchildren lies in cultivating a sustained interest in taekwondo, fostering subculture within the collective, and the collaborative efforts of class collective, parents, and physical culture teachers. The focus is on shaping qualities such as responsibility,

independence, persistence, sociability, and the appreciation for physical culture and sports activities, traditional means of physical culture, and collective work. The results of the pedagogical experiment validate the effectiveness of this approach.

Physical readiness tests at the beginning of the experiment showed no significant differences between the experimental and control groups. However, at the experiment's conclusion, physical exercise indices among the experimental group were notably higher, indicating the program's effectiveness in enhancing physical readiness. Both groups showed positive dynamics, though the experimental group demonstrated more substantial improvements.

By the end of the school year, after the pedagogical experiment, significant improvements were observed in various physical fitness indices. The results indicate that physical activity not only contributes to the development of physical and coordination qualities but also instills moral-ethical principles, humanism, and spiritual self-development, making it an effective means for sports culture formation.

The experiment demonstrated an increase in the level of culture-sports knowledge among junior schoolchildren, fostering interest in taekwondo and cultivating subculture within the collective. Physical culture teachers were successful in forming qualities such as responsibility, independence, persistence, sociability, and the desire for physical culture and sports activities. The general physical fitness indices improved significantly in the experimental group, compared to the control group, which showed only insignificant improvements.

### **Reference**

1. Aybalaev A.Zh., Imanaliev U.K. Martial arts as the means of eastern motor cultures study. Vestnik fizicheskoy kul'tury I sporta. 2018: 122-126.
2. Bakulaev S.E., Simakov A.M., Momot D.A. Aspects of an integral readiness formation of young taekwondo practitioners. Lesgafta. 2018; 1: 13-17.
3. Bezhanyan M.P., Nanaytseva I.F. The peculiarities of a game method in physical education of junior schoolchildren. Nauka – 2020. 2022; 4(58): 191-198.
4. Books on child development and physical education, such as "Developmental Physical Education for All Children" by Frances Cleland Donnelly and "Physical Education for Young Children: Movement ABCs for the Little Ones" by Rae Pica.
5. Journals such as the Journal of Physical Activity and Health, Pediatric Exercise Science, and Research Quarterly for Exercise and Sport.
6. "Physical Activity Guidelines for Americans" published by the U.S. Department of Health and Human Services.
7. Simakov A.M. The content of physical readiness of young taekwondo practitioners at the stage of initial training. Uchenye zapiski universiteta imeni P.F. Lesgafta. 2018; 4(62): 93-97.
8. Educational websites like KidsHealth.org, ActiveForLife.com, and SHAPE America (Society of Health and Physical Educators).

## **ASTRONOMIYA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VOSITALARI IMKONIYATLARI**

**M.H. Norqulova Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi**  
**Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada astronomiya fanini o‘qitishda turli xil axborot kommunikatsiya vositalarini darsda qo‘llash va uning ahamiyati, pedagogning axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish mahorati haqida so‘z yuritildi, ularning bir nechta vazifalari ko‘rib chiqildi

**Kalit so‘zlar:** axborot, kompyuter-telekommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiya, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari hamda kosmik tadqiqotlarning ko‘pgina yutuqlari tufayli astronomiya tez rivojlanayotgan fanlardan biridir. Oxirgi 15-20 yil ichida teleskopozlikda, nurlanish qabul qilgichlarni yasash sohasida katta yutuqlarga erishildi. Natijada astronomik bilimlar chuqurlashdi va kengaydi. Tekshirishlar davom etmoqda, astronomiyani qancha

chuqur o'rganganimiz sari yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Bularning hammasi astronomiya kursini har yili qayta qarab, yangiliklar bilan to'ldirib borishni taqozo etadi. Astronomik ta'lim, axborot texnologiyalariga muhtoj soha bo'lib, buning bir nechta obyektiv va subyektiv jihatlari mavjud, bular:

- o'quvchilar oddiy, kundalik hayotda kuzatmaydigan yoki kuzatsa ham shu darajada sekin va muntazam ro'y beradigan jarayon va hodisalarki, ularga o'quvchi e'tiborini qaratish va fikrini ushlab turish qiyinligi;

- kosmik tadqiqotlarning shiddat bilan rivojlanishi hamda bunday tekshiruvlarda raqamli texnikaning qo'llanilishi;

- hozirgi zamon astronomik kuzatish, tekshirish ishlari to'liq axborot texnologiyalari muhitida bajarilishi;

- bugungi kunning kosmik teleskoplari to'plagan ma'lumotlar internet axborot banklarida saqlanishining yo'lga qo'yilganligi va nihoyat oddiy ta'lim muassasasi sharoitida shular kabi barcha astronomik kuzatish, tekshirish ishlarini bajarib bo'lmazligidir.

Ta'lim tizimining rivojlanishini hozirgi holatini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Darhaqiqat, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi. Bunda pedagogik jarayonning mazmuni takomillashadi, o'qitishning innovatsion modellari joriy etiladi, shuningdek, talaba va professor, o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tashkil etiladi. Har qanday ta'lim muassasida o'quv jarayonini axborotlashtirishning zaruriy sharti sifatida zamonaviy axborot texnologiyalarini ham boshqaruvda, ham ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish bo'yicha yagona strategiyani ishlab chiqish hisoblanadi.

O'quv jarayonini axborotlashtirish texnologik, pedagogik va tashkiliy ishlar bilan bog'liq qiyin va ko'p qirrali masalalarni yechishni talab etadi. Ta'lim muassasasining axborot ta'lim muhitini yaratish sof texnik masalagina emas. Buning uchun muassasadagi tegishli ilmiy-metodik, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarni tizimli yondashuv asosida ishga solish talab etiladi. "Axborot – ta'lim muhiti" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Ularning tahlili mazkur tushunchani aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ta'minlovchi axborot-texnik, o'quv-metodik tizimlar majmuidir degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Axborot – ta'lim muhitini ta'riflashda bir qancha o'zaro farq qiluvchi qarashlar mavjud, jumladan:

- inson bilan ta'lim muhitining subyekt sifatida uzviy bog'langan axborot, texnik, o'quv-metodik ta'minotning tizimli tashkillashtirilgan majmuasi;

- an'anaviy va elektron axborot tashuvchilar, virtual kutubxonalar, taqsimlangan ma'lumotlar bazalari, o'quv-metodik majmualarini mujassamlashtiruvchi kompyuter – telekommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida qurilgan yagona axborot ta'lim muhiti.

Fikrimizga ko'ra, axborot ta'lim muhitini boshqarishda tizimli yondashuvni joriy qilish talab etiladi. Ushbu yondashuvning metodologiyasi va algortimi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Zamonaviy ta'lim mazmuni asosida ta'lim muassasasi axborot-ta'lim muhiti maqsadini belgilash. Pedagogik faoliyatda ta'lim maqsadi tizimlashtiruvchi vazifani bajaradi. Aynan belgilangan maqsad ta'lim mazmuni, maqsadi va tashkiliy shakllarini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim berish bosqichlarining, ta'lim berish funksiyalarini kompyuterga yuklangan holda amalga oshirish uchun mazkur funksiyalarni mufassal tahlil qilish eng avvalo ta'lim faoliyatini aks ettirishning asosiy parametrlarini ajratib ko'rsatish lozim. Bu esa o'z navbatida, ta'lim faoliyatining mazmuni va ta'lim faoliyatini aks ettirish jarayoniga ta'lim oluvchilarni jalb qilish xususiyatlarini tadqiq qilishni, ta'lim masalalarini mufassal tahlil qilishni talab qiladi.

Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr sifatida kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyadan mas'uliyatni oshirishni pasaytirib yuboradi. Bunday boshqaruvchi o'qituvchi o'z kasbiga puxta yondashgan holda darslarni tashkil etsa bir umr hurmat-e'tiborda bo'ladi. Bugun kunda axborot ko'lami juda kengayib ketdi. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa oldingi o'rgangan bilimlari yetarli bo'lmay qoldi. Dars mavzulari kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanish, fanlararo bog'langan holda ekologik-gigiyenik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur.

Pedagogik texnologiyaning eng asosli negizi – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘qishning maqsadidan kafolatlangan natijaga erishish uchun texnologiya tushuniladi. O‘quv jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishida har bir ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikni tashkil etish va olishi, har tomonlama ishlab chiqarish natijaga erishish, o‘quv jarayonida o‘quvchi o‘quvchilar mustaqil fikr olishlari, ijodiy ishlay olishlari, izlanishlari, tahlil eta olishlari, o‘zlari ishlab chiqara olishlari, o‘zlariga, guruhlarga, guruhlarga baho bera olishlari, o‘qituvchi ma‘muriyati faoliyati uchun imkoniyatlar va imkoniyatlar yarata olishi.

O‘rganish jarayonining asosi olinishi. Har bir dars, mavzu, o‘quv fanining o‘ziga xos texnologiya bo‘lib, yangi o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchidan kelib chiqqan holda bir muammo ishlangan, oldindan tuzilgan va kafolatlangan natija berishiga tuzatish pedagogik jarayondir.

Innovatsion texnologiya – (innovatsiya inglizcha “innovate” – yangilik ishlab chiqarish, yangilik, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san‘at, mahoratva “logos” – fan) ta‘lim-tarbiya usullari, metodlari va usullariga yangicha yondashish deganidir. Innovatsiya texnologiya pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘rganishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Malikova Muhabbat, Sayfullaeva G. I MODERN FORMS OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 1 JANUARY 2024 UIF-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337| SCIENTISTS

2. Rashidova Nilufar, Sayfullayeva G. Volume 1, Issue 7, November, 2023 ISSN (E): 2810-6385 Website: <https://academiaone.org/index.php/6>

3. Malikova Muhabbat, Bozorova Aziza, Sayfullayeva G. I. Relevance of Independent Educational Activities of Students in the Credit–Modular Education System// *Open Academia: Journal of Scholarly Research*,1(8), 40–42. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/4/article/view/297>

4. G.I.Sayfullayeva, H.R.Shodiyev Kredit- modul modul tizimida fanlarni integratsion yondashuv asosida o‘qitishning afzalliklari// *Academic Research in Educational Sciences Multidisciplinary Scientific Journal* September, Volume 3 | Issue 9 | 2022

5. Shodiyev Hamza Rozikulovich, Sayfullayeva Gulhayo Masofaviy ta‘limda yer mavzusini integratsion yondashuv asosida topish metodikasi//*Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES) VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675*

#### **MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION SHAKLLAR ASOSIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIMNI TASHKIL ETISH**

**Iqtidorli talaba: Mahmudova Sharofat Xusniddin qizi (O‘zbekiston)**

**NavDPI, Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabasi**

**Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna(O‘zbekiston)**

**NavDPI, Maktabgacha ta‘lim kafedrasi dotsenti**

Bugungi kunda texnika asrida bolalarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta‘lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta‘limda amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta‘lim, modul - kredit tizimi, masofali o‘qitish, blendedlearning (aralash o‘qitish) va mahorat darslari ta‘limning innovatsion shakllari sifatida e‘tirof etilmoqda.

Ta‘limning innovatsion xarakterga ega bo‘lgan shakllariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:



**Bizga ma'lumki, o'yin** – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi.

Biz o'z talqinimiz jarayonida faqat amaliy o'yinlar haqida fikr yuritamiz:

**Amaliy o'yinlar** – muayyan harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkonini beradigan o'yinlar.

**II. Didaktik o'yinlar:** o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi.

**III. Syujetli o'yinlar:** pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o'zaro bog'liqligiga asoslangan o'yinlar sanaladi. Bu kabi o'yinlar odatda pedagogik muammolarning yechimini izlash, ta'im-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadida qo'llaniladi.

**IV. Rolli o'yinlar:** ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

**V. Ishbilarmonlik o'yinlari:** ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka hamda sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar.

**VI. Imitatsion o'yinlar:** ishlab chiqarish korxonalarini, ish o'rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida bolalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar.

**VII. Dramatik o'yinlar:** (psixologik va ijtimoiy dramalar): psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar bo'lib, ular tashkil etilishi, metodik xususiyatlariga ko'ra rolli va ishbilarmonlik o'yinlariga yaqin[1].

Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin subyekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari-mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan[3].

O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadim- qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. "Maktabgacha yoshdagi bola o'yin faoliyatida o'qish va mehnatga tayorlanadi. Yosh ulg'aygan sari

o‘yinning roli biroz kamayib boradi. O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi”[4].

Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi.

“O‘yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, nutqini, xatti-harakatlarini bilib oladi”[5].

Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hordiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan.

Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta‘lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda sullaniladi:

O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma‘lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta‘minlaydi. Ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur.

O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zining hayotda o‘rnini belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi[2].

O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o‘yin jarayonida shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O‘quv faoliyatining asosiy motivi - bu o‘quv - bilish motivi bo‘lsa, o‘quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa bolada o‘zi tanlangan va asoslarini o‘zlashtirayotgan kasbga bo‘lgan qiziqishi sanaladi. Bola o‘quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko‘nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqish olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o‘qitish jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish alodida adamiyat kasb etadi. O‘yinli texnologiyalari, shuningdek, bolalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o‘stiradi.

Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o‘yinlar o‘yin texnologiyalari deb nomlanadi.

O‘yin texnologiyalari ta‘lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma‘lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta‘lim jarayoni ishtirokchilari (ta‘lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a‘zolari, ta‘lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va boshqalar) sifatida turli rollarni bajarish bola (o‘quvchi)larga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma‘lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai-nazaridan yordam beradi.

O‘quv mashg‘ulotlaridan o‘yinlar va o‘yinli vaziyatlarni qo‘llash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

O‘quv jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni, roli, shuningdek, o‘yin elementlari hamda ta‘limning o‘zaro uyg‘unligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan pedagogik o‘yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o‘yinlar o‘zida suyidagi belgilarni namoyon qiladi

Har qanday o‘yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o‘yinlar ham o‘zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo‘ladi.

Ta‘lim muassasalarida ko‘p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o‘yinlari foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinli texnologiyalarining asosini bolalarning faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi.

Pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko‘nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida bolalar turli holatlardan o‘quv materialini tushunish, uning negizida ma‘lum ko‘nikma, malaka va sifatni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'yin jarayonida hech kim halaqit qilmasligi kerak. Bordi-yu, zaruriyat bo'lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarning harakatlarini tuzatishi, ularni to'g'ri yo'naltirishi mumkin.

Har qanday jarayon singari o'yin yakunida uning tashkil etilishi, o'tkazilishi yuzasidan muhokama o'tkazilishi zarur. Muhokama chog'ida o'yin ishtirokchilari, tomoshabin (jamoaning o'yinda ishtirok etmagan a'zolari), ekspertlar o'yinning tashkil etilishi va o'tkazilishi yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildiradi.

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

O'yin texnologiyalarining metodik ta'minoti loyiha, o'yinning mezonlari, ish qog'ozlari (metodik ko'rsatmalar), o'yin mohiyatini yorituvchi hujjatlar (ssenariy) kabilardan iborat. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan o'yinlar sub'ekt faoliyatini taqozo etadigan hamda mashina (m: kompyuter) o'yinlari tarzda farqlanadi. O'yinlar chogida turli vositalar (kompyuter, imitatsion trenajorlar, sport anjomlari (koptok, arqon, halqa), xomashyolar (plastilin, yumshoq o'yinchoqlarni yasash uchun materiallar, rangli qalamlar, ish qog'ozlari, o'yinchoqlar, legolar, konstruksiyalar, dekoratsiyalar va b. kerak bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Indiaminov N. va b. Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim texnologiyalari. 2014(8).
2. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish./ B.Yu.Xodiyev tahriri ostida. – T.: «Iqtisodiyot», 2009.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika T. : Ilmziyo. 2019.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni. 2013 y.
5. Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU -2013y.
6. Elektron ta'lim resurslari  
[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДА ВИРТУАЛЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИ ВА АХБОРОТ МАДАНИЯТИ**

**Орзикулов Комилжон Шермадат ўғли**  
**Навоий давлат педагогика институти**  
**“Тарих” таълим йўналиши 4-босқич талабаси**  
**Илмий раҳбар: Джунаев Фарход Абдухамидович**  
**Навоий давлат педагогика институти**  
**“Тарих” кафедраси ўқитувчиси**

**Аннотация:** Ушбу мақолада ҳозирги глобаллашув жараёнларида ахборот майдонининг кенгайиб бораётгани, бу шароитда ёшлар онгини зарарли маълумотлардан ҳимоя қилиш борасида амалга оширилиши лозим бўлган чоралар ҳамда тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** виртуаллашув, ахборот макони, маънавий тарбия, ижтимоий тармоқлар, интернет, маънавий таҳдидлар.

**Аннотация:** В данной статье приведены меры и рекомендации, которые должны быть реализованы в современных процессах глобализации с целью расширения информационного поля, защиты сознания молодежи от вредной информации в этих условиях.

**Ключевые слова:** виртуализация, информационное пространство, духовное образование, социальные сети, интернет, духовные угрозы.

**Annotation:** This article provides measures and recommendations that should be implemented in the current globalization processes in order to expand the information field, protect the minds of young people from harmful information in these conditions.

**Keywords:** virtualization, information space, spiritual education, social networks, internet, spiritual threats.

**КИРИШ.** Бугунги кунда давлатимизнинг асосий мақсадларидан бири келажак пойдевори бўлган ёшларни ҳуқуқий, маънавий, маданий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва ахлоқий етук мустақил фикрловчи баркамол авлод қилиб вояга етказишдир.

Ҳар бир халқда, ҳар бир жамиятда ўзига хос маънавий тарбия тизими мавжуд. Чунки маънавий тарбия инсоннинг ўзлигини сақлашга, унинг ботиний оламини маърифий бойитишга хизмат қилади. Маънавий тарбиясига эътибор қаратилмаган миллат бугуни ва эртасини бой беришга маҳкумдир. Шу маънода, ўз ҳақ-ҳуқуқини танийдиган, кучи ва қобилиятига таяниб яшайдиган, атрофида рўй бераётган воқеа-ҳодисаларга мустақил муносабатда бўладиган, шу билан бирга, ўз шахсий манфаатларини мамлакат ва халқ манфаатлари билан уйғун ҳолда тасаввур этадиган эркин шахсни тарбиялаш учун барча зарур шарт-шароитларни яратиш муҳим аҳамият касб этади.[1:45]

**АСОСИЙ ҚИСМ.** Бугунги жаҳон ахборот майдони кенгайиб бораётган шароитда, ёшлар онгини зарарли маълумотлардан ҳимоя қилиш мақсадида ахборот тармоғини чеклаб қўйиш, уларга бир томонлама тарбия бериш замон талабига ҳам жамият мақсадларига ҳам тўғри келмайди. Интернетдан олинаётган хабарлар ёшлар маънавий тарбияси, онгига фақат салбий таъсир кўрсатиши мумкин, деган фикрларга нисбатан Биринчи Президентимиз И.А.Каримовнинг қуйидаги фикрларига таяниш лозим: "...соғда қилиб айтганда, интернет бу катта бир дўкон. Дўконга борганда, одам хоҳлаган молини сотиб олади. Масалан, биз бозорга ўзимиз истаган, манфаатимизга хизмат қилувчи буюмни сотиб олгани борамиз. Интернетни ҳам кишилар эҳтиёжи ва манфаати учун хизмат қилувчи ахборот бозори деб англаш керак".[2:63] Демак, ёшларни маънавий жиҳатдан шундай тарбиялаш лозимки, улар интернет – ахборот бозорига кирганда фақат ўзи, эл-юрти учун зарур, фойдали, маънавий асосларга даҳл қилмайдиган нарсани олишсин.

Ҳозирги кунда виртуаллашув жараёни қуйидаги мақсадларни амалга ошириш оқибатида шаклланади:

- виртуал мулоқот, яъни Интернет мегаполисида ахборот коммуникацион техникалар воситасида фойдаланувчилар ўртасида маълумотлар алмашиш, бир-бирига психологик ёки ижтимоий таъсир кўрсатиш алоқа ўрнатишда;

- эрмак ва хордик чиқариш, (дўстлар билан тармоқли ўйинларни ўйнаш ҳамда видео-ролик ёки бошқа турли мавзулардаги расмларни тарқатиш учун);

- билиш мақсадида (глобал тармоқдаги электрон кутубхонлар ва ахборотлар базасидан маълумотлар олиш учун);

- бошқа мақсадларда, масалан, турли ижтимоий ёки физиологик эҳтиёжларни қондириш ва ҳоказолар.[3:163]

Ёшларга интернетдан, ахборотдан фойдаланиш, ахборот маданиятини ўргатишда дунёнинг қайси бурчагидан қандай маълумот келмасин, қандай маънавий тажовуз таҳдид солмасин, ҳар қандай ҳолатда ҳам маънавий-руҳий жиҳатдан огоҳ ва хушёр, турли ахборий хуружлардан ўзларини йўқотиб қўймайдиган баркамол шахсларни шакллантириш бу соҳадаги маънавий тарбиянинг асосий мезони бўлиши лозим.

Тарбия қаерда сушт бўлса, шу ерда турли нохуш иллатлар тарқалиб бошлайди, ёш, ҳаётий тажрибаси кам ёшлар турли ғаразли оқимларнинг таъсирига тушиб қолади.

Онгли инсон борки, ҳаётининг ҳар лаҳзасида ё ахборот олади, ё уни идрок этади ва ёки узатади. Ушбу уч жараённинг тўртинчиси - кераксиз ахборотдан халос бўлишдир.

Ёшларда ахборот маданиятини ривожлантириш юқорида санаб ўтилган тўрт босқичли жараён ичида яшаш ҳамда фаолият юритишга замин яратиш билан бир қаторда, ушбу жараён доимий ёрдамчига айланади. Тараққий топган давлатларда ахборот маданияти (инфоэтика, медиаэтика, медиатаълим ва ҳоказо) алоҳида фан, алоҳида муаммо, алоҳида педагогика, алоҳида сиёсат даражасига чиқмоқда. Илмий марказлар, олиму мутахассислар ушбу муаммолар теварагида ихтисослашган ҳолда, юз бераётган ҳолатни ўрганишмоқда, таҳлилий асарлар яратишяпти. Бу бежиз эмас.



Ёшларимизни мана шу виртуал оламдаги маънавий таҳдидлардан асраб қолиш ҳақида сўз борганда Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг қуйидаги сўзлари ёдимизга тушади: “Бугун ҳаёт янгича фикрлаш ва ишлаш, миллий “ақл марказлари”ни шакллантиришни талаб этмоқда. Афсуски, атрофдаги барча сиёсий-ижтимоий жараёнларни чуқур тушуниб, таъсирчан тилда етказиб берадиган таҳлилчи ва экспертларимиз жуда кам. Бундай вазиятда жамиятни маънавий таҳдидлардан ҳимоя қилиш борасидаги илмий-амалий тадқиқотларни тубдан қайта кўриб чиқиш зарур. Шу маънода, Маънавият ва маърифат, “Тараққиёт стратегияси”, Ислом цивилизацияси марказлари, ижтимоий-гуманитар йўналишдаги тадқиқот институтлари ҳақиқий “ақл марказлари”га айланиши керак.[4]

Ҳозирги кунда ёшларнинг маънавий ва жисмоний ривожланишига салбий таъсир кўрсатадиган ахборотлардан ҳимоя қилиш долзарб масала бўлиб қолмоқда.

Америкалик олим Э.Тоффлер “Учинчи тўлқин” асарида “Инсоният ортда қолдирган йўл уч босқичдан иборат”, деган фикрни илгари суради. Яъни, қишлоқ хўжалиги, саноат ҳамда ҳозирги ахборот тамаддунлари.[5:94] Мантиқан ўйлаб қаралса, ҳозирданок тўртинчи тўлқин сифатида ахборот маданияти юзага чиқмоқда. Эндиликда одамларнинг, оилаларнинг, миллий қадриятларнинг - инсониятнинг ривож ва истиқболи маданиятга бевосита боғлиқ бўлиб қолмоқда.

Социолог олимлар узоқ кузатув ва таҳлилларидан сўнг, жинсий хатти-ҳаракатлар миллий-маънавий тафаккур заифлашган, миллий анъаналарга риоя қилиш сустлашган, тарихий хотира унутила бошлаган ҳамда она тилининг қўлланилиши камайган ҳудудларда кўпроқ содир бўлади, деган хулосага келган.

Маълумки, ахборот истеъмоли ижтимоий, маънавий эҳтиёжларни қондиришга қаратилган ходисадир. Ҳар қандай ахборотни истеъмол қилишдан аввал унинг сифати, фойдаси ва зарарли томонлари ҳамда бошқа шу каби хусусиятлари инобатга олиниши зарур. Ахборот маданияти глобаллашув жараёнларининг характерли хусусиятларидан бири бўлган, интернет тармоғи жадал ривожланиб бораётган ҳозирги шароитда, айниқса, муҳим аҳамият касб этади.

**НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМАЛАР.** Бугунги кунда турли диний экстремистик оқим ва халқаро террорчилик ташкилотлари “odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “Vkontakte” каби ижтимоий тармоқларида фаол тарғибот-ташвиқотларини олиб бориб, ислом динини нотўғри ва ўз мақсадларига хизмат қиладиган шаклда талқин этиш орқали ҳамда динга сиёсий тус бериб ҳокимиятни қўлга киритишга ҳаракат қилиб келмоқда. Шу ўринда таъкидлаб ўтиш лозимки, бугунги кунда ижтимоий тармоқлардан фойдаланаётган ҳар бир шахс ўзи амал қиладиган мафкурани тарқатувчиси ва тарғиботчисига айланиб қолмоқда. Ахборотни қабул қилувчи ўзи, атрофидагилар, халқи ва юрти манфаатларини ҳимоя қилиши, шунга мос маълумотларни танлашни билиши, ўзлаштириши ва тарқатиши лозим бўлади.

Олиб борилган илмий кузатишлар ҳамда тадқиқотлар давомида биз бугун ёшларга “Бу ахборотни ким тақдим қилмоқда?”, “Нима учун тақдим қилмоқда?” ва “Қандай мақсадда тақдим қилмоқда?” деган саволларни ўз-ўзига бериши ҳамда унга асосли жавоб топиш кўникмасини шакллантириш лозим бўлади деб ҳисоблаймиз. Ана шундагина турли ғоялар таъсирига тушиб қолиш эҳтимоли камайиб, тақлиф этилаётган маълумотларга кўр-кўрона эргашишнинг олди олинади.

Айни вақтда, жамиятнинг ахборотлашув жараёнлари кенг имкониятлар тақдим қилиши билан бир қаторда, қўйидаги муаммоларни ҳам келтириб чиқаради:

Биринчидан, текширилмаган, ноҳолис маълумотларнинг кенг тарқалиши эҳтимоли ортади. Яъни, Интернет тармоқлари муаллифлардан масъулиятни чеклайди, шунга мувофиқ Интернет журналистикаси ривожланмоқда.

Иккинчидан, махфий, шахсий маълумотларнинг ноқонуний равишда эълон қилинишига олиб келади. Бунда баъзан моддий манфаатдорлик ёки кўзланган аниқ мақсадга эришиш, жумладан, бирор шахсни обрўсизлантириш назарда тутилади.

Учинчидан, дин ниқобидаги экстремизм, миссионерлик ҳамда “оммавий маданият” тарғиботи ортади. Бу эса маънавиятга, миллий ва диний қадриятларга, азалий урф-одат ва анъаналарга қарши қаратилган тўғридан-тўғри таҳдиддир.

Тўртинчидан, маънавий, миллий қадриятларга путур етади. Масофавий мулоқот, фақат хурматдан иборат муносабат шакли ота-онага хизмат, яқинлар дийдорига интилиш, ҳашар, муҳтожларга моддий ва маънавий ёрдам кўрсатиш каби қадриятларимизга маълум даражада зиён етказди. Шу сабабдан юртимизда қадриятларга садоқат, миллийликка хурмат туйғулари тарғиб қилинади.

**ХУЛОСА.** Юқоридагалардан келиб чиққан ҳолда шундай хулоса қилиш мумкинки, ахборотни истеъмол қилаётган ҳар бир шахс олаётган маълумотини қайта текшириб, уни асосли ёки асоссиз эканини аниқламай туриб, ўша маълумотга қараб иш тутиш турли муаммо ва жавобгарликларни келтириб чиқариши мумкин. Чунки бунда хабар тарқатаётган кишининг фарзали мақсадини амалга оширишига замин яратиб қўйилади.

Шунингдек, дунёнинг турли минтақа ва ҳудудларида рўй бераётган ижтимоий-сиёсий жараёнлар, зиддиятли тўқнашувларга теран қараш ҳиссини ошириш, ҳар қандай кўринишдаги таҳдидларга қарши маънавий-маърифий ишларни замон талаблари асосида ташкил этиш, айниқса бу борада келажагимиз ҳисобланган ёш авлодни, бир сўз билан айтганда ҳар биримиз учун муқаддас бўлган оиламизни дин ниқоби остидаги ёт ғоялар таъсиридан асраш учун бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этишимиз лозим.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. Монография. Тошкент «Адолат» 2016.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент “Маънавият” 2008.
3. Плешаков В.А. Киберсоциализация человека: от Homo Sapiens’а до Homo Cyberus’а. - Москва, 2012.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 19 январ куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши.
5. Элвин Тоффлер. Третья волна. – Москва. «Издательство АСТ». 2004.

### **TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING SHAKLLARI**

**Hazratova Dilorom Madat qizi**  
**Matematika informatika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi**  
**Ilmiy rahbar: Informatika kafedrasi o'qituvchisi**  
**Navruzov Baxtiyor Ixtiyorivech**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'limda raqamli texnologiyalar yordamida nimalarga erishish mumkinligi aytilgan va ayrim tatbiq etishning shakllarga to'xtalgan. Jumladan interaktiv dars usullari, raqamli ta'lim platformalari, virtual ta'lim muassasalari, tajribaviy o'qitish, individual o'qitish kabi shakllar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv, dars, usul, raqamli, ta'lim platformalari, virtual ta'lim, tajribaviy o'qitish, individual, motivatsiya.

**Annotation.** This article tells what can be achieved with the help of digital technologies in education and touches on some forms of implementation. Among them, forms such as interactive teaching methods, digital educational platforms, virtual educational institutions, experiential teaching, and individual teaching are shown.

**Key words:** interactive, lesson, method, digital, educational platforms, virtual education, experiential learning, individual, motivation.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается, чего можно достичь с помощью цифровых технологий в образовании, и затрагиваются некоторые формы реализации. Среди них показаны такие формы, как интерактивные методы обучения, цифровые образовательные платформы,

виртуальные образовательные учреждения, экспериментальное обучение и индивидуальное обучение.

**Ключевые слова:** интерактив, урок, метод, цифровые, образовательные платформы, виртуальное образование, экспериментальное обучение, личность, мотивация.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida farmoning ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish ustuvor bo‘limini o‘z ichiga olgan farmoni tasdiqlandi. Ushbu bo‘limning O‘zbekiston Respublikasi hukumati farmoniga kiritilishi yangi ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalarining muhimligini namoyish etadi. Aytish joizki, mazkur taraqqiyot strategiyasi ta‘lim dasturimizga bevosita daxldor. [1]

Ta‘limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish shakllariga quyidagi shakllar misol qilish mumkin va ular bir-birdan qo‘llanish bilan farqlanadi. Keling ularni ko‘rib chiqamiz.

**Интерактив дars usullari:** Raqamli texnologiyalar, interaktiv dars usullari orqali o‘quvchilarga o‘zlarining o‘rganish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi. Masalan, interaktiv ta‘lim dasturlari, online darslar, va interaktiv dars materiallari orqali o‘quvchilar darsga qatnashish va o‘zlashtirishini oshirishadi.

**Raqamli ta‘lim platformalari:** Raqamli ta‘lim platformalari, o‘quv jarayonini boshqarish va o‘quvchilarga ma‘lumotlarni taqdim etish uchun tashqi platformalar yoki dasturlar hisoblanadi. Bu platformalar o‘quvchilarga dars materiallarini, vazifalarni, va amaliy mashqlarni taqdim etish, shuningdek, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi aloqalarni oshirishga yordam beradi.

**Virtual ta‘lim muassasalari:** Raqamli texnologiyalar, virtual ta‘lim muassasalari orqali o‘quvchilarga o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Virtual ta‘lim muassasalari, virtual haqiqiyat (VR) va simulyatsiya texnologiyalari yordamida o‘quvchilarni virtual mehmonxona, laboratoriya, yoki xodimlik maslahatchisi bo‘lgan muassasalarda o‘rganishga imkon beradi.

**Tajribaviy o‘qitish:** Raqamli texnologiyalar, tajribaviy o‘qitish va amaliyotga o‘qitishni oshirish uchun ham foydalaniladi. Bu shaklda, virtual laboratoriyalar, simulatsiya dasturlar, va boshqa texnologik vositalar orqali o‘quvchilar amaliy mashqlar va tajribalar o‘rganishadi.

**Individual o‘qitish:** Raqamli texnologiyalar, o‘quvchilarga shaxsiy o‘quv yo‘nalishlarini tayyorlash va boshqarish imkonini beradi. Personalizatsiya, o‘quvchilarning ma‘lumotlarini va o‘zlashtirishini hisobga olgan holda, shaxsiy o‘quv yo‘nalishlarini tayyorlash va taqdim etish uchun foydalaniladi.

Bu shakllar, ta‘lim sohasidagi raqamli texnologiyalarni o‘rganish, amaliyotga o‘tkazish, va ta‘limning samaradorligini oshirishda keng jihatdan foydalaniladigan usullardir. Raqamli texnologiyalar ta‘lim sohasini yanada innovatsion va interaktiv qilishda katta o‘rin egallaydi.

**Xulosa qilib aytganda,** Raqamli texnologiyalar, o‘quvchilarning darslar va vazifalarga qatnashishi, ma‘lumotlarni o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun ilg‘or muhit yaratishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqtirishini oshirish, o‘rganish motivatsiyasini oshirish va ta‘lim jarayonida jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fayzullayeva D.U. O‘qituvchilar tayyorgarligining mazmuni, tuzilishi va rivojlanish darajalarini belgilashda aqlli texnologiyalarni qo‘llash, Ta‘limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari kon
2. Rakhmonova A., E‘zoza A. Informational technologies in the modern classrooms. – 2023

# PERSUASION AND MANIPULATION OF THE PEOPLE'S CONSCIOUSNESS THROUGH ADVERTISING

IAKOBCHUK GALINA PAVLOVNA  
LINGUISTIC OF BUSINESS COMMUNICATION  
BAIKAL SCHOOL OF BRICS OF IRKUTSK NATIONAL RESEARCH TECHNICAL  
UNIVERSITY  
IRKUTSK REGION, IRKUTSK CITY

**Abstract:** This work explores the impact of advertising on individuals' beliefs, values, and behaviors. It delves into the dual nature of advertising, examining its potential to inform and raise awareness about social issues while also acknowledging its capacity to manipulate desires and perpetuate unrealistic standards.

**Аннотация:** В этой работе исследуется влияние рекламы на убеждения, ценности и поведение людей. В ней раскрывается двойственная природа рекламы, исследуется ее потенциал в информировании и повышении осведомленности о социальных проблемах, а также признается ее способность манипулировать желаниями и увековечивать нереалистичные стандарты.

**Xulosa:** ushbu asar reklamaning shaxslarning e'tiqodlari, qadriyatlar va xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganadi. U reklamaning ikki tomonlama tabiatiga kirib boradi, uning ijtimoiy masalalar to'g'risida ma'lumot berish va xabardorlikni oshirish imkoniyatlarini o'rganadi, shuningdek, istaklarni manipulyatsiya qilish va real bo'lmagan standartlarni abadiylashtirish qobiliyatini tan oladi.

**Keywords:** persuasion, manipulation, advertising, consciousness, beliefs, values, behaviors, social issues.

**Ключевые слова:** убеждение, манипуляция, реклама, сознание, убеждения, ценности, поведение, социальные проблемы.

**Kalit so'zlar:** ishontirish, manipulyatsiya, reklama, ong, e'tiqod, qadriyatlar, xatti-harakatlar, ijtimoiy masalalar.

## Introduction

It is clear that the power of influencing and manipulating people's consciousness is significant. It is up to individuals to be aware of these tactics and make informed decisions based on their own beliefs and values. It is a powerful tool that can be used for both good and bad purposes. However, it is essential to consider the ethical implications of these practices and strive towards creating a society where freedom of thought is respected.

## Problem

The problem of influencing and manipulating people's consciousness through advertising is a complex issue that has been discussed for centuries. It refers to the ability of individuals or groups to control the thoughts, beliefs, and behaviors of others without their knowledge or consent.

## Hypothesis

Advertising has a different hidden meaning.

## Object and subject of research

Overton Window and advertising

## The primary objective

To find out whether advertising persuades and manipulates people's consequences.

## Tasks

1. Find out how media affects people's minds.
2. To analyze the methods of the "Overton Window" from the side of the destruction of the cultural university.
3. Consider coronavirus advertisements for signs of the Overton method.
4. Find other advertisements that use the Overton method in fashion industry.
5. To summarize the results of the research.

## The main part

## Theoretical section

### *The influence on people can be negative and positive*

In our daily lives, we encounter people who try to influence us in different ways. There are many sources of influence on people, including family, friends, media, and society. All of them can shape our beliefs, values, and behaviors in various ways. We are bombarded with messages through TV, movies, social media, and advertising that shape our perceptions of ourselves and the world around us. It is important to be aware of the potential negative effects of these mediums and to use them in moderation.

### *Advertising as a way to influence on people's conscience*

**Advertising** - is business of trying to persuade people to buy products or services (Cambridge Dictionary). Moreover, advertising is a powerful tool that can influence people's conscience. It has the ability to shape our opinions, beliefs, and attitudes towards certain products or services.

Advertisements are everywhere around us. They can be seen on television, in magazines, on billboards, and even on social media platforms. Advertisements use various techniques to grab the attention of their target audience and persuade them to purchase the advertised product or service.

Advertising can also influence our perception of what is normal or desirable. For example, when we see ads featuring thin, beautiful models, we may start to believe that this is what we should look like. This can lead to body image issues and even eating disorders in some cases.

### *The Overton Window is a tool for destroying any cultural university*

The Overton window is a concept that refers to the range of ideas that are considered acceptable or mainstream in a particular society at a given time. It is named after Joseph Overton, who developed the idea while working at a think tank in the United States.

According to the Overton window theory, there are certain ideas that fall within the "window" of what is politically feasible or socially acceptable, while others are considered too extreme or radical to be taken seriously. The window can shift over time as public opinion changes or new voices enter the political arena.

The Overton window is an important concept for understanding how ideas and policies are perceived in a particular society. By recognizing the limits of the window and working to shift it, individuals and groups can influence public opinion and shape the direction of social and political change.

Overall, the Overton Window is an important concept to understand in the world of advertising. By staying attuned to the changing attitudes and beliefs of consumers, companies can position themselves in a way that resonates with their target audience and helps them stay relevant in an ever-changing marketplace.

## Practical Research Section

### *The Overton Window on the example of the coronavirus pandemic*

The coronavirus pandemic has brought this concept into sharp focus, as we have seen a shift in what is considered acceptable and mainstream in terms of public health measures and government intervention.

At the start of the pandemic, many people were skeptical about the severity of the virus and resistant to measures such as wearing masks and social distancing. However, as the death toll rose and hospitals became overwhelmed, these measures became more widely accepted and even mandated by governments around the world. This shift in the Overton window was due in part to the influence of experts and public health officials who were able to make a compelling case for the necessity of these measures.

However, there has also been a backlash against these measures, with some people pushing back against what they see as excessive government intervention and infringement on personal freedoms. This highlights the ongoing tension between individual rights and the collective good, which has been a recurring theme throughout the pandemic.

### *The scandalous Balenciaga advertisement*

Balenciaga's recent campaign featured images of young children wearing adult clothing and striking provocative poses. It sends a dangerous message about the sexualization of children and can contribute to the normalization of pedophilia. It is important for companies to consider the impact of their advertising on society, particularly when it comes to children. While fashion brands have a right to

creative expression, they also have a responsibility to ensure that their advertising does not promote harmful behaviors or attitudes.

It is important to pay attention to the objects on the table and the fact that the child is standing exactly in the center of the photo in front of the open window.

In conclusion, the use of children in advertising is a contentious issue, and the Balenciaga campaign is just one example of how it can be problematic. It is crucial for companies to think carefully about the messages they are sending through their advertising and to ensure that they are not contributing to harmful societal attitudes.

#### *Photo shoot on the railway tracks*

Miu Miu is a luxury fashion brand that has been around since 1993. In 2011, they created an advertising campaign that was quite unique. The campaign featured models posing on railway tracks. The photoshoot took place in Hertfordshire, England and was shot by photographer Bruce Weber.

Many people criticized the use of railway tracks as a backdrop for a fashion shoot. They felt that it was insensitive to the victims of train accidents and could encourage dangerous behavior. Despite the criticism, the campaign was successful in generating interest in the Miu Miu brand.

It was also a reminder of the power of advertising to spark debate and controversy. Miu Miu continues to be a popular brand in the fashion world. Their unique designs and bold advertising campaigns have helped them stand out from other luxury brands.

### **Conclusion**

Advertising is everywhere we look, and it's hard to escape its influence. It's designed to persuade us to buy products or services, but it can also manipulate our thoughts and beliefs without us even realizing it. This is known as the Overton Window. The Overton Window is a concept that describes the range of ideas that are considered acceptable in society at any given time. Advertisers use this concept to push their products by making them seem more desirable or necessary than they really are. They do this by creating an emotional connection with the audience, using persuasive language and imagery, and appealing to our deepest desires and fears.



One common tactic used in advertising is the use of celebrities or influencers to promote products. This is because people tend to trust and admire those they see as successful or attractive. Advertisers also use social proof, which is the idea that people are more likely to follow the crowd and do what others are doing. Another way advertisers manipulate our consciousness is through the use of subliminal messaging. This is when messages or images are hidden within an ad, and we don't consciously notice them.

Advertising is a powerful tool that can be used to persuade and manipulate us. It's important to be aware of these tactics so that we can make informed decisions about what we buy and what we believe. By understanding the Overton Window and how it's used in advertising, we can become more critical consumers and protect ourselves from manipulation.

Studying these various information resources, I better understood how advertising can influence people's thoughts and behavior.

#### **List of information resources**

1. Academic journals: Journal of Consumer Psychology.  
[<https://www.jstor.org/stable/i40218502>]
2. Books: "The Overton Window" by Glenn Beck.  
[<https://libcat.ru/knigi/detektivy-i-trillery/triller/242012-7-glenn-beck-the-overton-window.html#text>]
3. Other studies: The study "The Overton Window in advertising" by sociologist Sati Muradyan.
4. Online resources: Websites such as Cambridge Dictionary.  
[<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english-russian/advertising>]  
released on June 15, 2010  
Vol. 23, No. 2, April 2013, published by: Wiley



## O‘QUVCHILARNING “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN BILIMINI BAHOLASHDA ICILS TESTLARDAN FOYDALANISH

**Komilova Shahrizoda Rahmatullo qizi**  
**Matematika-informatika fakulteti 3-bosqich talabasi**  
**Ilmiy rahbar: Isroilova Lola Sunnatovna**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi (PhD)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 8-sinf o‘quvchilarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan bilimini baholashda ICILS testlarning imkoniyatlari, ushbu testlardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** kompetensiya, axborot-ta’lim muhiti, informatika va axborot texnologiya, ICILS testlar, tamoyil.

**Annotation.** This article presents the possibilities of ICILS tests in the assessment of knowledge of

8th grade students in the field of “Computer Science and Information Technology”, suggestions and recommendations for the use of these tests.

**Keywords:** competence, information-educational environment, informatics and information technology, ICILS tests, principle.

**Аннотация.** В данной статье представлены возможности тестов ICILS в оценке знаний учащихся 8-х классов по направлению “Информатика и информационные технологии”, предложения и рекомендации по использованию этих тестов.

**Ключевые слова:** компетентность, информационно-образовательная среда, информатика и информационные технологии, тесты ICILS, принцип.

Kirish. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida har qanday taʼlim texnologiyalari asosida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining oʻquv jarayonini tashkil etganda taʼlim oluvchining bilim, koʻnikma va malakalarini baholash muhim rol oʻynaydi. Toʻgʻri tashkil etilgan baholash usuli oʻquvchilarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan amaliy topshiriqlarni bajarishga oid bilim, koʻnikma hamda malakalarining shakllanishiga imkon berish bilan birga, oʻquvchilarni oʻquv topshiriqlarini muntazam bajarib borishga, darsga boʻlgan qiziqishini kuchaytirishga, oʻquv jarayoniga masʼuliyat bilan ijodiy yondashishga oʻrgatadi [1-4].

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda jahonning rivojlangan davlatlarida maktab oʻquvchilarining taʼlim yutuqlarini baholash boʻyicha tadqiqotlar olib borilmoqda [7].

Bu borada Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi va xorijiy davlatlarida M.I.Kuznetsova, A.A.Kulikova, M.Amangʻazi, M.O.Martin, L.S.Gronmo, D.Hutchison, E.Klieme, M. O. Martin, R.V.Olsen, J.Van Damme kabi olmlar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida maktab oʻquvchilarining bilimini baholash, nazorat qilish hamda kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda PIRLS, TIMSS, PISA, ICILS kabi xalqaro baholash tizimlaridan foydalanish samarali natija berishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur baholash tizimlari yordamida natijalarini taqqoslash boshlangʻich va maktablarda oʻqish, matematika va tabiiy, informatika va axborot texnologiyalari fanlarini oʻqitish xususiyatlarini aniqlash hamda xalqaro tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan taʼlim ustuvorliklari nuqtai nazaridan umumtaʼlim sifatini baholash imkonini beradi.


Jumladan, PISA dasturi 15 yoshli oʻquvchilarga moʻljallangan boʻlib, bunda matematik va tabiiy fanlarga oid savodxonligini baholash nazarda tutilgan. TIMSS dasturi 4 va 8-sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy fanlarga hamda 11-sinf oʻquvchilarining matematika va fizika fanlari boʻyicha chuqurlashtirilgan kurslaridagi natijalari baholashga qaratilgan [8, 9, 10, 11]. ICILS dasturi 14 yoshli oʻquvchilarining xalqaro kompyuter va axborot savodxonligini oʻrganish qaratilgan [5].

Ushbu baholash tizimlariga oid olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borishiga qaramay, ayni paytda umumiy oʻrta taʼlim maktablarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan oʻquvchilarning ICILS testlar yordamida baholashga oid izlanishlar yetarlicha oʻrganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda mamlakatimizning umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun ICILS testlarni yaratish va undan foydalanish usullarini joriy etish dolzarb muammolaridan biri boʻlib qolmoqda. Shu bois, tadqiqot doirasida 8-sinf oʻquvchilarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan ICILS testlar ishlab chiqilib, **it-education.uz** axborot-taʼlim muhitiga joylashtirildi. ICILS testlarni ishlab chiqishda J.O.Tolipova va U.M.Mirsanovlar tomonidan tavsiya etilgan tamoyillarga tayanildi [6].


Ushbu olimlar tomonidan tavsiya etgan tamoyillar asosida ishlab chiqilgan ICILS testlar 8-sinf oʻquvchilarining bilimini baholashga qaratilgan boʻlib, bu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda oʻquvchilarning nazariy bilimlari baholansa, ikkinchi bosqichda esa amaliy bilimlarini baholashga qaratilgan. Buni tadqiqot dorasida yaratilgan axborot-taʼlim muhitining “ICILS testlar” boʻlimining “1-bosqich” bandi orqali amalga oshirish mumkin.






### 1-rasm. ICILS testlardan foydalanish jarayoni.

8-sinf o'quvchilarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan nazariy bilimlarini baholashga mo'ljallangan testlardan ikki xil, ya'ni onlayn va offlayn rejimda foydalanishga mo'ljallangan.




2. a-rasm. ICILS testlarning onlayn rejimidan foydalanish jarayoni.




2. b-rasm. ICILS testlarning offlayn rejimidan foydalanish jarayoni.

Savollar turli xil didaktik materiallar asosida yaratilgan bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: berilgan savoldan bir nechta to'g'ri javoblarni tanlash; berilgan savolga faqat bitta javobni tanlash; matnli jummalarni kiritish (gapda tushirib qoldirilgan jummalarni); berilgan savollardan moslikni tanlash (bir oynada bir nechta savollar beriladi, javoblar esa tartibsiz joylashadi); savollarni ketma-ketlikda tartiblash (misol tariqasida, sonlarni o'sish yoki aksincha, kamayib borish tartibida joylashtirish); savollarga faqat sonli qiymatlar orqali javob berish; bir oynada bir nechta savollardan to'g'ri javobni tanlash; rasmdagi sohalarni belgilash.




3. a-rasm. ICILS testlardan foydalanish jarayoni.



3. b-rasm. O'quvchining natijalarini tahlil jarayoni.

Ikkinchi bosqich ICILS testlarni "ICILS testlar" bo'limining "2-bosqich" bandi orqali foydalanish mumkin.



4-rasm. ICILS testlardan foydalanish jarayoni.

Ikkinchi bosqich ICILS testlar o'quvchilarning amaliy bilimlarini tekshirishga qaratilgan.

**Tahlil va natijalar.** 8-sinf o'quvchilarning "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan bilimni baholashda ICILS testlardan foydalanishga oid pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga Navoiy viloyatining umumiy o'rta ta'lim maktablarini 8-sinf o'quvchilari jalb etildi. Jalb etilgan o'quvchilar tajriba va nazorat sinflariga ajratildi. Bunda tajriba sinfi uchun 276 nafar, nazorat sinfiga esa 278 nafar o'quvchi jalb etildi. Tajriba guruhiga ajratilgan 8-sinf o'quvchilariga tadqiqot doirasida yaratilgan **it-education.uz** axborot-ta'lim muhitiga joylashtirilgan ICILS foydalanish imkoniyati yaratildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Ushbu tajriba-sinovga jalb etilgan 8-sinf o'quvchilarning natijalari tahlil etilib, ishonchligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlili qilindi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar

uchun mos o'rtacha qiymatlar  $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$ , tarqoqlik koeffitsiyentlarini  $D_n = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^4 n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}}$ ,

o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlashda esa  $A \% = \frac{x}{3} \cdot 100\% - \frac{r}{3} \cdot 100\%$  formulalardan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba sinfning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 10,26 % ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

**Xulosa va takliflar.** O'quvchilarning "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan olgan bilimiga qo'yiladigan baho uning shaxsiga, faoliyatiga yuqori darajada ta'sir etadi. Shuning uchun o'quvchilarning bilimini baholashda javobning ijobiy va salbiy tomonlari tushuntirilishi shart bo'lib, odilona qo'yilgan baho o'qituvchining hurmatini oshiradi.

Ko'tarib qo'yilgan baho fanning mavqeini tushiradi. Pasaytirilgan baho esa o'quvchilarning o'z qobiliyati va iqtidoriga ishonchsizlik paydo qiladi. Natijada, fanga nisbatan qiziqishning susayishiga olib keladi. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bois, o'quvchilarning bilimini baholashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Tavsiya etilayotgan ICILS testlar orqali o'qituvchi sinf bo'yicha va individual tartibda o'quvchilarning bilimini baholashi mumkin. Shuningdek, ma'lum sabablarga ko'ra darsga qatnasha olmagan hamda imkoniyati cheklangan 8-sinf o'quvchilarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan bilimini baholash imkoniyati mavjud.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirsanov U.M. Umumiy o'rtacha ta'lim maktablarida matematikani amaliy dasturlar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish metodikasi (5–6-sinflar misolida) // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 190 b.
2. O'tapov T.U. O'quvchilar bilimini baholashga mo'ljallangan test sinovlari natijalarini statistik qayta ishlash // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2006. – B. 41-43.
3. Осокина О.М. Формирование информационно-технологических компетенций обучающихся 2-11 классов (на примере школы менеджмента и маркетинга) // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Новокузнецк, 2010. – 216 с.
4. Чарыкова С.В. Формирование ключевых компетенций у учащихся старшей школы в условиях проектного обучения информатике и ИКТ // кандидата педагогических наук. – Челябинск, 2012. – 24 с.
5. Гвоздев Е.Н., Никулин Н.Н., Родневская М.А. Особенности международного сравнительного исследования ICILS // Педагогические измерения. 2/2017. – С. 81-85.
6. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya // O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017. – 116 b.
7. <https://multiurok.ru/files/sovremennye-mezhdunarodnye-sistemy-otsenki-obrazov.html>
8. [https://mel.fm/ucheba/fakultativ/9058732-all\\_tests](https://mel.fm/ucheba/fakultativ/9058732-all_tests)
9. <https://umckrg.gov.kz/files/loader/1456401266422.pdf>
10. <http://www.centeroko.ru/timss15/timss15.html>
11. <http://www.centeroko.ru/pisa15/pisa15.html>

#### RAQAMLI AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIMDA TUTGAN AHAMIYATI

Azadov Bekzod Azad O'g'li

Nukus innovatsion instituti

Dasturiy injiniring kafedrasi asisstanti

**Annotatsiya:** XXI asrda ta'lim landshafti raqamli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan tubdan o'zgardi. Boshlang'ich maktablardan tortib universitetlargacha raqamli texnologiyalar o'qitish, o'rganish va tadqiqot qilishning ajralmas vositalariga aylandi. Bu texnologiyalarning ta'limdagi ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi, chunki ular an'anaviy pedagogik usullarni inqilob qiladi, bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va talabalarni tez rivojlanayotgan raqamli dunyoga tayyorlaydi. Ushbu maqola matni orqali ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya vositalarining tadbiq etilishi, umumjahon standartlarini qo'llash va foydalanish imkoniyatlari hamda uning yutuqlari haqida e'tirof etiladi.

In the 21st century, the educational landscape has changed radically with the advent of digital information technologies. From elementary schools to universities, digital technologies have become indispensable tools for teaching, learning, and research. The importance of these technologies in education cannot be overstated, as they revolutionize traditional pedagogic methods, expand learning opportunities, and prepare students for the rapidly evolving digital world. Through the text of this article, the application of information communication tools in the educational system, the possibilities of applying and using universal standards, and its achievements are recognized.

В 21 веке образовательный ландшафт радикально изменился с появлением цифровых информационных технологий. От начальных школ до университетов цифровые технологии стали незаменимыми инструментами преподавания, обучения и исследований. Важность этих технологий в образовании невозможно переоценить, поскольку они революционизируют традиционные педагогические методы, расширяют возможности обучения и готовят учащихся к быстро развивающемуся цифровому миру. Через текст данной статьи признаны применение средств информационной коммуникации в системе образования, возможности применения и использования универсальных стандартов, а также ее достижения.

**Kalit so‘zlar:** axborot texnologiyalari, axborot kommunikatsiyalari, hemis tizimi, informatika, smart doskalar, axborot savodxonligi, IT markazlari, masofaviy ta’lim, online, offline, raqamlashtirish.

Информационные технологии, информационные коммуникации, система Hemis, информатика, смарт-доски, информационная грамотность, IT-центры, дистанционное образование, онлайн, офлайн, оцифровка.

Information technologies, information communications, hemis system, informatics, smart boards, information literacy, IT centers, distance education, online, offline, digitization.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari hayotimizda shunday o‘rin egallab turibdiki, nafaqat kundalik hayotimiz, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarning rivojini ham usiz tasavvur qilish qiyinlashib qoldi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya’ni ta’lim sohasining rivojlanishiga bog‘liq. Ta’lim mazmuni va sifat masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni axborotlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari qaralmoqda, ta’limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san’at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga oladi. Besh tashabbusning uchinchi tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan bir qancha samarali ishlar, yosh avlodning komputer bilimlarini, intellektual salohiyatini oshirishda juda muhim ro‘l tutmoqda. Ta’limda raqamli axborot shunday shakllanmoqdaki, unda bugungi yoshlar eski ma’lumotlarni va qo‘llanmalar o‘rganib, shunchaki yodlab olish bilan cheklanib qolmay, o‘zi mustaqil tarzda yangi bilimlarni qidirish, olgan ma’lumotlaridan xulosalar chiqarish imkoniyatlaridan foydalanib kelishmoqda. Axborot texnologiyalari bu uchun katta imkoniyat va qiziqishlar eshigini ochmoqda. Shu bois, mamlakatimizda nafaqat oliy ta’lim, balki umumta’lim maskanlarida ham bugun axborot-informatika texnologiyalariga e’tibor kuchayib, chuqurlashtirib o‘qitish maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda. Raqamli texnologiya xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Bu virtual dunyodan real dunyoga obyektlarni qo‘shish imkonini beruvchi to‘ldirilgan reallik texnologiyasi hisoblanadi.

Raqamli axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida joriy etilishi bir qancha afzalliklarni yaratadi:

- ❖ Istalgan yo‘nalishlardan istalgan vaqtida ta’lim olish imkoniyati;
- ❖ Ta’lim tizimi yangi bosqichga ko‘tariladi;
- ❖ Yer yuzida internet bo‘ylab axborot olish va undan foydalanish imkoniyati shakllanadi;
- ❖ Vaqt va mablag‘ keskin tejaladi;
- ❖ Foydali ish izlash va topish imkoniyati yaratiladi.

O'quv jarayonlarida "axborot savodxonligi" yuqori bo'lgan o'quvchilarni bilimlarini o'zlashtirishlari, ma'lumot qidirish va topishlari, o'quv jarayonlarida qo'llashda hech qanday qiyinchilikga duch kelmaydi. Shu sababli axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi va IT markaz mablag'lari tomonidan axborot texnologiyalari va informatika fani o'qituvchilarining birnecha yuzlab nafariga rag'batlantirishlar yo'lga qo'yilmoqda. Mamlakatimiz zamonaviy ta'lim tizimiga o'tishi va dunyo standartlaridan foydalanishi bugungi kunda ta'limda duch kelyatgan muammolarni bartaraf etmoqda va yangicha yondashuvlarga yo'l ochmoqda. Xozirgi kunga kelib Oliy ta'limda "Hemis" tizimi joriy etilib, bu talabalarni har qanday sharoitda ham masofaviy (online) yoki an'anaviy (offline) o'qish imkoniyatini yaratib, professor, o'qituvchilar uchun ham ancha qulayliklar yaratib, qog'ozbozlikni kamaytirdi. Barcha davlat ta'lim dargohlarida jumladan nodavlat ta'lim dargohlaridaham Hemis tizimi qadama-qadam yo'lga qo'yilmoqda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqish jarayoni qizg'in davom etmoqda. Raqamli universitetlar ko'paytirish maqsadida birqancha chet el universitetlari bilan shartnomalar tuzilib, hamkorlik ishlari olib borilmoqdi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami va ayollar uchun ishidan ajralmagan xolda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatlari yaratildi.

Masofaviy ta'limni tashkillash va uni boshqarish maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida masofaviy ta'limni joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqilgan. Tizim orqali talabalarining darsda to'liq qatnashishi, mavzu materiallarni taqdim etishi, o'quv topshiriqlari, imtihon va hisobotlarni masofaviy axborot texnologiyalar vositalari orqali amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu tizmga 2021-2022 o'quv yilda axborot texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida bir nechta fanlar kesmida jami 320 ta videodarsliklar tasvirga olinib, ular o'zbek va rus tillarida tizimga joylab tajribadan o'tkazilgan. Shu bilan birga, Janubiy Koreyaning Invil tizimini ham ta'lim tizimiga yo'naltirish uchun ularning tajribalari o'rganildi va bir qancha markazlarda ular sinovdan ham o'tkaziladi. Hozirgi kunda Informatika va Axborot Texnologiyalari sohasi bo'yicha yiliga o'rtacha besh mingdan ortiq kadrlar yetishib chiqmoqda, ularning 70% ga yaqini Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga to'g'ri kelmoqda. Bugunga kelib IT yo'nalishlarida [www.uzbekcoders.uz](http://www.uzbekcoders.uz) portali orqali "bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olayotganlar 200 mingdan oshdi.

O'quv dargoxlaridagi komputer sinflarining tuzilishi, zamonaviy va qulay jihozlar, zamon talablariga mos komputer, smart doskalar, bir qancha panellar bilan jihozlanganligi ta'lim olish uchun yana bir-bor undovchi zamin yaratadi. Shu sababli aksaryat talabalar an'anaviy ta'limdan ko'ra ko'proq axborot kommunikatsiyalariga asoslangan innovatsion ta'limni afzal ko'rishmoqda va bu mamlakatimizda chet el standartlaridan yanada kengroq foydalanish talabini qo'yimoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki - masofaviy o'qitish bugungi kunda nafaqat o'quv maskanlari uchun zarur, balki bugungi kundagi globalizatsiyalash jarayonida katta-katta korxonalar, muassasalarga o'z mutaxassislarini qayta tayyorlashda, ularning bilim darajalarini va ko'nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o'rin tutadi. Yuqorida takidlaganimizdek, ilgari ta'lim katta hajmli maruza kitoblari orqali o'rganilgan bo'lsa, u o'z navbatida, ta'lim sifati va tezligining uncha yuqori bo'lmasligiga sabab bo'lgan edi. Hozirda esa ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ta'limni raqamlashtirish borasida barcha kerakli ishlar olib borilmoqda. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy talablarini qondirish mumkin bo'ladi. Bilimlarni o'z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud. Ushbu platformalardan o'quvchi va o'qituvchi bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham doimiy muloqot saqlanib qoladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Askarova, S. M. (2023). Butunjahon internet tarmog'idan maqsadli foydalanish va yosh avlodda netiket tushunchasini rivojlantirish. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(16), 170-172.
2. Sultaniyazovich, Y. M., & Muhammadalievna, A. S. (2022). Current state of use of information resources of the internet in the republic of uzbekistan. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(3), 169-175.
3. Ayupov R. H., Boltaboyeva G. R. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik-Toshkent, 2020. 575 p. (Узбек. яз.)

4. Козлов Р. С., Козлова Н. Ш. Цифровые технологии в образовании // Вестн. Майкопского гос. технол. ун-та. 2019. № 1. С. 31-35.

4. Аскарлова Ш. Принципы эффективности информационной безопасности // Экономика и социум. 2021. №4-1 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-effektivnosti-informatsionnoybezopasnosti> (дата обращения: 15.06.2023).

5. Якубов, М. С., & Аскарлова, Ш. М. (2022). Особенности использования информационных ресурсов интернета. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 4, 10-16.

6. Litvinets I. I. O'quv jarayonida AKTdan foydalanish metodikasi. Ta'lim faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. URL: <https://dprvrn.ru/uz/metodika-ispolzovaniya-ikt-v-obrazovatelnom-processe/> (дата обращения 15.04.2022). (Узбек. яз.)

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVY MEROSIDA FARZAND TARBIYASI

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari  
va huquq ta'limi yo'nalishi

3-bosqich talabasi Mardonova Mashhura

Ilmiy rahbar: Sharipova N

**“Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi baxtli bolib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lish, yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq”**

**Fitrat**

**Annotatsiya.** Bu maqolada buyuk ajdodlarimizning farzand tarbiyasiga qaratilgan fikrlari, qarashlari va sharqona tarbiya na'munalari hamda yot g'oyalarning salbiy jihatlari yoritilgan.

**Annotation.** This article covers the thoughts, views and examples of Oriental upbringing of our great ancestors, aimed at raising children, as well as negative aspects of foreign ideas.

**Аннотация.** В этой статье освещаются мнения, взгляды и примеры восточного воспитания наших великих предков, направленные на воспитание детей, а также негативные аспекты чуждых идей.

Farzand komilligi, uning tarbiyasi, sog'lomligi milliy qadriyatlarga, Vataniga bo'lgan muhabbati kabi masalalar ko'tarilganda, mutafakkir Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”, degan ma'noli fikrlari naqadar haqiqat ekanligini anglaymiz. Tarbiyaning o'chog'i bo'lgan oila-har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'nan va jismonan barkamol avlodni dunyoga keltirib, tarbiyalab, vatanparvar yurt himoyachilarini voyaga yetkazuvchi muqaddas makondir. Inson ilk tarbiyani oiladan, mehr qo'ridan, onaning suti va o'ziga xos allasidan oladi. Uning ta'siri odam tabiatiga, qalbiga mustahkam joylashadi. Farzandning komilligi, ruhiyati, mehribonligi, odobi har bir oilada belgilangan ichki, o'ziga xos qonun-qoidalari asosida shakllanib boradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “ Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi “ Mutafakkir Mavlono Sodiq Qoshg'ariy “Odobiya” asarida ustoz bo'lishning 400dan ortiq qoidalarini bayon qilgan. Bulardan eng muhimlarini ta'kidlab o'tamiz.

- Ustozlikka da'vogarning, avvalo, bo'g'zi toza bo'lsin. Ustoz halol yeb, halol ichishi kerak.
- Aks holda uning so'zlari yolg'on bo'ladi.
- Ustoz pokdamon bo'lsin. Ustoz kamtar va mag'rur bo'lishi kerakki, oddiy odamlar unga murojaat qila olishi va nopoklar uni bo'ysindira olmasligi kerak.
- Ustoz zinda dil bo'lsin. Tirikko'ngil odam ruhiyatshunos bo'lib, inson shaxsini yaxshi tushunadi, hayotga optimal qaraydi, o'z kasbini sevadi. Bu o'rinda shaxs psixologiyasini yaxshi tushunish haqida so'z bormoqdaki, uning zamirida ko'ngil ko'zi yumuq odamning tarbiyachi bo'la olmasligiga ishora bor.
- Ustoz nazarkarda bo'lsin. Ya'niki, Ustoz shogirdining issiq-sovug'idan, yurish-turishidan va fikru zikridan xabardor bo'lishi lozim.

Ustoz shogirdini turli usullarda tarbiyalaydi. Kimdir 20 yil, yana kimdir 7 yil tarbiya olishi mumkin. Jumladan, mashhur Bahovuddin Naqshband ustozlari qo'lida bor yo'g'i 7 yil tarbiya ko'rgan, xolos. Ta'kidlash joiz, qadimda agar ustoz shogirdining iste'dodini tarbiyalashga o'zini ojiz sezsa, uni darhol o'zidan kuchliroq ustoz huzuriga yuborgan, toki shogirdining yo'liga to'g'anoq bo'lmasligi uchun. Darhaqiqat, har bir yosh avlodni tarbiyasida ota-onadan tashqari ustozni roli juda muhim. Chunki shogirdi biror natijaga erishsa, rahmatga, olqishga sazovor bo'lsa shularga qarab ustozining bilimiga baho berishadi. Ustozlik qilish sotuvchilik yoki hunarmandlikdanda murakkabroqdir.

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017.24-iyun "Xalq so'zi" gazetasi.

9. Farmonova M "Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida farzand tarbiyasi" (ilmiy-uslubiy qo'llanma) Tasvir Nashriyot uyi Toshkent-2020.

Bu so'zlar shuni ma'lum qiladiki, kelajagimiz qanday bo'lishi, qanday sharoitda yashashimiz, bizlarni kimlar xotirlashi hozirgi yoshlar qanday bilim va tarbiya olishiga bog'liq.

Amir Temur-o'zbek davlatchiligini eng yuksak pog'onaga olib chiqqan buyuk shaxs. U o'z hayot faoliyati davomida doimo o'zining "Kuch-adolatda" degan shioriga amal qilgan holda ish yuritgan. Amir Temur farzandlari, nabiralari yaqinlarining tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Nabiralarini tarbiyalashda Amir Temurning rafiqasi bosh-qosh bo'lgan. Ular shahzoda va malikalarni halol, mehnatsevar, aqlli, dono, odob-axloqli, mo'min va mo'minalar qilib tarbiyalashgan.

Barkamol inson uning tarbiyasi haqidagi yuksak g'oyalar bayon qilingan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan Tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboqlar borligini ko'rish mumkin. Negaki, qalbida ezgulik, poklik, doim yaxshiliklar o'ylasa amallarida ham shular oyna kab aks etadi, albatta. Biz farzand tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrini o'rganar ekanmiz, beixtiyor millatimizga xos bo'lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy munosabat, go'zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi. Abu Nasr Farobiyning "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir", degan fikrlarida olam-olam ma'no bor. Mutafakkirning bu fikrida bugungi ota-onalarimiz o'zlari namuna bo'lgan holda oilalarida, ishlarida, ro'zg'orlarida, uy tutishlarida, o'zaro munosabatlarida, yurish-turishlarida, kiyinishlarida, salomatliklarida, farzand tarbiyasida ular bilan bo'ladigan muomalada go'zallikni yarata olishlari zarur, degan g'oya o'z aksini topgan. Ajdodlarimiz ham o'zlari namuna bo'lgan holda o'z farzandlariga pand-u nasihat qilganlar hamda na'muna bo'lganlar. Jumladan, Abu Nasr Farobiy: "Har inson kasb-korini mukammal bo'lmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak", -degan edilar.

3.4.M. C.Qoshg'ariy. Odob saboqlari. "Sharq yulduzi", 1991. 1-son. Fors tilidan N.Komilov tarjimasi.

Farzand tarbiyasi, kelajagi va manfaatlari haqida so'z borganda "Bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avnlardan birining qabrtoshi ustiga "Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi", degan so'zlarning bitib qo'yilgani yoshlar tarbiyasi bashariyat taraqqiyotining barcha davrlarida hozirgidek asosiy muammolardan biri bo'lib kelganini tasdiqlaydi.

Abu Homid G'azzoliy o'zining "Ihyou ulumid-din" kitobida 4ta katta mavzuni jamlagan: a) ibodatlar haqidagi qism, b) urf-odatlar haqidagi qism, v) halok qiluvchi va g) najot beruvchi narsalar haqidagi qismlar. Har bir qism o'ntadan, jami o'nta kitobni o'z ichiga olgan. Ta'kidlash joiz, Abu Homid G'azzoliy biror mavzuni yoritir ekan, islomiy odob va an'anaga ko'ra, dastlab unga tegishli oyatlarni keltiradi, so'ngra Payg'ambarimizning hadislariga murojaat etganlar, keyin esa sahobalar va boshqa ulug'larning so'zlaridan, siyratlaridan dalillar keltirganlar. Ushbu kitobda muomala odobi, yuksak axloqiy intizom masalalari oyat, hadis asosida sahobalarning so'zlari, ibratomus rivoyatlar orqali yoritilgan. Biz qisqa bo'lsada, til ofatlari haqida so'z yoritir ekanmiz, tilning faoliyat va ta'sir doirasiga chek yo'q: yaxshilik sari yursa, oldida keng maydon, ufqlar qadar cho'zilgan, yomonlik yo'liga kirsada, ilon chayonlar kabi sudralib, tubsiz tubanlikka ketishi mumkin ekani beixtiyor, har birimizni avval o'ylab, keyin so'ylashga chorlaydi. O'zbek oilalarida kitobga muhabbat, kitobni avaylab-asrash, kitobxonlik,



g'azalxonlik qadimiy an'analardan bo'lib, farzamd tarbiyasida muhim hisoblangan. Biz kitobxonlik haqida so'z yuritir ekanmiz, tarixga bir nazar tashlaymiz. Bundan salkam uch yarim ming yil ilgari ajdodlarimiz tomonidan muqaddas ma'naviy kitob "Avesto" ideografik yozuv kashf etilgan. Otashparast ajdodlarimiz uni to'la-to'kis yod bilmoqni, unga amal qilib yashamoqni o'zlari uchun burch deb bilganlar. Qadimdan ma'lumki, kitobsevarlik insoniy fazilat bo'lib, unda insonning ma'naviy komillik darajasi aks etib turadi. Kitobsevarlik oilada shakllanadi. Qadimda xalq baxshilarining oilaviy davralarda, to'y-ma'rakalarda, ziyofat va gap gashtalarda, kuylagan dostonlari, bobolarimizning bolalarga aytgan ertaklari, momolarimiz allalari, rivoyatlarini maroq bilan tinglash orqali kitobxonlik shakllanib borgan. Yuqoridagi fikrlarni barchasini mujassamlashtirgan holda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi so'zlarni aytganlar: "Bizni o'ylantirgan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ko'p his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz deb, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobida erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidir"6 deganlar. Darhaqiqat, bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari-maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini topmoqda.

Yuqoridagi masalalarni ko'rib chiqar ekanmiz yana bir muhim masalaga to'xtalib o'tish joiz deb o'ylayman. Barchamizga ayonki yoshlarimiz ajdodlarimizdan o'rnak olishga harakat qilishyapti, ammo sovetdan qolib ketgan ajdodlarimizga nisbatan bo'htonlarga ishonadigan va boshqa millatlarga havas qilib, o'z millatini qoralaydigan yoshlar uchrab turmoqda. Bunga sabab yoshlarimizga milliy tariximiz chuqur singdirilmasligi, ba'zi oilalardagi tarbiyaviy muhit yomonligi, farzandlarimiz bobo va buvjonlar bilan yashamasligi, millatimiz ruslashishi hamda kelajak avlod internet vositalaridan to'g'ri foydalanmasligi, qolaversa hayotning sinovlarida toblanish jarayonida qiyinchilikdan qochib oson yo'llarni izlash hozirgi kunda tabiiy narsaga aylanib kelmoqda. Bular bilan men yoshlarimiz savodsiz dangasa demoqchi emasman ammo guruch kurmaksiz bo'lmasligini ham inobatga olish kerak. Demak shular haqida so'z yuritganimizda jahon renesanslari haqida gapirib o'tishni joiz deb bilaman. Ilk o'rta asrlar yaqin va o'rta sharqda Al-Qindiy, Ar-Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Ro'shd kabi bir qancha buyuk mutafakkirlarni yetishtirib chiqardi. Ular feodalizm va musulmon madaniyati rivojlanayotgan bir sharoitda o'z asarlarida ilg'or g'oyalarni ishlab chiqdilar. Bu g'oyalar asta-sekin Yevropaga o'tib, F. Engels ko'rsatib o'tganidek, Yevropa uyg'onish davrini g'oyaviy jihatdan tayyorlashda va oxir-oqibatda XVIII-asr materializmini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, har bir davrda ma'naviyat va bilim uchun kurashadigan ajdodlar bo'lgan. Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'dir. O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga etmoqdalar. Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, xususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi. O'z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jaroxat azobini sezmaydi; o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar. Shu to'g'rida o'zbek xalqidagi quyidagi maqol darak beradi: "Toy ulg'aysa, ot tinadi (ya'ni ot minishdan qutqariladi)". Oilaning asosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmis irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota — oilaning boshlig'i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas nuqtalarini ilg'ay olish, oila a'zolariga faqat to'g'ri, haq yo'lni ko'rsatib turishdek insoniy mas'uliyat ota zimmasida turadi. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, o'zaro muomali madaniyatida,



eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylik va xolislik yuzasidan namuna ko'rsatadi. Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida quyidagi ibratli o'g'itlarni aytgan edi: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zehnimizni ravshanlashtirmak lozim"<sup>7</sup>. Oilada kattalarning obro'si qo'rqitish asosida emas, balki samimiylik, o'zaro hurmat-ehtirom zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a'zolarining inoqligi, o'zaro hamjihatligi, kiyinish madaniyati, mehnat faoliyati, o'zga kishilar to'g'risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlarini bolaning murg'ak tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi, bola dastlab oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo'lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy ruhiy muhit, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, an'analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko'nikma va malakalar manbaidir. Bu oilaviy tarbiya jarayonida sayqallanib boradi, tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat bo'lib, tarbiyaning mazmuni, yo'nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog'liq. Kishi shu munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi, tafakkuri orqali olamni anglaydi va o'zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruhida tarbiya topadi, chunki oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila a'zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va hissiyotlarini belgilab beradi. Demak, oila sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazishda jamiyat oldida mas'uldir. Oilada tarbiya topgan har bir inson har jihatdan umuminsoniy axloqiy, ilmiy, e'tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o'zligini taniy boshlaydi. Komillik insonning adolatli bo'lishi, haqiqat va yaxshilikka intilishi, vijdonan pok, o'z xatolarini anglab, ulardan xalos bo'lishga harakat qilishi demakdir, ma'naviyatni boyitish, iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli bo'lish kishilarni g'afolatdan uyg'otadi, barcha ezgu tilaklarini ro'yobga chiqaradi. Yosh avlodni barkamol, sog'lom, Vatan tuyg'usini his qila oladigan shaxs qilib voyaga etkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog'liqdir. Yosh avlodda kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otish uchun esa, ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rgatish, ularning iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, oilalarda moddiy boylikning ko'payishi, undan ota-onalar va bolalarning noto'g'ri foydalanishi, o'smirlarning bir qismida hayotga iste'molchilik, boqimandalik nuqtai-nazardan qarashni, tubanlikni, xudbinlikni keltirib chiqaradi, mehnatsiz boylik orttirish kayfiyati kuchayadi.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka, adolatga va mehr-oqibatga chaqiradi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, tarixini, o'ziga xos urf-odat va an'analarini milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sharq olimlarining, jumladan, Ibn Sinoning hikmatlari, Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xusravning "Saodatnoma", "Ro'shnoyinoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" kabi asarlarida bola tarbiyasiga bo'lgan e'tibor o'z aksini topgan. Qayd etilgan asarlardan farzand ota-onaning baxti bo'lsa, tarbiya farzandning buguni, ertasi va kelajagidir, degan umumiy xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun ham tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrlardan beri mavjud. Negaki, inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo, u tarbiyalanishi zarur. Xalqimiz orasidagi "Tarbiyachi, avvalo, o'zi tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak", degan naql bekorga aytilmagan. Mutafakkir Ibn Sino tarbiya beruvchilarga qarata, "Kimga qanday pand-u nasihat qilsang, unga, avvalo, o'zing amal qil", -deydi. Farzand tarbiyasida, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish va boyitishda, mutafakkirlarning fikr-mulohazalari, pand-nasihatlarini, hikmatlaridan foydalanish va barkamol insonni voyaga yetkazish barchamizning burchimizdir.

Farzand tarbiyasi haqida so'z borganda o'qitish texnologiyasini ham aytib o'tish lozim. Sababi bilimni hamma egallay oladi ammo, hamma ham bilimni atrofdagilariga yetkaza olish xususiyatiga ega

emas. Shu uchun ham ta'lim tizimida bilim berish texnologiyalarga asoslangan. Dars o'tish texnologiyasi qancha mukammal va pishiq bo'lsa talaba yoshlarga shuncha yetib borishi oson

Shuning uchun ham hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuning 4-moddasida Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagicha belgilangan:

“Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Bularni barchasidan ko'rinib turibdiki, davlatimiz qonunlari ham tarixiz bilan chambarchas bog'liq holda tuzilganligi va har qanday sohaning zamirida farzand tarbiyasi kelajak avlod g'oyasi borligini qonunda yozilgan zalvorli so'zlar ifodalaydi”.<sup>6</sup>

Xulosa qilib aytganda, oilada bola tarbiyasining milliy o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, otalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma'naviy-ruhiy xotirjamlik, o'zaro totuvlik hukmron bo'lsa, oila a'zolari bir-birlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi. Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk sharq mutafakkirlarining merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka, adolatga va mehr- oqibatga chaqiradi.

6. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risidagi qonun”. 2020.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, tarixini, o'ziga xos urf-odat va an'alarini milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017.24-iyun “Xalq so'zi” gazetasi.

2. M. Farmonova “Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida farzand tarbiyasi” (ilmiy-uslubiy qo'llanma) Tasvir Nashriyot uyi Toshkent-2020.

3. M. Qoshg'ariy. Odob saboqlari. “Sharq yulduzi”, 1991. 1-son. Fors tilidan N. Komilov tarjimasini.

4. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent., Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti., 1993

5. A. Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994

6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni. 2020.

## PIRLSNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

**Marjona Qahhorova Sobirjon qizi**  
**TerDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti**  
**boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash me'zonlarini tahlil qilib ko'rib chiqiladi. Dunyoda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ta'lim darajasini aniqlab beruvchi PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqoti) xalqaro dasturlar mavjuddir. Bu dasturlar rivojlangan davlatlarda ta'lim sifatini oshirishdagi me'zon sifatida keng qo'llanilayotgani haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** me'zon, ta'lim, matn, o'qish, boshlang'ich ta'lim, ta'lim sifati, tushunish, tahlil qilish.

Bizga ma'lumki, dunyoda ta'lim sifati darajasi o'zgarishlari, ularning jadal rivojlanib borishi kuzatilmoqda. Ta'lim orqali jamiyatda keyingi kelajagimizdagi asosiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod vakillari ya'ni yoshlarimiz shakllantirilmoqda. Shuni inobatga olgan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida va maktabgacha ta'lim muassasalarida moddiy bazasini mustahkamlash, yoshlarning har tomonlama puxta bilim egallashi, yetuk inson va mutaxassislar bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari muhtaram prezidentimiz tashabbusi bilan 9-sinfni bitirgan o'quvchi yoshlar, ota-onalar va o'zlarining xohishlari tanlovlariga binoan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar yoki o'zlari tahsil olgan maktablarda majburiy ta'limni davom ettirishlari mumkin ekanligining belgilab qo'yilganligi yoshlarimiz uchun har tomonlama qulayliklar bo'ldi. Yoshlar oldiga qo'yilgan bunday talablardan so'ng o'z navbatida ular o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish hamda o'qituvchilarning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyoji vujudga keltirilmoqda.

Xususan, dunyoda ta'lim darajasini ta'lim sifatini aniqlab va belgilab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi) PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqoti) TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qancha xalqaro dasturlar bo'lib, ular rivojlangan davlatlarning ta'lim sifatini yanada oshirishda me'zon sifatida keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. PIRLS-tadqiqotida dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etib kelishmoqda. Bu tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan mamlakatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish bo'yicha tayyorgarligi va o'quvchilarning har xil ta'limiy yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi xalqaro dastur. Bunday tadqiqotlar xalq ta'limi sohasidagi barcha ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega sanaladi. PIRLS-2021: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodi xalqaro tashkilot tomonidan tadqiq qilinadi. O'zbekiston yoshlari PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etadi. Bu haqida "Xabar.uz"ga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining matbuot xizmati ma'lum qildi. Vazirlar Mahkamasidagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev va ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-International association for the Evaluation of Educational Achievement)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Kettim o'rtasida O'zbekistonning PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan 25-yanvar kuni ilk rasmiy uchrashuv tashkil qilindi.

PIRLS-(inglizcha Progress in International Reading Literacy Study) bu turli davlatlarda boshlang'ich sinfda bilim olayotgan yosh avlodning matnni o'qish va tushunish darajasini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimi sanaladi. Bu tadqiqot har 5 yilda bir marta o'tkaziladi va shu kungacha 5 marta ya'ni: 2001,2006,2011,2016 va 2021-yillarda o'tkazilib kelingan. Dunyoning qator rivojlangan davlatlari PIRLSdan quyidagi maqsadlarda foydalaniladilar:

- 1.Global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarining kuzatib borishi;
- 2.Yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borishi;
3. Ta'limning zaif nuqtalarini belgilash hamda o'quv sohasida islohotini amalga oshirish;
4. PIRLS ma'lumotlarini tahlil qilish va shu orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
5. Adolatlilikni tashkil etish va qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholashga oid tegishli ishlarni olib borish;
6. O'qish va o'qitish ishlarini o'rganish.

Oxirgi o'tkazilgan ya'ni 2021-yilda bo'lib o'tgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70ga yaqin davlatlar qatorida O'zbekistondagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi. Bu dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan dastur hisoblanadi.

PIRLSga tayyorgarlik: bugungi kunda har bir fan o'qituvchilari xalqaro baholash tizimi haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi va bilim berayotgan o'quvchilarini PISA va PIRLS imtihonlariga tayyorlashi muhim vazifalardan biri bo'ladi. PISA nima? Bu 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini belgilash. PIRLSdagi matnni o'qib bo'lgandan so'ng savol-javoblar o'tkaziladi. "Hikoya nima haqida?", "Qahramonlar kim?", "Siz hikoyadan nimani o'rgandingiz?" kabi savollar bilan imtihon qilib olinadi.

### **PIRLS TESTLARI. TOSHBAQA VA QUYON HIKOYASI**

Timmi ismli toshbaqa va Rojer ismli quyon ilgari chuqur o'rmonda yashagan. Rojer tez va quvnoq bo'lib, doimo yangi sarguzashtlarni izlayotgan bo'lsa-da, Timmi tinch va barqaror bo'lib, ko'p kunlarini tinch o'rmonda o'tkazardi.

Rojer bir marta Timmini poygaga chorlagan va u osonlik bilan g'alaba qozonishiga ishongan. Timmi musobaqaga rozi bo'ldi, lekin faqat bir shart bilan, chunki u o'z chegaralarini bilgan. Timmi javob berdi;

"Men siz bilan poyga qilaman, lekin biz tog'ning cho'qqisiga chiqamiz".

O'z tezligiga ishongan Rojer bu chaqiruvni qabul qilganidan keyin poyga boshlandi. Timmi o'zining sekin sur'ati bilan yugurdi, Rojer esa tezda ustunlikka erishdi va o'rmon bo'ylab osongina o'tildi.

Poyga davom etar ekan, Rojer charchab, sekinlashdi, Timmi esa diqqatini yo'qotmadi. Nihoyat, bir necha soatlik poygadan so'ng Timmi tog'ning cho'qqisiga yetib keldi va Rojer ko'p o'tmay charchagan holda yetib keldi.

Timmining qat'iyati va chidamliligini ta'kidlab, Rojer uni kam baholagani uchun uzr so'radi. O'sha kundan boshlab ikkalasi ajoyib do'st bo'lib, tez-tez birga o'rmonni kashf qilishdi, lekin Timmi har doim Rojerga o'rmonning go'zalligi va hayratini ko'rsatib, o'zi borligini bilmas edi...

1. Toshbaqaning ismi nima?

A. Timmi. B. Rojer. C. Timmer

2. Quyoning ismi nima?

A. Timmi. B. Rojer. C. Timmer

3. Poygada kim g'olib bo'ldi?

A. Rojer. B. Timmer. C. Timme

4. Ular qayerda yashashadi?

A. O'rmonda B. To'da. C. Bog'da

Ushbu hikoya matni asosida tuzilgan test savollari orqali o'quvchilarning matnni tushunish darajasi, ularning fikrlash va o'qish malakalari baholanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti Toshkent.

2. Sylvie LaRoche, Mark Joncas, Sample Design in PIRLS 2016

3. O'zbek tilining izohli lug'ati.

4. Qosimova K, Matchonov va b, "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "Noshir" 2009-yil.

## **RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI TARIX FANIDA QO'LLASH.**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
gumanitar fanlar fakulteti tarix yo'nalishi**

**2-bosqich talabasi Islamova Qunduz Ikromboy qizi.**

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli tarix nima ekanligi, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim sohasida qo'llashning samaradorligiga to'xtalib o'tilgan. Raqamli tarixning tarixiga nazar solinib, bugungi kunda qo'llanilish darajasi haqida so'z boradi. Tarixni raqamlashtirish orqali ma'lumotlarni qiyinchiliksiz topish va ilmiy ishlarda foydalanish borasida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli tarix, zamonaviy texnologiyalar, tarixchi va kompyuter, internet, xarita, diagramma, jadval.

## ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИСТОРИИ

**Абстрактный.** В статье рассматривается, что такое цифровая история, эффективность использования современных информационных технологий в сфере образования. Глядя на историю цифровой истории, мы поговорим об уровне использования сегодня. Говорят об облегчении доступа к информации и ее использовании в научной работе посредством оцифровки истории.

**Ключевые слова:** цифровая история, современные технологии, историк и компьютер, интернет, карта, схема, таблица.

## APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN HISTORY

**Abstract.** The article discusses what digital history is, the effectiveness of using modern information technologies in the field of education. Looking at the history of digital history, we will talk about the level of use today. There is talk about easy access to information and its use in scientific work through the digitization of history

**Key words:** digital history, modern technologies, historian and computer, internet, map, diagram, table.

Ta'lim bu har bir davlatning qurilish asoslaridan va yurtning tayanch poydevoridir. Bu haqiqatni anglagan davlatlar kundan kunga ta'limga katta e'tibor bermoqdalar. Xususan, ta'lim sohasida eng so'nggi ilg'or texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy ta'lim metodlaridan samarali foydalanish zamon talabiga aylanganligini ko'rish mumkin. Axborot texnologiyasi bu aniq texnik dasturlar vositasining majmuyi bo'lib, ular yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman masalalarni hal etish mumkin. Ayniqsa raqamli texnologiyalarni fan tarmoqlari bo'yicha to'g'ri qo'llash juda yaxshi va samarali natijalarga olib keladi. Har bir sohada bo'lgani kabi ta'limda ham zamonaviy texnologiyalar kirib kelib ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'layotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu jumladan tarix fanida zamonaviy texnologiyalar tarixchini yanada qiziqarli va mazmunli izlanishlar olib borishga undamoqda. Tarixiy ma'lumotlarni saralash, ajratish, aniqlik kiritish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda zamonaviy texnologiyalar juda yaxshi ko'makchi bo'lishi mumkin. Oxirgi paytlarda raqamli tarix atamasi tez-tez uchrab turibdi. Xo'sh bu raqamli tarix deganda nimani tushunishimiz kerak? Raqamli tarix bu tarixchilarning arxiv materiallarini raqamlashtirish va ularni internetga kirish imkoni bo'lgan foydalanuvchilarga taqdim etish uchun zamonaviy kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi tushuniladi.[1] Raqamli tarix onlayn ma'lumotlar bazasiga havolalar beradi, raqamli tarixchilarning ilmiy sohada rolini tushuntiradi va hozirgi zamonaviy ilm-fanda tarixchi nimalarga tayyor turishi kerakligi tushuntirib o'tadi. Keng ma'noda bu tushunchaga ilmiy aniq ta'rif bo'lmasada, umumiy qabul qilingan tushunchalarga muvofiq tarixiy dalillarni to'plash, miqdorini aniqlash, talqin etish va baham ko'rishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi. Raqamli tarixning eng katta yutuqlaridan biri onlayn arxiv bo'lib, unda izlanuvchi olimlar tartibga solingan hujjatlar orasidan o'ziga kerakli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida olib foydalanishi mumkin bo'ladi. Onlayn videolar orqali keng ommani tarixga qiziqishini orttirib ilm olishga qiziqtirish imkoni ham katta. Ijtimoiy tarmoqlar orqali qisqa va qiziqarli videolar qo'yish zamonaviy ilm oluvchilarni jalb etishi turgan gap. XX asrning 80-90-yillarida tarix fanida kompyuterlardan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalangan bo'lishgan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llana boshlandi.[2]. Manbalar matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtda optik disklarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlarning juda katta hajmga ega ma'lumotlarni saqlash imkoniyati oshib bordi. 1986-yilda "tarixchi va kompyuter" nomli xalqaro assatsatsiya tuzildi va 1992-yilda uning tarkibiga bir qator MDH davlatlari tarixchilari ham kiritildi.[3] Texnologiyalar zamonaviylashib hozirgi kunga kelib har qanday inson o'zi yoki bajariyotgan ishlari haqida istalgan joydan turib internet orqali ma'lum qilishi mumkin. Tarixchi olim shaxsiy ijtimoiy tarmoqlari orqali olib borgan izlanishlari haqida ommaga xabar berishi mumkin. O'z navbatida bu ma'lumotlardan boshqa izlanuvchilar ham foydalanish imkonini beradi. Dunyo bo'ylab izlanuvchi olimlarning hamkorligini mustahkamlash ishlarini ham raqamli tarix orqali samarali olib boorish mumkin. Bundan tashqari olimlar o'z ilmiy ishlarini turli xil jadval, diagramma xaritalarni kiritib mukammalroq tushuntirib berish imkoniyatini qo'lga kiritgan holda ilmiy ishlarining darajasini yuksaltirishlari mumkin bo'ladi. Xorijiy o'lkalarda bu yo'nalish XXasrning 90-yillarida AQSHda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq. Qiziq tomoni bu soha dastlab tarixchilar orasida emas balki muzeylar, arxivlarda mavjud materiallarni

raqamlashtirish ya'ni ulardan foydalanishni ta'minlash bo'yicha amaliy vazifalarni hal etuvchi amaliyotchilar doirasida vujudga kelgan.[4].Oxirgi yillarda kompyuter texnologiyalarini tarix ilmiga qo'llashning an'anaviy sohasi manba-ma'lumotlarni matematik statistik qayta ishlashda yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Statistik dasturiy paketlar tarixchilar uchun qulaylashtirilib, ko'p o'lchovli tahlil va vizuallashtirish vositalari bilan boyitiladi.[5]. Bunda oddiylikdan murakkablik tomon borib diagrammalar, jadval va xaritalar aniqlashib bordi. Biror tarixiy voqeyilikni yoritishda aniqroq tasavvur berish uchun raqamli texnologiyalardan to'g'ri va o'z o'rnida qo'llay olish tarixni o'rganishda muhim qadam bo'lib hisoblanadi.zamonaviy reallikning beqarorligi, ehtimoliyligi murakkablik barcha jabhada namoyon bo'lmoqda. Shu sababli insoniyatga zamonaviy murakkab makonda faoliyat olib borishi uchun yangi usullarni bilishi zarurdir. Yurtimizda ham bu borada katta ishlar amalga oshirilib, ta'lim sohasi xususan gumanitar fanlarda qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llay olish naqadar katta natijalarni berishini anglagan holda, eng samarali uslublarni ishlab chiqish bugunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

#### **Xulosa.**

Zamonaviy texnologiyalar kirib kelmagan soha qolmagan. Shu jumladan tarix fani ham bundan holi emas. Yuqorida raqamli tarixning ijobiy tomonlarini ko'rib chiqdik. Dunyo ilm-fanida o'z o'rnini mustahkam egallashga ulgurgan raqamli tarix yurtimizda ham samarali qo'llanmoqda. Yaqin kelajakda vatanimiz tarixini yoritishda yanada aniqroq yondashgan holda yangidan-yangi manba turlarini yaratish imkoniga egamiz. Bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib tarixni yoritishda zamonaviy uslublarni qo'llab, amaliyotga tatbiq etib borishimiz zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. T.Toyloqov. Raqamli tarix nima? <https://cyberleninka.ru>
2. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Unversiteti. Tarix fanining nazariy asoslari. Toshkent -2020. 145-bet.
3. Alimova. D. A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent-2018. 234-bet.
4. Xusanboy Mo'minov. Mavlonbek Komolov. Raqamli texnologiyalar va raqamli tarix. <https://www.researchgate.net>
5. Sanobar Shadmanova. Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullar. Toshkent-2018. 60-bet.

### **TIBBIYOT SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ZAMON TALABI**

**Raximberganov Sanjarbek Rustam o'g'li,  
Qosimov Saidkamol Qudrat o'g'li  
Davolash fakulteti 5-bosqich talabalari.  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali,  
Urganch shahri, O'zbekiston Respublikasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada koronavirus infeksiyasiga qarshi o'tkazilayotgan vaksinatsiya, uning pandemiya davridagi samarali roli, vaksinatsiyadan keyin rivojlanuvchi asosiy nojo'ya ta'sirlar, ularning patogenez, ularning oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar keltirilgan va ilmiy maqolada yuqoridagi ilmiy asoslarga tayanib ish olib boruvchi bot haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:**vaksina, preoptik zona, ekzogen va endogen faktorlar, dilatatsion kardiomiopatiya, dispeptik sindrom, telegram-bot.

**Аннотация.** В данной статье представлена вакцинация против коронавирусной инфекции, ее эффективная роль во время пандемии, основные побочные эффекты, развивающиеся после вакцинации, их патогенез, комплексные меры по их профилактике и устранению, а также в научной статье ссылаются на вышеуказанные научные основы. бот, который полагается на него.

**Ключевые слова:** вакцина, преоптическая зона, экзогенные и эндогенные факторы, дилатационная кардиомиопатия, диспептический синдром, телеграмм-бот.

**Abstract.** This article presents the vaccination against coronavirus infection, its effective role during the pandemic, the main side effects that develop after vaccination, their pathogenesis,

comprehensive measures for their prevention and elimination, and the scientific article refers to the above scientific foundations. information about the bot that relies on it.

**Key words:** vaccine, preoptic zone, exogenous and endogenous factors, dilated cardiomyopathy, dyspeptic syndrome, telegram-bot.

**Kirish.** COVID-19 vaktinalari xavfsizdir va og'ir COVID-19 yoki o'lim rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Emlashdan keyin vaksina oluvchida tanadagi himoya reaksiyasining rivojlanishini ko'rsatadigan yengil yon ta'sirga duch kelish mumkin.[1.2] .Har qanday vaksinaning samaradorligi mezoni u tomonidan yaratilgan immunitetdir.[2.1]. Bugungi kunda koronavirusga qarshi emlashlar har kuni butun mamlakat bo'ylab bir necha ming kishiga beriladi. Ko'pgina bemorlar emlashdan keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar haqida hamma narsani bilishni xohlashadi.[3.] Hammamizga ma'lumki, hozirgi sharoitda koronavirus infeksiyasidan saqlanishning eng maqbul yo'li vaksinatsiya bo'lib qolmoqda. Har narsaning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lganidek, u kasallikdan himoyalaydi yoki nisbatan yengil o'tkazishga yordam beradi. Shu bilan birga vaksinatsiyadan keyin qator nojo'ya ta'sirlar rivojlanishi ham mumkin. Uning rivojlanishi esa hammada bir xil kechmaydi, kasalliklarga o'xshab ma'lum bir patogenezga ega emas. Bu esa vaksina oluvchilarda qo'rquv uyg'otishi bilan birga, ularning psixo-emotsional holatlariga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. Remissiya davridagi kasallikning qo'zish davriga o'tishiga sabab bo'lmoqda bular bilan esa vaksina oluvchilarda vaksinadan bosh tortish, yoki ikkinchi va uchinchi dozalarni qabul qilmaslikka sabab bo'lmoqda.

**Tadqiqot maqsadi:** Koronavirus infeksiyasiga qarshi o'tkazilayotgan vaksinatsiyadan keyin rivojlanuvchi nojo'ya ta'sirlarning patogenezini, patogeneziga ta'sir etuvchi ekzogen va endogen faktorlarning o'rnini aniqlash. Shulardan kelib chiqqan holda Koronavirus infeksiyasiga qarshi o'tkazilayotgan vaksinatsiyadan keyin rivojlanuvchi nojo'ya ta'sirlarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Shu ilmiy yangiliklarga asoslanib, koronavirusga qarshi vaksinatsiyadan keyin nojo'ya ta'sirlarning rivojlanish mexanizmlarini, ularning oldini olish va bartaraf etish uchun zaruriy tavsiyalarni beruvchi botni ishga tushirish.

**Natijalar:** Nojo'ya ta'sirlarning patogeneziga ta'sir o'tkazuvchi faktorlarni aniqlashtirish bo'yicha vaksina qabul qilgan shaxslar va Urganch shahar shifoxonasi Terapiya bo'limiga nojo'ya ta'sirlardan shikoyat bilan kelib, yotqizilgan bemorlar kuzatuvga olindi. Ularda rivojlanuvchi nojo'ya ta'sirlar o'rganilib chiqildi. Yig'ilgan ma'lumotlarga asoslanib patogenezi haqida ma'lumotlar olindi. Jami kuzatuvga 60 nafar shaxs olindi va ularning shikoyatlari quyidagicha bo'ldi :Ko'ngil aynishi 20%(12 nafar), bosh og'rig'i 20%(12 nafar), ensa sohasidagi og'riq 10%(6 nafar), holsizlik 30%( 18 nafar), mushaklardagi og'riq 20 % ( 12 nafar), inyeksiya qilingan qo'ldagi og'riq 20%(12 nafar), ishtaxa pasayishi 20%(12 nafar), eshakemi 10%(6 nafar), uyquchanlik-30%(18 nafar), isitma 30%( 18 nafar)ni, artralgiya (bo'g'imlardagi og'riqlar) 10% ( 6 nafar), siydik yo'llarida va buyrakda og'riq 10 % ( 6 nafar)ni, tashkil etdi. Bemorning ahvoli og'irlashib, shifoxonaga murojaat qilgan va davolangan 10% ( 6 nafar)ni tashkil etdi. Urganch shahar shifoxonasi Terapiya bo'limiga yotqizilgan bemorda quyidagi o'zgarishlar aniqlanildi: 50 yoshli erkak bemor shikoyatlari harakatda nafas siqishi, hansirash, tez charchab qolish, butun tanasida shish, siydik ajralishi kamaygan, quruq yo'tal, bosh og'rig'i, ishtaha pasayishi, umumiy holsizlik. Bemorda nojo'ya ta'sirlar, asosan, 3- 4 kunlardan keyin shakllanib boshlagan. Dastlab tana harorati ko'tariladi. Keyin shishlar paydo bo'ladi. Allergiya uchun ambulator davolanish samarasiz kechadi. Tana harorati 36,2 Cni tashkil etdi. Limfa tugunlari kattalashmagan. Teri va ko'rinadigan shilliq qavatlarida oqimtir rangda, labida sianoz bor, oyoq, qo'llarida, yuzida, qornida shish bor. Nafas olish soni 24ni tashkil etdi. O'pkada susaygan nafas eshitiladi. Yurak tonlari bo'g'iqlashgan. Laborator instrumental tekshiruvda esa quyidagilar aniqlandi: EKG: Bo'lmachalar fibrilyasiyasi, Yurak urishlar soni 200-110 marta/minut, Taxisistolik tur. Qorincha ekstrasisitoliyasi. Chap qorincha old devorida chandiqli o'zgarishlar. Chap qorincha gipertrofiyasi. UTT: Portal gipertenziya. Assit, O'tkir xolesistit. Qonning laborator tashxisi: Hb:93g/l, Leykotsit 4910, ECHT 19mm/soat. Biokimyoviy tahlillar: umumiy oqsil : 70, 0/l, glyukoza 4,8 mm/l, mochevina 7,6mm/l, kreatinin94,4mkm/l, umumiy bilirubin 14,6mkm/m, erkin 14,6mkm/l, ALT 52, 0, AST71,0 shuningdek, bemorda gepatit C topildi.

**Natijalar muhokamasi:** Ushbu kechib turgan jarayonlarni tushunish, mohiyatini ochish uchun koronavirusning hujayraga birikish mexanizmini ko'rib chiqamiz. Bugungi kunda virusning hujayraga kirishining ikkita yo'li farqlanmoqda. Uning ta'siri angiotenzinga aylantiruvchi ferment 2 (ASE2)



reseptori orqali yoki hujayra membranasidagi CD147 deb nomlangan glikoprotein orqali amalga oshadi. ASE 2 orqali ta'sirini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: virus shohidagi S-oqsil o'zining tuzilishiga ko'ra ASE 2 reseptoriga o'xshab ketadi, shu bois koronavirus ASE 2 reseptor bilan muvaffaqiyatli bog'lanadi. Virusning reseptor bilan o'zaro ta'siri S2 moddasi bilan amalga oshadi. So'ngra virus o'zining RNKsini hujayraga ichiga oson joylashtiradi, biroq koronavirus majmuasi bilan hujayra membranasini invaginasiyasini ta'minlovchi modda hozircha ma'lum emas. [4, 788]. Asosiy tarqalgan nojo'ya ta'sirlarning rivojlanishiga alohida to'xtalamiz:

**Isitmalash.** Isitmaning shakllanish mexanizmi esa quyidagicha kechadi. Inyeksiya qilinganda organizmga tushgan virusning domeni, RNKsidan sintezlanuvchi peptidlar ekzogen yoki birlamchi pirogen agentdir. Ularning immun hujayralarga ta'siri natijasida limfokinlar sintezi bo'lib o'tadi. Interleukin I endogen pirogen funksiyasini bajaradi. Pirogen moddalar-bu termoregulyatsiya tuzilmalarini spetsifik qo'zg'atuvchi yuqori molekulyar (lipo-polisaxarid va oqsillar) birikmalaridir.[5.67] Gipotalamusning old qismi-preoptik zonada termoregulyatsiya markazi joylashgan. Unda termosezgir va termoo'rnatuvchi nuqtalar mavjud. Qonda mavjud bo'lgan pirogen agent esa ikkinchi markazning neyronidagi retseptor bilan bog'lanish hosil qiladi. Pirovardida kislotali fosfolipazalar faollashadi. Ushbu ferment hujayra membranasidagi araxidon kislotani parchalaydi. Siklik oksigenazalar ta'sirida undan siklik endopeptidlar, keyin esa prostaglandin E<sub>1</sub> va prostaglandin E<sub>2</sub> sintezlanadi. Uning ta'sirida tana harorati pasaygandek his qilinadi. Natijada organizmda tana haroratini ko'tarishga qaratilgan mexanizmlar ishga tushadi. **Inyeksiya qilingan qo'ldagi og'riq** o'tkir yallig'lanish bo'lishi hisobiga yallig'lanish mediatorlari ta'sirida og'riq, mahalliy temperatura shakllanadi. Chunki yallig'lanish birinchi navbatda mahalliy patologik jarayondir. Ushbu holat, asosan, ayollarda kuzatildi.

**Mialgiya yoki mushaklar og'irig'i** vaksinaning miozit chaqirishi bilan bog'liq. Buning patogenezini ham o'tkir yallig'lanish reaksiyalari hisobiga kechadi.

**Bosh og'rig'i** ham tana harorati ortishi bilan uzviy bog'liq. Dispeptik o'zgarishlar (asosan, jigar (gepatit C) va o't kasalliklari (xolesistit) mavjud bo'lgan ayni damda remissiya davrida turgan bemorlarda kuzatildi). Fermentlar ichaklarda vorsinkalardagi ustunsimon epitelial hujayralar tomonidan sintezlanadi. Oshqozon va ichaklardagi fermentlarning harorat oshganda faolligining susayishi hisobiga, gepatit bilan og'riqlarda jigar funksiyasining normal o'tmasligi hisobiga, enterotsit va oshqozon epitelial hujayralarining vaksina tarkibidagi domenlar bilan kompleks hosil qilib, funksiyasini to'liq bajara olmasligi hisobiga shakllanadi. **Ensa sohasida og'riqlar**-arterial qon bosimning ortishi bilan bog'liq. Buni arteriola va venula qon tomirlarining funksiyasi normal o'tmasligi bilan tushuntirsa bo'ladi. **Allergik jarayonlar**-interleukin 4 B hujayralar proliferatsiyasini kuchaytirib, IgG va IgE titrini ortishiga olib keladi

**Xulosa.** Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, nojo'ya ta'sirlarni patogenetik bartaraf qilish mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda vaksinasiyadan avval vaksina oluvchining yoshi, jinsi, o'tkazgan kasalliklariga alohida e'tibor qaratish kerak. ASE-2 reseptorlari joylashgan sohalarda o'zgarishlar kelib chiqishiga tayyor turish kerak. Vaksinasiyadan keyin surunkali kechayotgan ayni damda kasalligi remissiya davrida bo'lgan bemorlarga kasalligi xuruj qilganda qo'llaniladigan dori-preparatlar, kerakli parhezlar tushuntirilishi kerak. Tana haroratini ko'tarilishi hisobiga suyuqlik balansi pasayishi nazarda tutib, og'ir jismoniy mehnatlar, ruhiy zo'riqish yoki asabiylashish, yuqori haroratda o'tirish, sayr qilishni vaqtincha cheklash (yosh nisbatda kichiklarda, jins nisbatda erkaklarda ko'proq) individual xususiyatdan kelib chiqib 2-4 kun atrofida. Vaksina oluvchilarda qonning reologik xususiyatlarini inobatga olib antikoagulyant preparatlarni vaqtincha tayinlash kerak. Yallig'lanish jarayonlari kechishini inobatga olib, organizmda allergik reaksiyalar chaqiradigan allergen mahsulotlar ovqat ratsionidan vaqtincha ahvoliga qarab 1-3 kun davomida chiqarish kerak. Ushbu ma'lumotlar ma'lum izchillikda botga joylashtirildi. Uning menyusi ichiga eng ko'p tarqalgan nojo'ya ta'sirlar, ularning shakllanish mexanizmlari, oldini olish va bartaraf etish qismlaridan iborat. Ushbu bot oilaviy shifokorlar va tibbiyot oliygo'hlari talabalari uchun qo'llanma sifatida foydalanishga tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. "Side Effects of COVID-19 Vaccines." <https://www.who.int/ru/news-room/feature-stories/detail/side-effects-of-covid-19-vaccines>.



2. “Как работает вакцина от коронавируса.” к.м.н. Ксения Бочарова. <https://www.kp.ru/doctor/bolezni/vakczina-ot-koronavirusa/>

3. Есть ли побочные эффекты после вакцинации. <https://medsi.ru/articles/est-li-pobochnye-effekty-posle-vaktsinatsii/?ysclid=lcru10ih409741029>

4. ICHKI KASALLIKLAR. Abdig‘affor Gadayev-Toshkent. “Muharrir” nashriyoti, 2020.

5. PATOLOGIK FIZIOLOGIYADAN AMALIYOT DARSLARI UCHUN QO‘LLANMA. A.A.XUSINOV-Toshkent “Yangi asr avlodi” nashriyoti-2008-yil.

## OILADA BOLANI TARBIYALASHDA INSONIY FAZILATLARNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Buxoro davlat Pedagogika instituti  
Pedagogika kafedrası katta o‘qituvchisi (PhD)  
Toyirova Shahlo Izatovna  
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabasi  
Soliyeva Gulnigor Muhammad qizi

**Anotatsiya.** Ushbu maqola oilada bola tarbiyasi bo‘yicha ma‘suliyatli yondashuvlar hamda yosh avlodni tarbiyalashda insoniy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar keltirib o‘tilgan. Psixologik determinant sifatidagi bir qancha xususiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar aks ettirilgan.

**Annotation.** This article presents the concepts of responsible approaches to raising children in the family and human qualities in raising the young generation. The factors causing the emergence of several characteristics as psychological determinants are reflected.

**Аннотация:** В данной статье представлены понятия об ответственных подходах к воспитанию детей в семье и человеческих качествах в воспитании подрастающего поколения. Отражены факторы, вызывающие появление ряда характеристик как психологических детерминант.

**Kalit so‘zi:** fazilat, rahmdillik, egizak, determinant, tarbiya, mehnatsevarlik, jamiyat, vaziyat.

**Key word:** virtue, compassion, twin, determinant, education, diligence, community, situation.

**Ключевые слова:** добродетель, сострадание, близнец, детерминант, образование, трудолюбие, сообщество, ситуация.

Jamiyatimizda tarbiya masalasiga e‘tibor yuksak o‘rinda turadi. Bugungi kunda oila tarbiyasi, pedagogik tarbiya masalalari falsafiy, sotsiologik va psixologik-pedagogik asarlarda ancha yorqin yoritilgan. Shu bilan birga, oila muammolarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning individual psixologik-pedagogik madaniyatini shakllantirishning mazmuni va usullari, ularning darajasini baholash mezonlari va parametrlari bo‘yicha hali ham yagona nuqtai nazar mavjud emas. Ayniqsa oilada bolaning ijtimoiylashuvida ota-ona hamda uning yaqinlari tomonidan tarbiya metodlarini qo‘llash orqali insoniy fazilatlarini shakllantirib borish muammosi ahamiyatli vaziyatlardan biridir. Bolani tarbiyalashda muhim sanalib kelingan to‘g‘riso‘zlik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, kamtarlik, rahmdillik, bilimdonlik, halollik, saxiylik kabi hislatlar unda yuksak insoniy fazilatlarini yuzaga keltiradi. Bunday fazilatlarga ega insonlar jamiyatda hurmat qozonadi, boshqalar oldida e‘tiborga ega bo‘ladi. Komil inson bo‘lish uchun kishi o‘zida yoshlikdan ushbu fazilatlarini tarbiyalab borishi kerak. Bunda ota-ona tomonidan bolani to‘g‘ri tarbiyalash zamirida etnopsixologik qadriyatlarini sindiribgina qolmay yaxshi fazilatli xulq egasi sifatida tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Fazilatni shaxsning ma‘lum shaxsiy loyihalarini, eng ijobiy yo‘l bilan amalga oshirish uchun ega bo‘lgan bir qator ijobiy fazilatlar yoki xususiyatlar sifatida aniqlash mumkin. Bu ideallar halollik, yaxshilik, adolat va go‘zallik bilan yonma-yon ketadi. Fazilat illatlarga qarshi turadi va insonning axloqiy hayotida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, odamlarning savobli tarzda yaxshi amallar qilishlari kerak bo‘lgan yaxshi odat sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Odamlar yaxshi yoki yomon tug‘ilmaydi, bu xususiyatlar biz o‘sib ulg‘aygan sari yaratiladi va ularning ko‘pchiligi biz kundan kunga yashayotgan tajribalarimiz tufayli paydo bo‘ladi. Ko‘pincha bu fazilatlar ota-onamizdan olgan tarbiya, shuningdek, biz olgan tayyorgarlik va yaxshi inson bo‘lish uchun qilgan harakatlarimiz tufayli yaxshilanadi. Bu shuni anglatadiki, har bir inson o‘z hayotida yaxshi yoki yomon bo‘lishini tanlashi mumkin, shunchaki biz fazilatlarga ega bo‘lamiz yoki biz buzuqlik va nuqsonlarga berilib ketamiz. Abdulla Avloniy aytganlaridek: “Janobi Haqning amriga itoat qanday saodat

esa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtivorlikdur.” [1] Ota-onalar tomonidan farzandlarini qanoatli, sabrli bo‘lishlari uchun ham ma’suldir. Shu nuqtai nazardan insoniy fazilatlardan qanoatli bo‘lish ham tarbiyaning eng yuksak bosqichidir. Har qanday ota-ona o‘z farzandining sog‘lom, yetuk, imon va e’tiqodli qilib tarbiyalanishini orzu qiladi. Ota-onalar barkamol o‘g‘il-qizlarni tarbiyalashlari uchun jamiyat oldida ham, millat oldida ham, ajdodlari va Ollohning oldida ham asosiy javobgardir. Oila tarbiyasi-oilada ota-onalar, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy kuch oilaviy tartib, ya’ni oila a’zolarining bir-biriga munosabati, ota-ona va boshqa katta kishilarning xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, oila byudjeti, yashash sharoiti va harakati.

Oila qanchalik tartibli, uni a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, oila tarbiyasi bolaning shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasi bolaning ilk go‘daklik davridan boshlanadi. Oilada uning sog‘lig‘i, jismoniy kamoloti, to‘g‘ri o‘vqatlanishi, uxlash rejimi, ozodalik va shu kabilarga ahamiyat beriladi.

Ota-ona mehr-muhabbati esa, ijodiy harakatni, improvizatsiya elementini o‘z ichiga oladi. Ota-ona sevgisi individualdir, u murakkab, o‘zgaruvchan va qarama-qarshidir. Unda mutlaq me’yor yo‘q, xuddi mehribon ota-onaning aniq me’yori-ideali yo‘q. Sevimli ota-onalar xato qilishlari, bolaga bo‘lgan his-tuyg‘ulariga shubha qilishlari, uni jazolashlari va nafaqat g‘amxo‘rlik qilishlari, quvonch keltirishlari, bolaning barcha ehtiyojlarini qondirishlari mumkin.

A.Y. Lichko tomonidan oilalarda bola tarbiyasi bilan bog‘liq yuzaga keladigan to‘rtta noqulay vaziyatni aniqlaydi:

a) turli darajadagi haddan tashqari himoyalaniş. Bu bolalarning hayot yo‘llarining barcha ko‘rinishlarida sherik bo‘lish istagidan tortib, oilaviy jazolanishgacha bo‘lgan vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu holat XX asrning 70-yillardagi oilalarida kuzatilgan;

b) g‘amxo‘rlik, ko‘pincha e’tiborsizlikka aylanadi;

v) oilaning yaratuvchilik holat-u bolaning har qanday motivatsiyasiga doimiy e’tibor va juda kamtarona muvaffaqiyatlar uchun ham haddan tashqari maqtov bilan ajralib turadi;

d) oilada “Zolushka”ni yaratishga qaratilgan vaziyat – mualliflarning qarashlariga ko‘ra, ota-onalar o‘zlariga ko‘p, bolalarga esa kam e’tibor beradigan ko‘plab oilalar paydo bo‘lganligini ta’riflaydilar. Natijada qo‘pol va shafqatsiz o‘smirlar sonining ko‘payishiga olib keladi. [2] Bolani tarbiyalashda insoniy fazilatlarning psixologik ta’siri yuqori o‘rinda turadi. Ota-ona bolani yaxshi xulq egasi sifatida tarbiyalash uchun avvalambor o‘zida insoniy fazilatlarni shakllantirgan bo‘lishi kerak. Insoniy fazilatlar ichida sabr-toqatlilik, mehribonlik, rostgo‘ylik xususiyatlar psixologik ahamiyatga ega. Bolaning xulq-atvoriga sabr bilan qaralishi bolalarga g‘amxo‘rlik va muhabbatni his qilishlariga imkon beradi hamda konstruktiv munosabatlar va yaxshi muloqot o‘rnatish uchun kalit hisoblanadi. Sabr-toqat, o‘zini tuta bilish, hissiy intellektni tarbiyalash bola miyasining to‘liq rivojlanishiga yordam beradi. Ota-onasi juda ko‘p g‘azabladi bolalar osoyishta muhitli oilalardagi tengdoshlariga qaraganda tajovuzkor va tushkun bo‘lishadi, maktabda ham yomonroq o‘qishadi. Sabrli bo‘lib ulg‘aygan bolalar sabrsizlarga qaraganda ko‘proq muvaffaqiyatga erishishi tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Леонтьев Д. А. Личностная зрелость как опосредование личностного роста. Культурно-историческая психология развития. Д. А. Леонтьев. М., 2001. С. 154-161.
2. Личко А.Е. Типы акцентуаций характеров и психопатий у подростков. - М., 1999.
3. Тойирова Ш. Ўзбек оилаларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.
4. Izatovna, T. L., va Izatovna, T. S. (2021, February). PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY. In E-Conference Globe (pp. 98-104).
5. Izatovna, T. S. (2021). THE INFLUENCE OF PSYCHOGENETIC FACTORS ON THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 297-303.
6. Izatovna, T. S. (2021). PSYCHOLOGICAL APPROACHES OF PARENTS IN THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 82-87.

7. Izatovna, T. S. (2022). Theoretical and Scientific Approach to the Psychology of Adolescent Twins in the Process of Social Adaptation. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(2), 51-57.

8. Toyirova, S. I. (2023). ONTOGENEZNING ILK BOSQICHLARIDA EGIZAKLAR PSIXOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 200-204.

9. Izatovna, T. S. (2020). Psychodiagnostics of distinguishing twins from each other. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 3986-3992.

## **INCREASING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Userbayeva Feruza**

*Student at Chirchik State Pedagogical University*

*feruzauserbayeva@gmail.com*

*Scientific leader: Kamoliddinov Farrux*

**Abstract.** This article contains thoughts and opinions aimed at introducing artificial intelligence into the educational process and improving the quality of education. In today's rapidly growing world, every young person receiving education should keep up with the times. Among the ideas aimed at the development of the field of education, of course, attention should be paid to artificial intelligence. This article also contains our thoughts on the introduction of artificial intelligence in the field of education and increasing the effectiveness of education.

**Key words:** *education, skills, information, process, program, digital science, new, technologies.*

## **TA'LIM JARAYONIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**Userbayeva Feruza Inoyat qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

*feruzauserbayeva@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: Kamoliddinov Farrux*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim jarayonida sun'iy intellektni joriy qilish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan fikr va mulohazalar o'rin olgandir. Hozirgi davr shiddat bilan o'sayotgan zaminda har bir ta'lim olayotgan yosh, zamon bilan hamnafas bo'lishi kerakdir. Ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan fikrlar orasidan albattaki sun'iy intellektga ham e'tibor beriladi. Hamda ta'lim sohasida sun'iy intellektni joriy qilinishi va ta'lim samadorligi oshirishga qaratilgan fikrlarimiz ushbu maqola o'rin olgandir.

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, mahorat, axborot, jarayon, dastur, raqamli fan, yangi, texnologiyalar.*

## **ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС**

**Усербаева Феруза Иноят кизи**

*Студентка Чирчикского государственного педагогического университета*

*feruzauserbayeva@gmail.com*

*Научный руководитель: Камолитдинов Фаррух*

**Аннотация.** В данной статье собраны мысли и мнения, направленные на внедрение искусственного интеллекта в образовательный процесс и повышение качества образования. В современном быстрорастущем мире каждый студент должен идти в ногу со временем. Конечно, среди идей, направленных на развитие сферы образования, внимание уделяется искусственному интеллекту. Также в этой статье изложены наши мысли по поводу внедрения искусственного интеллекта в сферу образования и повышения эффективности образования.

**Ключевые слова:** *образование, навык, информация, процесс, программа, цифровая наука, новые, технологии.*

**Introduction**

The development and implementation of artificial intelligence (AI) applications for secondary and higher education has the potential to change students' study of subjects and teachers' teaching methods in a positive light. AI applications can provide personalized learning experience for students and offer innovative solutions for educational challenges [1]. An ideal feature of artificial intelligence is the ability to evaluate and perform actions that have the best chance of achieving a specific goal. Currently, artificial intelligence consists of an algorithm and software systems designed to perform various actions, and it is able to cope with several tasks that the human mind can perform [2]. The introduction of artificial intelligence and computer technology into the field of education is becoming a demand of the modernizing world. Moving education to numbers takes its toll on the development of this field in Albattaki.

### **Literature analysis and methodology**

G.Sayfullayevning geografiya o'qitish metodologiyasi kitobida bir qancha fikrlar yuritilgan. Kitobda bir qancha metodlar yoritib berilgan. Misol uchun: "Aqliy hujum" metodi-biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. N.Sh.Shadiyevning Tabiat Va Geografiya o'qitish metodikasi kitobida

Geografiya o'qitish o'z mazmuni va mohiyati jihatidan pedagogika fanining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Maktabda geografiya ta'limining mazmuni va uni tashkil etish geografiya o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifasi hisoblanadi. Tabiiy geografiya fanini o'qitish jarayonini metodik jihatlarini tadqiq qilishda geologiya, kartografiya va topografiya, geomorfologiya, 7 landshaftshunoslik, gidrologiya, glyatsiologiya, atmosfera fizikasi, geokimyo singari fanlarning asosiy tushuncha va tamoyillariga tayanib ish ko'radi. Kitobda mazkur fikrlar keltirib

O'tilgan. Z.Davronovning ilmiy ijod metodologiyasi kitobida metodologiya turlarini 3 guruhga bo'ladi. Bular:

1) falsafiy; 2) umumiy ilmiy; 3) maxsus ilmiy

Endi biz bir qancha metodlarni taxlil qilamiz:

**Pedagogik kuzatish metodi.** Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- ishlari va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

**Suhbat metodi.** Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq.

**Anketa metodi.** (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

**Intervyu metodi.** Respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

**Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi.** Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmimini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

**Test metodi.** Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:



**Pedagogik tahlil metodi.** Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

**Bolalar ijodini o'rganish metodi.** Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari-kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

**Pedagogik tajriba (eksperiment — lotincha “sinab ko'rish”, “tajriba qilib ko'rish”) metodi.** Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur

**Matematik-statistik metod.** Tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko'virlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Geografiya fani tadqiqot predmetining o'zgarishi, fanning taraqqiy etishi bilan bu bosqichlarning mazmuni va ularga sarflanadigan vaqtlar o'zgaradi. Chunki hozirgi zamon geografiyasi nomiga muvofiq bo'lgan—tasviriy-kashfiyotlar geografiyada – ilmiy-amaliy ish olib boradigan tadqiqotlar loyihalash faniga aylanmoqda. Buni nazariya orqali isbotlayotgan soha ma'lum bir vazifani aniq bir tabiiy geografiya sohasiga tatbiq etilsa turli darajadagi xilma-xil geosistemalardan tashkil topgan. Yerusti strukturasi-geografik qobiqni o'rganish tabiiy geografiyaning predmeti. Geografik qobiqni turli katta-kichiklikdagi sistemalarga bo'lib, tahlil etish-tasvirlash bu fan metodi. Geosistemalar haqidagi nazariyalar asosida ularning xususiyatlarni namoyon etish geografik bilimlarning o'ziga xosligini tashkil etadi. Demak, geografik bilimlarning o'ziga xosligi-bu tabiiy yoki ishlab chiqarish tizimlari qanday shakllangan bu birinchidan, ikkinchidan bu sistemalar ayni chog'da qanday holatda, uchinchidan kelgusida bu sistemalar qanday o'zgarishga uchraydi. Bu tahlit geografik o'ziga xoslikning negizida-barcha yer ustidagi sistemalar bir-biri bilan aloqa va o'zaro ta'sirda mavjud bo'lish masalasi yotadi. Chunonchi, quruqlik bilan okean doimo aloqa va ta'sirda, atmosfera bilan gidrosfera ta'sir va aloqada. Tabiiy geografiya fanlarining o'rganish predmeti-geografik qobiq; Geografik qobiqning strukturasi. GQ hududiy strukturasi-dagi komponentlarning o'zaro ta'siridan hosil bo'lgan komplekslarni o'rganadi. Geografik qobiqda strukturaviy tuzilishidan kelib chiqadigan tabiiy hududiy komplekslar va hududiy ishlab chiqarish komplekslarining shakllanish va joylanish qonuniyatlarini o'rganadi. Ammo geografiya yer yuzasidagi narsa va hodisalarni o'rganadigan fan sifatida bundan 2100 yillar muqaddam paydo bo'lgan bo'lishiga qaramay mazkur fanning o'rganish predmeti o'zgarib turgan. Ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng, fanning o'rganish predmetiga qarashlar o'zgarishga uchradi. Chunki Yerdagi geografik obyektlarni tasvirlash mazmuniga ega geografik atamasi mohiyatan o'z vazifasini o'tab bo'lgan edi. Materiklar, orollar, okeanlar, dengizlar, tekisliklar, tog'lar kashf etilib ularning geografik ta'riflar vazifasi, ekratilganligi ma'lum edi. Davrlar o'tishi bilan fanlarning differentsiyalashuvi ya'ni tarmoqlarga bo'linib ketishi natijasida geografik fanidan ko'pgina tarmoq fanlar ajrala boshladi. Shunda tabiatshunos olimlarning uzoqni ko'zlab fikrlaydigan vakillar geografik fanining predmeti tabiatni bir butun tarzda talqin etish bilan bog'liq muammolari bo'lishi lozimligi o'qtirdilar. Shulardan biri bor yo'g'i 28 yil umr ko'rgan niderlandiya olimi Berixard Varenus o'zining “Umumiy geografi” kitobini yozib 1950-yildayoq “Geografik yer-suv sharini bir butun, o'zaro bog'liq holda o'rganishi lozim”, deb yozgan edi. Shundan keyingi davrlarda nemis olimlari K.Ritter geografik “butur yer shari”ni, A.Gettner “ulkalarni, ulardagi predmet va hodisalarning hududiy joylanishi nuqtainazaridan o'rganishi”ni F.Rixgofen “Yer

planeta yuzasini”, Fransuz olimi E.Marton “Yer yuzasida inson faoliyati bilan tabiiy, biologik hodisalar, hamda ularning joylanish sabablarini” o‘rganadi deb ko‘rsatgan edilar. Peterburg universitetining kafedra mudiri P.I.Brounov 1910-yilda geografiya fanining obyektini sifatida “Yerning tashqi qobig‘i tabiiy tuzilishining hozirgi holatini” o‘rganadi deb yozgan edi. Hozirgi zamon geograflarining aksariyati P.I.Brounovning bu fikriga qo‘shiladilar, ammo “tashqi qobiq” tushunchasining mazmunini bir xil talqin etmasdan, uni “geografik qobiq”, “landshaft qobig‘i”, “geosfera”, “biogenosfera”, “Epigeosfera” va boshqa terminlar mazmuniga yo‘g‘rib (kiritib) tushuntiradilar.

### **Xulosa va takliflar**

Hozirgi rivojlangan zamonda fan va texnika tinimsiz ravishda o‘zgarib bormoqda. Shu bilan birgalikda ta‘lim berish metodlari xam izchil o‘zgarib rivojlanib bormoqda. Men shaxsiy izlanishlar natijasida sizlarga bir qancha yangicha metodlarni taqdim qilmoqchiman.

**Turfa xillik metodi.** Ushbu metodda dars o‘tish uchun o‘qituvchidan turfa xil metodlardan xabardor bo‘lish talab qilinadi. Metodga ko‘ra o‘qituvchi har bir darsda yangicha metod qo‘llaydi. Misol uchun; dushanba kuzatish, seshanba test metodi, chorshanba anketa metodi va h.k. Bu metod orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga har darsda yangicha metodlar bilan dars o‘tishga va metodlarni sinab ko‘rishga yordam beradi. Ushbu metod o‘quvchilarni darsdan zerikish hissidan uzoqlashtiradi. O‘quvchilar har bir darsga qiziqish bilan borishadi va o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi.

**Tablo metodi.** Ushbu metodda tablo tuzulib unda darsni o‘zlashtirish bo‘yicha eng yaxshi o‘quvchilar ketma-ketlikda tabloga tushiriladi. Misol uchun; Bobur 12 ball, Sardor 10 ball, Olim 6 ball (baholash sistemasini qanday tuzish ahamiyatsiz) va h.k. Bu metod o‘quvchilarda sog‘lom raqobat tuyg‘usini shakllanishida yordam beradi. Ushbu metodning salbiy tomonlari ham bor. Bu metod natijasida sinfda tabaqalanish vujudga kelishi mumkin.

**Qiziqtirish metodi.** Ushbu metodda o‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarga fan bo‘yicha qiziqarli ma‘lumotlar berib boradi. Misol uchun; Dunyodagi eng sovuq poytaxt bu Ulan Bator. Bu o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini o‘stiradi. Ushbu metoddan ayniqsa yilning boshida foydalanilsa yaxshi natija beradi.

**Psixologik metod.** Biz ushbu metodni individual metod deb atashimiz ham mumkin. Metodga ko‘ra o‘qituvchi birinchi darslarda har bir bolalarning psixikasini o‘rganib chiqadi va shunga qarab bolalarga turlicha muomalada bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchining psixikasini o‘rganish orqali dars sifatini yaxshilash mumkin. Salbiy taraflari; sinfda o‘quvchilar soni ko‘p bo‘lmasligi. Chunki sinfda bolalar 20 tadan oshib ketsa o‘quvchi tarkibida individuallik bo‘lgan metodni qo‘llashda qiyinchiliklarga uchrashi mumkin.

Biz yuqorida keltirib o‘tilgan barcha ma‘lumotlardan shuni anglashimiz mumkinki, hali ta‘lim metodologiyasida qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina. Hozirda mamlakatimizda ta‘limga alohida e‘tibor ko‘rsatilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” asarida bu haqida shunday deydi: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono, va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat‘iyat va mas‘uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zbo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma‘naviyatimizdan, tarixi xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. Davlatimiz rahbari O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrik nutqida ta‘kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir.

Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I. Karimov “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch”, G. Sayfullayev “Geografiya o‘qitish metodologiyasi” (Buxoro 2022),

2. N. Sh. Shadiyeva “Tabiat va geografiya o‘qitish metodikasi” (Buxoro 2022),

3.Z.Davronov “Ilmiy ijod metodologiyasi” (Toshkent 2007), R.A.Mavlonova “Umumiy pedagogika”.

## **“BESHIK TO‘YI” MAROSIMINING KELIB CHIQISHI VA UNING AMALIY AHAMIYATI.**

**Navoiy davlat pedagogika instituti  
II kurs talabasi Rajabboyeva Sevinch  
Ilmiy rahbar: f.f.f.doktori N.Tursunova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada marosimlarning biri hisoblangan “Beshik to‘yi” marosimining kelib chiqish tarixi, o‘tkazilish tarzi haqida, unda kuylanadigan qo‘shiqlar to‘g‘risida fikr yuritildi va ularni kuylashdan maqsad nima ekanligi aytib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar:** marosim, marosimning ahamiyati, beshik to‘yi, aytimlar.

Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san‘ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o‘ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi an‘analari, odatlari, axloqiy qoidalarini o‘zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiyalashda, ularning odobli-axloqli bo‘lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o‘tadigan, o‘z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo‘shiqlariga ega hayotiy tadbirdir. Marosimlar kishilarning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ma‘naviy hayot qadriyatlarini sirasiga kiradi.

O‘zbeklar marosimlarga boy xalqdir. Marosimlar biror sababsiz yoki asossiz yuzaga kelmaydi. Ular maxsus uyushtiriladi. “Ajdodlarimiz tomonidan amal qilinib kelingan bola tug‘ilishi bilan bog‘liq urf-odatlar ham O‘rta Osiyo xalqlari oilaviy-maishiy marosimlari folklorining qadimiy qatlamini tashkil etadi.”<sup>84</sup> To‘y ko‘pchilik ishtirok etadigan yirik marosim. O‘zbek to‘ylarini o‘tkazish tarsi, ishtirokchilari tarkibi, vazifalari hamda uning verbal qismini tashkil etuvchi poetik folklorini janriy tarkibiga ko‘ra bir necha turga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Marosim haqida gapirar ekanmiz, beshik to‘yi – Yaqin va O‘rta Sharq, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar oilasida to‘ng‘ich farzand tug‘ilishi sharafiga o‘tkaziladigan tantanali marosim. Beshik to‘yi nafaqat o‘zbek, balki turkiy xalqlar marosim folklorining qadimiy uzvlaridan biri ekanligini Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi beshikka aloqador leksemalar ham tasdiqlaydi.<sup>85</sup>

Bu udum O‘zbekiston viloyatlarida o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Biz bu marosimning Xorazm diyorida nishonlanishi to‘g‘risida aytib o‘tamiz. Ayol ilk farzand tug‘ganidan keyin, beshik to‘yini ikki tomon qudalar birgalikda tashkil qilib o‘tkazadilar. Uning ota-onasi xursandchilikidan va ota-onasining zimmasida bo‘lgani uchun beshik, belanchak va boshqa narsalarni olib borishadi. Chaqaloq tug‘ilganidan 5 kun o‘tgach, besh oqshomni sog‘-salomatlikda ko‘rdi deb, beshta qo‘shniga oq un oshi ovqati tarqatiladi. Bu marosimni o‘tkazishdan maqsad chaqaloqning umri uzoq bo‘lsin, doim sihat-salomat bo‘lib yursin deya o‘tkaziladi. Bola tug‘ilgandan keyin 40 kunlik chilla davri bo‘ladi. Ana shu 40 kun ichida 7 kun o‘tgach onasi bolani yuvintirib, chilladan chiqarib, uyga mulla chaqirib, onasi chaqaloqni qibla tomonga qarab turib, mulla chaqaloqning qulog‘iga azon aytib, keyin uning ismini aytadi. Chaqaloq tug‘ilib, oradan 7-10 kun o‘tgach, uning kindigi tushgandan so‘ng beshikka belanadi. An‘anaga ko‘ra, beshik asosan tut, jiyda, o‘rik kabi mevali daraxtlarning yog‘ochidan tayyorlanadi. Beshikning mevali daraxt yog‘ochidan yasalişining ham ramziy ma‘nosi bor: bu mevali daraxtlar qadimgi ajdodlarimiz tasavvurida ham hosildorlik, qut-baraka timsoli sifatida qaralgan. Ajdodlarimiz mevali daraxtlarga xos sermevalik, ya‘ni hosildorlik xususiyati beshik orqali bolaga ham o‘tadi deb ishonganlar.

Beshikka belanish jarayonida qarindosh-urug‘lari ishtirok etib, qari momolar aytim aytib beshikka belaydilar.

<sup>84</sup> Latifa Xudayqulova, Nsiba Tursunova. Oilaviy – maishiy marosim folklori. Navoiy-2022y. 15-bet.

<sup>85</sup> Latifa Xudayqulova, Nsiba Tursunova. Oilaviy – maishiy marosim folklori. Navoiy-2022y. 51-bet.

Bavak-bavak bak bavak,  
Onasining joni bavak.  
Otasining moli bavak,  
Bog'da uzumning g'orasi  
Tog'da echki bolasi  
Bu kimning nevarasi  
...nevarasi  
...nevarasi.

Bu aytimning aytilishidan maqsad, chaqaloqning ilk to'yi bo'lganligi va uning kelajagi buyuk, umri uzoq, ota-onasining izdoshi, solih, soliha farzand bo'lib yetishishi uchun, shunaqa aytimlar aytib, beshikka belanadi. Momo tomonidan aytilgan aytimlarda bola va onaning ins-jinsidan muhofaza qilinishi bilan bog'liq odatlar o'tkaziladi.

Bizga ma'lumki, umumo'zbek folklori an'analari mamlakatimiz hududlari o'rtasida mushtarak jihatlar bo'lsa-da, marosimlar ichidagi turli-tuman urf-odat, rasm-rusum, irim-sirim, aytim va alomatlar talqinidagi o'ziga xosliklari bilan bir-biridan jiddiy farqlanib turadi. Bunday o'zgachalik har bir hududda qadimdan shakllangan o'ziga xos folklor an'analari, aholisining etnik tarkibi bilan bog'liq janriy rang-baranglik va hududda kechgan ko'p asrlik madaniy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan badiiy matnlarning boshqa joylarda uchramasligi yoki muayyan darajada farqlanib turishi bilan xarakterlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O.Safarov .O'zbek bolalar poetik folklori. Toshkent .O'qituvchi.1985.
2. B.Sarimsoqov.O'zbek marosim folklori.Toshkent.Fan.1986.
3. M.Alaviya.O'zbek xalq marosim qo'shiqlari.Toshkent.Fan. 1974.
4. L.Xudayqulova, N.Tursunova .Oilaviy-maishiy marosim folklori.Navoiy.2022
5. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent: O'qituvchi, 1975.
6. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985;.

### **TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR**

**N.O'.Bobonazarova**

**University of Economics and pedagogy NOTM  
,pedagogika kafedrası o'qituvchisi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada tarbiya jarayonining mohiyati, xulq-atvorning shakllanishi, tarbiya jarayonida ota-onaning o'rni kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.Yosh avlodni tarbiyalashda qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar ahamiyati va psixologik mexanizmlar haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:**tarbiya jarayoni, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, psixologik mexanizmlar.

Tarbiyali bo'lish-bu xulq-atvorni nazorat qilishdan iboratdir: bunday nazorat insonni yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi.

Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi: bola o'zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g'amxo'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida bo'lish ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amxo'rligini bildiradigan so'zlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amxo'rlik va e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqqan xulq-atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas.

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf-odatlarini roli katta.

Xalq urf-odatlarini, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

Mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish: jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir kishining tinmay g'amxo'rlik qilishi: ijtimoiy burchni yaxshi anglash; jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axlokiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovtlarga aslo yo'l qo'ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim psixatlaridir.

Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlamaganda bola o'z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

Tarbiyaviy jarayon amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni-tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, o'g'zaki tanbex berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchi alohida takrorlanmas individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham tavsiflar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan bir ehtiyojning o'rnini fakat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan mulokotni ham emas, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi. Arastu aytganidek: "Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa".

Konfutsiy: "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi" degan edi, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz konidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chukur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek milliy mustaqillik va uning ne'matlari respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. milliy tuyg'u, milliy qiyofa, milliy xarakter, milliy ta'b, milliy kuy, milliy raqs, milliy ma'naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta'siri ostida o'zining tub mohiyatini aks ettira boshladi. O'tmishning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli o'z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik hislatlari o'rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o'rnatilmoqda, shovinizm turmushdan uzoqlashmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasini ortishidainning, xususan "Hadis" ilmining ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik, g'amxo'rlik, samimiylik, o'zaro yordam, simpatiya, antipatiya, hamdardlik, sevgi muhabbat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda hadislarining roli yanada ortmoqda.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqlol rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir".

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analalar yetakchi o'rin tutmog'i lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orqali yoshlarda quyidagi fazilatlarini tarbiyalash lozim.

- a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish;
- b) xayrihohlik, odamlarga hurmat, mehr - shavkat;

- v) kattalarni hurmat qilish, e'zozlash;
- g) muloyimlik;
- d) ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;
- ye) kichik yoshdan mehnatsevarlik;
- j) Jismoniy baquvvatlik;
- z) axloq odoblilik;
- i) oilaparvarlik;
- k) ayollarga hurmat;
- l) o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni amalga oshirish vazifalari ana shuni taqozo qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Levantuev P.I., Asqarxo'jaev A., Chudnovskiy V.E., Vohidov M.V. Bolalar psixologiyasi d'lari. T., “O'qituvchi”, 1964
2. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004
3. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiya. T., 1998
4. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., 1991
5. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., “O'qituvchi”, 1970
6. G'oziev E. Psixologiya. T., “O'qituvchi”, 1994
7. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O'qituvchi”, 1976
8. Karimova V. Va boshqalar. Mustaqil fikrlash. T., “Sharq”, 2000
9. Ahloq-odobga doir Xadis namunalari.-T., 1990
10. Ibroximov A. Va boshqalar. Vatan tuyg'usi. – T., “O'zbekiston”, 1997

### **TALABALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDAGI TURLI SHAKLLAR**

**Islamova Rahbarxon Ravshanovna**  
**Guliston davlat universiteti o'qituvchisi**  
**Tel: +998915076686**

**Annotatsiya.** Zamonaviy insondan tanlagan vaziyatda harakat qilish, maqsadlarni belgilash va unga erishish, mustaqil qarorlar qabul qilish talab etiladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimi oldida o'quvchilarda ijodiy shaxsni shakllantirish, faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalash vazifasi turibdi.

Hozirgi ta'lim bosqichda ta'limni modernizatsiya qilish yo'nalishida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar uning mazmun-mohiyatining turli variantlarini ishlab chiqish, ta'lim g'oyalari va texnologiyalari samaradorligini oshirishda pedagogika fani va amaliyoti imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga olib borilmoqda, yosh avlodning ijodiy salohiyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Tayanch so'zlar:**pedagog ijodiy faoliyat, bilim, ijodkor, kompozitsiya, kreativ rivojlantirish, perspektiva, loyiha, ijodiy-badiiy faoliyat.

Mamlakatdagi ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ahvoli tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat yangi tipdagi tafakkurga ega, hayot muammolarini nostandart va samarali hal qila oladigan shaxsga muhtoj.

Bu muammoni hal etishda talabalarning bilimni kengaytirish va chuqurlashtirishga, ularning tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantirishga, ijodiy faolligini namoyon etishga, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga hissa qo'shishi lozim bo'lgan oliy o'quv yurtlariga alohida o'rin beriladi. Badiiy didni tarbiyalash, tasavvurni, tasavvurni, dunyoqarashning o'ziga xosligini uyg'otish.

Ijodiy faoliyat tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonida ma'lum psixologik-pedagogik sharoitlarga bog'liq holda rivojlanadi, ularning eng muhimi o'quvchilar ijodiy faoliyatining samarali turlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishdir.

Ijodkorlikning insonni ozod qiluvchi va uning mavjudligiga ma'no beruvchi kuch sifatidagi ahamiyati haqidagi antropologik g'oya uning barcha falsafiy asarlarida mavjud. U ijodkorlik uchta elementga asoslanadi, deb hisoblagan:

a) erkinlik elementi, buning yordamida faqat yangi va hech qachon mavjud bo'lmagan ijodkorlik mumkin;

b) sovg'a elementi va u bilan bog'liq bo'lgan maqsad;

v) allaqachon yaratilgan dunyoning elementi, unda ijodiy harakat amalga oshiriladi va u o'zi uchun materiallar oladi [2].

Biz ushbu bayonotni qonuniy deb hisoblaymiz, bu shaxsning ijodiy faoliyatining rivojlanishi faqat bir qator omillarning kombinatsiyasi bilan mumkinligini tasdiqlaydi, ulardan eng muhimi:

– ijodiy qobiliyatning mavjudligi (“sovg'a”), hokimiyatdan mustaqillik va standartlar (“erkinlik elementi”);

– reproduktiv va ishlab chiqarish tamoyillarining birligi (“yaratilgan dunyoning elementi va ijodiy harakatning o'zi”).

Ijodkorlikni ma'lum qoidalar va harakat usullariga oqilona bo'lish mumkin emas. Antropologik yondashuv nuqtayi nazaridan ijodkorlik nafaqat yangi mahsulotlar, qadriyatlar, g'oyalar yoki kashfiyotlar yaratish emas, balki shaxs tomonidan shaxsiyatni yaratish, uning o'ziga xosligi va potentsial ijodiy cheksizligini anglashdir. “Ijodkorlik” tushunchasini talqin qilish bo'yicha umumiy qabul qilingan nuqtayi nazar shundan iboratki, u inson faoliyatining bir turi sifatida yangilik va o'ziga xoslik, o'ziga xoslik va ijtimoiy-tarixiy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Aksariyat olimlar ijodkorlikning tabiati bir, shuning uchun ham ijodkorlik qobiliyati universaldir, degan fikrda. San'at, texnologiya yoki boshqa faoliyat turlarida yaratishni o'rgangan odam bu tajribani boshqa har qanday sohaga osongina o'tkazishi mumkin. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda shaxs faoliyati ijodkorlik va ixtiyoriy muloqot harakatlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklarini “o'zlashtirish” asosida hayotda ijtimoiy ahamiyatga ega o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida qaraladi.

Shaxsning umumiy faoliyati shakllari boshlangan faoliyatni davom ettirish istagida, bajarilgan harakatlarning energiyasida, faoliyat bilan bog'liq stressga nisbatan chidamlilikda, bajarilgan harakatlarning xilma-xilligida, tezligida va ularning o'zgaruvchanligida ifodalanadi. Shaxsning o'zini namoyon qilish, samarali o'zlashtirish va tashqi voqelikni o'zgartirish tendentsiyasida faollik mavjud.

Shunday qilib, faoliyat inson hayotining o'zini o'zi anglash, ehtiyojlarni qondirish, faoliyat uchun motiv bo'lgan muayyan holatlar va obyektlarga nisbatan tabiiy yo'lidir. Faoliyat faoliyat bilan bog'liq holda, uni shakllantirish, amalga oshirish va o'zgartirishning dinamik sharti, uning harakatining dalili sifatida qaraladi.

## **O'SMIRLIK YOSHIDA TA'LIM-TARBIYAGA INDIVIDUAL YONDOSHISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.**

**“University of economics and pedagogy” NOTM**

**o'qituvchisi Z.P.Komilova**

**Annotatsiya.** Maqolada o'smirlar psixologiyasining ta'lim-tarbiyaga individual yondashishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari haqida so'z boragan.

**Kalit so'zlar.**yosh davrlari, o'smirlik, ota-ona, mahalla, hamkorlik

**Аннотация.** В статье рассматриваются социально-психологические особенности индивидуального подхода подростковой психологии к воспитанию.

**Ключевые слова.**возрастные периоды, подростковый возраст, воспитание детей, соседство, сотрудничество

**Annotation.** The article discussed the social psychological features of the individual approach of adolescent psychology to education.

**Keywords.** Age periods, adolescence, parent, neighborhood, collaboration

Bugun dunyoda hozirgi asrimizga ta'rif berilar ekan avvalambor “XXI asr texnologiyalar asri”, “XXI intellektual avlod asri” deb nom berilmoqda. Hozirgi kun hayotimizga zamonaviy texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari kirib bormagan soha qolmagani va ular hayotimizning ajralmas bir

qismiga aylanib ulgurani barchamizga sir emas. Bugun insoniyat o'z sivilizatsiyasining eng barakali davrida yashamoqda, lekin shu bilan birga bugun butun dunyo mamlakatlari aholisini tabiat injiqliklari, ekologik halokatlar, texnogen fojialar, urushlar, qurolli to'qnashuvlar, yadro xavfi, siyosiy qarama-qarshiliklar, giyohvandlik, turli bedavo dardlar, kasaliklar tashvishga solmoqda. Bular aynan biz yashayotgan zamonaviy texnologiyalar asri ko'zguqidagi muammolardir. Insoniyatning bugungi yana bir fojiasi – yoshlar orasidagi muammoli masalalar hisoblanadi. Ayniqsa, bu muammolar o'smirlik yoshidagi bolalarda ko'p uchrashi bolalar bilan hamkorlikda ishlash zaruriyatini ko'rsatib bermoqda.

O'smirlik yoshi barcha yosh davrlaridan o'ziga xos shiddati va o'zgarishlarga moyilligi bilan farq qiladi. O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtayi nazar, prinsip, o'zligini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanib, 11-12 va 15-16 yoshlarni o'z ichiga oladi. Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smir faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smiringa ijtimoiy ta'sirlarning natijasida xulq-atvorining shakllanishi, reaksiya va hokazolar namoyon bo'la boshlaydi. O'smir yoshining klassik tavsifi, o'tish davri bu ideallarga, yangi intilishlarga, hislarning yo'nalganligiga va harakatlarning o'ziga xosligiga bog'liq jarayon bo'lib, bolalik va kattalik o'rtasidagi mas'uliyatli faoliyatni turmush tarziga aylantirish kabi jarayonlarning kechishi bilan bog'lanadi. O'smirlik yoshi inson hayotining eng qiyin davrlari bo'lib, uning yaxlit shaxs sifatida shakllanishi, nafaqat fiziologik yetilish, shaxsiy biografiya, balki jamiyatdagi ma'naviy muxit va mavjud ijtimoiy mafkuraga nisbatan ichki norozilikdan iborat psixologik o'ziga xoslik davri ekanligi tasdiqlanadi. O'smir shaxsining tarkib topishida ahloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniy hislatlarni shakllantirish jarayoni o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtayi-nazarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo'ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalarni egallash kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada favqulodda holatlarga katta yoshdagi odamlarning o'tgan o'rni va uslubini baholash ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat – voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyaga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan, o'rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan xoli bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi anglashilmovchilik g'ovini yo'qotadi. Bu yoshda o'smirlarga nisbatan qarashlar va munosabatlarni o'zgartirish talab etiladi. Ota-onalar va o'qituvchilarga o'smirlar bilan samarali muloqotni amalga oshirish usullarini o'rgatish mas'uliyatini maktab amaliyotchi psixologlari amalga oshirishlari lozim. O'smir bola bilan oilada ham alohida e'tibor lozim. Xususan, bola shaxsini xurmat qilishi, unga kattalarcha munosabatda bo'lishi, qiziqish, istak-xoxishlarini inobatga olish talab etiladi.

Bolalar yoshligidan ota-onalarning yaqin yordamchilari ekanligini his qiladilar. Maktab, mahalla hamkorlikda o'tkazilgan mehnatga bog'liq tadbirlarga bola o'sha tadbirni qanday maqsadda o'tkazilayotganini tushunib qatnashsa, mehnat qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mahalla, maktab, oila bolani tarbiyalashga hamkorlikda ma'sul hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi va o'zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat namunasiga aylanadi.

1. Birinchidan maqsadga yo'naltirilgan tarbiya yo'li bilan bolalarda mehnatga mehr uyg'otib, ularning mehnat qilishlari uchun ko'nikma xosil qilishga yordam beradilar.

2. Oila, maktab, mahalla hamkorlikda bolalarning ahloqiy va mehnat tarbiyasiga ongli munosabatda bo'lishi-shakllangan an'analar, qiziqish va ehtiyoj kattalarning o'zaro munosabatlari bolalar tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.



Ota-onalar bolaning qiziqishini o'z vaqtida payqab, ulardagi iste'dodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari l

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, farzand tarbiyasida belgilab qo'yilgan alohida metod va usullar yo'q. Hamma gap ota-onani oilaviy tarbiyada pedagogik-psixologik bilim egasi bo'lishlari bilan bog'liq. Shu bilan birgalikda bolaning xatti- harakatini qat'iy nazoratga olib, ongi shuuriga tayyor qoidalarni, navbatchi gaplarni singdirishga urinmang. Bolani shaxs sifatida hurmat qilib, erkinlik berish, o'zaro hamfikrlilikda ish yuritish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gaziev E. G., Tulagonova G. K. Metodicheskie ukazaniya po "Vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii" k razdelu "Psixologiya podrostkovogo vozrosta". (dlya nepsixologicheskix fakultetov). Tashkent, TagGU, 1990.
2. Jumaev U.S O'smirlarda kasb tashlashga munosabat tizimini shakllanishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixolog.fanl.nomz.ilm.dar.olish.uchun tadqiqot ishi. T.2004 y.
3. Karimova V.M. Yangi turdagi ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning psixologik muammolari. – T., 1998.-10-13 betlar.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: "O'qituvchi", 1994. -95 b.
5. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.:A. Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 205 bet.

### **GENDER TUSHUNCHASI, GENDER PSIXOLOGIYASINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

**Axmatjonova Xurshida Komiljon qizi  
Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali  
"Psixologiya" fakulteti  
Oila psixologiyasi yo'nalishi 3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** "Gender" tushunchasi [feministik](#) nazariya va [gender shunoslikning](#) rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. Gender so'zi ijtimoiy, jins esa biologik tushuncha hisoblanadi. Gender psixologiyasi erkaklar va ayollar solishtirma psixologiyasi bo'lib ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni, terotiplarni o'rganuvchi fan hisoblanadi.

**Abstract:** The concept of "gender" has become widespread due to the development of feminist theory and gender studies. The word gender is a social concept, and sex is a biological concept. Gender psychology is a comparative psychology of men and women, and it is a science that studies the similarities and differences between them, terotypes.

**Аннотация:** Понятие "гендер" получило широкое распространение благодаря развитию феминистской теории и гендерных исследований. Слово "гендер" — это социальное понятие, а пол — это биологическое понятие. Гендерная психология — это сравнительная психология мужчин и женщин, и это наука, изучающая сходства и различия между ними, теротипами.

**Kalit so'zi:** Gender, jins, ijtimoiy jins, erkak, ayol, erkak psixologiyasi, ayol psixologiyasi, gender sotsializatsiyasi, [irq](#), [sinf](#), yetakchilikning gender psixologiyasi, zamonaviy feminis, psixofiziologik, neyropsixologik.

**Key words:** Gender, gender, social gender, male, female, male psychology, female psychology, gender socialization, race, class, gender psychology of leadership, modern feminist, psychophysiological, neuropsychological.

**Ключевые слова:** Гендер, гендер, социальный пол, мужской, женский, мужская психология, женская психология, гендерная социализация, раса, класс, гендерная психология лидерства, современная феминистская, психофизиологическая, нейропсихологическая.

Gender – inglizcha "gender" – "zot" so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ust qurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi. "Gender" tushunchasi [feministik](#) nazariya va [gendershunoslikning](#) rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. U ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi, ularning bir qator vakillari (asosan feministik mualliflar) odamlar o'rtasidagi farqlarning tabiiy kelib

chiqishini shubha ostiga qo'yadilar va ularni ijtimoiy jarayonlar bilan izohlaydilar. Shunday qilib, "gender" tushunchasi "biologiya taqdir sifatida" haqidagi oddiy g'oyalarni tanqid qilish uchun mo'ljallangan va [gender tengligi mafkurasiga ishora qiladi](#).

Garchi ko'pgina manbalar genderni "ijtimoiy jins" deb ta'riflagan bo'lsa-da, bu tushuncha zamonaviy feministik va gender tadqiqotlarida eskirgan deb hisoblanadi. Genderni biologik jinsning hosilasi sifatida tushunishni tanqid qilib, zamonaviy tadqiqotlar bu ikkala toifani ham bir-biri bilan murakkab o'zaro ta'sirda bo'lgan ijtimoiy tuzilmalar sifatida ko'rib chiqadi. Biroq, feministik nazariya, postfeminizm, [gender psixologiyasi](#), gender sotsiologiyasi va lezbiyen falsafasining turli oqimlarida „gender“ atamasini talqin qilishda farqlar mavjud.

"Gender" va "jins" tushunchalari o'rtasidagi farq ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga tayanadi, bu tabiiy va tabiiy ko'rinadigan farqlarni ijtimoiy jarayonlar bilan izohlaydi. "Gender" tushunchasiga qarama-qarshi "jins" tushunchasidan foydalanish [ayol](#)

va [erkaklarning](#) jamiyatdagi mavqei hamda "erkak" va "ayol" o'rtasidagi farqlar biologik kelib chiqishi yo'q, degan tezisga asoslanadi. Lekin biologik talqin bir yo'lidir, bu jamiyatda qonuniy<sup>[7]</sup>. Shunday qilib, ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari "sog'lom fikr"ni, ya'ni zamonaviy jamiyatlarda hukmron bo'lgan kundalik g'oyalarni tanqid qiladilar, unga ko'ra ijtimoiy erkaklar va ayollarga bo'linish va buning natijasida xulq-atvor, imkoniyatlar, huquqlar va boshqalardagi farqlar mavjud. Shu bilan birga, ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari ham xuddi shu "sog'lom fikr" va unga xos biologik determinizmga asoslangan an'anaviy sotsiologik nazariyalarni tanqid qiladilar.

Gender tadqiqotlari va asosiy feministik nazariyalarda gender hokimiyat va tengsizlikning ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy kategoriya sifatida tushuniladi. Feministik nazariyalarning klassik versiyalarida bu [erkaklarning ijtimoiy guruh sifatida ayollar ustidan hukmronligi](#) haqida edi: belgilangan va o'rganilgan gender rollarini bajarish imkoniyatlarning tengsizligini, erkaklarning ijtimoiy sohadagi afzalliklarini va ayollarning jamiyatga ko'chirilishini anglatadi. Shu bilan birga, xususiy sohaning o'zi kamroq ahamiyatli, kamroq obro'li va hatto repressiyaga uchragan bo'lib chiqadi. Zamonaviy feministik nazariyalarda genderni hokimiyatning tarkibiy munosabatlari sifatida tushunish, bir tomondan, jinsni boshqa ierarxik ijtimoiy toifalar ([irq](#), [sinf](#) va boshqalar) kontekstida ko'rib chiqish orqali yanada murakkab va takomillashtirilmoqda) va boshqa tomondan, gender zulmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida majburiy gender binarini tushunish orqali. Shunday qilib, "gender" tushunchasi nafaqat tahliliy, balki siyosiy hamdir: u mavjud bo'lgan tengsizlikning gender munosabatlarini tanqid qilishni o'z ichiga oladi va ijtimoiy tuzumni o'zgartirish va [gender tengligiga](#) asoslangan yangi ijtimoiy tartibni qurish uchun mo'ljallangan.

### **Gender psixologiyasining predmeti, vazifalari va usullari**

Menimcha, I.S.Kletsina gender psixologiyasi predmetini va uning bo'limlarini tushunishga eng to'g'ri yondashgan. Bizning qarashlarimiz hamma narsada mos kelmasa ham, ularning ko'p jihatdan umumiylikni mamnuniyat bilan qayd etaman. Bu muallif rus gender psixologiyasida, birinchi navbatda, uning diqqatli tarixchisi sifatida alohida o'rin tutadi. Keng ma'noda gender psixologiyasining predmeti – bu jins bilan bog'liq bo'lgan psixikaning xususiyatlari. Ushbu qoidani konkretlashtirish psixologiyaning ushbu sohasining turli bo'limlarida mavjud. 6 ta katta bo'lim mavjud: 1) erkaklar va ayollarni solishtirish psixologiyasi; 2) ayol psixologiyasi; 3) erkak psixologiyasi; 4) gender sotsializatsiyasi; 5) gender munosabatlari psixologiyasi; 6) yetakchilikning gender psixologiyasi.

**Erkaklar va ayollarni solishtirish psixologiyasi.** Gender psixologiyasi tarixi davomida bu bo'lim turli nomlarga ega bo'lgan: jinsiy dimorfizm, jinsiy dipsixizm, gender farqlari, gender farqlari. Bizningcha, biz taklif qilgan nom ushbu bo'limning mohiyatini eng aniq aks ettiradi. Erkaklar va ayollar, o'g'il bolalar va qizlar turli ko'rsatkichlar bo'yicha – psixofiziologik va neyropsixologikdan psixikaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarigacha taqqoslanadi. Bu farqlarni o'rnatishi shart emas. Shuningdek, o'xshashliklarni o'rnatish kerak (farqlarning yo'qligi har doim ham o'xshashlikni anglatmaydi). Ushbu taqqoslashdan maqsad jinslarning o'ziga xosligini, erkaklar va ayollarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir. Gender psixologiyasining ushbu bo'limi eng rivojlangan bo'lib, ushbu kitobning aksariyat qismi unga bag'ishlanganligi bejiz emas. Biroq, hozirgi kunga qadar psixikaning barcha parametrlari o'rganilmagan. Bundan tashqari, paradigmani o'zgartirish kerak – farqlarni o'rnatishdan o'ziga xoslik va o'ziga xoslikni o'rnatishgacha (jumladan, jinslarning o'xshashligi). Psixologiyaning yangi bo'limining

tadqiqot salohiyati juda yuqori: fanimizdagi psixofizikadan tortib ijtimoiy psixologiyagacha bo'lgan deyarli barcha tadqiqotlarni erkaklar va ayollarning teng na'munalarida takrorlash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gender / Barchunova T. V. // Vosmerichniy put — Germansi [Elektronniy resurs]. — 2006. — S. 532. — (Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya : [v 35 t.] / gl. red. Yu. S. Osipov ; 2004—2017, t. 6). — ISBN 5-85270-335-4.
2. Kathy Davis, Mary Evans, Judith Lorber (eds.). *Handbook of Gender and Women's Studies*. Sage, 2006. ISBN 978-1-4462-0684-3.
3. Бёрн Шон. *Гендерная психология*. СПб.: Прайм-Еврознак, 2002. ISBN 978-5-9387-8019-4.
4. Arxivnaya kopiya ot 17 fevralya 2019 na Wayback Machine
4. *Введение в гендерные исследования. Ч. I: Учебное пособие*. Харьков, СПб: ХЦГИ, Алетейя, 2001. ISBN 5-89329-397-5.
5. Кон И. С., *Мужчина в меняющемся мире*. М.: Litres, 2015. ISBN 97-8-54250-7404-1.
Umuman olganda, 3D Maxda siz ob'ektlar bilan qanday ishlashni o'rganishingiz mumkin. Bu usullar: ob'ektni belgilash, nomi bo'yicha tanlash, ob'ektlarni ko'chirish, aylantirish, kattalashtirish, xususiyatlarni o'rnatish, aylanish nuqtasini o'zgartirish, sahnada ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik, ko'rinmas ob'ektlarni ko'rsatish, ko'plab ob'ektlarning ierarxik munosabati va ob'ektlarni guruhlashdir(2-rasm)[13].



2-rasm.

Shunday qilib, maktablarda 3D modellashtirishni o'rganish bolalar uchun muhim va juda foydali. Bundan tashqari, ko'plab maktab o'quvchilari bunga qiziqishmoqda, ular ushbu texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishadi.

Shunday qilib, o'rganilgan tahlillar va natijalar asosida aytishimiz mumkinki, o'quv jarayoniga 3D modellashtirishni joriy etish quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

– geometrik modellashtirishning eng muhim usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, tarmoqlari, geometrik ma'lumotlarni ko'rsatish va shaxsiy kompyuterda taqdim etish usullari haqidagi bilimlarni o'rganish;

– uch o'lchovli modellarni qurish va olingan natijalarni tasvirlash qobiliyatini o'zlashtirish;

– o'quvchilarning bilim faolligini shakllantirish; ijodiy fikrlash; texnologik bilim va ko'nikmalarni mustaqil faoliyatda amaliyotda qo'llash tajribasi;

– uch o'lchovli modellashtirish tizimlari va ularning interfeysidan foydalanish, kundalik hayotda, individual va jamoaviy loyihalarni amalga oshirishda, ta'lim faoliyatida, kelajakda mehnat bozorida talab qilinadigan kasblarni egallashda AKT vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

– bugungi kunda kasbga qiziqish va birinchi ko'nikmalar maktabda singdirilishi kerak .

Shunday qilib, kompyuter-axborot texnologiyalari modelidan foydalanish masalasi o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo'lgan ob'ektning ichki, tashqi xossalari ko'rsata olishdek muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** O'quvchilarning kompyuter grafikasiga oid qiziqishini oshirishda, tasavvurlarini shakllantirishda, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuterning uch o'lchovli dasturiy paketlaridan foydalanish o'ziga xos afzalliklarga ega. U o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, fanga ilmiy va ijodiy yondashishga o'rgatadi, o'quvchilar uchun o'quv mavzularini samarali o'zlashtirishga, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, bilimlarni mustahkam egallashga yordam beradi, his tuyg'ularga ta'sir etgan holda mashaqqatli aqliy faoliyat natijasida fanga va kasbga nisbatan muhabbat uyg'otadi. Shu bois turli uch o'lchovli fazoviy animatsiyaldan foydalanish tabiiy-texnikaviy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda grafik paketlardan foydalanish ta'limning muhim masalalardan biri sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. Allamberganova M. X. Informatikadan interaktiv o'quv majmualar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. –117 b.

2. Федоренко Н.М. 3D-технологии в образовательной и научнопознавательной сферах / Н.М. Федоренко, В.В. Петрова, Л.О. Рубенштейн Вестник МГПУ им. И. Федорова. – Вып. №5. – 2015.

4. Соловей Е. 3D в школе: кто, чему и как должен учить? [Электронный ресурс] / - 2016. – Режим доступа <https://habrahabr.ru/post/275495>

5. Лапчик М.П. и др. Методика преподавания информатики: Учеб. пособие для вузов по специальности 030100 «Информатика». / М.П. Лапчик, И.Г. Семакин, Е.К. Хеннер; Под общ. ред. М.П. Лапчика. М.: Академия, 2001. -621 с.

6. Макарова Н.В. Программа по информатике (системно-информационная концепция). СПб.: Питер, 2001. - 64 с.

7. Титова Ю.Ф. Методика обучения моделированию в базовом курсе информатики. Дисс. на соискание уч. степ, кандидата пед. наук. Санкт-Петербург, 2002.-201 с.

8. Залогова, Л.А. Практикум по компьютерной графике [Текст] / Л.А. Залогова. – М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2001. – 178 с.

9. Семакин И.Г. Преподавание базового курса информатики в средней школе: Метод, пособие / И. Семакин, Т. Шеина 2-е изд. - М.: БИНОМ. Лаборатория Знаний, 2004 - 540 с.

10. Монахов М.Ю., Солодов СЛ., Монахова Г.Е. Учимся проектировать на компьютере. Элективный курс: Практикум. М.: БИНОМ Лаборатория Знаний, 2005 - 172 с.

11. Александрова В.В. Методика обучения компьютерно-графическому моделированию пространственных базовых форм. Дисс. на соискание уч. степ, кандидата пед. наук. Санкт-Петербург, 2002. - 139 с.

12. Nikadambaeva H.B. «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta'lim misolida) // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. – 223 b.

13. Толубаева К.К. Внедрение компьютерных технологий трехмерного моделирования в учебный процесс [Электронный ресурс] / К.К. Толубаева – 2016 – Режим доступа: [http://www.rusnauka.com/12\\_KPSN\\_2009/Matemathics/44493.doc.htm](http://www.rusnauka.com/12_KPSN_2009/Matemathics/44493.doc.htm)

## O'QUVCHILARNI MA'NAVYI-AXLOQIY TARBIYALASHDA OILA TARBIYASI

Temirov Asilbek Davlat o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi

4"A"-guruh talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asli tarbiya oiladan boshlanishi, tarbiya tub ildizi ota-ona ekanligi, farzand ota onasidan o'rnak olishga harakat qilishi o'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash bilim yurtida, maktablarda va shu kabi ilm ulashadigan dargohlariga juda hamohangligi tarbiyani shakllantirishda juda ustuvor vazifani bajaradi.

**Аннотация;** эти статьи исходное воспитание начинается с семьи воспитание коренных корней является родительским, ребенок старается брать пример с отца духовно-нравственное воспитание учащихся очень гармонично сочетается с учебными заведениями, школами и аналогичными учебными заведениями.

**Annotation;** the fact that these articles are the beginning of the original upbringing of the family that the mother of the root of upbringing is a father, that the child tries to follow the example of the father of spiritual moral education of students in the country of knowledge, in schools and in the fields of knowledge associated with such science is a very priority in Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xizmatlarni shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma'naviy-axloqiy xis-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab etishdan iboratdir. Insonning taqdiri, kelajak hayotidagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi, kasb tanlashi, hattoki kayfiyati, uning oilaviy muhiti bilan bog'liqdir. Oilaning taqdiri esa insonning o'ziga bog'liq. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi azaliy haqiqat. Chunki, oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini, kichik bir vakili bo'lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko'chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo'llaydilar. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi.

Oila bu odobi axloq, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi, insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir[1]," – degan edi. Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zamirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi.

Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh sog'lomligining birligi kabi masalalarni o'rta tashlaydilar.

Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko'pgina jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo'yicha qarashlar tizimini tashkil etadi. Ana shunday durdona asarlardan biri A.Fitratning "Oila" asaridir.

Jumladan, A.Fitrat o'zining mazkur asarida farzand tarbiyasida aqliy tarbiya, badan tarbiya va axloqiy tarbiyaning o'rni muhimligini ta'kidlaydi[2]. Mazkur uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O'zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishingiz mumkin va qo'lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling[3]. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo'lmasa, aqli va jismoniy kuchini o'zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin, Abdurauf Fitrat bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat qilish lozimligini ta'kidlaydi. Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin. Boshqacha aytganda, odamning fe'li va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o'rtaga tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ular tarbiya jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzda bir maqsadga qaratilganini ta'minlaydi[4].

Abdurauf Fitrat axloqiy tarbiyani jismoniy va aqliy tarbiyadan keyingi – uchinchi bo'g'in tarbiya sifatida uqtirib, u “Insonni komil, chiroyli axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a'zo qilib shakllantirish”[5], deb uni amalga oshirishning quyidagi tizimini taklif qiladi.

Bolaga hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini tushuntirish. A.Fitrat Shayx Muslihiddin Sa'diyning (XIII asr) maslagi va hikoyatlarini tavsiya qiladi, uning “Guliston” va “Bo'ston” asarlarida kichik hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini bayon qiladi[6].

Tarbiyachining o'zi ibrat bo'lishi lozimligi. Tarbiyachining so'zi bilan xatti-harakati uyg'un bo'lib, u xatti-harakati bilan barchaga ibrat, o'rnak namuna bo'lmog'i lozim. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda “shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotida ibrat muhim o'rin tutadi, inson fe'l-atvorini faqat pand-nasihati, dashnom va va'z aytishlar emas, balki munosabat va ibrat shakllantiradi”[7], jumladan, axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat va axloqiy munosabat uyg'un holda in'ikos etadi. Yomonlarning yomonligini ko'rsatib, yaxshilarning yaxshiligini uqtirib borishda muayyan ijtimoiy tuzum va muhitni hisobga olish, ya'ni axloqiy tarbiya real voqelik va amaliy jihatlari bilan ma'naviy-axloqiy muhitni muayyan darajada barqarorlashtiradi. Demak, axloqiy tarbiyani ongli va maqsadli olib borish funktsionalligini ta'minlash insonda ezgu axloqni shakllantirishga asos bo'ladi. Muayyan ma'naviy-axloqiy fazilatlarning tizimli tahlili jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti taraqqiyotiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, karamlilik – saxovat, yaxshilik, demakdir. Bu halol va pok, mehnatkash, mehribon bo'lish va vijdon amriga bo'ysunib yashashdir. Karamlilik ma'naviy-axloqiy poklanish, nogironlarga, yetim-yesirlarga xayri-ehson, yaxshilik qilish, ularning ko'nglini ko'tarish, moddiy yordam berish kabi insoniy fazilatlarni qamrab oladi. A.Fitrat uni “odamlarga yaxshilik qilib, millatni yuksaltirish”[8], deb tushuntiradi. Sadoqat xislati huquqlarimizdan foydalanish, barcha burch va vazifalarimizni hazrati inson mavqeiga munosib bajarishni anglatadi. Sadoqat ijtimoiy axloq tizimi sifatida insonni ikki olamda baxtga yetaklovchi va ma'naviy-axloqiy omildir. “Bu dunyoda mo'tabar, oxiratda baxtiyor bo'lishni istaganlar, – deb yozadi A.Fitrat, – o'zlarida sidq (sadoqat M.Q.)ni paydo qilib, doimiy odatlariga aylantirishlari kerak. Ijtimoiy aloqalarning yagona nazoratchisi sidqu sadoqatdir”[9]. Oilashunos olimlar: G'.B.Shoumarov, N. Sog'inov, E. Sattorovlar oilaning maqsadi: barkamol avlodni voyaga yetkazish va jamiyat ravnaqiga hissa qo'shish, deb ta'kidlaydilar. Demak, oilaning asosiy maqsadi ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan oilaviy ahvolni rivojlantirish, jamiyatga sog'lom, aqlli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash. Jamiyatdagi barcha yutuqlardan foydalangan holda, undagi illatlarni tag-tomiri bilan yo'q qilishda faol ishtirok etish. Oila qal'a ekan, bu qal'ada bekinmashoq o'ynamaslikni, yoshlikdan o'yinqaroqlik, beboshlik, erkalik, beparvolik o'rnini sezgirlik, mas'uliyat, andisha, javobgarlikni sezish kabi fazilatlar egallashi lozimligini tushunish kerak. Buning uchun o'zimizda ma'suliyat hissi ko'nikmasini his qilishimiz zarur. Yosh avlodning hayotdagi ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar.

Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini

ta'minlashi mumkin. Oila tarbiyasidagi yutuqlar ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashish, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashiga bog'liq. Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik rejim, bolani kitobga va o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb qilishlari ham muvoffaqqiyat garovidir. Shunday qilib, oilaning jamoatchilik bilan hamkorligining o'rni beqiyosdir. Oilaning jamoatchilik bilan hamkorligi yaqin bo'lgandagina sog'lom g'oyalar, siyosiy ong va huquqiy madaniyat, mustaqil fikrlash, iymon, e'tiqod kabi tushunchalar ravnaqiga yetishadi. Bunda mahalla, bobolar va momolar tarbiyasi demokratiya darsxonasi bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.06.2018 y., 06/18/5466/1527-son
- [2] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: Ma'naviyat, 2000. B-83.
- [3] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: Ma'naviyat, 2000. B-83.
- [4] <http://muzaffar.uz/psixologiya-va-salomatlik/3494-oila-manaviy-axloqiy-tarbiya-uchogi.html>
- [5] Abdurauf Fitrat. Najot yo'li / Sh.Vohidov tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.157.
- [6] Qarang: K.Hoshimov va boshq. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2006. – B. 145-155.
- [7] Qarang: Ochilova B.M. Ajdodlar merosiga ixlosmandlik va shaxs ma'naviy-axloqiy kamoloti.: F.f.d-ri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtor.....f. – Toshkent: O'zMU, 2005. – 22 b.
- [8] Qarang: Abdurauf Fitrat A. Najot yo'li / Sh.Vohidov tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.77-82.
- [9] Abdurauf Fitrat. Najot yo'li / Sh.Vohidov tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.108.

### **TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHI-YOSHLARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**Mardanov Rahim G'aybulla o'g'li**  
**Jizzax politexnika instituti.**

**O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi**  
**Gmail: [rahimmardanov9@gamil.com](mailto:rahimmardanov9@gamil.com)**

**Annotatsiya.** Maqola ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning mazmun-mohiyati, tuzilmasini, o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchi-yoshlarni ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar va ularning tarixiy taraqqiyot yo'li tahlili hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning hozirgi holati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim-tarbiya, maqsad, ijodiy fikrlash, tafakkur, teran duyoqarash, intellektual salohiyatni, kontseptsiya.

**Аннотация:** В статье анализируются содержание, структура, специфика обучения учащихся творческому мышлению в образовательном процессе, теоретические подходы к творческому мышлению учащихся и их историческому развитию, а также современное состояние мышления учащихся общеобразовательных общеобразовательных школ. говорят о.

**Ключевые слова:** образование, цель, творческое мышление, мышление, проницательность, интеллектуальный потенциал, концепция.

**Abstract:** The article analyzes the content, structure, specifics of teaching students to think creatively in the educational process, theoretical approaches to creative thinking of students and their historical development, as well as the current state of students' thinking in general secondary schools. We are talking about.

**Keywords:** education, purpose, creative thinking, thinking, insight, intellectual potential, concept.

Bugungi kunda yosh avlodni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Zero, har qanday jamiyat o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, kechagi kuni, bugun va ertasi haqida xolis mushohada yurita oladigan fuqarolar bilangina rivojlanadi. Yosh avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatib borish, ularda fikr erkinligini tarbiyalash - kuchli jamiyat, kuchli davlat poydevori qurilishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, insonning fikrlash qobiliyati, tafakkur doirasi qanchalik keng va mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor, izlanuvchan, yangiliklarni qabul qilishga



hamda yangi g'oyalarni yaratishga qobiliyatli bo'ladi. Shu boisdan ham mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil mushohada yuritishga, erkin tarzda ijodiy fikrlashga o'rgatish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylanib, yuksak ma'naviy fazilatlarga, ijodiy fikrlash qobiliyati va o'zining mustaqil yondashuviga ega bo'lgan, erkin, sog'lom e'tiqodli shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to'plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Shu boisdan ham istiqbolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish ishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Inson hayotda o'z o'rnini topishi, ikki dunyo saodatiga erishishi, yurtining taraqqiyotiga hissa qo'shishi va shu vatanga munosib bir farzand bo'lishini ta'lim-tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni biz qushning ikki qanoti bo'lmasa, osmonga ko'tarilib, ko'klarga parvoz qila olmaganiga qiyoslasak bo'ladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini beradi. Demak ta'lim – bu bilim berish va malaka ko'nikmalarini hosil qilish jarayonidir. Ta'lim kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya – shaxs ongini jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni. Tarbiya shaxsning individual rivojlantirish jarayoni. Tarbiya shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy, aqliy, estetik, ma'naviy, jismoniy taraqqiyoti, axloqiy, aqliy, estetik, ma'naviy, jismoniy kamolotida yetakchi rol o'ynaydi. Demak, tarbiya kishilarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmui. Buyuk ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy aytganidek, “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[5]. Aynan shuning uchun tarixda ham yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bugun ham shunday bo'lmoqda, ertaga ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Biz qachon, qerda bo'lmaylik, yoshlar siyosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!”

Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash ustuvor vazifalarimizdan biridir”[1]. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan ma'lumki, mamlakat taraqqiyotini taminlashda o'sib kelayotgan yosh avlodda ijodiy fikr yuritish salohiyatini rivojlantirishning o'rni alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlab kunlardan oq yosh avlodda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlariga alohida etibor qaratdi. Jumladan, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki oylarida qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi qonunda “Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat” ekanligi mustahkamlab qo'yildi[2]. Ayni shu davrda “yangi avlod erkin, tanqidiy, ijodiy va mustaqil tafakkurga ega, mustamlakachilik davrida o'sgan avloddan farqli, ijtimoiy qo'rquvdan va milliy nomukammalilik tuyg'usidan xoli, siyosiy va ijtimoiy faol, izlanuvchan va omilkor, boqimandalikning har qanday ko'rinishidan or qiladigan, keng bilimli, ma'rifatli bo'lib shakllanishi lozim”, degan vazifa ko'ndalang qo'yildi[6]. Bundan tashqari, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” singari davlat ahamiyatiga molik hujjatlar asosida yangilangan milliy ta'lim tizimi mustaqil fikrlaydigan, o'z qarashiga ega bo'lgan, erkin, sog'lom e'tiqodli shaxsni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviy fazilatlarni qaror toptirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. O'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularni imkon qadar ko'proq ijodiy tafakkur yuritishga odatlantirish masalasi ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylandi. Chunki ijodiy fikrlay oladigan, mustaqil mushohada yurituvchi avlodgina chinakkam ma'noda kuchli jamiyat yaratishga qodir. Shu bois O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining shu ikki tarixiy hujjat qabul qilingan birinchi chaqiriq IX sessiyasidagi ma'ruzasida bu masalaga alohida e'tibor qaratdi: “Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo... ijodiy fikrlash katta boylikdir”[7]. 2016 yil 15

sentyabrdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunida ham o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash" O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni asosida qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlangan alohida band (4.5 band)da aks ettirilgandan keyin, 2017-yilda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tasdiqlangan mazkur dastur doirasida bugungi kunda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 3160-son qarorida ham "yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, Internet, axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish"[4] yangidan tashkil etilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning tashkiliyhuquqiy asoslari tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-sonli qarori bilan qabul qilingan Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani kontseptsiyasi" muhim o'rin tutadi. Mazkur kontseptsiyada qayd etilganidek, "Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda".

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo'llashga doir ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarini shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Shulardan kelib chiqqan holda birinchi navbatda, mamlakatimizda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirishga, uni yanada chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, bu mazmunga nafaqat, bilim, ko'nikma va malaka, balki, umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarakatofga munosabatlarni ham kiritish, ayniqsa, umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish, uni yanada rivojlantirish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi. Chunki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, maktab ostonasiga qadam qo'ygan ilk kundan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ularda ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish - kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi.

Shunday ekan, biz o'z mustaqil fikriga ega, jamiyat hayotida faol ishtirok eta oldagan yoshlar qanday xislatlarga ega bo'lishi kerakligi haqida chuqur o'ylashimiz, undan keyin ta'lim-tarbiyani shunga



yo'naltirishimiz lozim. Bugungi kunda yoshlarimiz bizning nafaqat tayanchimiz va suyanchimiz, balki bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanishi maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021.-262-b.
2. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida / O'zbekiston Respublikasining qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 2-son, 80-modda
3. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida / O'zbekiston Respublikasining qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 37-son, 426-modda.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5194/0032-son.
5. Avloniy, Abdulla/ Tanlangan asarlar: 2 jildlik.Jild 2. Pandlar, hikoyalar, nabiyalar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. – Toshkent:Ma'naviyat, 2009. – 38-b.
6. Erkaev A. Tafakkur erkinligi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2007.-7-b.
7. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni, 1998. – 33-b

### **TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN TEXNOLOGIK VOSITALARNI O'RGANISH USULLARI**

**Ismoilova Dilbar Mansur qizi**  
**Matematika – informatika fakulteti talabasi**  
**Absobirov Samariddin Qurbonovich**  
**Informatika kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ta'lim tizimlarining modernizatsiyasi, ta'limning sifatini oshirish va talabalar uchun o'zlashtirilgan o'quv jarayonini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalardan biridir. Bu doimiy ravishda yangi va o'zgaruvchan texnologiyalarning o'rganilishi, rivojlantirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi zarur. Texnologik vositalarni o'rganish usullari va ularning ta'lim jarayonida qanday ta'sir ko'rsatishi haqida nazariy va amaliy tushunchalar ko'rsatigan.

**Kalit so'zlar:** Online platformalar, kitoblar va elektron resurslar, praktika, proyektlar, forumlar, ta'lim tizimi, texnologik vositalar.

**Abstract:** Modernization of educational systems is one of the important tasks aimed at improving the quality of education and ensuring a mastered learning process for students. It is necessary to constantly study, develop and implement new and changing technologies. Demonstrates theoretical and practical understanding of the methods of learning technological tools and their impact on the educational process.

**Keywords:** Online platforms, books and electronic resources, practice, projects, forums, educational system, technological tools.

**Аннотация:** Модернизация образовательных систем является одной из важных задач, направленных на повышение качества образования и обеспечение освоения обучающимися процесса обучения. Необходимо постоянно изучать, разрабатывать и внедрять новые и меняющиеся технологии. Демонстрирует теоретическое и практическое понимание методов изучения технологических средств и их влияния на учебный процесс.

**Ключевые слова:** Онлайн-платформы, книги и электронные ресурсы, практика, проекты, форумы, образовательная система, технологические инструменты.

O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular

o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak.[1] Ta'lim texnologiyasi moddiy vositalar, jarayonlar va ta'lim va o'qitishni qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari uchun inklyuziv atamadir. Ta'lim texnologiyasi yuqori texnologiyalar bilan chegaralanib qolmaydi, balki aralash, yuzma-yuz yoki onlayn ta'limdan foydalanishda sinfda o'rganishni yaxshilaydigan har qanday narsadir[2]

Texnologik vositalarni o'rganish uchun bir necha foydali usullar mavjud. Bu usullar ta'limni rivojlantirish va o'quv jarayonlarini samaraliroq qilishga yordam beradi. Quyidagi usullar texnologik vositalarni o'rganishda ko'p foydalaniladigan texnologik vositalar va usullar jadvali keltirilgan.

1-jadval

Ta'limni rivojlantirishda quyidagi texnologik vositalardan hamda usullardan foydalanish mumkin.		
1	Online platformalar	Internetda bepul yoki to'lovli onlayn kurslar, veb-saytlar, forumlar va videolar orqali texnologik vositalarni o'rganish mumkin. Udey, Coursera, Khan Academy, va YouTube bu maqsadga muvofiq manbalardan ba'zilar kiradi.
2	Kitoblar va elektron resurslar	Texnologiyalar haqida kitoblar, elektron darsliklar va qo'llanmalar o'qish orqali bilim, ko'nikma va malakalaringizni rivojlantirishingiz mumkin. Amazon, Google Play Books, va OpenStax kabi onlayn platformalardan foydalanishingiz mumkin.
3	Praktika va proyektlar	Amaliy mashg'ulotlar va proyektlar orqali texnologik vositalarni o'rganish eng samarali uslidir. O'z navbatida o'zlashtirish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.
4	Texnologik mavzular bo'yicha vebinarlar va konferensiyalar	Onlayn vebinarlar, konferensiyalar va seminarlar texnologik yangiliklar va so'nggi rivojlanishlar haqida ma'lumotlarni olishingiz mumkin.
5	Praktik vosita yoki dasturlar	Masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanishingiz mumkin. Bu, Google Colab, Jupyter Notebook, Visual Studio Code, Python, R, MATLAB, C++, Java kabi dasturlash tillarini o'rganish va dasturlarni yozish imkonini beradi.
6	Forumlar va jamoatchilik platformalari	Reddit, Stack Overflow, va Discord kabi forumlar texnologik jamiyatlarda qatnashish va savollaringizga javob topish uchun yaxshi manba bo'lishi mumkin.

Bu usullardan bir yoki bir nechtasi yordamida, texnologik vositalarni o'rganishingiz va rivojlantirishingiz mumkin.

**Xulosa qilib aytganda,** ta'limni rivojlantirish uchun texnologik vositalarni o'rganish usullari muhimdir, chunki ular o'quvchilarga samarali va interaktiv ta'lim tajribasi taqdim etishda yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarning tushunish darajasini oshirish, ularni mustaqil o'rganishga yordam beradi. Multimedia elementlar, animatsiyalar va o'quvchi faoliyatlari orqali tushuntirilgan darsliklar o'quvchilarning masalalarni o'rganish va tushunishini oshirishda yordam beradi. Internet orqali o'tkaziladigan darsliklar va vebinarlar o'quvchilarga dunyo bo'ylab yetkazilgan tajribalardan foydalanish imkonini beradi va o'quvchi faol qatnashishini rag'batlantiradi. Bu usullar talabani o'rganish va ta'limni rivojlantirishda foydali texnologik vositalardir va ularni qo'llash ta'limning sifatini oshirishda yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov Sirojiddin Isroilovich. Ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. "Journal of new century innovations" №6 Volume-27\_Issue-6\_April\_2023.

2. Herold, Benjamin. "Technology in Education: An Overview". Education Week (2016-yil 5-fevral). 2016-yil 1-noyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2016-yil 31-oktyabr.

## TA'LIM JARYONI RAQAMLASHTIRISHDA, ANIMATSIYA VA MULTIMEDIANI O'RGANISHNING KRITIK AHAMIYAT

Xayriyeva Shahnoza Saydullo qizi

*Matematika informatika ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Arziqulov Husan Normurod o'g'li*

*Ilmiy rahbar: Informatika kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jaryonini raqamlashtirish jarayonida animatsiya va multimediani o'rganishning kritik ahamiyati o'rganiladi. Animatsiya va multimedia o'rganish, o'quvchilarning kreativlik, ijodiylik, kommunikatsiya, va texnik ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim bo'lib, ularning qiziqishlarini jalb qilish va texnik va texnologiyalarni o'rganishlariga yordam beradi. Bu ta'lim talabalarning tahlil qilish, tushuntirish, va kritik qarashlarni oshirishga ham ko'maklashadi. Bu maqola, animatsiya va multimedia ta'limining raqamlashtirilgan jarayonida o'quvchilarga rivojlanish, ijodiylik, va muammolar yechishda kritik ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Animatsiya, multimedia, kriteriya, kritik ahamiyati, raqamlashtirish, innovatsiya, ijodiy, kompyuter dasturlari.

**Abstract:** This article explores the critical importance of learning animation and multimedia in the digitization of education. Animation and multimedia learning are important in developing students' creativity, communication, and technical skills, and help them engage their interests and learn about techniques and technologies. This education also helps students to improve their analysis, explanation, and critical thinking. This article highlights the critical importance of student development, creativity, and problem-solving in the digitized process of animation and multimedia education.

**Key words:** Animation, multimedia, criterion, critical importance, digitization, innovation, creativity, computer programs.

**Аннотация:** В этой статье исследуется решающая важность изучения анимации и мультимедиа в условиях оцифровки образования. Анимация и мультимедийное обучение важны для развития творческих, коммуникативных и технических навыков учащихся, а также помогают им заинтересовать их и узнать о методах и технологиях. Это образование также помогает студентам улучшить свой анализ, объяснение и критическое мышление. В этой статье подчеркивается решающая важность развития учащихся, творчества и решения проблем в цифровом процессе анимации и мультимедийного образования.

**Ключевые слова:** Анимация, мультимедиа, критерий, критическая значимость, цифровизация, инновации, креативность, компьютерные программы.

Animatsiya - bu tasvirlarni yaxlit vizual idrok etishni ta'minlaydigan chastotali chizmalar yoki ramkalar ketma-ketligini namoyish qilish orqali kino, televizor yoki kompyuter grafikasidagi harakatning sun'iy tasviri. Lotin tilidan tarjima qilingan "anima" - ruh, "animatsiya" - jonlanish, animatsiya.[1]

Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-asrning boshlarida kirib keldi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izohlamoqdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediyaga shunday ta'rif berish mumkin: multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.[2]

Ta'lim jaryoni raqamlashtirishda animatsiya va multimediani o'rganish kritik ahamiyatga ega, chunki: Animatsiya va multimedia, o'quvchilarning qiziqishini jalb qilish va ularni o'z fikrini ifodalashga yordam beradi. Bu, ta'lim jarayonida motivatsiyani oshirish uchun juda muhimdir. Animatsiya va multimedia o'rganish, o'quvchilarning kreativlik va ijodiylik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular o'zlarining fikr va hayollarini ijodiy mahsulotga aylantirish orqali iste'mol qilish, yangi narsalarni yaratish va o'zlashtirishni o'rganishlari mumkin. Bo'ndan tashqari animatsiya va multimedia o'rganish, talabalarga texnik va texnologiyalarni o'rganish, masalan, kompyuter dasturlari, montaj dasturlari, tasvirlovchi dasturlar bo'yicha bilim beradi. Bu, ularning innovatsiyalardan foydalanish va yangi ko'nikmalar olishlari uchun muhimdir. Bundan tashqari

talabalarda tahlil va kritik qarashlar orqali, animatsiya va multimedia ustida o'rganish, talabalarga tahlil qilish, tushuntirish, va kritik qarashlarni oshirishga yordam beradi. Ular animatsiya va multimediani qoniqish qilish va uni to'g'ri tahlil qilish orqali o'z fikrini ifodalash va izohlashlari mumkin. Bu kriteriyalar, ta'lim jaryoni raqamlashtirishda animatsiya va multimedia ta'limining talabalarga rivojlanish, ijodiylik, va muammolar yechishda yordam berishga qaratilgan kritik ahamiyatidir.

**Xulosa qilib aytganda**, Ta'lim jaryonini raqamlashtirishda, animatsiya va multimediani o'rganish kritik ahamiyatga ega. Animatsiya va multimedia o'rganish, o'quvchilarga ijodiylik, kreativlik, va texnik ko'nikmalarini rivojlantirishda imkoniyatlar yaratadi. Ular qiziqishlarini oshirish, o'z fikrlarini ifodalash va texnik va texnologiyalarni o'rganishlari orqali innovatsiyalardan foydalanishlarini ta'minlaydi. Bu jarayon talabalarning tahlil qilish, tushuntirish, va kritik qarashlarni oshirishga ham ko'maklashadi. Animatsiya va multimediani o'rganish va uni to'g'ri tahlil qilish orqali o'z fikrini ifodalash, izohlash va qarashlarni ifodalash qobiliyatlarini oshadi. Shuningdek, animatsiya va multimedia o'rganish, talabalarda ta'lim jaryoni raqamlashtirish mavzusi bo'yicha bilim ko'nikma hosil qilishda yordam beradi. Ushbu ko'nikma, talabalarni kreativlik va ijodiylik sohasida rivojlantirish, ularni innovatorlik va muammolar yechishda yaxshi ko'nikmalarga ega bo'lishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Anvar Jumanazarovich Xurramov, Oybek Tog'aymurot o'g'li Rajabov ,Ravshon Otanazarovich Sultonov. Ta'lim jarayonida animatsiya va kompyuter grafikasidan foydalanish. " Academic Research in Educational Sciences" volume 2 | issue 11 | 2021 issn: 2181-1385

2. Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich, Eraliyev Yo'ldoshali, Qosimova Gulzoda ta'limda multimediali vositalardan foydalanishning pedagogik xususiyatlari „ Scientific Journal Impact Factor “VOLUME 2 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784

### **OILADA MUOMALA MADANIYATINI OSHIRISHDA AXLOQIY QADRIYATLARNING O'RNI**

**Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna f.f.fd.(PhD)**

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi dotsenti**

**Erkinova Rayhona Eldarovna**

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi**

**3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda o'zbek xalqining muqaddas maskani sanalgan oilaning o'ziga xos falsafiy jihatlari, undagi oilaviy muomala madaniyati bilan bog'liq qarashlar falsafiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Unda oilada farzandlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ota-ona, mahalla, jamoatchilik nazorati bilan uyg'un jarayonlar ifodalaniib, oilaning har bir a'zosini milliy qadriyatlarga monand tarbiyalash masalalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, yoshlar, jamiyat, o'zbek oilasi, farzand, axloqiy qadriyatlar, ma'naviyat, dunyoqarash, muomala madaniyati, ota-ona.

**Аннотация:** В статье рассматриваются уникальные философские аспекты семьи, которая сегодня считается священным местом узбекского народа, и взгляды, связанные с культурой семейного поведения в ней, как объект философского исследования. В ней процессы формирования нравственных ценностей при воспитании детей в семье выражаются в гармонии с контролем родителей, соседства и общественности, а также вопросы воспитания каждого члена семьи в соответствии с национальными ценностями. раскрываются.

**Ключевые слова:** семья, молодежь, общество, узбекская семья, ребенок, нравственные ценности, духовность, мировоззрение, культура поведения, родители.

**Annotation:** The article examines the unique philosophical aspects of the family, which is considered the sacred place of the Uzbek people today, and views related to the culture of family behavior in it as an object of philosophical research. In it, the processes of developing moral values in the upbringing of children in the family are expressed in harmony with the control of parents, the

neighborhood, and the public, and the issues of educating each member of the family according to national values are revealed.

**Key words:** family, youth, society, Uzbek family, child, moral values, spirituality, worldview, culture of behavior, parents, peace.

**Kirish.** Har bir xalqning ijtimoiy taraqqiyot jarayoni shakllanib kelgan falsafiy tafakkur dunyosi o'ziga xos oiladagi muomala madaniyati orqali o'zligini namoyon etib boradi. Oiladagi bunday mustahkam munosabatlar muvaffaqiyatli amalga oshishida muloqot asosiy vazifani bajaradi. O'zbek xalqining asrlar davomida o'zbekchilikka mos tarzda rivojlangan oilaviy muomala madaniyati bugungi kunda ham o'zining zalvorliligi bilan ajralib turadi. Undagi har bir axloqiy qadriyatlar farzand tarbiyasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan muomala madaniyati asosida milliy mentalitetga mos voqelik negizida namoyon bo'ladi. Uning umrboqiy qiyofasini qardosh xalqlar bilan uyg'unligi muhim sanaladi. "Markaziy Osiyo yoshlari o'rtasida doimiy muloqot maydonini tashkil etish, qardosh xalqlarning yuksak axloqiy qadriyatlari va beqiyos ma'naviy merosini asrab-avaylash, ularni yanada boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishga ko'maklashadi"[1].

